TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QOZOQ ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI

81

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QOZOQ ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI

81

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.122-3
KBK 83.3(5Qoz)
Q 54

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Melibоyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova,
Umid Hayitov, Tursinali Ahmedov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Tursinali Ahmedov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8570-8-7
©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

ASR MANZARALARI

Bir et, bir tirnoq kabi hayot kechirayotgan o'zbek va qozoq xalqlari asrlar davomida bir-birini hurmatlab, bir-biriga muhabbat bilan yashab kelmoqda. Tarixiy ildizlari bir tuproqda yaralgan qozoq va o'zbek adiblari mushtarak madaniyat va mentalitetni saqlab, o'z dunyoqarashini, hayot falsafasini yaratdilar. Demakki, ikki xalqning ma'naviy tarixini aks ettirgan adabiy asarlarda ham borliqni idrok etishdagi o'xshashlikni ko'rish mumkin. Bunga qo'lingizda bo'lgan ushbu kitobni o'qish orqali to'la-to'kis ishonch hosil qilasiz.

Jahon adabiyotida bo'lgani kabi qozoq adabiyotida ham hikoya janri o'ziga xos xususiyatlarga ega nasriy janr sifatida e'tirof etilgan. Ma'lumki, bir katta voqea asosida qissa yoki uzoq tarixiy davr va ko'plab personajlarni qamrab olgan roman yaratgandan ko'ra, hikoya yozish muallifdan ulkan mas'uliyat va katta mahorat talab qiladi. Chunki yozuvchi o'zining kichkinagina asari orqali ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan katta muammolarni ko'tara olishi, adabiyotning asosiy obyekti bo'lgan insonning xarakteri, ichki tuyg'ularini imkon qadar to'la ochib berishi kerak.

Insoniyat yaralgandan beri ijtimoiy hayotda qanchadan qancha evrilishlar jarayoni yuz berdi. Buning natijasida hayotga, tabiatga, jamiyatdagi voqelikka bo'lgan munosabat o'zgardi. Odamzodning moddiy hayoti to'kislanib, madaniy turmushi yaxshilandi. Ammo azaliyatning bir muammosi borki, bu hamma davr uchun dolzarb va jumboqli masala hisoblangan. Bu insonni tushunish, qalbini anglash muammosidir. Barcha gumanitar fanlar inson qalbi va unda kechayotgan turli ruhiy-psixologik jarayonlarning mohiyatini tadqiq qilish, odamzod qalbi jumboqlarning yechimini topishga qaratilgan bo'lsa-da, boshqa fanlar bilan qiyosan tahlil qilinsa, bu fan sohasi hali ko'p narsaga erisha olmadi. Buning ma'lum obyektiv va subyektiv sabablari borki, ular davr evrilishlari va kishilar ruhiyatidagi murakkab holatlar bilan bog'liqdir.

XX asrda qozoq nasri, jumladan, qozoq hikoyalari ham muhim rivojlanish bosqichini bosib o'tdi. Jusipbek Aymauitov, Muxtor Avezov, Beyimbet Maylin, G'abit Musrepov va boshqa mumtoz adiblar hikoya janrining go'zal namunalarini yaratdilar. Keyinchalik bu janrning yana ham rivojlanishiga Sherxon Murtazo, Sayin Muratbekov, O'rolxon Bo'key, To'lan Abdik kabi yozuvchilar katta hissa qo'shdi.

XX asr oxiri va ayniqsa XXI asr boshlariga kelib, qozoq adabiyotida hikoya janri uchun eng qulay davr boshlandi desak, adashmagan bo'lamiz. Qozoq milliy davlatchiligi taraqqiyotida yangi bosqichning boshlanishi natijasida jamiyatda demokratik va iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi, jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuv boshlandi. Yangi davr yuzaga keltirgan tasavvur va dunyoqarashdagi yangilanishlar mohiyatini anglash, hayotni turli rakurslarda kuzatish, inson ruhiyatida kechayotgan jarayonlarni sintez qilish, uning ongosti va ongusti jarayonlarini psixoanalitik yechimini topish, chuqur psixologik holatlarning badiiyat mantig'iga solish ijodkorlar oldiga ulkan vazifalarni qo'ydi. Bu ma'lum ma'noda adabiy janrlar o'rtasida "raqobat"ni vujudga keltirdi va unda hikoya janrining "oti" olg'a yura boshladi. Jamiyatdagi murakkab va jadal o'zgarishlar yozuvchilardan zamonning haqiqatlariga tezkor munosabat bildirishni talab qildi. Adabiyot ixlosmandlari ham katta hajmdagi asarlardan ko'ra "tilga yengil, yurakka iliq" (Abay satri) bo'lgan kichik janr — hikoyani ma'qul ko'ra boshladi.

XXI asrga kelib jamiyat ongida o'sish, dunyoqarashda globallashuv paydo bo'lishi natijasida kichik nasriy janr yangi cho'qqilarga ko'tarilib, milliy adabiyotga yangicha obrazlar, yangi sujetlar kirib keldi. Shu kungacha qozoq nasrida faol bo'lgan Muxtor Mag'avin, Marhabat Boyg'ut, Moldaxmet Qanaz, Tinimboy Nurmag'ambetov, Quanish Jiyenbay kabi adiblar safi Duman Ramazon, Didar Amantay, Saken Sibanboy, Madina Omarova, Beybit Saribay, Qanag'at Abilqayir kabi keyingi avlod adiblari bilan to'ldi. Shu tariqa qozoq adabiyoti yangi nom va yangi ohang, uslub, qarashlar bilan boyidi.

Qozoq nasri antologiyasiga kiritilgan hikoyalarni jamlashda ushbu kichik va muhim janrning qozoq adabiyotidagi taraqqiyot yo'lini, janr rivojiga hissa qo'shgan adiblar merosini imkon qadar to'liq aks ettirishga harakat qildik. To'plamdagi hikoyalarni o'qib, qozoq jamiyatining o'tmishi va bugungi kunining qaynoq nuqtalarini, jamiyatdagi yangilanishlar, milliy tafakkurdagi o'zgarishlarni sezish mumkin. Masalan, Sherxon Murtazoning "Xadicha buvi" hikoyasidagi: "Hademay urush boshlanishini qayoqdan bilibmiz... Ulbo'sinning ham eri urushga ketib, qora xat keldi... Yolg'izgina o'g'li bor edi, hozir o'sha o'g'li azamat bo'lgan. Ulbo'sin o'g'lining qo'lida... Bu ham yaxshi. O'rnida bor o'ngalar, degani shu-da!" degan satrlardan Ikkinchi jahon urushi yaralaridan endigina tuzala boshlagan jamiyat qiyofasini his qilasiz. Saken Sibanboyning "Sen qanchalar shirinsan, hayot!" hikoyasidagi keksa buvining: "Bola-chaqaning o'rtasida gurunglashib o'tirish ham bir g'animat choq ekan, ajab! Mana shu kunga yetkazgani uchun Allohimga ming marta shukurlar! Astonadagi evara kelinim omon-eson bo'shanib, oyoq-qo'lini bag'riga olsin! Yaratgandan yolvorib, o'tinib o'tiraman. Xudo umr bersa, o'sha chevaramni ko'rmasdan go'rga kirmasman. O'sha farishtaginani beshikka o'z qo'lim bilan belasam bo'ldi, boshqa murod-maqsadim yo'q", degan tilagidan esa inson hayotini oliy qadriyat deb e'tirof etgan bugungi davrning asosiy pozitsiyasini ko'rishimiz mumkin.

Buyuk qozoq shoiri Abay Qo'nonboyev hayotining so'nggi kunlari haqida yozilgan Duman Ramazanning "G'ussa" nomli hikoyasi esa o'zgacha bir olam. Asardagi voqea go'yo eskidek, Muxtor Avezovning Abay haqidagi romanlaridan keyin bu haqda biror narsa yozishning o'zi imkonsizdek tuyuladi. Aslida esa bu mavzuda hali yoziladigan, yozilishi kerak bo'lgan asarlar ko'pligini ushbu hikoyani o'qibgina tushunasiz. Ha, mavzu eski voqelikdir, lekin hikoyani o'qib yangi dunyoqarash ila butkul o'zgacha xulosalar chiqarish imkoniga ega bo'lamiz. Abayning so'nggi kunlariga nafaqat sevimli farzandining qazosi, balki qozoq xalqining boshiga yopirilib kelayotgan qora bulutlar ham o'z soyasini solgan edi. Buni hikoyadagi quyidagicha dialoglardan ham bila olamiz:

“Erkajon tobora achchig‘lanardi. Abay esa to‘nini yelkasiga tashlagan holida jimgina o‘tiraverdi. Ular ko‘zlari ko‘rgan kitoblarni, gazet-jurnallar va qo‘lyozmalarni o‘rtaga yig‘ishdi.

— Ibrohim janoblari, biz bularni Semeyga olib ketamiz. Sinchiklab tekshirib, keyin o‘zingizga qaytarib beramiz, — dedi mo‘ylovini burab.

Abayning avzoyi buzildi.

— Nima qilmoqni istasanglar hech kimning to‘sqinlik qilolmasligini bilib turibsan-ku. Faqat anavining ichida o‘lanlarim bor. Loaqal shuni tashlab ketinglar! — ovozi amrona eshitildi. Zobitning qoshi chimirildi.

— Ibrohim janoblari, buyruq shunday, — dedi ta’kidlab. — Xotirjam bo‘ling, yarim bet qog‘ozingiz yo‘qolmaydi”.

Zamon o‘zgaradi, jamiyatlar, qadriyatlar o‘zgaradi. Lekin xalqning ruhiyatida o‘zgarmaydigan jihatlar bor. Bu uning milliy va ma’naviy qadriyatlari. Ana shunday qadriyatlardan biri — Vatanga, tug‘ilib o‘sgan ona diyorga bo‘lgan muhabbat hissidir. Shu jihatdan antologiyadagi Moldaxmet Qanazning “Yovshan hidli tezyurar poyezd” hikoyasini ham alohida e’tirof etib o‘tishimiz zarur. Ushbu asardagi “Shu safar Arg‘imaqmertikkenni juda sog‘inib ketdi. Oldi tun bo‘lganlikdan poyezd yurar-yurmas tars burkanib yotib oldi-da sahar-mardon turdi. Tug‘ilgan yerga yaqinlashgan sayin havo tozarib, kengayib faqat o‘ta ziyrak odamlargina tushuna oladigan sariq dalaning yoqimli shamoli bir essin-a, bir essin. Yovshanning qishqil hidi temir vagonning burchak-burchagidan yelib esib, tosh tepasidan butun vujudiga tarab, o‘zini benihoyat yengil sezindi. “Xuddi yosh boladay”, degan satrlarni o‘qiganingizda aslida umuminsoniy qadriyat sifatida ona tuproqni sevish hissini ayni qozoq xalqi badiiy tafakkuri ila yo‘g‘rilgan holda yuragimizdan o‘tkazamiz. “Yovshan hidi — ona Vatan hidi”, degan naqlning bejiz aytilmaganini yana ham aniqroq his qilamiz.

Mazkur to‘plamga ayrim sabablarga ko‘ra qaysidir adiblarning ijodidan namunalar kiritilmay qolgani bu kitob aslida keyingi qilinadigan ishlarning ma’lum bir bosqichi ekanligini tasdiqlaydi. Kelgusida qozoq nasrining muhim qismi bo‘lgan hikoya janrida qalam tebratgan va tebratayotgan qardosh adabiyot vakillarining badiiy

merosiga yana ham teranroq nazar tashlashga bo‘lgan harakatlarimizni davom ettiramiz. Bu borada ushbu to‘plamni tayyorlashda o‘z fikr-mulohazalari bilan yaqindan ko‘mak bergan Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasi raisi Ulug‘bek Esdavlat, uyushmaning mas’ul xodimlari Bag‘dot Muborak, Yerjon Alashtug‘an kabi adib va shoir og‘alarimizga samimiy minnatdorchilik bildiramiz.

Alimurod Tojiyev,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

G‘ABIDEN MUSTAFIN

(1902–1985)

G‘abiden Mustafin 1902-yil 24-noyabrda Qarag‘anda viloyatining Buxor jirov tumanida tug‘ilgan. Ilk hikoyasi “Sarsen va Bo‘kash” (1927) “Yil qushi” jurnalida bosilgan. Birinchi hikoyalar to‘plami “Er Shoyin” nomi bilan nashr etilgan (1929).

1940-yilda uning Qarag‘anda konchilari hayoti haqida yozgan “Hayot yo o‘lim” nomli birinchi romani nashr etilgan. Keyinchalik shu mavzuda “Qarag‘anda” (1952) romanini yozdi. “Chig‘anoq”, “Dovuldan keyin” romanlari, “Millioner” qissasi qishloq hayotidagi jiddiy o‘zgarishlarni tasvirlashga bag‘ishlangan. Uning so‘nggi murakkab asari “Ko‘z ko‘rgan” romanidir.

TUG‘ILIB O‘SGAN YERDA

Kengga keng dunyo, torga tor dunyo. Yaxshiga ham, yomonga ham kindik qoni to‘kilgan ona diyor aziz va mo‘tabar.

Chavkar otli bir yo‘lovchi tepalikka ko‘tarilganda, o‘zi tug‘ilib o‘sgan ko‘hna yerni qayta ko‘rganda qalbi cheksiz mehr-muhabbat tuyg‘usi bilan to‘lib-toshdi. Hamma narsa tanish, hamma narsa iliq...

Yog‘ochni ot qilib minib, yoydan o‘q uzib, oshiq o‘ynab yurgan, qiz uzatib, kelin tushirib, ko‘pkar chopib, kurash tushishgan bu yer o‘sha bolalik davrini beixtiyor esga tushirardi...

Mana uning shu tepalikka chiqib tevarak-atrofni tomosha qilmaganiga roppa-rosa o‘n besh yil bo‘ldi. Shu davr ichida bu dala tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib ketibdi. Qarshisida Nurasoyi, Bo‘taqora g‘ira-shira ko‘zga tashlanadi. Mana uning ko‘z oldida Jaur tog‘. Nurasoyi bilan Bo‘taqoraning oralig‘i yaxshi otda yurilsa, bir kunlik yo‘l. Mana endi Nurasoy, bu yer esa katta shahar bo‘lib ketibdi. Bu qanaqa shahar, bu qanday soy deb hayron bo‘lasan, kishi.

Balekeng sekin xirgoyi qiladi. Shu o'zgarishlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, o'z boshidan kechirgan bu keksa faqat kon injenerigina emas, shu ulug' o'zgarishlarning ham jonli guvohidir. Agar u gapirsa, hammasini bir boshdan aytib beradi.

— Ko'mirning karomati-ku bu, chirog'im... — deb boshlaydi u gapini...

Biz ko'tarilgan tepalikdan tevarak-atrof xuddi kaftdagiday, juda aniq ko'rinadi. Qarag'anda orqada: ilgarilari, bepoyon, keng dalada, bir ovulning o'rniday keladigan joyda faqat birgina truba qaqqayib turardi. Endi bo'lsa shu trubaning atrofiga ne-ne qurilishlar tushgan, baland-baland chiroyli, muhtasham binolar qad ko'targan. Ko'hna Qarag'andaning Buqma, Qizilquduq, Oqquduq, Qampan degan qishloqlari shahar bilan tutashib ketgan. Qarag'anda hozir Nura yoqalab, oxiri Sherubay Nuraga borib taqaladi. Ikki Nuraning orasi bir kunlik yo'l, ilgarilari bu yer Oltoy urug'ining makoni bo'lgan. "Arg'in bo'lsang Oltoy bo'l", degan matal hozirgi Qarag'andaga atab aytilganday bo'lib tuyuladi. Xizmatkor, yilqichi Oltoy degan yigit butun jahonni kezib chiqib, oxiri mana shu bitmas-tuganmas qora oltinga ega bo'lgan.

— Biz qarag'andalikmiz. Qarag'anda bizning yerimiz, — degan so'zni odamlar faxr bilan aytishadi. Tug'ilib o'sgan yerning bugungi ko'rkiga qarab turib, men ham o'zimcha maqtanib qo'ydim.

— Qarag'andaning qon tomiri, yuragi mana bu, — deb Balekeng faxr bilan ko'm-ko'k dengizni ko'rsatadi. Uzunligi 25–30, eni 4–5 kilometr keladigan bu dengizning o'rtasidagi "Kindik tepaning" faqat uchigina ko'rinadi, xolos. Bek O'razbek ovullarining qarshisidagi qishlovlari, Qo'tir qishlovi suv tagida qolgan.

Qo'tir tog'ini suv uch tomondan o'rab olgan. Nura Nura bo'lgandan buyon necha-necha marta toshgan. Biroq hech qachon bunday dengiz hosil bo'lgan emas, sohilni buzib tepalikka qarab oqqan emas. Qarag'anda baland tepalikda yastanib yotibdi. U Nuradan qo'sh truba orqali kecha-yu kunduz suv tortadi. Bir truba yer tagida, butun Qarag'andani sug'oradi. Ikkinchi truba osmonda, elektr quvvati tortadi, Qarag'andaning hamma mexanizmlarini yurgizib turibdi. Ikki trubaning kindigi — Qarag'andaning elektr stansiyasi QarGRES.

QarGRES — o‘jar, asov tabiatni jilovlashning yorqin guvohidir. Necha asrlar davomida bo‘y bermay kelgan asov Nura beshta mustahkam to‘g‘onga bo‘ysundi. Beshtasida beshta soy suvining kuchi bor. Bahorgi toshqin paytlarida Nura to‘lqinlanib, mavj urib oqsa ham, inson qo‘li ishlagan beshta to‘g‘onni o‘rnidan qimirlata olmay qirg‘oqqa borib uriladi. Bebosh to‘lqinlar asrlardan buyon qad ko‘tarib turgan baland-baland qoyalarni yemirib tashlagan bo‘lardi-yu, biroq inson qudrati uni jilovlab qo‘ydi.

Kun botish tomonga qarab bir necha kilometrga cho‘zilib ketgan “temir nav” Nura soyining to‘lqinlarini qa’riga tortib ketardi. Uning ikki tomoni keng poliz, huv anavi Sirg‘aboy tepaligiga qadar cho‘zilgan keng, ko‘m-ko‘k dala hosilga boy. Nura suvi azim Qarag‘andanigina emas, butun dalani gullatib-yashnatib yuborgan...

Kun botish tomondagi shu yam-yashil, ko‘rkam dala bilan kun chiqish tomonning tog‘ etagidagi Nura o‘rtasida ajoyib bir go‘zal shahar qad ko‘targan. Shaharning ko‘p qavatli, hashamatli uylari bor, ularning atrofiga chiroyli qilib tol ko‘chatlari o‘tqazilgan. O‘rtada katta bog‘...

Bu ko‘rkam shaharning tez o‘sganligi shunchaki, yerli xalq unga ot qo‘yishga ham ulgurmagan. Birovlar — “QarGRES”, “Qazmetalzavod” deyishsa, ba’zilar “Samarqand” deb atashadi. Bir shaharni uch nom bilan atashlari bejiz emasdi. Dahshatli urush yillari Nurani dengiz, Qarag‘andani qudratli kuchga aylantirgan QarGRES shu shaharda. Bu shaharni barpo etuvchilar uni o‘zlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining nomi bilan atashadi. Qozog‘istonda qora metallurgiyaning eng zo‘ri — “mana menman” degan korxonalar ham shu shaharda. Ularni qurganlar ham uni o‘z korxonalarining nomlari bilan atashadi. “Samarqand” — qadim vaqtlarda shu shaharning o‘rnida bo‘lgan kichkinagina qishloq, u shunchaki, odat bo‘yicha tilga olinib qolgan. Aslida, hammasining ham otaxoni Nura. Shaharning nomi Nura bo‘lsa, hamma ham rozi bo‘lardi.

Suvdan bug‘ olib, bug‘ning kuchi bilan elektr quvvati berayotgan QarGRESning ichi turli-tuman asbob-uskunalarga liq to‘la. Texnikaning murakkab mexanizmlarini so‘z bilan ta’riflash shunchalik qiyinki, hatto o‘t yoquvchining o‘t yoquvchiligidan

ham asar qolmagan, qiyofasi butunlay o‘zgarib ketgan. Ko‘ksida orden yaraqlagan qozoq yigiti muhtasham, shinam binoda o‘tiribdi. Oldida yarqiragan taxta, taxtaning betida son-sanoqsiz jimirlagan knopkalar, o‘lchov asboblari... Binoning ichi murakkab asbobuskunalarga to‘la, bu bino ilmiy-tekshirish laboratoriyasiga, yigit esa olimga o‘xshardi. Direktor Mixaylenko shunda ham bizlarga o‘sha yigitni “kochegar” deb tanishtirdi. Kochegar degan yigitning qo‘lida uzun temir kosov, ko‘zida ko‘zoynak. U pishillagan ulkan qozon, lovillab yonayotgan alanga bilan qora terga tushib olishib yotibdi. Bu kochegar kabinetda o‘tirgan direktor Mixaylenkodan ham yaxshi kiyingan, pokiza, usti-boshida gard yo‘q.

— Yangi texnikani ta’riflashga lug‘atimizdagi so‘zlar kamlik qilyapti shekilli, — deb kulishdik bizlar.

— Kochegar emas, mashinist deyish kerak, — deb kombinat boshlig‘i Rachev to‘g‘rilagan bo‘ldi. Bu gap unga qanday tuyulganini bilmayman-u, ishqilib, texnika taraqqiyoti — tilning taraqqiyotini bildirishi, elektr quvvati — hamma ishning, madaniyatning kaliti ekanini mana shu kochegarning o‘zi isbot qilib turibdi. Shu muhtasham, yorug‘ binodagi yigitning birgina o‘zi butun stansiyaning mexanizmini yurgizib turibdi. Shunchalik murakkab mexanizmni bir kishi boshqarib turganiga qaramay Rachev ishchi kuchi yetishmaydi, deb noligani noligan.

“Mehnat unumdorligini yana o‘n foyzga ko‘taramiz!..” degan so‘zlar yozilgan shiorlar devorlarga osib qo‘yilgan, hamma xizmatchilar shu hakda gaplashishadi. Iyun oyida ilg‘orlarning majlisi bo‘lib, unda bayramoldi musobaqasiga yakun yasaldi:

“... Ikki yuz yetmish tonna ko‘mir qazib chiqarildi. Shu vaqt ichida bitta ham avariya bo‘lgani yo‘q. Remont ishlari muddatidan ilgari tamomlanib yaxshi baho oldi. Ikkinchi agregatni o‘rnatish ishlari ham grafikda mo‘ljallangan vaqtidan ilgari tamomlandi. Mehnat unumdorligi o‘n bir protsentga ko‘tarildi...”.

Ilg‘orlar barcha imkoniyatlarni hisoblab chiqishib, o‘n bir xil majburiyat olishibdi. Shulardan biri — ikkinchi raqamli qozon bilan, ikkinchi raqamli turbogeneratorni o‘rnatishdir. Bu — stansiya quvvatini oshirish uchun ko‘rilgan tadbir. Boshqa majburiyatlar

odam bo‘lib chiqadi. Albatta, bu tinchliksevar sovet fuqarosi soldat shinelini kiyib, qo‘liga vintovka olgandan keyin birdaniga askarga aylanib qolgani yo‘q.

O‘shanday er o‘g‘lon oddiy odamlardan biri General Panfilov ikki yarim-uch oyning ichida jangovar guruh tuzdi. Bu vzvod yoki rota emas, polk ham emas, balki butun bir diviziya bo‘lib, bu — Panfilovning buyuk ishi edi. U 8-gvardiya diviziyasini g‘alabalarga yetkazdi.

Panfilov urush san’atining ustasi edi.

U jang san’ati va usullarining mohir bilimdoni, maydonda mard, urush ilmida yangilik yarata oladigan yuksak aql sohibi edi. Urushlarda dushmanning generallari ustidan g‘alaba qozona oldi, ular ustida o‘z rejasini qanday amalga oshirishni puxta o‘yladi, dushman qo‘shinlari zaif nuqtalariga zarba bera oldi, janglarning asosiy nuqtalariga halokatli hujumlarni amalga oshirdi.

U odamgarchiligi kuchli, axloqli general edi. Soldatlarni juda hurmat qilar, ularning insoniy xislatlarini yuqori baholar edi. Ivan Vasilevich barcha millat vakillariga teng munosabatda bo‘lar edi. O‘zi mansub bo‘lgan rus millatini chin dildan sevar, uning qadriyatlarini yaxshi bilar, ular bilan faxrlanardi. Shu nuqtai nazardan qaraganda u boshqa xalqlar qadriyatlarini ham hurmat qilardi.

— O‘z millatini qadrlamagan, u bilan g‘ururlanmagan odam chindan ham xor, makonsiz, beqaror va baxtsizdir, — deydi Panfilov.

U bizning 8-gvardiya diviziyasida ruslar, qozoqlar, qirg‘izlar, ukrainlar, o‘zbeklar bir onadan tug‘ilganday qo‘lni qo‘lga berib, yovga qarshi kurashdi.

Agar men o‘zimizning general haqida maqola yozib qolsam, bu maqolani mana bunday qismlarga bo‘lib olar edim: farosatli general, mulohazali general, saxovatli general, tajribali-tadbirli general, qat’iyatli general, sokin general, o‘z so‘zida sobit turuvchi general.

Panfilov o‘zining zobitlarini taktikada moslashuvchan bo‘lishga odatlantirdi. Bilagi baquvvat, bir odamni yiqitadigan soldat bo‘lishdan ko‘ra aqli bilan mingni yiqitadigan soldat bo‘lishga o‘rgatdi.

Qo‘mondon — qo‘shinning aql-u ongi, jang va g‘alabaning tashkilotchisi. U aql-zakovat ishchisi.

1941-yil kuzida panfilovchilar Moskvani himoya qilish uchun chiqishdi. Bitta gvardiyachi askar oltita gitlerchi gazandalarga qarshi turdi. Dushmanning ko'p osnli bosim kuchiga qarshi bo'lgan bu urushga butun dunyo nazar solib turardi. Bu urushda biz yovni yengib chiqdik. Sonimiz bilan emas, mahoratimiz bilan g'alaba qozondik, chunki urush komandirlarimizning qo'llagan jang usullari asosida amalga oshirildi. Qozoqlarning "Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni yiqar" degan maqoli bekorga aytilmagan.

Harbiy o'tkir nigoh, qat'iy, biroq rost tanbeh, hissiyotlarga tega oladigan ta'sirli so'z qo'mondonning kuchli quroli bo'lishi kerak.

Askarni tarbiyalash va boshqarishning kuchli vositalaridan biri bu sarkardaning shaxsiy namuna bo'lishidir. Uning ko'rsatadigan namunasi namoyish qilish, maqtanish uchun emas, askarning ich-ichidan havasini keltiradigan bo'lishi kerak.

Qo'mondonning asosiy vazifasi — askarni mard etib tarbiyalash, unga harbiy texnikani, jangovar mahoratni o'rgatishdir. Generalimiz aynan ana shunday sarkardalarni tarbiyalagan.

Harbiy san'at sirlarini o'zlashtirgandan keyin sovetning sodiq fuqarosi jangchi askar bo'ldi. Biroq u urushdan avvalgi kabi sodda, mehnatkash, kamtarin inson bo'lib qolaverdi. U qora sochli o'g'lini, quralay ko'zli qizini avvalgiday jonidan ham yaxshi ko'rar edi, xotiniga ko'ngil sirlarini bitib xat yozadi, unga o'z muhabbati, quvonchlarini ham qo'shadi, shu chog'da quyosh nurini his qilganday bo'ladi. Yig'lagan paytlari ham bo'ladi. Jangchi o'rtog'ining jasadini qabrga qo'yayotganda iztirob bilan ko'z yosh to'kib yig'laydi. Ko'ngli to'lib ketganda chuqur o'yga botadi, anduh chekadi. U ham charchaydi, axir uning ham ko'ksida biznikicha keladigan yurak urib turibdi.

U o'zining odamgarchilik xislatlari, dunyodagi birdan-bir boyligi — ona Vatanining bag'rida mehnat qilish, ilm egallash huquqlari borligi bilan faxrlanadi. U qul emas, birovga qaram emas, u o'zining hayotini, baxtini, o'z nomusini joni bilan, qoni bilan qo'riqlaydi. U o'zining yurtdoshlarini tug'ishganlarday biladi, jonday yaqin ko'radi.

Bu erkin Vatan fuqarosining faxridir. Bu o'zi bilan g'ururlanish orqali urushda qahramonlik va mardlik tuyg'ularini jo'shtiradi.

"Jonim orim uchun sadqa bo'lsin", "Uyat o'limdan kuchli", — deydi qozoq xalqi.

Askar — birovning yori, birovning akasi. Fashist uning oilasiga, baxtiga changal soldi. Fashist uning o'zini o'ldirgisi keldi. Odam hamisha hayotni tanlaydi, o'lim uchun emas, tirik qolish, yashash uchun urushga chiqadi.

Nemis yaqinda turibdi, lekin askar uni yuzma-yuz ko'rgani yo'q. Unda ikki tuyg'u mavjud bo'ladi — qo'rquv va burchini bajarish tuyg'usi. Qaltis vaziyatda u shoshilinch urushga chiqadi. Bu yerda unga juda qiyin, har bir vaziyat uchun alohida yechim kerak. Eng vahshiy hayvonlar ham bunday yirtqichlik qila olmaydi. Agar senda qo'rquv tuyg'usi yengib chiqsa — qo'rqoq bo'lganing, burchingni bajarish hissi yengsa — botir bo'lganing. Qo'mondon askarlarning ko'ngil kechinmasi va yurak sezimini payqay bilishi kerak. U jangchilarda, agar askarcha jasorat mavjud bo'lmasa, hech narsaga erishib bo'lmasligini anglashi lozim.

Dunyoda qo'rqmaydigan odam bo'lmaydi. Ikki yarim yil davomida men o'zim bunday odamni ko'rgan emasman. Odam tug'ilishdan botir bo'lmaydi, botirlik — harbiycha jangovar tarbiyadan paydo bo'ladi.

Bu tarbiyaning mazmun-mohiyati harbiy hayotda duch kelgan qiyinchiliklar va ruhiy zo'riqishlarning bariga qadamma-qadam bardosh berish, yurakdagi qo'rquv tuyg'usini yengib o'ta olishdir.

Jangdagi askar hamisha o'zini saqlashga intiladi, yashab qolish umidi uning yurak olovini alangalatadi. Biz aytayotgan qahramonlik, mardlik urush maydonida namoyon bo'ladi. Dushman deganimiz — yetti boshli ajdarho emas, oddiy odam ekanini, o'q bilan nayza uning ham tanasini teshib o'tishini o'z ko'zi bilan ko'rganda, askar qo'rquv tuyg'usini yengib, o'zining tirik qolishi uchun yovni o'ldirishga intiladi. Shiddatli jangda o'lim haqida fikr bo'lmaydi, butun to'siqlarni ayovsiz yengib o'tish va tirik qolishga qat'iy intilish bo'ladi.

"Urush davomida tajriba orttiring va chiniqing. O'lishga shoshilmang, jang qilishni o'rganing", deydi Ivan Vasilevich Panfilov. Bu donishmandona tamoyilga bizning gvardiyachilar hamisha qat'iy amal qiladilar. Jangda halok bo'lganlarning o'rniga kelgan

yangi askarlar ushbu o'git asosida jang sirlarini o'rgana boshlaydilar. Panfilovchi gvardiyachilar urushlarda o'sib er yetildi, urushda chin botirlik maktabini o'tab, chiniqdi. Biz chinakam sevgi va nafrat nima ekanini his etdik. Yashash uchun kurashda biz qo'rquvni yengishni o'rgandik.

Bizning diviziyada ommaviy qahramonlikning mashhur shonli dasturi paydo bo'ldi. Panfilovchi 28 nafar gvardiyachi Volokolamsk tosh yo'lida 50 ta tank mashinasiga qarshi urushga chiqdi. Bu ommaviy qahramonliklarning yorqin bir namunasi edi. 11, 16, 20, 50, 100 panfilovchi, butun diviziya shonli qahramonlik bilan dong taratdi. Panfilov jangchilari urush maydonida yovni sonsiz qirdilar, istagan yovuzligini qilganlari uchun o'ch oldilar, qonga qon, jonga jon oldilar.

Bunday jangchilar dushmanning ichini tushiradi. Biroq panfilovchi — hozir ham avvalgiday yaxshi odam. Hozir ham maydonning oldingi safidalar, vaqti juda oz bo'lsa-da, yangi yil oldidan ayollariga, onalariga, bolalariga tabrik xatlar yozib, salom yo'llashlarini men yaxshi bilaman. O'sha yangi yil oldi xatlarida safdoshlarim yaqinlariga bo'lgan butun mehr-muhabbatlarini, bor his-tuyg'ularini bayon qilishadi.

Ardoqli yurtim, tuqqan elim! Sizlarni 1944 — Yangi yil bilan tabriklayman. Shu qatori, Yangi yilga tilak deganday, chin qalbimdan, oq niyat bilan barcha yaxshi niyatlarimni bildirgim keladi.

Bu yangi yil urush maydonida yurgan elimiz yigitlarini, xalq qahramonlarini ota-bobolarimizning ruhlari qo'llab, el nomusi madad bo'lib, qonli fashistlar jonini jahannamga topshirgan, kuli ko'kka sovurilgan, dushman yengilgan ulug' va barakali yil bo'lsin.

Bu yangi yil maydondagi Qozog'istonning frontdagi erkaklari omon va mard bo'ladigan, dushmanni yengadigan, urushni tugatib, uyga sharaf bilan qaytadigan, aka-uka, opa-singillarni, qarindosh-urug'lar, farzandlarini uyda xursandchilik bilan ko'radigan yil bo'lsin.

Joriy yil elimizga, yurtimizga tinchlik o'rnab, xalq quvonchi qo'yniga sig'may — katta to'y-u bayramlar bo'lsin.

Bu yil mehnat frontidagi daromadlar ko'paysin, ishlab chiqarish o'ssin, shahrimiz obod bo'lsin, ferma otarlari molga to'lib,

qop-qopchiqlaringiz g'allaga to'lib, adabiyot, madaniyatimiz gullab-yashnasin. Bu yil ulkan boylik va farovonlik yili bo'lsin.

Bu yil urush va mehnat frontida yurt bahodirlari ona sutin oqlab, otalari yo'lidan boradilar, tor yo'l, toyg'oq kechuvdan eson-omon o'tib, shon-sharaf va muvaffaqiyatlar davomli bo'lsin.

Bu yil qonxo'r nemis fashistlari mamlakat va xalqning qarg'ishiga uchrab, o'lim va ofatga duchor bo'lsin.

1972-yilda "Pravda" gazetasida e'lon qilingan "Frontoviklar" degan maqolada Jenya Ivanovaning Baukeng bergan tuhfa haqidagi maqolani Baukengning o'ziga o'qib berdim. Baukeng Jenyaning hayotidan bir necha voqealar eslab aytib berdi.

1) Bir kuni Jenya A. Bek to'g'risida (u Baukeng polkida nemis tilidan tarjimon bo'lgan, keyinroq Chistyakov uni diviziyaga olib ketgan) Bek betartib odam, deb ranjibdi. Sababini Baukeng so'rasa, aytmabdi. Baukeng Bekni chaqirib olib, qistagandan so'ng, u "Jenya, sen qiz bolamisan yo ayolmisan?" deb so'ragan edim, deydi. O'zi chamasi, sochini qirdirib olgandi. U vaqtda o'zining yoshi elliklarda edi. Jenya uning qizidan kichik. O'zini o'larday urishib, uni (Bekni) polkdan quvib yubordim. Chunki shu paytgacha Jenyaning achchiq-tizzig'i bosilar dedim. Rostini aytish kerak, Jenya axloqiy jihatdan juda vazmin, biron-bir ofitserga noz-karashma qilganini ko'rgan emasman.

U Almatidagi chet tillari institutida ishlab yurgan kezlarda bir kuni do'stiga: "hayotimda eng ko'p narsa o'rgangan va tarbiya olgan insonim Momishuli", deb aytgan ekan.

2) Urushning bir shoshqin vaqtida nemislarni biz quvib yeta olmay, na ular bizni quva olmay tiralib turganda nemislardan til tutib kelish uchun Jenyani va yana 4–5 askarni yubordim.

Ular o'z burchini bajardilar, nemisning oldingi safida bo'lgan bir mayorini ushlab keldilar. Menga xabar berganidan so'ng tekshirib, so'roq qilish uchun keldim. Biroq Jenya yo'q ekan. Bir komandir u hozir keladi deb aytdi. Mayorni yonimdagi o'rindiqqa o'tirg'izib, oz-moz bilganim uchun nemischada so'ray boshladim. Polkdagi komandirlarning bari o'rindiqlarga o'tirdi. O'sha kezda Jenya kirib keldi, menga hisobot berdi va vaziyat haqida so'zlay

boshladi. Hisobotdan so‘ng tarjima xizmatini boshlab yubordi. Biroq unga o‘tirishi uchun o‘rindiq yo‘q edi, keyin tutqun mayor buni sezib qolib:

— Xonim, mening o‘rindig‘imga o‘tiring, — deb shoshib turib, o‘rindig‘ini Jenyaga surdi. Jenya o‘tirib, mayor turib qolgandan so‘ng, men qarshimda o‘tirgan komandirlarimdan biriga baqirib, o‘rindig‘ini mayorga bergizdim-da, Jenyaga:

— Ikki qulog‘ingni berkitib o‘tir, mayorni so‘kaman, — dedim. Jenya qizarib ketdi va mening buyrug‘imga bo‘ysundi. Men bu vaqtda barcha komandirlarni bo‘ralatib so‘kib, “Eh, ahmoqlar!” dedim. “Barimizni tutqun mayor yer bilan bitta qilganini sezmaysanlar ham”, deb barini savaladim.

Tutqunni so‘roq qilib bo‘lgandan so‘ng o‘sha holatni Chistyakovga aytgan edim, u ichagi uzilguday kulib, “Voy itning bolasi-ey, senlarni toza uyatda qoldiribdi-ku”, dedi.

* * *

1941-yilning 26-noyabr kuni marshal K.K. Rokossovskiy meni polk komandiri etib tayinladi. Unda mening yoshim 30 da edi. Harbiy darajam katta leytenant bo‘lgan. U vaqtda partiya safida emasdim. Polk komandiri bo‘lish ham to‘g‘ri emas. Men undan oldin batalyon komandiri bo‘lganman. Besh marta qurshovni buzib chiqqanman. Keyin marhum general Ivan Vasilevich Panfilov Rokossovskiyga yetkazgan ekan. Marshal Rokossovskiyning menga ishonishi sababi shu edi. Partiya safida bo‘lmagan katta leytenantni polk komandiri bo‘lishi katta sakrash edi. U polk shtabining boshlig‘i podpolkovnik Sorokin ekan. Katta leytenant bilan podpolkovning o‘rtasi yer bilan osmoncha. Polk komissari — batalyonning katta komissari Pyotr Vasilevich Logvinenko. Batalyon komandirlarining harbiy darajasi mayor. Men polkni qabul qilish uchun keldim. Polk shtabi Trusovo qishlog‘ida joylashgan ekan. Bosh qarorgohga kirganimdan bir soat o‘tmay nemislar kutilmaganda Trusovoga hujum qilishdi. Men juda shoshdim. Nemislarning kuchi ko‘p. Qarshilik qilishga quvvatim yetmaydi. Chekinishga majbur bo‘ldim. Chekinish ham oson emas. Chekinish holatidan chiqib ketish uchun bizga to‘siq kerak.

— Komissar, sizning qaramog'ingizga bir rota qoldiraman. Men polkni olib chiqishim kerak. Siz qalqon bo'lasiz, — dedim.

Komissar Logvinenko:

— Tushunarli, o'rtoq komandir, — dedi menga.

Yashiradigan hech narsa yo'q, tit-pitimiz chiqib qochib borayotirmiz. Obali nima kerak, komissar bitta rota bilan jang qildi, barrikadada to'xtadi va nemislarning oldinga siljishiga yo'l qo'ymadi. Bu ham oson ish emas. Sokolovo degan qishloqqa yetib keldim. Keyin u yerda himoyani tashkil qildim. Biz chuqur o'ylab oldik. Logvinenko rotaning qolgan qismi bilan qaytib keldi. Kuch — o'z nomi bilan kuch. Nemislar sekinlik bilan kelayotir. Biz ham qarshisiga turib ulgurdik. Polkimda olti zambaragim bor edi. Ularni oldingi qatorga joylashtirdim. Nemislar sakkizta tank bilan kelayotir. To'plar o't ochishni boshladi. Nemislar tankida ham to'plar bor. Shart-shurt otib, olti to'pdan beshtasining tos-tolqonini chiqardi. Birgina to'p qoldi. Chiday olmasdan qolgan to'pning qoshiga yugurib bordim. Qo'mondoni qop-qora qirg'iz ekan. Unvoni — starshina.

— Ot! — deb baqirdim.

— To'xtamay otyapmiz, o'rtoq komandir! — dedi.

Urushda zafar bo'ladi, mag'lubiyat bo'ladi. Otgan o'qing hammasi ham nishonga tegavermaydi. Bu gal (haligi qirg'iz yigitining familiyasi To'qtag'ulov, oti Sotiboldi ekan) uning to'pi mo'ljalga urdi. Otgan biror snaryadi bekorga ketmadi. Sakkiz tankning beshtasini qiyratdi. Nemislarga ham jon kerak. Qolgan uch tank chekinishga majbur bo'ldi.

30-noyabr kuni biz Kryukovoga chekindik. Bu Moskvadan bor-yo'g'i 30 kilometr uzoqlikdagi manzil edi. Bu vaqtda Moskvaning poydevori zirillab turgan edi. Biz Kryukovoda olti kun jang qildik. Kryukovoni yo nemislar bizdan oladi, yo biz nemislardan olamiz...

Men urush yillarida batalyon komandiri, polk komandiri, diviziya komandiri bo'lganlardan biriman. Biroq katta unvonimga qaramasdan (u vaqtda yosh edim) askarlar bilan bir safda yurgan komandirlardan biri bo'ldim. Taloto'p janglarda oldingi saflarda bo'lganlardan bittasiman. Nemislar bizni Kryukovodan quvib chiqarishga muvaffaq bo'lishdi. O'zimizni tutib olganimizdan

so‘ng biz yana kuch to‘plab, qarshi hujumga o‘tdik. “Vatan uchun!” deb hayqirib, suron solib borayotir edik.

Men ham oldingi safda yugurib borayotganimda bir necha nemis minomyotlari bizga qarata o‘q otishni boshladi. Shu payt mina parchasi oldimda ketayotgan yigitning qo‘liga tegib, bilagidan uzib ketdi, uning qo‘li terisiga ilinib qoldi. Mening ko‘zim oldida haligi askar teriga osilib qolgan qo‘lini uzib olib irg‘itib yubordi. Buni ko‘rganim chog‘i hushim boshimdan uchib ketay dedi.

— Otangning go‘riga! — deb miltig‘ini o‘qlab olib, otdi va oldinga yugurdi.

Urush tartibi bo‘yicha u yaralangandan keyin chetga chiqib to‘xtab qolishi kerak edi. Ammo u bunday qilmadi. U jon-jahdi bilan yana oldinga yugurdi. Men yana hayratda qoldim. Uni quvib yetib, yuziga qarasam, haligi askar — to‘pchi starshina Sotiboldi To‘qtag‘ulov ekan.

Men urushda qo‘rqoqlikni ham, qahramonlikni ham ko‘p ko‘rgan insonlardanman. “Chin Olatov shunqori ekansan!” deb yigitning insonlik jasorati oldida chin yuragim bilan bosh egdim.

TAKEN ALIMQULOV

(1918–1987)

Taken Alimqulov 1918-yil 22-noyabrda hozirgi Turkiston viloyatining So'zoq tumanida tug'ilgan. 1953-yilda Moskvadagi Adabiyot institutini tamomlagan.

"Sapar" nomli birinchi she'riy to'plami 1950-yilda nashr etilgan. "O'tmish va bugun" (1958), "Oq ot" (1968), "Ko'k boyo'g'li" (1972), "Butun umr oldinda" (1974), "Sirli noz" (1984) kitoblari chop etilgan.

QORAO'Y

Oktyabrning uzoq tunida Mahambetning uyqusi chala bo'ldi.

Allanimadan ko'ngli xijil tortib, yuragi xovliqib, bezovtalanib chiqdi. Tong qorong'usida to'shakdan turib, tashqariga chiqib, uyining yonida biroz turib qoldi. Tong bahor tongiday to'lib otdi. Kuz tongining bunday go'zalligini ilgari ko'rgan emasdi. Quyosh ham bahor quyoshiday kokillanib, sanoqsiz oltin nayzasini popugi bilan yaltiratib chiqdi. Shu tobda popukli nayzadan ayrilgan quyosh kuyovning yirtishga tushgan bashang ro'moliday hoshiyalangan qat-qat bulutlarning orasidan mo'ralab qaraydi. Xazinadagi oltin yombiga ham u o'xshab ketadi...

Sag'risi yalpaygan bepoyon dalaning ichkarisiga bukilgan biqiniday dumalangan Qorao'yda[1] Maxambetning yolg'iz uyda o'tirganiga uch oy bo'ldi. Tepasidan qush uchmaydigan pastlikdagi bu ko'ldanang pana joy. Durbin bilan ham topa olmaydi. Burungi zamonda Botuning yerni qoplagan ko'p askarlari yurtni tugal talontaroj qilganlarida, shu Qorao'ydagi ovullarni ko'rmasdan o'tib ketgan emish. Undan beriroqdagi davrda Qorao'yga Er Targ'in otini o'tlatibdi mish. Mahmabetning bola chog'ida bu yer — bir qabila

[1] **O'y** — 1. Fikr. 2. Past joy.

elning kuzgi yaylovi bo'lgan ekan. Bugungi kunda buloqlari tortilgan yaylov — yovvoyi soyli dala. Bola o'ynaydigan boyagi ungirlar bo'rsiqning iniga, ichki nishablar qoraquyruqning o'tlog'iga aylangan. Boyagi ola quyruq oq quyinlar chala quyruqli sariq shamol bo'lib esadi.

Noyabrga qadar surlangan teriday bo'lib qoladigan Qorao'yning jarligi — bu kunda oktyabrning o'rtasida, shirali ham to'yimli ham. Ikki tuya, bir bo'taloq bilan yolg'iz yilqiga oddiy uyning arqon bog'larlik aylanasigina yaxshi ma'lum. Undan nargi tomoni — indamas keskin qovoqday, ma'yus soylik. Borgan sayin quyuqlashib, mavjli dengizga ham o'xshab ketadi. Siyrak o'sgan baland qizil izenlarning boshi orolga o'xshasa, oq qovullarning ukkisi hilpiragan yelkanni esga tushiradi. Mahambet boshqa olamdan kelganday, Qorao'yni yangidan ko'rib turganday his qiladi o'zini. Boyagi totli bolalik, sog'inichli chog' cho'nqirlikda qolgan — ham ko'ziga issiq bo'lib ko'rinadi, ham yovday yot bo'lib ko'rinadi. Ehtiros bilan o'sib voyaga yetgan, lekin ko'ngli cho'kkan, darddan qayta achingan oqin Qorao'yni ba'zan qut-barakaga tenglashtirsa, ba'zan eli og'ib ketgan sariq yurtning to'rida to'nkarilib yotgan qora shang'iroqga[1] o'xshatadi. Ko'zi ko'milib qolgan buloqlar tili bog'langan shajaraday ishora bilan sir ochmasa, sonsiz yillar dovuliga chidagan ildizli o'simliklar ko'zi tirik guvohday shivirlashadi. Dastlabkisi "Ming bir kechani" yoddan biladigan qorini esga tushirsa, keyingisi kokili qirqilgan go'zalning qayta chiqqan sochini eslatadi. Ikkovi ham mangulik bilan sirlashgan, uqishgan, avval topishgan yorday, yumaloq boshli bandani ba'zan ayab, ba'zan tahqirlab, baxshidek aylantiradi.

Havoda uchgan qizg'ish[2]: "ikkimizning taqdirimiz bir" deganday, qanoti bilan go'yo xushomadgo'ylik qiladi.

— Boyoqish-ov, senga nima bo'ldi? Choying yana ham sovub qoldi-ku, — dedi Aues. Mahambet uyning yonida uzatiladigan qizday uzoq turib qolganini endigina payqadi. "Ha, rostan ham, menga nima bo'ldi?!" dedi sabrsizlanib. Ko'ringanga qiziqadi, ko'rganidan cho'chiydi. Tanasida qizish bormi, nima bo'ldi? Telba boladay

[1] **Shang'iroq** — kigiz uyning tepasidagi qismi.

[2] **Qizg'ish** — qushning nomi.

bo‘lib turibdi. Miyasi shang‘illab, qulog‘i tog‘-u toshday aks sado berayotgani nimadan? “Qo‘y, uyga kiray”, — dedi nihoyat Mahambet. Shu chog‘ u sehrli sharpalardan qutilay deganday shoshib qoldi. Issiq, quyuq choy Mahambetni chiyratdi. Qora to‘riq yuziga salgina qizg‘ish chiroy kirib, bosh og‘rig‘i yozildi. Mahambet bolasiga:

— Nursulton, otga minib qirga chiqib kelchi, Ixlos nega kechikdi? — dedi.

Nursulton otga qamchi bosib jo‘nadi. Mahambet Ixlosning kechikkanidan bezovtalanayotganini endi-endi yaqqol his qila boshlaganday. So‘nggi kelganida u: “Maqa[1], sizni ko‘pchilik el himoyalaydi. Kelasi safar ishonchli kishilarni ergashtirib kelmoqchi-man” degandi. Bunga inongan Mahambet jo‘nsiz yo‘lovchining ortidan suyinib qarab qolganida, ayni paytda uning qappaygan yelka kuragidan gumonsirab ham qolgan edi. “Manavi aqlini pesh qilib o‘zicha mirs-mirs kulmayaptimikin?” deb ko‘ngli noxush ham bo‘lgandi. Endi o‘ylasa, o‘shandan beri ko‘nglidan ma’yuslik haligacha ketmagan ekan. Bugun kechasi uyqusining chala bo‘lishida ana shu dargumonlilikning dardi yotganday.

Shu yoshga qadar Mahambetning ishongan odamlari ko‘p, lekin ishonchini oqlaganlari oz edi. Ko‘ziga cho‘p solganlarni esa o‘ylagisi ham kelmaydi. Ayniqsa, Mahambetning boshiga Baymag‘ambet sultonning ming so‘m tikkanligi haqidagi qo‘rqinchli xabar tarqalgandan buyon bular haqida o‘ylashga ham hayiqadi. Ayni payta soyasidan qo‘rqqan quyonga o‘xshagisi ham kelmaydi. Tavakkalning qayig‘ini kimning sindirishi noma’lum. Isatoyi qaytib kelmasga ketishi bilan taqdiri yuz o‘girganligini Mahambet tushunib yetdi.

Xon-sultonning qurolli kuchlariga qarshi urushda Isatoy o‘q yeb halok bo‘lganligi va bundan Mahambetning yolg‘izlik zorini chekkanligiga — sakkiz yil-u uch oy bo‘ldi. Ko‘p yillar bo‘yi uning hisobsiz yo‘riqlari, hujumlari, keltirgan qirg‘inlari yodiga tushdi. Bexosdan g‘aflatda qolgan joyi ko‘p ekan. Qurolli askarlarga zarba berolmaslik chorasizlik bo‘lsa, xon bolasidan o‘xshatib, tegishlicha o‘ch ololmaslik o‘kinch albatta. Ha, bu o‘zakni o‘rtaydigan, barmoq

[1] **Maqa** — Mahambetning ismini hurmat yuzasidan qisqartib aytish.

tishlaydigan o'kinch. Dastlab Isatoy botirning ishonuvchanligidan Jangir xonga o'n kunlik muddat berib, barmog'ini bir tishlasa, beriroqda ovul og'asi, urug' boshchilarining beqarorligidan Baymag'ambet sultonning boshini kesib ololmay kelishi — qiyomatli tasodiflik. Qora chipor ilonning quyrug'ini bosib, yanchimay ketgani— endi o'zining boshini ming manatga tiktirib o'tiribdi. Isatoysiz boshlagan qo'zg'oloni, ko'tarilishi mag'lubiyat topib, sarsongarchilik boshlangandan buyon Mahambetning bormagan yeri, bosmagan tog'i yo'q. Endi o'ylasa, arzimas bir guruh sheriklar bilan Xivaga borishi ham quruq ovoragarchilik ekan. Xon atalmishlarning ko'zlaydigani — o'zining taxtini saqlab qolish. Yov kelmaguncha dadil harakatga bormoqchi emas. Cho'ntagingdan tilla, xalqingdan zakot umid etadigan Xiva xonidan ham, unga panalagan qozoqning beqaror boyvachchalaridan ham Mahambetning hafsalasi pir bo'lib, umidsiz qaytishida til yetkizolmaydigan teran sir yotibdi.

Mahambet dastlab Jangirning saroyida xizmat qilganda, xon atalmishning kim ekanligini bilmagandi. Keyinroq, Orenburgda o'qigan xonzodaning qarovchisiga aylanganda, o'zi ham ruscha savod chiqarib nari-beridan xabardor bo'lib, ana shu holatlarni tushunib yetgandi. Jangir kichik yuzni boshqarib, hukm yuritishdan qanoatlanmasa, Mahambet nayzachi Kichik yuz orqali qarg'a tomirli qozoqni bo'g'ovdan bo'shatishni xohiaganligini u yolg'iz qolganida yaxshi tushunadi. Bod kasaliga yo'liqib, sahroda yolg'iz ma'yus holdagi Er Targ'in, qozoqning poydevorini mustahkam etish g'ami bilan Rossiyaga suyangan Abulxayir va Abilaylar esiga tushdi. Ular u yoqda tursin, rus askarida qahramonlik ko'rsatgan qozoqlarga ham o'zining taqlid qilganligini endi tushunmoqda. Xivaning chegarasida Egor Kovalevskiy boshlagan ruslarning ozgina askariga ergashib ketganda, Mahambetning xayolida Janjigituli, Boybotiruli kabi erlar bo'lgan. "Napoleonni quvishib, Parij shahriga kamon o'qtalib kirgan, Sena degan daryoda ot sug'organ qozoq botirlaridan mening qaysi joyim kam?!" degani hali yodida. O'sha safarida bo'rondan adashib qolmay Rossiyaga o'tib ketganida taqdir so'qmog'i uni qayerlarga olib borar edi. Mahambetning bir "afsuslanishi" shu. Oq podshoning o'zi bilan tillashganda, Baymag'ambetlar pisib ketarmidi, kim bilsin. Mahambet bola-yigit

chog‘ida Jangir xonga ergashib Peterburgga borib, podsho saroyida bo‘lganda, aytadiganini ayta olmay, qiziqlarning quli bo‘lib qaytganini keyin anglab yetganday. Rossiya kabi kuchli mamlakatning nima ekanligini ham keyin bilganday. Isatoy o‘q yegandan beri ham, xorunjiy Shustikovning askarini Ko‘tibar o‘g‘illarining tutqinidan qutqarib, dordan olib qolganida ishning tagini o‘ylaydiganday kamolatga yetgan ekan. Keyin Orenburg sudida Shustikovning dalillari Mahambetning o‘zini dordan qutqarishiga olib kelgan edi.

Suddan keyin el orasida ikki-uch yil tinch kun kechirganida, Mahambetning tagiga ovulning mayda hokimlari yetdi. Qayerda yursa izini poylagan ayg‘oqchilari, qorday bo‘ralagan qora shikoyati yetdi. Mahambetni sultonning o‘rdasiga chaqirganda, Baymag‘ambetning o‘yi — istagi barbod bo‘lgan, tog‘i qulagan oqinni saroyda bulbulchaday sayratib qo‘ymoq edi. “Qadimgi dushman el bo‘lmas, etakdan kesib yeng bo‘lmas” deb aytishi — ot dumini kesish bilan teng bo‘lganini, oqin nima ko‘rsa ham tilidan ko‘rishini keyinroq uqdi.

O‘tgan kunlar sharpasining shu joyiga kelganda, Mahambet qayta bezovtalandi. Yolg‘iz o‘zi butun olamni hayiqtiradiganday otga sapchib o‘tirishga shoshdi. Ko‘ksini shiddatli kuch qamrab borardi.

— Nursulton kechikdi-ku! — dedi Mahambet.

— Yolg‘iz o‘zini nega yubording? — dedi Aues.

— Ikkimizdan tug‘ilgan bola bo‘lsa, qo‘lga tusha qo‘ymas, — dedi Mahambet.

— Kechasi tushimdan cho‘chidim, — dedi Aues.

— Tush — tulkining tezagi, — dedi Mahambet.

Aues: “Bolaning ketidan borsang-chi” demoqchi bo‘lib, tutilib qoldi.

Mahambet boshidan kechirgan sarson-sargardonlik, qora quvg‘inda Aues unga rafiqalik mayili bilan madadkor bo‘ldi. Nayza ushlagan qizni, ayri tayoq sudragan xotinni u ko‘rgan. Lekin uning o‘zi borda kuyovining ko‘nglini topib, yo‘g‘ida bolalarini yetimlik iztirobidan himoyalashdan ortgan emas. Hatto, Mahambet chorasi tugab, quti qochgan shu bugungi kunlarning o‘zida, unga kengash bergan payti siyrak. Rafiqasi bilan biror narsani maslahatlashsa,

Aues: "Qayerdan bilay. O'zing bilan kengashsang-chi", deb o'zini chetga olardi. Mahambetning: "Men olmos qilich edim, toshga solding — ketildim, qayrasang — yana yetildim" degan elga taralgan so'zini Aues o'zicha tushunadi. Kuyovining ulug'ligini el orasidagi rivoyatlar orqali uqqandan buyon quvg'in-surgundan ko'z ochib ko'rgan emas. Aues o'z boshi uchun, Mahambet ko'pincha fe'l-atvori bilan issiq. Ichimlikdan qil chiqsa, xotinini savaydigan botirday emas, Mahambet oilada juda vazmin va beozor. Har narsaga darg'azab bo'lavermaydi.

Qaytanga, jafoli kezlarida bo'lmag'ur kuymanishlarga kuyingan rafiqasiga sabr tilab, yig'layotgan yosh bolasini yupatadi. O'zining ishi pishganda, o'qlog'ni do'mbira qilib, yosh bolani maqtab, shuni vaj qilib, jirlab[1] yuboradigan paytlari ham bor. Kuyovining bugungi bezovtaligini, bugungi holatini Aues yoqtirib turgani yo'q. Choshgohgacha choyga kelmay, uy tashqarisida sivirlashi ham, bolasini qidiruvga junatishi ham, gumondan xavfsirashi ham — Aues uchun yot ko'rinish. Aues tez o'zgarib qolgan kuyoviga qanday taskin berishini bilmay, xijolat tortib, yonidan nari-beri o'tdi.

Mahambetning esiga Auesning avvalgi payti tushdi. Tolchiviqday dirkillagan oqsariq qiz shu. Mahambet esa, qalliq o'yindan mast bo'lgan yosh yigit. Sir olib sir berishgan issiq damlar lovullab o'tib ketibdi. Qarindosh-urug'ning yolg'on-yashig'i, gumonning ko'ngil ezishi, qizg'anishning kuydirishi, o'kinch, ranj, qirg'iqavoqlik tugal unutilibdi. Bu kunda erining atrofida o'ralashgan bardoshli boyvuchcha ayolda ham boshqa qiziq, o'zgacha ermak qolmaganday. Mahambet ichidan "Eh, hayot qanday tez o'tib ketgan-a!" deb qo'ydi. Oilasining yaxshiligida, o'choq boshining butunligida Mahambetning Auesga ginasi yo'q, taqdirga ginasi bor. Saqoli chiqib er yigit bo'lgan to'ng'ich o'g'li Jangir xon bilan urushda o'q yeb halok bo'ldi. O'rtancha o'g'li Baymag'ambet sulton bilan jangda yarador bo'lib o'ldi. Hech narsa bilmaydigani, qolog'i Nursulton. Tuya boqishdan nari o'tolmaydigan o'g'li shu. Auesning o'ttiz yetti yoshida ko'rgani bolasining kim bo'lishi hozircha noma'lum. Mahambet beshdagi bolajonining uxlashidangina umidvor. Yolg'izlikda o'sgan chaqaloqning fe'l-atvorini boshqa bolalar bilan solishti-

[1] **Jir** — she'riy asarlarning umumiy nomi, qo'shiq.

radigan zamon Mahambetning ixtiyorida ham, xayolida ham yo‘q. Mahambet og‘ir xursindi. Arslonday o‘g‘illarini yo‘qlab, ichidan yig‘lamsiradi. Yuragi ezilib, ko‘ksi sog‘inchga to‘ldi. Bolalarining O‘temisdan tug‘ilgan o‘g‘ilday tugal otga o‘tirib, butun boshli qo‘shinga aylana olmaganligi — o‘rni to‘lmas o‘kinchday bezovtaladi.

Aues kuyovining qora to‘ridan kelgan avzoyi g‘amgin tus olib, xafsalasi pir bo‘lib o‘tirganini aniq angladi. O‘zi ham xursingan edi, ko‘zining yoshi birga chiqdi. Ro‘molining uchi bilan surtayotib:

— Azizlarim bir ag‘anab tushdi-yov! — dedi.

Mahambetning ham ko‘ziga yosh tiqilib qoldi. O‘zini ham, rafiqasini ham ayab, tashqariga chiqishga hozirlanganda, Aues rangi o‘chgan yog‘och kosada ichimlik tutqazdi. Shopirilgan shubatning hidi anqidi.

— Ishtaham yo‘q. O‘zing ich, — dedi Mahambet.

Aues labini cho‘lp etkizib, ichgansimon bo‘ldi. Mahambetning esiga Bayanning chechasi tushdi. O‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan Ayako‘zning qumi ko‘z oldidan o‘tdi. Qoraboyning yolg‘iz uyini esladi. Zoriqqan jonlar xayolidan o‘tdi. Ikki uyning so‘qmog‘i o‘xshash-u, yozmishi boshqa, mehnati o‘xshash-u, maqsadi boshqa.

Avvalgi davrdagi Qoraboyning uyi bilan shu davrdagi o‘z uyining holati Mahambetni chuqur xayolga cho‘mdira boshladi. Molini qizg‘anib olis yaylovga chiqib ketgan Qoraboyning qora shang‘irog‘in oddiy yurt bilan birlashtiruvchi Jantiq bo‘lsa, xalqini qizg‘anib Qorao‘yda qo‘nim topgan Mahambetning qora shang‘irog‘in hamfikr el bilan birlashtiruvchi — Ixlos edi. Ikkovining shirin og‘izligi egiz sharpa tug‘dirib, hissiyotlariga gumonini kuchaytirdi. Endi Ixlos kechikkan sari omadli ovchiday sevintirmay, o‘yinqaroq yorday shubha tug‘dira boshladi.

Ixlos avvaldan Mahambetning ko‘nglini qoldirgan banda emas. Biroq, buning o‘zi uning barqarorligiga guvoh bo‘la olmasday. Er bilan yerning orasi tortishishda mustahkamlanadi, o‘pkalash umr yoshidan payqaladi. Kimning tarig‘i pishsa, o‘shaning tovug‘i bo‘ladiganlar Mahambetga qiyomatlik do‘st bo‘la olmas. Ixlosning dasturxondagi mechkayligi endi tashvish tug‘dirganday bo‘lardi.

Ixlos ketgan bir jumaning ichida Mahambetning hayiqib, o'rnini bo'shatib ketib qolishi mumkin edi. Biroq bunga bormadi. Unga yashirinadigan yerning o'zi qolmaganday bo'ldi. O'sha Norinning dara-daralarini Baymag'ambet sultonning ayg'oqchilari tulkiday izg'ib timirskilashlariga shubha yo'q. Anavi tog'ni panalashga anjomlar kerak. Olisdagi Shalqarga ko'chib borsa, qarab tura olmaydidigan qozoqning biri anavi yilgi o'zini ushlatgan Murtazag'ali O'zbekg'aliuliga o'xshab: "Taqsir, shubhali birovni tekshirsangiz ekan!" deb ulug'larga arz qilmasligiga kim kafil? To'xtab-to'xtab ko'chib, qir oshsa, umr boqiy ayrilmaydigan Adayning barimta-qarimtasining[1] badaliga tushib ketishi shubhasiz. Qayerga borsa Qo'rqitning go'riga uchragan Mahambet "hartugul birovga ishonish kerak-ku" deb ham o'yladi. Ixlos halol bo'lib chiqsa, ertaga uning yuziga qanday qaraydi. "Xotinday qochdi!" degan qora ta'nadan qanday qutiladi.

To'qnash kelgan o'ydan, noma'lum o'kinchning shiddatidan Mahambetning boshi hang-mang bo'la boshladi. Tukli qovog'ini tars yopib, o'tirib qoldi. Nursulton naq tushda qaytib keldi. Kechikishining sababini o'zicha tushuntirib berdi.

— Bo'zadirda yilqi kishnaganday bo'ldi. Borsam, hech vaqo yo'q. Ammo yangi tezakdan gumonsirab, o'sha atroflarni kezib chiqdim.

"Bolam ham bir narsani bilar ekan-ku!" o'yladi Mahambet.

— Izini kuzatsang nima qilardi

— Toshloqdan ajrata olmadim.

Mahambet har xil taxminlarga bordi. Do'nglarni oshadigan yo'lovchi shoshilib yurmaydi — vaqt hali erta. Baymag'ambetning ayg'oqchilari bo'lsa, yolg'iz otliqdan qochmaydi. Qaytanga, "otning boshini beri tort!" deb istehkom quradi. "Chamasi, g'izillab ketgan yomon o'g'ri bo'lsa kerak", degan fikrga keldi. Har holda, Mahambetning ko'ngliga xavotir uyaladi. Uyda xotirjam bo'lmay, otiga mindi. Nega ekanligi qaydam, Qorao'yni aynalib chiqmoqchi bo'ldi.

Ot ustida talay xayollarga bordi. O'sha qirlarda joylashgan qalin el sumbilada shu Qorao'yga kelib, atrofiga joylashgan chog'lar

[1] **Barimta** — xun dovlovchilarning qarshi tarafning yaylovdagi yilqilarini haydab ketishi.

esiga tushdi. Yoz oxirining kelishi, kuz boshi edi. Mahambetning tepasida go'ngqarg'a qag'illadi. Avvallari xo'jaliklar qishlovga qarab qaytishida, "go'ngqarg'asi tushmagur kelib qolibdi-ku" deyishar edi. Mol-dunyosi taqchil O'temis el ko'chganda o'smirini otining sag'risiga olib, mohir bilgichlarga ergasha olmay lo'killatganda, kichkina Mahambetning sir bermas chog'i g'azab bilan yoq shu chog'iga ushlashganini yarashtirganday. Bolalarga moslab egarlangan toyga mingan boy bolasining ko'pchiligining keyin dumg'azasi o'sganday qo'zg'alonda otga minmaganligini endi baholaganday. Boyagi kambag'al otaning orqasida arang ko'ringan o'smirga: "Xo'sh bo'l, Qorao'y!" degizadigan mahalning jumbog'ini endi o'zicha yechganday. Ulg'aygan Mahambetga Qorao'y: "Ey, bechora, sening umring o'tkinchi, ming kun yongan chirog'ing bir kuni so'nadi", deb turganday. Vahima, quvonchi aralash so'zlar bilan avraganday. Ko'zi ko'milgan buloqning tili boylansa, yuzi jivirlagan qalin shirali maysa: "Tentakning keragi yo'q. Qalin eling qay-da?!" deb istehzo qilganday.

Mahambetning xayoliga keng dalaga el keltirmoq bo'lgan takabbur kezlari keldi. Olti malta[1]osh bo'lib, qir-vodiylarda ildam o'tgan kunlar bilan tunlar ko'z oldida namoyon bo'ldi. Qirdan jarga og'ishgan, jardan qirga o'rlagan o'sha sarbozlarni "Maqa-ey, qayerda yuribsan?" deganday bo'ldi. Mahambet tasodifan: "Men bundaman!" dedi. Bor bo'yi chimirilib, ko'z oldi tumanlashdi. Endi boshlovchiday emas, ayg'oqchiday havotirga tusha boshladi. Ostidagi qora-to'riq poyga oti chirt aynalib, oldingi ikki oyog'i bilan osmonga sapchidi. Shu zahoti yoq, Isatoy shahid bo'lgan qirg'in urish ko'z oldida turib qoldi. Zambarakli, miltiqli ko'p yov bilan ayovsiz otishgan, chopishgan tengsiz qo'shinga qaqshatqich zarba bergan erligi esiga tushdi.

Tepaligi saxiy, soyi o'g'ri Bo'zadirda sochilib qochib, biqindan bexosdan qayta chiqishgan sariq kamonli sarbozlari, qora miltiqli merganlari, qilichli har turli jangchilari, so'yilli jangarilari ba'zan ayanch, ba'zan suyunch tug'dirib, Mahambetning qonini qizdirdi. Mahambet bemor boladay yaltoqlana boshladi. Jangda Aqtabaning

[1] **Malta** — qurutni issiq suvga solib ezilgandan so'ng qolgan kichik qoldiqlari, milliy taom.

o‘qqa uchganligi, dubulg‘ali Isatoyning miltig‘ining og‘zi lang ochilgan, otliq yovlar bilan piyoda nayzalashgan so‘zsiz erligi sharpa berdi. Qopqonga tushgan ko‘kyolday ko‘ziga qon to‘lgan Isatoy o‘shanda shu holatda ko‘rinish bergandi. Mahambetning bergan otidan bosh tortib, yov ichida atayin piyoda yurib kurashgandi. U uzangi yo‘ldosh oqinin tahqirlab: “Sening g‘ayrating tilingda. Mensiz sayra, mensiz zorla!” deb turibdi. “Men ikki marta o‘la olmayman!” deb baqrayib turibdi. Shu paytda, Mahambetning qulog‘iga to‘satdan tovush chalindi.

— Boyoqish-ov, shovqin solib, senga nima ko‘rindi? — dedi Aues.

Mahambet uchuqlangan boladay o‘ziga kela boshladi.

Qorao‘yning qa’rida shovqin solganda, ortidan keladigani xotinigina ekanligini endi bilganday.

— Uyga qayt, — dedi Aues.

— Ot sovutmoqchi bo‘ib turibman, — dedi Mahambet.

Aues yana cho‘chidi.

— Naq tushda ot sovurmikan?

Mahambet burgutday tikilib, osmonga qaradi. Qovog‘i solingan bulut quyuqlana boshladi. Boyagi oltin yombi misdaygina yaltiraydi.

Qorao‘yga aynala qo‘ng‘ir ko‘lanka qo‘nib, xo‘mraygan tusga kirdi.

Bemor oqin tetiklashdi. Tana qizuvi tarqab, ko‘zining shishi bosilganday bo‘ldi.

Mahambet qirga qaray yuqorilagan ikki tuyani pastga qaytardi. Uy yonidagi bo‘taga ko‘z tashladi. O‘z uyiga yaqinlashganda, otini tushovlab, o‘tga qo‘ydi. Qora movut, oq chalovnining boshini chaynay boshlagan yolg‘iz yilqiga:

“Jonivorim, ichingga kuch to‘playver. Ertangi kun qanday bo‘lishi noma’lum!” dedi.

Uyiga kelgach ikki par yostiqni tirsakka olib yonboshladi. Odatdan tashqari erta turgan u ko‘zi ilinib mudrab olmoqchi edi. Biroq mizg‘ib ololmadi. Oxirida, ikki yonboshiga navbat bilan ag‘anab, tundagiday chayqala boshladi. Tebrangan oqinning ko‘ngliga yangidan mungli qo‘shiq qaytib kelib, butun tanasi qo‘rg‘oshinday

balqib borardi. Naq tushda tutilgan quyoshday qorali, qorong'uda oqqan yulduzday azali, yodidan ketmas qiyofalar ko'z oldidan o'tib, shiddat bilan mutanosiblik topa boshladi. Shundan birmuncha vaqt o'tganda:

— Ko'ke[1], qirdan besh-olti kishi kelayapti, — dedi bolasi.

— Qurolli kishilarmi?

— Qurolsiz.

— E, Ixloslar bo'lsa kerak. Har holda, otni ildam olib kela qol.

Nursulton yugurib ketdi.

Mahambet xanjarini beliga bog'lab, tashqariga chiqdi. Bo'z chakmonini tugmalamay yopindi. Vujudida ozina titroq borligini payqadi.

Oti tushmagur ancha uzab ketgan ekan. O'pkasini qo'liga olib yugurgan Nursulton ikki marta nafas olganda, otasining rahmi kelib, o'g'liga achinib ketdi. Nursulton yetib kelganda, qirdan kelayotganlar ham yaqinlashgandi. Birisi qo'l silkitib chaqirdi. Bir muncha vaqtdan keyin ular qah-qahlashib ham qolishdi. Jumboq yo'lovchilar otlarini tushovlab o'tga qo'yaverganda, "E, Tangri, jigarlarim ekan-ku!"dedi Mahambet. Shu topda u o'zidan o'zi uyalib, yerga kirib ketayozdi. "E, bunday ko'rgan kunning enasini urayin!" dedi.

Ikki o'rtada pashsha o'ladi demoqchi, Mahambet ayoliga sovuq qarash qilib:

— Nima, bola quchoqlab, qimirlamay qotib qolding? Ko'rpa to'sha! — dedi.

Aues tashqariga chiqqanda:

— Peshinda mozordan qaytgan suyakchiday imillab yurishlarini yoqtirmay turibman, — dedi bolasini qayta quchoqlab.

Mahambetni qaytadan jahl-g'azab o'rab oldi. Boshiga qoni tepib, qulog'i shovullab ketdi. Achchiq ming'irlashlar shipirilishib:

"Kelayotganlar — do'sting, yo'q, do'sting emas — yoving!" dedi.

---

[1] **Ko'ke** — otaga, akaga, yoki yoshi katta insonga hurmat bilan aytiladigan so'z.

— Do‘st bo‘lsa, juda yaxshi. Yov bo‘lsa, senga qasam! — deb qora xanjarini yonboshiga qisib qo‘ydi.

Ixloslar ekan. Yoppasiga kelib salomlashishdi. Ixlosning o‘zi Auesning quchog‘idagi bolasini hidladi. “Oh, jigarim-ov!” dedi Mahambet.

Mehmonlar uyga kirganda, Aues quchog‘idan bo‘shangan bolasini urisha ketdi.

— Uyni aylanma. Yomon bo‘ladi.

Bu irimdan Mahambet qaytadan xavfsiradi. “Ixlos it bugun nega rahmdil bo‘la qoldi?” dedi o‘zicha. Dastlabki “omon-esonlikdan” keyin mehmonlar jo‘yali so‘z topa olmay, qosh-qovog‘i osilib qoldi. “Ergashtirib keluvchi nima deysan?” deganday, Mahambet Ixlosning yuziga qaradi. Ixlosning kulrang ko‘zi — tuman. Qadimda birovning xotini to‘lg‘oqdan o‘layotganda shu kulrang ko‘z cho‘chitib, ich tashlatgan deyishadi. Mahambet tumanli ko‘zning tagiga yeta olmadi.

To‘rda o‘tirgan Janabergen bo‘lsa, avvaldanoq xotirjam. Ichiga kirib-chiqish oson emas. Dastlab isyonga aralashib, keyin hiyla bilan omon qolgan biyning biri. Mahambet uning kuychi inisi To‘lepbergen bilan hamtovoq bo‘lgan bo‘lsa, buning o‘zi bilan avvaldanoq siylashgan. Bo‘zdoqning ikki bolasin ikki ayirib, mansab quvlovchidan hunar quvlovchini yaqin tortgan. Uning nimaga kelmagani shubha tug‘dirmoqda. Mahambetning ichki gumonini sezib, o‘zicha tushungan Ixlos:

— Bergisi butun Berish duoli og‘ziga qaraydigan biy og‘aning o‘zini iltimos qilib ko‘ndirdim, — deb hangoma boshladi. Biroq odatdan tashqari bo‘sag‘a tomonda o‘tirgan Mahambet yechila qo‘ymadi. Hangomaning tutantirig‘i yonmagandan keyin Janabergen tavakkalga ko‘chishni ma’qul ko‘rdi.

— Mahambet, chetda yurib sen hech nimani bilmaysan. Sen uchun biz ne ko‘rmadik. Endi kengashishiga kelsak, og‘zingni burishtirasan.

Chimchilagan so‘z Mahambetni g‘azablantira olmadi. Hali ham u ma’yusligicha o‘tirardi. Aues samovarning atrofida o‘ralashib yuribdi. Nursulton otasiga qarama-qarshi tarafda bir tizzasida o‘tiribdi.

Bir vaqtda Janabergen horg‘in tovushda:

— Gaplashging kelmasa, ketaylik. Keng dalada yolg'iz uy o'tirib, qarindoshlaringni mensimayotgandirsan, — dedi.

— To'lepbergen nimaga kelmadi? — deb so'radi Mahambet.

— Biyga ishonmay, daydi do'mbirachiga ishonsang, ertaga yakka o'zini yuboray. O'n ikki ota Bayulining taqdirini ikkoving hal qil! — dedi Janabergen uzun oqish soqolini taramlab.

Mahambet yumshadi.

— Qator o'sgan edik-ku. Sog'ingan edim.

So'zining rostligiga, muloyim tovushining yoqimliligiga Janabergannıng ham ko'ngli bo'shadi. Dastro'moli bilan ko'zini surtib, ma'yus holda so'zlay boshladi. U "ellik yilda el yangilanadi, yuz yilda qozon", dedi. Zamoning torayib, vaqting xira tortganida eskining ko'zi yo'qligini mungli tarzda aytib o'tdi. "Bizning qatorimiz — noyabrning daraxtiday qalin emas" dedi. "Isatoy botirning o'rnini bosaman degan kishimiz jinni do'mbirachini qidiradi" dedi. "Sening xatoying — ovul og'alarini, urug' boshilarini mensimaslik" dedi. "Yoshi ulg'aygan odamning xalqchil bo'lishi kerakligidan bexabarsan" dedi. Orasiga yarashiqli, yarashmaydigan maqol-matal qo'shib, aytadigan fikrini ifodalab o'tirdi. Mahambet ishonganday. Bolasiga bir nima deb, churq etib qoldi. Nursulton bo'lsa, chechonasiga yordam qila boshladi. Janabergen so'zini davom ettirib, oxirida sekinlashdi. Rost gapga endi yaqinlashganday edi.

— Mahambet, azizim! To'rimdan go'rim yaqin qolganda, sening suyagingga tushgali kelganim yo'q. Til biriktirishga keldim, — dedi.

— Qanday til biriktirish?

Janabergen sabrli qiyofasini buzmadi.

— El og'alari yengiltaklik bilan emas, shoshilmasdan mulohazali kengashadigan bo'lganlar. Chakmoningni tashla. Beldigingni yech. Xanjaring bilan qo'rqitaman dema.

— Jaqa[1], jonga ishontirmay qo'ygan zamon quloqsiz-ku. Mening bor aybim — shu o'tirgan qorako'zlarni el qilmoq edi. Xali ham mening yuragim korako'zlar uchun og'riydi, — deb Mahambet o'rnidan irg'ib turdi. Chakmonini sipirib tashlab, sarijild qinli

[1] **Jaqa** — Janabergen nomini hurmat yuzasidan qisqartib aytish.

qora xanjarini qizil yog'och panjaraning uchiga ildi. Mehmonlar to'liq yayrashib, "barakallaga!" ko'chishdi.

Choy ustida so'zga mayda-chuyda masalalar mavzu bo'ldi. Ixlos endigi panalar joyni ishora qilsa, Janabergen "qishki rizqing mening gardanimda" deya shama qildi. Aues bilan Nursulton ikkovlashib, ovqatni tezlatishdi. Ko'p uzamay et ham kelib qoldi. Mo'l taomning ustida qozoqning so'zga qurumsoqligi ma'lum. Et yeydigan og'izlar o'z qizig'i bilan bo'lib ketdi.

Etga kirishgan mehmonning eng nochori:

— Ajab Maqaning qora shang'irog'i-ay! Qut-ku, qut-ku! — dedi.

Janabergen ranjiganday bo'ldi "Qochgan holdagisi shu. Ertaga qalin Boyulining ichiga kirsa, yurt buni pir deb biladi-ku!" deb o'tiribdi.

Bunday totuvlikdan ko'ngli bo'shab, Janabergen ichida saqlab kelgan dahshatli o'ydan qaytishga niyatlangan edi. "Xayriya yig'sak ham, torozining bir pallasini oltinga to'ldirib, ikkinchi pallasiga Mahambetni qo'yarmiz!" deb qoldi u yana. Endi nochor sherigining maqtovidan o'jarlana boshladi. "Avvalgida To'lepbergenning do'mbirasiga qiziqadi-ku. Ertaga el boshqarib ketsa, inimning o'zini qul qilishi aniq. Qo'y, qonxo'r Ixlosning qo'lin qoqmayin. Ko'radiganini qarindoshidan ko'rsin!" dedi. Qo'l chayish oldida Janabergen Isatoyga bag'ishlab Qur'on o'qidi. "Kuntu-turaba"dan oshaverganda suringandi. Mahambet tomoq qirib qoldi. Mahambetning bu qilig'i ham biyning joniga botdi. O'zicha: "Musulmoncha, ruschaga suvday kofir-ku, bu!" deb o'tirdi.

Janabergen Mahambetning kim ekanligini biladi. Xon, sultonlarni mensinmagan botir, qozoqqa so'z bermagan qora til davrlasa, biyga durra urdiradi-ku. Janabergenning qizil to'riq yuzi birmuncha xira tortdi. Tishini archa bilan cho'qilayotib:

— Mahambet azizim, shu bilan, nima qilmoq lozim? — dedi.

Mahambetning eski jini qo'zib, xursinib uf tortdi.

— Duodan, fotihadan Boymag'ambet sultonning og'zi-boshi qiyshaymaydi. Iltijo ozodlik olib kelmaydi. Qurol yig'ish kerak. Erkaklarni otga mindirish kerak. Siz boshlang. Men — qo'llayman.

Janabergen Ixlosning yuziga qaradi. Ixlos barmog'ini qirsillatib:

— Erkaklarni Yoyiqdan o'tkaza olsak... — deyaverganda, Mahambet qayta xo'rsindi.

— Serkasi bo'lsang, o'tadi. Agarda, sassiq takaday ba'lab, tisarilsang, tagsiz chuqurlikka kim tushadi?

Ixlosning yopiq yarasi yoriladigan payti shu ekan. Ko'z ilg'amas harakat bilan:

— E, onangni... — deb Mahambetning ustiga yopishdi. Oyog'ini tizzasidan ostiga buklab o'tirgan Mahambet yiqilmadi. Bir tizzasi bilan turayotib, boshi bilan Ixlosni buqaday suzib yubordi. Ixlos: "ax!" deb, og'zini bosib qoldi. Shu vaqtda Mahambetga to'rt odam tashlanib ulgurgandi. Ikkalasi ikki qo'lin qayira boshladi. Mahambet tuzoqqa ilingan qulonday:

— Bola-chaqadan ovloq! — deb jon-jahdi bilan itarilib, to'rt odamni sudragancha tashqariga chiqaverganda, bo'sag'ada surinib, yuzi bilan yerga quladi.

Qancha jonning oyog'i xatlagani noma'lum bo'lgan eski bo'sag'aning oldida yangi to'polon boshlandi. Mahambet yog'dirilgan mushtni pisand qilmay, bor kuchini to'plab, mukka tushib, haybatlanib, jallodlarni sag'ridan to'kaverdi. Ular qayta yopishib, jag'ini qayirib, botirning nafasini qisishga kuch berdilar. Mahambetning tengi yo'q katta yuragi tinimsiz dukillayverdi. Yarador arslonning ingrashiday, bo'g'ilib chiqqan dukildan Ixlosni vahima bosdi. U qoziqning yonida yotgan to'qmoq bilan Mahambetning boshiga tushirdi. Mahambet so'nggi bor "Aues!" deb, shilq tushib yiqildi.

Jallodning biri Mahmbetning xotin-bolasini tashqariga chiqarmay, qora xanjar bilan hamla qilib qo'rqitib turdi. Otasining oxirgi nolasini eshitganda, Nursulton o'qilonday otildi. So'nggi so'zi "Aues" bo'lsa, oxirgi o'yi "Hayron xalqim!" degan ikki so'zga sig'di. Joni qiyilarda qontalagan qo'y ko'zini keng ochdi. Yorug' dunyo bilan xayrlashib, Qorao'y bilan vidolashdi. Uzoq yo'lning tuguni qisqa ekanligini birinchi marta bilib borayot-gandi u.

Tishi o'pirilib qolgan Ixlos manqaday ming'irlab:

— Jaqa, bo'tali tuyani siz yetaklangiz! — degan edi, nima qilganini endi sezganday, motamsaro xo'mrayib kelayotgan biy chipor tarlonday darg'azab bo'ldi.

— Buzilgandan don olmayman! Mening ishim tugadi!..

Mahambetning otini Ixlos minganda, Janabergen yana janjal chiqardi.

— E, nima, qo'lingdagi boshning badali kamlik qildimi? Yetimchalarga qoldirsang nima qiladi?

Ixlos tub maqsadga ko'chib:

— Sultonning amri shunday biy aka!

Janabergen jim bo'ldi.

Mahambetning chopqir qora-to'risi qorabetning ostida o'ynoqlab ketdi.

Boyagi kuyovday shoshilmay kelganlar oshdan qizishib g'ayratlangan jiyanday o'zboshimchalik bilan xohlaganlarini qilib, tasur-tusir etib jo'nashdi. Qorao'yning qo'ynida qorali uy yakka o'zi qolaverdi.

Aues kuyovini quchoqlab, qiz kabi yig'ladi. Nursulton yerga ag'anab igrandi. Yosh bola chirillab, uyni aynalverdi. Uy yonida bo'ta bo'zladi. Daladan enasi ang'iradi. Tuya qizil kovulni qidirib boshini chalishini to'xtatdi. Qorao'yning ustida go'ngqarg'a bilan qizgish qush uchib aylandi.

Quyosh botar payt edi. Qorao'y qayg'uli g'alati voqeaga to'lib, dumalanib borardi. Shu kuni oy tutilgan edi...

BERDIBEK SO‘QPOQBOYEV

(1924–1991)

Berdibek So‘qpoqboyev 1924-yil 15-oktyabrda Almati viloyati Norinko‘l ovulida tug‘ilgan. Abay nomidagi Qozoq pedagogika institutini, so‘ngra Moskvadagi Oliy adabiyot kursini tamomlagan.

Ijodiy faoliyatini she’rlar bilan boshlagan, 1950-yilda “Buloq” nomli she’riy to‘plamini nashr ettirgan. Keyinchalik u bolalar va o‘smirlar uchun mo‘ljallangan 20 dan ortiq hikoya, qissa va romanlarini taqdim etdi. Uning “Mening ismim Xo‘ja”, “Bolalikka sayohat”, “Bo‘zto‘beda bir qiz bor”, “O‘lganlar qaytib kelmaydi”, “Qaydasan, Gavhar” kabi asarlari ko‘plab tillarga tarjima qilingan.

XAT

Ular soat uchda bolalar teatrining oldida uchrashamiz, deb va’dalashishdi. Shu yerdan trolleybusga o‘tirib, istirohat bog‘idagi muz maydoniga borishmoqchi.

Cho‘lpon va’dalashgan joyiga o‘n daqiqa oldin keldi. Qali hali ko‘rinmasdi. Cho‘lpon, halizamon kelib qolar, degan umid bilan chetroqqa chiqib kuta boshladi. Chor atrofga alanglab, sabrsizlanib turardi. Bu — o‘zi yoqtiradigan yigit bilan birinchi bor va’dalashgani edi. Qizni bu ahvolda ko‘rgan o‘tkinchilar go‘yo, mana bu qiz mushtday boshi bilan kimni kutayotgan ekan, deyotganday bo‘lardi nazarida.

Qali hadeganda kelavermadi. U kechikkan sayin Cho‘lponning yuragi o‘ynab, ko‘chaga sig‘may borardi. Bitta yarimta tanish ko‘rib qolmasmikan, degan andishada teatrning oldiga borib afishalarni o‘qidi... Shunday bo‘lsa ham butun fikr-xayoli Qalida.

Uning yoqimli ovozini, qadam tovushini eshitish umidida o'qtin-o'qtin orqasiga qaraydi, betoqat bo'ladi...

— Cho'lpon. Ha, bu yerda nima qilib turibsan?

Cho'lpon yalt etib orqasiga qaradi. O'zi bilan birga o'qiydigan Orifboy ekan.

— Shunday, o'zim...

Orifboy tirjaydi. Bostirib kiyib olgan isqirt quloqchini tagidan sirli jilmaydi.

— Birovni kutyapsan shekilli, a?

— Kutayotgan bo'lsam senga nima? — deb Cho'lpon shartta teskari o'girilib oldi.

— Bilaman, kimni kutib turganingni. Bilaman... — dedi-da, Orifboy quvlik bilan tirjayib yo'lga tushdi. "Rasvo, bu rasvoning bilmagani, sezmagani yo'q!"

Nihoyat va'dalashilgan vaqt ham bo'ldi. Soat uchga zang urdi. Haliyam Qalidan darak yo'q. Cho'lpon u yoq-bu yoqqa o'tayotgan odamlar orasidan Qalini qidirib betoqat bo'lib turibdi.

Soat uchdan o'n daqiqa oshib ketdi. O'n besh daqiqa... Yigirma... Qali kelmadi.

Cho'lpon nima qilishini bilmay qoldi: "Senimi, shoshmay tur hali! Kelmaganing uchun bir ta'ziringni bermasammi!.."

Cho'lpon ketmoqchi bo'ldi-yu, biroq qandaydir bir sehrli kuch, to'xtab tur, biroz sabr qil, kelib qoladi, kelib qoladi, deb ipsiz bog'lab turardi uni.

Qali Cho'lpon bilan bir sinfda o'qiydi. U novchadan kelgan, kelishgan, ko'mirday qop-qora sochi jingalak, ko'zlari tiyrak, istarasi issiq bola. Sinfda a'lochilardan. Uni sinfdagi hamma qizlar, jumladan, Cho'lpon ham yoqtiradi. Ammo Cho'lpon boshqalarga qaraganda mag'rur, o'z qadr-qimmatini biladigan qiz. U anavi Galyaga o'xshab, kelishgan ekan, deb Qaliga o'zi borib suykaladigan, gap otadigan qizlardan emas. Cho'lpon ham ich-ichidan Qalini yoqtiradi-yu, ammo bu sirini undan pinhon tutadi, hatto uni mensimaganday qilib ko'rsatishga harakat qiladi o'zini. Bordi-yu, Qalining o'zi yalinib kelsa, unda boshqa gap... unda Qali bilan do'st tutinishga qarshi emas. Boya: "Bugun istirohat bog'idagi muz maydo-

niga borib konki uchaylik", deb taklif qilgan ham Qalining o'zi. Endi bo'lsa xuddi ustidan kulganday, o'zi taklif qilib o'zi kelmay o'tirsa-ya!

— Iya, haliyam turibsanmi? — deb tag'in Orifboy paydo bo'lib qoldi. — Ha, kutganing kelmadimi? Juda... bo'y yetgan qizlarday qimir etmay turibsan?! Rostingni ayt, kimni kutib turibsan?

— Nima ishing bor?!

— Ha, aytmaysanmi? Aytmasang ham bilaman. Qalini kutyapsan-da, a?

Nihoyatda jahli chiqqan Cho'lpon ko'chaning narigi betiga kelib to'xtagai trolleybusga qarab chopib ketdi...

...U uyga izza tortib zo'rg'a yetib keldi. Muz maydoniga bormadi. Konkisi solingan xaltasini, quloqchinini karavoti ustiga uloqtirib yubordi. Paltosining tugmalarini bitta-bittalab yechib o'tirmay, ikki yoqasidan ushlab ikki tomonga zarb bilan tortib yubordi, bir-ikkita tugmasi uzilib, polga tushib yumalab ketdi. Paltosini buklab-buklab karavotining oyoq tomoniga tashladi-da, jahl bilan stoliga o'tirib, Qaliga xat yoza boshladi:

"Qali! Nima, sen meni mazax qilmoqchi bo'ldingmi? Nega va'da qilganingdan keyin kelmading? Shu ham odamgarchilik bo'ldi-yu! O'zing emasmiding, boramiz, degan. Nega odamni laqillatasan? Nima, sen hammani Galyaga o'xshagan yengiltak deb o'ylaysanmi? Men seni hech qachon bunday qilarsan, deb o'ylamovdim. Endi bildim qanaqa odam ekaningni! Bundan keyin men bilan gaplashma!"

Cho'lpon xatni yaxshilab bukladi-da, sirtiga nima deb yozishni bilmay, biroz o'ylanib o'tirdi. Oxiri xatni o'z qo'li bilan topshirishi esiga tushib, hech nima yozmadi. Faqat manzilini yozadigan joyga uchib borayotgan qaldirg'ochning suratini soldi-yu, tumshug'iga xat tishlatib qo'ydi. Bunisi — uch kichkina qushcham, mening jahl ustida ekanimni Qaliga tezroq yetkaz, degani edi o'zicha.

Ertasiga Cho'lpon maktabga o'ziga yoqadigan ko'ylagini kiyib, sochini chiroyli qilib tarab bordi. Bu — uning atayin Qalining nazarini o'ziga og'dirmoqchi bo'lgani edi. U haliyam jahldan tushmagan, jemferining cho'ntagida kechagi xati turibdi. O'sha xatni Qalini ko'rishi bilan berib, teskari o'girilib ketmoqchi.

U sinfga kirishi bilan sinfdoshlari atrofini o‘rab olishdi:

— Cho‘lpon eshitdingmi?

— Qalini mashina bosib ketibdi!

— Oyog‘i singanmish, deyishadi!

— Kasalxonada yotganmish!

Cho‘lponning yuragi xuddi nina sanchganday og‘rib ketdi.

— Qachon?

— Kecha. Maydondan chopib o‘tib ketayotgan ekan, toyib yiqilib, g‘isht yuklangan mashinaning tagiga tushibdi.

Cho‘lponning a’zoyi-badani titrab ketdi. Negadir qalbida Qaliga nisbatan iliqlik paydo bo‘lib, dars oxirigacha o‘ziga kelolmadi.

Darslar tugagach, bir to‘p bolalar Qalini ko‘rish uchun kasalxonaga borishdi. Albatta bular orasida Cho‘lpon ham bor edi. Navbatchi hamshira ularga Qalining jarohati u qadar og‘ir emasligini, oyog‘i sinmaganini, faqatgina suyagi jindek chatnaganini aytdi. Bolalar kelishganini aytib xat kiritishdi.

Birozdan keyin hamshira qaytib chiqdi. Qali bolalarga hol so‘rab kelganlari uchun ko‘pdan ko‘p rahmat aytibdi.

— Cho‘lpon deganlaring qaysi biring? — dedi hamshira.

— Men, — dedi Cho‘lpon. U nimagadir qizarib ketdi.

— Mana buni senga berib chiqardi, — deb u ikki buklog‘lik qog‘ozni Cho‘lponga uzatdi.

Cho‘lpon bolalar oldida noqulay ahvolga tushib qoldi. U asta qog‘ozni ochib o‘qisa:

“Kecha uyda bir ish bilan kechikib qolib, seni kutib qolgandir, deb shoshib chopib ketayotib... baxtga qarshi mana bunday bo‘lib... borolmadim. Kuttirib qo‘yganim uchun uzr”, deb yozibdi.

— Qani, ko‘rsat-chi? Nima deb yozibdi? — deb Orifboy bo‘ynini cho‘zdi.

Cho‘lpon xatni cho‘ntagiga soldi-da:

— Hech nima, — dedi zarda bilan.

— Ko‘rsatmaysanmi? Ko‘rsatmasang ham nima deb yozgani ma’lum, — dedi Orifboy tirjayib.

Yuragining chigili yozilgan Cho‘lponning qalbi quvonchga to‘la edi. U Orifboyning so‘ziga beparvogina javob qildi:

— Bilsang bilaqol!

ABDIJAMIL NURPEISOV

(1924–2022)

Abdijamil Nurpeisov 1924-yil 22-oktyabrda Qizilo'rda viloyatining Orol tumanidagi Qulandi ovul kengashiga qarashli Ushko'ng degan joyda tug'ilgan. 1956-yilda Moskvadagi Adabiyot institutini tamomlagan.

Uning yozgan ilk asari "Kurlandiya" romani (1950) bo'ldi. Bu asar keyinchalik ham to'ldirilib, ham ba'zi joylari qisqartirilib "Kutilgan kun" (1958) nomi bilan qayta chop etildi. U "Qon va ter" trilogiyasini tashkil etadigan "Zulmat" (1961), "Sargardonlik" (1964), "Halokat" (1970) romanlarini yozgan. "So'nggi farz" romanida (1999) esa ekologiya, inson va tabiatning o'zaro munosabatlari hikoya qilinadi.

QARINDOSHLAR[1]

...U idorasiga yaqinlashib qolganida, endi uyqudan uyg'onayotgan ovulga yana bir bor nazar soldi. Nariroqda, bir uy oldida it hurdi-yu, tindi. Yana jimjitlik. U idoraga kirganida qabulxonada o'tiradigan kotiba qiz endigina kelgan bo'lsa kerak, hali u yoq-bu yog'ini tartibga keltirib ham ulgurmabdi. Faqat boshidagi popukli ro'molini qayta o'rab, kichkinagina yumaloq oynachasiga qarab, ayozdan qizarib ketgan yuzlarini ko'z-ko'z qilayotgan ekan. Raisni ko'rib shoshib qolgan qiz o'rnidan uchib turdi-yu, unga to'g'ri qaray olmay, iboli ko'zlarini yerga tikdi. Uning ikki yuzi olmaday qizarib turar edi. Rais qiz oldidan indamay o'tdi-da, kabinetiga kirib, eshikni tezgina yopdi. So'ng qishlay bo'm-bo'sh huvillab turgan kabinetining to'ridagi stoliga borib o'tirdi. Ishga qo'li bormay, ulkan va beso'naqay stolining qator tortmala-

[1] "So'nggi farz" romanidan parcha.

rini ochib ko‘rgan bo‘ldi. U qaysi tortmani ochmasin, qog‘ozlar bilan liq to‘la edi. Ularni sekingina berkitib-berkitib qo‘ya qoldi. Huvillab turgan kabinetda u nima qilishini bilmas, devorlarga qarab angrayib o‘tirar edi.

Zamon tez o‘zgarib ketdi. Ilgarilari odamlar tong sahardan turib, ishga tushib ketishar, yuzlarini shamol yalagan qora-qura kishilar raisning oldiga kirgani-kirgan edi. Ular dengizda qanday emin-erkin yurishsa, bu yerga ham shunday erkin kirib chiqishardi: biriga u yetmasdi, biriga bu deganlariday... yoshgina raisni yoqasidan olishardi. Ba’zan tentaknamolari aytgan yumushlari bitmasa, stolni qulochkashlab mushtlardi ham. Ularni yer yutganmi o‘zi? Qani ular? U o‘zi payqamagan holda “Qani?!” deb baqirib yuborayozdi. So‘ng o‘ziga kelib, boshini kaftlari orasiga oldi-yu, jim qoldi. Hechqursa haligi... sariq papkasini bag‘riga bosib, iymanibgina kirib keladigan uyatchan kotiba qiz qani? Unga nima balo bo‘ldi?

Knopkaga qo‘lini cho‘zdi. Cho‘zdi-yu, uni mo‘ljallangan joyidan topolmay, paypaslab qoldi. Go‘yo qo‘li tegsa o‘sha tugmani ezib yuborguday vajohati bor edi. Bosdi. Qabulxonadagi qo‘ng‘iroq shitob bilan jiringladi. Kotiba qiz eshitdimi-yo‘qmi, ammo o‘zi qo‘ng‘iroq tovushidan cho‘chib tushdi. U xato qilganini sezdi. Alanglab eshik tomonga qaraguncha bo‘lmay, kotiba qiz ham ko‘rinish berdi. Yodgor eshik oldida iymanib turgan qorachagina qizdan uyalib:

— Qog‘oz... Qog‘ozlar... — dedi.

Zuhra xo‘p deganday boshini egdi-yu, chiqib semizgina sariq papkani olib kirdi.

— Meni kechir... singlim.

Zuhra indamadi. Faqat chiqib ketayotib bir soniya to‘xtadi-yu, raisning ahvolini ko‘rib ajablandi. Orqasiga o‘girilayotib, o‘zicha jilmayib qo‘ydi. Rais yolg‘iz qolgach, papkani ochdi. Undagi qog‘ozlarning aksari ovuldan ko‘chmoqchi bo‘lgan baliqchilarning arizalari ekan. Bor-yo‘g‘i o‘ntacha xonadon. Ularning deyarli hammasi o‘zi bilan tepkilashib katta bo‘lgan yigitlar. Orasida otasi bilan birga dengizda baliq ovlashgan keksalar ham bor. Hov bir gal yigirma besh xonadon ko‘chgandan so‘ng hammaning ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushib qoldi. Ko‘chmoqchi bo‘lgan bironta

odamni to‘xtatib qololmaydi. “Ertaga mana bular ham ko‘chadi”. U xo‘rsinganini o‘zi ham sezmay qoldi. Xuddi shu mahalda eshik tag‘in ochildi. Qalin kiyinib olgan qandaydir odamlar kirganday bo‘ldi. Polni gurs-gurs bosib kelishyapti. Ana, yaqinlashib qolishdi. Uchta kishining oyog‘i ro‘parasiga kelib to‘xtadi. Yodgor ularning tizzasidan yuqorisini ko‘rmasdi. Uchchovining oyog‘ida ham qo‘nji qaytarib olingan baliqchilar etigi. Ikki chekkadagi odamning gavdali ekanini oyoqlaridagi etiklaridan payqab turar edi.

— Xo‘sh, pochcha... ertalab kelibsizlar...

— Yodgorjon, oldingga ish bilan kelgan edik. Seni joyingdan topish oson emas. Tinim bilmaysan, yugurganing yugurgan...

— Marhamat, o‘tiringlar bo‘lmasa, gaplashaylik.

— Rahmat, chirog‘im. Vaqtingni olib nima qildik. Faqat senga qog‘ozlarimizni tashlab ketaylik deb...

O‘rtadagisi oldinga bir qadam bosdi. Shuni kutib turgandek ikki chetdagilar ham stol yoniga kelib to‘xtashdi. Umr bo‘yi eshkak eshgan beso‘naqay qo‘llar birin-ketin qog‘ozni stolga tashladi. Rais shundoq oldiginasiga tashlangan uchta qog‘ozga qo‘l cho‘zmay, ko‘z qiri bilan sovuqqina tikilib o‘tiribdi. U bu qog‘ozlarning nima ekanligini yaxshi biladi. Bu uch chol ilgari ham bir-ikki marta kelishgan. Birinchi safar kelishganda Yodgor: “Bu Orol dengizi ota-bobolarimiz zamonida talay marta toshib, talay marta kamaygan. Bu gal ham bir sabr qilaylik-chi, zora ilgarigi qolipiga qaytsa!” deb ularni aldab jo‘natgan edi. Chollar ham bu gapga xursand bo‘lib: “Aytganing kelsin, chirog‘im. Yaxshi niyat — yarim mol”, deb ketishgan edi. Ikkinchi bor kelganlarida esa: “Ho‘v anavi Sibir daryolarini burib, Orolga quyishmoqchi”, deb bu sodda chollarni tag‘in aldab jo‘natgan edi. Mana, endi... uchovi tag‘in kelishibdi. Tag‘in raisning og‘ziga tikilib turishibdi. Ularga endi nima deydi? Nima bahona qiladi?

— Yodgorjon, bizning hamma gapimiz mana shu qog‘ozlarda aytilgan. Bu yog‘ini o‘zing o‘ylab ko‘rarsan.

U nimani ham o‘ylardi. Chollarga rahmi keldi. Kollektivlashtirish davrida qozoqlar ozmuncha qiynalishdimi axir? Umr bo‘yi ot minib, mol boqib o‘tgan ko‘chmanchi xalq emasmi, kolxozlashtirish boshlanganida to‘g‘ri kelgan tomonga pitrab qochib, tutqich

bermay yurganda, Kalen boshliqga mana shu uchovi bilaklarini shimarib, shu atrofdagi xalqni kolxozga birlashtirishga yordamlashmaganmidi? Endi bu uchovi ham ovuldan ketsa, ular bilan birga ovulning barakasi, birligi, puturi ham ketadiganday tuyuldi unga.

— Xo'p, pochcha, arizalaring to'g'risida o'ylashib ko'rarmiz.

— Mayli, chirog'im. O'ylab ko'ringlar. O'zing xabar qilarsan.

— Kechiktirmay xabar qilamiz...

— Bo'pti... Yaxshi, Yodgorjon.

Keksa baliqchilar chiqishi bilan eshikdan lip etib Sariq Shaya kirdi. U o'pkasini bosolmasdi. Eshikdan kirib kelayotib, boshidan telpagini olgan edi, terlab-pishib ketgan boshidan bug' ko'tarildi.

— Aylanay, Yodgorjon, — deb u yig'lamsiradi.

Yodgor, bunga tag'in nima bo'ldi, deb o'ylaguncha bo'lmay, Sariq Shaya gapini davom ettirdi:

— Avlodimizda hozir senga mendan boshqa yaqin odam yo'q. Agar bilsang, men senga ota o'rnida — ota, og'a o'rnida — og'aman. Shunday, chirog'im...

Haqiqatan ham uning Yodgorga qarindoshligi bor edi. Tez-tez esiga solib turmasa, mana bu inisi tushmagur unutib qo'yadiganday har ko'rganida u qarindoshligini gapirgani-gapirgan, uning bu odati so'nggi paytlarda Yodgorning joniga tega boshlagan edi. Tag'in bu qarindoshining mana bunday ko'ngilsiz paytda kelganini qarang. Shu bahona bo'ldimi, og'asining bu tashrifi inisining g'ashiga tegdi. La'natining boshi ham bosh, qoshi ham qosh emas ekan. Qoshi o'rnida jiyib ketgan jun yopishtirib qo'yganday, bir nimalar sarg'ayib turar edi.

— Sen bola og'angning qaysi so'ziga quloq solgan eding. Asli, oldingga kelmasligim kerak edi. Keldim. Endi aytaman. Ota-bobolarimiz "Xotinga ishonma, suvga suyanma!" deguvchi edi. Xotin — dushman! Dushman ko'zga ko'rinib hamla qilsa, xotin... qo'yningda yotib abgor qiladi. Mana, abgor qildi-ku axir... Voy dood dastidan!..

U tovushining boricha baqirib, o'z boshini o'zi savalab dod solganida Yodgor shoshib qoldi. Uning dod solishining sababi: aytganiga quloq solmaydigan rais inisining xotinidan ayrilib kuyib turganidan foydalanib, rashk o'tini yoqish edi. Keyin uni no'xtalab

olib, urug‘chilik, qavm-qarindoshchilik tuyg‘ularini o‘t oldirib, o‘z yo‘liga solmoqchi. U buni o‘zi ham tasdiqladi:

— Ota-bobolarimiz “Oz bo‘lgandan ko‘ra ko‘p bo‘l!” demaganmidi? Anavilar ko‘pchilik bo‘lib bizni ezib qo‘yishmoqchi, bizlarni ko‘p bug‘doy ichidagi yolg‘iz arpa boshog‘iday bo‘g‘ib tashlamoqchi! Nima, unimizni ichimizga yutib, bo‘g‘ilib o‘lib ketaveramizmi? Nomus-orimiz qani? Mayli, erkaklik nomusingni bu yoqqa qo‘yib turaylik. Urug‘imiz nomusi-chi? Joningni fido qilib yubormaysanmi! Ana, tashqarida xalqing seni kutib turibdi! Uyma-uy yurib, o‘zimizga qaraganning hammasini to‘plab keldim. Faqat boshla! Bizni boshla!

Uning gaplari Yodgorning qulog‘iga kirmas, faqat og‘zining qimirlaganini, qizil tilining yilt-yilt etganini, qurt yegan so‘yloq tishlarini, gapirgani sayin o‘t olib borayotgan sap-sariq, shilpiq ko‘zlarini ko‘rib turardi. Bir burda yuzida soqoli ham, mo‘ylovi ham yo‘q: faqat har joy-har joyda bitta-yarimta tuk tikkayib turar, u kimlargadir zahrini sochib, zarda bilan gapirganida iyagida tikkayib turgan tuklarga jon kirib, qimirlab ketar, ular ham kimnidir chaqmoqchi bo‘layotgan maxluqlarday daf qilar edi. Qarindoshi odam emas, butun zahrini tiliga to‘plab olgan sariq chayonga o‘xshab ko‘rindi Yodgorning ko‘ziga.

— Yo‘qol!

— Nima?!

— Yo‘qol deyapman! Yo‘qol...

— Yo‘qol dedingmi? Xi-xi-xi...

Sariq Shaya yonginasida turgan kresloga joylashib o‘tirib oldi. Yuzlariga masxaraomuz tabassum qo‘ndi.

— Chindan ham yo‘qol deyapsanmi, chirog‘im?

— He... Sariq chayon!

— Barakalla. Rahmat. Og‘angni odamlar “Sariq Shaya” der edi. Sen “Sariq chayon” dedingmi? Xi-xi-xi... Qoyil-a, chirog‘im, — dedi Sariq Shaya.

U bu gapni hech qanday keksiz, xusumatsiz, astagina aytdi. Shunday bo‘lsa ham Yodgor jahl ustida beixtiyor mushtini tugib olgan, dag‘-dag‘ titrar, buni o‘zi ham sezmas edi. Sariq Shayaning nigohi Yodgorning mushtiga tushdi.

— Chirog‘im-ov, bu musht emas, qora gurzining o‘zginasiku, — dedi inisining mushtini ushlab salmoqlab ko‘rarkan. — Sen faqat buni nimaga ishlatishni bilmay yuribsan-da, — deb qiqirlab kulib ham qo‘ydi.

Yodgor mushtini yengining ichiga oldi. O‘zini masxara qilib kulayotgan og‘asiga nima deyishini bilmay, dag‘-dag‘ titrar edi. Bu holni ko‘rgan og‘asi inisining qo‘lidan hech narsa kelmasligini his etib, tag‘in o‘ktam gapira boshladi:

— Chirog‘im, mana buningni cho‘ntagingga solib qo‘y, — dedi u. — Agar sen mard bo‘lsang, erkak bo‘lsang, kuchingni poytaxtdan kelgan zo‘ravonga ko‘rsat! Ha, shunday qil... Xi-xi-xi...

— Voy, rasvo!

— Nima deding? Nima deding, chirog‘im?

— Rasvo dedim!

— Shunaqami hali? — dedi-da, Sariq Shaya o‘tirgan joyidan asta turdi.

Hali o‘tday yonib turgan ko‘zlari birdaniga so‘nib qolganday edi. Basharasidan bamisoli zahar tomardi. U inisiga boshdan-oyoq haqoratomuz nazar tashladi.

— O‘zing rasvosan! Ha, o‘zing rasvosan, chirog‘im. Kuppa-kunduzi qo‘ynidagi xotinini oldirib qo‘ygan, qo‘lidan hech vaqo kelmaydigan landavursan!

Yodgor bundan bu yog‘i nima bo‘lganini bilmaydi. Jahl ustida hech narsani o‘ylamadi. Faqat shu narsani yaxshi bildiki, mana bu chayonga o‘xshab yuzidan chak-chak zahar tomib oldida turgan qarindoshi g‘irt dushmanning o‘zginasi ekan. Hamma balo shundan chiqqan: odamlar bilan odamlarni, urug‘ bilan urug‘ni, xullas — hammani abgor qilgan mana shu rasvo ekan. Shu gap xayoliga kelganida Yodgor o‘zini idora qilolmay qoldi. Sariq Shayaga tashlandi.

— Hoy, hoy... mana bu it... nima qilyapti? O‘z og‘asiga qo‘l ko‘tarmoqchimi?..

U Sariq Shayaning it talagan mushukday chirillaganiga ham parvo qilmadi. Anchadan beri a’zoyi badanini qaqshatib kelayotgan kek, izza yuzaga chiqib, gurziday mushti bilan gurs-gurs ura boshladi. Sariq Shayaning burni qonadi. Boyadan beri tagida qarshilik ko‘rsatib tipirchilab yotgan Sariq Shaya burnidan oqqan qon-

ni yuziga chaplab yubordi-da, birdan tinchib qoldi. Yodgor uning nima maqsadda bunday qilayotganini xayoliga ham keltirmadi. Uni burchakka tiqib olib, qora qonga belangan burniga, yuzlariga, lom-mim demay turgan og'ziga ustma-ust uraverdi-uraverdi... Shu payt xonaga birov kirganday bo'ldi. U Yodgorga: "Qo'ying, qo'ying endi..." deb yalindi, qo'llariga tirmashdi ham. Bu Zuhra edi. Yodgor qizni siltab yuborganini o'zi ham bilmay qoldi. Faqat "Qo'ying, uyat bo'ladi", deb u yog'idan bu yog'iga o'tib yurgan qiz birdan indamay qolgach, o'ziga kelib, ortiga qaradi. Zuhra xuddi o'pkalagan bola yanglig' teskari o'girilib turar, yelkalari bilinar-bilinmas silkinardi. Buni ko'rib, Sariq Shayaning halqumidan mahkam ushlagan qo'llari beixtiyor yozilib ketdi. Bet-og'zi qop-qora qonga belangan Sariq Shayani qo'yib yubordi-da, tashqariga otildi. Eshik oldida uning yo'lini kimdir to'sdi.

— O'rtoq... bu nimasi?.. — dedi Yodgorning betartib ust-boshiga, aft-angoriga qarab, bosh chayqarkan. — Kolxoz a'zosini mushtlab... Bu g'alati-ku... Uyat-ku!

— Avvalo siz... nima uchun bunday bo'lganini biling...

— Yo'-o'q, o'rtoq... Nimasini bilaman. Buni biz shunday qoldirolmaymiz. Bizning boshimiz ham bitta, ikkita emas. — Bu partorg edi.

— Nu i... k chert...

Yodgor bir amallab o'zini bosdi.

Partorg, qani aytadiganini aytib bo'lsin-chi, deganday biroz kutib turdi-da, uning boshqa lom-mim demaganini ko'rib:

— Anavi odamlar nima qilib yuribdi bu yerda? Nimaga to'plading ularni? — deb so'radi.

— Qanaqa odamlar?!

— Bilmaysan-a?!

U hech narsani tushunmadi. Ammo yuragi bir shumlikny sezib, partorgdan ilgari tashqariga yugurib chiqdi. Qarasaki... voy rasvo! Sharmandalik! Boyagina Sariq Shaya: "Tashqarida xalqing yig'ilib turibdi!" deganida unchalik ahamiyat bermagan edi. Endi qarasa, haqiqatan ham eshik oldida odamlar tirband: hammasi o'zining yaqin-uzoq qarindosh-urug'lari. Tag'in hammasi jahl ustida, qo'llariga ilingan narsa borki — kaltakmi, so'yilmi... ko'tarib olishibdi.

— Hoy, sizlarga nima kerak? Nima qilib turibsizlar?

Sariq Ivan bilan Ko'shen oldinga chiqishdi.

— Yodgorjon, chirog'im... Boshingga ish tushganda, mana bu qarindoshlaring qarab tura olarmidi?..

— O, rasvolar! Voy, rasvolar... Yo'qol hammang, qoralaringni ko'rmay...

Uning esi joyida emasdi. Ko'zlari qon talashib, hech narsani ko'rmasdi. Shu orada kimningdir qo'lidan qamchisini tortib olgani esida.

— Yo'qolinglar! Ketinglar bu yerdan! Qoralaringni ko'rmay! — deb baqirib, odamlarga qamchi siltay boshladi. Yuzi demay, ko'zi demay ularga qamchi siltar, o'ng tomondagini o'ng tomonga, chapdagisini chap tomonga quvlar edi. Buni ko'rib to'planganlarning esxonasi chiqib ketdi. Uncha-muncha ga, hatto yer tebransa ham qilt etmaydigan bu vazmin yigitning birdaniga xuddi jin chalganday baqirib-chaqirishi, og'zi-burnini qiyshaytirib, kuchanib to'g'ri kelgan odamni qamchi bilan savalashini ko'rgan odamlar yuraklari chiqib:

— Mana bu jinni-pinni bo'lganmi o'zi?

— Esi joyida emas-ku!

— Mayib qilishdan toymaydi bu...

— Qochinglar!

— Ha, ketaylik! — deyishib duch kelgan yoqqa qocha boshlashdi.

Sariq Ivan bilan Ko'shen ham odamlarning orasida qochib borardi. Faqat haydovchi yigitgina qimir etmadi. Qo'lida mashinani buraydigan kalit. Hozirgina mashinaning tagidan chiqqani ko'rinib turar edi. Boshidagi g'ijimlangan kepkasi bilan egni-boshi qora moy.

— He, masxaravoz it!

U shunday deb, haydovchiga ham hamla qildi. Pochalari shimarilgan yalang'och boldiriga shart-shurt qamchi tortib yubordi. Haydovchi bunga parvo ham qilmadi. Qamchini qayta havoga ko'targan Yodgor buni ko'rib, nima qilishini bilmay, qo'li ko'tarilgancha muallaq qoldi.

— Ket! Yo'qol!

Haydovchining ko‘zida g‘ilt-g‘ilt yosh aylandi. Yodgorning qahr bilan ko‘tarilgan qo‘li shilq etib yoniga tushdi. So‘ng u qamchini uloqtirib yubordi-da, haligina partorg eshik oldiga boylagan to‘riq otga sakrab mindi.

— Hoy, rais, to‘xta! Qayoqqa borasan? Gap bor.

Yodgor ot tizginini qo‘liga olgach, yoniga kelib qolgan partorgga qaradi. U hammaga aql o‘rgatadigan bu odamdan tezroq qutulgisi kelib:

— Dengizga borib kelmoqchiman, muzni ko‘rib qaytaman! — dedi-da, otni yo‘rttirib jo‘nab ketdi.

— Hali muz yaxshi qotgani yo‘q. Baliqchilarni haliberi ishga chiqarib bo‘lmaydi. Faqat aylanishib qolma, tezroq qayt! — deb qichqirdi partorg uning ketidan...

Yodgor yaqin orada qaytib kèlmasligini yaxshi bilardi. Ovul yaqinidagi baland jarlikda asta qiyalab tushdi-da, to‘riq otni tushovlab, jarlikka qo‘yib yubordi. U yog‘iga o‘zi asta piyoda ketdi. Kechasi yoqqan momiq qor oyog‘i tagida g‘arch-g‘urch qilardi. Nazarida Sariq Shaya hozir ham uni ta’qib qilib kelayotganday, qulog‘ining tagida shang‘illayotganday bo‘lardi. Birdan a’zoyi badani jimirlab ketdi. Busiz ham asablari taranglashib turgan Yodgor, battar yuragi xijil tortib, odimini tezlashtirdi. U dengiz chetidagi muzning odamni ko‘tara oladigan joyigacha bordi. Xuddi shu yerda, boya Sariq Shayani mushtlayotganida xayoliga ham kirib chiqmagan bir narsani esladi. Burni qonaganidan so‘ng uni o‘chdi... So‘ng qonni yuzlariga chaplab yubordi-da, xuddi o‘lishiga ko‘zi yetganday, uning o‘zi Yodgorning gurziday mushtlariga yuzi, ko‘zini tutib berdi. Qiziq, nega bunday qildi? Bu qanaqasi bo‘ldi? Yo inisidan kaltak yeganiga nomus qilib, uning qo‘lida o‘lgisi kelganimi bu?! Yo‘-o‘q. Unaqa emas. Burni buzilsa, basharasi dabdala bo‘lsa, tishi sinsa... bularning hammasi sud oldiga borganda ashyoviy dalil, fakt. Ha, ha, akt qilish uchun naqd fakt kerak bo‘ladi. U quv xuddi mana shuni o‘ylagan. Meni qo‘lga tushirish uchun unga xuddi shu kerak.

Yopiray! Bu Sariq Shaya haqiqatan ham sariq chayonning o‘zginasi ekan-ku, a? Ha, xuddi sariq chayonning o‘zginasi! Mana ko‘rasiz, endi Yodgorning ketiga tushadi. Xudo biladi, u hozirning

o‘zidayoq bo‘lgan gaplarni qog‘ozga tushirib, rayonga chopib ketgandir. Hali anavi qo‘ziqoringa o‘xshash amaldorning oldiga boradi. Xo‘sh, bordi ham deylik. Buni qoralaydigan hujjatlarni oldiga yoyib qo‘ydi ham deylik. Shunda u nima qilar ekan? Qo‘llarini qornining ustiga qo‘yib, xursand bo‘lib, hujjat to‘plab borganga “malades, malades!” dermikan?.. Bordi-yu, bu rasvo rayondan bir gap chiqara olmasa, viloyatga chopadi. U yerdan ham hech narsa chiqmasa, undan yuqoriroqqa boradi. Ishqilib, qadami yetgan joyda qarindoshini yomonotliq qilib, ishga olmaydigan qilib, qora eshakka teskari mindirib, yuziga kuya surkab qaytmasa ko‘ngli tinchimas-ov!

Kun birdan kech kirib qolganday tuyuldi. U turgan joyidan jilmay xayol surib turar edi. Ortida bepoyon Orol dengizi. Suv yuzasi hali muzlab ulgurmagan. Hamisha cheki-chegarasi yo‘q bo‘lib ko‘rinadigan dunyo hozir uning ko‘ziga juda tor ko‘rindi, hozir u xuddi dunyoning chetiga kelib turganday tuyuldi. Mana dunyoning chetidagi so‘nggi izlari... go‘yo orqa tomonda ham, oldinda ham oyoq bosadigan yer yo‘qday, dunyo tugab qolganday. Xo‘sh, endi qayoqqa boradi? Kimning oldiga boradi? Shu shovullab turgan bepoyon dengiz ortida ham oyoq bosguday yer qolmaganday nazdida. Go‘yo uning ortida osmon, yer, suv, el-u yurt yo‘qday. Qadimda ota-bobolarimiz xuddi mana shunday o‘ylashardi: ular nazarida dengiz ortida hech zog‘ yo‘q, hunar, ilm yo‘q edi. Ular jamiki ko‘kdagi qudratni — osmondagi Xudodan, jamiki yerdagi karomatni — payg‘ambarning sharofatidan deb tushunishardi. Ovul odamlarining nazarida suv payg‘ambari Sulaymon, agar xohlasa, suv ostida xuddi yerda yurganday yuraveradi.

Bordi-yu, Sulaymon payg‘ambarning odamlar tasavvur qilgan o‘sha sehri unga qo‘nguday bo‘lsa, hozir dengizga tushar edi-da, sehrli hassasining uchi bilan moviy to‘lqinlarni xuddi billur vazani chertganday jaran-jurung qilib urib, borsa kelmasga ketgan bo‘lur edi. Afsuski yonida na Sulaymon payg‘ambar-u, na qo‘lida uning sehrli hassasi bor. To‘g‘ri, baliqchilar ovulida oppoq soqoli ko‘ksiga tushadigan Sulaymon ismli bir chol bor. U hassasini qo‘liga mahkam ushlab, kunchuvoqda o‘ho‘-o‘ho‘ qilib yo‘talib o‘tirgani-o‘tirgan. Umr bo‘yi suv kechib yursa-da, unga Sulaymon payg‘ambarning

sehri-karomati qo'nmagan. Qiladigan ishi shuki, pochtalyon bola har oyning oxirida besh-o'n so'm pensiya olib kelib beradi, shuni oladi. Ilgarilari u otasi bilan to'r tashlab, baliq ovlagan, deyishadi. Kim biladi deysiz? Ovlagan bo'lsa, ovlagandir. Ammo hozir... salom bersang, eshitmaydi, qo'lidagi hassasini dir-dir titratib, ikki tizzasining orasiga qisadi-da, qo'lingni mahkam ushlab, qulog'ini og'zingga tutgancha: "A? Nima deysan? Qattiqroq gapir!" deb sog' boshingni savdoga qo'yadi.

Odamzod Xudodan kecha-yu kunduz yolvorib umr tilaganda, unga ko'rsatgan mehr-shafoati shu bo'lsa, unda Yaratganning qudrati ham haminqadar ekan-u.

U qattiq xo'rsindi. Uni o'z xayollari biyday dalada xuddi och kuchukday tinmay talayverdi-talayverdi...

Bir mahal shamol turdi. Orol ob-havosiga tushunib bo'lmaydi: kutilmaganda ayniydi-qoladi. Tevarak-atrofga sovuq inib, osmonga birpasda tusi sovuq qora bulut chiqdi. Qor uchqunlay boshladi.

Yodgorning qaytgisi keldi. Sovuq izg'irin chimdib achitgan yuzlarini qo'llari bilan uqaladi. Ketadiganlar ketib bo'lgandir. Dengiz bo'ylab, muz ustidan ketganida, allaqachon qorasi ko'ringan bo'lardi. Ko'rinmaganiga qaraganda, qir yo'li bilan ketdi shekilli-da? Shunaqadir-ov?!

SHERXON MURTAZO

(1932–2018)

Sherxon Murtazo 1932-yil 28-sentyabrda Jambul viloyatining Juali tumanidagi Talapti ovulida tug'ilgan. 1955-yilda Moskva davlat universitetini tamomlagan.

Yozuvchining "Topilgan dengiz" (1963), "Noma'lum askarning bolasi" (1969), "Axmetjonning qasamyodi" (1973), "Miltiqsiz front" (1977) qissalari, "41-yilning kelinchagi" (1972), "Internat noni" (1974) hikoyalari, "Qora marjon" (1977), "Qizil o'q", "Oy va Oysha" romanlari (1999), to'rt jildli (1990–2000), asarlarining 6 jildligi, tanlangan asarlarining 7 jildligi (1998), "Bir kam dunyo" (2008) kitoblari nashr etilgan.

XADICHA BUVI

Xadicha buvi rosa terladi. "Shuni ichmasam o'lamanmi, endi ichmaganim bo'lsin", deb oq choynakning qopqog'ini ochib qaragan edi, gup etib xushbo'y bug' chiqdi-yu, tagida qip-qizil choy ko'rindi. "Kel, uvol bo'lmasin, ichib qo'yaqolay", dedi o'ziga o'zi.

Qip-qizil yuzidan ter quyilar, u kattagina oq dastro'moli bilan tinmay artinar edi. Nimadir esiga tushdi shekilli, bo'ynini cho'zib, derazadan tashqariga qaradi. Ariq bo'yidagi hali o'rilmagan chirmovuq bilan sho'ra xuddi zang bosgan simday qoramtir tusga kiribdi, olma daraxtlarining barglari sarg'ayib, chang bosib ketibdi. Ularning shu ahvolga kelib qolganiga achinganidan, borib har bittasini ho'l latta bilan avaylab artib qo'ygisi keldi. Kungay tomondagi novdalarning olmalari qizara boshlabdi. Makkajo'xorilarning popugi to'kilib, so'tasi sarg'ayib qolibdi. Kungaboqarlar xuddi birovdan uyalganday boshlarini egib turar, pishib ketgan pomidorlarni esa tovuqlar cho'qishar edi. Xadicha buvi ichida: "Ha, harom o'lgurlar", dedi. Pomidor ham o'zi bu yil rosa bo'ldi-da. Bir o'zi

qanchayam yerdi deysiz. Qaynisi Chalaboyning bolalariga: "Mana buni terib olinglar", degan edi, ular:

— O'zimizda ham ko'p, — deb qayrilib ham qarashmadi. "Sadag'ang ketay to'qchilig-ey, — deb qo'ydi Xadicha buvi ichida. — Xudo balo-qazosidan asrasin-da. Hammayoq ma'murchilik".

U ko'chani endi ko'rayotgandek uzoq tikilib qoldi: qilt etgan jon yo'q. Molxona devorining soyasida yotgan sariq itning tili osilib, ikki buyuri bilqillaydi. Anchayinda ku-ku, ku-ku qilib tinim topmaydigan musichalar ham daraxtlarning qalin yaproqlari orasiga kirib olib, miq etmay o'tiribdi. Faqat qayerdadir chigirtka tinmay chirillaydi. Chilla chiqmagan payt. Dala-tuz issiqqa bardosh berolmay pinakka ketgan.

Tevarak-atrofdagi bu sokinlikni ko'rib, Xadicha buvining ham uyqusi keldi. O'tirgan yerida kamzulini boshiga qo'yib, endi qiyshaygan ham ediki, ko'chada birov qichqirganday bo'ldi. U boshini ko'tarib quloq soldi.

— Foto! Fotosurat!

Hozirgina jimjit bo'lib turgan ko'chaga odamlar yopirilib yugurib chiqishdi. Tuman markazi bu yerdan ancha olisda, birorta begona odam kelguday bo'lsa, hammaning ko'rgisi keladi. Bu ancha-muncha odam emas, fotograf-suratchi! Suratchini kim ko'rgisi kelmaydi deysiz?

— E, suratingni xudo ko'tarsin! — deb Xadicha buvi yostig'iga yana bosh qo'ydi. Shu payt tunov kuni mana shu suratchi kelganida, Oqshay degan ovuldoshi yoshligidagi suratini berib kattaytirib olgani esiga tushib ketdi.

"Bachkana bo'lmay o'l! — dedi Xadicha buvi labini burib. — Hozirgi po'rim yoshlarga o'xshab suratini cholining yoniga osib qo'yganiga o'laymi! Sharmandalik-ku bu! Tag'in ikkala suratning ham hoshiyasiga kashta tikilgan lungi osib qo'yganiga kuyaymi. Shon-u shavkatingdan o'rgildim!"

Xadicha buvi o'zicha Oqshay kampirni qanchalik kesatib-muqatmasin, ovulga kelgan suratchini ko'rgisi kelib, o'rnidan qo'zg'aldi. U dom-daraksiz ketgan Maqsudining kichkina suratini kattaytirib olishni anchadan beri ko'ngliga tugib yurgan edi.

O‘zi tuman markaziga olib borib kattaytirib kelay desa, oyoq-qo‘li chaqqongina qiz bola emaski, chopib borib kelsa. Keyingi kunlarda tizzasi tushmagur sirqiraydigan odat chiqardi. Beli ham tez-tez og‘rib turadi. Mana shuning hammasini urush paytlarida yalang-oyoq suv kechib, qor kechib lavlagi sug‘organidan deyishyapti. Hammasi mana endi chiqyapti.

“Izlagani oldidan chiqdi, degani shu emasmi? Bu nima yotish?” deb u o‘rnidan turdi-da, sandig‘i tagida bog‘liq turgan qog‘ozlar orasidan suratni olib yoruqqa tutib ko‘rgan edi, xuddi Maqsudi tirilib kelganday bo‘ldi-qoldi: uning ko‘z o‘ngida peshanasi yarqiragan, qovoqlari bo‘rtib chiqqan bo‘z yigit namoyon bo‘ldi.

Bu suratga katta urush arafasida tushgan edi. Bungacha Maqsud otliq askarlar qatorida Xalxingol urushida ishtirok etib, ovuliga qaytgach, ovuldoshlari uning ot qulog‘ida o‘ynaydigan chavandozlik hunarini ko‘rib, yoqa ushlashgan edi. U chopib borayotib otning bag‘riga sho‘ng‘ir, yana chapdastlik bilan otning ustiga chiqib olar edi... Shunday qilib, ovulga otning qashqasiday tanilib yurgan kezlarida mana shu Xadichaga duch keldi...

— Voy bevafo dunyo-ey! — deb xo‘rsindi Xadicha buvi suratni ro‘moli bilan avaylab artarkan.

Molxonaning ko‘lankasida yotgan Moylioyoq Xadicha buvini ko‘rib, zanjirini shildiratib o‘rnidan turdi. Dumini likillatib biron nima ta’ma qilganday bo‘ldi. Xadicha buvining qo‘lidagi ovqat emas, qog‘oz ekanini ko‘rgach, dumiga yopishgan itpashshani quvlab chir-chir aylandi. Pashshasi tushmagur unga osonlikcha tutqich bermadi, ovora qildi.

Suratchi Xadicha buvi olib kelgan suratga biroz qarab turdi-da:

— Bu seniki bola? — deb so‘radi.

— Hoy, yashshamagur, esing joyidami? Bu mening erim! — dedi Xadicha buvi jahli chiqib.

— Meniki o‘ylagan, bu seniki bola, — dedi suratchi xijolat bo‘lib.

— Sen o‘ylama, o‘ying bilan qo‘shmozor bo‘lgur. Qara buning gapini! Buni katta qilib ber. Tag‘in biror yerini buzib qo‘yma!

Xadicha buvining bunaqa qattiq gapiradigan odati yo'q edi. Maqsudi yoshgina bo'laturib, o'zining qarib qolgani alam qilib ketdi-da! Aslida qozoqlar: "Qo'shilganing bilan qo'sha qari!" deb bekorga aytmasalar kerak.

Uning bu achchiq-tiziq gaplaridan suratchining jahli chiqay dedi-yu, ammo bilib-bilmay sho'rlikning yarasini tirnab qo'yganini sezib, o'zini bosdi. U Xadicha buviga qarab kuldi:

— Seniki er bilan tushgan surat bor?

Bu savol ham Xadicha buvining nozik joyini tirnab o'tdi.

— Voy sho'rlik, unaqa surat yo'q. Sen ham qayoqdagi gaplarni so'rar ekansan-ku. Ikkovimiz ana borib tushamiz, mana borib tushamiz, deb yurganimizda katta urush boshlanib ketmadimi axir? U paytlarda turmushga chiqadiganlar hozirgilarga o'xshab kuyovi bilan yonma-yon suratga tushishga uyalishardi. Hozir yaxshi bo'ldi: boshlari, avvalo, suratda qo'shiladi...

Suratchining Xadicha buviga rahmi kelib ketdi. U Maqsudning askar kiyimida tushgan suratini ushlagancha biroz o'ylanib qoldi.

— A, seniki qiz paytda tushgan surat bor? — deb so'radi bir mahal.

Bolalarini ko'tarib olgan yosh kelinlar, bola-chaqa suratchini o'rab olib, qiziqib qarab turishar edi: "Xadicha buvining qizlik paytidagi surati nima uchun kerak ekan-a?!"

Xadicha buvi beixtiyor Maqsudining suratiga qo'lini cho'zib:

— Ha, qiz kunimdagi suratim senga nima uchun kerak bo'lib qoldi? Men unda yolg'iz o'zim tushmaganman-da, bitta dugonam bilan birga tushganman. Bilmadim, sandiqda yotgan bo'lsa kerag-ov, yov olarmidi? — dedi. U nega ekanini o'zi ham bilmagan holda Maqsudining suratiga qo'lini cho'zganicha turardi.

— A, sen podrujka ikkov tushgan surat olib kel, a? — dedi suratchi.

— Uni nima qilasan, jonim-ov? — dedi Xadicha buvi suratga cho'zilgan qo'lini haliyam tortmay.

— A, sen olib kel, a. Keyin ko'rasan...

— Meni boshingga urasanmi, sho'rlig-ov. Undan ko'ra manavini yaxshilab kattaytirib ber, — dedi Xadicha buvi Maqsudining suratini ko'rsatib.

— Baribir sen o‘zingniki suratni olib kel, — deb suratchi gapida turib oldi.

— O‘rissan-da, a? Aytganingdan qaytmaysan... — deb Xadicha buvi uyiga ketdi va bir vaqtlar dugonasi bilan tushgan suratini olib keldi.

Suratchi bir-ikki dugona quchoqlashib kulib turib tushgan suratga, bir Maqsudning suratiga tikildi. Shundan so‘ng Xadicha buviga qarab, negadir boshini chayqab qo‘ydi.

— Nima, o‘xshamayapmanmi? — dedi Xadicha buvi. — Ishonmayapsan-da, a? Mana bu — menman. Mana bu — Ulbo‘sin. Teng o‘sgan edik, bir partada o‘tirib o‘qigan edik. Bir ovulning qizlari edik. U mendan burun turmushga chiqib ketdi. Bu suratga Ulbo‘siniing to‘yidan sal oldin tushganmiz. Ikkalamiz ham xursand bo‘lib, kulib turgan ekanmiz. Hademay urush boshlanishini qayoqdan bilibmiz... Ulbo‘sinning ham eri urushga ketib, qoraxat keldi... Yolg‘izgina o‘g‘li bor edi, hozir o‘sha o‘g‘li azamat bo‘lgan. Ulbo‘sin o‘g‘lining qo‘lida... Bu ham yaxshi. O‘rnida bor o‘ngalar, degani shu-da!

Suratchi oldidagi yuzlarini ajin bosgan, qaddi egik kampir bilan suratdagi yashnab, kulib turgan qizdan umumiy o‘xshashlik qidirib biroz turdi. Avvalgi uchqun kampirning ko‘zidagina qolganini sezdi...

* * *

Oradan bir hafta o‘tgach, suratchi “Zaporojes” mashinasida keldi. Odamlarning buyurtmalarini olib kelib, qo‘l-qo‘liga topshirdi. Hamma xursand.

— Iye, ilgarigidan ham chiroyli bo‘lib ketibsan-ku, — deyishardi ular bir-birlariga.

Bu suratchining bir odati: suratga tushgan kim bo‘lishidan qat’iy nazar, uni hozirgi modada kiyintirib qo‘yadi. Ilgari sen chakmon yo kamzul kiyib tushgan bo‘lsang, endi o‘sha surating kattaytirilganda yaxshi kostyum, oq ko‘ylak, ajoyib galstuk taqib tushilgan bo‘lib qoladi.

Xadicha buvi ham bodi bor oyog‘ini sudrab bosib, zo‘rg‘a yetib keldi. Suratchi darhol karton qog‘ozga yopishtirilgan patnis-

day rasmni uning qo'liga tutqazdi. Xadicha buvi avvaliga suratdagilarni taniyolmay qoldi. U yuz-ko'zlarini, peshanasini ro'moli bilan oshiqmay artib, suratni o'zidan uzoqroq tutib qaradi. Peshanasi tirishib, qoshlari kerildi. Ko'zini yumib-ochib yana tikildi.

"Bu qanaqasi bo'ldi?" deganday yonidagilar ham ajablanib qarab turishar edi.

— Iye, Xadicha, kuyoving senga teskari qarab qolibdi-ku. Nima balo, ikkalang urishib qolganlaringda tushganmisanlar? — dedi Oqshay kampir.

Xuddi mana shu gapni Xadicha buviniig o'zi ham suratchiga aytmoqchi edi, ammo Oqshay kampirning kesatig'idan keyin fikri o'zgardi. Endi u suratchiga qarab:

— Qarasho, qarasho! — deb qo'ydi.

"Janjal qilmasa edi", deb cho'chib turgan suratchiga jon kirdi. Maqsudning ilgarigi suratidan nusxa olib, ustidagi askar kiyimi o'rniga yangi kostyum, oq ko'ylak kiydiribdi, galstuk taqdiribdi. Ammo furajkasiga tegmabdi.

Furajkasini olib qo'yish qiyin bo'libdi: uni olsa, yuz ko'rinishi buzilar ekan. Shunday qilib, Maqsud suratda qirqinchi yillarning harbiy furajkasini-yu, yetmishinchi yillarning modadagi kostyumini kiyib, jiddiy yigit bo'libdi-qolibdi. Keyin suratchi Xadicha bilan Ulbo'sin ikkovi kulib turib tushgan suratdan Ulbo'sinni kesib olib tashlab, uning o'rniga Maqsudni qo'yibdi-da, katta qilib qayta ko'chiribdi.

— Jonim-ov, qachon tushgan edinglar? — dsdi Oqshay kampir hayron bo'lib.

— Xabaring yo'qmidi hali, Oqshaybonu, — dedi Xadicha buvi yonginasida shildirab oqayotgan suv bo'yidagi terak tagiga o'tirayotib. — Hov anavinda, to'yimiz o'tganidan so'ng tushmabmidik? Talay marta ko'rgan eding-ku. Esingdan chiqibdi-da? Ha, senlarga o'xshab devorda ikkalamiz ikki yerda osilib turganimiz yo'q. Xudoga shukur, hamisha birgamiz...

Bu gal Xadicha buvining tovushi o'ktam chiqdi. Oqshay kampirning ruhi tushib ketdi: ko'rinishidan xuddi olchi turgan oshiq soqqa tegib pukka tushganday holatda edi.

— Mana, kattaytirib oldim, — dedi Xadicha buvi suratni ro'moli bilan avaylab artarkan. — To'rga osib qo'yaman. Ming qatla shukur, hamisha birgamiz... Xoy, suratchi, — dedi u birdan tovushini baland ko'tarib. — Mana bundan yana bittasini tushirib ber. Tulkiboshdagi qizimga yuboraman, qarasho?

Oqshay kampirning nafasi ichiga tushib ketdi. Ammo ketayotib negadir labini burib qo'ydi...

SAKEN JUNISOV

(1934–2006)

Saken Junisov 1934-yil 1-fevralda Shimoliy Qozog'iston viloyatining Qiziltu tumanidagi Kishkenekol ovulida tug'ilgan. 1957-yilda Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

Uning birinchi kitobi "Sonarda" 1959-yilda nashr etilgan. O'smirlar uchun "Buvim, tabib va shifokor", "Kimning makoni yaxshiroq?", "Soqov botinka" va boshqa kitoblari chop etilgan. "O'chmagan izlar" qissasini, "Ovloqdagi yolg'iz uy" romanini, "Aqan seri" roman-dilogiyasini, "Birinchi vagon", "Zamanay va Amanay" qissalarini yozgan. Ko'plab pyesalari respublika va viloyat teatrlari sahnalarida qo'yilgan.

2000-yilda "Saken seri el haqida, el Saken seri haqida" kitobi nashr etilgan.

"EHTIYOT BO'L, FOTO"

Shaharning chekkarog'idagi mevazor bog'ning yo'g'on-yo'g'on temirlardan naqshlab ishlangan katta darvozasi oldida baland simyog'och bor. Unga mahkamlangan pochta qutisining qopqog'i har galgiday bugun ham necha marta ochilib, necha marta yopildi.

Yetti-sakkiz yoshlardagi, yengilgina kiyingan bir bola simyog'ochning yonginasida o'sgan terak tagida o'tiribdi. Uning bu yerga kelganiga chamasi bir-ikki soat bo'lgan.

Bog' ichida oppoq soqolli, biroz munkaygan choldan bo'lak hech kim ko'rinmaydi. U meva daraxtlarining taglarini ko'zdan kechirib, nimalarnidir o'ylab yuribdi. Chol bolaning yaqiniga kelganda ko'zoynagining ustidan qisiq o'tkir ko'zlarini unga tikib o'tadi. Vaqt sekin o'tmoqda. Bola ko'chaning muyulishidagi ustunda

o‘rnatilgan katta soatga biroz tikilib qoldi. Soatning uzun tili onda-sonda shilq etib, bir siljib qo‘yadi.

— Bolakay, birovni kutib o‘tiribsanmi? — deb so‘radi to‘satdan boyagi chol bog‘ ichida turib.

— Ha, kutyapman, — dedi dovdirab qolgan bola to‘satdan berilgan savolga javob topolmay. Keyin shosha-pisha o‘rnidan turib:
— Shunday o‘zim, — dedi.

— O‘zim-po‘zimingni qo‘y, qanchadan beri o‘tiribsan. Qosh qorayib qoldi, yomg‘irda qolmagin tag‘in, uyingga bor, — dedi chol osmonni bosib kelayotgan qora bulutni ko‘rsatib.

Chindan ham qosh qorayib qolgan edi. Osmonni qoplagan bulut quyuqlashgan sari ko‘chada harakat ham kamaya bordi. Onda-sonda yog‘inning yaqinligini sezgan odamlar lip etib u yoq-bu yoqqa o‘tib qoladi, xolos. Biroq bola uzoqqa ketmadi. Ko‘chaning narigi betidagi yo‘g‘on terakning tagiga o‘tib turdi. Turgan joyi juda qulay: daraxt yaproqlari yomg‘ir tomchilarini yerga tushirmaydi, o‘zini esa hech kim payqamaydi. O‘tgan-ketgan mashinalarni daraxt butoqlari orasidan ko‘rib o‘tirishi mumkin.

Cholning gapi to‘g‘ri chiqdi. Avval shitirlab tomchilab turgan yomg‘ir birdan jalaga aylandi. Yomg‘ir tomchilari yaproqlar ustidan bolaning ustiga tushaverdi.

Bola yonma-yon o‘sgan ikki daraxt o‘rtasida turgancha kelayotgan mashinaga qaragan edi, tepadan bo‘yniga muzday suv tushib seskanib ketdi. U bo‘ynini qisgancha orqadan eshitilgan yo‘g‘on tovushga erinibgina qaradi. Tepasida plashch kiyib olgan odamning turganini ko‘rdi.

— Yomg‘irda nima qilib o‘tiribsan, boya uyingga bor demabmidim?

— Ota, men-chi...

— Bor darrov, uyingga bor, — dedi qorovul basharasini bujmaytirib. U bolaning qo‘lidan biroz joygacha yetaklab borib, orqadan gapirib qoldi: — Hayronman, jinni-pinni bo‘lganmi, tuppa-tuzuk bolaga o‘xshaydi-yu. Aqli bo‘lsa yomg‘irda turadimi?

Bola noiloj orqasiga qaray-qaray uyiga tomon ketdi. Yupqa ko‘ylagi jiqqa ho‘l bo‘lib, badaniga sovuq o‘tganini endi sezdi.

O‘zini qanchalik tetik tutmasin, baribir tishlari takillay boshladi. Shu payt ro‘parasidan “GAZ-67” mashinasi o‘tib qoldi. Unda haydovchidan boshqa yana bir ayol bor. Marat mashinaning orqasidan tikilganicha qoldi. Ketidan yugurmoqchi ham bo‘ldi-yu, lekin duch kelgan mashinaning ketidan yuguraverish yarashmaydi-da, degan fikrda to‘xtab qoldi. Baribir mashina mevazorning oldidan o‘tib ketguncha uning yuragi gupillab urib turdi.

Gazik boyagi simyog‘ochning yoniga kelganda tappa to‘xtadi. Bola g‘ildiraklarning tormoz berilgandagi g‘iyqillashlarigacha eshitdi. Bola orqasiga qaytishni ham, uyiga ketishni ham bilmay qoldi. Qo‘lida xat soladigan xalta ushlagan bir ayol mashinadan tushib pochta qutisi yoniga yaqinlashganida bola nimalarnidir gapirib yuborganini o‘zi ham sezmay qoldi. Ammo yomg‘irning shatir-shuturi, o‘tib turgan tramvaylarning jarang-jurung ovozlari uning tovushini bosib ketdi. Ayol o‘tirishi bilan mashina joyidan qo‘zg‘aldi.

Bolada endi uyg‘ongan umid uchquni boyagi mashina muyulishdan burilib ketishi bilan yana so‘ndi. Mashinaning izlarini yomg‘ir yuvib ketdi. Boyadan beri sirli bo‘lib ko‘ringan simyog‘ochda endi hech qanday ma’no qolmaganday edi.

Bo‘sh xat qutisiga qaray-qaray kelayotgan bola mevazorning panjaralariga yetgach, u yoqdan bu yoqqa yurib turgan qorovulga ko‘zi tushdi. U to‘xtab qoldi. Qorovulning o‘ziga sinchiklab tikilganini payqab, qayoqqa yurishini bilmadi.

Simyog‘ochning yuqorisiga o‘rnatilgan lampochkaning yorug‘ida tushayotgan katta yomg‘ir tomchilari ko‘rindi. Nur ostida qorovulning ko‘lankasi aniq ko‘rinib, borgan sari unga yaqinlasha boshladi.

Qorovul bu bolani haligina ko‘rgan bo‘lsa ham, boshqami deb gumonsiraganday engashib, uning yuziga tikilib qaradi. Yo‘q, o‘sha bola ekan.

— Iye, hali ham shu yerdamisan? — deb so‘radi nima deyishini bilmay. “Tavba, bu bolaning jinni-pinni bo‘lgani rost. Bo‘lmasa bu joyda nima qiladi-ya o‘ralashib. Sinab ko‘rish kerak”. — Qayoqqa borasan, bolam? — deb so‘radi chol.

— Shu yerga. Haligi mashinadagi...

— Bu yerdan nima olasan? Bolaginam, esing joyidami? — dedi yana ham pastroq engashib, bolaning qulog'iga.

Bola indamadi. "Esini so'raganim alam qildi shekilli. Bunga endi qanday savol berish mumkin?" Ish borgan sari chuvalashdi. "Yo'q, bu bolada bir sir bor. Aniqlash kerak. Qancha quvsang ham uyiga ketadigan emas. Buning ustiga yengil kiyingan, bu ahvolda qoldirib ham bo'lmaydi".

Qorovul bolani qochib ketmasin deb qo'lidan mahkam ushlab mevazor ichidagi kichkinagina yog'och uychaga olib keldi. Bu joy qorong'iligi uchunmi yoki o'zi ko'rimsiz bo'lganidanmi, bolaning ko'ziga qo'rqinchli ko'rindi. U bu yerga nega keldik deganday, aniq ko'rmasa ham qorovulning yuziga qarab-qarab qo'ydi.

Qorovul chiroq yoqdi, hujraning ichi sal bo'lsa ham yorishdi.

Ustiga u-bu tashlangan karavotning yuqorisiga bola, pastki tomoniga chol o'tirdi.

Qorovul cho'ntagidan yarim metrcha keladigan surp ro'molchasini olib yuzini artdi-da, keyin:

— Xo'sh, oting kim? — deb so'radi.

— Marat... Sizning otingiz kim? — deya tortinib so'radi bola ham.

— Aleksandr Trofimovich, — dedi qorovul bolaning boshidan silab.

Maratning o'ylaganidan boshqacha bo'lib chiqdi, qorovul xushmuomala kishi ekan.

— Ota-onang bormi?

— B-bor, — dedi. Keyin nega so'radi ekan, degandek Marat unga tikilib qaradi. — Dadam, oyim bor. Lekin dadam hozir uyda emas.

— Bu tarafda nima qilib yuribsan, adashib ketasan...

Lekin shunday yigit adasharmidi. Qorovul har savol berganida, bu qanday bola ekan, deb uning har bir harakatini zimdan kuzatib turardi. Bunga gapning ochig'ini aytmasa bo'lmaydiganga o'xshaydi.

* * *

Voqea bunday bo'lgan edi. Marat mevazor yaqinidagi pochta qutisi yoniga kelgan edi. Bola avval u yoq-bu yoqqa ko'z tashladi-da, keyin shoshmasdan qo'ltig'idagi kitob orasidan ko'k konvert chiqardi. O'z qo'li bilan chiroyli qilib yozilgan "Ehtiyot bo'l, foto" degan yozuvga tikilib, kulimsirab qarab turdi. U oyoq uchida ko'tarilib qutining tirqishidan xatni tushirayotib, ko'zi qiymaganday uni qaytadan olib yana bir qaradi.

U dadasiga yubormoqchi bo'lgan xatning ustidagi "Ehtiyot bo'l, foto" degan so'zlarni o'qigan sayin, yuragi sevinchga to'lar, shirin-shirin xayollarga berilardi. Konvertning ichidan lop etib fotokartochka chiqsa, dadasi rosa sevinadi-da. Pochtalyon xatni ish vaqtida olib borib bersa, o'rtoqlari ham sevinadi. Oyim bilan yonma-yon o'tirib tushgan rasmdan meni ko'rsatib, bu mening o'g'lim, deb tanishtiradi.

Shunday xayollar bilan uyga qanday borib qolganini ham sezmay qoldi. Marat uyga gerdayib kirib keldi. Bundan keyin xatni uzmasdan yozib turaman, deb o'ziga o'zi so'z ham berib qo'ydi.

Qiziq bo'ldi. Marat yozuv stoliga o'tirishi bilan tusi o'zgarib ketdi. Nimadandir cho'chiganday orqasi jimirlab ketdi, ko'zi bir nuqtaga tikilgancha indamay qoldi. Stol ustidagi gul tuvakka onasi bilan tushgan surati tirab qo'yilgan edi. Axir, hozirgina bu suratni dadasiga yozgan xat ichiga solib yubordi-ku?!

Marat biroz titrayotgan qo'li bilan fotoni olib qaradi. Ha, xuddi o'zi. "Dada, oyim ikkovimizdan salom!" degan yozuvlari ham turibdi. Suratga qaragan edi, oyisining kulib turgan ko'zlari unga "bu ishing nimasi" degandek tuyuldi.

Suratni naridan-beri qo'yniga tiqqan Marat uydan otilib chiqdi.

U mevazor boqqa qarab yugurdi. Pochta qutisidagi xatlarni pochta xizmatchilari har kuni mashinada olib ketishini Marat ko'rgan edi. U o'sha odamlardan o'z xatini so'rab olmoqchi bo'ldi.

U bog'chaga yetib kelguncha: "Xatni olib dadam aldanib qoladigan bo'ldi-da", degan o'y sira xayolidan ko'tarilmadi.

Hozir qorovulning hujrasida o'tirgan Marat Aleksandr Trofimovichga shularni gapirib, keyin chetiga suv tekkan suratni olib ko'rsatdi.

Aleksandr Trofimovich avval ishonib-ishonmasdan o'tirdi-da, keyin suratni ko'rgach, xoxolab kulib yubordi.

— Obbo bolasi tushmagur-ey, ko'chada senga birov xat beradi, deb o'yladingmi? Shuncha vaqt yomg'irda bo'kib o'tirganingni qara. Yana bir xat yozib, ichiga mana shu suratni solasan-u, ustiga aviamarka yopishtirsang bo'ldi. Shunday qilsang bu xating boyagi xatingdan oldin boradi.

Qorovul yana miyig'ida kulib qo'ydi. Marat ich-ichidan sevinib ketdi. Axir bunday qilib xat yozish mumkinligini u bilmasdi-da!

ZEYNOLLA SANIK

(1935–2013)

Zeynolla Sanik 1935-yil 15-aprelda Xitoy Xalq Respublikasining Tarbag'atoy viloyatining Shag'onto'g'ay tumanidagi Barliq tog'i yonbag'irida tug'ilgan.

XXRda Zeynolla Sanikning "Baspay" (1996), "Sargardonlik" (1999), "Dala madaniyati haqida o'ylar" (2000), "Otaning oltin izlari" (2002), "Tog' yulduzi" (2005) va boshqa asarlari nashr etilgan. Turli yillarda Almatida "Xon botir Qabanbay", "Baspay", "Sargardonlik", "Qozoq etnografiyasi", "To'g'irilxon — Demejon botir", "Sulaymon bi" kitoblari nashr etilgan. 2017-yilda "An Aris" nashriyoti tomonidan 15 jildlik asarlar to'plami nashr etildi.

AYIQ OTGANNING HIKOYASI

— Ayiqning qitig'i qattiq bo'lar ekan, — deb boshladi Sarsonboy oqsoqol o'z so'zini. Uning katta qovoqlari solinib, tomirlari bo'rtib, jag' suyagi turtib chiqib turar, aft-angoriga qarab ayiq bilan uchrashgan kezdagi ko'rinishi ertak tinglayotgan bolalarning ko'z oldiga kelganday bo'lardi.

Hayot eshiklarini ochib, tik turib, qatorga qo'shilishimiz bilanoq ulug'lar bizni qo'rqitmoqchi bo'lganda "Ayiq kelyapti, voy-bo'-o'y, ayiqni-ya!" deb juda qo'rqitishgan emasmi? Shuning uchun ham ayiqning nomini eshitganimizda ko'zlarimiz baqrayib, yuragimiz zirqirab, yon-verimizga alanglab qolardik. Balki, shuning uchun ham qulog'imiz ding bo'lib, oqsoqolning og'ziga angrayib qoldik.

Shunday dahshatli ayiq bilan uchrashgan oqsoqolning haybatli qiyofasi, ulkan gavdasi, kuchli bilaklari, chapdast barmoqlari, o'tli chuqur ko'zlari, hatto tekis kumush xaltasi, charm qinli pichog'i, qiyshaygan sallasi... — bularning bari hamon xayolimda qolgan.

— Ha, bobo, hikoyangizni ayting, — deb biz hammamiz ovul oqsoqoli Sarsonboyga alpon-talpon yopishamiz.

— Azizlarim, — dedi chol, — men yosh va kuchli vaqtimda ayiq otganman. Yuzimni hech narsadan o'girmaganman. Bir kuni bir ayiqni otdim. Ko'zlagan yerimni o'zim bilaman, ayni qo'sh o'pkaning o'rta nuqtasi edi. Aniq tekkanini bilaman, lekin yiqilmadi. Yarador ayiqning g'azabi chidab bo'lmas bo'ladi. Men ikkilanib, kutdim. Birozdan keyin o'qdan yiqilib, dumalab ketib qaytib turgan joyiga borsam, qonini suvday oqizgani ko'yi bir soyga o'rlab, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Men miltig'imni qaytadan o'qlab izidan bordim. Chap tarafga bir tiramaga kelib to'xtadim. Qarasam, tiramaning o'rta beliga tomon bir yerda bir jar bor ekan, ayiq haligi jarga to'shini to'shagan ko'yi qo'zg'almay tik turibdi.Men shoshib qoldim. Yaqin borishga cho'chidim-da, tepalikka yaqin borib, o'r yog'iga chiqdim. Undan so'ng tosh dumalatib, belgi berdim, qo'zg'almadi, boyagi-boyagiday turaverdi. Tosh otib tekkizib ham ko'rdim, qimir etgan joyi yo'q. So'ng uzun bir tayoqni olib, tepalik tarafdan yaqinlab tegmoqchi bo'ldim. Qayrilib ham qaramadi, kuch bilan itarib yubordim, jonzot nishabga qarab gurs etib tushdi. Ayiq allaqachon o'lib, jarga yopishgan ko'yi qotib qolgan ekan. Tog'larda jarohatni tuzatadigan suvlar, balchiqlar bo'ladi deb burunda eshitgan edim. Zovda ko'rinayotgani o'shanday balchiq bo'lar deb, yoniga kelsam, buloq qorayib oqarkan. Suvning isi odatdagi suvlarnikidan boshqacha tuyuldi. Qolaversa, ayiq ham bu yerga o'zini davolagani kelgan bo'lsa kerak. Bu joylar shu atrofdagi hamma jonzotlarga em bo'larkan-da, degan o'yga keldim. Keyin bu hangoma eldan elga tarqalib, eldan odamlar bu yerga davolanish uchun kela boshlashdi. Echki qoraqo'tiri, tangaqo'tirga o'xshagan kasalliklarga yaxshi davo ekan, balchig'ini ko'pchitib qalpoq ichiga solib, boshga kiyib yursa, kalga ham soch chiqar ekan, degan mish-mishlar tarqaldi. Oxiri bu yer ko'p o'tmay "em buloq" atalib, tog'dagi tabiiy kasalxonaga aylandi. Bundoq qarasang, hayvonlarda ham o'ziga yarasha ong, aql bo'ladi. U o'ziga qaysi joy kerak, kim do'st, kim dushman, nima foyda-yu nima zarar ekanini biladi, — deb qariya soqolini soqoltaroq bilan tarab, chuqur tin oldi.

— Undan keyin u ayiqni nima qildingiz? — biz duv etib savol berdik toqatsizlik bilan, oxiri nima bo‘lganini bilgimiz kelib.

— O‘lgan ayiqni ham so‘yib ololmasmidim, — dedi chol xirillagan kulgi bilan. Shundagina biz o‘zimizni mamnun his qildik.

— Bir kuni yana bir ayiqni otib tashladim, — davom etdi chol, — uning hangomasi bunisidan ham qiziq bo‘ldi.

— Ha, bobo, shu qizig‘ini aytib bering! — deb biz hayratga cho‘mdik.

— U ham yaralanib qochdi, lekin qaysi joyi yaralanganini ko‘ra olmadim, qon izi bilan quvib yurgandim, katta tosh g‘orga kirib ketdi. O‘ngir ichiga qarab edim, yaltiragan ko‘zlarinigina ko‘rdim. O‘lik yo tirikligini bilolmadim. Men ovoz chiqardim, tosh otdim, ayiq harakatdan to‘xtadi. Jarga olib borib otib olgan ayiq yodimga tushdi. Yana bir yog‘ochni olib suqib ko‘rgan edim, qimirlamadi. Yaqinlashib borib turtib ko‘rdim, jim edi. Ha, o‘lgan ekan, degan xulosaga kelib, uchli yog‘ochimni tashlab, yorug‘ga olib chiqdim. Ag‘darib, endi so‘yib olay degan edim, haligi “o‘lgan ayiq” otilib kelib, hars etib hamla qilib qolsa bo‘ladimi? Men qalqib ketdim va tashqariga chiqishga intildim. Qo‘yib yubormadi, o‘kirib o‘ngirning og‘ziga chiqdi. Men ham talvasada, osonlikcha jon bergim yo‘q, qinimdagi pichog‘imni olib, ayiqning qornini tilib yuborishga urindim. Bir qo‘lim bilan ayiqning og‘zini mahkam ushlab, tishlarini yuzimga tekkizdirmaslikka harakat qildim. Shunda mana bu ikki barmog‘im uning og‘ziga kirib ketdi.

Chol bizga ikki barmog‘ini ko‘rsatdi. Biz qattiq qo‘rqib, hurkib ketdik. O‘lim bilan hayot o‘rtasidagi holat ko‘z oldimizga kelib xayolimizni qurtday kemirib tashlayotgan edi.

— E, Xudo-ey, sizni yeb qo‘yay debdi-ku! — dedi bolalarning biri titroq aralash ovoz bilan.

— Yo‘q, qarog‘im, — dedi chol, — u paytda odamga vazminlik, epchillik kerak bo‘ladi. Jon talashib ayiqning ostida yotganimda tipirchilagan ikkala oyog‘im ayiqning choviga to‘g‘ri kelib qolsa bo‘ladimi? Tipirchilab oyog‘im bilan uning oyog‘i buklamasini tataladim. Ayiqning qitig‘i qattiq bo‘lar ekan. Dosh berolmay meni tashlay solib tura qochdi. Ortiga qarashga ham tobi kelmadi.

Qarasam, jiddiygina yaralanibman. Buning ustiga tovonim qayrilib, yerga bosib bo'lmayapti.

Ayiq og'zidan qolgan jonimni o'lja deb bilib, uyimga qaytib kelib, marosim o'tkazib, is chiqardim, em-dori qildim. Ko'p o'tmay sog'aydim. Biroq haligi ayiqda kekim qoldi. U meni dog'da qoldirdi, qattiq aldadi, borgunimcha o'zini o'likka solib yotib oldi. Boshini osiltirganidagi ayyorligi, quvligi-chi. Aytishlaricha, ayiq eng ayyor hayvon bo'lib, bunday qiliqlarning juda ko'pini bilarkan. Tishimni tishimga bosib, kutdim, yana ovga chiqdim. Bir kuni uni otib tashladim. Aslida, yuragini ko'zlagan edim. O'qim kurak suyagining boshiga tegib uzib ketgan ekan. Ayiq menga ortiq qarshilik ko'rsata olmadi. Bir oyog'i yaralanganidan bo'lsa kerak. Bobolaring ayiq otib yurganda mana shunday qiziq ishlarni ko'rgan, — deb so'zini tugatdi chol.

— Ayiqning odam yeyishi rostmi? — deb so'radik biz choldan.

— Umrimda ayiqning odam yeganini ko'rmadim. Ayiq yuragi baquvvat hayvon emas. Odamdan cho'chiydi, quroli bor odamni, katta bilan kichikni farqlay biladi. Bola kezimizda ayollar bilan bolalardan qo'zini tortib olib yeganini ko'rgan yerim bor. Ayiq olovdan qo'rqadi, shuning uchun ular omborda o't yoqib, qo'zichoqlarni o'sha olov bilan himoya qilishardi. Eng afzali qurol bilan yurish, keyin ayiqdan nariroq yurgan yaxshi. Agar yuzma-yuz kelib qolsa, qo'rqmay ayiqning ojiz joyini topishga urining. Qutulib qolishingiz ajab emas. Buning uchun sizga mardlik, jasorat, epchillik kerak, — dedi qariya.

SAYIN MURATBEKOV

(1936–2007)

Sayin Muratbekov 1936-yil 15-oktyabrda Almati viloyatining Kapal tumanidagi Qo'ng'ir ovulida tug'ilgan. 1963-yilda Qozoq davlat universitetini, 1971-yilda Moskvadagi Oliy adabiyot kursini tamomlagan.

"Mening singlim" (1961), "Qishloq olovi" (1964), "Ko'koray" (1967), "O'tov uy" (1968), "Yovvoyi olma" (1972), "Do'st izlab yuribman"(1973) qissa va hikoyalar to'plamlari, tanlangan asarlarining 1981-yilda bir jildligi, 1986 va 1991-yillarda ikki jildligi, 1989-yilda "Qalin qor", 1995-yilda "O'likora" qissalari chop etilgan. 2004-yilda "Eshkak shamol" hikoyalar to'plami nashr etilgan.

HOTAMTOY

I

Qo'ylarni tong otmasdan otarga olib chiqish Husanning doimiy odati. U juldur o'tovning teshiklaridan quyosh nuri tushguncha uxlab yotolmadi. Ha, tong otishini intizorlik bilan kutayotganday o'rnidan uchib turdi. Tashqarida izg'irin. Husan salqingina o'tov ichida bemalol kiyindi, turnaqator cho'zilishib yotgan bolalarini ko'zdan o'tkazdi. Uchala o'g'lining ustida bitta ko'rpa, ba'zan chetda yotganining usti ochilib qoladi, shunda u asta kelib, bolalarining ustilaridagi ko'rpalarini tortib, oyoqlarini berkitadi.

Kechasi bilan qo'ylarga qarab charchagan, sovuqdan bo'yni qotib, tinkasi qurigan Oysha tongga yaqin, hatto ust-boshini ham yechmay, boshini fufaykasi bilan burkagancha, bolalarning oyoq tomoniga cho'zilgan edi.

Husan kiyinib bo'lib, odatiga ko'ra, o'rin yig'iladigan taxta ustidagi kechasi ivitilgan qatiqning yuzini ochdi. So'ng kattakon

sariq kosaga qatiq quyib, yaxshilab ataladi-da, dam olmay sipqardi. Ichib bo'lgach, qatiqning ta'mini endi sezganday, tomoqlarini taqillatib, tamshanib qo'ydi. U mana shunaqa, bag'irday bo'lib uyigan qatiqni ma'qul ko'rardi. Yana bitta ichsammikan, deganday biroz o'ylanib turdi-da, qo'lidagi kosani sekin taxta ustiga qo'ydi. Ichsa qatiq mo'lchilik. Biroq Husan og'zidagi hozirgina tuygan mazadan ayrilgisi kelmadi. Bundan boshqa ovqatga uncha hushi yo'q. U tashqariga chiqdi: toza havo, atrofni shudring bosgan. Osmonda g'ubor yo'q. U chor tarafga nazar solib, havoning avzoyini chamaladi. Yomon emasga o'xshaydi. Uning kichkina qiyiq ko'zlari hali ham uyquga qonmay, yoshlanib turardi. Chala uxlaganidan bo'lsa kerak, qovoqlari shishgan. Tars-tars yorilib ketgan beso'naqay barmoqlari bilan ko'zlarining yoshini artib, xuddi taqir yerda o'sgan tikanday soqol-mo'ylovlarini silab qo'ydi. "Qirib olsam ham bo'lar ekan, — dedi u ichida, — ammo iliq suv yo'qda! Mayli, hechqisi yo'q, tushda choyga kelganimda qirinarman". Shunday deb, yorilgan lablarini yalab, ivitgan bo'ldi.

U otini egarlab mindi-da, qo'raning eshigini ochib, qo'ylarini yaylovga haydab ketdi. Ba'zi kunlari ularni qo'radan sanab chiqaradi. Ba'zan esa sanamaydi ham. Avval past-baland, egri-bugri bo'lib yotgan yaylovga haydaydi, so'ngra uzoq-uzoqdagi o'tloqzorga yoyadi, havoniig avzoyi buzilganda esa, yaqindagi o'tloqlardan foydalanadi. Bu qo'ychilarning azaliy odati!

Yaylovga yetib olguncha suruvning oldi-ortini yig'ishtirib, bitta-yarimta chetga chiqqanini "Hoy, qayt!" deb qichqirib, qo'lidagi uchiga zanjir bog'langan tayog'ini ko'tarib, do'q-po'pisa qilib, qaytarib kelishga to'g'ri keladi. Obdan qirchang'i bo'lib qolgan jiyron cho'ponning baqirib-chaqirganiga parvo ham qilmaydi, u taqimini qimtib, tepkilasa ham xo'jako'rsingagina bir-ikki qadam lo'k-lo'k qiladi-yu, to'xtaydi. Husan ham bunga ko'nikib ketgan, otning qirchang'iligi xayoliga ham kelmaydi.

— Xa-ap, manavi qora to'qolni!.. Yopiray, to'g'ri yursa o'larmikan-a? Uni qara, uni qara, orqasiga qarab ketayotganini! — deb jig'ibiyroni chiqadi.

Asta-sekin quyosh chiqib, tevarak-atrofni zarrin nurlarga belay boshlaydi. Uning nurlari uzoq-uzoqlarni yalab o'tadi-yu, faqat

o‘ydim-chuqurlargina bir muddat oltinrang bo‘yoqlardan bebahra qoladi. Hozirgina miltillab yotgan shudringlar birpasda hovurga aylanadi ketadi. Dalada turli-tuman giyohlarning dimoqni qitiqlovchi bo‘yi ufuradi. Qo‘ylarning betege bilan yovshanni kutir-kutir yegani, dala to‘rg‘aylarining chirq-chirq sayrashi eshitiladi. Ba’zan to‘rg‘aylar qo‘ylarning ustiga qo‘nib, qanotlarini qoqib, go‘yo quyosh shu’lasida cho‘miladi.

Husan quyosh chiqqan tomonga ba’zan qaraydi, ba’zan qaramaydi. Qaragan kunlari:

— Yopiray, kun qisqarib qolibdi-ku! Tunov kuni kun anavi tomondan chiquvdi. Bugun mana bu yoqdan chiqdi-ku, — deb o‘zi bilan o‘zi gaplashib qo‘yadi.

Quyosh terak bo‘yi ko‘tarilib qolganida yana bir marta havoga razm solib qo‘yadi. Bu mahalda bo‘z tusga kirgan osmon ba’zan ochiq, ba’zan esa g‘uborlanib turadi. Go‘yo kuz osmoniga o‘xshaydi: goho ochiq, goho qovog‘i soliq... Dim kunlari zerikarli bo‘ladi, charchoq bosadi kishini. Bunday kunlarda uyga mehmon kelishini, qo‘y so‘yilib, mehmon kutish tashvishi bilan yurishni ma’qul ko‘radi u. Mehmonlar ham qiziq: bir kelsa keti uzilmaydi, xuddi gaplashib olishganday uydagisi ham, qirdagisi ham birdan yopirilib kelishib, shoshirib qo‘yishadi. Kichkinagina o‘tov ichida qadam bosgulik joy qolmaydi; ko‘rpa, yostiq yetishmay uyalganlarini aytmaysizmi? Bir kelmasa bormi, o‘n-o‘n besh kunlab odam bolasi iz solmay qo‘yadi.

Masalan, tunov kuni anchadan beri ko‘rishmagan jiyani bilan kelini bola-chaqasi bilan kelib qoldi. Ularga qo‘y so‘yilib, ziyofat endi avjiga chiqqanida, kechqurun kuyovi uchta o‘rtog‘i bilan yetib kelsa bo‘ladimi? Yangi so‘yilgan qo‘y go‘shtidan qilingan sho‘rvani ichgilari kelibdi. Qizi, boring, qo‘y olib keling, deb jo‘natibdi. Mayli, ularning ham izzat-hurmatlarini joyiga qo‘yib, kutib olishdi. Yarim kechasi shaharda ijroqo‘m sekretari lavozimida ishlaydigan amakisining o‘g‘li saksonga borib qolgan buvisi, bola-chaqasi bilan bir mashina bo‘lib kelib qolishdi. Bolalarga sovg‘a-salomlari bor... Albatta, ular ham bekorga kelishmagandir axir! Na chora, yana bir to‘qli so‘yildi.

Usha kuni Oysha ikkalasining uyalganlarini aytmaysizmi? O'tov ichida nina sancharli joy qolmadi, bola-chaqalariga o'rin yetishmay rosa bo'ladiganlari bo'ldi. Husanning o'zi to'niga o'ralib, mol qo'raning ustida uxlab yurdi. Hammasiga bitta-bitta qo'y berib, bir amallab ko'nglini olishdi-yov!

Mehmonlar galma-galdan kelishsa-ku, qanday yaxshi bo'lardi...

Shundan beri o'n besh kuncha o'tdi. Hech kimdan darak yo'q. Oysha ham, Husan ham zerika boshlashdi. Bolalari ham, uyimizga mehmon kelsa edi, deb qo'yishadi, markazdan keladigan yo'lga intizorlik bilan tikilishadi. "Kim kelsa ham mayli, faqat atoyi xudo qo'noqdan qo'ymasin ekan".

Husan bir xo'jalik markaziga borib kelishni orzu qilardi. Buxgalteriyaga kirib, xotini ikkalasining yoz bo'yi qilgan mehnatlari haqini hisob-kitob qildirib, pul olib, bir-ikki kun o'ynab, qarindosh-urug'larini ko'rib qaytgisi bor. Bu yil topgan pulini o'zicha ko'nglida hisob-kitob qilib yuribdi: xotini ikkovi yoz bo'yi tinmay mehnat qilishdi. Buning ustiga jun qirqishdi — uning qo'shimcha daromadi, qo'zilarni ham ko'ngildagiday bechiqim o'stirdi... buning ham o'ziga yarasha qo'shimcha haqi bor. Mana shularning barini o'zicha hisob qiladi, o'zi bilan o'zi gaplashadi, beso'naqay barmoqlarini bukib sanaydi. "Bu yilgi daromadim yomon emasga o'xshaydi", deb qo'yadi. Biroq u shuncha pulni nimaga xarj qilishni bilmaydi, buni o'ylab ham ko'rmagan. "Bolalar bor-ku..." deb erga chiqib ketgan qizini, keyin viloyat markazida o'qiyotgan o'g'lini eslaydi. Tag'in ikkita bolasi bor: biri o'g'il, biri qiz. Qizi rayon markazidagi maktab-internatda o'qiydi. Ularga ham kiyim-kechak deganday...

Husanning xo'jalik markaziga borib kelaman deganiga bir haftadan oshdi. Bunga Oysha ham qarshilik bildirmagan, "Havo buzilmay turganida borsangiz borib kela qoling", degandi u. Ammo u-bu ish chiqib qolib, har kuni ertaga boraman, deb yurib cho'zilib ketdi. Goh o'tin chopib keladi, goh qo'raning buzilgan joylarini tuzatadi. Nihoyat ertaga ketaman, degan kuni oti kasal bo'lib qolsa bo'ladimi? Bolalari qo'y ketidan choptirib, terlatib kelib suv bergan ekan deng. Xullas, mana shunaqa mayda-chuyda ishlari chiqib qolib, borishi cho'zildi.

Bugun u o'rnidan turishi bilan otini sug'ordi, to'rvasiga yem to'ldirdi, shoshilmay qashlag'ich bilan otining sag'rilarini, qorinlarini, orqalarini qashladi. "Sog'liq bo'lsa, ertaga yo'lga chiqamiz", dedi ichida, otining o'ziga kelib qolganidan ko'ngli to'lib.

Quyosh hali chiqib ulgurmagan, atrof tundlashib turgan mahal edi. Tevarak-atrof shudring, hammayoq sho'r bosganday oppoq. Qo'ra atrofidagi itlar boshlarini ko'tarib, markazdan keladigan yo'lga qarab hura boshladi. Husan ham otini to'xtatib, o'sha tomonga qaradi: qandaydir mashinaning gurillagani eshitildi. Ketma-ket shtab tomondan suv tashiydigan mashinaning qorasi ko'rindi. U ferma mudiri minadigan mashina edi. Sal o'tmay qo'ra oldiga kelib to'xtadi. Kabinada uch odam bor ekan: haydovchi yigit, ferma mudiri, shtabdagi do'konchi.yigit — Biysulton.

— Aytmabmidim, kun chiqmay turib bormasak, Husan og'ani topolmaymiz, — deb shang'illadi ferma mudiri qo'l berib ko'rishayotib. — Ko'rdinglarmi, sal kechiksak, yaylovga ketib qolar ekan. Ha, aytdim-ku, uyqu yo'q bularda deb... Xo'sh, Husan og'a, ahvollar qalay, bola-chaqa omonmi? Hoynahoy, yangamiz uxlab yotgandir? Bir qatiq-patiq ichib olay uyga kirib...

Ferma mudiri birpasda hammayoqni o'ziniki qildi-oldi: he yo'q, be yo'q, haligina Husan qatiq ichgan joydan — o'sha katta kosaga to'ldirib qatiq quyib olib chiqdi-da, tik turib icha boshladi. Mana shunday, hamma narsani o'ziniki deb bilib, tortinmay gapirsa, sho'ring qurg'ur cho'pon-cho'liqlar aytgan chizig'idan chiqmasligini yaxshi biladi bu quv.

— Yangam ham qatiq ivitishni boplab tashlaydi-da! Bol-a, bol! — deb maqtab qo'ydi ferma mudiri qatiqni ichib bo'lib.

"Qarang, buning paxta qo'yishini! Shaytonning o'zginasi... Cho'ponlarga ishi tushguday bo'lsa, aylanib ham qo'lga tushiradi, o'rgilib ham. Tulkidan battar dumini likillatgani-chi!.." Mana, hozir ham Husanning ichi-bag'riga kirib boryapti. U qo'raga bosh suqib, qo'ylarni ham ko'rgan bo'ldi.

— Bu qo'ylaringiz ham kundan-kunga semirib boryaptimi deyman, Husan og'a. Hay qaydam, bu yil oldingizga hech kimni tushirmassiz-ov. Odamlar Bilishboyni maqtashadi, qaydam, tag'in,

bilmadim... Ammo — siz zo‘rsiz. Bu yil ko‘ksingizga bir ordenni taqasiz-ov!

Ferma mudirining maqtovidan Husanning ko‘ngli ancha ko‘tarildi. Ordenni olmasa ham olganday bo‘ldi.

— Endi, buni mehnatga qarab berishadi-da...

— Yo‘-o‘q, olasiz, olasiz, — dedi ferma mudiri xuddi ordenni berish-bermaslik o‘z qo‘lidaday.

Shundan so‘ng ular maqsadga ko‘chishdi.

— Mana bu Biysultonga kutilmaganda reviziya kelib qolib... biroz kamomad chiqib qoldi. Qog‘ozdan adashdimi yo odamlarga bergan pulini ololmay qoldimi, ishqilib anchagina kamomadi bor. O‘sha pullarni o‘rniga qo‘ymasak, ishi sudga oshirilar ekan.

Uning yonida do‘mboqqina qora yigit bo‘ynini egib, ko‘zlarini jovdiratib turar edi. “Boshiga ish tushibdi, degan gap yaxshi gap-mi? O‘zini ancha oldirib qo‘yibdi, bechora. Araqni ichib olib, ikki qo‘lini cho‘ntagidan chiqarmay, kerilib yurardi ilgarilari...”

— Xo‘sh, biz ham elmiz, jamoamiz. Sudlatib qarab turamiz-mi? — deb ferma mudiri Husanga tikildi. — Qani bizning odam-garchiligimiz? Qani hamiyatimiz?

Husan bu gaplardan dovdirab qoldi. Xuddi Biysultonga revi-zorni o‘zi yuborganday, pullarni ham o‘zi sovurganday.

— Ha, albatta... albatta... — dedi u nima deyishini bilmay.

Ferma mudiri imo qilgan edi, Biysulton ko‘krak cho‘ntagidan qandaydir qog‘oz, qalam oldi. Bor-yo‘g‘i yigirmaga yaqin cho‘pon-larning ro‘yxati yozilgan qog‘oz ekan bu. Faqat uch-to‘rttasigina ismi-sharifining ro‘parasiga imzo chekibdi. Husanning ham famili-yasi yoniga “yuz so‘m” deb yozilgan.

Kamomad chiqib qolgan odamlarga cho‘ponlardan pul yig‘ish odat tusiga kirib qolgan. Cho‘pon xalqi mard, qo‘li ochiq bo‘la-di. Ayniqsa, ular ko‘z ko‘rib, qo‘l tutmagan pulni hadya qilish-ga jo‘mard, hotamtoy. Kim bo‘lishidan qat’i nazar, qarzga botib, boshini egib, bularning oldiga kelsa, ro‘yxatga qo‘l qo‘yib bera-veradi. Tunov kuni jamoa xo‘jaligi pochtalyoniga ham xuddi mana shunday ro‘yxat bilan qo‘l qo‘ydirishdi-yu, u kamomadidan qutul-di-ketdi.

Husan qo'lini mashinaning qanotiga qo'yib, imzo chekishga shaylandi. Ferma mudiri esa, hali ham tinmay gapirib turibdi:

— Bu yoqqa kelayotib, Bilishboy oqsoqolnikiga kirib o'tgandik. Juda qo'li ochiq odam-da. "Men yuz so'm emas, yuz ellik so'm beraman", deb qo'l qo'ydi.

Bilishboy — jamoa xo'jaligining ilg'or cho'ponlaridan. Ancha yildan beri u Husan bilan musobaqalashib keladi. Husan bu gapni eshitib, Bilishboyning familiyasi yozilgan joyga razm solgan edi, ha, haqiqatan ham qing'ir-qiyshiq qilib "yuz ellik", deb yozibdi. Husan ham familiyasining yoniga "yuz yetmish", deb yozdi-da, imzo chekdi.

Endi haligi ferma mudiri Husanni osmonga olib chiqib qo'ydiyov! Ular navbatdagi ovulga otlanishdi. Bu mahalda jiyron ot ham to'rvasidagi yemni yeb bo'ldi. Husan unga egar urib, qo'ylarini yaylovga haydadi.

II

Shu kunlarda Husan qo'y boqib yurgan joylar o'tovdan besh-olti chaqirim narida, chiy va qiyoq o'sib yotgan joy bor, xuddi o'sha yerda. U jiyronining suvlig'ini olib, ayillarini bo'shatib, chilviri bilan o'tga qo'yadi-yu, o'zi tepalikroq joyga borib yonboshlaydi. Qo'ylar shu atrofda, ko'z oldida yoyiladi. Ba'zan bitta-yarimtasi sal uzoqlashib ketguday bo'lsa, hayt-haytlab qichqiradi, qo'ylarning atrofida aylanib yurgan itlarini ishga soladi. Bu ham kor qilmasa jiyronga minadi-da, lo'killatib borib oldiga solib quvib keladi. So'ng yana o'sha o'rniga — tepalikka borib yonboshlaydi. Bu paytda u nimalarni o'ylamaydi deysiz. O'zining o'qishga uncha hushi bo'lmaganini, otasi rahmatlik talay marta bu yerdan o'ttiz chaqirimcha olislikdagi maktabga otiga mingashtirib olib borganida, qochib kelganlarini eslaydi. U mahallarda jamoa xo'jaligi degan gaplar yo'q, ocharchilik, turmush qiyin edi. Talay marta u dalada serrayib o'lib qolganlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan. Faqat mol boqqan odamgina kun ko'ra olardi. "E, u zamonlar o'tdi-ketdi..." Mana shundan beri u qo'y boqadi. Yaxshilikni ham ko'rdi, yomonlikni ham! Shukur, qorni to'q, o'zi bilan o'zi ovora. Ba'zan jamoa xo'jaligi "junni yax-

shi qirqding, qo'ylarni yaxshi qo'zilatding", deb tumanga, viloyat markaziga majlislarga yuboradi. Yuborishmasa ham ko'ngli birday, xafa bo'lmaydi. Qo'yni u majlislarga borish uchui boqib yurgani yo'q-ku axir! Kun kechirish uchun, tirikchilik uchun boqib yuribdi. O'stirayotgan besh-olti farzandi bor, shularni voyaga yetkazib, odam qatoriga qo'shsam deydi. To'g'ri, xo'jalik raisi, boyagi ferma mudiri kelganlari sayin "orden olasan", deb umidvor qilib ketishadi. Ha, endi Husan ham tirik jon-da. Keyingi paytlarda deng, bir intiqlik paydo bo'ldi unda: ko'ksiga yarqiratib orden taqqisi keladi. Ba'zan tushiga ham kirib chiqadi. Ordenni olib, uni ko'ksiga qanday taqishni bilmay turganida uyg'onib ketadi. "Shu ordenni Bilishboy quv ilib ketadi-yov!" deb goho shubhalanadi.

U ba'zan shunaqa o'ylarni o'ylay-o'ylay toliqib, pinakka ketadi, qovjirab qolgan lablarini tamshanib yalab-yalab qo'yadi. Bir mahal xurrak otib, o'z xurragidan o'zi cho'chib uyg'onadi, darrov boshini ko'tarib, uyqudan shishib ketgan ko'zlarini uqalab, mollariga qaraydi. Ayniqsa, shamol turgan kunlari uning mazasi qochadi. Bu yerlarda shamol turdimi, bir kecha-kunduz tinmaydi. Odamni ham charchatadi, mollarni ham. Bunaqa paytlarda uyqu qayda deysiz? Kun-u tun ot ustida lo'killaydi yuradi. Badan-badanlarini sovuq qaqshatadi, ayniqsa, beli qattiq sirqirab og'riydi. Shunda Husan qo'ylaridan ham bezib ketgisi kelib qoladi. "Mana, uch-to'rt kundirki, xayriyat, kun ochiq, g'ir etgan shabada yo'q. Qora sovuq kunlar o'tdi. Kim bilsin, endi to'qsonning qachon kirishini! Kun mana shunday bo'lib tursa, qo'ylar tez semiradi...".

Husan mana shunday o'ylar bilan biroz mizg'ib oldi. Bir mahal o'z xurragidan o'zi cho'chib uyg'ondi. Nazarida birov tepasiga kelib turganday edi. Orqasiga qarab, shoshib qoldi. Shu xo'jalikda cho'pon bo'lib ishlaydigan Turg'ali degan bezorinamo yigit. Otiga yaydoq minib olibdi, xuddi bosib ketadiganday orqasida o'qrayib turibdi. Vajohatidan odam qo'rqqulik. Na salom bor, na alik.

Bir vaqt tomdan tarasha tushganday:

— Nega qo'ylaringni bu yerda boqasan?! — dedi.

— Xo'jalikning yeri bo'lgandan keyin boqaman-da, — dedi Husan daf'atan og'ziga boshqa gap kelmay.

— Boqmaysan. Bu yerga men yoyaman qo'ylarimni. Gap tamom. Jo'na hozir! — dedi o'dag'aylab Turg'ali.

— Esing joyidami o'zi?! — dedi Husan hayron bo'lib.

— Men kimga gapiryapman?! Yo'qol bu yerdan!

Husanning ham jazavasi tutib ketdi.

— Hoy, chirog'im, nega buncha hovliqasan? Kimsan o'zing? Shuncha!.. — deb o'rnidan uchib turib, otiga mindi.

Turg'ali biroz bo'zarib, indamay turdi-da, o'sha holatini buzmay:

— Bu yerlarda men qo'ylarimni boqaman, — dedi.

— Sening boqib yurganing qo'y-u, nima meniki sichqonmi? Gaplaring g'alati-ku, — deb Husan otini qistab unga yaqinlashgan edi:

— Yaqinlashma! — deb Turg'ali uning oti boshiga qamchi bilan urdi.

Xuddi qamchi o'z boshiga tekkanday Husanning jon-poni chiqib ketdi.

— Urma otning boshiga! — deb baqirib yubordi.

Turg'ali bezday bo'lib:

— Men sening soqolingni siylab o'tirmayman. O'zingni ham itday tepkilayman! — dedi g'ijinib.

— Sendan keladigan balo bo'lsa, peshanamdan ko'rdim. Qani, kel bo'lmasa! — deb otini qistadi. Turg'ali qamchinini siltab, uni yaqinlashtirmadi.

— Tag'in, aytmadi, dema! Bir soat muhlat ichida ketmasang, onangni uchqo'rg'onda ko'rasan! — deb Turg'ali uni ogohlantirdi-da, shartta orqasiga burilib, otini choptirib ketdi.

— Qo'lingdan kelganini qil, rasvo! Qip-qizil jinni-ku, bu! — deb Husan biyday dalada jig'ibiyroni chiqdi.

Husan Turg'alining borib turgan bezori ekanini, o'sha bezoriligi tufayli turmaga ham tushib chiqqanini eshitgan edi. O'sha gaplar esiga tushib, biroz cho'chidi ham. Ammo qo'yini qaytargani yo'q.

"Ichib olganmi, nima balo?!"

Endigina sezib qoldi, boyagi qora to'qol echki o't quvib ancha joyga ketib qolibdi.

— Hoy, qulog'ingni... rasvo to'qol! — deb baqirdi. — Nega bir joyda o'tlamas ekan-a? Sal ko'rinmay qolsang, boshi oqqan tomonga ketadi-qoladi. Hov, qayt! Borib tayoq bilan qaytarib kelmasang kelarmidi bu rasvo!..

Jiyronini lo'killatib borib, qaytarib kelishiga to'g'ri keldi. Husan otdan tushgani yo'q. Kun choshgoh bo'lib qolibdi. Quyosh nurini ayamay to'kib turibdi: xuddi mana bu chiy, qiyoq, betega o'sgan notekis yaylovga olti oy qishga yetarli harorat to'kkisi bor. Qo'ylarning ham qorinlarini qappayib, orqalaridan oftob o'ta boshlabdi shekilli, ba'zilari qalin chiy ko'lankasiga yota boshlabdi. "Tag'in biroz yoyilsin, suvga keyin, tushlikka chiqarda olib borarman", deb o'yladi Husan.

Keng dalaning har joy-har joyida suruvlar, podalar yoyilib yurardi. Har tepalik boshida o'ziga o'xshab cho'qqayib o'tirgan cho'ponlar. Olisda, tutunini burqsitib, g'izillab poyezd ketib boryapti. Dunyoning kengligini qarang, ajoyibligini qarang! O'sha yo'ldan har kuni qancha poyezd o'tadi. U yoqqa ham o'tadi, bu yoqqa ham. Hech tinim bilmaydi. Qayoqqa boradi, nima tashiydi? Husan ba'zi kunlari qand-qurs, choy xarid qilgani razyezdga boradi. O'shanda haligi poyezdlarning biri sharqqa, biri g'arbga ko'mir olib ketayotganini ko'rib, hayron qoladi: "Bu qanaqasi bo'ldi?! — deb o'ylay-o'ylay, o'yining tagiga yetolmaydi. "Dunyoda bizning aqlimiz yetmaydigan ishlar ko'p". Urush tugagan yillari u harbiydan ko'p narsani bilib, ko'p narsani tushunib, ko'p yerlarni ko'rib qaytgandek edi. Hozir u o'shalarning birortasini ham eslayolmaydi. Faqat ko'rganlari tush kabi elas-elas ko'z oldiga keladi. To'g'ri, qanday qilib urushgani esida, o'limni ko'rgani esida, ammo qanday qilib pulemyotchi bo'lgani esida yo'q. Bordi-yu, o'sha o'zi otgan pulemyotni hozir oldiga olib kelib qo'ysang, otish u yoqda tursin, uni qanday o'qlashni ham bilmaydi.

U shunday xayollar og'ushida o'tirganida tepalik ortidan otini yeldirib Bo'zdoq kelib qoldi. Ikkinchi fermadagi eng yosh cho'ponlardan. U o'tgan yili oldiniga qo'ychilarga yordamchi bo'lib yurdi-yu, so'ng o'zi alohida otar oldi. O'zi juda xushchaqchaq, hazilmutoyibaga o'ch, ko'ngli ochiq yigit. Husanning texnikumda o'qib yurgan o'g'li bilan teng. Balki shuning uchundir, uni ko'rsa "og'a,

og‘a”, deb ichi-bag‘riga kirib ketay deydi. Hozir ham ancha naridan salom berib, tirjayib kulib keldi.

— Og‘a, kechagi hangomaning davomini aytib berasizmi? — dedi u kela solib.

— Aytib beramiz.

Kecha Husan, bu o‘z boshimdan kechirganlarim, deb rost-u yolg‘on aralash talay hikoya aytib, uni kuldirgan edi. Hammasi ham urush davridan, o‘zining qanday qilib pulemyotchi bo‘lgani bormi, qanday qilib “til” olib kelgani bormi, hamma-hammasini aytib, Bo‘zdoqni rosa kuldirgan edi.

— Bugun men senga Bag‘ila degan mashhur oqin bilan qanday aytishganimni hikoya qilib beray.

— Qaysi Bag‘ila?

— Barakalla, hali Bag‘ilani bilmaysanmi? E, sufe, senga! Mana bu qo‘shni “Abay” jamoa xo‘jaligida yashaydi-ku! Shuni ham bilmaysanmi? Bulbul deysan uni, naq sayraydi!

— Unday bo‘lsa, o‘shani ayting, qiziqqa o‘xshaydi.

— Qiziq bo‘lganda qanday. Bunaqa aytishuv hech qanday kitobingda yo‘q.

— Yopiray, siz ham aytishganmisiz u bilan? — dedi Bo‘zdoq ishonishini ham, ishonmasligini ham bilmay.

— Aytishuv ham gapmi? Bu og‘ang o‘sha bulbuligo‘yoni yenggan, — dedi Husan ot ustida chiranib. Biroq u o‘zining yolg‘on gapirayotganidan o‘zi ta’sirlanib, burnining usti qichishib, kulgidan o‘zini arang to‘xtatib turar edi. — Ha, sen bu chol bilan hazillashma.

— Unday bo‘lsa, ayting-da, zoriqtirmay.

— Yo‘-o‘q, bu bugun tugaydigan hikoya emas. Tushdan keyin kel, o‘shanda aytaman.

Bo‘zdoq unga yalinadi, Husan bo‘lsa, o‘zini taroziga soladi. Unga keragi ham shu-da, o‘zi. Oqko‘ngil bola bilan hazili qovushganiga xursand.

— Yo‘-o‘q, tushdan keyin dedimmi, tushdan keyin.

Biroz o‘tgach, Bo‘zdoq qo‘ylarining tarqay boshlaganini ko‘rib, ketish taraddudiga tushib qoldi.

— Ha, aytganday, anavi Sadirboy degan chol g‘alati odam ekan-ku, og‘a. Kecha qo‘ylarimiz qo‘shilib ketgan edi, bo‘lishtir-

ganimizda bir qo'yim qolib ketibdi. Kechqurun qo'ylarni qo'raga kiritayotib sanab ko'rsam bittasi yo'q. Chopib borib, shunaqa, bitta qo'yim sizning qo'ylaringiz ichida qolibdi, desam yaqinlashtiradigan emas. Keksa odam bilan til topishish qiyin ekan.

— O'-o', Sadirboy endi berib bo'pti, bermaydi. Buning bitta oson yo'li bor. Qo'ylaringni tag'in uning qo'ylariga qo'shib yubor. Keyin qayta ajratganingda tugallab olasan. O'zi qo'ylaringni tusini ajrata olasanmi?

— Sakkiz yuz qo'yning qaysi birini tusidan taniy? Qiyin-ku.

— E, bola-ey, nihoyati sakkiz yuz qo'yni tusini ajratib ololmasang?! Xo'p, mayli, unday bo'lsa, Sadirboy bilan o'zim gaplashib ko'ray.

Shu payt dupurlatib chopib kelayotgan ot tuyog'ining tovushi eshitildi. Ikkovi ham tovush kelgan tomonga yalt etib qarashdi. Qarashsa, hu narida boyagi Turg'ali, undan nariroqda yana ikkita otliq ot choptirib kelishyapti. Otliqlar Husanga qarab nimalardir deb baqirishib-chaqirishar, qo'llarini ko'tarib qandaydir imo-ishoralar qilishar edi. Chamasi, qochinglar, deb kelayotgan bo'lishsa kerak. Turg'ali yaqinginaga kelib qoldi.

— Sen mening kim ekanimni bilmay yurgan ekansan. Men senga ko'rsatib qo'yaman! — deb baqirdi Turg'ali. Ko'zlariga qon to'lgan, vajohatidan odam qo'rqquday. — Qoch nari, otaman!..

U darhol cho'ntagidan o'qlarni olib, qo'lidagi miltig'ini o'qlay boshladi. Shoshganidan qo'llari titrab, o'qlarni zo'rg'a joyladi. Miltig'i og'zini bularga to'g'rilay boshlaganida, Bo'zdoq:

— Og'a-yov, mana bu nima qilmoqchi?! — deb shoshib qoldi va otini qistab, Turg'ali tomon intildi.

Husanning bo'lsa, butun a'zoyi badani qo'rg'oshinday og'irlashib, oti ustida qotib qolgan edi. Miltiq qars etdi. Biroq Husanga o'q tegmadi. Faqat jiyron hurkib ketib, Husan ot yoliga muk tushdi. U endigina o'zini o'nglab, boshini ko'targanida, Bo'zdoq o'ng tomonga qarab og'ib tushganini ko'rdi.

— Bo'zdoqjon, senga nima bo'ldi? Nima bo'ldi? — deya Husan otidan sakrab tushib, bolani suyadi.

Bu payt baqirib-chaqirib chopib kelayotgan ikki otliq yetib kelib, ha-huv deguncha Turg'alini otidan urib tushirishdi. Bir lahza-

ning o'zida tevarak-atrofda yurgan cho'pon-cho'liqlar ham qiy-chuv qilib to'planib kelishdi. Ular Bo'zdoqni o'rab olishdi: o'ng qo'lidan yaralangan ekan. Darhol bolaning yuziga suv sepishgan edi, u o'ziga keldi.

— Yopiray, bu qanaqa bezorilik, a?

— Tunov kuni "Qonimga tashna bo'lib yuribman, odam o'ldirgim kelib turibdi", deganida biz shunchaki hazil qildi, deb o'ylabmiz. Voy, it-ey!

— Kechasi ham miltig'ini boshiga qo'yib yotar ekan.

— La'natining vajohati yomon... Qonxo'r-ku bu!.. — deb kaltak zarbidan mukka tushib yotgan Turg'alini koyishardi odamlar.

III

Husan nihoyat qo'li tegib, ikki-uch kun muhlatga qishloq markaziga bordi. Dastlabki kuni u tushgacha buxgalteriyada bo'lib, yoz bo'yi ishlab topgan mehnat haqini hisob-kitob qildirdi, so'ng cho'ntaklarini pulga to'ldirib chiqdi. Ombordan xotini bilan o'ziga tegishli g'allani bir mashinaga yuklab, ovul chetidagi bojasining uyiga olib borib to'ktirdi. Pochtaga kirib, o'qishdagi bolalariga pul jo'natdi.

Shundan keyin u qishloqni bearmon aylandi, yor-birodarlarining uyida mehmon bo'lib, ziyofatlarda yayradi, qo'liga ilingan pulni qarindoshlariga hadya qildi.

Yozin-qishin yaylovda, dalada yuradigan bu odam onda-sonda qishloqqa kelganida borini to'kib-solgan qarindoshlaridan nimasini ayasin!

U katta-yu kichikka Husan emas, Husan og'a bo'lib ketdi. Araqni suvday ichdi. Gapni ham beto'xtov gapirdi. Barchaga barobar erkalik qildi. Jamiki qarindosh-urug' borki, u nima desa, sizniki ma'qul deb, boshini qimirlatardi. Ichlarida nima deyayotganini o'zlari bilar-u, ammo unga hech kim tikka gapirolmadi. Husan og'aning gapi durust, Husan og'aning gapida jon bor, deb turishdi... Shunday deb turgandan keyin, u bechora hotamtoy bo'lmay, so'zamol bo'lmay nima qilsin!

Biroq oldiniga shunday ko'krak kerib yurgani bilan qaytadigan kuni bir arzimagan narsadan ko'ngli ranjidi. Mana shunaqa kutil-

maganda bir nimani buzib qo‘yadigan, oxirida butun obro‘sidan ayrilib, qishloqqa ikkinchi kelmaydiganday xafa bo‘lib qaytadigan odati bor edi. Bu gal ham xuddi shunday bo‘ldi.

Kelganining uchinchi kuni u haligi omboriga g‘alla to‘ktirgan bojasining uyida mehmon bo‘ldi. Bojasi rayondagi teri tayyorlash idorasida teri yig‘adigan bo‘lib ishlar edi. Quyuq qora mo‘ylovini silab-silab o‘tiradigan, olifta yigit edi u.

Uyini ham juda hashamdor qilib bezagandi: besh xonali, havosi baland, asl buyumlar bilan jihozlangan, xullas, kirgan odamning ko‘zi qamashadigan edi.

Husan qancha ichsa ham o‘zini yo‘qotmas edi. Shu uyga mehmon bo‘lib, uni xudo urib qoldi. Choy ustida ham ikki yuz grammlik qirrali stakanga to‘ldirib ikki-uch marta cho‘qishtirib ichgani esida. Undan keyingisini bilmaydi. Bojasi bilan ikkalasi bir arzimagan so‘zni talashib qolibdi. Bojasi unga: “Sening boyliging — mening choyligim, bugun qo‘yni-qo‘njingni pulga to‘ldirib kelibsan, aslida sening barakang yo‘q, ertaga tishingning kirini so‘rasan”, debdi. Husan esa uning dasturxonini toptab, o‘zini so‘kib: “Sening bunday chiranayotganing men tufayli, bo‘lmasa, sening topganing nima bo‘lardi”, debdi.

Bundan boshqayam talay-talay nafsoniyatga tegadigan gaplar aytilgan shekilli, biroq bularning birortasi ham esida yo‘q. Ergalab o‘zini oynavand ravonda ust-boshini yechmasdan, quruq palosda yotgan holda ko‘rdi. Sovqotib qolgan shekilli, badan-badani zirqirab og‘rirdi.

Ertalab, choy ustida bojasi ikkalasi bir-birlariga tik qarayolmay, kechasi ortib qolgan araq bilan bosh og‘rig‘ini yozishdi. Kechagi achchiq-chuchuk gaplar haqida lom-mim deyishmadi. Yopig‘liq qozon yopig‘ligicha qoldi. Qaytish taraddudiga tushib qolgan Husan go‘yo oralaridan hech gap o‘tmaganday, o‘ziga zarur narsalar haqida gapira boshladi:

— Menga toza xromdan bitta etik topib ber-chi, — dedi iltimos ohangida.

— Toza xromdan dedingmi? Mayli, — dedi bojasi qovurdoqdan bir bo‘lak go‘shtni og‘ziga solar ekan. — Tunov kuni haligi Bilishboy degan cho‘ponga toza xromdan etik tiktirib bergandim.

Qo‘g‘irchoqdek qilib tikibdi-da o‘ziniyam... Yuz yigirma so‘mga tushdi.

Choyni ichib bo‘lishgach, Husan etikka deb yuz ellik so‘m tashladi. So‘ng xotinining tuflisi eskirib qolganiii eslab, yana oltmish so‘m berdi. “Juda qimmat-ku bu”, deb o‘yladi-yu, sir boy bermadi.

Bojasining uyidan chiqqanida ko‘ngli ancha cho‘kkan, nimagadir yuragi g‘ash edi.

— Bizlarga bir-ikki qop un torttirib yuborarsizlar, — dedi yana iltimos ohangida.

— Xo‘p bo‘ladi.

Bojasi pinagini buzmay, yelkasida pidjagi, qornini qappaytirib, mo‘ylovini silab turar edi.

Yo‘l-yo‘lakay ot ustida Husanning ko‘ngli xijil bo‘lib qaytardi. Qishloqqa yil-o‘n ikki oyda bir marta qadam ranjida qilganida, avvaliga xursand bo‘ladi-yu, keyin esa, qaytish oldidan mana shunday ahvolga tushadi. Shunisi yomon! “Endi ikkinchi kelmasman. Oyshaning o‘zini yuborganim bo‘lsin”, deb xotinini eslaydi. Olgan pullarini bebiliska sarflab yuborganiga achinadi. Biroq shunday qilmasa ham bo‘lmaydi-da. Uning qishloqqa hisob-kitob qilgani kelganini bilgan yor-birodarlari, qarindosh-urug‘lari nimadir ta’ma qilganday bo‘lishadi. Ha, aytganday, haligi bojasining o‘g‘liga hech narsa bermabdi-ya! Attang, bachchag‘ar o‘pkalab qoldimikin? Bu ham yetmaganday, kechasi mast bo‘lib, bojasi bilan adi-badi aytishganiga balo bormidi. Afsus...

Shunday xayollar bilan jiyronini yeldirib kelayotganida qarshisidan yap-yangi qora “Volga” g‘izillab kelib, Husanning oldida taqqa to‘xtadi. Mashinadan do‘konchi Biysulton, yana qandaydir ikki-uch odam tushishdi.

— Assalomu alaykum, Husan og‘a! — deb Biysulton qo‘lini cho‘zib keldi. Ichib olgan shekilli, yuzlari qip-qizil, terlab ketgan, shoyi ko‘ylagining tugmalari yechilgan.

— Yigitlar, bu kishi Husan og‘a degan ilg‘or cho‘ponimiz, — deb jo‘ralariga tanishtirdi u. — Olib kelinglar haligini...

Bir lahzada yo‘l chekkasiga gazeta yozildi, ustiga araq, turli yeguliklar qo‘yildi.

— Husan og'a, omadingizni bersin, ichib yuboring, — deb Biysulton limmo-lim qilib to'ldirilgan stakanni uning qo'liga tutqazdi. Husan biroz ichmayman deb qarshilik bildirib turdi-yu, "Mayli, salomat bo'laylik!" deb sipqarib yubordi.

— Husan og'a, men eson-omon qutuldim. Bu o'shaning sharafiga, — dedi Biysulton.

— Barakalla, juda soz bo'pti, — dedi Husan quvonib.

— Sizlarning ko'maklaringizda mashinam ham o'zimda qoldi.

— Juda soz bo'pti. Bu kunda er kishining qanoti mashina-da! Durust, durust...

Biysultoning qo'lini qaytarmay deb Husan yana bir-ikki bor ichdi... Mana u shirakayf holda tevarak-atrofga nazar tashlab, xirgoyi qilib kelyapti.

U kun botgan mahalda uyiga yetdi. Xotini Oysha bilan bolalari o'tov oldida uning kelishini intizorlik bilan kutayotgan ekanmi, xuddi o'n yil ko'rmaganday, xursand bo'lib, qiy-chuv qilib kutib olishdi. Sog'inib qolishibdi. Husan bolalari bilan xotinini ko'rganda og'zining tanobi qochib, qiqir-qiqir kuldi. Qishloqqa borib kelgani esidan ham chiqib ketdi. U xotiniga qarab:

— Eson-omon o'tiribsizlarmi? Mollarga bo'ri-mo'ri tegmadimi? — deb qo'ydi.

Kechqurun bolalarini uxlatib, Oysha ikkovi olib kelgai pulini hisoblashdi. Husan orqa-oldiga qaramay sarflagan ekan, barakasi uchib ketibdi. Nuqul bir so'mliklargina qolibdi cho'ntagida. Oysha biroz erini urishib oldi.

— Shuniyam qishloqdagilarga tarqatib kelsangiz bo'lardi. Cho'ntagingizni do'ppaytirib bekorga olib kelibsiz, — deb kesatdi.

— Mayli, qolganiyam yetadi bizga, — dedi-da, gunohini bo'yniga olib, teskari qarab yotdi.

Shundan so'ng u tish yorib bir nima demadi. Oysha esa kuyib-pishib urishdi-urishdi-yu, bosildi. Husan indamasa xotinini yengishini biladi.

"Nega shuncha pulni sovurdim ekan-a, — deb ancha mahalgacha achinib yotdi. —Ehtiyot qiluvdim-ku!.. Mashina sotib olsagam bo'lardi". Shundan keyin u ba'zi o'ziga o'xshagan cho'ponlarning mashina sotib olishganini, qishloq markazida dang'illama uy qurdi-

rishganini esladi. Ularga havasi ham keldi, hasadi ham. "Ular qanday qilib yetkazar ekan-a?! E, ularga o'xshab bir tiyinlab yiqqan puli qursin. Ha, endi, ochdan o'lib, kuchdan qolmasak bo'ldi-da. Bundan ortiq nima kerak? Bolalar ulg'aysa hamma narsa topilar", deb ovutdi o'zini o'zi.

Shu o'ylardan keyin ko'ngli joyiga tushib, go'yo hech narsa bo'lmaganday bag'riga tiqilib yotgan kichik o'g'lining qornini siypadi. Kun bo'yi yo'l yurib charchagani, qishloqdagi ikki-uch kun surunkasiga ichgan ichkilikning ta'siri endi bilindi shekilli, o'zini lohas sezdi. "Kelasi gal Oysha bora qolsin", degan qarorga keldi oxiri.

— Oysha, sal sovigandan keyin otni o'tga qo'y, — dedi u tovushini bir bahya ko'tarib.

U uyiga kelib, ko'ngli joyiga tushdi, qo'y junining o'ziga xos bo'yi va qiy hidi dimog'iga urildi-yu, uni mudroq bosdi. Hademay uyquga ketdi.

— Ust-boshingizni yechib yoting, — dedi Oysha erining burnini chimdib. — O'zingiz ham juda qishloqqa boraman deb soqol-mo'ylovingizni qirdirib, yasharib ketibsizmi, — deb qiqirlab kuldi.

Husan yechinib yotgandan keyin ham ancha mahalgacha tush bilan o'ngning o'rtasida yurganday uxlayolmadi. Qo'radagi qo'ylarning pishqirgani, yo'talgani, qashingani eshitilib turar, itlar qo'rani aylanib, hurib chopishar, Oyshaning tashqariga chiqib: "Hay-ho-ov!" deb cho'zib tovush chiqargani qulog'iga kirar edi.

MARAL ISQAQBAY

(1938)

Maral Isqaqbay 1938-yil 2-fevralda Jambul viloyatining Qo'rday tumanidagi Suluvto'r ovulida dunyoga kelgan. 1965-yilda Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

1963–1971-yillarda o'zining ilk asarlari — "Etikchi", "Ko'k-yol" hikoyalarini, "Qirq qiz" qissasini yozib, nashr ettirdi. "Qirq qiz" qissalar (1975), "Suluvto'r qiyasi" qissa va hikoyalar (1977) to'plamlari, "Uyat haqida afsona" roman, qissa va hikoyalar to'plami (1980), "Joyqantepa" roman va hikoyalar (1984), "Ko'ngil yupanchi" qissa va hikoyalar (1988) to'plamlari, "Pende g'umir" romani (1991), "Oshiq bo'lmagan kelinchak" roman, qissa va hikoyalar to'plami (1996), besh jildlik "Asarlar to'plami" (2007) va boshqa kitoblari nashr etilgan.

KO'NGILDAGI ESKI SURAT

Bitmaydi dildagi
Oshiqlik yarasi.
Abay.

Men bugun ham tushimda yomon qiynaldim. Hayoti o'kinch bilan o'tib borayotgan kishiga o'xshab dilim o'rtanadi, dunyodan bezib ketgandayin yurak-bag'rim sirqirab, qurt kemirganday noma'lum sog'inch egallab olgan. Tushdagi chorasizlikdan qiyin nima bor?.. Chorasini o'ylab, yo'l izlab topadigan aqlning jilovi o'zingda emas. Boshqarib turgan o'zga tilsim, o'zga kuch. Daryoning asov oqimi istagan tomoniga olib ketib borayotgan xasdek shu yangi noma'lum qudratning ixtiyoridagi o'yinchoqqa aylanib yuraverasan. Ming qarshilik qilsang ham baribir. Qiynagisi kelsa ham o'z erkida, quvontirgisi kelsa ham o'z ixtiyorida. Biroq bugun ham ko'ngil ko'tarib, jon yayratishga imkon bermadi. Go'yo

shu zahoti nafasim qisib, jon taslim qiladiganday qiynalib-qiynalib uyg'ondim. Lekin unga quvonolmadim. O'zi ezilib yotgan yuragim battar ezildi. Tushimdagi sabr tugamay o'ngimdagi sog'inch battarroq kuchaydi. Balki buni sog'inch demoqdan ko'ra o'kinch desam durustroqdir. Mana shu hayotdagi o'rni endi qayta to'lmas o'kinch...

Mening goh-gohida takror ko'rib turadigan bir necha tushim bor. Tog'li maskanda tug'ilib o'sganimdanmi, ko'pincha toqqa o'rmalab yuraman. Yana har doim Suluvto'rning Shubarbaytal yaqinidagi baland xaroba ko'rinadi. Ajablanarlisi shundaki, haqiqatda bunday xaroba tog'da yo'q. Faqat mening tushimdagina paydo bo'ladi. Ajoyib eski qurilishlarni tomosha qilib, allakimlarni g'urur bilan tomosha qildirib yuraman. Me'morchilik hunarining go'zal namunasi bo'lgan haligi saroylar va qabristonlar Samarqand va Buxoro ustalarining qo'li bilan yaratilganday lol qoldiradi... Yana bir ajablanarlisi, o'tgan safargi tushimda ko'rgan ajoyib imoratlar yoki qabristonlar keyingi tushimda ham esimga tushib, yonimdagilarga shuni ham ko'rsatmoqchi bo'lib, chala-chulpa izlab, ba'zan topib, ba'zan topolmay ovora bo'laveraman. Uyg'onib ketgach haligini bari anchayin yolg'on tush bo'lib chiqqanidan ichim tuzday achiydi. Anchagacha tushimda ko'rgan ajoyibotlar ta'sirida yotaman. Shirin uyqumning qochganiga qiynalmayman; mudroq shuurimni egallagan haligi ko'rinish sehriga ancha maftun bo'lib yotishimdan tushimning ta'siri nechog'lik ekanini taxmin qilavering. Ikkinchisi esa bugungi tushimdir. Bu hatto avvalgi tushimdan battarroq ta'sir etib, butkul uyqumni o'chiradi. Voqealar rivoji turlicha bo'lsa ham, aylanib kelganda o'sha bitta mavzu doirasidan chiqolmayman. Meni qiynayotgan ham — shu. Unutdim-ov deganda yana esimga tushiradi. Eski yarani tirnab, takror o'ksitadi. Avvali lanj bo'lib biroz yotaman. Boyagina tushimda o'zagimni o'rtagan o'tkir hissiyot bosh ko'tarib, o'tgan eski holatlarni kitob varaqlaganday bir chetdan tizib, ko'z oldimda gavdalantiraveradi. Yolg'iz bir tirik surat ko'z oldimdan ketmasdan turib oladi. Bir fikr bir fikrni turtib uyg'otib, o'tmish voqealarini esga soladi. Betakror yoshlik davrining yorqin sahifalarini sog'inib esga olish lazzatini hamma biladi. Nadomati ketmas o'z aybingning das-

tidan yurakda paydo bo'lgan jarohatni tirnab ko'rganlar bormi?! Tangrim bundayni hech kimning boshiga solmasin. Tushimda bir, o'ngimda ikki bor qiynaydigan dardimning siri ham shunda. Ustiga ustak bor g'am-anduhimning bir uchi tirik jonga tilsim sanalmish u yoqda — narigi dunyoda ekanligiga nima deysiz? Duo o'qib, fotiha qilishdan boshqa ilojim yo'q. Mutlaqo chorasizman. "Yetim qo'zi — toshbag'ir, ma'rab-ma'rab o'tlaydi" deganlariday, o'ydan o'zib, tirikchilikka sho'ng'ib ketsam ham, oradan oy va yillar o'tib, yana tushimga kiradi, yana mana shunday qiynaydi. Hang-mang bo'lib biroz yurgach, yana unutaman. Biroq tushim goh-gohida qo'ziydigan eski dardga o'xshab, takrorlanadi, esimga tushiradi, takror qiynaydi.

O'zimizning kichkina Ko'kqaptal ovuli ekanmi-ey. O'smirlik chog'im ekan. Ovul chetidagi Soz deb ataladigan keng maydon — maysazorni kechib Oygul yurgan ekan. Sayr qilibmi, gul teribmi yurgan, shekilli. Sayr bahona meni kutib turganday go'yo. Quvonganimdan yuragim gursillab urayotganligini o'ngimdagidek aniq his qilaman. Qushday uchib borganmishman. Qo'limda, qaydanam paydo bo'lgan bir dasta qizil gul bor emish, butun borlig'imni, dildagi ehtiroslarimni shu gullar bilan birga unga tutaman. Gulimni ola turib, uyalib kulimsiraydi. Mamnun bo'lganini so'z bilan emas, iliq tabassumidan sezib, quvonchim qo'ynimga sig'maydi. Og'ushimga olaman. O'pmoqchi bo'lib intilsam, u gul yuzini olib qochadi, yo'latmaydi. Unisiga qaramay belidan quchib, gir aylantirib, ko'k maysa uzra raqsga tushaman. Xursand bo'lib, kulib yuribman. O'sha paytda mendan ortiq baxtiyor odam yo'qday. Tovonimiz yerga tegmay, qalin o'tloqning ustida go'yo kapalakday uchib, o'zimizni yengil sezib yurgandaymiz. Sayragan qush, chirillagan chigirtka tovushlari beqaror vals ohangiday eshitiladi. Biz shu ohangga mos gir aylanamiz. Baxtni faqat tushdagina aniq his qilarsan balki. Oh-oh, attang-a, mana shu qaynoq holat o'ngimda ham bir bor qaytalansa edi.

— Voy, Murod, og'ajon, qo'ygin, boshim aylanib ketdi, — deb yalinadi Oygul quvonchdan yuz-ko'zi yonib.

O'zim bilan tengqur qiz "og'ajon" deb yalinganda u o'zgacha nozlanib, erkaligi yarashib, oshiq ko'nglimni eritib, asov hissi-

yotlarimni qitiqlaydi. Mana shu o‘zgacha bir lazzatli damlar yalt etib ko‘ringan shu edi... voy, qanday dahshat, kutilmaganda o‘zimning bugungi keksa chog‘imga kelib qolganimni-ya... Shu ekanda, hozirgina gul-gul yashnab turgan Oygulning yuziga g‘am soya solganini payqayman. Boyagi shod-xurramlikdan asar ham yo‘q. Yopiray, bunga qo‘qqisdan nima bo‘lib qoldi, deyman yuragim hapriqib. Haligina boshimdan kechirib turgan ajoyib baxtiyor damlarim zumda o‘zgardi. Bir paytda ikki kishining holatini ketma-ket boshdan o‘tkazish faqat tushingdagina bo‘ladigan hol. “Oygulim, senga nima bo‘ldi?” deyman shunda ham erkalab. Lekin o‘zim sezib turibman. “U mening uylanganimni bilar ekan-da, shuning uchun mening boyadan berigi alg‘ov-dalg‘ovli quvonchim uning ko‘ziga ermak bo‘lib ko‘ringan ekan-da”, deyman o‘zimga. Uning ginasi o‘rinli ekanini tushunadigandayman. Shunday qila turib tushunmaganim — men nega boshqa qizga uylanganman? Mening suyganim Oygul edi-ku. U ham meni sevmasmidi? Shunda biz ikkimizning — ikki oshiq yurakning — taqdiri nega mushtarak emas? Tushimdagi bu savolga javob topmasdan yuragim zirqillay boshladi. Yaltoqlanib Oygulga qarayveraman. U mutlaqo beparvo. Qovog‘i soliq. Ko‘zlari bilan ayblaganday qaragani menga ta’sir qiladi. Serrayib uzoq turib qoldim. Mana shu noqulay holatdan chiqish amalini topsam deyman. Nigohidagi mungni ketkazib, ko‘nglini ko‘tarsam deyman, biroq bu qo‘limdan kelmaydi. Loaqal: “Ranjima, Oyguljon, biror chora topaylik”, deyishga ham yaramayman. Borlig‘imni allaqachonlar unutilgan o‘spirinlik chog‘imdagi tortinchoqligim egallab olgan. Mana shu tanish tuyg‘u meni ilgarigi oshiq yigitga aylantirib qo‘yganday. Qizning beparvoligiga e’tibor bermadim, yoshlikdagi o‘ynoqi hislarim qayta uyg‘onib, yuragimni o‘rtab bir haroratga burkab turganini aniq tushunaman. Shunday bo‘lgan holda gap-so‘zsiz yonma-yon yurib kelamiz. Menimcha, ancha yergacha yurib bordik. Tili bog‘langandek u mutloq jim, gapirmaydi. Qizning qovog‘iga qarab men ham indamayman. O‘lib-o‘chib kelyapman, yonida yurib hijron o‘tida yonib boraman. Faqat bir qizig‘i, mana shu og‘ir sukunatni buzishga jur’at qilmasdan, tortinib turganimning o‘zi jumboq. Xuddi bugungiday yakka-yolg‘iz uchrashuvga har doim imkon bo‘lavermasligini o‘ylab,

o‘zimni o‘zim ichimda gijgijlayveraman. Hech bo‘lmasa tushingda yaqinlashmagan taqdirga nima ham dersan. “Yolg‘iz sayrga bekorga chiqmagan, sen bilan uchrashuvga kelgan-ku o‘zi, ko‘nglingni ochsang-chi”, deb turtaman o‘z-o‘zimni. O‘smir paytimdagi bir og‘iz so‘z aytishga yaramaydigan betoqatlik odatim uyqumda yodimga tushsa kerak. Ammo dilimdagini aytishga baribir shahdim yetmaydi. Yonida salanglab yuraverishni hojati yo‘qligini ham yaxshi tushunaman. Yurgandan nima naf? Iymana-iymana oxiri qo‘lini ushlayman. U qarshilik ko‘rsatmaydi, qo‘lini tortib olmaydi. Yuragim tipirchilab, boshim ko‘kka yetguday quvonaman. Undan nariga haddim sig‘maydi. Barmoqlaridan tutganimga yoq xursandman bir umr. Xuddi shunday yuraversam ham rozi edim. Oygul hayratlanib menga boqadi: g‘amgin nigohida qiymaslikni ko‘raman. “Dadilroq bo‘lsang-chi, quchog‘ingga olsang-chi”, deyayotganday. Shuni aniq tushunib turganingda besabab tortinchoqlikka nima deysan. Bir payt mening qimtingan fe’limdan ranjiganday yuzimga bir qarab o‘girilib, xayrlashmasdan ketaverdi. Shunday qarasak, uyining qarshisiga kelib to‘xtagan ekanmiz. Men ichim muzlab bir holda qolaveribman. Qizgina endi menga qayrilib qaramaydiganday. Biryo‘la ayrilgandayman. Sababini tushunmasdim. Haytovur ko‘nglimda bir yomon hadik bor. Borlig‘im chorasizlik ixtiyorida. Qalbim qon yig‘laydi. Hozirgina qo‘l ushlashib yurganim yodimda yo‘qday, oylab sog‘ingan kishiday yuragim kutilmaganda anduhga to‘ladi. Nima qilishni bilmay qiynalaman. Hayot butkul bitganday. Yuragim zirillab, dimiqa boshlagan paytimda uyg‘onib ketaman...

Tong oqara boshlabdi. Uyqum biryo‘la o‘chib ketdi. Manovi ko‘m-ko‘k guli ko‘zni yashnatgan yashil o‘tloqning suluv manzarasi tarqar emas... Tushim o‘ngimga alishganday. Shu holatda xomush chehra bilan menga jovdirab qaragan Oygul hamon ko‘z o‘ngimdan ketmaydi. Ko‘zimga o‘tday ko‘ringan dirkillagan o‘n yetti yoshli chog‘i... Butun yuz-ko‘zi, nozik qomati hamon ko‘z oldimda: qoramag‘iz, qirra burni o‘ziga yarashgan. Uning bor go‘zalligi go‘yo ko‘zlariga joylashganday: qorachiq atroflari keng, uzun qop-qora kipriklari ko‘zlariga soya solib, ba’zan tengqur-tengdoshlariga nozlana qarab kiprik qoqqanda xuddi undan o‘zgada yo‘q chehra faqat ertaklardagiday tasavvur qilasiz. Bu

balkim oshiq ko'ngilning ko'zi bilan ko'rgan surat, ko'ngil to'ridan joy olgan tasvirdir. Bu suratni mening ko'nglimdan hech qachon o'chirish mumkin emas. Bugungi tushimda ham mana shu tasvirni ko'rdim!..

...Ikkovimiz ellik-oltmish chog'li uy bor kichkina Ko'kqaptal ovulida bir yilda tug'ilib, yelpillab birga o'sdik. O'n yil davomida bir sinfda — dastlab o'z ovulimizda to'rt yillik boshlang'ich maktabda, keyin tuman markazidagi Suluvto'r o'rta maktabida birga o'qidik. Oygul o'n yil ko'z oldimda yurgan! Men unga 4–5 yoshimdanoq "oshiq" edim! Kulasizlar-a... Kuladigan hech narsa yo'q. Hali-hanuz esimda, chamasi to'rt-besh yoshlarda bo'lsam kerak, tilimga qiziqqan tog'a-xolalarim: "Murodjon, qani aytgin, katta bo'lganingda kimga uylanasan?" deb so'rardi. Men "Oygulni olaman," der edim.

Ular biri jilmayib, biri kulib, gaplarimdan mamnun bo'lib yuz-ko'zimdan cho'lp-cho'lp o'pib, hurpaygan sariq sochimni silab qo'yishadi. Men ularning tilimga qiziqayotganlarini qaydan bilay, tanlaganimni ma'qullashdi, deb quvonarkanman. Bir uyning o'g'li ham, qizi ham yolg'iz o'zi bo'lgach Oygulni ota-onasi qo'g'irchoqday kiyintirib, yer-ko'kka ishonmasdan o'stirardi. Jajji paytidanoq bolalar unga o'zgacha boqishardi.

Kaftdekkina ovulda aytilgan so'z yotadimi, mening haligi begunoh tilagim Oygulning ota-onasiga ham borib yetsa kerak. Balki ota-onamning o'zlariyoq yetkazishgan bo'lsa ajab emas. Ikki-uch uy nariroqda yashaydigan qo'shnilarimizning ko'ngliga yosh bolaning tilagi ma'qul keldimi yoki kattalar yaxshi tilakni bahona qilib o'zaro yaqinlashgilari keldimi, haytovur eski udumlarga ko'ra ikkovimizni to'rt-besh yoshimizdanoq unashtirib qo'yishgan. Bolaning ishi balo, deganlariday men haligi kelishuvni rostakamiga qabullab, o'zimcha Oygulga biryo'la egalik qilib olganman. Bu narsa mening begunoh go'dak tilagimga kuch berib, oshiqlik hislari sari yetaklagandir. Bola chog'danoq orzu va xayollarga erkinlik berdim. Shuning uchun ham dilimdagi begunoh hissiyotlar urug'i muhabbat ma'nosini uqqanimda ishq bo'stoniga kirib, ulg'ayib, g'uncha ochib ulgurgan edi. Agar Oygul allaqanday tengdosh bolalar bilan

hazillashib yo quvlashib o‘ynab qolsa, yurak-bag‘rim o‘rtanib, yonib ketardim.

Rashk degan balo yosh tanlamas ekan-da!

Bir sinfda birga o‘qiganning bir yaxshi, bir yomon tomoni bor. Qiyini: qiz oldida kamchiligingni ko‘rsatmasdan, doim ilg‘or bo‘lish uchun harakat qilishga majbursan. Menga buning foydasi ko‘p bo‘lganini, albatta, tan olaman. Agar Oyguldan boshqa sinfda o‘qisam, bugungi yuqori cho‘qqilarni zabt etishga imkon bergan bilim darajamga erishgan bo‘larmidim, yo‘qmi, aniq aytolmasdim. Chunki men a’lochi Oygul bilan bilinmas musobaqada edim. Undan zarracha kam bo‘lmaslikka tirishdim. Keyinchalik o‘ylab qarasam, maktabda men o‘zim uchun emas, Oygul uchun o‘qiganga o‘xshabman. Esimda, doska oldida javob berayotgan chog‘imda xuddi sahnada qo‘shiq aytayotgan san’atkorga o‘xshardim. Bu “qo‘shiq”ni o‘qituvchimizga emas, Oygulga atab “ijro” etardim. U tomonga tez-tez nigoh tashlardim. Uning maroq bilan eshitib o‘tirganini sezardim. Buni sezgan sari ilhomim jo‘shardi.

Bir qizig‘i — Oygul ham doska oldida javob berayotganida men tomonga qarab-qarab qo‘yardi. Nigohlarimiz to‘qnashganda men faqat o‘zimgagina tanish ajib hisni — muhabbat quvonchini boshdan kechirardim. Mana shu onlar maktab bag‘ridagi eng bebaho damlar edi. Oygul ham darsda faqat men uchun javob berayotganday tuyulardi. Undan ko‘zimni uzmasdan, nigohlarim og‘ushiga olib erkalab o‘tiradigan bundan qulay fursatlar yo‘q edi. Mana shu ajib hissiyot yoshim ulg‘aygach, yanada kuchaya bordi. Shuning uchun ham men darsga bordigan har bir tongni, har bir damni intizorlik bilan oshiqib kutardim. Oygulni ko‘rishga shoshardim. Bu yillar davomidagi odatga aylandi. Oygulning har bir aytgan hazili, sinfdoshlar orasidagi tortishuvlarda qiziqqonlik bilan so‘zlab, o‘z fikrini himoya qilgani, hatto boshqalardan qattiqroq kulgani — o‘zim payqagan mayda-chuydalargacha to‘la-to‘kis yodimda saqlangan. Kundalik yozgan kishiday hammasini yodimda saqlay beribman. Boshqasi mayli-ya, hatto maktab ostonasiga ilk bor qadam qo‘ygan kunim ham xuddi kechagiday yodimda. Chunki o‘sha kungi voqea bevosita Oygul bilan bog‘liq edi.

...Tog'li ovulning ob-havosi sentyabrning boshidanoq anchagina salqin bo'ladi. Shunga qaramay yalangoyoq, yalangbosh holda ichida birgina daftar, kichkinagina uchi chiqarilgan qalamdan boshqa hech narsa yo'q quroq jildimni qiyshaytirib ushlab, sinfga kechikibroq kirib bordim. Oygul doska oldiga bolalarni qator turg'azib qo'yib, ust-boshlarining tozaligini tekshirayotgan ekan. Men ham ularning safidan joy oldim. Ustozimiz kulimsiragancha bir chekkada kuzatib turardi. Oygulni oyisi chiroyli kiyintirib yuborgan ekan: ustida alvon rangli ko'ylak, bitta qilib o'rilgan sochining uchiga bitta kumush cho'lpi taqib qo'ygan, oyog'ida o'ymoqdek qo'ng'ir botinka. O'zimning tuyaning tovonidek "charm"ga aylangan yalang oyog'imga ko'z tashladim. Xuddi shu paytda menga navbat kelgandi. Oygul hurpaygan holatimga bir qarab: "Bor, qulog'ingni yuvib kel", dedi. Hozirgacha unutolmay yurganimga qaraganda, bu mening ko'pchilik oldida birinchi marta qattiq uyalganim va uyatning nima ekanligini aniq tushungan edim. Ko'chaga otilib chiqdim. Maktabning ko'cha tarafida butun ovulni kesib o'tadigan eni bir qadam ariq bor edi. Doim top-toza, shaffof suv shildirab oqib turaveradi. O't bo'lib yongan yuzimning olovini bosmoqchi bo'lib suyakdan o'tuvchi kuzgi tog' suvi bilan obdon ishqalab yuvindim...

Aslida, bu voqea menga ulkan saboq bo'ldi. Shundan buyon Oygul endi hech qachon, hech qanday kamchilik topolmaydigan bo'lib yuraman, deb qasam ichganman. Chamam yetganicha shunga tirishib yuribman, biroq anov yo'qchilik zamonda shu ham qo'limdan kelmagandir.

Bolalik kezlar ham zuvillab o'tib ketibdi. To'qqizinchi sinfga o'tganimizda mo'ylovi sabza urgan o'spiringa aylanganimizni payqadik. Do'stlarim tiq etsa qizlar tevaragida aylanib, so'z otib, tanglay qoqib, xiringlab yurishardi. Muhabbat "dardiga" mendek bolalikdan mubtaloga bu davr ajoyib davronning o'zi edi. O, betakror damlar... Ammo mening ko'zim faqat bir qiznigina ko'radi, shu qizdangina nigoh uzmaydi. Bu, albatta, Oygul-da. Avvalgi yaxshi ko'rishim bilan bir qator yana allaqanday huzurbaxsh hissiyot egallagan borlig'imni. Juda kichikligimdan qalbimning to'riga o'rnashib yilt-yilt etib yonolmay turgan sezgim uchquni qip-qizil

cho‘qqa aylanganday, dilimni yoqishni boshlagan. Avvalgi sog‘indim deganim anchayin o‘yinchoq ekan. Sog‘inchning “doda”sini endi ko‘rdim.

Lekin o‘zimni yo‘qotmadim. Yillar davomida a’lochi o‘quvchi sifatida shakllantirgan odatlarimni buzmay, har kungi darslarga puxta tayyorlanar edim. Aslida darslar menga hech qachon og‘irlik qilgan emas. Vaqtim bemalol. Avvallari bo‘sh vaqtimni kitob o‘qishga yoki qiziqarli o‘yinlar bilan o‘tkazsam, endi tanho o‘tirib qog‘oz qoralay boshladim: dastlab tilimda yetkaza olmaydigan holatimni, sog‘inchimni qalam olib, qog‘ozga tushirib, yetkazgim kelgan. Biroq xatni Oygulning qo‘liga tutqazishga yuragim dov bermaydi. Internatda yashaydigan bolaning bunday xufyalarini saqlaydigan yeri yo‘q. Kimningdir qo‘liga tushib, ustimdan kulishmasin deb bu xatni bir-ikki kun yashirib saqlardim, keyin mayda-mayda qilib yirtib tashlardim. So‘ngra bor hunarimni sarflab yangisini yozishni boshlardim. U ham ilgarigisiga o‘xshardi.Shunday qilib yurib kunlarning birida yangi ermak topib, qog‘oz titishdan zerikmaydigan “shoirga” aylanib qolganimni sezmay ham qolibman. Hammasi Oygulga atalgan. Bir yaxshi tomoni shuki, avvalgiday yirtib tashlamasdim. Yon daftarcha tutib, chiroyli qilib ko‘chirib qo‘yadigan bo‘ldim. Chunki unda qiz ismi atalmaydi. Ochiq-oydin birovga atalmagan she’rni do‘stlaringga ko‘rsatishga ham hijolat bo‘lmaysan. Shunday qilib do‘st-u tengqurlarim “shoir” deb atay boshladi. She’rlarim qo‘ldan qo‘lga o‘tib, tarqalib butun sinfdosh qizlarga ham borib yetdi.

Hamon esimda, bir safar o‘n yozib, o‘n o‘chirib, tuzatib yozgan besh-olti misra she’rimni partadosh do‘stim Raqishga ko‘rsatdim-da, darrov qizlar tomon oshirib yubodim. Yozganlarimning deyarli barchasi muhabbatga bag‘ishlanganini yaxshi bilgan qizlar bir-birining yelkasi osha yopirilishib, baland ovozda o‘qishni boshladilar. Nafasimni yutib, o‘zim ham tinglab o‘tiribman. Kimningdir o‘ylab topilgan so‘zi emas, o‘z muhabbatim, o‘zimning tuyg‘ularim. Hayajonlanib yozgan misralarimni hayajonlanib tingladim, albatta. Unda men Oygul ikkimizga ma’lum bo‘lgan holatni Qo‘zi va Bayan muhabbati orqali madh etgandim. Fotihani buzish — qasamni buzish. Hammasi shuning dastidan. Biz ota-onalarimizning

ahdiga sodiq bo'lsak, baxtimiz barqaror, muhabbatimiz abadiy bo'ladi deb xulosa qilgandim. She'r tugagan vaqtda beixtiyor Oygulga qaradim. Ikkimizning nigohimiz to'qnashdi. Men qizning yuzida qizil to'lqin o'ynaganini ko'rib qoldim. Men ham qizarib ketdim. Albatta, qizlar mening holatimni ko'rib qolishdi, lekin sababini tushunishmadi. Meni she'r uchun uyaldi deb o'ylashdi balki. Faqat Oygulgina tushundi deb o'yladim. Menga ham keragi shu-da. "Tushundi! Tushundi!", deyman quvonchim terimga sig'masdan. Bir amallab rozimni yetkazganimga xursand bo'lib qoldim...

Mana shu holat roppa-rosa bir yil davom etdi. Boisi o'sha paytda men o'ninchi sinfda o'qir edim. O'n yettiga to'lgan o'spirinlik chog'im-ku. Qizlarga ilashib, do'stlaring orqali "salom" yo'llab, orzular jilovini bo'sh qo'yadigan davr. Hissiyotlar — o'tkir, xayollar — uchqur. Hali dog' tushmagân oppoq qog'ozday ko'ngling... Qizga nazar solishning o'zida farishtaday beg'uborlik bor. Oshiq ko'nglingni bildirolmay hadiksirashning sababi ham pokizalik, beg'uborlikda. Menda esa ikkinchi sabab bor. U — go'daklik chog'imizda unashtirilganimiz. Bu menda imtihon oladigandek edi. Niyatimning pokizaligiga ishontirolmaymanmi deb shubhalanaman ba'zan. Haqiqiy sevgidan emas, balki unashtirilganligimiz uchungina gapirib yurmaganligiga iqror qildirishim kerak-ku. "Faol bo'lsa ham hamon tolqon yer" degan hazil gap bor edi o'sha paytlarda. Qiz ko'z oldida yangi zamonning faol yigiti eski udumlarga ko'ra unashtirilgan qallig'iga iyak otib yurgan kishiday ko'rinmasligimga kim kafil?! Shunga ko'ra tortinchoqlik qilaveraman.

Aylanib kelganda buning bari oshiqlik dardi biryo'la borlig'imni qamrab olgani, ustiga-ustak Oygulning men uchun qo'l yetmas armonday ko'rinishi edi. U men uchun bir ovulda o'sgan oddiy qiz emas, o'zim ko'p o'qigan ertaklarimdagi tanish malikalarday. Bola xayollarim uni o'ta baland cho'qqiga, qo'l yetmas taxtga o'tqazib qo'ygan. Oygul — farishta, men esa oddiy banda deb his qilardim o'zimni. Shunday bo'lsa ham, unga oshiq bo'lishga qanday haddim siqqanligini ham sezmay qolibman. Chin oshiqning har bittasida menikiday kechinmalar bo'lsa kerak. Ishq savdosi shunisi bilan qiziq-da. Men o'zimni Oygulga munosib yor bo'lishga loyiq yigitlarning biri deb hisoblardim. Yo'qsa osmondagi oyga qo'lim

cho‘zib nima qilardim? Meni cho‘chitayotgan narsa, o‘ylab boqsam, uning kattalarga xos aql-u xushi hamda odobi ekan. Mag‘rur qadam bosib, muloyim so‘zlab, sipo bilan kulimsirab turgandan so‘ng nima ham qila olasan? Shuning uchun ham u menga ovoz chiqarishdan hurkitadiganday, og‘iz ochirmay o‘zini olib qochib, dil izhorimni rad etadiganday ko‘rinadi. Shuning uchun jur’atsizlik qilardim. Lekin umidimni ham uzmayman. Chunki bir yigitga xos ko‘rkim, ko‘rinishim borligini bilaman. Aqlim ham, bilimim ham unikidan kam emas. Ovulning kattalari bolalariga namuna qilib ko‘rsatishayotganini ko‘p marta eshitganman. Sinfdosh do‘stlarim orasida ham binoyidek obro‘yim bor. Salgina imo-ishora qilsam, etagimdan tutishga tayyor qizlar borligini sezib yuribman. Faqat Oygulgina qo‘l yetmas yuksaklikda. Boshqa sinfdosh qizlar bilan sabab-besabab yulisha ketishdan toymasdim. Oygulga esa sal-pal hazil qilishga ham botinmasdim. Buni o‘zi ham biladi. Men bilan doimo sipo, vazmin holda muomala qiladi. Shunisi bilan ko‘ksimdan itarib turganday.

Gohida Oygulning mana shu fe’lini o‘ylab boshim qotadi. Mening unashtirilgan qallig‘im bo‘lgach shunday qiladimi yoki yoniga yo‘latmaslik uchunmi, bilmadim. Ko‘pincha keyingisi, deb qo‘yaman. Chunki anchayin “unashtirildi” degan nomi bo‘lmasa, so‘nggi paytlarda bu voqea butunlay unutilganday edi. Yodida saqlab yurgan mengina. Ota-onamiz boyagi qarorlarini esdan chiqarganday bu haqda og‘iz ochmaydilar. Bir vaqtlar quvonib va’dalashganlari bilan keyinroq yoshlikdagi ermaklaridan biri deb oralari sovub ketdimi, bilmadim, bu yog‘i menga qorong‘i. Burungi zamondagiday qalin molini avvaldan berib qo‘yib, vaqtini kutib o‘tirmagach eski hangomalarning esdan chiqishi shubhasiz, albatta. O‘g‘il o‘sayotgan bizning uyda bu gap qo‘zg‘almagach, qizning oilasida gapirilmasligi tabiiy. Shuning uchun ham Oygulning eslab yurishi nojoiz narsa. Yodida saqlab yurganida ham u uchun bu butkul behojat hangoma bo‘lib qolmasligiga kim kafil?...

Aslida eski hangomaga yopishib, o‘z oyog‘ini o‘zi tushovlab, o‘z yo‘lini qiyinlashtirib yurgan ahmoq mengina. Nari-beridan keyin hech bir xavotirga o‘rin yo‘qligini tushunaman. Anchayin jismimga singgan zahri qotilday bir narsa. Kichkinaligimdan

badanimga "qizil yara polapon" uya qurib, erta-yu kech kuylatib, har kech kuyni tinglab ko'z yumib, shu kuy-qo'shiqni sog'inib uyg'onib qoldim. Tuxumdan chiqqan polapon o'zim bilan birga o'sib, qanoti qotganini ko'rib-bilib turibman. Endi faqat uni aytolmasdan qachon baxt qushiga aylanishini kutib yursam hamda mening eng zo'r tilagim shu bo'lsa, biroq haligi "polaponning" uzoq yillar qo'nib o'tirgan butog'i eski udum bo'lsa, qalay esdan chiqaraman?! Rostini aytganda, nima ahamiyati bor? Meni Oygulga oshiq qilib qo'ygan ota-onamizning tilagi emas, ko'nglimda yongan muhabbat olovi-ku! Shu qizga jimitday kunimdan qo'ygan begunoh mehrim bugun o'tli muhabbatga aylansa, bundan keyingi umrimning ma'no-maqsadi faqat shungagina bog'liqligini butun borlig'im bilan his qilib tursam, endi yana nega jur'atsizlik qilishim kerak? U ham men singari kuyib-yonib yurmaganiga kim kafil?

Bu mening tanholikdagi o'yim-ku. Aytishga oson. Gapning po'stkallasini aytganda quyondan battar qo'rqoqman. Xayolimgina jonimga oro.

Bir she'rim bilan Oygulning diliga cho'g' soldim-ov, deb quvonganim bilan ishq dostonida dadil harakat qilolmasdan qiynalardim. Har zamon nigohimiz uchrashib qolsa, darrov ko'zini olib qochadi. Nega? Yaqiniga yo'latmaslik uchun chorami yo sir bermaslikka tirishgan quvligimi, bu tomoni menga qorong'i. Qiz bola hislarini bildirmaydigan, bekitadigan zamon edi-da. Shuning bilan ham qadrli edi-yov!

Oxiri partadosh do'stim Raqishga o'n yillik maxfiy sirimni ochishga to'g'ri keldi. Oygulga o'larday oshiqligimni aytdim. To'rt-besh yoshimizda unashtirilgan "qallig'im" ekanini ham yashirmadim. Bu tomonini u ham bilmasdi. Unday deganim, tuman markazidagi o'rta maktabga turli ovullardan kelib to'planganmiz. Shuning uchun ham bizning eski ovuldagi hangomani u qaydan ham bilsin. Hatto ovuldan kelgan sinfdoshlarim ham bexabar. Chunki boshqalar oldida bu haqda gap ochilmagan. Chamasi bu ikki uygina biladigan "sir" edi.

Raqishning ham qizlar bilan gaplashishga evi yo'q edi. Boyoqish qalin husnbuzarlari orasidan yiltiragan chorasiz ko'zlari bilan menga qarab termulib, qanday qilib yordam berishni bilmay

turardi. Ikkimiz hech kimga bildirmasdan ko'p-ko'p reja tuzardik. "Nimadan cho'chiysan, oldiga borib, mening ko'nglim borligini shartta-shartta aytgin", deyman men unga. U hayiqadi, bundan ko'ra xat yozib ber, qo'liga tutqaza qolaman, deydi. Bunday qilishga mening haddim sig'maydi. Qo'rqqanim — menda ko'ngli yo'q bo'lsa, xatimni dugonalariga ko'rsatib, masxaralab yursa nima qilaman. Yo'q, desa mayliga-ya, kulgiga qolganim og'ir kaltak bo'lmasmi, unda tirik yurishimnig o'zi qiyin bo'ladiganday ko'rinadi.

Bugungiday esimda: beshinchi dekabr — Konstitutsiya kuni edi. Maktabda o'sha sanaga bag'ishlangan badiiy kecha bo'ladigan bo'ldi. Odatdagiday maktabdagi eng katta sinfxonani bo'shatib, barcha partalarni zalga chiqarib qo'yib, o'yin-kulgi boshladik. Bunday tadbirga odatda to'qqizinchi-o'ninchi sinf o'quvchilarigina qatnashadi. Tashkillashtirish va tartib-intizomga javobgarlik bizga yuklangan. Biz, bitiruvchi sinf yigitlari esa, unga jonbozlik ko'rsatamiz. Tadbir biz uchun kerak. Faqat ko'ngil ko'tarishgagina emas, qizlarga so'z otishga ham eng qulay fursat.

— Murod, bugun sen uchun eng qulay imkoniyat. Foydalanib qol, — deya gij-gijlaydi Raqish. Men kaftlarimni ishqalab, kulib qo'ydim, "tavakkal" deganni bildirdim.

Kecha boshlanib, bayan ovozi jaranglashi bilan Raqish ikkimiz to'rt devor bo'ylab qator turgan bolalarning orasidan yura boshladik. Oygulga yaqin yerga borib to'xtadik. Poygaga qo'shiladigan otdek "jilovni uzgudek" bo'lib tipirchilab turibman. Dastlabki raqs boshlanishi bilanoq, yoniga borib raqsga taklif etmoqchiman. Avvallari ham ko'p marta raqsga tushganman. Lekin bugun Raqish bilan va'dalashib, maxsus "reja" bilan ishga kirishganligim uchun hayajonlanardim. Shuning uchun bir ish bitirolmasligimni sezdim. Lekin Raqish ikkimiz ajoyib mardlik ko'rsatganimiz aniq edi. Yangi raqs yangraganda, birimiz borib "ushlaymiz". Raqs tugagach, Oygulnl qizlar yoniga eltib qo'yamiz-da, shu yerda turib qolamiz. Bu ehtiyot chorasi edi, zero Oygulni hech kim "ilib ketmasin". Ilgarilari bu tarzda ko'p taklif etmasdim. Nari borsa bir-ikki raqs bilan kifoyalanardim. "Nega menga shuncha yopishib oldi", deb o'ylashini xohlamasdim.

Bu safargi jasurligim, albatta, Raqishning orqasida. Xuddi shu kuni bundan ortiq baxt, bundan ortiq quvonch bo'ladi, desa ishonmasdim. Eng ajablanarlisi, Oygul "Senlar nega mening oldimda girdikapalak bo'lib aylanishlab qoldinglar", deb ranjimadi, hayratlanmadi. Hatto hech narsa sezdirmadi ham. Har doimgiday sipoli, vazmin xislati bilan o'ynab-kulib yuraverdi. Mana shundan ham ko'p narsani anglay boshladim. Dadilligim ortdi. "Yur, kuzatib qo'yay", desam ergashib kelaverar ekan, a? Lekin men buni juda kech bilganimni aytmaysizmi?! O'yin-kulgi tugab, bolalar to'p-to'p bo'lib ko'chaga chiqishganida Oygulni qizlardan ajratib olib ketishga va'dalashgan edik. Lekin Raqish ikkimizning qizlar guruhiga yaqinlashishga ham haddimiz sig'madi. Ulardan ancha olisda salanglab borayotirmiz. O'zimizcha: "Bir o'zi qolsin, shu paytda ushlaymiz", deb qo'yamiz. Uning uchun bolalardan ilgari borib, uylarining yaqinida kutib olish kerakligini eslamabmiz. Biz yetib borganda u allaqachon eshikni ochib ulgurgandi.

Shu kechadan keyin men Oygulning menga befarq emasligini aniq anglagandim. O'zini menga "unashtirilgan qalliq" tarzida ko'radimi, ko'rmaydimi, nima ahamiyati bor, eng asosiysi — meni bo'lajak yor bo'lishga arziydigan o'ziga loyiq yigit sifatida ko'rsa bo'ldi-ku! Tan oldi, demak, sevadi. Huv o'yinqaroq bolalik kunlardan orzu qilgan baxt qo'l cho'zsa yetgulik yerda ekanini payqashdan ortiq qanday lazzat bor. Faqat qo'lingni ayni damda cho'zib qol, kechikib qolib yurma! Bu mening o'spirinligimdagi "qiziq" kunlarim edi. Avvallari tubsiz xayolga berilsam endilikda tashvishlanib o'ylanay dedim. Oygulga qo'lim yetishiga biryo'la ishonchim komilday edi. Aniq bir dadillik bo'lmasa, u qiz odatdagiday xayoldagi parizod bo'lib qolaverishini ham bilaman. Uni Raqish ham miyamga quyib keladi. "Intilmasang bir kuni birortasi ilib ketib, sho'ring qaynab qolasan", — deb qo'rqitib ham qo'yadi. Yuragimni muzlatib...

Kunlar ketidan kunlar o'taverdi. Men hamon Oygulni xayolda o'zimniki qilib olib, ko'zlarim bilangina quchib, behalovat holda yuraverdim. Jismimdagi olovli hissiyotni faqat ko'zlarimgina yetkazadi Oygulga. U baribir sir bermaydi. Qanday ichidan pishgan qiz-a.. Yuzma-yuz uchrashib qolsak bir lahzagina ko'z tikib, ni-

gohini olib qochadi. Shuning o'zidanoq men uni ichki dunyosini tanib ulgurganday yurdim. Yuragim shuv eta qolardi.

Oxiri Raqishning so'zlari qamchi bo'lib tegdi. Yana bir she'r yozib, hislarimni ochiqroq bildirishga ahd qildim. Epigraf sifatida Abayning: "Bu dunyoda sendan o'zga yor yo'q menga, mendan ortiq yor topilsa ham senga", degan baytini yozib qo'ydim. Endi shu ma'noda she'r yozish uchun bor kuch-g'ayratimni sarfladim. Besh-olti og'iz so'zli she'r uchun kamida uch kun vaqt sarfladim. Yuragimda borini to'kib yozsam, bundan osonroq bitmasmidi. Qiyinini tanladim. Uning ikki sababi bor: birinchisi — Alloh bergan qobiliyatingni imkoni kelib suygan qizingga bildirib, bir maqtanib olmasang, u talantning borligi nima-yu, yo'g'i nima, degan bolalik havas bo'lsa, ikkinchisi — ehtiyot chorasi. O'z obro'yingni ham, qizning sha'nini ham o'ylash kerak. O'sha paytlarda qizga yozilgan xatning kimningdir qo'liga tushib, fosh bo'lib qolishi katta jinoyatni ochish bilan tengdek edi. Shu boisdan xatning nomi — xat, she'rning nomi — she'r!

She'rni Oygulga Raqish yetkazdi. "O'qi, — debdi u. — Murodning she'ri, senga atalgan". Oygul xatni bamaylixotir ochibdi. Raqishning ko'z oldida o'qiy boshlabdi. Ko'p o'tmasdan qizarib ketibdi. Buni ko'rgach Raqish, uyalib qolmasin deb, ketib qolibdi. Bunday qilmaslik kerak edi. Yonida turib, javobini keltirish kerak edi. Na iloj. U ham menga o'xshagan bo'shanglarning biri-da...

Endi biryo'la halovatimdan ajraldim. Nima der ekan? Javob beradimi, bermaydimi? Ertaga maktabga kelayotganda uchrashib qolsak, nima qilishim kerak? Achchig'lanib zahrini sochsa-chi? Sinfdoshlarning oldida yer bilan yakson qilmasmikan? Lekin bunday qilmas, loaqal o'zining sha'nini o'ylaydi-ku!.. Ertalabgacha shunday savollar tinchlik bermadi. Har holda aniq bir javob oladigan kun kelganidan ham quvonaman, ham hayajondaman.

Ertalab Oygul ikkimiz maktabga bir vaqtda kelibmiz. Bir chekkada asta yurib kelayotganini ko'rib qoldim-da, eshik oldida kutib turdim. Yuragim dukillab turibdi. Ko'rmagandek bo'lib ichkariga kirib ketmoqchi bo'lsam, qochib ketgan hisoblanaman. U menga yaqinlashaverganda ko'zi yashnab, kulimsirab qo'ydi. Bir nima deyishim kerakligini bilaman, lekin nima aytishimni bilmasdan

turgan edim, boshini silkib salomlashdi. Yonma-yon kirib borayotganda:

— Yaxshi she'r yozibsan! — dedi tortinmasdan sipo holda. — Menga atabsan, rahmat! Raqish shunday dedi, rostmi?

— Rost! — dedim shoshib.

Ikki yuzim, qulog'im qip-qizil bo'ldi. Yonib ketdim. Mana shunday gap bo'lishini tasavvur qilmagandim. Tilim kalimaga kelmasdi. Xudo obro' berdi, o'quvchilarning shovqini tutib ketdi. Shundan foydalanib, sinfga jimgina kirib keldik.

O'sha kungi darslarning qanday o'tganini bilmayman. Hech kimning ovozini eshitmadim, hech kimning yuzini ko'rmadim. Butun fikr-u zikrim Oygulda edi. Ertalab jilmayib salomlashgani, o'zgacha nigohi ko'z oldimdan ketmasdi. Ayniqsa, "Yaxshi she'r yozibsan. Menga atalgani rostmi?" degan so'zi qulog'imda jaranglayverdi. Uni qanday ohangda aytdi deng. O'ziga xat o'rniga yozilgan she'r emas, xuddi devoriy gazetadan o'qigan she'rga bildirgan fikrga o'xshadi.

Balki shoshib qolganidan shunday degandir. Yoki she'rga biror fikr bildirish majburiyati bormidi? Yoki shunday deb qutilish uchun topgan hiylasimikan? Yechimi yo'q yangi jumboq...

Men nechog'lik majnun bo'lmayin, ayni bugun mazkur cheksiz-chegarasiz xayollarni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, murakkab tugunni yechish kerakligini tushunardim. Oxirgi ikki darsda faqat shuni o'yladim. Chekinadigan yerdan o'tib ketganimni bilaman. Yaxshilab toroziga solsam, ilgarilari qiynaladigan narsaga o'xshamasdi. Ayni vaqtda men uchun bu tik qoyaning boshiga tirmashib chiqishdan ham qiyinroq ko'ringani aniq.

Qanday bo'lganda ham yechingan suvdan qaytmaydi. Tavakkal qilmoq kerak. Darsdan keyin qizlar bilan birga chiqqan Oygulga:

— Oygul, bir daqiqaga, — deb tengdoshlardan ajratib oldim.

U to'xtadi. Ikki yuzi qizarib hayajonlanib turganini ko'rdim. Uzun kipriklarini pirpiratib, charos qora ko'zlarini yerga qaratdi. Shunday turishida ham go'zal edi. Unga mahliyo bo'lib, yana tilimni bog'lab qo'ygandek gapira olmay qoldim. Bir lahzalik sukunat ikkimizga ham juda uzoq ko'rindi. Qizlar mug'ombir bo'ladi, hammasini tushunib turibdi. Mening yuvosh, injiq emasligimni

ham yaxshi biladi. Mening gapirolmay qolganimning sababini o'z boshidan kechiryapti, shekilli, mening bechora holimga ajablanmadi. Nima demoqchi ekanligimni kutib, sabr bilan qarab turdi.

— Oygul, she'rimni o'qiding, nima aytasan? — dedim oxiri zo'rg'a tilimni aylantirib. Qizarib ketdim, shekilli, yuzlarim lovullladi.

— She'ring juda chiroyli. Shoir bo'larsan oxiri. Jurnalistikaga boraman degan fikringdan qaytmagandirsan, a? Katta shoir bo'lib ketsang, keyin biz birga o'qiganmiz deb faxrlanib yuramiz. — U hazil ekanini bildirib kulib qo'ydi va odatiy vazmin holatiga ko'chdi. — Yaqin kunlarda o'qish ham bitadi. Oldimizda imtihonlar. Xotirjam bo'lib darslarga tayyorlangin. She'r qochib ketmaydi. Vaqt zirillab o'tib ketadi. Qara, kechagina to'qqizinchi sinfni tugatganday edik, endi maktab bilan xayrlashmoqchimiz...

Mening so'rog'imga chiroyli tarzda javob berishdan qochdi, gapni aylantirib ketdi. Lekin so'zini to'xtatishni istamadim. Gaplashgan holimizcha ko'chaning o'rtasidan Oygul yashaydigan uyga qarab sekin-asta ketyapmiz. Oldimizdagi o'quvchilar vaqti-vaqti bilan biz tomonga qarab qo'yadi. Bular nimani shuncha berilib gaplashyapti deb hayron bo'layotgandir. May oyining qaynoq kun ta'sirida isib ketgach, ko'chaning janub tomoniga o'tib, baland-baland teraklarning soyasiga o'tdik. Asta-sekin ikkimiz ham jo'shqin hislarimizni tinchlantirib, aqlga bo'yin egdira boshlagandaymiz. Lekin nega shu yergacha kelganimni unutmadim, albatta. Qulay fursatni poylagan qaroqchidek dangal savol qo'yadigan vaqtni kutyapman. Bir vaqt qarasam, Oygulning uyiga kelib qolibmiz. Endi kechiktirib bo'lmasligini bilib shartta to'xtadim.

— Oygul, bilasan-ku, men seni yaxshi ko'raman. Men tug'ilganimdan seni yaxshi ko'rib kelaman... Sevaman seni... Shuncha vaqtdan buyon aytolmay keldim. Jur'at etmadim. Sen ham meni yoqtirasan, a? Shunday emasmi? Bundan keyin yaqin yuraylik... Institutga ham birga boraylik... Bundan keyingi yo'limiz birga bo'lsin, — deb beto'xtov gapirdim.

Oygulning go'zal yuzi tobora qizarib borardi. So'zimni bo'lmadi, oxirigacha indamasdan tingladi. Uzun-uzun kipriklarini pirpiratib, yerga qaragancha, oyog'ining uchi bilan yerni chizaver-

di-chizaverdi. Men gapimni tugatganimdan keyin boshini ko'tardi, yuzimga mehr bilan qaradi. Indamasdan uyiga kirib ketdi. Men ustimdan og'ir yuk tushgandek yengil tortdim. Indamaganiga xafa bo'lmadim. Uning ham meni sevishiga amin bo'lgandim. Agar menga befarq bo'lsa, mening zulukdek yopishib, shoshilib tez-tez gapirgan gaplarimni tinglamasdi. Gapning boshidanoq adabimni berib qo'yardi...

Haqiqiy baxtli damlar endi boshlandi. Ertasiga darsga kelganida u erkalangan ohangda:

— Murod, manavi misolning javobi chiqmayapti-ku, sen chiqara oldingmi? — deb so'radi. Rostdanmi yo jo'rttagami, bilmadim. Kechagi suhbatdan so'ng u biroz hurkib o'zini olib qochib yursa kerak, deb o'ylagandim. Yonma-yon o'tirib misolni yechishga kirishdik. Yuzimiz bir-biriga tegay derdi, nafasimiz ham qo'shilib ketguday. Chunonam mast bo'ldim-ki... Misol uncha qiyin emas edi, uni kechaning o'zida yechib qo'ygandim. Shuning uchun boshimni ko'p qotirmadim. Butun vujudim bilan Oygulning yaqinligini sezishni istadim. Tegib turgan bilagimdan qizning issiq taftini his qilib, dukillayotgan yurak urishini juda yaqindan sezib turdim. Bu ikkimizning tilaklarimiz uchrashgan payt edi.

So'nggi dars tugaguncha chidayolmay ketdim. Ajablanarlisi har doimgidek qo'ng'iroq chalinganda paydo bo'ladigan jur'atsizligim o'zidan o'zi yo'q bo'ldi. Oygulning yoniga uchib boribman, sinfdan qachon chiqib, dugonalaridan qanday ajratib olganim yodimda yo'q. Bo'lib olmasam kerak, bir-birimizni tushungan holda yonma-yon yurib ketsak kerak. Bu mening uzoq kutgan eng baxtiyor kunim edi. Shu kuni u bilan nima haqda suhbatlashdim, qayergacha kuzatib bordim, qancha vaqt birga yurdim — hech birini ham eslolmayman. Ichmasdan, ishq mayidan mast bo'ldim. Baxtdan boshim aylanardi. Faqat esimda qolgani o'sha kuni kechqurun yana uchrashdik, o'sha kuni ilk bor bo'sa ta'mini tortdik...

Oydin kecha edi. Ufqning qizili yo'qolib, janub tomondan doira shaklida ko'tarila boshlagan oy nuri bog'chaning ichiga oppoq yog'indek yog'ila boshladi. Biz yashirinib turgan qari olma daraxtining qalin yaproqlari orasidan tirqish topib mo'ralagan oppoq nur Oygulning yuziga sehrli oqish bo'yoq sochib, hech qachon ko'rma-

ganim ajoyib go'zallik baxsh etardi. Ko'zimni yumgan holda tasavvurimda jonlantira oladigan siymosi xuddi shu lahzada insonning hushini oladigan darajada o'zgacha edi. Bug'doyrang yuzlari oqarib, qalin qora qoshlari va uzun kipriklari o'rab olgan qop-qora porloq nigohi tun tilsimotida mutlaqo boshqa qiyofaga kirgandek ko'rinadi. Buning qanday jumboq ekanini aytolmayman. Biladiganim shuki, ro'paramda yuzini oy shu'lasiga qaratgan, nozikkina badani titrab quchog'imda turgan bokira qiz bu dunyodagi eng go'zal, eng dilrabo, eng iboli, eng aqlli qizdir. Men esa yer yuzidagi eng baxtli yigitman. Yuragim ajib hissiyotlarga liq to'lib, to'kilar chog'da Oygulning labidan ilk bo'sa olganimni hech unutmasman.

— Taqdir ikkimizni bir-birimiz uchun yaratgan, — dedim men hayajonlanib. — Kichkina bir ovulda tug'ilishimiz bejiz emas. Ota-onalarimiz zamon yangi bo'lsa ham, bolaligimizdan bekorga unashtirib qo'yishmagan. Xudo meni bekordan bekorga to'rt-besh yoshimdan oshiq qilmagan. Endi ikkimizni hech kim ajrata olmaydi...

Ayni shu kuni Oygul ham dil rozini aytgan edi:

— Men ham seni avvaldan sevaman, Murodjon. Lekin qachondan ekanini aniq bilmayman. Ikkovimizni unashtirib qo'yishganini esa men keyin-keyin bildim, bo'yim cho'zilib qolgan vaqtda. Qizlarning o'zaro sirlashadigan vaqtlari bo'ladi, ana shunday damlarning birida menga amakimning qizi aytdi. Men yosh paytimda bu rusumni tushunmasam kerak. Yoki menga aytishmaganmi. Bu gap qulog'imga kirishi bilan men senga qiz nigohi bilan qaray boshlaganman. — Keyin sekin jilmayib qo'ydi. — Yaxshi yigitsan, "xalq maqtagan yigitni — qiz yoqlagan" demasmi...

Shundan keyin ikkimiz bir-birimizga necha yillardan beri intiq bo'lib yurib, hislarimizni yashirib, o'zimizni qiynab kelayotganimizni aytib kulishdik. "Men qizman-ku, meniki uzrli, sen-chi, sen nima qilib yurding?" deb meni masxara qiladi. Men kulaveraman. "Chin dildan sevgan qiziga aytishga yigitlar jur'at etolmaydi", deyman. Bu o'zimni "yigit" deb oqlanganim...

Ko'p o'tmasdan imtihonlar boshlandi. Uzzukun dars tayyorlayman. Oqshomga yaqin Oygul turadigan uyga qarab chopaman. Darvoqe, Oygul uzoqroq qarindoshlarining uyida turib o'qirdi. Uy

egalari o'qituvchilar edi. Ulardan tortinmaydigan bo'ldim. Qamchi yetmas joyga yetib olganimni bilgach, botir bo'la boshladim, shekilli. (Bo'lmasa muallimlardan juda qattiq hayiqardik). Quyosh botib ulgurmasdanoq, boqqa kiraman va Oygulni toqatsizlanib kutib o'tiraman. Eh, mening baxtli kunlarim! Buning shunchalik qisqa bo'lishini men qaydan bilibman...

— Sen juda erta kelmagin, — dedi Oygul nozlana kulib. — Uy egalaridan uyat-ku. Olti yil bo'yi "g'ing" deyishmagandi, olti kun qolganda hunarlarini ko'rsatyapti deyishar balki...

— Seni qachongacha bog'lab o'tirishadi. Sen balog'atga yetgan qizsan. Almatiga o'qishga borganda ham yoningda birga yurishadimi?

— Xolam sening kelib yurganingni ko'rib qolibdi. "Murod tarbiyali, yaxshi bola. Kelajakda yaxshi inson bo'ladi. Boraqol, lekin ko'p yurma", deb tayinladi. Ular ikkimizning unashtirilib qo'yilganimizni bilishar ekan, qayerdan eshitganini qaydam. Ikki-uch kun avval oyim kelib ketgandi, shunda aytgan deb o'ylayman. Uchrashsa uchrashaversin, ota-onasi bilan ilgaridan kelishib qo'yganmiz deb aytgan bo'lsa. Uyat! Uyat!

— Nimasi uyat? Aksincha yaxshi emasmi? Mening oyim ikkisi bizga yaxshi tilaklar tilab o'tirishadi, — dedim men. — Borib aytadigandir...

Bu so'zlar ikkimizga shunchalik yoqar ediki, quvonchimiz terimizga sig'masdi, quchog'imiz birlashib ketardi. Tun yarmidan oqquncha shu tarzda o'tirib kelajak rejalarini tuzamiz. Men o'zim orzu qilgan jurnalistikaga o'qishga bormoqchiman, Oygul esa bolalar shifokori bo'lmoqchi. Men besh yil o'qiyman, u olti yil. To'rtinchi kursni tugatgach, oila quramiz. Eng yaqin rejamiz — shu.

Bunday shirin orzularning ikki-uch oy ichida chilparchin bo'lishini biz xayolimizga keltirmasdik. Hammasi Oygulning mandatdan o'tmay qolganidan boshlandi. Xuddi shu yili o'qishga ikki yil mehnat staji bor talabgorlar qabul qilinsin, degan hukumatning qarori bor edi. Shuning dastidan barcha imtihonlarni "to'rt" bahoga topshirgan Oygulning omadi kelmadi. "Kelgusi yilda yana baxtingni sinab ko'rasan, xafa bo'lma. Qishi bilan tayyorlanib, hamma fanlarni "besh" bahoga topshiradigan bo'lib kelasan", deb yupatib,

ovulga o'zim olib keldim. Oyim Oygulning o'qishga kirolmaganini eshitishi bilanoq menga yopishgan. "Oygulga uylanib, keyin ketgin, aylanayin, kelgusi yilda yoningga qo'shib yuboramiz, birga o'qiyverasanlar. Balog'atga yetgan qiz seni uyida kutib o'tirgani uvol. Almati yaqin-ku bizga, har oyda kelib-ketib turasan. Imkoni bo'lsa o'zini ham yuboraman. Aylanayin, shunday qilinglar, mening necha yillik orzuyim — bu. Mening tengdoshlarim allaqachon nevara ko'rishganini bilasanmi?" deb bir kuni obdon gapirdi.

Bu yoqimli istak edi, lekin laqqa tushmadim. Oygul bilan maslahatlashmoqchi bo'ldim. U ma'qul deb bilsa, men ham bunga rozi bo'lardim. Oyimning istagini unga bayon etdim. "Murodjon, shoshmaylik, — deb erkalanib gapirdi Oygul. — Hali o'n sakkizga ham to'lmadik. Xudo nasib etsa, keyingi yilda o'qishga kirsam, talabalikning qiziqlarini birga baham ko'rmaymizmi? Vaqti kelganda oilaviy hayotga ham kirisharmiz. Rostini aytsam, turmushga chiqqanday keyin, kelinning nomi kelin, o'qiy olmay qolaman, deb qo'rqaman. Men o'qishni istayman". Oygulning bu tilagi oyimning istagidan ko'ra menga tushunarli edi. Men ham shunday orzu yo'lida yuribman-ku! Oygulning ham qobiliyati mendan oz emasligini bilaman. Oygul o'qimasa, kim o'qiydi?!

Shunday qarorga keldik. Oradan bir hafta o'tib universitet talabalari bilan birga qo'riq yerlarning g'allasini yig'ishga ketdim.

Almatiga noyabrning boshida, Oktyabr bayrami arafasida qaytib keldik. Yuklarimni yotoqxonaga joylashtirdim-da, ovulga ketdim. Bizning ovul Suluvto'rdan sakkiz chaqirim uzoqda. Bu masofani ot-aravada yoki piyoda bosib o'tamiz. Men ham bugun ikki oyog'imga kuch-quvvat tilab, yo'lga chiqqandim, albatta. Ovulning tashqarisidagi baland qirning ustiga chiqqanimda, ellik-oltmish uyli mening kichkina Vatanim ko'zimga o'tdek bosildi. Sog'inib qolgan edim. Rostini aytsam, kuzgi ta'tilda yurgan uka-singlim va ota-onamga nisbatan Oygulni ko'proq sog'ingandim. Avval o'z uyimizning atrofiga ko'z yugurtirdim, ortidan Oygullarning uyiga qaradim. Tashqarida yurgan bo'lsa, xayolan bir quchoqlashni xohlagandim. Lekin hech kim ko'rinmadi. Oqshom cho'kkan, shuning uchun tog'ning kuzgi salqini hammani uyiga kirishga majbur qilgan, shekilli.

Uyga yaqinlashganimda g‘ira-shira bo‘lib qoldi. Eshikdan kirishim bilan ukamga bozorlik sifatida olib kelayotgan kichkina “fonarik”ni yoqib yubordim. Uy ichi bir damda g‘ala-g‘ovurga aylandi. Oyim quchoqladi, singlim bo‘ynimga osilib oldi. Kichkina oilamiz quvonchdan yashnagan ajoyib lahzalar. Ular ham tinmasdan gapirdi, men ham to‘xtamasdan so‘zladim... Behisob yog‘ilgan so‘roqlar, shartta-shartta aytilgan javoblar ancha davom etdi.

Choy ichib bo‘ldik, men qo‘l soatimga qarab-qarab qo‘yaman. Ko‘chaga shoshayotganimga ishora qilaman. Sezaman, nimadir o‘zgacha, ilgarigidek emas. Hamma nimagadir g‘amgin ko‘rinadi. Dadam va oyim hech narsani bildirmaslikka harakat qilishdi, lekin ukam va singlim bir-biriga o‘g‘rincha qarab, hayajonini bildirib qo‘yishardi. Aftidan ko‘chaga shoshilib turibdi, deb o‘yladim. Chunki tengdoshlari kutib turishi mumkin. Lekin hech narsa sezmagandek tashqariga yo‘l oldim. Oygul bilan uchrashishga shoshilardim. Men bilan birga chiqqan ukam niyatimni sezdi, shekilli, sal jur’atsizlik bilan:

— Oygulni olib qochib ketdi! — dedi yig‘lamsirab.

— Kim olib qochdi? Nega olib qochadi? — debman kutilmagan xabarni tushunmasdan. Yuragim shuvillab, bo‘g‘inlarim qaltiray boshladi. Qulog‘imda jaranglab turgan so‘zni aql bilan emas, yurak bilan tushunganday bo‘ldim.

— Chorbog‘lidagi Turorqul... Aqrabning o‘g‘li...

— Qachon?

— Bir oycha bo‘ldi.

— Ota-onasi izlab bordimi?

— Borgan... Amakisi va ikki kelinoyisi... Uyning ostonasini hatlabdi, kelin bo‘libdi, qolaversin deb qaytib kelibdi...

— Sizlar nima qildingizlar? Nega orqasidan bormadingizlar?

— Nimaga boramiz?! Ota-onasi jimgina o‘tirsa...

Hushim boshimdan uchib, bir yerda qo‘zg‘almasdan turib qolibman. O‘zimga kelsam, ikki ko‘zimdan shashqator yosh oqib, jimgina yig‘lab turibman. Ukamdan uyalmadim. Lekin uyning atrofini aylanib o‘tib, qorong‘ilikka, Soz tomonga yurib ketdim. Ukam orqamdan ergashmoqchi bo‘lgandi, tirsagim bilan bir urib, orqaga qaytardim.

Turorqulni men taniyman, albatta. U ham Suluvto‘rda mendan ikki sinf yuqori o‘qigan... Bizning ovuldan o‘n-o‘n besh chaqirim quyida, Irg‘ayti soyi sohilidagi Chorbog‘lida, mening partadosh do‘stim Raqishning ovulida yashardi. Menimcha, harbiydan bu yil bahorda kelgan edi. Uzun bo‘yli, qaddi-qomati kelishgan, g‘ayrati toshgan oppoq yuzli yigit. Xudo bergan ustunligini yaxshi bilardi, ko‘p maqtanardi. Shuning uchun tengdoshlari unga ko‘p ro‘yxushlik bermasdi. Endi o‘sha maqtanchoq mening hur qizlardek Oygulimni, mening yillar davomida bolalardan rashk qilgan, o‘zim ham yoniga yaqinlashga jur’at qilolmagan, yillar davomida yuksak orzuyim hisoblab kelgan farishta Oygulimni og‘ildan uloq o‘g‘rilagan kishidek baqirtirib, yuk mashinasining kabinasiga sudrab kiritgan, uyiga olib kelgan, unga uylangan! Shu tasvir ko‘z oldimda gavdalanib, tishimni g‘ijirlataman. Qizning dodlagan ovozi qulog‘im tagida jaranglayverdi. Uning yalinib zor-zor yig‘laganiga aminman. U mendan yuz o‘girib ketadigan qiz emasdi-ku! Bu aslo mumkin emas edi. Endi nima qilaman?

Mendan oyim tilagan javobsiz so‘roq shu edi.

Kimsasiz ko‘chalarda yarim kechagacha daydib yurdim, yuz xil reja tuzdim. Hammasi ham mening o‘spirin xayolim. Hamma rejalarning nihoyasi bir nuqtaga eltaverdi: ertalab Turorqulnikiga borib, Oygul bilan yuzma-yuz gaplashaman. Agar ketadigan bo‘lsa, olib kelaman. Qarshilik qilishsa, tumanga borib, militsiyaga shikoyat qilaman. Boshqalari hammasi shunchaki gaplar...

Qaytib kelganimda uydagilarning hammasi uxlab qolishgan edi. Ehtimol, hammasi o‘zini uxlaganga solib yotgandir. Keyin ukam aytib berdi: meni kuzatib qalin buta tagida o‘tirgan ekan. Men uyga yaqinlashganimda, yugurib kirib, ko‘rpaga burkanibdi. Hammasi ham shunday qilgan, menimcha...

Ertalab vaqtli uyg‘ondim. Dadamning otini minib, Chorbog‘liga ketish fikrida edim. Bu niyatimni hech kimga bildirmaslikka tirishdim. Lekin nonushta chog‘i dadam “chaqqonlik” qildi.

— O‘g‘lim, — deb so‘z boshladi, keyin choyini bir-bir ho‘pladi va vazmin ohangda davom etdi, — otasi o‘lganni ham bildiradi, deyishadi. Xudoga shukur, sening dadang hozir tirik. Tong otmasdan kayfiyating yo‘qligiga qarab bilib o‘tiribman, noxush xabar

eshitding. Bu senga og'ir tegdi. Oson emasligini hammamiz bilamiz. Oying ikkimiz senlarning baxtlaringni bolalik kunlaringdan beri tilagan edik, buyurmagan ekan-da. Ba'zan odam turmush o'rtog'idan ham ayriladi, lekin hayoti to'xtab qolmaydi. Bir-birimizga mosmiz, shunga uylanaman deb ishongansan. Lekin berib qo'ygan qalin molimiz yo'q, ostonamizni bosgan kelinimiz emas. Shunday bo'lsa ham atayin borib ota-onasi bilan gaplashdim. Qonun idoralariga xabar beraylik, olib kelaylik, dedim. Otasi ko'nmadi. "Borgan kuni olib kelsak bo'lardi, biz xabarini bilguncha ikki-uch kun o'tib ketdi. Endi olib kelganimiz bo'lmas. Shunday bo'lganida ham, bolalarning ko'ngli bir-biriga endi yarasharmi, oxiri xayrli bo'larmi? Ollohning xohishi shudir. Unga qarshi borib baraka topmasmiz. Uni qiynamaylik, borgan yerida ko'karsin", dedi. Sen ham ko'n, bolam, taqdirning yozganiga. Hali Oyguldek ko'p qizlar uchraydi. Lekin hammasiga uylanolmaysan. Xudo peshonangga yozganigina senga juft bo'ladi. Bezovta bo'lma, tinchgina o'qishingni o'qi. Oygul ham aqlli qiz, taqdiriga tan bergandir. Bo'lmasa orqasidan izlab borgan aka-kelinoyilari bilan birga qaytib kelardi. "Qolmayman, baribir ketaman", deb turib olsa, ular zo'rlab tashlab ketmas edi-ku. Qizning aqli yetgan narsani sen ham tushunarsan, deb ishonaman. Bunday ahvolda xalqning ko'ziga ko'rinma. Qaddingni tik tut. Do'st bor, dushman bor...

Ichim yonib, yuragim qon yig'lab tursa ham, otamning so'ziga itoat etdim. Ayniqsa, "Oygul ham taqdiriga tan bergandir, aks holda aka-kelinoyilari bilan birga qaytib kelardi", degan gapi meni hushimga keltirdi. Lekin yaramas bir fikr tinchlik bermasdi. O'shanda oyimning istagini aytganimda ro'yxushlik bermagandi, balki avvalroq o'sha bilan va'da qilgandir. Hatto va'da bo'lmagan holda, zo'ravonlik bilan borgan bo'lsa ham, yaxshigina yigitning ostonasini hatlagandan keyin, ko'ngli o'rniga tushgandir... Yo'qsa, dadam aytganidek, aka-kelinoyilarining etagiga yopishib, ketaman deb yig'lamasmidi? Demak, ham ko'ngan, ham qozoqi odatdan voz kecholmagan. Eh, meni sotib ketgani-ku bu... Qiynalsam ham ko'nikishim kerak. Uni hech bezovta qilmayman, buning nafi yo'q, faqat do'st-dushmanga kulgi bo'larman. Shunday qarorga keldim. Boshqa ilojim yo'q edi.

Oradan ikki oyga yaqin vaqt o'tganida, jurnalistika kafedrasidan mening nomimga xat kelganini aytdi kimdir. Kafedraga kim xat yozgan ekan, deb hayron bo'lgancha, darhol bordim. Oygulning xatini birdan tanidim. "Mening manzilimni bilmagandan keyin shu yerga yozgan-da". Shoshilib ochib o'qiy boshladim.

"Mening qadrli Murodim! Sen meni yozg'irma. Men senga bevafolik qilmadim. Men seni abadiy sevaman, muhabbatimga sodiqman. Begona oilaga kelin bo'lib tushgan bo'lsam ham, faqat seni o'ylayman. Ovulga kelib ketibsan. Eshitishi bilanoq izlab kelar, deb o'ylagandim. Xabarlashmaganingga, mendan hol so'ramaganingga ko'ra, mendan ko'ngling sovigandir. Taqdirning yozmishiga ko'namiz-da. Shu maktubim qo'lingga tegsa bo'ldi. Mening bor armonim shugina. Men aybsizman, pokman, sen shuni bilsang kifoya menga. Boshqa xayolim yo'q. Seni bilan xayrlashgim keldi. Xayr! Baxtli bo'l! Oygul", deb yozibdi. Oxirida qachon yozilgani ko'rsatilmagan. Pochta muhriga qarab o'n besh kun avval yozilganini bilib oldim.

Toshga urilgan baliqdek esankirab turib-turib, arang o'zimga keldim. Nima qilish kerak? Oygulning so'zlariga shubham yo'q. Yolg'on gaplar bilan oqlanishiga biron sabab ko'rinmaydi. Haqiqatan ham, unutolmasdan yurgandir. Menda ham shunday-ku! Dastlab qozoqi odatlardan bosh tortmasdan rozi bo'lgan-u, endi xatosini tushungan. Orqasidan izlab borgan akasi va kelinoyisi bilan birga qaytishi kerak edi, buni kech tushunganini qara-ya! Endi izlab borsam, men bilan birga qaytib kelaveradimi? Shunga ishora qilmayaptimi? Nima qilishim kerak?

Necha kunlar bir qarorga kelolmasdan, o'yim o'nga, shuurim songa bo'lindi. Yuragimga quloq tutsam, bir daqiqa to'xtamasdan Chorbog'li tomonga ketishni istayman. Aqlimga quloq solsam: bu mumkin emas, seni keldi deb Turorqul Oygulni qo'shib yuborarmidi? Ikki o'rtada yosh kelinning obro'sini bir to'kib, o'z obro'yingni ikki to'kib, Almatiga bo'sh qaytmasligingga ishonasanmi? Bir-birlaringga ozor berib, sharmanda bo'lmasligingga kim kafil? U holda o'qishing nima bo'ladi? Yo tortib olgan qizing yo'q, yo arang kirgan o'qishing yo'q, hammasidan ajralib qolmaysanmi? Bunga dadang, oying nima deydi? Bunday sharmandali ishga qo'l urma!

U endi ilgarigi bokira Oygul emas, birovning jufti haloli. Uch-to'rt oydan buyon birovning turmush o'rtog'i. Erdan ajralishgan juvonga uylangan bo'lasan-da. G'ururing bormi? Odamlar kulmaydimi? Oygul aytgandek, hatto o'n sakkizga ham to'lmaganman, bu yosh uylanadigan yoshmi? Besh yillik talabalik hayotingni xotirjam o'tkazmaysanmi? O'zingga, ota-onangga ortiq mashaqqatning ne hojati bor?

Yurakdan ko'ra aqlning vaji ustunroq ko'rina boshladi. Oygul endi qiz emas, ostona hatlagan juvon degan hasad, ustuvor fikr meni to'xtatib qolardi. Oygul va Turorqulning bir to'shakda achomlashib yotganini tasavvur qilsam, ichimda o't yonardi. Telba rashkning kuchliligidan men undan qutilishim mumkin emasdek tuyulardi. Menga Oygul bokira holidagina qimmatli ekanini asta-asta tushuna boshladim. O'sha Oygul mening xayolimda yashardi...

Oradan bir-ikki yil o'tdi. Bir kuni Oygulning to'lg'oq ustida vafot etganini eshitdim. Ana shundagina men uni haqiqatan ham yo'qotganimni, endi hech qachon ko'rolmasligimni tushundim. Yuragim qon yig'ladi. Chunki men Oyguldan batamom umidimni uzganman, deb o'zimni aldab kelayotgan edim. Qalbim qa'rida ilgarigi orziqtiradigan hislar mudragan holda tinch yotar ekan... Qachondir bir uchrashaman, bir gaplashaman degan tilak o'chmagan ekan. Uni uyg'otadigan birgina ovoz yoki harakat yetishmagandi...

O'zimning jur'atsizligimni, qonimga singib ketgan tortinchoqligim va obro'ga intiluvchi soxta izzattalabligimni ayblayman-da, boshqa kimdan xafa bo'lardim. Attang, buni juda kech anglagan edim. Shu tariqa armonda qolishimni qaydan bilibman...

Joying jannatdan bo'lgay, Oygul!... Boshqa nima deyman...

QARAUILBEK QAZIYEV

(1939–1984)

Qarauilbek Qaziyev 1939-yil 1-mayda Jambul viloyatining Shu tumanidagi Qorabuloq ovulida tug'ilgan. 1963-yilda Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

Birinchi hikoyalar to'plami 1968-yilda "Oq bog'ich" nomi bilan nashr etilgan. "Imonyaproq" qissasi yopiq tanlovda birinchi o'rinni egallagan.

OQ BOG'ICH

— Ertalabgacha davom etsa-ya.
— Unda sen qo'rqar eding.
— Menmi? Hech qo'rqmas edim.
— Rost aytyapman, qo'rqarding.
— Juda bilibsiz... Hozir...

Qiz ariq yoqasi bilan yugira ketdi . Nozik jussasini tun qorong'iligi asta yashira boshladi, u namchil maysa orasida ko'zdan yo'qoldi. Qizning yuzi va qo'llariga tomchilar ignadek urilar, havodan yovshan isi kelardi. U qo'li bilan dukillab turgan mitti yuragini mahkam bosib, ortidagi ovozga quloq solgancha, yerga biroz cho'zildi. Ko'katlar ostidami, qayerdadir chirillayotgan chigirtkaning ovozidan boshqa hech bir sado yo'q. Faqat hozirgina yopirilib egilgan o'tlar boshini silkib-silkib yana ko'tarilib oldi.

Biroz jimjitlikdan so'ng yigitning "Ta-bi-g'a-a-a" degan ovozi havoni kesib, elas-elas eshitildi. Xuddi hushidan ketayotgan odam titrayotganday, "a" degan tovushlar shamolga ilashib, qoramtir tun bag'riga singib ketdi.

"Qo'rqoqni topganing-chi, izlab kelguncha yotaveraman, qo'lingni ber".

Qizning nomini aytib chaqirgan ovoz yana takrorlandi. "A" degan tovushlar tag'in ko'tarildi, birozdan so'ng zaiflashdi va yo'qoldi.

"Ha, men indamay yotaveraman. O'z oyog'i bilan qahramonlik ko'rsatishini qarang".

— Ortingdan bir qora yugurib kelyapti.

"Qo'rqita ber, quyonyurak emasman!"

Uning bola yuragiga bezovtalik indi. Yakka o'zi bunday harakatga botina oladi, deb o'ylamagandi. Bir-birining yelkasiga suyangan tol yaproqlari ham qimir etmas, yo'ldoshi yashiringan qora tun ham hech sadosiz sukut qilar edi.

— Tabig'a! — olisdan eshitilgan titroq ovoz yana qaltirab aks sado berdi. Bu yetimsiragan yakkash sadoga yashil qamish boshlari quruq shitirlab qo'shildi, suv to'kilganidagi kabi shuv-shuv ovoz eshitildi.

Ivigan sutdek mayin havoni qanotlari bilan tilgan bir gala o'rdaklar yer bag'irlab shoshib uchib o'tdi. Shov-shov qoqqan qanotlarining ovozi yigitning qulog'iga ham kirdi. U cho'chib tushdi. Qiz yashiringan tomonga yo'nalgan yigit pir etgan tovushdan qo'rqib baqirib yubordi. Hurkib, dildirab uchgan tun to'rg'ayi shu zahoti g'oyib bo'ldi.

— Ha, haqiqiy botir qiz ekansan, — dedi u jilmayib va uyat, quvonch aralash quchoqlay ketdi.

— Ey, yashirinmay qo'ya qolgin. Sening baqir-chaqiring butun ovulni uyg'otib yubordi.

— Rost, sen uchun qo'rqdim.

— Unday emas, o'zing uchun. Hozir berkinsam, sira topolmasding.

— Yo'q, endi qo'yib yubormayman.

— O, qo'rqdingmi?

— Sensiz qolsam qo'rqar ekanman.

— Sen o'zi shunaqasan!

Yigit javob o'rnida ishonch bilan yuzini qizning yuragiga bosdi. Qiz qarshilik ko'rsatmadi, qo'li bilan yengilgina nari surgan bo'ldi. Jimjitlik ila bo'lsa ham shuni xohlagan qisqa fursat biroz chuzilgan qiz tortinib burilib ketdi.

— Shunchaki aylanib yuraylik.

Ikkisi jimgina oldinga yurib, bilinar-bilinmas oqib kelib, sekin siljayotgan daryo o‘zani qirg‘og‘iga keldi. Suv ichiga to‘kilgan osmon yulduzlari tinimsiz chayqalmas, bugungi tun bulutli, qo‘ng‘ir-xira tusda, solingan qovoq singari xo‘mraygan edi. Bu yerda suv borligidan baliqlar to‘dasining o‘ynashayotgani va dumaloq o‘pqonlarning tovushigina darak berardi.

To‘zigan kigiz singari parchalana boshlagan qalin bulut orasidan tonggi shudring tomchisiday bir yulduz suv tagidan ko‘rinib o‘tdi.

— Mening yulduzim!..

— Qaysi biri?

— Ana, hozirgina ko‘rindi-ku.

— Nega u bir sening yulduzing bo‘larkan?

— U mening tasavvurimdagidek. Olislardan turib meni uzoq safarlarga chorlaydi. Men uni yaxshi ko‘raman.

— Men ham yulduzning yoniga uchishni orzu qilardim.

— Lekin sendan kosmonavt chiqmas edi.

— Nega chiqmas ekan?

— Chunki sen juda qo‘rqoqsan.

Yigit boshqa tortishib o‘tirmadi. O‘ziga mahliyo bo‘lib qaragan qizni bag‘riga tortib, uning hazilidan zavqlanayotganday, kalta o‘sgan maysalarni o‘ynab jimgina o‘tirardi.

Tevarak jimjit edi. Yaproqdek mayin shabada esardi. Mayin oqshomning sokin pallasi boshlangan. Qishloq itlari hurishdan to‘xtagan, qurbaqalar qurillashi ham tingan edi. Suv qirg‘og‘idagi qamish yigit yuragining titrog‘iga uyg‘un bo‘lgandek, hanuz tinimsiz qaltirab, silkinib turardi.

Yigit qizning yuziga qaradi-yu, odatda doim o‘ynoqlab turadigan qop-qora qorachiqlari yuvosh tortib, o‘zi axtargan sirning yechimini topolmay tikilib qolganini ko‘rdi. Uyida ekanida erkalik bilan o‘ynoqlab turgan qorachiqlar o‘rnini mung egallaganini ko‘rdi. Qiz jim o‘tirar, shamol uning mayda sochlarini peshonasiga tushirib o‘ynar edi.

Yigit qo‘lidagi toshni suvning o‘rtasiga uloqtirib yubordi. Yog‘dek cho‘zilib, to‘liqib oqayotgan daryo suvi “sho‘lp” etdi va mayin sukunat bir titrab tushdi. Qiz beparvo o‘tirgan edi, bu

ovozdan cho‘chib ketdi va yigitning bilagini mahkam ushlab oldi.

— Qo‘rqitmagin meni!

— Hozirgina sen botir bo‘lmay kim botir edi?

— Men qo‘rqaman.

Qiz yigitning pinjiga tiqilib oldi.

* * *

Tun yarmidan og‘di.

Tuproq kabi bo‘z bulutlar tun qorong‘iligida quyuqlashdi. Havoda bir tomchi namlik bo‘lmasa ham, baribir yomg‘ir isi kelardi. Olis va tim qora osmonda unsiz chaqmoqning izlari ketma-ket yarqirab ko‘rinadi.

— Erbol, yomg‘ir kelyapti.

— Ha, yomg‘ir kelyapti.

— Men yomg‘irni sevaman.

— Hoziroq suv bo‘lasan unda.

— Men esa tunni sevaman

— Mayli, shunday bo‘lsa ham.

— Sen qo‘rqadidigan daxshatlari ko‘pku uning

Shamol turdi, daraxt yaproqlari shitirlay-shitirlay qarsak chala boshladi.

— Yura tur, men hozir boraman.

— Yana yashirinmoqchimisan?

— Yo‘q, hozir boraman...

Uyqudagi ovulning har tomonidan xo‘rozlarning tungi qichqirig‘i eshitila boshladi. Momaqaldiroq ovozi eshitila boshlab, tobora yaqinlashib keldi.

— Daraxt tagida biror narsa ko‘rganga o‘xshaysan?

— Yo‘q, hech narsa ko‘rganim yo‘q.

— Ana u oqish ko‘rinayotgan narsa nima?

— Bu mening sochbog‘ichim. Men uni atay qoldirgan edim!

Hamrohi qizning ko‘zlaridagi munchoqdek yoshlarni sezmadi. Unda-bunda tomchilay boshlagan tun yomg‘iri birdan savalay ketdi. Chaqmoq esa juda yaqinda chaqnadi va uning chiziqlari uchida

uchqunlar sachradi. Qiz oldinga yurib ketdi-da, hozirgina o'zi turgan joyga qarab qo'ydi.

Qorong'ilik qa'rida uning oq sochbog'ichi rangi so'nikayotgan yulduzdek tobora xiralashib, rangsizlashib olislab-olislab borardi.

SOBIT DO‘SANOV

(1940)

Sobit Do‘sanov 1940-yil 12-yanvarda Qo‘stanay viloyatining Amankeldi tumanidagi Bayg‘abil ovulida tug‘ilgan. Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

“Xayrli tong”, “Janr qismati”, “Sakson beshning bahori”, “Adashmanglar, odamlar” kitoblari bor. 1998-yilda “Yigirmanchi asr” romani, 2002-yilda “Tanlangan asarlar”ning bir jildligi chop etildi.

MUNGLI-MUNGLI ZORLAB UCHGAN YOLG‘IZ OQQUSH

I

Yomg‘ir yog‘maganiga ham bir oydan oshib ketdi. Havo xuddi qizdirilgan tandirday olov purkab turibdi, nafas olib bo‘lmaydi. Tevarak-atrofi baland tog‘lar bilan qurshab olingan shaharda g‘ir etgan shabada yo‘q. Vaqtidan ilgari sarg‘aya boshlagan yaproqlar orasidan mo‘ralab turgan quyoshning o‘tkir tig‘lari daraxtlar tagidagi uncha-muncha namni ham qurg‘atib, tuproqlarini o‘ynatib yuborgan. Xiyobonlarga, yo‘llarga to‘shalgan asfalt ham issiqqa dosh berolmay, mumday balqib turibdi.

Almatining bu yilgi yozi mana shunday o‘tib borar edi.

Olatov bag‘ridagi go‘zal shahar, silkinib changini qoqishga ham majoli yetmay turardi. Shunday issiq kunlarning birida u o‘rnidan turdi-yu, nonushta ham qilmay, ko‘cha yuzidagi gazeta va jurnal sotadigan do‘konga oshiqdi. Bu uning har kungi odati. Borganingda do‘konning teshigidan engashib qaraydigan o‘rta bo‘yli, oq-sariqdan kelgan o‘ris ayoli uni obdon tanib qolgan. Nafaqaxo‘r bo‘lsa ham xotirasi o‘tkir, mijozining qanday gazeta olishini besh

qo'liday biladi. U o'ziga kerakli gazetalarni xarid qilib, beriroqda varaqlab turganida, orqasidan kimningdir:

— Oydin! — degan tovushi eshitildi.

U yalt etib orqasiga qaradi. Qaradi-yu, ko'zlariga ishonmadi. Bir nafas angrayib turib qoldi.

— Oydin, nima balo, meni tanimadingmi? — dedi haligi tovush bergan yumaloq yuzli, qora to'ridan kelgan, o'rta bo'yli yigit.

— Nega tanimas ekanman, G'afurmisan?

Ular quchoqlashib, to'shlarini to'shlariga urishtirib ko'rishdilar.

— O'zing ham juda odam tanimaydigan bo'lib ketibsanmi? — deb hazillashgan bo'ldi G'afur.

— Ha, ko'rishmaganimizga ham ancha bo'ldi-da, — o'zini oqlagan bo'ldi Oydin. — Shuncha yil yo'q bo'lib ketib... Buni qara-ya. Uchrashaman deb xayolimga ham keltirmagan edim.

— Men ham shuncha yil bir-birimiz bilan ko'rishmay ketamiz, deb o'ylamagan edim. Davr, zamon shunaqa bo'lib qoldi-da, o'rtoq.

— Xo'sh, qayerdasan hozir?

— Astanada yuribman.

— Ahvollaring qanday? Uy iching, bola-chaqang omonmi?

— Xudoga shukur, omonmiz. "O'sha qorachadan kelgan qarg'aday qizdan zo'ri yo'q", deb o'zing bosh-qosh bo'lib uylantirib qo'ygan Zuhra bilan yashab yuribman. U Astanadagi maktablardan birida bosh oshpaz bo'lib ishlaydi. Ikkalamiz birga borib, tug'uruqxonadan olib chiqqan qizimiz Lazzat bu yil Yevroaziya institutiga o'qishga kirdi.

— Muborak bo'lsin. Judayam xursandman. Azamat-chi, katta yigit bo'lib qolgandir?

— U o'n birinchi sinfda.

— Ulardan kichiklari ham bordir?

— Yo'q. Shu Azamat bilan to'xtatdik. Hozircha kenjamiz shu.

— Erta qaribsan, do'stim.

— Bozor iqtisodi degan bir balo kelib, men tugul mendan baquvvat yigitlarning ham bellarini qayishtirib qo'ydi-ku. Tirikchilik g'amida qayerdan bir yog'liroq ish topaman, deb yurganda bola-chaqa esga keladi deysanmi, o'rtoq?

— Iye, nima qilib turibmiz bu yerda? Yur, uyga kiraylik.

Ular yo'l-yo'lakay gaplashishib uyga kirishdi. Choy ustida yana gap gapga ulandi.

— Ilgari kattagina SMU degan idorada do'kaylarning biri bo'lib ishlarding. Hali ham o'sha yerdamisan? — deb so'radi Oydin.

— E, qanaqa do'kay? SMU allaqachon yo'q bo'lib ketgan, — dedi G'afur.

— Nima, ishlamayapsanmi?

— Bir do'kayda haydovchi bo'lib ishlayapman.

— O'sha do'kaying qayerda ishlaydi?

— O'-o', u uncha-munchani ko'rdim demaydigan do'kaylardan.

— Qanday qilib?!

— Ham davlat kreslosida mustahkam o'tirib olgan, ham barcha yirik firmalarni birlashtirgan kattagina kompaniyani zulukday so'rib yotibdi.

— Iye, axir davlat ishidagilar boshqa qo'shimcha ishlar bilan aylanishmasin, degan qonun bor emasmi?

— Bu ishlayotgan kompaniya o'zining nomida emas, boshqa bir qarindoshining nomida.

— Bu qanaqasi?

— Hozir hamma joyda shunaqa. E, qo'y, do'stim, bu aytsang tugamaydigan hangoma. Undan ko'ra sen o'zing haqingda gapir. Savle bilan Oybar ko'rinmaydimi? Nimaga yolg'iz o'tiribsan?

— Xotinim bilan o'g'limdan birdan ayrilib qoldim, do'stim, — dedi Oydin ko'zlariga g'ilt-g'ilt yosh olib.

— Iye, qachon?!

— Eshitmagan ekansan-da.

— Eshitmadim. Eshitsam, kelib ko'ngil so'rardim-ku. Meni kechir, do'stim. Oxiri baxayr bo'lsin.

— Bir-ikkita gazetada ta'ziya bildirishgan edi. Ko'zing tushmabdi-da.

— Endi, hozirgi mana bu qiyin davrda, gazet o'qishga vaqt yo'q. Qachon bo'ldi bu voqea?

— Bundan to'rt yil muqaddam.

— Nima bo'ldi o'zi?

— Avtomobil halokati. Savle bilan Oybar Chimkentga borib kelamiz deb, yo‘lovchi mashinaga o‘tirib ketishgan edi. Qo‘rday dovonida avariyaga uchrab...

— Yopiray, yomon fojia bo‘libdi-ku, a?

— Fojia ham gapmi? Bu — bebaxtlik-ku, do‘stim!

— Shundan beri yolg‘izmisan?

— Ha, yolg‘izman.

— Uylanmadingmi?

— Uylangim kelmadi.

— Nega?

— Mening Savlega qanday oshiq bo‘lganimdan, unga qanday qilib uylanganimdan xabaring bor. Nikoh to‘yimizda kuyovjo‘ra bo‘lganingni eslaysanmi?

— Eslaganda qanday? Hatto Oybaringning chillasi chiqqan kuni-yu, uning maktab ostonasiga birinchi qadam qo‘ygan kunlari ham esimda, do‘stim.

— U paytlar mening baxtiyor damlarim edi-ku, — deb chuqur xo‘rsindi Oydin. — Inson o‘zining baxtli onlarini payqamay qolarkan. Keyin hammasi o‘tib ketgach, o‘sha baxtli damlaringni afsus va nadomatlar bilan orziqib eslar ekansan. Men uchun mana bu yolg‘on dunyoda Savledaqa ayol yo‘q. Menga u hadya etgan baxtni hech kim, hech qanday ayol hadya etolmaydi.

— Nimasini aytasan, do‘stim, u ayollarning malikasi edi-ku. O‘zi ham oqqushday go‘zal edi-ya! — dedi G‘afur chuqur xo‘rsinib.

— Ha, Savlem faqat oqqushday go‘zal emas, aqlli ham edi. Uning birgina kamchiligi bor edi: hech ham o‘zini o‘ylamasdi. Uning uchun oilasi-yu ishi hammasidan yuqori turar edi.

— Ha, u juda achinarli o‘lim topibdi.

— Uning ichki dunyosi qanchalik go‘zal bo‘lsa, so‘nggi gapi ham shunchalak go‘zal yakunlanibdi.

— Tushunmadim.

— Avtomobil halokati chog‘ida Oybarim til tortmay ketibdi. Savlem esa, Georgiyevkadagi tuman kasalxonasida jon beribdi. U bu dunyo bilan vidolashar chog‘ida: “Oydinga qiyin bo‘ladigan bo‘ldi-da. Menga judayam o‘rganib qolgan edi...” debdi.

— O‘z o‘limini emas, orqasida qolayotgan yorini, uning keyingi ahvoli-zorini o‘ylab jon beribdi-da, bechora.

— Bilasanmi, G‘afur, dunyoda unaqa ayol yo‘q.

— Biz Savlega sendan boshqa erkakni munosib ko‘rmagan edik.

— Nega?

— Sen o‘sha kezlari oqqush atrofida parvoz qilgan qiron qushday parvona bo‘lib yurar eding-da. Muhabbatlaring ham go‘zal edi xuddi oqqushlarnikiday... Hay, mayli, o‘tgan ishga salavot. Xo‘sh, ishlaring qalay? Haliyam burungi ishingdamisan?

— Yo‘q, bo‘shman.

— Nega?

— Qisqartirishga tushib qoldim.

— Iye, “sokrasheniya”ga boshqalar tushsa ham sen tushmasliging kerak edi-ku.

— Nega ekan?

— Boshqa fazilatlaringni hisobga olmaganda ham sen institutni qizil diplom bilan bitirgan eding. Shundan beri bir mahkamada qimir etmay ishlading. Mehnat stajing ham yetarli. Bizlarni-ku, qo‘yaver. A u tebya svetlaya golova. Bir paytlar Moskvada bo‘lib o‘tgan Iqtidorlar kengashida ishtirok etding. Nima, Qozog‘istonda senga o‘xshagan iqtidorli muhandislar ko‘pmi shunchalik?

— Bizdan keyin ishga kelganlar qoldi, biz ketdik.

— Iye, bu adolatsizlik-ku axir. Pensiyaga chiqishingga hali erta emasmi?

— Menga o‘sha pensiya ham buyurmaydiganga o‘xshab turibdi.

— Nega?

— Biladiganlarning gaplariga qaraganda, pensiya so‘nggi ikki yilgi mehnat haqining natijasiga ko‘ra tayinlaiar ekan. Men ikki yildan beri ishsizman. O‘n ikki yildan so‘ng pensiya yoshiga yetar ekanman.

— Endi tanlab o‘tirmay, qanday ish bo‘lsa ham ishlayverganing ma’qul.

— Hozir xizmat tanlaydigan zamonmi? Bir joyga vaxter bo‘lib ishga kirgan edim, uch oy ishlab u yerdan ham ketdim.

— Nega?

— Bu joy ham birovlarga kerak bo‘lib qolibdi shekilli.

— Ha, hechqisi yo‘q, xafa bo‘lma. Tebya zabortom ne ostavim. Mabodo ish-pish topsam, Astanaga ko‘chasanmi? Mana bu uch xonali uyingni almashtirib olsang ham bo‘ladi.

— Savlem bilan Oybarimni tashlab qayoqqa ketaman? Hafta sayin ularning oldiga borib dardimni aytib, yuragimni bo‘shatib kelaman-ku axir.

— Mayli, o‘ylab ko‘r. Men Astanadan senbop bir ish qidirib ko‘raman. Juda bo‘lmasa boshlig‘imga yukunaman.

— Mayli, bir o‘ylab ko‘ray.

— O‘zing bir Astanaga borib mehmon bo‘lib qayt. Mana, mana bu mening koordinatlarim.

— O‘h-ho‘... — dedi Oydin G‘afur bergan tashrif qog‘oziga tikilib. — Hatto sotovoying ham bor ekan-a!

— E-e, bu sotovoyning ham, vizitkaning ham menga sira keragi yo‘q edi. Haligi, boshlig‘im qo‘ymadi-da. Ha, aytganday, dissertatsiyang nima bo‘ldi?

— Himoya qilmadim.

— Nega endi? O‘sha paytlardayoq yozib bo‘lgan edingku.

— O‘zing bilasan-ku, atoq bilan chatoqdan nariroq yurishimni.

— Bilamanku-ya, biroq sening biliming uncha-muncha akademiklarni ham dovdiratib qo‘yadi, degan gaplarni orqavarotdan ko‘p eshitganman. Agar sening biliming menda bo‘lsa, dunyoni kaftimda gir aylantirar edim.

— Hozir bilim emas, pul hal qiladi hamma narsani.

— Bu gaping rost.

— Almatida qachongacha bo‘lasan?

— Boshliq ikkalamiz kechki reys bilan Moskvaga uchamiz. U kishi shundan yoqqa chet elga dam olish uchun ketadi. Men u yerdan Astanaga yangi “Jip” haydab kelaman. Mayli, men qaytay. Tag‘in boshlig‘im qidirib qolmasin.

Oydin G‘afurni avtobus bekatigacha kuzatib qo‘ydi. Boya ertalab kun iliq, osmon musaffo edi. Almatining bir kunda qirq bor

turlanadigan havosi aynidi-qoldi: osmonga chiqqan qo‘rg‘oshinday og‘ir qora bulut quyosh yuzini berkitdi. Yoz oylariga xos bo‘lmagan salqin shabada esib, badanni junjiktirdi.

Havo nega bunchalik o‘zgarganiga aqli yetmagan Oydin bir soniya joyida turib qoldi...

II

Ochlik sababmi yo turli-tuman o‘ylar xurujidanmi, bunisini o‘zi ham bilmaydi, ishqilib, u yarim kechagacha uxlay olmay ag‘anab chiqdi. Tong otay deb qolganida sal ko‘zi ilinganday bo‘ldi-yu, ertalab o‘rnidan lohas bo‘lib uyg‘ondi. Terak bo‘yi ko‘tarilgan quyoshning o‘tkir shu’lasi obdon to‘zib hilvirab qolgan darpardalarning teshiklaridan mo‘ralab, beton devorli uy ichini qizdira boshladi. Busiz ham havosi kam, torgina xona nafasni qaytarar darajada dim edi.

U o‘rnidan bazo‘r turdi-yu, gandiraklagancha borib, derazalarni ochdi. Kun qiziy boshlagan ekan, tashqaridan gup etib issiq havo yopirilib kirdi. Qorni ochganligi bilindi. Axir ikki kundan beri nahorini ochmagan edi-da! Qornim ochsa icharman, deb asrab qo‘ygan sho‘rvasi esiga tushdi. U devorlarni avaylab ushlab, gandiraklagancha oshxonaga chiqib, muzlatgichning eshigini ochdi-yu, a’zoyi-badani muzlab ketdi: muzxonaning hamma qavatlari bo‘m-bo‘sh edi. Faqat uning bir burchida mog‘or bosgan yarim bo‘lka non bilan chog‘roq sariq kashkul turar, unda bir hafta ilgari suyak solib qaynatilgan yarim kosa to‘lar-to‘lmas sho‘rva bor edi. U o‘sha sho‘rvani isitib ichdi-da, muzlatgichni elektr tarmog‘idan uzib tashladi. “Yuvib, tozalab qo‘ya qolay. Nima, sariyog‘im, sutim bormi bunga qo‘yadigan? Suyak sho‘rva qaynatish ham nihoyasiga yetdi. Ehtimol bu muzlatgichni arzon-garovga bitta-yarimtaga sotib yuborarman...”

Yarim kosa sho‘rva bilan ikki burda non yeb olgach, Oydinning badaniga ajabtovur iliqlik yugurib, sal-pal darmon kirganday bo‘ldi. Biroz o‘tgach, chanqadi. Choy quti tagida qolgan bir-ikki damlam choyni ko‘zi qiymay, boshqa bir qutida turgan shamani tashlab choy damladi. Qandlab choy ichishni-ku, allaqachon unut-

gan. Shama solib qaynatilgan choy ta'msiz, maza-matrasiz bo'lar ekan. Qanaqa bo'larkan deb unga ozgina tuz tashlagan edi, xuddi achitilgan go'jaday nordon tortdi-qoldi.

Xrushchev zamonida qurilgan to'qqizinchi mikrorayon shaharning bir chekkasida, markazdan ovloq joyda edi. Oydinlar o'sha besh qavatli uyning tepa qavatida turishardi. U yotoqxonaga kirib, burchakdagi temir quvurda zang bosgan qora dog'ga ko'zi tushdi. O'tgan qish kunlari o'sha joydan suv tomchilayotganini ko'rgan edi. Bundoq qo'li bilan silab qaragan edi, o'sha teshik o'zidan bekilib qolibdi. Xudo yorlaqagani shu-da!

Oydin divanga yonboshladi-yu, xayolga cho'mdi: "Bugungi ko'rgan kunimni dushmanimga ham ravo ko'rmayman. Ertangi kunim nima bo'lar ekan?! — deb o'yladi u. — Kecha yoyma bozorga borib, eng qimmatbaho narsalarimni — noyob kitoblarimni oldimga yoyib kechqurungacha o'tirdim. Bor-yo'g'i uch yuz tanga savdo qilibman. Uning ham o'n tangasi kira haqiga ketdi. Qolgan ikki yuz to'qson tanga yana qancha kunga yetar ekan? Odamlar ham g'alati bo'lib ketibdi-da. Oldingi davrda zo'rg'a topib xarid qilgan kitoblarimni o'n barobar arzon narxga ham olgisi kelmaydi. Endigi umidim o'ttiz jilddan iborat tibbiy qomusimda. Xudo yorlaqab o'sha kitoblarim o'tib qolguday bo'lsa, ancha kunimga yaraydi...".

Televizorning ishdan chiqqaniga ancha bo'ldi. Radioning ham allaqachon uni o'chgan. Gazeta sotib olishga pul qani? Oydin sho'rlik o'zini kimsasiz orolda qolganday his qiladi. Ba'zi xabarlarni qo'ni-qo'shnidan bilib oladi. Bahorda to'g'onga qor, yomg'irlardan to'plangan suv oqmay turib qolsa hidlanib, buziladi. Xuddi shu singari odam bolasi ham birov bilan gaplashib, u-bu narsalardan xabardor bo'lib turmasa g'alati sezar ekan o'zini. Haftalab, oylab birov bilan gaplashmagach, odamovi bo'lib qolishing hech gap bo'lmay qolarkan. Bunaqa paytda bitta-yarimtasi bilan muloqotda bo'lsang, o'zingni ancha yengil his qilar ekansan. Yo'qchilik bilan yolg'izlik alamini totgan Oydin o'zida xuddi shu hislarni tuyib, qo'shnilar bilan tez-tez gaplashib turishni ma'qul ko'rdi. Ammo so'zlashadigan odam qani bu zamonda? Odamlar ham hisob-kitobli bo'lib ketganmi, gaplashishga ham odam tanlashadi-ya! Hozircha

Oydin bilan tortinmay gaplashadigan ikki odam bor, xolos: biri — qarshi uyda yashaydigan polkovnik, ikkinchisi esa, o'sha podyezdning birinchi kvartirasida yashaydigan pensiya yoshiga yetmay ishsiz qolgan jurnalist.

Kun tushdan og'ib, ko'lankalar uzaya boshlaganida Oydin tashqariga chiqqan edi, hovlida hech kimni uchratmadi. "Endi nima qilsam ekan-a?" deb turganida qo'shni tatar yigit kelib qoldi. Ilgarilari boshini egibgina salqin so'rashadigan bu yigit, bugun:

— Yaxshimisiz, ipdosh? — deb qo'lini salomga cho'zdi. — Ko'rinmaysiz. Yo bir yoqqa ketganmidingiz?

— Qayoqqa ham borardim. Uydaman.

— Men sizni izlagan edim.

— Ha, tinchlikmi?

— Ishsiz yuribman, degandingiz. O'shanga jonim achib, jo'ralarim bilan gaplashgan edim.

— Xo'sh, xo'sh? — deb astoydil quloq tutdi Oydin.

— Bitta ish topiladiganga o'xshab turibdi.

— Xo'sh?

— Judayam zo'r ish. Biroq sal qiyinroq. Puli ham mo'maygina.

— Hoy, Rafiqjon, tezroq aytsang-chi, qanaqa ish o'zi?

— Siz mashinaning qulog'ida o'ynaydigan usta haydovchisiz-a?

— Shunaqa hunarim ham bor.

— Ertaga ertalab meni shu yerda kuting. Cho'ntagingizda haydovchilik guvohnomangiz bilan pasportingiz bo'lsin.

— Xo'sh, keyin-chi?

— Keyin men sizni bir-ikkita yigitlar bilan tanishtirib qo'yaman.

— Ular qanaqa yigitlar?

— Ular og'ayni, o'zlari oltita. Siz yettinchisi bo'lasiz.

— Xo'sh, qo'shilib nima qilaman?

— Siz ular bilan Birlashgan arab amirligiga uchasiz.

— Nima uchun?

— Ular avtomobil savdosi bilan shug'ullanib yurgan yigitlar. O'sha yoqdan inomarka mashinalarni sotib olishadi. Siz o'shalar bilan bitta mashinani Almatiga haydab kelasiz.

— Qachongacha u yoqda bo'lar ekanmiz?

— Borib kelishingizga bir hafta, nari borsa, o‘n kuncha vaqt ketadi.

— Mehnat haqi qanday bo‘ladi?

— Har kuningizga yuz dollardan. Aviabiletingiz, yotib-turishingiz bilan yeyish-ichishingizga o‘zlari to‘lashadi.

— Iye, bu ajoyib ish ekan-ku, a? — dedi Oydin sevinchini yashira olmay.

— Qo‘shning uchun joningni ber, deyishadi-ku, axir. Charx urib yurib zo‘rg‘a topdim-da bu ishni.

— E, baraka top. Rafiqjon, bu yaxshiligingni hech ham unutmayman. Rahmat.

— Quruq rahmat bilan qutulib ketolmaysiz. U yoqdan qaytib kelganingizdan so‘ng yaxshilab yuvasiz.

— Albatta. Albatta yuvamiz.

— Bo‘pti bo‘lmasa, ertagacha.

Rafiqjon ko‘m-ko‘k ko‘zlari kulimsirab, yuzlariga qizil yugurib uyiga kirib ketdi. “O‘lmagan qulga o‘lik baliq duch keladi”, deyishadi-ku axir. Tushimmi yo o‘ngimmi bu?” deb ko‘zlarini uqaladi Oydin.

Tushi emas, o‘ngi ekaniga ko‘zi yetgach, sevinganidan o‘zini qo‘yarga joy topolmay, eshik oldida bir soniya turib qoldi.

III

Ular Dubaydan xarid qilgan mashinalarini paromlarda Eronga olib kelishdi-da, ertasiga tonggi salqinda yo‘lga otlanishdi. Olti yigit oltita mashinaga o‘tirib, tep-tekis ravon yo‘ldan zuvullab kelishardi. Usha oltita haydovchining biri — Oydin. Ularning yo‘lboshlovchisi, ya’ni rahbari mashinaning orqa o‘rindig‘iga yastanib o‘tirib olgan. Eronning port joylashgan shahri Baniroboddan yuz chaqirim bu yoqqa chiqqach, ular biroz vaqt to‘xtab, shoshilinch tamaddi qilib olishdi. Ovqat mahalida bularni boshqarib kelayotgan yigit haydovchilarga tushuntira boshladi:

— Endi bir ming yetti yuz chaqirim yo‘l yurganimizdan so‘ng Eron bilan Turkmaniston chegarasida Siroq kentiga yetib boramiz, — dedi u. — Shundan keyin Mari, Chorjo‘y shaharlaridan

o‘tib, Farat qishlog‘ida dam olamiz. Undan u yog‘i Buxoro, Navoiy va nihoyat o‘zimizning Qozog‘iston. Agar charchagan bo‘lsalaring uyalmay aytaveringlar. Rulga o‘zim o‘tirib, charchaganlaringga dam beraman... Bo‘pti, qani, ketdik yigitlar.

Shundan keyin mashinalarini o‘t oldirib yurib ketishdi. Oydinga tekkani nihoyati ikki yilgina minilgan “Audi” mashinasi edi. Tashqaridan qarasang yap-yangi. Saloni ham endigina zavoddan chiqqanday top-toza. Motoriga ham gap yo‘q, xuddi soatday bir tekis ishlab turibdi. Yangi mashinaning ham o‘ziga yarasha yaxshi otday havosi bo‘ladi, deganlari rost ekan. Kun qanchalik issiq bo‘lsa ham Oydin charchamas, qaytanga yuragida qandaydir bir havas paydo bo‘lib, gazni bosgan sayin bosgisi kelar edi. Xayoli mashinadan ham uchqur. Almatiga borganidan so‘ng oladigan ko‘k qog‘ozlari ko‘z oldidan elas-elas o‘tadi, yura'gi hapriqadi: “Nafaqat ochlikdan, gadoylikdan, kambag‘allikdan ham biryo‘la qutuladigan bo‘ldim!” degan o‘y uni oldinga olib uchar edi. Yuragi tushmagur uchqur tulporday tipirchilaydi. Bir mahal Oydinning qo‘shiq aytgisi keldi. U rulda tevarak-atrofga havas bilan qarab o‘tirar ekan, bastakor Estoyning “Husni Qo‘rlon” degan qo‘shig‘ini ayta boshladi. Bu uning seviklisi Savlening sevib tinglaydigan qo‘shig‘i edi. Oydin yaxshi qo‘shiqchi bo‘lmasa ham, yoqimli ovozi bor. Savlesi bilan tanishgan chog‘lari to‘ylarda o‘sha qo‘shiqni kuylagan paytlari hamon esida. U paytlari qorin to‘q, qayg‘u yo‘q, ertangi kunim qanday bo‘lar ekan, deb o‘ylamaydigan ajoyib baxtiyor onlari edida! E, bevafo dunyo, ko‘z ochib yumguncha g‘ir etib o‘tdi-ketdi-ya! Endi u kunlar qo‘l yetmas armon bo‘lib qoldi...

Ular Siroq kentiga yetib borishgach, bir o‘zbek cholning uyiga kelib to‘xtashdi.

— Yigitlar, charchadinglar. Endi yaxshilab dam olinglar... Senlarni tong otishi bilan o‘zim uyg‘otaman.

Shu gapdan so‘ng Oydin rostakamiga yotib uyquga ketdi. Ertalab uyg‘onsa, sheriklari ham, olib kelayotgan mashinalar ham yo‘q. U hayron bo‘lib, uy egasidan so‘ragan edi, chol:

— E, gapirma bolam, bular Xudo bexabar muttahamlar ekan. Yegan palovi-yu, yotoq haqini to‘lash u yoqda tursin, qo‘rada tur-

gan ikki toy matomni ham o'marib ketishibdi. O'sha matolardan u-bu tikib, bozorga olib chiqib sotib kun ko'rib o'tirgan edik. Endi nima qildik, bolam?

— Mashina bormi, mashina? — dedi Oydin.

— Mashina bor.

— Mashina bo'lsa quvlamaymizmi?

— Hech narsa qilolmaysan.

— Nega?

— Yetolmaysan.

— Mabodo yetsak-chi?

— E, yetolmaysan. Yetgan chog'ingda ham ular senga bo'y berishmaydi. O'z qozog'ing o'zingni o'ldirib ketishadi.

— Endi nima qildik?

— Nima qilar edik? El bor, yurt bor. Bir amallab kunimizni ko'ramiz.

— Siz-ku bir kuningizni ko'rarsiz. Men nima qilaman endi?

— Nima qilarding? Esing borida elingni top.

— Qanday topaman? Cho'ntagimda hemirim ham yo'g'-u.

— Hemiring yo'q bo'lsa, shu yerda biror ish topib yo'lkirangni.

— Hujjatlarim yo'g'-u, ishga olarmikin?

— Olishmaydi.

— Menda hech qanday hujjat-pujjat yo'q.

— Nega yo'q?

— Haligilar, hujjatlarimiz bir odamning qo'lida turgani ma'qul deb, hamma hujjatlarimni yig'ishtirib olib qo'ygan.

— Voy yaramaslar-ey! Seni Xudo qo'shqo'llab uribdi, bolam.

— E, gapirmang otaxon...

U yaramaslarning gapiga ishonib, Oydin barmog'ini tishlaganicha qolaverdi. Bu ko'rayotganlari o'ngimi yo tushi ekanini bilmay garangsib, dovdirab qolgan edi. Biroz o'tgach, ko'zlarini ochib tevark-atrofiga qarasa, chol ham ketib qolibdi. Qandaydir bir ilinj bilan o'zi tunab chiqqan uy eshigining tutqichini tortgan edi, u ham taqataq berk bo'lib chiqdi. Eshik ochilmadi. Qo'ng'iroq tugmasini qayta-qayta bosdi, hech kim javob bermadi. Oydin gandiraklagancha boshi oqqan tomonga qarab keta boshladi...

IV

Oydin horib-charchab, goh ulovda, goh yayov Almatiga yetib kelguncha oradan uch oycha vaqt o'tib ketdi. U shuncha yildan beri yashagan uyiga zo'rg'a yetib kelganida, yana bir muammoga duch keldi: uyining yog'och eshigi temir eshik bilan almashtirilibdi, bir qulfining o'rniga ikkita qulf o'rnatilibdi. Hech nimaga tushunmagan Oydin eshigi oldida birpas hayron bo'lib turdi-yu, qo'ng'iroq tugmasini bosdi. Ichkaridan zanjir solingan eshik qiya ochildi.

— Sizga kim kerak? — dedi sochlari pahmoq, sepkil yuzli bir barzangi.

— Eshikni oching, — dedi Oydin.

— Nima ishingiz bor edi?

— Bu mening uyim.

— Esingiz joyidami o'zi?

— Joyida bo'lganda qanday?

— Yaxshisi keting bu yerdan. Bo'lmasa militsiya chaqiraman.

Qiya ochiq turgan eshik zarb bilan yopildi. Bu yerda bir shumlik borligini sezgan Oydin pastki qavatdagi tatar qo'shnisining eshigini taqqilatdi. Eshikni Rafiqning o'zi ochdi. Oydin o'z uyiga kimdir kirib egallab olganini aytib, shikoyat qildi.

— Ha, — dedi Rafiq, — Siz ketishingiz bilan birovlar kelib uyingizni ta'mirladi. Ularning ko'chib kelib o'rnashib olganlariga ham ancha bo'ldi. Men so'rab-surishtirgan edim, ular bu kvartirani sotib olishganini aytishdi.

— Endi nima qilsam ekan-a?!

— Militsiyaga borganingiz ma'qul.

Oydin Rafiqning maslahati bilan militsiyaga borib arz qildi. Baraka topsin, Oydin ergashtirib kelgan yoshgina militsioner kelishi bilan boyagi pahmoq soch barzangini tergay boshladi. Haqiqatan ham barzangining uyni sotib olganligi haqidagi hamma hujjatlari to'g'ri bo'lib chiqdi. Endi ular kommunal xo'jalik idorasiga kelishdi. Bu yerda ham hujjatlar saranjom-sarishta ekan. Hujjatlar Oydinning o'zi o'rtaga dallol qo'yib, uch ming AQSh dollariga "sotgan"ini isbotlab turar edi.

— Kechiring, oqsoqol, endi men yordam berolmayman, — deb yosh militsioner jo‘nab qoldi.

“Ko‘p ekan ko‘rganimdan ko‘rmaganim, yaxshi ekan baridan ham o‘lmaganim, deganlari shu-da! — deb o‘yladi Oydin. — Och-u yalang‘ochligim yetmaganday, boshpanasiz ham qoldimmi endi men?! E, Xudo, men senga nima yomonlik qilgan edim?!”

Oydin oyoqlarini zo‘rg‘a sudrab bosib tashqariga chiqdi. Ko‘z oldi qorong‘ilashib, boshi aylandi, eshik oldidagi o‘rindiqqa shilq etib o‘tirib qoldi.

Kuz havosi salqin tortib borayotgan edi...

V

Ular tong saharda tevarak-atrofga tarqalishib, kechqurunlari shu yerda bosh qo‘shishar edi. Yetti odamdan iborat bu guruhning rahbari burundor barzangi, hamisha og‘zidan aroq hidi anqib turadigan Ivan. Millati o‘ris. Uning o‘ng qo‘li hisoblanadigan, bir ko‘zi ko‘r Shafxat — tatar. O‘rta bo‘ylikdan kelgan yuzi bujur To‘xtaoxun — uyg‘ur. Pakanadan kelgan, ko‘zlari qisiq Pak — koreys. Qorato‘ridan kelgan gapdoni Yo‘ldosh — o‘zbek. Ingichkadan kelgan naynov Timofey — xoxol. Ba’zan hamtovoqlari uni “Antenna” deb ham chaqirishadi.

O‘sha yettitasining ichidagi hali saxti-sumbati buzilib ulgurmagani — Oydin. Qozoq.

Bu daydilar shahardan ovloqroq joydagi mikrorayon uylari etagidagi, avval kimdir ombor sifatida foydalangan podvalga o‘rnashib olishgan edi. Ular ilgarilari qurib qolgan quvurlardami, tashlandiq chuqurlardami, ishqilib, to‘g‘ri kelgan joylarda yotib yurishar edi. Bu joyga ularni Shafxat boshlab kelgandi.

— Voy ko‘ppak-ey, — degan edi Ivan Shafxatga. — Ko‘ppaksanda, hid bilasan. Topgan koshonangni qara, sen bo‘lmasang man bu cho‘chqalar qayoqdan topa olardi bunday shohona joyni? — Ivan shu zayl unga minnatdorchilik bildirgan bo‘ldi.

— Paxan to‘g‘ri aytyapti, — dedi Ivanga xushomad qilib o‘rganib qolgan Yo‘ldosh. — Bundan ortiq joyni topolmaysanlar ming qidirsalaring ham.

— Bundan ortiq joyning keragi ham yo‘q-da bizga.

— Nega?

— Negaki, bundan ortiq joy bizlarning peshonamizga sig‘maydi.

— Bu gapning to‘g‘ri.

— Sig‘sa ham kommersantlar tortib olishadi.

— Bo‘ldi, bas qilinglar! — dedi Ivan qovog‘ini uyub.

Shundan so‘ng ular jimib qolishdi.

Odamlar orasida “Bomj” deb atalib ketgan bu to‘daning o‘ziga yarasha qonun-qoidalari bor. Yakka-yakka yurib tirikchilik qila olmagan bu daydilar so‘nggi kezda birlashib ish ko‘ra boshlashdi. Ular kunduz kunlari bir yarim million kishilik shahar ko‘chalarida sanqib-sanqib, kechqurunlari shu joyda to‘planishar edi. Haqiqatan ham ular uchun bu joy xon saroyidan kam emasdi.

Har kungi odatlari bo‘yicha ular o‘z maskanlariga to‘planisha boshladi.

— Hey, Alik, hey galvars, chirog‘ni yoq! — deb buyurdi To‘xtaoxun quyiroqda o‘tirgan qozoqqa.

— Mening ismim Alik emas, Oydin, — dedi og‘rinib u.

— Hey, ko‘p valdirayverma sen. Paxan kelyapti, chiroq yoqilmasa hammamizning onalarimizni uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatadi, — dedi To‘xtaoxun.

Oydin chiroqni yoqishi bilan tashqaridan Ivan kirib keldi.

— Qalay, lochinlarim. Hammalaring shu yerdamisanlar?

“Iye, bugun paxanning ko‘ngli chog‘-ku”, deb o‘yladi Oydin. Ichib kelsa shunaqa shirinso‘z, mabodo ichmasa, og‘zidan bodi kirib shodi chiqishini to‘dadagilar yaxshi bilishar edi.

— Hammamiz shu yerdamiz, — dedi Shafxat lablarini yalab.

— Unday bo‘lsa topganlaringni o‘rtaga qo‘yib, o‘tiringlar. Bugun bir-birimiz bilan yaxshilab tanishib olaylik. Qani, aytinglar-chi, nega bu ahvolga tushib qoldinglar? Qani, avval “Antenna”, sen boshla!

— Men JEKda santexnik bo‘lib ishlar edim, — deb boshladi Timofey so‘zini. — Topganim ichish-yeyishimga yetmaganidan so‘ng, o‘g‘irlik qilib qamaldim. Turmada to‘rt yil o‘tirib chiqsam,

oilam tarqab ketibdi. Xotinim uyni sotib, boshqa birovga tegib, o'zga shaharga ko'chib ketibdi.

— Nimasini yashiray, meni aroq yo'ldan ozdirdi, — dedi To'xtaoxun. — Shu aroqni ko'rsam, og'zim suv ochib, ichgim kelaveradi-da.

— Tataristonda ish bo'lmagach, Qozog'istonga ish qidirib kelgan edim, — deb boshladi gapini Shafxat. — Kelgan yilim, "Kamaz"da Xitoyga rangli metall tashidim. Shunday qilib yurgan kunlarimning birida, onangni... bojxonadagilarning qo'liga tushib, ishdan haydaldim. Hamma hujjatlarimdan ayrildim.

— Men biznesmen bo'lmoqchi bo'lib, uyimni garovga qo'yib kredit olgan edim. Ishlarim o'ngidan kelmay, boshpanamdan ayrilib, ko'chada qoldim, — dedi Pak.

Ivan iyagi bilan ishora qilgan edi, endi navbat senga dedi shekilli deb, Yo'ldosh sayray ketdi:

— Tagingdagi oting bilan xotinga ishonma, deganlari rost ekan. Men savdo-sotiq bilan O'rolga borib kelsam... ayolim boshqa birov bilan yotgan ekan. Ikkalovini qip yalang'och holda ushlab oldim...

— Xo'sh, keyin-chi? — dedi Timofey so'lagini oqizib.

— Hoy, kozyol, gapning beliga tepma, — deb jerkib berdi Shafxat.

— Bunaqa paytda qaysi erkak chidab tura oladi, — deb gapini uladi Yo'ldosh. — Miyamga qon urib, ikkalasini ham yorib tashlamoqchi bo'lib, hamla qildim. Qanjiq xotinim qip yalang'och ahvolda qo'shninikiga qochib jon saqlab qoldi. O'ynashini esa chavaqlab tashlab, sudlanib ketdim.

— Sibirga nima uchun borgan eding? — deb so'radi Pak.

— Hov kallavaram, shunga ham fahming yetmaydimi? Nimaga borardim, tirikchilik. Sabzavot sotgani borgandim.

— Xo'sh, endi kimning navbati? A, Alik, sening navbating shekilli? — deb Ivan Oydinga tikildi. — Bo'pti, bu landovurni kelganida yaxshilab tekshirganmiz. Yetar.

— Paxan, endi o'zing gapir... — dedi Timofey biroz cho'chibroq.

— Nima, meni tergamoqchimisan? — dedi do'rillab Ivan.

— Paxan, — dedi Ivanga o‘zini yaqin olib yurgan Shafxat. — “Agar xalq xohlasa, xonning tuyasini ham so‘yadi”, degan gap bor.

Obdon ichib, haligi gapdan jahli chiqib o‘tirgan Ivanga “xon” degan so‘z yog‘day yoqqan edi.

— Voy onangning... bolalari! Mayli, ayt desalaring ayta qolay, — dedi qo‘nqaygan burnini silab. Men mana bu qalqangquloq bilan taqdirdoshman. Mening do‘stim ham, dushmanim ham aroq.

“Qalqangquloq” degani To‘xtaoxun ekanini hamma bilar edi. Ivan uni o‘ziga yaqin olib yurgani ham shundan ekani ma’lum bo‘ldi.

— Bo‘pti. Buguncha shu kifoya qilar. Otboy! — dedi Ivan.

Shu gapdan keyin ular sirt kiyimlarini ham yechmasdan, uyulgan xashak ustiga yonboshlay boshladilar.

VI

Oydin Ivanlarning to‘dasida xuddi sutga tekkan kuchukday qisilib-qimtilib ikki oycha yurdi. U o‘zidan ancha-muncha kuchlilar orasida ajriqdan baland, yovshandan past darajada yursa-da, ularga qo‘shilib keta olmadi. Oxiri ular Oydinni o‘z saflaridan haydab tinchishdi.

Avvalgi ko‘rganlari hozirgi ko‘rayotganlari oldida holva ekan. Uning uchun haqiqiy do‘zax hayoti endi boshlangan edi: bir kuni kechqurun omadi yurishib, yo‘ldan bir hamyon topib oldi. Olishi bilan shoshib uni ochib qarasa, ne ko‘z bilan ko‘rsinki, ichi to‘la besh yuztalik yap-yangi ko‘m-ko‘k tangalar. Bu tasodifiy baxtdan uning boshi aylanib, ko‘zlari tinib ketdi. Sal o‘ziga kelib, sanab ko‘rgan edi, besh ming tanga ekan. Anchadan beri issiq ovqat tamaddi qilmay qorni quldir-quldir qilib yurgan edi, o‘sha orzusiga yetish niyatida ko‘chaning narigi betidagi arzon oshxonaga qarab ketdi. O‘sha zahotiyoq yelkasiga ola xalta osib olgan ikkita bezori uni quvib yetdi.

— Ho‘v, kozyol, qani haligi hamyonni bu yoqqa cho‘z! — dedi ko‘zi ko‘pchigan surbet yigit.

— Qanaqa hamyon? — dedi Oydin qo‘rqa-pisa.

— Haligina yo'lda topib olding-ku. Nima, bizni ko'rmadi, deb o'ylaysanmi? — deb Oydinning yo'lini to'sdi ikkinchisi.

Oydin gapga kelmay ura qochdi. Haligi ikkita barzangi surbetlar uni quvib yetib, yoqasidan oldi. Oydin qanchalik qarshilik qilmasin, ularga kuchi yetmadi. Haligilar Oydinni yiqitib, kirza etiklari bilan rosa tepkilashdi. Shunda ham Oydin hamyonni mahkam changallaganicha miq etmay yotaverdi. Bezorilar uning qo'llariga yopishdi, biroq barmoqlarini yozib hamyonni tortib olisholmadi. Shunda bezorilardan biri ustaraning tig'i bilan Oydinning barmoqlarini tilib yubordi. Shundagina uning barmoqlari yozilib, hamyon pastga tushdi. Hamyon qo'llariga tekkan qo'sh bezori jadal oshxonaga qarab ketishdi.

Oydin qonli qo'lini biroz ariq suviga tiqib o'tirdi-da, bosilgach, shu o'rtadagi hovlilardan biriga kirib, katta daraxt tagiga yonboshladi. Bu paytda atrofga zim-ziyo qorong'ulik tushib, odamlar uyquga ketgan edi. Biroq Oydin ancha vaqtgacha uxlayolmadi. Keyingi paytlarda ko'rgan xo'rliklari-yu zo'rliklari ko'z oldidan bir-bir o'tdi. Hatto Ivanlar to'dasiga qo'shilishdan avval anavi Sayfullin ko'chasidagi ishsizlar to'dasiga ish topish ilinjida borgani, ular buni itdek haydagani ham ko'z oldiga keldi.

Bir oy muqaddam u hovlidagi ahlat yashiklaridan bir konserva bankasi topib olib, bolalarcha sevingan edi. Uning bu sevinchi uzoqqa bormadi. Sirtiga "pashtet" deb yozilgan bu bankani ochib, oshig'ich tamaddi qildi-yu joni azobda qoldi. U zaharlangan edi. Sal bo'lsa ham omadi bor ekan deng, bir o'limdan qoldi.

Uning bundan keyingi ko'rgan azoblari ham ozmuncha emasdi. Kunlardan birida to'ydan qaytib kelayotgan birovlar qattiq uyquda yotgan Oydinni rosa tepkilab uyg'otishdi.

— Ho'v yaramas, tur yo'qol bu yerdan! — dedi g'ilay ko'z, qorindor bir yigit. U xuddi bu yer mahriga tushganday o'dag'aylar edi.

— Akajon, tong otguncha uxlab olay.

— Ket degandan keyin ket-da. Podyezdni iflos qilasan!

Oydin noiloj sudralib, tashqariga chiqa boshlaganida haligi g'ilayning yonida turgan olifta ayolning:

— Voy bo'-o', mana bu bomjning sassig'ini-chi! — degan gapini eshitib qoldi.

Podyezdning temir eshigi sharaqlab yopildi. Uyquga qonmagan Oydin hovlidagi garajning yonginasiga borib qayta yonboshladi...

O'sha kuni tush paytida Oydin hovlidagi axlat qutilarni ag'dar-to'ntar qilib shisha yig'ib yurgan edi. Bexosdan bir ayol tovushini eshitib qoldi. Juda tanish ovoz. Bunday razm solib qarasa, ne ko'z bilan ko'rsinki, u rahmatli xotinining kursdosh dugonasi Nag'ima ekan. Oydin u ayol uzoqlashib ketguncha, go'yo bir zarur narsa qidirayotganday bo'lib, qutidan boshini olmay turaverdi. Xuddi qumga boshini tiqib turgan Afrika tuyaqushiday. U ahlat qutilarini kavlayverib, uning qo'lansa hidiga obdon o'rganib ketgan bo'lsa ham, bu gal ko'ngli aynidi. Oydin kir-chir pidjagi bilan tizzalari suzilib qolgan shimini tilinib bir ahvolga tushib qolgan nogiron qo'llari bilan qoqib-silkir ekan, bundan keyin hayotining yaxshi bo'lmasligiga obdon ko'zi yetdi. O'zidan o'zi jirkanib, taqdirini la'natladi. Yig'lagisi keldi-yu yig'lay olmadi.

Bunaqa umr ko'rgandan ko'ra o'lgan yaxshi, deb o'yladi u.

O'sha kundan boshlab "qanday qilib o'lsam ekan?" degan bema'ni xayol unga yopishdi-qoldi...

VII

Shahardagi daydi "bomj"lar to'dasiga qo'shilganiga bir yil bo'lganini Oydin endi sezdi. O'tgan yili kuzda qo'shilgan edi-da, ular safiga. Mana hozir kuzning salqin havosi tanani junjiktiradi. "Uch kundan so'ng do'zaxga ham ko'nikasan", deganlari rost ekan. U hammasiga — ochlikka ham, azob-uqubatlarga ham ko'nikdi. Shunday bo'lsa ham mana bu yolg'on dunyoni ko'zi qiymadi, bir amallab sudralib yuraverdi. Mana endi oxir-oqibat bundan ham zerika boshladi.

Ilgarilari, ayniqsa, Savlega uylangan paytlari o'limdan biram qo'rqar ediki!.. Savlesi bilan Oybaridan ayrilganidan so'ng o'limning yuziga tik qaraydigan bo'lib qoldi. "Bunday yashagandan o'lgan ortiq!" degan gap uning kallasiga mahkam o'rnashib oldi.

O'sha bema'ni o'ylarining natijasimi, kim biladi deysiz, tushiga Savlesi kirdi. Xuddi ilgarigi baxtli onlaridagiday, ikkalovi Medov tomonlarda sayr qilib yurganmish. Bir mahal Savleni quchib suy-

moqchi bo'lsa, u tutqich bermay qocharmish. Ikkalovi soy tagida jildirabgina oqayotgan loyqa suvni chalp-chulp kechishib, quvlasharmish. Ular shu zayl Ko'ktepa atroflariga yetib kelib Kengsoyga tushganmish. Chekkaroqdagi qabrlar oldiga kelishganida Savle yuztuban yiqilganmish. Oydin uni turg'izmoqchi bo'lganida cho'chib uyg'onib ketdi.

Negadir o'ng boldiri sirqirab og'rir edi. Jon holatda tashqariga chiqib yorug'da ko'rsa, sonidan tuxumdekkina go'shti uzib olingan ekan. Yotar oldida bir daydi it hamla qilganday bo'luvdi. O'sha itning og'zida ketgan ekan-da bir bo'lak go'shti!..

Oydin oqsoqlanib, eshik oldidagi o'rindiqqa bazo'r kelib o'tirdi. U nima qilishini bilmas, kimdandir yordam so'ragisi kelib tevarak-atrofga alangladi. Birdan ko'zi oyog'i tagida yotgan gazetaga tushdi. Sonining og'rig'idan yuzlarini bujmaytirgancha zo'rg'a engashib, gazetani olib ko'z yugurtirgan edi, qarasa "Almati oqshomi"ning 2002-yilgi beshinchi soni ekan. Ichki sahifalarini hafsalasiz varaqlab chiqqan bo'ldi, to'rtinchi sahifasida birdan "Darbadar daydilar" degan maqolaga ko'zi tushib qoldi. Qani, nima gap ekan, deb o'qiy boshladi: "Shu kunlarda ko'cha-ko'ylarda boshpanasiz, ishsiz daydib yurgan bomjlar ko'p. Ularning aksariyati tog'ni ursa talqon qiladigan kishilar. Hammasi ham aroqxo'r, nashavandlar emas, balki turmush tarzining og'irligiga dosh berolmay jamiyatdan chetlab qolgan odamlardir. Uy-joyi, borar yeri bo'lmagani uchun ular uylarning yerto'lasida, tomida, ko'chalarda it yotish, mirza turish qilib kun kechirib yurishibdi. Biz yashab turgan jamiyatda daydilarga g'amxo'rlik qilish u yoqda tursin, ularga qayrilib ham qaramaydilar. Shu bois Rossiyadagi P. Demidov nomli Davlat universitetining professori Fedor Zavyalov bilan iqtisod fanlari nomzodi Yelena Spiridonovalar daydilar hayotini o'rganishga jazm qilganlar. Ularning yozishlariga qaraganda, daydilarning 83 foizining qarindosh-urug'lari, 27 foizining ota-onalari, 64 foizining aka-ukalari, 54 foizining bola-chaqalari bor ekan. Bu ko'rsatkichlardan shunaqa xulosa chiqarsa bo'lar ekanki... bularning bari jamiyatimizda imon-e'tiqodning, mehr-oqibatning kamayib borayotganidan dalolat berarmish. Daydilarning aksariyati xohlagan idoraga ishga kirsa bemalol eplab ketadigan o'qimishli, ziyoli odam-

lar ekan. Ularning orasida ish yurituvchilar, mashinistlar, slesarlar, operatorlar, payvandchilar, elektriklar ham bor ekan. Biron joyga ishga kirib ishlay desa boshpanasi yo'q, hech qayerda ro'yxatdan o'tmagan. Boshpanalaridan ayrilganining sababi muqaddam sudlanganliklari bo'lib chiqdi. Xo'sh, unday bo'lsa qanday tirikchilik qilishadi, degan gapga kelsak, buning javobi oson: ularning 43 foizi duch kelgan ishni qilib kun kechirar, boshqalari shisha, metallalom, yoz oylarida esa olma, kartoshka o'g'irlab sotib kun ko'rishar ekan. Ularning beshdan bir qismigina yoshi yetgani yo nogironligi uchun nafaqa olishar ekan. Topgan pullarining ko'p qismi ovqatlanishga, ichkilikka, chilimga sarf bo'lar ekan. Dori-darmon, kiyim-kechak, sovun xarid qilishlariga qancha pul kerak bo'ladi? O'h-ho'! Bulardan tashqari daydilar topgan pulining o'n yetti foizini gazeta va jurnallar xarid qilishga sarflar ekan. Bu ma'qul gap!..".

MUXTOR MAG'AVIN

(1940)

Muxtor Mag'avin 1940-yil 2-fevralda Semey viloyatining Shubartau tumanidagi Barshatas ovulida tug'ilgan. 1962-yilda Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

"Qo'biz sarini" ilmiy monografiyasi (1968), "Ko'kmunar" romani (1972), "Bir otaning bolalari", "Ko'kmunar" qissa va hikoyalar to'plamlari, "Alasapiran" tarixiy roman-dilogiyasi (1980–1982) hamda "Shaqan sheri" romani, "Men" avtobiografik romani, "Qumursqa-qirg'in" hikoyalar to'plami chop etilgan. 2002-yilda o'n uch jildlik asarlar to'plami, 2007-yilda "Jarmaq" romani nashr etildi.

IKKOV

Bir ko'rgan — bilish, degan xalqimiz. Ikki ko'rgan — tanish. Bir emas, ikki emas... o'tgan yetti yil ichida yetmish marta ko'ribdi. Ammo bilaman deb ham, taniyman deb ham ayta olmaydi. Ismi kim? Asli qayerdan? Kim bo'lgan, nima ish qilgan? Bugungi ishining ma'nosi nima? Hammasi qorong'i. Qorong'i ham emas, mutlaqo noma'lum. Faqat hozirgi kasbi haqidagina ozgina tasavvuri bor. Yo biznes, yo hokimiyat. Yo xo'jayin, yo xizmatkor. Ishqilib, tinchi kamroq. Vaqti esa taqchil. Juda taqchil.

Ikkovi tasodifan uchrashishdi. O'shanda bir maktabda o'qigan, o'ziga o'xshagan beva ayol teatrga taklif qilgan edi. Chaqirdi-yu, eng so'nggi damda o'zi borolmay qoldi. Teatr qarshisida, chiptani qo'liga ushlatdi-da, uzr so'rab qolaverdi. Bu esa ancha sarosimada qoldi, beva qancha tayyorlangan, endi shundoq teatr darvozasi oldidan qaytmaydi-ku. Iloj yo'q, jilla bo'lmasa bir pardasini ko'rib ketay deb ichkariga kirdi. Joyini topdi, o'tirdi. Old qator, biroq sal chetroq ekan. Faqat avvalgiday, bularning yosh paytlaridagidek to'da-to'da xalq ko'rinmaydi. Yarmidan ko'pi bo'sh. Va kelganlar-

ning hammasi keksa, keksa bo'lmasa-da o'rta yoshdan oshib qolganlar. Yoshlar umuman yo'q. Orkestr uyasidan skripkaning chizilgan, yana bir asboblarning uzilgan, har xil tovushlari eshitiladi, kuyini keltirib yotishibdi. O'tkan kunlarini, peshonasiga yozilgan, hatto, bugun ham toq qoldirgan yolg'izligini o'ylab, ko'ngli buzilib, ma'yus o'tirgan edi,

— Kechirasiz, xonim, — degan tovush keldi qulog'iga. — Men o'tib ketsam...

Chiroyli, qora smoking kiygan, qotma, kapalak galstuk nusxa taqqan, o'rta yoshlardagi gavdali erkak. Qabog'i qalin, labi yupqa, shiddatli ekan. Ayol o'rnidan qo'zg'ala boshlagan edi, yana bir iltimos qildi:

— Betlashib o'tishimiz qiyin bo'lar, bari bo'sh, o'rtaroqqa siljisangiz...

O'zining xayolida ham bor edi, endi ilojsiz o'rtaroqqa yurishga to'g'ri keldi. Haligi erkak chap tomoniga, naq yoniga o'tirdi. Xuddi ikkovi teatrga birga kelganday. Shu payt zal asta qorong'ulashdi. Ortidan sahna pardasi ochildi. O'sha qadimiy, eskirmas "Aida" boshlandi.

Birdan sirli ohangga aralashib dimog'iga qimmat atir hidi urildi. Juda olifta kishi bo'lsa kerak. San'atkormi yo? Lekin yuzi notanish. Yo rejissyormikan? Balki, konservatoriyaning professori. Ko'z qiri bilan qaradi: u ko'kish soyada toshhaykal monand qotib qolibdi. Umuman, yomon odamga o'xshamaydi.

Ayol o'zini juda noqulay his qildi. Birinchi sahnadan keyin ketsammi, qolsammi deb o'tirgan edi, endi nima bo'lganda ham ketishga ahd qildi. Tasodifan birov ko'rib qolsa uyat axir. Nariroq, bir-ikki o'rindiq siljib o'tirish yana noqulay. Buning ustiga, bolalarning choraklik nazorat ishi. Tezroq ko'rib, natijasini chiqarish kerak. Boz ustiga mana bu kishi... O'z-o'zidan siqilib, tinchi yo'qoldi. Bir dam yuziga issiq taft urildi. O'sha biqinidagi erkak nafasi ekan.

— Biron joyingiz og'riyaptimi?

— Yo'q... — dedi u yanada o'zini yo'qotib qo'yib. — Ha... og'rib...

Shundan so‘ng nafas olishi juda qiyinlashib ketganday bo‘ldi.

Nihoyat, tantanali, dabdabali, zafarli birinchi sahna tugadi.

Ayol biqinidagi erkakka botinib qarashga ham iymanib, ikkinchi tomondan sidrilib chiqaverdi. Shoshilib pastga tushib, kiyimini oldi. To‘xtamay tashqariga otildi.

Qalin qor yog‘ib turgan ekan. Laylak qor. Qalin, yapaloq, suvli, salmoqli qor. Yer yana shilp-shilp. Almatiga dastlab kelgan, yoshgina qiz bo‘lgan bir zamonda shunday, qish o‘rtasida hammayoq shilpillab loy bo‘lib yotardi. Juda yoqimli ko‘rinar edi. Yosh edi-da u paytlar. Yog‘inning o‘zi qiziq. Hozir esa bu yupanchsiz, tashvishli ko‘ngilni yanada ma’yuslashtirib yubordi. “Teatrda menga nima bor edi?...” deb o‘yladi. Yo‘lovchi mashina to‘xtatmasa bo‘lmaydi. Sal-pal oldinga yurib, ko‘chaning narigi yuziga o‘tib, yo‘l to‘sdi.

Shu paytda g‘ildiraklari beo‘xshov, katta avtomobil yoniga kelib to‘xtadi. Biladi, bu — juda qimmat mashina. Yangi chiqqan katta boylargina minishsa kerak. Albatta, to‘xtagan — boyning o‘zi emas, haydovchisi. Imkon bo‘lganida besh-o‘n chaqa ishlab olmoqchi. To‘g‘ri-da.

Jipmi yoki allambalo deb ataladigan qimmat mashinaning zinasi ham juda baland ekan, eshikning tutqichini ushlab, zo‘rg‘a ko‘tarildi. Mashina emas, keng saroyga kirganday bo‘ldi.

— Voy... — qaddi ko‘tarinki, tik o‘tirgan haydovchiga ko‘zi tushganda beixtiyor ovoz chiqarib yubordi. O‘sha, teatrdagi notanish.

— Siz ekansiz-ku... — dedi talmovsirab. — Kechirasiz... men bilmasdan...

— Bilmagan kishi mashinani qo‘l ko‘tarib to‘xtatmaydi, to‘g‘ri yurib ostiga tushadi, — dedi notanish qandaydir dag‘al ohangda.

— To‘xtatganim... loygarchilik bo‘lgach... uyga yetib olish niyatida...

— Qancha berasiz?

Ayol battar o‘ng‘aysizlandi.

— Ellik tenge... — dedi ilojsizlikdan.

— Yaxshi, — dedi haydovchiga o‘xshamaydigan haydovchi qanoatli ohangda. — Bugungi bank hisobi bo‘yicha ellik yetti tenge — bir dollar. Uyingiz uzoqmi?

— Uzoq emas. — dedi ayol battar uyalib.

Eski zamonnning aravasiday, to‘rt burchakli, ulkan g‘ildirakli qimmat mashina shilpiq qorni ezgancha qoq yorib, to‘g‘ri eshik oldiga kelib to‘xtadi. Ayol sumkasini axtarishni boshlagan edi, haydovchi lip etib tushdi-yu, vahshatli mashinasining oldidan aylanib o‘tib, uning eshigini ochdi. Qo‘lidan qattiqroq ushlab, sekin tushirdi. Shundan so‘ng sal sekinlashgan laylak qorga kaftini yoydi. Ayol o‘zini juda noqulay sezgancha sumkasini ochib, uning bir burchidan kichkinagina, buklama hamyonini olib, ellik tengelik qizil qog‘oz ushlatdi. Haydovchi qo‘yniga qo‘l suqib, chap tomondagi ichki cho‘ntagidan kichikroq kitobcha shaklidagi, qalin, chiroyli hamyonini sug‘irib, ellik tengelikni ichkaridagi bir uyachasiga ehtiyotkorlik bilan soldi. Ko‘chadan taralib turgan xira yorug‘da qopchiq ichidagi bir dasta shiqirlagan dollar ko‘ziga aniq chalindi.

— Nechanchi qavat? — deb so‘radi haydovchiga o‘xshamagan haydovchi.

— Uchinchi.

— Mashina ko‘tarila olmaydi... — Tashigan kishisini uchinchi qavatga ko‘tarib chiqara olmaydigan soyabonli aravadek mashina biq qildi-da, yorug‘ini yig‘ib oldi. — Endi o‘zim chiqarib qo‘yishimga to‘g‘ri keladi. Qorong‘i, qo‘rqasiz...

Rostdan ham qorong‘i.

— Ehtiyot bo‘ling, — dedi ayol. — Bekor ovora bo‘ldingiz. O‘zimga tanish zinalar-ku..

Tanish zinalar juda o‘zgarib ketganday. Ikkovi uchun ham.

— To‘rtinchi qavatga o‘tib ketmadikmi? — deb so‘radi haydovchi ovozi gumburlab.

— Yo‘q. Mana, keldik. Hozir eshikni ochaman. Keyin chiroq yoqaman. Qaytar yo‘lingizda yorug‘ bo‘ladi.

Kalit shiqirlab, oshiq-moshiqlar g‘ichirlab, eshik zo‘rg‘a ochildi. Ichki bo‘sag‘adan yalt etib chiroq yoqildi.

— Rost, — dedi ayol. — Sizga qanday rahmat aytishimni bilmay turibman. Mashinasiz hali yurgan bo‘lardim. Bu podyezdda... chiroq doim kuyib ketadi. Bemahalda yurmasam ham, eshik ochib, tashqariga chiqishga qo‘rqaman...

— Endi men qo‘rqib turibman, — dedi haydovchi. — Tashqari — qor, kun — sovuq. Rostdan ham rahmat aytgingiz kelsa, ehtimol, bir piyola choy berarsiz...

Ayol bu taklifni rad qilolmay qoldi. Ikkovi ham ichkariga kirib, eshik yopildi. Tashqarida — loygarchilik, tashqarida — qorong‘ilik. Kapaday bir xona bilan oshxona ham issiq, ham yorug‘ edi.

To‘satdan...

— Sharmanda... — dedi ayol betini qo‘llari bilan to‘sib. — Mana, rosa yigirma... o‘n to‘qqiz yil bo‘ldi... Erim to‘satdan vafot etgandan buyon. O‘tgan yozda qizimni uzatdim. Boshqa shaharga. Mana endi... qirqdan oshgan paytda...

— Sen menga o‘n to‘qqizdagi yosh qizday ko‘rinding, — dedi erkak.

Ayol yana yuzini yashirdi.

— Sharmanda bo‘ldim... Mutlaqo esimdan chiqib ketgan narsa...

— Sezishimcha, sen hech qachon boshlab ham bilmagansan, — dedi erkak.

— Nimaga? — dedi ayol hayron bo‘lib.

— Tozasan, — dedi erkak. — Top-tozasan. Ustingdan chivin uchib o‘tmagan kabi.

Ayol gap ma’nosini yaxshi tushunmagan bo‘lsa-da, o‘sha tortinchoq holicha, erkakning keng gavdasiga suykalib, pinjiga tiqilibroq yotdi.

— Bo‘lar ish bo‘ldi, — dedi erkak. — Avvalgi gunohimni yuvish uchun... yana bir marta...

— Ismingiz kim? — deb so‘radi ustiga eskiroq, yengil xalatgina yopinib olgan, o‘zini yo‘qotib qo‘yganidan qizarib turgan ayol.

— Mening ismim... Haydovchi, — dedi kiyinib, ketishga taraddudlangan erkak. — Sening isming — Navnihol. Ko‘p bilgan tez qariydi. — Uning jiddiy yo hazil gapirayotganini bilib bo‘lmasdi.

Haydovchi biroz noqulay ahvolga tushib, sal egildi-da, eshikka qarab yuzlandi. Ostonada ortga qayrildi:

— Telefon... Yaxshi, — dedi so‘ngra. — Qo‘lim bo‘shaganda xabarlashib turaman.

Shu bo‘yi bedarak ketdi. Roppa-rosa to‘rt oy. Bahorda qo‘ng‘iroq qildi. Bu o‘sha haydovchi-ku. “Uydamisan, yolg‘izmisan?” “Uyda. Albatta, yolg‘iz”. “Hozir boraman” dedi. Ayol atrofini saranjomlab ham ulgurmagan. Yarim soat, o‘n besh-yigirma daqiqa emas, kelar damda, balki ikki, balki, uch daqiqada. Mobil telefondan xabarlashibdi. To‘g‘ri eshikning oldidan. Mashina esa... nariroqda qoldirgan shekilli. Ayol derazadan qarab tursa-da, yaqin atrofdan ko‘ra olmadi. Uyat bo‘lar edi-ku. Qo‘shnilar gapirishmaydimi. Qanday mashina, nimaga yuribdi, kimga keldi deb. Hammasi rus bo‘lsa ham. Hech biri bilan aralashmasa-da. Shuning o‘zi... odam eshitmagan firibgarlik kabi. O‘tdi, ketdi, tugadi deb o‘ylagandi. Endi mana boshidan sovuq suv quyganday. Qo‘ng‘iroq bir qisqa, bir uzun jiringlaganda uning vujudini o‘t chirmaganday bo‘ldi. Eshikni hovliqqancha ochib, shoshilib yopdi. Tez-tez nafas ola boshladi. Erkak chiroyli va ixcham kiyinibdi. Ehtimol, chet elniki, bichimi ham, boshqasi ham o‘zgacha kiyimlar. Qirov oralagan qaysar sochi qisqa kesilgan. Qalin qosh ostidagi qora ko‘zlari kulimsirab turadi. Ayol esa... ozgina noqulaylik, ko‘proq quvonch. Birdan choy qo‘ymoqchi bo‘lgan edi. “Vaqt yo‘q, — dedi. — Shu to‘rt oy ichida bir soat bo‘sh vaqt topmadim. Albatta, unutganim yo‘q”. To‘rga o‘tar-o‘tmasdan shoshilinch yechina boshladi. Shumshayib turib qolgan ayolni ham belidan quchib, bo‘ynidan yengil o‘pdi-da, o‘zi yechintirdi. Bir piyola choy ichguncha vaqt o‘tgach, shoshila turib, chala-chulpa yuvinib, xayr-xo‘sh aytishga ham holi kelmay, yugurib pastga tushib ketaverdi.

Kelasi safar juda uzoq ketmadi. Oyga yetmay xabarlashdi. Qoq tushda keldi. Ayol uyda, kun yakshanba edi. Erkakning ham favqulodda bir dam olishi bo‘lsa kerak, ikki soatcha vaqtim bor dedi.

Tanish-notanish, so‘qqabosh umr shunday davom etaverdi. Salpal ko‘nikish demasak, ilk uchrashgan kundan farqi yo‘q. Ayolning bor tushungani — erkak burun musiqa maktabida yoki opera teatrida xizmat qilgandek. Xavotirsiz, tinchgina tirikchiligi o‘tib yotgan. Oxir-oqibat, omadi chopibmi, har qalay, toparman-tutarmanga aylangan. Hozir juda boyga o‘xshaydi. Ammo halovati yo‘q. Ola-suron, tapur-tupur. Tinimsiz kurash. Avvallari kelgan damda mobil telefonini o‘chirib tashlar edi. Endi bosh tomoniga qo‘yadi.

Bir safar juda noqulay vaziyatda jiringladi. Oldi. Nafasi uzilib, unsiz eshitib turdi-da, so'kib yubordi. "U o'zidan ketmasin! — deb bo'kirdi, — hamma narsaning o'z chegarasi bo'ladi. Shusiz ham ortig'i bilan olib yotibdi..." Shundan so'ng sal hovuridan tushdi. Ozgina eshitib turgach: "Kelasanlar... Biroq... aytganing tugal emas!.." dedi-da, hammasi tugaganday, ag'darilib tushdi. Ozgina unsiz yotib, shu unsiz holicha kiyinib, chiqib ketdi.

Yana bir safar juda ko'tarinki kayfiyatda keldi. Birdan bosh solmay, avval yarim piyola choy ichdi.

— Shu biz qovushganimizga qancha vaqt bo'ldi? — deb so'radi.

— Siz shuni... qovushish deb o'ylaysizmi?... — dedi ayol beixtiyor.

— Menimcha, qanday atalsa ham ajoyib. Men... bor dardimdan xalos bo'lib qaytaman. Bilasanmi, tor dunyodagi bor tashvishlar bo'yimdan sidirilib tushadi... Shuning uchun ham sendan voz kecha olmayman. Balki... ikkovimizda allaqanday bir o'xshashlik bor. Tabiat, yaralishda. Ehtimol, ertaroq uchrashganda, joni ham, tani ham birlashgan, ahil-inoq yorlar bo'larmidik...

— Uy olsang bo'lmaydimi? — deb so'rab qoldi u. — Ikki xona. — Vaqting bo'lmasa, men o'zimizning yigitlarga topshirayin. Borasan, ko'rasan-da, yashayverasan.

Ayolning ko'zi qinidan chiqquday bo'ldi.

— Odamlarga qaysi pulimga oldim deb aytaman?.. Yo'q, keragi yo'q. Ikki xonani nima qilaman? — so'ngra qo'shib qo'ydi: — Narxining o'zi ajabtovur bo'lsa kerak...

Erkak kuldi.

— Men senga... sovg'a qilmoqchi edim...

— Rahmat... chin sovg'a qilgingiz kelsa... ko'p uzamay qo'ng'iroq qilib turing...

— Senga qo'ng'iroq qilsam... sabrimdan ayrilaman, — dedi erkak. — Hatto, ertaga, ertagamas, biron soatdan so'ng boraman deb o'ylasam, toqatim ketadi. Bir-ikki marta shunaqa bo'ldi. Xabarlashgandan so'ng orqama-orqa kelishim kerak... Men seni hech qachon unutmayman. Har doim yodimda yurasan. Faqat vaqtim taqchil. Shusiz ham sal bo'shab qolsam, avvalgiday teatrga emas, sening oldingga kelgim keladi.

Ayol umrida bunaqa so‘z eshitmagan edi. Uyatdan qizarib, bir dam jim turdi. So‘ngra rostini aytdi.

— Men... siz bilan uchrashgandan buyon juda o‘zgardim. O‘ylab ko‘rsam... avvallari, shunchaki jinsim ayol ekan. Siz menga... o‘zimning kim ekanligimni anglatdingiz. Men ayol sifatida... avval ko‘rmagan, bor deb bilmagan rohatga belandim. Muhabbat... buyuk so‘z. Tan lazzati. Uyat bo‘lsa ham... men bilmayman, kelajakda qanday yashashimni. Siz meni... buzdingiz... — Yo‘q, — deya so‘ngra qo‘shib qo‘ydi, — siz bo‘lmaganingizda men dunyoning rohatini ko‘rmay ketar ekanman. Shuning uchun rahmat.

Erkak unsiz eshitib, o‘ylanib o‘tirib qoldi. So‘ngra ayolning iyagini ko‘tarib, lablaridan yengilgina bo‘sa oldi. Ehtiros bilan quchoqlab, erkalay boshladi. Shu paytda telefon jiringlab qoldi. Yaxshi xabar shekilli. Erkak jimgina eshitib turdi-da: “Xo‘p, Navnihol, ketdim”, dedi quvnoq ohangda.

O‘sha safar kichkinagina yozuv stolining ustiga bir dasta... pul tashlab ketibdi. Kuzatib qo‘ygandan keyin ko‘rdi. Pul bo‘lganda ham — dollar! Yap-yangi, faqat yuztaliklar. Sirtidagi, bank muhri bosilgan bog‘lamida yozilgan — rosa o‘n ming! Cho‘ntagidan yana bir narsalar bilan qo‘shib chiqargan bo‘lsa, unutib qoldirgan. Hozir qaytib keladi. Kelmadi. Vaqti yo‘qdir. Endi ayol aqlga sig‘maydigan ko‘p pulni qayerga qo‘yishni bilmay hayron. Uyga o‘g‘ri tushsa nima qiladi? Hech xayoliga kelmagan ekan bu fikr. Aslo xavf sezmagan edi. Nimani ham o‘g‘irlaydi deb o‘ylagan-da. Endi buncha pul. U yoqqa yashirib, bu yoqqa yashirib nihoyat joy topdi. O‘tgan yildan qolgan eski darsliklar bor edi. Ulardan birining o‘rtasini to‘rt burchak qilib o‘yib, o‘n ming dollarni bir butun holda soldi. Ostki, ustki bir qancha betlarini birlashtirib yelimlab, kitobni ko‘rinishidan avvalgi holiga keltirdi. Shundan so‘ng ish stolining tepasiga, devorga mixlangan kitob javonidagi eski darsliklar, hikoya va she’r kitoblar orasiga joylashtirib qo‘ydi. Nazarida, juda yaxshi yashirgandek bo‘ldi. Ammo endi u halovatini yo‘qotgan edi. Yuragida mudom xavotir. E, Xudo yuz mingli, millionli boylar qanday uxlar ekan. To‘g‘ri, buncha ko‘p pulni bankka solib qo‘yishadi. Biroq bankning o‘zi tunalib qolishi mumkin-ku. Yoki qandaydir bir kitoblarda yozganidek, bankrot bo‘lib... O‘sha kuni uyqusi cha-

la bo'ldi. Maktabda ham ishining barakasi bo'lmadi. Saboqlarini o'tib, so'ngra aksiga olib bugunga to'g'ri kelgan sinf majlisini chala-chulpa o'tkizib, uyga oshiqdi. Ellik tenge to'lab taksi bilan zumda yetib keldi. Uf... Hammasi o'rnida, buguncha omon ekan. Ko'ngli joyiga tushdi. Birozdan so'ng yana xavotir ola boshladi. Xuddi shu payt telefon jiringlab qoldi. Albatta, O'sha!

Kelgan zahoti... Ha. Ayol pulning joyini aytib ulgurgan edi.

— Seniki, — dedi erkak. — Keragingga ishlataver. Ko'p? Pul degani hech qachon ko'plik qilmaydi. Qanday tugab qolganini o'zing ham bilmay qolasan. Bir chetidan foydalanaverish kerak. Dastlab yengil-yelpi, u-bu jihoz ol. So'ng chiroyli, qimmatbaho xalat.

Ayol hech qanaqa jihoz olmadi. Hojati yo'q edi. Odmigina qora xalat oldi. O'z puliga. Ikki oy bo'yi anchagina tejashga to'g'ri kelgan. Ko'p pulni esa... boshqa bir joylarga yashirdi. Xavf bor, ammo avvalgiday emas. Ehtimol, o'ziniki, bir qadar o'ziniki sanagani uchundir. Qancha majburlasa ham egasi olmagandan keyin shunday hisoblay boshlagan edi. Qaysidir romanlarda o'qigani bor edi. Qadimgi boylar shunaqa qilib xushtor ushlashar ekan. Hashamatli saroyga o'tirg'izib, turli lash-lushlarga, zeb-ziynatlarga ko'mib qo'yadi. Sharmanda. Men unaqa emasman deb o'yladi. So'raganim yo'q. Olmasa nima qilishim kerak. Janjal qila olmaydi-ku. O'zi begona, notanish erkak...

Begona, notanish erkak avvalgiday kelaverdi. Haftada bir. Oyda bir. Ikki-uch oy yo'qolib ham ketar edi. Bir safar rosa yarim yil xabarsiz ketdi. Azob edi. Kutish emas. Ayol kutib o'rgangan. Azob — telefon jiringi. Odam bo'lgandan keyin, tanish-bilish, xizmatdosh, yaqin-yiroqlar, olisdagi yolg'iz qiz — har qalay allakimlardir xabarlashmay turmaydi. Telefon jiringlaganda ayolning yuragi shuv etib ketadi. Albatta, boshqa. Yana jiring — yana shuv... Yana boshqa. Hafta bo'yi. Nihoyat umid uzilganda yoki kutilmagan damda — O'zi! Shundan so'ng bir hafta, yo'q, ikki-uch kun xotirjamlik. Yoqimli tinchlik. Uchinchi, to'rtinchi kun... Yana azob. Besh, yetti, o'n, o'n ikki... kun o'tadi. Bir umrlik yetim to'shak o'z odatini topadi. Tul ko'ngil qolipiga tushadi. Roppa-rosa o'n to'qqiz yil xotirjam yashadi-ku. Aqlidan adashmadi. Bir maromdagi umr

karvoni o'tib yotgan edi. Hozir ham... hafta o'tar, oy yangilanar ko'nikkan tirikchilik so'qmog'iga tushar edi. Tusha boshlar edi. Shu vaqtda... jonga azob beruvchi telefon! Albatta, boshqa birov. O'zi bo'lishi ham mumkin-ku. Yana umid uyg'ona boshlaydi. Kun sayin. Hafta bo'yi. Oy davomida. Eng qiyini shu ekan. Bir safar telefonni ikki kun o'chirib ham qo'ydi. Shunda... boshqalar bilan birga uning ham qo'ng'iroq qilish ehtimoli bor-ku. Balki, bir necha marta qo'ng'iroq ham qilgandir. Uyini almashtirdi deb o'yladi. Qaylargadir ketdi, biryo'la ketdi deb o'yladi. Endi aslo xabarlashmasligi ham mumkin. Rostdan ham. Ikki kun davomida tinimsiz qo'ng'iroq qilgan. Qancha izlagan. Lekin... izlamabdi. Qanday yaxshi. Telefonni qaytadan qo'shish azob ekan, oradan yarim soat o'tmay topila qoldi. Mana, quvonch! Mana, baxt!

Yana ikki-uch kun xotirjamlik. Shundan so'ng jon azobi qayta boshlanadi.

Shu tariqa, bilmagan bilish, tanimagan tanish umr naq yetti yilga davom etibdi. Ayol qirq to'qqizga keldi. Biroq lofi yo'q, rosa o'n besh yilga yosharganday. O'zini o'ttizdagi holidan ko'ra sergakroq his qilar edi. Yosh umri qaytib kelmasa-da, yaxshi bir kunlarni boshdan kechiribdi. Erkak esa — aksincha. Sochlari butkul oqarib ketgan edi. Ancha vazmin bo'lib qolgan. Yuzi ham so'lg'in. Ko'pincha charchab keladi. O'zini qancha xursand ko'rsatishga urinmasin, baribir ich-ichidan kayfiyati yo'qligi sezilib qolardi. Mobil telefondagi suhbatlar ham juda keskin. Ko'pincha buyurib emas, o'tinib gapiradi. Hatto bir safar juda sekin gapirib, yalinish ohangiga ham ko'chdi. Uch hafta muddat so'radi. Bir narsa yetmay, bir narsa kechikib yotibdimi, ishqilib kutilmagan dilxiralik. Ustki kiyimini hozirgina yechgan edi. Darhol qayta kiyinib, biron soatdan so'ng qayta kelaman dedi-da, boshi ham holda chiqib ketdi. Bir soat emas, bir hafta emas, bir oyda zo'rg'a xabarlashdi. Keldi. Odatdagiday bo'lmasa-da, sog'inib qovushishdi. So'ngra sarosimalanib bir piyola choy ichdi. Choy icha o'tirib, taksi chaqirtirdi. "Mashina buzilib qoldi..." dedi, o'zidan-o'zi kechirim so'raganday.

Kamida yana biron oyga ketdimi deb o'ylagan edi. Uch kundan so'ng xabarlashdi. Sirtqi eshik yopilishi zahoti o'zida yo'q odat-

ga ko'ra, ayolni bir qo'li bilan belidan quchoqlab, bir qo'li bilan sochlarini silab, unsiz turib qoldi. Yotoqxonaga emas, oshxonaga tomon yurdi. Kichkina stol boshiga kelib suyanchiqsiz o'rindiqqa o'tirar ekan choy-poy kerak emas deganday, qo'lini siltadi. So'ngra biron joyi og'rib, qattiq qiynalganday, yuzlari so'lg'in holda, yerga qarab, sokin ovoz bilan:

— Navnihol! — dedi. — Sen yetti yil bo'yi mening jonimga xotirjamlik baxsh etding... — Tomog'iga nimadir tiqilganday, bir xo'rsinib oldi. — Albatta, men... seni hamma tomonlama ta'minlashim kerak edi...

— Bu nima deganingiz... bu nima deganingiz? — dedi ayol bir yomonlikni ko'ngli sezib.

— Shunday qilish kerak edi, — dedi erkak yana xo'rsinib. — Dunyo bir qolipda turaveradi deb o'ylabmiz. Biroq... hamon umid yo'q emas. Ehtimol, qayta aynalib, hammasi o'rniga tushar. Sen meni kechir, mehribonim...

Ayolning ko'zidan tirqirab yosh chiqib ketdi:

— Nima bo'ldi, og'ajon, nima bo'ldi?

— Hammasidan ayrildim...

— Bosh omon-ku, bosh omon-ku.

— Hozircha omon. Biroq... kimga kerak?

— Unaqa demang. Unaqa demang. Bundan o'n yil oldin shu ayrilgan narsalaringizning birontasi ham bo'lmagan edi-ku! Bo'lgan yo'q. O'zi bergan Xudoyim o'zi oldi!

— Shunaqami? — Erkak qandaydir yangilik ochganday, shalviragan boshini qayta ko'tarib, ayolga tik qaradi. So'ngra yana shalvirab tushdi. — Biroq u paytlarda yosh edim... Boshim ozod edi-da. Endi... boshim savdoga tushib turibdi. O'zimni ehtiyot qilishim kerak. Menda esa... — Erkak achchiq kinoya aralash kuldi. — Kuni kecha oltin pulni supirib olgan menda hozir yo'lkiraga ishlatadigan ko'k tiyin ham yo'q! Hech bo'lmaganda, biron ming dollar bo'lsa, hushyor o'ljaday, yashirinib turar edim. Mana, chuv tushib, ado bo'ldi degani shu. Ertaga — turmada o'tiraman!..

— O'tirma, og'ajon, — dedi ayol jon holatda. — Pul bor. Mana, hozir. — Surina-turtina ichkari uyga yugurdi. Nimanidir qo'porib,

nimanidir ag‘darib, hovliqqancha qayta keldi. — Mana! — dedi qo‘lidagi yo‘l-yo‘l daftar qog‘oziga o‘ralgan uzunchoq, to‘rt burchakli tugunni erkakning qo‘liga berar ekan. — Mana! Bir paytlar, bundan besh yil avval tashlab ketgan o‘zingizning pulingiz! Bir tiyini ham yo‘qolmasdan, o‘z holicha turibdi!

Erkak tugunni qo‘liga olib, sirtidan siypalab, o‘rovini ochar ekan, yuzini bosib egildi-da, ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

— Sen... sen...

Tomog‘iga yosh tiqilib, hech narsa ayta olmadi. Shu holicha yana ozgina o‘tirdi. Shundan so‘ng boshini ilkis ko‘tardi. Ko‘zi qurg‘oq. Alang-jalang qilib yon-veriga qaradi. Pulni qo‘yniga tiqib, yana nimadir izlaganday ichki uyga kirib chiqdi.

— Hammasi o‘sha-o‘sha-ku! — dedi keyin. — Men hali... hali ko‘rsataman ularga! — So‘ng birdan muloyimlashdi. — Omon bo‘l! — dedi ko‘zi yoshlanib. — Ehtimol... qaytib kelarman. — Eshikka qarab yurar ekan, yana to‘xtadi. — Qancha noqulay bo‘lsa ham, sendan kechirim so‘rab ketmoqchi edim. — Qaytadan qo‘yniga qo‘l solib, yopishib qolgan hamyonini sug‘urdi. — Mana bu — huv o‘sha ellik tengelik... Sen yo‘l haqiga to‘lagan. Ezgu ishning elchisi sifatida mudom yonimda saqlar edim. Senda bo‘lsin. Yo‘qotib qo‘yma. — Keyin zo‘raki jilmaydi. — Ikki-uch yildan so‘ng, mana bundan... — bo‘ynini ko‘rsatdi, — ikki-uch hissa, yarim qop yashil qog‘ozga qayta sotib olaman...

— Ko‘cha qorong‘i... Men eshikni ochib turaman, ehtiyot bo‘ling, — dedi ayol.

Zinadagi oyoq tovushlari sekin-asta tingach, ayol eshikni yopdi. Ikki marta burab, ikki qulfni ham mahkam berkitdi. Qo‘lidagi qizil qog‘ozga qarab biroz turib qoldi. Xuddi o‘zi. U olganda bir cheti salgina yirtiq edi. Kichkinagina yaltiroq qog‘oz bilan yopishtirib yelimlab qo‘yibdi. O‘sha holida turibdi.

Ayol o‘tgan kunlarni — keyingi yetti yillik umrini emas, o‘sha umrga yo‘l ochgan dastlabki kun, dastlabki daqiqani esladi. Ellik yetti tenge — bir dollar degandi. Hozirgi bir dollar — yuz ellik bir tenge. Uch hissa tushgan. Ellik tengening o‘ziga ikki dona non sotib olish mumkin. Navbatdagi maoshgacha uch kun

bor. Choy bilan ichib oshqozonni aldashga ikkita non ortig'i bilan yetadi.

Xuddi shu payt telefon jiringlab qoldi. Ayol shoshilmay, sarosimaga tushmay, azoblanmay shahd bilan go'shakni ko'tardi. Hamkasblaridan biri ekan. Ikki-uch kunga yuz tenge qarz so'radi. Ayol beixtiyor kuldi.

— Hozir kerakmi?

— Ertaga darsga kelganda...

— Ellik tenge bor, — dedi ayol vazmin ohangda. — O'rtasidan qoq bo'lsak, ikkovimizga ham yetadi...

SOFI SMATAYEV

(1941)

Sofi Smatayev 1941-yilning 22-iyunida Qarag'anda viloyatining Oqadir tumanidagi Kiyik bekatida dunyoga kelgan. Moskvaning Po'lat va qorishmalar institutini tamomlagan.

Birinchi kitobi — "Astana mash'alalari" she'r va balladalardan iborat. "Elim-ay" roman-trilogiyasi, "Akjelen", "Buloq", "Abadiy ibtido", "Biz qulmizmi, kimmiz?" romanlari, "Olov", "Birinchi dovon", "Hayron yoshlik" qissa va hikoyalar to'plami mavjud.

QO'SHIG'I SHUNDAY MUNGLI EDI!..

Qo'shig'i shunday mungli edi!..

O'sha bir damlarda ko'z qirrasiga qo'sh marjon shudring o'rnashib qolardi. Bir ajablanarlisi: qo'sh tomchi yosh yo uzilib tushmay, yo singib ketmay mallarang uzun kipriklarning uchida dirillab, uzoq yiltillardi.

Ko'kimtir ko'zlardagi g'ira-shira ko'ringan moviy sovutli parda qo'shiqchi qizning tug'ma belgisiday sezilib, erkimizdan mahrum etib, qimir ettirmay o'ziga rom qilib olardi.

Hech bo'lmasa bir so'ziga tushunsak-chi! Tushunmasak ham millati nemis bo'lgandan keyin, qo'shig'ining ham nemischa ekanligini ichimizdan tusmollab, yurakni iydirib qitiqlagan begona bir nafislikning o'zgacha maqomiga qozoq ohanglaridan mosini izlab, xirgoyi qilib qo'shilib, ovora-sarsonga tushib qolar edik.

Odatda uncha ko'p ochilavermaydigan angishvona og'izning lablari so'kildi deguncha, birpasda yoq o'zgarib, kuchayib boraveradi. Haligindagina qip-qizil yalangoyog'i bilan ariqdagi

muzday suvni kechib o'tib, qoshimizga hadiksirab yaqinlashgan musofir qizning o'rnida ingichka ochiq ovozi bilan dirillagan bir jumboq kuyni qalbimizga chimirlata quyib, ajoyib bir jonon turardi.

Qirq sakkizinchi yilning qo'ng'ir kuzi edi. Besh-olti yoshlardagi bizlar, yalangoyoq qor bosib, uy-uyning orasida chug'urlashib yugurib, shuvullashib o'ynashdan asta charchamas edik. Tarnovga bir-bir marjonni raqobatlashganday qo'ndirib olib, bo'zrgan tongdan qizarib kun botgunga qadar tizza bukib, tinim topib ko'rdikmi! Shunday sho'x, chaqqon va hissiyotli chog'imizda uchrattirdik uni biz.

— Alaqay[1]!

— Qor yog'di! Qor!..

— Quyib turibdi!

Dunyoda bola deganlarga pag'a-pag'a qor yog'a boshlasa ham qiziq, yomg'ir ham qiziq. Esing ketib, oftobda qoraygan badanni chart-churt shapaloqlab, o'tkir uchli iyagingni havoga sig'alab ko'zlab, zuvillab bo'sag'adan tashqariga otilasan!

Dastlabki momiqday mayin qor — dastlabki momiq taassurotday. Sekin yog'a boshlagan oq kapalak — oqargan tugunlar o'sha ola-to'qim ko'kdan mo'l-ko'l jo'mardlik bilan quyilgan nur sho'lasiday ust-ustiga quyiladi. Engashib hovuchlab olasan, mushtumingda g'ijimlaysan. Entikib kaftingda tutasan — shilq etib erib ketadi. Halloslab og'zingni ochasan — sovuq yeli yuz-og'zingni qoplab, ta'msiz nam chiqargan tilingning uchidagina qoladi.

Qor — quvonch. Qor — tantana. Qor — intiq bolalikning xos xususiyati.

Bir-birimizni tortqilab, berilib, entikib o'ynab ketdik.

Shu tobda to'satdan qo'shiq eshitildi. Kutilmaganda eshitildi.

Ovoz tiniq, tovush begona.

Tovush mungli, qo'shiq mungli.

Qorni mutloq unutdik. O'yin joyida qoldi. Hayratlangan ko'ngil qalqib ketdi. Alanglab, qo'shiq kelgan tomonga biror narsadan quruq qolganday, yoppasiga dupirlab yugurdik.

[1] **Alaqay** — shodlik, shavq-zavqni bildiruvchi xitob so'z.

Ro‘paramizda qimirlamay turgan kichginagina qizni o‘rab olib to‘xtadik. Yelkasiga yo‘l xaltacha osib olgan. Eskirgan qisqa ko‘ylakning etagi yirim-yirim. Yalangoyoq. Yalangoyoqlik hech qaysimizga tansiq emas. O‘sha paytda o‘zimiz ham qor qotmay, to‘pig‘imizni qirovli tuproqdan boshqaga siypatmaymiz.

Bizni ayniqsa, hayratda qoldirgan — qo‘shiq. Mungli ohangdagi g‘amgin tovush. Ingichka ovozning titrashida yurakka tanish maqom bor, quloqqa yot til bor. Ana shu tovush xolis bir xabar berayotganday bor vujudimizni sekin-asta ivitib, qamrab olib, qism-lab olib ketayotganday edi. Qizning ko‘ziga bir lahza mo‘lt etib qo‘sh tomchi yosh keldi: oq bo‘z tugma munchoqday dirillaydi. G‘amgin ohangdan ma’yus tebrangan ko‘ngil ichidagi besaranjom to‘lqin tashqariga chiqib, ko‘zdagi qo‘sh marjonini uloqtirib-uloq-tirib yuborarmikan? Keng ochilgan ko‘z kosasidagi shaffof yosh ham, sog‘inch tafti ham tinib qolibdi; tiniq naqshning sal-pal sekin-lashgan tusida boyagi hurkak ko‘lanka quyuqlashib, yasanqiragan ko‘zlarni yashirib borardi...

Qo‘shiq qanday tasodifan boshlangan bo‘lsa, shunchalik tez tugadi. Yuqoridan shir etib yetib kelgan, zaiflashgan tananing uzuq nafasi bilan uzulib tushmadi u. Aylanib bir zum parvoz qilgach, pichoq bilan kesganday shart tiyildi.

Tiygan — Tileuqo‘r. Tentak Tileuqo‘r. Bir hovuch qorni changal-lab olib, qizning yelkasi uzra bo‘yniga tashlab yuborsa bo‘ladimi.

Qo‘shiq to‘xtagani bilan, qiz qimir etmadi. Tileuqo‘rga yalt etib burilib, begonaqarash qildi-da, og‘ir... og‘ir ho‘rsindi. O‘zgacha bir g‘alati, bolaga xos bo‘lmagan, ko‘proq keksalikka xos bu ho‘rsi-nish ta’siridanmi yoki boyagi notanish ohangning sirli maqomiga beixtiyor aralashgan dargumon his-tuyg‘ular og‘ushida qolganlik-danmi, hammamiz ham Tileuqo‘rga yoqtirmay qarab, qovog‘imizni uyib oldik. Tileuqo‘r bo‘lsa doimiy odatidan yanglishib qolganini sezib, muloyim ko‘rinishda birdan jim bo‘lib, ikki qo‘lini orqasiga yashiriib oldi.

Qiz esa o‘rnidan qo‘zg‘alar emas. Yalang‘och boldirlari buki-lib-to‘g‘rilanib, moviy ko‘zlarini qor sochgan qora-ola bulutga tikib qolibdi.

Endi qo‘shiq aytiladimi?!

Mungli ohangiga iyib, berilganimizda yetim qizni odatdagiday ayagan edik. Manavi unsiz kuzatib turgan, qo'shig'i bilan bir lahza bo'lsa ham maftun etgan, hatto afsunlab olgan, takabburona qiyofadagi, kekchil kichkina jussaga boqib, o'zimizda qandaydir kuch topdik-da, qaytadan chuvillashib ketdik.

— Bezarib turishini qara!

— Ey, o'zing kimsan?

— Qayerdan kelgan qizsan?

— Nimaga indamaysan?!

— Bir urib, yalp etkazaymi o'zini?!

— Men bilaman. Bu — nemis qizi! Andreyning uyida kecha ko'rganman. Ha, o'sha! — deya shu payt Tileuqo'r oldinga yulqinib chiqdi. Boshqalarimizdan ko'ra yoshi kattaroq Tileuqo'rning bilmaydigani yo'q edi.

— Nemis?!

— Rostmi, ey?!

"Nemis" deganda bola xayolimizda ertakdagi yolg'iz ko'zli, oybolta tishli devni tasavvur qilardik. Ikki lunji qurib, ko'z oldi tumanlangan, obdon toliqqan, chekka sochi hurpaygan, oqargan yuz shu tobda o'sha xayoldagi devning bolasiga o'xshab ketaverdi.

Qizil barmoqlari ayovsiz qattiqlik bilan tars-tars yumildi.

Kim bilsin, "urush!", "o'lim!", "nemis!" deydigan dahshatli tushunchalar dunyoga ko'zimizni tirnab ochgandan buyon atrofimizda bir mungli yig'lash, bir zorlanib o'ksish bilan qulog'imizga quyulib, go'dak yuragimizga dard-alam bo'lib qotgan o'sha azali kunlarning azobi bilan tuzalmay singdimi, kaftday bo'lib keng ochilgan moviy ko'zlardan yaltoqlagan yalinish emas, yotbag'ir yovuzlik ko'rganday sezindik. Tirs etib til qotmay, mung chiqmay o'jarlanib baqraygan qizga aylana to'siq qurib, yaqinlashib kelamiz...

Qizda un yo'q. Ko'zida endi yosh ham yo'q. Qayg'uga botgan qo'sh tomchi shudring ohang bilan birga yo'qolibdi. Ko'zda yosh ko'rmasang, qalbdan kek tarqalarmi?

Bahor paytida g'isht quyish uchun loy oladigan xirmon ichiga tushdik. Qor to'piqdan oshadi. Qor oppoq, tovon qip-qizil. Oppoq qorga qip-qizil qon tomganday. Biroq qizargan qon emas, tovon. Shunda ham kichkinagina qiz bo'shashar emas, sal-pal tortinchoq-

lik belgisi bilinsa ham, tortilgan asablar tez bo‘shab, yuvoshlanib qolaveradigan payt yetib, chetimizdan sillamiz qurib qolgandaymiz. Oyoqdan o‘tgan qattiq, qahrli sovuq o‘zimizning ham chakka tomirimizda “ne-mis!”, “ne-mis!” deb chuqilagani bilan, o‘sha qon oqimi birda “qanday qaysar!” “qay-sar!” deydigan rizolik suyunchi bilan tinchlana boshladi.

— Yuringlar! Ketdik! — dedi Tileuqo‘r. Avvaldan u boshchimiz edi. Tileuqo‘r qo‘l ko‘tarmagandan so‘ng bizlar ham musht ko‘rsatishga vaj topmay turgandik. Keyin tarqaldik.

Shundan keyin qizning ko‘ngli ko‘tarilib jilmaydi. Manglayiga tushgan polapon kokilining uchini silkib, orqaga qayirdida, balan ovozda kuylab yubordi. Haligindagi mungli qo‘shig‘i. Biroq ovozi kuchaydi. Maqomiga ho‘rsinishdan ko‘ra, nozik sog‘inich bo‘yog‘i mo‘l aralashib, parcha-parcha to‘lqinlari bilan yurak torini chertib o‘tdi. Og‘zimiz ochilib, turgan joyimizda qimir etmay unsiz anqayib qolibmiz.

Manavi tiniq ohang bilan har qaysimiz allakimni odatdagiday sog‘inishimiz rost, allakimni allanimaga alanglab izlashimiz aniq. Haligindagina ushlab yeb yuborarday yomon ko‘rgan qizimiz endi o‘zgacha yaqin tortib, iliqlandi.

Jahl va kek olish, ranj bilan qasos go‘dak vujudida qanday tez tutaladigan bo‘lsa, go‘dak yurakning rahmi bilan ezguligi ham shunday ildam qaytar ekan-ku...

Tileuqo‘r sas-sadosiz o‘ng tomonimda qimirlamay turgandi. Izlaganimni topganday ta’sirlangan holimni qo‘llashini kutib do‘stimga burilib, tumshuq ko‘tara boshladim-da... sarosimaga tushib turib qoldim.

Tileuqo‘rning sepkil dog‘li chap yoq yuzidan sirpanib bir tomchi... erigan qorning namligiga o‘xshamaydigan kesak tomchi simobday siljib... uzilib tushdi.

Tileuqor hech qaysimiz kabi yig‘lamasdi. Xafa bo‘lib ho‘rsinmasdi. Shundanmi, Tileuqo‘r yig‘laganda men tetik qo‘shiqni unutdim. Noma’lum his-tuyg‘u bor vujudimni qamrab olib, chimirlatib yubordi. Sal bo‘lmasa tumshug‘im osilib, yig‘lamsirab, o‘zimning ham to‘lib ho‘ngrab yuborishimni fahmladim. Bekordan bekorga Tileuqo‘rning qornidan tortdim. Yoqtirmadimi yoki bosh-

qa sabab bo'ldimi, qo'limni qoqib yubordi. Tileuqo'r o'zgalarga qattiq bo'lgani bilan menga ko'p tegishmaydigan edi. Do'stimning bu yotsiraganiga ishonmadim. Yana yengiga yopishdim. Shu zahoti... jag'imga mushtumi tars etib tushdi.

Ko'z oldim qorong'ilashib, boshimning aylanganinigina bilaman.

Bir payt duvullagan yuzimdan qo'limni olganimda, yonimda qizdan boshqa hech kimning qolmaganini ko'rdim.

Qiz yaqin kelib kulimsirab turgan ekan. Rahmi kelib ayaydimi, muloyimsib mehribonlik ko'rsatayaptimi — ajrata olmadim. Hartugul, sovuqqina ko'kimtir sur yuzdagi sirli jilmayish avval hech uchramagan o'zgachaligi bilan ko'z oldimdan ketmadi.

Yig'lagim yo'q. U paytda yig'lamaganim esimda.

Bolalarga xos bo'lgan xafalikgina yuragimni tirnalaydi.

Qiz bo'lsa indamaydi. Indamasa ham, unsiz kulimsiragani jonimga botib boradi.

Tahqirlaydimi?

Mazaxlaydimi?

Tanamni qalt-qalt dirillatgan izzalik bo'g'di.

Qulochlab bor kuchim bilan qo'yib yubordim. Qo'lim toshga tekkanday saq etib ketdi.

Shu payt... bir zumda ko'rganimni, bir umr unuta olmay kelaman.

Qizning burnidan qon shovullab oqaverdi. Kattalashib, keng ochilib, baqraygan ko'zda qo'rqinch ham, vahima ham yo'q — yolg'izgina ajablanish bilan umidsizlikgina qolgandi. Qoni tomchilagan kichkina burun ham, uchburchaklanib qovushmagan yig'loqi og'iz ham anavi gunohsiz ko'zlarning — xusumati, xafalik, qo'rqinch bilmagan ko'zlarning oldida hech narsa emasdi. Bunday umidsizlik to'la musofirona qarashdan keyin, endi hech qachon ham qo'shiq eshitilmaydiganday, hech vaqtda qo'shiq aytilmaydiganday sezildi.

Ho'ngrab yig'lab yubordim. Ilk marta qandaydir ichki his bilan "odam — qashqir", degan tushunchani o'z fe'limga yo'ridimmi inni yelkam tinimsiz silkinib, to'piq yalagan yum-yumshoq qorni chilp-chilp qorib, qimirlamay turib qolgan qo'shiqchi qizdan uzoqlashib ketdim.

* * *

Shu kuni issig'im ko'tarilib, behush bo'lib yiqildim.

O'shandan boshlab og'rib, qish bo'yi uzoq vaqt to'shakga mixlanib yotdim.

Kasalligimni ba'zi birovlar sovuqdan ko'rdi. Irimchil qariyalar "ko'z tekkan", "suq o'tganga" yo'ydi. Qish ko'zi qirovda ahyon-ahyonda yonimga kelib, sochimni silaydigan katta yoshdagilardan boshqa ko'rinish beradigan hech bir tengdosh-qurdosh bo'lgani yo'q. Ularga kim ahamiyat berib, kim kirgizar edi. Uy-uyining orasida qalanib, uyilib qolgan oq qor qal'ada musobaqalashib sirpanchiq uchgan bolalarning xushchaqchaq shovqinigina qora ko'lanka xonaga bazo'r yetardi.

O'sha qishda opamning tilidan bol tomgan mohir ertakchi ekanligini ko'rganimga hali kungacha quvonaman. Tashqaridagi molni kechga tomon molxona, qo'raga joylashtirib kelib, qozon o'choqqa ko'mir solib, cho'yan qozonchasini o'tga qo'yib, kulimsirab yonimga kelib o'tirardi. Oq chorsisini yelkasi uzra qayta o'rab olib, odatdagi o'rtacha ovozi bilan yangi bir ertakni boshlardi.

Asan Qayg'ining yelday esgan tuyasiga mingashib, behisht izlab bepoyon dalaning chekka-chekkalarigacha kezganda, Qulamerganning qoshida erib oylik yerga ovga chiqqanda ham, yetim Mariyaning jon titratar zoriga sarxushligimda ham zor bo'lib izlaydigan bir intizorimni hech bir odam tushuna olmay qoldi. Bu — mungli qo'shiq edi. Notanish qizning begona unli ohangi edi. Moviy ko'zlarning kirpik uchida dirillaydigan qo'sh marjoni bilan lip etadigan sog'inch to'la ho'ngratishi edi.

Tashqaridagi qiy-chuv bo'lib tarqalayotgan har xil tovushdan mahliyo bo'lib izlagan xohishim ham — o'sha qo'shiqqa aynaldi. Biroq qancha intizor bo'lib kutsam ham, mungli ohang qayta aytilgani yo'q. O'sha yetim qiz ostona xatlab, yonimda ko'ringani yo'q.

Qo'shiq tushimga kiradi. Tushimda u sergak tebranish ila intizor ko'nglimdan joy olardi. Ba'zi-ba'zida o'sha moviy ko'zlarining go'dakcha qarashi ignaday qadalardi. Shunday paytda shoshib uyg'onib, baqirib gapirib, boshimni ko'tarib olardim.

Ovulning hamshira kelinchagi qo'lidan kelganicha davo-amalini qilib ko'rdi, oxiri obdon ixlosi qaytib, bizning uyni mutloq unutdi.

Mening bu dunyolik emasligimga tug'ishgan-qarindosh, og'a-yin-urug' to'la ishonganda ko'klam keldi.

Uydagi o'rama pechning tagidagi siqirlagich karavotda yolg'iz yotibman. Bor ovunchim — ro'paramdagi to'rt oynali derazagina. Yamoq-quroq oynasi moviy ko'zning yosh qalqigan kosasiday namlanib, ko'zlarimni tortib turaverdi. To'satdan... allaqayerdan mungli qo'shiq eshitildi. Hadeganda ovoz tebranishini yenga olmay sag'al pastladi-da, bir lahza ajralib chiqib, balandlab ketdi.

Yuzimni ko'z yoshi yuvdi.

Vujudimni issiq hayajon egalladi.

— Opa-a-a!..

Jonlangan tovushim g'uldiradi:

— Opa-a-a!

Uyga hech kim kirgani yo'q. Karavotning boshidagi yumaloq tutqichidan qanday ushlab, jonim chiqib ketarday, qanday ko'tarilganligimni bilmayman. Bo'g'in-bo'g'inimgacha zirqirab, oldin o'rnimdan tura olmasdim. Birdan o'zgarib ketgan ahvolimga e'tibor beradigan holim yo'q. Gandiraklab, surinib-qoqilib yurib, kiyingan bo'ldim. Qozon o'choqning ustiga quritib qo'ygan dadamning tagi rezina bilan tovonlangan og'ir piymasini oyog'imga sarpoychang kiya solib, taltang-taltang xatlab, tashqariga yuzlandim.

Dastlabki ko'rganim nazarimda oq rangga burkangan olam edi. Yarimqorong'i xonadan chiqqan menga dunyo shu topda faqat yorug' bilan iliqdangina yaralganday sezildimi, ko'zimni chirt yumib, darvoza oldida biroz turib qoldim.

Qo'shiq taralmoqda.

Qo'limni tutqichdan bo'shatdim. Bo'g'in-bo'g'inim chirtillab bir xatladim. Qulamasam edi deyman ichimda. Qulaganim yo'q. Yurib ketdim. Meni entiktirib ilgari sudragan yolg'iz kuch — qo'shiq edi.

Shuvog'i eskirgan pastqam uyning burchagini aylanaverib ko'rganim — to'shakka bog'latgan ana shu olti oydan buyon o'yimga keladigan bir ehtirosli ko'rinish — huddi o'shandagiday tengdoshlarining qurshovida turgan kichkinagina yetim qiz edi.

Qabrdan chiqqan tirik arvohday, og'ir piymani sirg'anata sudratib, halloslab oldiga borganimda bolalar yalt-yult burilib, tillari bog'langanday menga hurpayishib qarab qolishdi.

Qo'shiq ham shartta to'xtadi.

Men to'xtab qolganim yo'q. Izlaganim — qiz, xohlaganim — qo'shiq edi.

Qaltiragan barmoqlarim bilan yup-yuqa kaftidan avaylab ushladim.

Hurkak kiyik bo'lib qolgan qiz mendan seskandimi, ozg'in qo'li bilan ozg'in yuzimga tarsaki tushirdi. Chalqamdan tushdim.

Tileuqo'r darrov yetib kelib, dovdirab qolgan qizga yaqinlashib, unga piching bilan bir nimalar deb, dag'dag'a qila boshladi...

— Te-gi-n-ma! — dedim.

Tovushim o'zimga arang eshitildi.

Nimaga ekanligini bilmayman, odatdagiday xolatdaman. O'rnimdan ko'tarib turg'izgan do'stlarimning yuzlariga navbatma-navbat tikilib, o'z-o'zimdan bayramona kayfiyatga o'tdim. Issig'i bilan yorug'i mo'l yam-yashil ko'klamga yangi tug'ilgan yosh qo'ziday omon yetganimga quvonaymanmi, tengdoshlarim bilan qaytadan uchrashganimga mamnunmanmi, yo musht hidlab, jonimni o'rtagan, o'talmasday ko'ringan qarzimdan qutilganimni his qilamanmi, o'zimcha jilmayaman, huzurlanib kulimsiragan bo'laman.

— Qo'shiq! Qo'-shiq ayt-sin-chi-i!..

Tileuqo'r ziyrak, aytmasdanoq meni uqdi. Xayrixoh bo'lgan qiz Tileuqo'rdan ham hissiyotli ekan, ko'ngildan tushundi-da, qo'shig'ini kuylab ketdi.

Qo'shiq asta ko'tarilib, avjga chiqib bordi. Sog'inchi bilan qayg'usi aralash tanish ohang yuragimni jiz etkizdi. Ko'zini kuzatdim. Lip etib qo'sh marjon kiprik uchiga qo'ndi. Bo'z sadaf munchoqlar boyagisiday yalt-yult tovlanadi.

Kim bilsin, ana shu nozik, oqko'ngil qiz bir o'zi ko'kka parvoz qildimi, otasining yuqori ko'targan qurolli qo'llarini esiga oldimi, yoki onasining ajin bosgan mehrli yuzini sog'inib, taassurotga berildimi, yalt-yult o'ynagan qo'sh tomchiga yanada bora-bora erkini ergashtirib, qiziqtirib olib ketdi.

* * *

O‘sha kundan keyin o‘z holimcha yurib-turishga yaradim. Yarim oy chamasi sheriklarimga ergashib, quvonib qiy-chuvning qizig‘iga o‘z hissamni qo‘shadigan bo‘ldim.

Kasalligimning yuzini qaytargan qudratli kuchning qayerdan kelganligini kattalar anglaganlari yo‘q, hartugul haq taolosiga mamnunligini bildirib, choy-suvi bilan “xudoyisini” atadi.

Jaydari yoz keldi. Kulrang ko‘kda quyosh nuri sochilganda bolalarning o‘yini tugamay, yayragan biz yalangoyoqlar to‘p-to‘p bo‘lib jar yoqalab, o‘yin-kulgidan tinchimadik.

Shu xushchaqchaqlikning o‘zgacha ko‘rki, ajoyib guli — qo‘shiqchi qiz, Emma edi-ku!

Keyin bildik, uning otasi qizil armiya safida urushga qatnashib, Stalingrad ostonasida qahramonlik ko‘rsatib xalok bo‘libdi. Onasi qirq oltinchi yilning erta bahorida bir otar qo‘yni boqib yurib, kuchli bo‘ronda qolib ketib, qahraton sovuqda qotib o‘libdi.

Azali kunlarda yalong‘och kaftning tez-tez mehr bilan ochiladigan odati bo‘lsa kerak. Ovuldagi katta-kichik, qari-yoshning Emmaga ixlosi o‘zgacha bo‘ldi. Qachon ko‘rsang peshonasidan silab, orqasidan qoqib, boshini yuvib, sochini o‘rib yurardi. Biri uzum nonini, ikkinchisi yarim hovuch donini ushlatib, butun ovulning arzandasiga aylantirib yubordi.

Qozoq — avvaldan bag‘rikeng xalq. Uning o‘zgaga deganda o‘zagini sug‘urib beradigan jo‘mardligi, ayniqsa ana shunday qiyin davrda mehr-oqibat va xayrixohligi oshib ketadi. Shu oq niyatli, mehr to‘la ko‘nglini oddiy mehnati bilan, o‘zgarmas ibrati bilan uyg‘unlashtirgan hamyurtlarimga oxirgi nafasimgacha burchli ekanligimni yurak to‘lg‘anishi bilan his etib kelaman.

Yurt yoqtirgan qizni biz ham yotsiragan emasmiz. Emmani har qaysimiz o‘z tug‘ishganimizday, tengdoshimiz, singlimizday ko‘rib, bir-birimizdan qizg‘anib, chaqchaqlashib dovlashadigan kunlarimiz ham bo‘lgan. Shunda Emmaning oppoq yuzida kulgi oynab, qozoqcha, nemischa so‘zlar bilan bizlarni kelishtirib, totuvlashtirib yuradigan quvnoq qiyofasi yodimizda mustahkam saqlanib qolibdi.

So‘z demoqchi, so‘z manbayi ham tez o‘zgaruvchan. Go‘dak ko‘nglining pokligi qattiqlik bilan yovuzlikka qalqon qo‘ygich mehrliligi bilan qudratlanib ketadimi, endi bizning qulog‘imizga “nemis” so‘zi avvalgiday xunuk eshitilmasdi.

Yetimlikning ham yelkadan tushmaydigan yetti botmon yuk bo‘lishini hech birimiz unchalik his qila olmaganmiz. Sababi, qurdosh-tengdoshlarimizning ikkisidan biri otasiz o‘sgan edi. Ularning ota issiq kaftining siypalashidan mahrum manglaylari o‘sha paytda boshqalarimiznikidan bo‘lakmidi? Yo‘q. Bolalikning olaligi bo‘lmaydi. Shuning uchun ham Emmaning yetimligini unutdik.

Shamol o‘rtasidagi yelkanday yolg‘iz yurganda yuzi bo‘zarib, moviy ko‘zlarida ketmas mung yotar edi, yurtning yurak taftidan bahramand bo‘lishi bilanoq, erta ko‘klamdagi lolalarday yashnardi. Yuziga rang kirib, ko‘zidan uchqun chaqnardi. Jaranglagan kulgisi surnaydan afzalroq bo‘lgan xush ohangni topdi.

U tilni ham ajabtovur o‘rganib oldi. Ba’zan odatdagiday qozoq qo‘shiqlarini maromida aytadigan bo‘ldi.

Emma boshqalardan ko‘ra Tileuqo‘r ikkimizni o‘ziga yaqin olardi.

Bir kuni Qorasuvning qirg‘og‘ida suv so‘rgan qizg‘ish qoramtir tanamizni quyoshga quritib, qizdirib yotgan edik, Tileuqo‘r meni turtib qoldi:

— Ana, ko‘kang kelayapti!

O‘rnimdan irg‘ib turdim. Uzun ishtonimning pochasini qaytarar-qaytarmas, hovliqib jo‘nadim.

Dadam — parovoz mashinisti edi. Ba’zan ikki-uch kunlik reysga chiqib, so‘ng sog‘intirib qaytadi.

Hansirab kelishim bilan ko‘kemning bo‘yniga osila ketdim. Ko‘mir hidi, mazut hidi obdon singgan formali kitelining yoqasiga tumshug‘imni tiqaman, haligi hidlarni yutaman.

— Bo‘ldi, o‘g‘lim, bo‘ldi! Ana, burningni moylab olding.

Ko‘kemning odatdagi aytadigani shu. Quyosh singgan kokilimdan tortinmay hidlab, bag‘riga bosganda, qo‘ng‘ir ko‘zlaridan nur yog‘ardi.

— Kuzda o‘qishga borishingni bilasanmi?

— Ha, ko‘ke!

— Ma, yo‘qotib qo‘yma!

Ko‘kem qo‘limga bir tomoni ko‘k, bir tomoni qizil tusli ikkita qalamni ushlatdi. Rangli qalam tugul, oddiy qalamning taqchil payti edi-ku. Dunyoning bor boyligini yolg‘iz egallaganimday sakrab-sakrab yubordim.

— Bor! Boraqol endi...

Bolaning quvonchi ota mehri bo‘lsa kerak. Ko‘zlari bilan erkalagan ko‘kemni boshim bilan suzganday bir turtib, sheriklarimning qoshiga chiranib keldim.

— Mana, mana! Qalam! Rangli qa-lam!

Boyadan beri biz tomonga ko‘zlarini uzmayotgan do‘stlarim unchalik hayron qolganlari yo‘q. Ba’zilari teskari qarab ag‘anashdi, yana birovlari joylaridan oqsoqlanib ko‘tarilib, qora suvga gup-gup sho‘ng‘ishdi. Tileuqo‘rgina qo‘lini unsiz cho‘zib, qalamlarga barmoq uchuni tekkazdi.

— Yaxshi o‘qi.

Emmaga burildim. Oqchalov sochi yelkasini yopib, mening dadamga tikilib turgan ekan. Shundagina bolalarning bunday unsiz holatini fahmladim.

Yo‘q. Yetimlikni biz unutganimiz bilan, yetimlarning o‘zi unuta olmas ekan. Unuttirmaydigan chipqonning vaji ko‘p ekan. Turgan yerimda Emmaga yuzlanib, astagina yelkasidan tortdim.

— O‘qiysan-ku! — dedi u.

— Ha. Emma, sen ham o‘qiysan. Ha! Birga o‘qiymiz. Birga o‘tiramiz. Ha shunday, Emma!

— Qog‘oz, qalamim yo‘q...

Buni u o‘zgacha bir tortinish, iymanish bilan aytdi.

— Ma! Bittasini sen ol, Emma, — dedim men.

Emma quvonib ketdi. Qo‘liga tekkan birini kaftiga qisdi-da, boshini qimirlatib, sochini qayirdi. Kulimsiragan holda kuylab yubordi.

Avvalgi tanish qo‘shig‘i, tanish ohangi. Biz jimjit, mudroq holatda uning avvalgiday yurakni chimchilaydigan mungli ohangini betoqatlik bilan kutgan edik.

Yo‘q. Begona ovozli bu qo‘shiqning ohangi o‘zgacha edi. Quloqqa yoqimli tebranishi, yurakka yaqin to‘lqini quvonch bilan suyinish baxsh etadigan ajib naqshi bilan asta-sekin jildirab chiqardi.

Huddi shu safar kiprik uchida miltillaydigan qo‘sh marjonni ko‘ra olmaydigandirman deydigan ishonchga odatdagiday ko‘nika boshlagan chog‘da... oq sur sadaf — qo‘sh tomchi ko‘z jiyagiga yumalanib-yumalanib qo‘nib qoldi.

Olqish, minnatdorlik yoshini ko‘rganlaringiz bormi?

Moviy ko‘zlarni yarqiratib, tubsiz tumanlangan ko‘lankasidan biryo‘la ajratib, haligi qo‘sh marjon — qo‘sh qudrat barchamizni o‘ziga mahliyo etdi. Vujuddagi jo‘shqinlik o‘zgarganda yurakdan ijro etiladigan qo‘shiqning boshqacha bezak, boshqacha maromini qalbdan his etib, qimirlashga jur’at eta olmay, bunday ta’sirli va maroqli ohangni osmon-u falakdan izlaganday, iyaklar yuqori ko‘tarib parvozlanayotgandekmiz...

Kechga yaqin, qaytarda Emma yonimga yaqinlashib, qalamni unsiz qo‘limga ushlatdi.

— Nimaga berayapsan?

— Senda tura tursin. Keyin olaman-ku. Bo‘lmasa yo‘qolib qolishi mumkin.

— Ha, Emma, unda men ikkalovini ham bekitib qo‘yaman.

— Bekitib qo‘y...

* * *

Oradan o‘n kunlar o‘tdi.

Dahlizdagi yumaloq stolni o‘rtaga qo‘yib olib, ertalabki nonushtaga endi o‘tirgan edik, entikib Tileuqo‘r kirib keldi. Bo‘sag‘adan hatlar-hatlamasdan, iyagini qimirlatib menga ishora berdi-da, qaytib chiqib ketdi.

Tileuqo‘rning bekorga chaqirmasligini bilaman, og‘zimga olib borayotgan piyolamni oldimga qo‘ya solib, tashqariga intildim. Tileuqo‘rning ko‘zi pirpirardi.

— Emma ketmoqchi bo‘layapti.

— Qayerga?

— Shahardan komissiya kelibdi deyishdi... Bolalar uyiga olib ketmoqchi bo‘lishsa kerak.

— Hozir... men... hozir... — undan nari bo‘g‘zimga qandaydir tugun tiqilib qolganday, nafasim qisilib ketdi.

Uyga yugurib kirdim. To‘shak orasiga qo‘l suqib, qalamlarni izay boshladim.

Shoshilganda topila qolarmikin, jon-jahdim bilan ko‘rpalarni u yoq-bu yoqqa uloqtirdim.

— Nima izlayapsan? Nima bo‘lib qoldi?

— Tinchlikmi, bolam-ey? Aytsangchi!

Dadam bilan oyimga javob beradigan holim yo‘q! Qalamning birini kaftimga toshday qisib olib, eshikni ham yopmasdan, Tileuqo‘rga ergashib, bir chaqrimday keladigan joydagi stansiyaga yugurib keldim.

— Tez! Bo‘lsng-chi, sudralmay! Qolib ketdik-ku! — deydi Tileuqo‘r.

Do‘stimning oyoq boldiri uzun. Arqon bo‘yi zuvlab o‘zib borib, meni ayaydimi, to‘xtab kutib turdi. Kutib oldi-da, chidamasdan haligi so‘zlarini qaytaladi.

Qushday uchib kela olmasdim. Qishdagi surunkali davom etgan kasallik ilik-iligimning yog‘ini uzib tashlaganmi, bir pasda bo‘g‘zim tiqilib, peshonamdan achchiq ter oqib, kuch-quvvatim tugab, qulayotgandayman.

Bir payt “Junli”ning qo‘chqor tumshug‘ining panasidan yalt etib poyezd ko‘rindi. Yashil vagonlarining yarq-yurqi ko‘payib yaqinlashib qoldi. Yo‘lovchi poyezdi bizning stansiyada bor-yo‘g‘i ikki daqiqa to‘xtar ekan.

Ikki daqiqa...

Inson hayotining bir lahzada o‘lchanadigan qimmatli damlari bo‘lishini uqdirgan shu ikki daqiqa mening ham ko‘nglimni bo‘shashtirib yubordi.

Poyezd ozgina vaqt to‘xtadi-da, yurib ketdi.

Stansiya oldida parovozning atrofni qoplagan quyuq qora tutunigina qoldi.

O‘rta yo‘lda buklanib borib yiqilib, yerni tirnalab, o‘ksib-o‘ksib yotib qoldim.

Qulog‘imda Tileuqo‘rning yig‘lamsirab yupatgan tovushi, parovozning achchiq hangrashi, o‘zimning bo‘g‘zimni qisgan

o‘kinch alami ust-ustiga jaranglab turardi. Bir payt elas-elas qo‘shiq eshitila boshladi. Emmaning qo‘shig‘i. Endigi u ushalmas armonning o‘kinchli o‘ksigiga ham, sog‘inchi tugamas shirin bolalikning alvidosiga ham, o‘sha oldimdan sharpa berib, ilgari yetaklagan xayollar dukuriga ham o‘xshardi...

Emmaning qo‘shig‘ini o‘shandan keyin qayta eshitganim yo‘q.

Mening qo‘shig‘im qachon aytilar ekan? Aytilsa — Emmaga bag‘ishlar edim.

Ikki qalamning biri stolimning tortmasida shu kungacha yozishni boshlamay yotibdi.

KADIRBEK SEGIZBAYULI

(1941)

Kadirbek Segizbayuli 1941-yil 1-mayda Sharqiy Qozog'iston viloyatining Zaysan tumanidagi Jarsuv ovulida tug'ilgan. 1967-yilda Qozoq davlat universitetini tugatgan.

"Biz shaharda yashaymiz" (1983), "Yo'l" (1984), "Dovon" (2001), "Taqdir to'lqini" (2020) romanlari, o'ndan ortiq qissa, o'ttizga yaqin hikoyalar muallifi.

O'SHAG'AN ISYONI

Oqsoqol ikki-uch kun davomida hech kim bilan deyarli gaplashmadi, o'zi bilan o'zi bo'lib yurdi. Oxiri peshin chog'ida kenja o'g'lini yuborib, ham yordamchisi, ham ko'p yillik qadrdon do'sti Quttiboyni chaqirdi.

— Quttiboy, yigitlarni to'pla, hozir yo'lga chiqamiz. Mening Ko'kqashqa yo'rg'amni egarlashsin. Bugun jonivorga oxirgi marta egar solmoqchiman... Mening Oqburilimni yetaklab olarsan, — dedi qisqagina.

"Kun peshindan oqqanda biy og'amiz qanday to'y, qanday tomoshaga bormoqchi? Ko'kqashqa biyinggina emas, ovulning, yo'q, butun urug'doshlarining faxri bo'lib, kelishgan va yo'rg'a bo'lgani uchun biy uni mashhur to'ylar va ma'rakalarga, el og'alari jam bo'ladigan yer dovi kabi muhim kengashlarga minardi. Ovul ichida uni ko'p minmasdi-ku", deb o'yladi Quttiboy eshikdan chiqaverishda. Uning: "Bugun jonivorga oxirgi marta egar urmoqchiman", degan gapiga izoh topolmadi. Bu kamdek ardoqlilari hisoblanmish Segizboy oqsoqolning nega muncha xomush bo'lib, qanday muammoga javob topolmasdan yurganini o'zicha taxmin qiladi. Oqsoqolning uni Bo'qatoy ismli keksa biyga maxsus jo'natib maslahat so'raganini, keksa biyning jumboqli javobini eshitgan-

dan keyin voqeaning O'shag'on ismli miskinning taqdiriga bog'liq ekan-da, deb xulosa chiqargan.

Go'zal to'qoli Qamqa keyingi ikki-uch kundan beri qovog'i soliq, yog'adigan bulutdek xo'mrayib yurgan oila boshlig'i so'ragan suvsar bo'rkini, ko'kimtir beqasam bilan astarlangan to'nini va naqshli yumshoq cholvorini kiydirib, beliga kumush bilan bezalgan yalpoq kamarini bog'lab berdi. Shunda ham "Qayoqqa borayapsiz?", deb so'rashga botinmadi.

Qayoqqa yo'l olsa ham Quttiboy boshlagan to'rt-besh navkari hamda xalq o'rtasida uncha-muncha bo'lib turadigan mayda-chuyda janjallarga aralashadigan, xo'jayinni himoya qiladigan qurolli yigitlar ham otlariga o'tirishdi. Ular: "Qayoqqa boramiz?", deb ortiqcha savol berishga odatlanishmagan. Hamma "Ko'kqashqa" deb ataydigan biy o'tirgan bo'z 'ayg'ir otlarni ergashtiradigan bir maromdagi yo'rg'asi bilan yelkandek suzib, eng oldinda ketib bormoqda.

— Biy og'amiz bunday tund holda yo'lga chiqmasdi. Nima bo'ldi o'zi? Nima bilasiz? Sizni ikki kun avval Bo'qatoy biyga jo'natdi deyishgandi, — deb yigitlarning biri Quttiboyga qaradi. — Har holda biy og'amizni o'ylantirib yurgan muammo uchun sizni keksa biyga yuborgandir, deb o'ylayman.

— Senlarni intiq qilish niyatim yo'q, — deb Quttiboy otning jilovini tortdi. U bilan yonma-yon kelayotgan navkarlarning hammasi unga qarab qolishdi. — Segizboy biy og'amizning Sho'tan to'raning qizini uzatish to'yining dastlabki kungi tomoshasida ishtirok etib kelgandan keyin kayfiyati yo'qligini sezgandim. Buning sababini o'zimni To'rtuvilning To'xtag'ulidan boshlab qozilik qilib, Aldabaraqning ikki jilovi, bir chilvirini tutgan, vaqtida o'ziga gard yuqtirmagan, bugun keksayib qolgan Bo'qatay otaga jo'natib, maslahat so'raganidan bildim. Dov desam, dov emas, yov desam, yov emas, hamma gap O'shag'an ismli to'langit yigitiga Sho'tan to'raning qilgan kasofatli xiyonatidan boshlanganga o'xshaydi. Biy og'amizning keksa biydan: "Ota-bobolarimiz odatida uzatilajak qizning oilasiga birovning o'g'lini qul, qizini cho'ri qilib yuborish bormidi? Yo'q bo'lsa, tavakkal deb tosh yutib, to'rani jazolab,

o‘g‘il va qizni qutqarib olsak. To‘ralarning qarshiligiga bardosh bera olamizmi? El nomusi — er nomusi. Tavakkalga bel bog‘lasak, keksa biy nima derkin”, deb aytgan edi. Men biy og‘amizning so‘zini Bo‘qatoy oqsoqolga aytganimda, saksondan oshib ketgan nuroniy otaxon soqolini silab o‘tirib, istehzoli kulib qo‘ydi.

— Biyning “El nomusi — er nomusi” degan gapiga ko‘ra O‘shag‘an begona emas, shekilli? — deb so‘radi.

— Ha, — dedim va u kishiga o‘zim bilgan holat haqida batafsil aytib berishga harakat qildim. — O‘shag‘an ismli kishi ilgari Zaysan o‘lkasidan jung‘orlarni qozoq botirlari quvib chiqqandan keyin Qalbani makon tutgan To‘rtuvilning Yettiemil bobosidan, Jaqov urug‘idan tarqalgan avlodi hamda shu maskanga kelib joylashganlardan biri ekan. U shu yerdagi Sho‘tan to‘raning to‘langitlaridan biri ekan. To‘ralarning Allohdan boshqani tan olishni istamaydigan dag‘alligi bor-ku. To‘y vaqtida bizning biy og‘amiz Segizboy janoblari va Tuzoqchi avlodidan Nazar biy oldiga O‘shag‘an ismli to‘langit yigiti yig‘lab kelibdi. “Minglab To‘rtuvilning orini himoya qilib, ahdida qat’iy turgan, qadri baland biylarim! Suyakka tushgan tamg‘ani ketkazadigan, inson hali guvohi bo‘lmagan to‘raning zo‘ravonligi va xo‘rligidan ajratib olguvchi jon bormikan? Hali o‘z qo‘li og‘ziga yetmagan, peshonamdagi yolg‘iz o‘g‘lim falokatga duchor bo‘lmoqda. Sho‘tan uni va yana bir qizni Qulekening qiziga qo‘shib uzatilayotgan uyiga, birini qul, birini cho‘ri qilib yubormoqchi”, deb fig‘on chekibdi. Bu ikkisi Qambar to‘ra vafotidan keyin valiahd bo‘lgan Boyjigit va olti Jumiqqa o‘z hukmini o‘tkazayotgan uning o‘g‘li Sho‘tan va uning qudasi Quleke to‘ralarga uchrashib, qullik va cho‘rilikka kishi yuborish qozoq xalqining rusumida mutlaqo yo‘q ekanini, shuning uchun bunday ahdni bekor qilishlarini ohista iltimos qilishibdi. Lekin ikkala to‘ra: “Aytdik bo‘ldi, kesdik uzildi”, deb o‘z so‘zlaridan qaytishmabdi. To‘ralar insoniy muomalaga quloq solmagach, ikki biy to‘yni tashlab kelganga va bir tavakkal ishga bel bog‘laganga o‘xshaydi.

Bo‘qatoy biy bobo ikki ko‘zini yumib biroz vaqt o‘tirdi va shunday dedi:

— Nazar va Segizim bor bo'lsa, el orini yo'qotmas egizim bor, bobolar urfidan qaytmas negizim bor, — deb yuribman. — Bu ikkisi mendan maslahat so'rash uchun seni jo'natmagan. Balki o'zlarining tavakkal ishlari uchun kayvoni yoshimni, oppoq boshimni hurmat qilib, mening oldimdan o'tganlari, deb bilaman. To'ra bolalari Tangriga eng yaqin kishilar degan tushuncha yo'q. Ajdodlari Chingizxon ham o'z aqli va zukkoligi orqasida baxtga erishgan, oltin taxtga yetishgan oddiy banda, shiddatli inson farzandi edi. Bugungi to'ralar boshlaridan oshib borayotsa, toshib borayotsa, Qora Irtish ham qor suvi bilan to'lib-toshadi, haybat soladi. Qor suvi tugagach, yuvosh bo'lib qoladi. Qozoq xalqida to'ralarning oshib-toshganini bosadigan shiddat tugamasligi kerak. Men bilsam, bu faqat To'rtuvilning emas, butun qozoq eli uchun ham uyat ish bo'ldi. Boshqa gapim yo'q, — deb yostig'iga yonboshlabdi.

— Ha, ha, biy og'amizning ichiga o'rnashib olgan tugun shu ekan-da. Nazar biyning Sho'tanning to'yidan keyin biy og'aning uyida tunab qolib, ikkisining alohida xonada uzoq gaplashganining siri ham shundadir. Sho'tan va Quleke to'ralarni muomalaga keltirishni o'ylashgan ekan, — deb navkarlarning biri taxminini aytdi.

— Bas, yigitlar, biy og'am uzoqroqqa ketib qolibdi. Yetib olaylik. Mening aytganlarim shu yerda qolsin. — Quttiboy Oqjonning baland qumtepasiga chiqib borayotgan Segizboy biyga yetib olish niyatida otiga qamchi urdi.

Biy og'alari Ko'kqashqadan tushib, botayotgan kunga qarab turgan.

— Quttiboy, Ko'kqashqaning egar-jabdug'ini olib, yetovingdagi Oqburilni egarlab qo'ygin.

Yordamchisi aytganini bajarib bo'lgandan keyin, qo'lini ochib, qattiq ovozda gapira boshladi. Fotiha qilmoqchi, degandek hamrohlari ham qo'llarini ko'tarishdi.

— Yaratgan Egam, Allohi taolom, sakkiz o'g'il berding, sakkiz ming yilqi berding. Xalqimning so'zini tutadigan til ham berding. Mening hech nolay-u fig'onim yo'q. Yurt ori uchun bir tavakkalga bel bog'ladim. Agar qilgan ishim xato bo'lsa, mening jazoyimni bergaysan, to'raning ishi xato bo'lsa, uning jazosini bergin! Shu

qadam uchun jonajon hamrohim, hech yozug'i yo'q Ko'kqashqani qurbonlikka berdim, — deb qinidan xanjarini oldi va ot jonivorning tomog'idan kesib yubordi.

O'zini farzandidek boqib, avaylab parvarishlagan egasidan bunday shafqatsizlikni kutmagan Ko'kqashqa tomog'idan qizil qoni shovullagan holda chinqiriq bir vahshiy ovoz chiqardi-da, bir sapchib "gurs" etib yiqildi. Ko'zlari qizarib, boshini quchoqlab, ko'z yoshi soqoliga tomib turgan egasiga oxirgi marta qarab, jumbog'i ko'p inson farzandining, o'z egasining bu ishini tushunmagan holda, bir marta xirillab, harakatsiz qoldi.

— Ko'p yillar davomida qadrdon hamrohim, sodiq do'stim, doimo maqtanib yurgan yozuqsiz jonivorim, Ko'kqashqam, eng qimmat xazinamdek bo'lsang ham tavakkal bilan boshlamoqchi bo'lgan ishimning yo'lida qurbon qildim seni. Qambar ota, men gunohkorni kechirgin, — deb u qizargan ko'zlarini yigitlar tomoniga qaratdi.

— Jonivorning ko'zini qarg'a-quzg'un cho'qimasin. Yigitlarni yuborib, qumni chuqur qazib ko'mdir! Ustidagi qumni shamol uchirmasligi uchun tosh yig'ib qo'ysin.

U endi Quttiboyga qaradi.

— Sen, Quttiboy, ertaga navkarlarni ergashtirib, "ov"ga borasanlar. Odamni qo'ygin, hatto Xudoni tan olishni istamay yurgan "o'lja"ning yirigi — Sho'tan to'rani ovlashga chiqasanlar. "Avomdan qiz olmaymiz" degan to'ralarning yaramas odatlari bo'yicha Qambarning o'g'li, Boyjigit elining to'rasi Sho'tan mirzo amakivachchasi Qulekening o'g'liga qizini uzatmoqda. Uni qozoqning avlodlar osha davom etib kelayotgan tartibni buzganligi uchun jazolash fikridaman. Sho'tan to'ra ikki-uch kundan beri Irtish sohilida qush ovlab yuribdi deyishadi. Uni tutib mening oldimga olib kelinglar. Kuch ishlatmang, urib-so'kmanglar, hech kimga bildirmasdan, bir o'zi qolgan vaqtda shov-shuvsiz qo'lga olinglar.

Biy gapim tamom degandek, otiga minib ovul tomonga ketdi.

O'sha kundan boshlab beayb pichoqqa tushgan yo'rg'a ko'milgan Oqjo'ndagi eng baland tepalik "Bo'zayg'ir tepaligi" deb ataladi.

* * *

Ertasiga tushlikka yaqin Sho'tan to'rani Segizboy biyning yigitlari tutib olib kelishdi. Katta-kichikning hammasi faqat o'ziga salom berishiga odatlangan to'ra namatning ustiga yozilgan ayiq terisini yonboshiga bosib, juft par yostiqqa yonboshlab yotgan biyning yuziga o'qrayib qaradi, lekin salom berishni xayoliga keltirmadi. Biyga salom berish o'rniga, o'jarlanib, hukmdorona vajohatini ko'rsatmoqchi bo'ldi.

— Oy-kuning omonligida meni haydab olib kelganing boisi nima, biy?! Yoki to'ra farzandi sening qo'g'irchog'ingmi? Bu nizoning boshlanishi bo'lsa, buni ochiq ayt. Suyagimga tushgan bu tamg'ani o'lsam ham unutmasman.

Segizboy shoshmasdan boshini ko'tarib o'tirdi.

— To'ram, achchig'ingni bosgin-da, o'tirib ol. Tik turgan kishi o'tirgan odamning so'ziga tushunmas. To'ramiz deb to'rimizga chiqargandik, to'rimizni oz deb tepamizga chiqib oldinglar. Chidamning ham chegarasi bor. Xon avlodidan bo'lsang ham, bizlarni "avom" atasanglar ham, bunga qanoat qilmasdan o'zlaringning qozoq ekanliklaringni unutib, xalqning urf-odatini buzib, qarindoshga qizingni uzatyapsan. Bu ishing boshqalarga ham saboq bo'lsin deb seni jazolayman. Bu — birinchi. Ikinchidan, hammamiz ham odamning emas, Allohning qulimiz. Birovlarning ikki farzandini qul va cho'ri qilib jo'natmoqchi bo'lganliging uchun ham jazo bor. Uchinchidan, shu elning ikki jilovini, bir chilvirini ushlagan ikki biyning so'zini Quleke ikkoving pisand qilmadinglar. O'shag'an kabi to'langit yigitning ko'z yoshiga parvo qilmadinglar, oyoqlaringga yiqilib, yalinsa ham, manmanlik qilib, uni odam o'rnida ko'rmadinglar. Uylaringdan haydab chiqaribsanlar. — U qush ovlab, yuzi shamolda qoraygan, undan haydab kelingan, obdon chanqagan to'ra oldida jo'rttaga qilgandek boyvuchchasiga bir kosa qimiz quydirib, shoshmasdan ichdi. — Qozoq uyga kirgan ilonning boshiga sut quyib chiqaradi. Qimiz ichishni xohlasang o'tir.

— Ichmayman! Sening qimizningni ichguncha, zahar ichganim ma'qul, — dedi to'ra o'jarlik bilan. — Bu ishining uchun meni tutib keltirgan yugurdaklaringga qo'shib jazongni berdiraman, Segizboyim.

— Mayli, kim kimga jazo berishini yolg‘iz Alloh biladi. Boyvuchcha, — u rafiqasiga qaradi, — manavi kishini tutib keltirgan yigitlarga dasturxon yozib, qimiz bergin.

U juda sabrli edi. Xuddi bir quvnoq mashvaratda o‘tirgandek ovozini balandlatmasdan, ohista davom etdi:

— To‘ram, otang Qambarning xalqqa ko‘rsatgan ba’zi nojo‘ya harakatlari bo‘lgan, lekin yaxshiligi ko‘proq ekanligini bilaman. “Yomondan yaxshi tug‘iladi, kishiga aytsang ishonmas, yaxshidan yomon tug‘ilar, bir teriga arzimas”, degan bobolarimiz. Sen qaysi biriga mansubsan? Mening bilishimcha, sen ikkinchisi bo‘larsan... Yigitlar, men to‘raga atab “sovg‘a” tayyorlaganman. Yo‘g‘on-yo‘g‘on olti xodani atayin o‘rmondan kestirib kelganman. To‘rani otiga mindirib, olti xodani oldiga qo‘yib, qudasining ovuliga olib boringlar. Xodalarning birortasini yo‘lda tushirib qo‘ysa, obdon savalanglar. O‘zim javob beraman.

Biy yigitlarga “aytganimni bajaringlar”, degandek imo qildi. Quttiboyga esa: “Sen to‘xtab turgin”, dedi.

— Quttiboy, bir ishga tavakkal qilmoqdaman. Buning oxiri cho‘zilgan uzoq dovga, ehtimol, qurbonlar bo‘lguvchi kurashga aylanar. Lekin qachongacha bo‘ynimizni egib yuramiz. Biz ham kuchli xalq ekanimizni ularning yodiga solib qo‘ymog‘imiz lozim. Sho‘tan to‘raga qudasining ovuliga xoda berib yuborganimiz hech unutilmaydigan jazo bo‘ldi. Lekin bu boshlanishi, xolos. Shuning uchun bugun kechasi borib O‘shag‘anni oilasi bilan ko‘chirib kelgin. Quleke kuchli bo‘lsa, qul va cho‘ri qilib yuboradigan o‘g‘il-qizni mening qo‘limdan olib ko‘rsin.

Kech botib qolganda to‘ra yigitlari qush oviga ketib, izsiz yo‘qolgan Sho‘tanni izlab u yoqdan bu yoqqa zir yugurib yurganda bir to‘da otliqning oldiga tushib, olti xodani otiga o‘ngarib kelayotgan to‘ralarini ko‘radi.

— To‘raning o‘zicha kekkayib yurgani bir gap ekan. Uning joni shirinligi bilindi. Xodalarning birini tushirmasdan Qulekening eshigigacha bordi, — deb kuldi Aydabo‘l ismli yigit. — Faqat navkarlarini ko‘rgandan keyingina chiranib: “Senlarga Segizboyning suyagini o‘ngartaman. Shunday deb aytinglar”, dedi.

— Mayli, to‘ra ko‘tarib turgan osmonini ustimizga tashlab yuborsin, buni ham ko‘rarmiz, — dedi biy qisqa qilib.

O‘sha kuni tong oqara boshlaganda yolg‘iz tuyasiga ko‘chini ortib, yigitlar O‘shag‘anni ko‘chirib keldi.

— Endi zo‘ravonlik tugadi. “Begonaman, yotman”, deb o‘ylama. Ikkimiz ham To‘rtuvilning o‘g‘li, bizning yettinchi bobomiz Andabaraqdan tarqalib o‘sgan katta daraxtning bir-bir butasimiz. Jigarim deb bag‘rimga tortdim. Bu ovulda betashvish, xotirjam yashash imkoning bor. Kam-u ko‘sting bo‘lsa Quttiboy senga yordam beradi, — deb biy Quttiboyga qaradi. — Mening molimdan ikki qulunli biya, ikki sog‘in sigir, ikki minishga yaroqli ot ber. Bolalarining ham g‘amini yenglar. Go‘shtdan kanda bo‘lmasin. O‘zi xohlagancha, o‘n besh-yigirma qo‘y-qo‘zi beringlar. O‘ziniki bo‘lsa yaxshi bo‘ladi. Safimizga qo‘shilib tinchgina yashasin.

— Biy og‘a, qanday minnatdorchilik bildiraman? Bu yaxshiligingiz Allohdan qaytsin. So‘nggi nafasimgacha sizni pirim degayman, — deb O‘shag‘an yig‘lab yubordi.

* * *

Segizboy biyning to‘ralar bilan nizosi birinchisi emasdi. Sho‘tanning otasi Qambar to‘ra hayot edi. Mang‘iroqning Qoraqo‘ynini, Kishkentovning ancha yerlariga egallanib, Tarbag‘ataydagi Bayjigit elini boshqarib o‘tirgan vaqtlar. U qo‘l ostiga tortgan turli urug‘larning aholisidan otasi Saniyozning nomida urug‘ tashkil etib, bo‘lib-to‘lib, faqat Naymandagina emas, Abaq Kerey o‘rtasida ham so‘zini o‘tkazib, obro‘sini to‘ldirib yurgan chog‘lar.

Oqjo‘nda yashaydigan Segizboyga Qambarning bir to‘langiti kelib shikoyat qildi. To‘raning o‘zi bo‘lmasa ham atrofidagi gumashtalari uni o‘tirsa o‘poq, tursa so‘poq deb, faqat o‘ziga emas, bola-chaqasiga ham zulm o‘tkazibdi. Biy unga yordam berishdan bosh tortolmaydi. O‘zini yarim podshodek his qiladigan to‘raga qanday gap aytishni o‘ylaydi. Oxiri Quttiboyni Mangiroqdagi maslahatchisi Tuzoqchi Nazar biyga yuborib, maslahat so‘raydi.

Nazar Janoquli bolaligidan shijoatli, olg‘ir, bezoriroq bo‘lib o‘sgan yigit edi. Lekin bobosi ham, otasi ham so‘z ustasi bo‘lib, har qanday dovni so‘z bilan bartaraf etardi. Qon bilan kirgan fazilat bir

kuni yuzaga chiqadi. Uning shumlik bilan xayrlashib, otasi izidan notiqlik yo'liga tushishiga yelkasi yerga tegmagan to'qson yoshli polvon hamda chechan Bulanboy Qo'lboyuli ismli oqsoqol sababchi bo'lgan deyishadi. O'spirin Nazar ovullarni aylanib yurganda tuya uyuri oldidan o'tib borayotgan ekan. O'ziga qarab chopib kelayotgan nortuyani ko'radi. Tepalik ustida turgan kishi: "Bolam, menga qarab chop", — deb baqiradi. Lekin nortuya yaqinlashib qolganda Nazar o'rnida to'xtab qoladi. Otining yolini tishlamoqchi bo'lganda qalin qamchi bilan tuyaning peshonasiga uradi. Tuya gandiraklab qoladi. Keyin qaroqchidek qaqqayib turgan tuyachini odamga yuguradigan nortuyasi uchun savalab, tuyalarini uzoqqa haydab ketmoq niyatida hovliqib qamchi ko'targanida u yigitni otning ustidan yulib oladi va tizzasi bilan bosadi.

— Qarg'ish yeysanmi yoki qamchi? —deydi.

— Oqsoqol, qari ekanligingizni qalin kiyimingizdan bilmay qolibman. Afv etgaysiz. Nortuyangizni o'ldirib qo'ydim. Hurmatingizni bilmasdan sizga qo'l ko'tardim. Aybimni kechiring, kechira olmasangiz boshimni kesing, — deya xanjarini olib, unga uzatadi.

— Kimning o'g'lisan? Isming nima?

— Nazar. Otamning ismlari — Janoq.

— E, Tuzoqchi Janoq biyning bir bezori o'g'li bor deyishardi. Sen ekansan-da?

— Ha, o'sha — menman, amaki. Hech kim meni qaytarolmagan, og'zimdan so'zim ololmagan bebosh, bejilov o'sgan boyning erkasiman. Endi o'ldiring.

— Yo'q, o'g'lim, yosh joningning, zaif bo'yningning uvoli menga ne zarur? Bilagingda kuch, yuragingda g'ayrat, ko'zingda o't, og'zingda gap borga o'xshaydi. Urishqoqlik bolalik va chalalikning o'rtasidagi ko'pik-ku! Bolam, qo'lingni fotihaga och! Fotihamni beraman. "Qiziqqonlik, urishqoqlik atvoringni tashla. Yigitga xos ba'mani ishlarni boshla. "Boy bolasi bir yiqilmay yer tanimas". Yiqilganim yerning jari emas, qariyaning zo'ri deb bil. Isming Nazar ekan, ko'pchilikning bozori bo'l. Qo'ldagi kuchdan ko'ra, ko'zingdagi ishga diqqatli bo'l. Elning sevgan asli, adolatning yashini bo'l. Yaxshilikka tarafdor, yomonlikdan ehtiyotkor

bo‘l! Omin!” Endi, o‘g‘lim, otingga min, oq yo‘l senga! — deya Nazarning ketishiga ijozat beradi.

Bu uchrashuvdan keyin Nazar batamom o‘zgarib, xalq g‘ami uchun jon kuydirguvchi biy bo‘lgan ekan...

Quttiboy Segizboyning salomini yetkazdi. Nazar jumboqli javob berdi.

— Inim, sigirlar orasida ot quvib yetolmaydigan “qora til” deb atalguvchi o‘ziga xos zoti bor ekan. O‘sha jonivor sigirlarga qo‘shilmasdan, doim otlar bilan birga yoyilib, birga o‘tlar ekan. Yilqilar oldiga kelsa uni tishlab, yaqinlashtirmas ekan. Lekin shohlari yordamida otlarga bas kela olar ekan. Segizboyga borib shunday degin.

Segizboy bu javobdan keyin uzoq o‘yga cho‘madi. Oxiri bir qarorga keldi, shekilli, Qambar to‘raning oldiga o‘zi boradi. To‘ra biyga hurmat-e’tibor ko‘rsatadi. So‘ngra tashrifi boisini so‘raydi.

— To‘ram, yo‘qotganimni izlab kelayotgandim. Izi sizning ovulingizda ekan. “Oqqush ko‘lda, tuvaloq cho‘lda xotirjam”. Mening bir azamatimni oilasi bilan majburan haydab olib kelib, to‘langitlaringiz mol boqtirayotgan ekan. Bu bilan cheklanmasdan unga zo‘ravonlik qilishar ekan. “Yolg‘izning ovozi chiqmas” degani shumi? Ular himoyachi ko‘p sonli To‘rtuvil borligini bilishmaydimi? Bilsa ham “Yuvosh tuyaning junini qirqish oson” deb bizni mensinishmaganimi, to‘ram? Izlab kelganim shu edi, — debdi.

To‘raning vajohati o‘zgardi.

— U kim bo‘ldi? Mening nega bundan xabarim yo‘q? Yugurdaklarni chaqiringlar?— deb navkarlariga buyruq berdi.

— U Ahmad ismli yigit. Yashash joyidan majburlab ko‘chirib olib ketibdi.

Qambar to‘raning buyrug‘i bilan Ahmadni chaqirib kelishibdi. U biyning so‘zlari haqiqat ekanligiga ishonch hosil qilgach, biyga ham, Ahmadga zararini to‘lab, yigitni Oqjo‘nga ko‘chirib olib kelibdi. O‘tgan safar ish janjalsiz Nazar aytgan “muguz”ning uchinigina ko‘rsatib, Qambar to‘raning odilligi bilan hal bo‘lgan bo‘lsa, bu safar ishning “katta yara”ga aylanish xavfi bor edi.

Sho‘tan olti xodani o‘ngarib borib, xalq oldida sharmanda bo‘lgandan keyin bir oy o‘tmasdan “katta yara” yorildi. To‘raning

sharmisor bo'lganidan jami Boyjigit avlodi xabardor bo'lib, jahl otiga mingan. To'ralarining Segizboy biyning ovuliga hujum qilish uchun o'ziga ko'rsatgan xo'rligini ikki hissa qaytarish uchun ko'plar otga o'tirishga da'vat etishsa ham, "janjal qayda, urush qayda?" deb yurguvchi ba'zi bir yigitlar bo'lmasa, ommaviy ravishda bu da'vatga jim qolishgan. Lekin Saniyoz nomli qirq urug'dan iborat yig'ma urug'ning yigitlari va to'langitlardan o'ttiztacha yigit, cho'qmorlarini olib, vayron qilgudek vajohatda otga minishdi.

Albatta, Segizboy ham beg'am emasdi. "Aytaman, aytganimdan qaytmayman" degan to'raning bir chiranib ko'rishini bilib o'tirgan. "Elning qulog'i — ellik". U Boyjigit yigitlarining to'planayotganidan xabardor edi. Qoraqo'yinga "mol izlovchi" josusni yuborib, ularning chorshanba kuni yo'lga chiqishini bilib olgandi. Shuning uchun oldindan tayyorlanib, To'rtuvilning bir-biriga gal bermaydigan, biri-biridan qolishmaydigan, talonchilar bilan urishda obdon chiniqqan zabardast yigitlarni jamladi. G'animlar keladigan yo'ldagi tepalikning panasiga kelib, dushmanni kutib o'tirgan. Ayni peshin chog'ida Sho'tan to'ra boshlab kelayotgan yigitlar yaqinlashib qoldi. Shu chog'da tepaning ustida yotgan xabar beruvchi yigitning "Yov keldi" degan ovozi eshitilishi bilanoq, uch tepalikning panasida yashirinib turgan yo'l kesuvchilar otlarini gijinglatib chiqishdi. Hash-pash deguncha ikki tarafning yigitlari aralash-quralash bo'lishdi. Uch tomondan o'rab olgan biyning yigitlari raqiblari hushini yiqquncha besh-oltitasini otdan yiqitishdi. Biy o'zi urushga chiqmagan. Lekin: "Ehtiyot bo'linglar. Nozik joylariga urmanglar. Bugun janjallashayotgan bo'lsak ham, ular yovimiz emas, to'raning yugurdaklari. Nozik joylari deb tizzadan ursanglar, o'zlari otdan yiqilaveradi. O'ldirib qo'yishdan ehtiyot bo'linglar. Chunki oxiri bitmas janjalga aylanib ketar. Sho'tan to'rani esa oldimga yetaklab olib kelasanlar", ehtiyot choralarini aytgandi.

To'ra boshlagan yigitlar tarafdorlarining anchasi otdan yiqilganini ko'rib, qochib yurib urishga kirishgan. Bir choy qaynaydigan vaqt ichida maxsus tayyorlanib kelgan to'dani kutib oluvchilar tumtaraqay qildi. Biyning yigitlaridan ikki-uchtasi yaralanib otdan yiqilganlarida, hujumchilarning o'ndan ortig'i yerda voyvoylab yotardi. Qochayotgan talonchilarni bo'lib-bo'lib quvib bo-

rayotgan yigitlarning orasida Segizboyning o‘g‘li Sho‘ken ham bor edi. Kutilmaganda baquvvat talonchi orqasidan kelib, g‘adir-budur cho‘qmori bilan gardanidan urdi. Yigit “oh” deb ulgurmadi. Otning yolini quchib, cho‘zilib qoldi. Quttiboy yigitlarining biriga: “Sho‘kenni olib chiq”, deb buyurdi-da, ayni shu yigitning bo‘ynidan so‘yil bilan urib o‘tdi. So‘yilning zarbi shu darajada bo‘ldiki, qoq o‘rtasidan ikkiga bo‘lindi. Quttibek Sho‘tan to‘rani ta’qib qila boshladi. Qahrini ko‘rsata olsa ham, urushishga no‘noq to‘ra qo‘lidagi cho‘qmorini ko‘targuncha u siniq so‘yil bilan bilagidan urdi. Cho‘qmor yerga tushdi.

— To‘ra, ahdingdan qayt! Qon ichishga keldingmi?! To‘xtatmasang, o‘zingni ham qonga to‘ydiraman. Bir tentaging Segizboy biyning o‘g‘lini o‘ldirdi. Odamlaringga ayt, yer tishlagan odamlaringni yig‘ib olsin-da tuyog‘ini shiqillatsin. Asosiy xunxorim — sensan. Hozir ot dumiga bog‘lab, biyga olib boraman. O‘g‘lining qonini sening qoning bilan yuvadimi, buni o‘zi hal qiladi.

— To‘ramizni bermaymiz, — dedi urushni to‘xtatib aylana qurgan ikki tomon yigitlari orasidan bir yigit.

— Bermasdan nima qilasanlar? Hammangning o‘liging shu yerda qoladi. Gapim — shu. Boshlaring omonligida, yerda yotgan “botir”laringni yig‘ib olib ketinglar.

— Og‘a, ularni qo‘yib yubormang. Balo izlab yurgan yigitlar-ku. Baloning nima ekanini ko‘rsatib, hammasining onasini Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsataylik.

Quttiboy “bas” ishorasini qilgach, to‘raning yigitlari yaradorlarini otlariga mindirib qaytib ketishdi.

Bu paytda Sho‘kenning mayiti ovulga yetkazilgan, motam boshlangandi. Biyning ikki ko‘zi qizargan, quti o‘chgan holda eshik oldida turardi.

— Biy og‘a, Allohning taqdiri shul bo‘lsa... Sho‘kendan ayrilib qoldik. Oxirati obod, imoni salomat bo‘lgay! Mana, qotilni bog‘lab oldingizga olib keldim. — Quttiboy avvalgi g‘ayratidan mosuvo, lattadek bo‘shashib turgan Sho‘tanga imo qildi. — Bu kimsaning bir tentagi Sho‘kenning orqasidan kelib, dushmanini ko‘rgandek cho‘qmor bilan urib o‘ldirib qo‘ydi.

Biy Sho‘tanga qaramadi.

— "Yaylovimni yov oldi, jon dunyomni o't oldi", "Tundlashib boshga tun keldi, jonim yegan ish keldi" degan zamon shu ekanda. "Nishablikdan tushib, o'r (tepalik) meniki, eshikdan kirib to'r meniki" degan Sho'tanim, qing'irlik qilib, dilbandimdan, sultonimdan ayirding. Miyasi yo'q kallangni chopib tashlasam ham, ko'nglim joyiga tushmaydi. — U biroz to'xtab turdi va yonidagi yigitlariga dedi: — Bu shumqadam kimsaning oyog'ini tushovlab, qo'lini kishanlab, minorali qabriston yoniga olib borib qamanglar. Itligi o'z boshiga yetganini bilsin.

* * *

Uch-to'rt kundan keyin To'rtuvilning barcha oqsoqollari va Sho'tanning qudasi Quleke keldi. "Ayb Sho'tanda. Lekin har holda bir elning to'rasi. Kimning qancha aybi borligini biylar sudida ko'raylik, ular hukm chiqarsin", deyishdi.

Ular hozircha Segizboy biyga tovon to'lab, oyoq-qo'li bog'langan Sho'tanni Irtish sohilidagi Qazo ismli kishining dahmasi yoniga o'tov tikib, yoniga posbonlar qo'yib, xalq nazaridan uzoqlashtirgan edi. Ancha kundan beri ovqat yemasdan, tirik o'lik bo'lib yotgan Sho'tanni bu gapdan keyin tutqunlikdan bo'shatib olishgan.

* * *

Oradan bir necha oy o'tar-o'tmas biylar sudi Qarakerey Burun Tanani bosh biy qilib saylashdi va Oqsuvot yonidagi yaylovda biylar sudini o'tkazdi. To'ravachcha va oddiy qozoq o'rtasidagi yechimi qiyin murakkab dovning qanday hal bo'lishini bilmoq uchun shu atrofdagi jami Nayman, Abaq Kereyning urug'boshilari yig'ilib kelishdi. Mehmonlarga biya so'yilib, ko'p oq uylar tikildi.

Xamma intizorlik bilan kutgan biylar sudi ertalabdanoq boshlanib ketdi. Peshin chog'i bosh biyning hukmi aytildi. To'raning himoyachisi barvasta va baquvvat, cho'qqisoqol Hasan vazmin ohangda gap boshladi. Lekin bu uzoqqa cho'zilmadi. Bir necha soniyadan keyin qizishib ketdi.

— Tubimiz bir tug'ishgan edik, bobolar yo'lini quvishgan edik. To'rtuvilning ikki tizgini bir chilvirini qo'lida tutgan, odamlarga yaxshi pandi, adolatli ishi bor deb ishonganim — Segizboy biy

qilgan bunday ishlarni tarix ko‘rmagan. Bir xalq bo‘laylik, qaddimizni tik tutaylik, xalqning shumlari va betizgin yigitlarini yo‘lga solib, dov-janjallarni va ishlarni adolat bilan hal qilishda adolatli boshchi bo‘lsin deb, xonlar oldida tiz cho‘kib, so‘rab, yalinib, ko‘chirib keltirilgan aslzodlar emasmi bu to‘ralar? “It ko‘zi tutunni tanimas”ligini namoyish etib, to‘ra farzandini shunchalik xo‘rlab, xoda ko‘tartirib yuborishi sharmandalik-ku! Bu kamdek Qulekening to‘langitini beruxsat tun yarmida qaroqchilik bilan ko‘chirib olib ketgan. Buni qanday tushunish mumkin? Bundan ham ayanchlisi, uni tutqun qilib, oyoq-qo‘lini bog‘lab, bir qultum suv bermasdan, bir necha kun davomida qamab qo‘ygan. Bunday qabohatni kim biladi? Men to‘ralarga bunday zulm-zo‘ravonlik ko‘rsatilganini eshitmaganman. Shuning uchun, Sake, — deb jimgina o‘tirgan “aybdor”iga chaqchayib qaradi, — bo‘yingdan balandga sakrasang beling sinar, boshchiman deb og‘ayinni urushtirsang, sendan xalqing ketar. Mening bosh biydan iltimosim, Allohning oq yo‘li bilan bebosh biyning yaxshilab jazosini bersangizlar, — deb o‘rtaga tashlagan qamchini qo‘liga oldi. Bu “men tugatdim” degani edi.

Segizboyning vakili Nazar biy Tananing oldiga qamchisini tashladi.

— Gapir, Nazar biy, — dedi bosh biy unga qarab.

— Hasan biy, “Nasli bir qarindoshmiz” dedingiz. Barakallo! Yaxshi so‘z. To‘ralar haqida “xalqning shumlari va betizgin yigitlarini yo‘lga solib, dov-janjallarni va ishlarni adolat bilan hal qiladi”, deb aytdingiz. Bu so‘zingiz, balki, to‘g‘ridir. “Qushday qo‘ndirib, o‘qdek do‘ndirib” gapirdingiz. Lekin, og‘ayni, chiroyli gaplaringiz va aqlsizlikka teng harakatlaringiz o‘rtasi yer va ko‘kdek emasmi? Bobolarimiz va otalarimiz haq gapni aytib, xalqqa odamiylik jihatdan boshchilik qilsin deb to‘ralarni so‘rab olib kelgani ham haqiqat. Yaqinda o‘tgan Qambar va uning otasi Saniyoz to‘ralar, undan avvalroqda boshchi bo‘lgan Doyir, Ko‘gedoy to‘ralar haqida bir marta ham yomon gap eshitmagandik. Ular xalqqa “qishda pana, yozda soya” bo‘la olishgan. Lekin bugungi to‘ralar Sho‘tan va Qulekelarning ishlarini durust deb ayta olamizmi? Qulekening to‘langitlardan bo‘lgan O‘shag‘an ismli kishining

ko‘z yoshlariga qaramasdan, yakka-yu yolg‘iz farzandini qizining oilasiga qul qilib, yana birovning qizini cho‘ri qilib yubormoqchi bo‘lganini qanday tushunish mumkin? Bu bechoralarning biror gunohi bormi? Aytingchi, biror zamonda qozoqda qul yoki cho‘ri bo‘lganmidi? Shuningdek, el boshchilar uning bu ahdidan qaytishini so‘rashganida, takabburlik qilib “bizning gapimiz — gap” deyishini qanday tushunamiz? Bu insoniylikdanmi? Segizboyning uni so‘kmasdan, urmasdan olti xodani otning oldiga o‘ngartirib yuborishi: “to‘ra bo‘lsang, olti Alashning hammasini teng ko‘rgin, birini ustun qo‘yma”, degani edi-ku! Buni tushunmasdan ayni choshgoh vaqtida siz “aybdor” deb hisoblayotgan Segizboyning ovuliga kelib, bu yerni janggohga aylantirishini qanday oqlash mumkin, og‘ayni? “Sho‘tanni qabriston yoniga qamadi”, deb aybladingiz. Cho‘qmor bilan qurollangan Sho‘tanning bir jallodi xuddi dushmanga hujum qilgandek Segizboyning o‘g‘lini o‘ldirib ketdi. Lekin yuragi qon yig‘lagan Segizboy “qonga — qon, jonga — jon” deb tentak Sho‘tanning boshini chopib tashlamasdan, qamab qo‘yganiga rahmat ayting. To‘ra bo‘lsa — u Xudoning o‘g‘li emas. Xalqimiz “Do‘stidan oshini, dushmandan boshini” ayamasligini unutib, zo‘ravon to‘ra farzandi zo‘ravonlik qilib, haddidan oshdi. “To‘qqiz ota, to‘qson bo‘g‘inli” Nayman sening beboshliging va erkaligingga endi chidamas, to‘ram. “Sadoqdan qo‘rqqan qush butaga qo‘nmas”. Har bir qadamingni bilib bosgin, to‘ram. “Zil temirga bolg‘a bor, zo‘ravonga Alloh bor”. Kimning ishi oq, kimning ishi qora ekanini bilib o‘tiribsizlar, og‘ayni, — deb Nazar ham qamchisini qo‘liga oldi.

— Qani, yana kimlar biror fikr aytadi, xaloyiq? — deb bosh biy shu yerda to‘planganlarga qaradi. Sho‘tanning “jonkuyarlar”i to‘ralarni hurmat qilish, uning har qanday harakatiga toqat va sabr bilan qarashligini ta’kidlashsa ham, aksariyat Segizboyning harakatini ma’qullashdi. Nazar biyning so‘zi — odil so‘z deb e’tirof etishdi. Bosh biy Tana ham muxtasar qildi. U xalq birligi, yurt tinchligi boshchilarning asosiy vazifasi ekanligini ta’kidladi. Ikki to‘raning ishlari birikishdan ko‘ra parchalash ekanini, ular haddidan oshib, o‘zandan toshib borayotganliklarini aytib, o‘g‘lini qullikka bermoq bo‘lib, “sog‘ boshiga savdo bo‘lgan” O‘shag‘anga va

qizini cho‘rilikka olmoqchi bo‘lgan otaga ikki qulunli biya bersin deb hukm chiqarishdi.

— Sho‘tanga esa uchta ayb qo‘yildi, — dedi u. — Birinchidan, o‘zining qarindoshi bo‘lmagan bolalarni qullik va cho‘rilikka yubormoqchi bo‘lgan. “O‘g‘il bo‘lib tug‘ilib, qul bo‘lishi yoki qiz bo‘lib tug‘ilib cho‘ri bo‘lishi” bolalarning peshonalariga yozilmagan. Ikkichidan, tinch xalqqa qurollangan yigitlarni boshlab kelib urush qilgan. “Yorini yovga, uyini o‘g‘riga urdirmaydigan” xalq borligini unutmasin. Uchinchidan, eng og‘ir gunohi — inson o‘limi. Bu ishi bilan u “og‘ayni o‘rtasi ola bo‘ldi, kerega boshi balo bo‘ldi”ga uchradi. Mazkur aybi uchun Segizboy biyga yigitning xunini va dastlabki ikki yozug‘i uchun To‘rtuvil urug‘iga tovon to‘lasin. Mazkur hukm muhokama qilinmaydi. Ertadan qoldirmasdan hukm ado etilsin.

Bu voqea haqida sharqning atoqli shoiri No‘g‘ayboy:

“Xalq o‘rladi Oltoyning tog‘lariga,
O‘tirib tavakkal kemasiga.
Xonga qarshi xalqni bir ko‘targan
“O‘shag‘an isyoni” hali esimda, — deb aytib ketgandi.

Bunday hukmga: “Jazo og‘ir bo‘ldi”, deb aytuvchilar topildi, lekin ko‘pchilik “barakallo” deyishdi. Tana biy shu bilan “gap tamom” deb fotiha qilib, o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

* * *

Ancha vaqtga cho‘zilib, biylar sudidan keyin mana shu esda qoladigan voqeaga u kishi faqat sababchigina bo‘lgan bo‘lsa ham, xalqning yodida “O‘shag‘an isyoni” nomi bilan saqlanib qoldi.

To‘ralarning ko‘p asrga cho‘zilgan hukmronligiga ilk bor isyon ko‘targan To‘biqli, Naymanning To‘rtuvili, Qoratoyi hokimiyatni shu tariqa qo‘llariga olgan edi.

TO‘LAN ABDIK

(1942)

To‘lan Abdik 1942-yil 4-sentyabrda Qostanay viloyatining Jangeldin tumanidagi Engbek ovulida tug‘ilgan. 1965-yilda Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

Asarlari 1964-yildan boshlab e’lon qilina boshlandi. Dastlab “Ko‘kjiyak” (“Ufq”) to‘plami 1969-yili, undan keyin “Kuzgi yaproq” to‘plami 1971-yili chop etildi. 1974-yili “Haqiqat” nomli qissa va hikoyalar to‘plami dunyoga keldi. 1979-yili “Aytilmagan haqiqat” qissa va hikoyalar to‘plami nashr etilgan. 1987-yili “Oqcho‘qqida qahraton qish” va 2002-yili “Farosat maydoni” asarlarini yozgan.

O‘NG QO‘L

Bizning psixiatriya kasalxonamiz shaharning g‘arb tomonida, qirg‘og‘iga tosh qalangan ixcham daryoning sohilida joylashgan. Kasalxona eski edi. Suvoqlari tushib qolgan ola-bula g‘isht devorning usti obdon nuragan, chiriy boshlangan tunuka chodiri bor. Atrofida mashina yuradigan ko‘cha bo‘lmaganligidan, tevaragida erta-yu kech quloqqa sezilarli darajada sukunat hukm surardi. Bahor paytida daryoning sharqiragan tovushini derazani ochib qo‘yib, kechasi bilan eshitib chiqasan. Tog‘ tarafdan shamol esganda daryoning nargi betidagi bog‘dan mevalarning qimizak hidi keladi. Yoz kelishi bilanoq bola-chaqalari bilan quyoshda toblanish uchun kelgan shahar aholisi sohilga sig‘may ketadi. Umuman kasalxona imoratining eskiligi bo‘lmasa, joylashgan o‘rni ruhiy dardga chalinganlar uchun topilmaydigan joy.

Shanba kunlari hovlida tug‘ishgan-qarindoshlari bilan birga aylanib yurgan bemorlarga ochiq derazadan xayrixohlik bilan qarab o‘tirar edim. Ularning kasallikdan azob chekkan behol yuzlari, o‘zgalarga qo‘rqinchli bo‘lib ko‘rinadigan g‘alati qiliqlari, aytgan

so‘zlari men uchun juda qadrli issiq. Men ularni jonimday yaxshi ko‘raman. Ha, ha, yaxshi ko‘raman.

Ularning hech kimga hech qanday zarari yo‘q. Agar dunyodagi zararkunandalikni tekshiradigan bo‘lsak, ularning barchasini jinnilar emas, sog‘ odamlar qiladi-ku.

Biz jismi og‘riydiganlarga hamdardlik bildirib, ularni yaxshi ko‘ra boshlaymiz, jon og‘rig‘iga chalinganlarni ko‘rganda xayolimizda hartugil o‘zimizning omon ekanligimizga shukronalik bildiradigan qandaydir quvonch paydo bo‘ladi. G‘aribni ayasangiz — aql-esidan ayrilganlarni ayasangiz, ularni yaxshi ko‘ring.

Men sizni bir shanbida olib borib, kasalxonaning ichini aylantiray. Shoshilmay har qaysisi bilan yakka-yakka suhbatlashib ko‘ring-chi. Ishoning, yaxshi ko‘rib ketasiz. Men hatto nazorat palatasidagi eng xavfli deyilgan bemorlar bilan birga uxlashga hozirman. Qo‘rqinchli deysizmi? Qo‘rqinch degani nima o‘zi? Ularga yaxshi mehr-muhabbat. Yaxshi ko‘rish orqali hammasini yengsa bo‘ladi.

Men bu kasalxonada ishlagan qisqa muddat ichida bir necha turli vaziyatlarni boshimdan o‘tkazdim. “Dard ko‘p, tanisog‘lik bitta” deyishadi xalq orasida. Nima ko‘p — kasalning turi ko‘p... Lekin ularning ichida bir voqea yodimda alohida o‘rnashib qoldi.

...Mart oyining so‘nggi kunlarida bizga yoshi o‘n yettilar chamasidagi bir qiz tushdi. Qabul qilishda ota-onasi qiz o‘zini bir necha marotaba bo‘g‘ib o‘ldirmoqchi bo‘lganligini aytdi. Yonidagilarning aralashuvi bilan omon qolgan ekan. Qizning o‘zi bo‘lsa, buni tamomila boshqacha bayon qildi. U: “Menga suiqasd qilgan manavi, bu meniki emas, mutlaqo boshqa qo‘l. Meni o‘ldirmoqchi bo‘lib yuribdi”, deb o‘zining o‘ng qo‘lini ko‘rsatdi. Bizda buni ichki shaxsning ikkiga yorilishi deb ataydi. Psixopatologiyaning bir turi bu, ya’ni bir tananing ichida ikki xil “jon egasining”navbati bilan yoki qator hayot kechirishi. Buning hammasi miyaning yechilmay yotgan jumboqlari-ku...

Onasi qizining kiyimlarini ushlab turib, uzoq yig‘ladi. Qizni cho‘miltirib, kasalxonaning xalatini kiydirib, to‘g‘ri nazorat palatasiga yubordik. Ismi Alma ekan.

Qiz juda go‘zal edi. Sochi yelkasiga tushgan, jingalak kokili bor. Qattiq azob chekkanidan ikki qovog‘ining orasida yolg‘iz chiziq — tikkasiga ajin tushgan. Lekin bo‘y-basti toza, o‘zini o‘zi parvarish qila oladiganga o‘xshardi.

Bizning bo‘limga kelgandan keyin Almani men nazoratga oldim. Odamovi. Hech kimga qo‘shilmaydi. Doimo qo‘rqinch ustida hadiksirab yurishi ko‘rinib turibdi. Ajablanarlisi, qizning yurish-turishidan, so‘zidan kasallik alomati payqalmaydi. Biroq tutqanog‘i tutib qolsa, juda xavfli ekan. O‘ng qo‘li rostdan ham o‘z holicha aqlga sig‘maydigan harakatlar qiladi. Buni eng dastlabki navbatchilikda bo‘lgan kechasi ko‘rdim.

Soat tungi uchlar chamasida ochiq turgan Almaning palatasidan chinqirgan tovush eshitildi. Allaqanday jiringlagan telefonning go‘shagini ko‘tarishga ulgurmay, yugurib bordim. Men palataga kirganda Alma karavotda yotardi. O‘ng qo‘li halqumini qattiq qisib olgan. Chap qo‘li bilan jontalashib ayirmoqchi bo‘lardi. Hamshira ikkovmiz o‘ng qo‘liga birvarakayiga yopishdik. Qo‘lini qayirib, karavotining ostiga olib borganda rangi ko‘karib ketgan Alma ko‘zini ochdi. Bor bo‘yi qaltirab, anchagacha o‘ziga kela olmadi. Men qo‘lidan, yuzidan siypab, qo‘rquvini bosishga tirishdim.

— Hech narsa qilmaydi, Alma, hozir hammasi bosiladi, — dedim ko‘ziga tushgan sochini qayirib. — Bunday harakatlar asabning toliqishi bilan bog‘liq bo‘lgan hodisa. Sen qo‘rqma! Nega buncha qaltiraysan? Hech narsa bo‘lmadi-ku. Qani, sabr qil. Men sening yoningda uzoq o‘tiraman. (Ko‘zimning qiri bilan unga qaradim. Yana bir harakatga tayyorlanib yotganday karavot ostida biz qayirib qo‘ygan qo‘l qo‘zg‘almasdan yotibdi). Sabr qil, bildingmi?.. Ertaga yozilib chiqqandan keyin, bizni tug‘ilgan kuningga chaqirasan. Tug‘ilgan kuning qachon? Sentabr! Sentabr oyi mevalarning pishgan payti. Biz sening tug‘ilgan kuningda mazza qilib limonad ichamiz. (Almaning tusidan ko‘kargan rang keta boshladi). Tura tur, terlab ketding, artib olay... Mana, shunday. Yoki senga ertak aytib beraymi? (Alma asta jilmaydi.) Qandaysan?

Alma bosh irg‘adi. Shundan keyin qo‘rquv ichida o‘ng qo‘liga qaradi.

— Qo‘rqma, — dedim, yanada bir maromda sekin tovush bilan, — bu sening o‘z qo‘ling...

— Yo‘q! — deb vaj eta qoldi Alma. — Yo‘q, yo‘q! Meniki emas... Yo‘q, yo‘q!.. — Alma yana ham terlab ketdi.

Men Almaning karavot ostidagi qo‘lini ushladim. Qo‘l dir etib ketdi.

— Mana, hech narsa yo‘q. Qo‘rqadigan hech vaqo yo‘q... Bundan buyon men senga har kuni oqshomda hikoya aytib berib turaman. Yaxshimi?

— Yaxshi, — dedi biroz tinchlangan Alma.

— Qara-chi, qanday chiroyli qizsan. Ertaga yozilib chiqqandan so‘ng, biz seni kinoga tushishga yuboramiz...

Almaning ko‘ngli asta-sekin ko‘tarila boshladi. Men uning oldida tong bo‘zarib otguncha o‘tirdim.

O‘sha kechadan boshlab Almaning kasali to‘g‘risida alohida kundalik yuritdim. Hatto o‘zimga alohida ilmiy obyektning topilganiga quvonganimni yashira olmayman. O‘ng qo‘l Almaga faqat qattiq uyqu quchog‘iga kirganda hujum qiladi. Ya’ni o‘ziga qancha tushunarsiz bo‘lgani bilan, o‘zini-o‘zi o‘ldirish niyati qizning miyasida bor degan so‘z. Biroq bu niyat kimning niyati, qayerdan kelgan? Almaning butun o‘tgan umrini, fe’l-atvorini, odamlar bilan munosabatini tahlil qilib, buni o‘z boshida tug‘ilgan niyat deyishga sabab topilmadi. Bu har holda qon bilan, nasldan o‘tib kelgan niyat. Bemorning onasi, yoki otasi, yoki otasining otasi bir paytlar o‘zini-o‘zi o‘ltirmoqchi bo‘lgan. Endi ular qandaydir maxfiy qonuniyat bilan Almaning ongiga joylashib olib, o‘zlarini-o‘zlari o‘ldirgisi keladi. Ammo ularning o‘zlari yo‘q. Ongining egasi — qiz o‘lishiga mahkum. Haligi niyat qizning organizmi to‘liq tinchlik holatiga kirgan paytda g‘aroyib xatarli refleks orqali o‘yg‘onib, o‘ng qo‘lga signal beradi. Tutqanoq uch-to‘rt kunda bir, hatto ba’zan kun sayin bo‘lib turadi. Alma qo‘rqinch bilan chala uyqudan ozib-to‘zib ketdi. Biz endi o‘ng qo‘lni karavotga bog‘lab tashlaydigan bo‘ldik. Bu dastlabki vaqtlarda yaxshi natija berdi. Alma bir haftacha yaxshi uxladi. Biroq o‘ng qo‘l boshqa bir hiyla o‘ylab topdi. U Almaning ko‘zi uyquga ketishi bilan bog‘lashdan yulqinib, to‘xtovsiz irg‘ib,

uyg‘ota boshlaydi. Uyqusizlikdan azob chekkan Alma gallutsinatsiyaga uchraydi. Endi o‘ng qo‘lni bog‘lashdan bo‘shatib, faqat tungi soat uch bilan beshning orasida avvalgiday kuzatib o‘tiradigan bo‘ldik.

Rostini aytsak, kuzatishdan boshqa hech narsa qilolmadik. Hech qanday dori ham, elektroterapiya ham (qaytanga elektroterapiya holati qiyinlatib yubordi) ta’sir qilmadi.

Shanba kuni soat to‘qqizda Almaning onasi bilan akasi keldi.

— Qulunim, — dedi onasi, — qalaysan, qulunim?

Alma unsiz boshini irg‘adi.

Onasi uydan olib kelgan taomlar bilan mevalarni sumkasidan chiqara boshladi.

— Keragi yo‘q, — deydi Alma boshini chayqab. — Taomning keragi yo‘q.

Shundan keyin o‘ralgan mevalarni olib, o‘tirgichning ustiga qo‘ydi. So‘ngra onasi bilan akasi Almaning yuziga qarab biroz o‘tirishdi.

— Qulunim, — dedi onasi ro‘moli bilan ko‘zini artib.

Keyin o‘tgan kuni uyga mehmonlar kelganini, ularning Alma yotadigan palataning nomerini so‘rab olganligini, kelasi shanbada kelib qolishlari mumkin ekanligini onasi gapirib berdi. Alma indamadi. Onasi Almaning bir dugonasi televizordan she’r o‘qiganini aytdi. Alma qovog‘ini uydi. Onasi qizining tusiga unsiz nazar tashlab, qovog‘ini uyushini darddan bo‘lgan holat deb o‘zicha uqib, jim bo‘ldi. Ular uylarida bo‘layotgan har bir qiziq voqeaning Almaga sanchiqday qadalishini tushunmasdi.

Yonlaringga men keldim. Onasi, barcha balodan qutqaradigan qudrat mening qo‘limda turganday, menga iltijoli, yalinishli ko‘z bilan qaray boshladi. Men Almaning sochini siypalab:

— Alma ertaga yoq tuzalib ketadi, — dedim ishonchli, ko‘tarinki tovush bilan. — Sizlar bekorga qayg‘uravermanglar. Bizda dardi kuchayib ketgan bemorlar ham yotibdi. Ularning oldida Almaniki o‘yinchoq-ku...

Qizi batamom tuzalib ketganday, onasi o‘zida yo‘q darajada quvonib, qayta-qayta ro‘moli bilan ko‘zini artardi.

— Aytganing kelsin, o'rgilayin, — dedi u ovozi qaltirab. — Baxting ochilsin! Baxting yonsin, o'rgilayin!..

Shundan keyin bir aytgan so'zini ber necha marta takrorlab, Almaning sut kenjasi ekanligini, ko'zining qorachig'iday avaylab, tarbiyalaganini, uyda ham, dalada ham tirik bandaga xo'rlatib qo'ymaganligini, endi manavi dahshatli dard hech qaysisining urug'ida bo'lmagan og'ir kulfat ekanligini aytib, oh-u zorini to'kib soldi. Ular Almaning ko'nglini qanday ko'tarish kerak ekanligini bila olmay, bir-biriga yaltoqlab qarash bilan tushgacha o'tirishdida, oh-uhlab, ko'zlarining yoshini siqib, uylariga qaytishdi.

Alma hech narsaga churq etmagan holda serrayib qolaverdi.

Dunyodagi eng qiyin narsa yolg'izlik. Erta tongdan ichdagi qayg'uying bilan quvonchingni o'zing bilan bo'lisha oladigan, joningga sherik bo'la oladigan odamlar borida hayotning ham, o'limning ham bir ma'nosi bo'lishi haq. Rost, bundan o'limning salmog'i yengillashib ketmaydi. O'lim hamma vaqtda ham qo'rqinchli. Biroq sening o'limdan qochib, hayotga bo'lgan ishtiyog'ingning o'zi o'sha ishtiyoqning ma'nosi borligini isbotlaydi. Yer yuzidagi butun hayot tugab, olamda yolg'iz qolgan bir oningni tasavvur qilib ko'r-chi. Bundayda o'lim qo'rqinchli emas, aksincha, hayoting qo'rqinchli bo'ladi. Almaning jismidagi ruhiy yolg'izlik ham shunga o'xshash bir nima edi. Men Almaning yolg'izlikdan tushkunlikka tushgan ko'ngliga qanday bo'lsa ham yolg'iz hamkor bo'lib kirgim keldi. O'yga olgan maqsadimga berilib ketganim shunchalik, kun sayin tungi navbatchilikni bir o'zim o'tkazib turdim. Men xatarli tutqanoqning qaysi vaqtda ro'y berishini yaxshi bilar edim. Shu boisdan ham huddi shu vaqtda Almaning yonida bo'lib, o'ng qo'lini nazorat qilib, ba'zan qattiq ushlab o'tirardim. Bir kuni navbatchilik mahalida uxlab yotgan Almaning yonida kitob o'qib o'tirgandim. To'satdan atrofda qandaydir harakat bo'lganini sezib, boshimni ko'tardim. O'sha paytda men o'ng qo'lning gavda bo'ylab halqumga qarab ilon kabi asta siljib borayotganligini ko'rdim. Bu haqiqatan ham juda dahshatli manzara edi. Almani uyg'otib qo'ymaslikka tirishib, boricha epchillik bilan qo'lni qisib ushlab, karavotga bosdim. Alma uyg'onib ketdi. Menga allakimdan

ajrata olmay o‘tirganday tuyilib qarab biroz yotdi. Keyin yumshoq kafti bilan qo‘limni siypab yotib, qaytadan ko‘zini yumdi. Ammo ko‘p o‘tmay cho‘chib uyg‘ondi. Qo‘rqinchdan chinqirgan Almani arang to‘xtatdim.

— Nima bo‘ldi? Nega cho‘chiding?

— Tush ko‘rdim, — dedi u titragan tovushda.

— Qanday tush?..

— Bo‘g‘di... — dedi ovozi undan battar titrab.

Men seskanib ketdim. Agar o‘ng qo‘l tushida bo‘g‘a boshlasa, unga men hech hayron qolmas edim. Faqat Almaning qo‘rqinchini bosish uchun:

— U shunchaki ko‘p o‘ylanishdan bo‘ladigan tush-ku, — dedim qayta-qayta. — Men tirik bo‘lsam, seni omon saqlab qolaman. Tushunayapsanmi?! Men seni kun-u tun kuzatib o‘tiraveraman... Faqat sen bunday qo‘rqma. Menga ishon...

Alma mening bo‘ynimdan quchoqlab, yig‘lab yubordi. Kichkina bolachaday yig‘lardi u. Og‘zimga ko‘z yoshining nordon ta’mi keldi...

Umuman mening o‘zim ham o‘sha paytda bo‘lmag‘ur telbalik dardiga chalingan bo‘lishim ajab emas... Almaga bo‘lgan o‘zimning xufya ko‘nglimni hatto hozir ham to‘liq isbotlab bera olmayman. Bor bilganim — Alma ruhan yolg‘iz edi. Uni dastavval tushungan menman. U yolg‘izlikdan qochib, birovga tiqilishi kerak edi... Men Almaning o‘ng qo‘lini kaftimga olib, go‘dak lablari tutilib, uxlab yotgan ko‘rinishiga mudrab-mudrab qarab o‘tirishga obdon o‘rganib ketdim.

Mening kun sayin o‘z ixtiyorim bilan tungi navbatchilikka qolib, divanga yotib, mijja qoqmaganimni boshqalar o‘zicha tushundi. Oxiri sheriklarimning o‘rtasida men haqimda “hech kimga aytmay, nomzodlik dissertatsiyasi yozib yuribdi” degan gap tarqalib ketdi. Aslida o‘zi davolab yurgan jinnilarning biri bilan xufiyona munosabatda, sirdosh ekan degan xayolga hech qaysisi jur’at etmagan bo‘lsa kerak.

Men bir marta tungi navbatchilikka bora olmay qoldim. Kelasi kuni Alma chap qo‘li bilan bilagimni siypalab o‘tirib:

— Siz bo'lmasangiz men allaqachon o'lib qolgan bo'lar edim, — dedi shivirlab. — Siz nega kelmadingiz, kechasi qattiq pristup bo'ldi.

— Kechir, kela olmadim...

— Siz doim oqshomlari mening yonimda bo'lasiz... Qachon aylanib sayr qilasiz?.. — Alma xalatining tugmasini chuqilay boshladi. — Qizingiz bordir... Siz ham sayr qilishingiz kerak-ku...

Uning bu so'zi menga sira ham unamadi.

— Mening qizim yo'q, shuning uchun oqshomlari hech qayerda aylanib yurmayman, —dedim yuziga boqib.

Almaning yuzidan burungi ketmas azobning belgisi yo'qolib, allaqanday o'zimchil shodlik, erkinlik, odamni iymantiradigan tergovchi nigoh paydo bo'ldi. Men shu nigohni ko'pdan beri kutib yurganimni sezdim.

— Kecha bir buyuk oqinning kitobini o'qidim, — dedi Alma bosh tomonidagi tumbochkaga qarab (kitob shu tumbochkaning ichida bo'lishi kerak). Shundan keyin o'smirlarga xos soddalik bilan tebranib: — Shuning ichida "Dovul" degan she'r bor ekan, — dedi odatdagiday jiddiylashib. — Kemaning tayanchi parchalanib, ruli singan, yelkani yirtilgan. Ufqqa botib borayotgan quyosh bilan birga kema ham dengizga botib boradi. Kemadagilarning hammasi jon talvasasida, o'lim duosini o'qishmoqda. Har kim o'zining yaqin ko'radigan odamlari bilan quchoqlashib, vidolashib yotibdi. Faqat birgina odam o'limdan qo'rqishni ham, qochishni ham o'ylamaydi. U faqat: "Eh, shunday o'ladigan paytda quchoqlashib, vidolashadigan odamingning bo'lgani qanday baxt", deydi ichidan shivirlab. (Alma o'zi bilan birga mening ham ajablanganimni xohlab, yuzimga qaradi.) Qarang-chi, o'lim og'zida turgan eng baxtsiz jonlar ham endi birov uchun shunchalik baxtli bo'lib ko'rinadi. Chunki, ularning o'lar paytida vidolashadigan yaqinlari bor. Siz meni tushunayapsizmi?..

Men indamadim. Almaning soppa-sog' odamday aytgan mantiqli sog'lom fikri mening hushimni boshimdan uchirdi.

— Yordamlashsangiz-chi, — dedi u to'satdan yalingannamo tovush bilan. — Tashqariga chiqib, ko'cha bo'ylab sayr qilgim keldi. Aylangim keladi...

Nima deyishimni bilmadim, chunki u mendan shifokorlik ko'mak so'rayotgani yo'q edi. Rost, psixiatriya kasalxonasida yotgan odamlarda bunday tilaklar ko'p bo'ladi. Lekin ularga aytadigan javobimni Almaga ayta olmas edim.

— Baribir qaytib kelaman-ku, — dedi Alma yana bilagimni siypalab.

— Yaxshi, o'ylab ko'raman, — dedim. Almaning iltijo bilan qaragan ko'zlariga ko'zim tushganda tuzoq bo'ynimga biryo'la ilingan edi. Shu onda meni g'aroyib bir tavakkal his-hayojon egalladi.

— Oyog'ingga nechanchi o'lcham kiyasan? — dedim o'z so'zimga o'zimcha ahamiyat bermagan bo'lib.

— O'ttiz olti...

— Ko'ylakdanchi?

— Qirq olti, — dedi qiz hayron qolib...

Men o'sha kungi ishni ham, tungi navbatchilikni ham chuqur o'y og'ushida o'tkazdim. Haqiqatan ham mening bu o'yimni tani sog' odamning o'yi deb aytish qiyin edi. Har holda ko'z oldimda o'z o'y-farazlarimdan tug'ilgan tasvirlarga ishtiyoqligim shunchalik ediki, bu niyatimning to'g'ri-noto'g'riligini tahlil qilishga umuman vaqtim bo'lgani yo'q. Almani kechasi shaharga olib chiqib aylantirishimni, uning qanchalik xursand bo'lishini ko'z oldimga keltirganimda o'sha quvonch butun vujudimga taralganday yuragim hovliqib, bosar-tusarini bilmay qoldi. Men hech kimga aytib bo'lmaydigan o'z sirimga o'zim mast bo'lib, es-hushimdan ayrildim. Uyqudan tush paytida uyg'onib, apil-tapil choyimni ichib, do'kon aylanishga chiqdim. Birinchi borgan oyoq kiyim do'konidan sotuvchi ayolning maslahatiga ko'ra 36-o'lchamli, ustida do'g'asi bor oq tufli xarid qildim. Undan keyin ko'ylak sotadigan do'konlarni kezib, uzoq yurdim. Ko'ylaklarni qarab yurarkanman eng yaxshisini topishga tirishdim. Bunga jon-tanim bilan berilganim shunchalikki, parcha-parcha bo'lib terlab ham ketdim. Yaxshi bilan yomonni ajratish men o'ylaganday oson narsa emas ekan. Ushlagan ko'ylaklarimni hayolan mo'ljalimdagi odamga kiygizib, ko'z oldida tasavvur qilishga ijodkorlik qobiliyatim yetmadi.

Oxiri chetroqdagi do'konlarning birida ayollar ko'ylagiga ko'p odamning navbatda turganligini ko'rdim. Bu bir sirmasi yelkasiga solingan, etagi do'ppaytirilib tikilgan, ko'kchil tusli, yaltiragan, chet elning ko'ylagi ekan. Navbatda turganlarning ko'pligiga qarab, yomon bo'lmasa kerak deb o'yladim. Ammo navbatim endi yetganda ko'ylak tugab qoldi. Sochini qop-qora qilib bo'yab olgan, millati noma'lum, kelishgan sotuvchi ayol qancha yalinsam ham "tugab ketdi"dan boshqa so'z aytmadi. Shunda ham tabiatimda yo'q bo'lgan o'larmonlik bilan sotuvchining hech so'ngidan qolmadim. "Ertaga uylanish to'yim edi, to'yga atab ko'ylak tiktira olmay qoldik, umidim faqat shu ko'ylakdangina" deb yolg'onni zuvillatganimda o'zimni tanimay qoldim. O'larmonlikning foydasi tegdi. Odamlarning hammasi tarqab ketgandan so'ng ustiga 5 so'm qo'shib, sotuvchidan 46-o'lchamli ko'ylakni oldim.

Qosh qoraygan vaqtda xarid qilgan narsalarimni, o'zimning quyoshli kuni taqadigan qora ko'zoynagimni sumkamga solib, kasalxonaga keldim.

— Nega ranging bo'zarib ketdi, kasal emasmisan? — dedi birinchi ko'rgan hamshira.

— Yo'q... Shunchaki... Tinchlikmi? — dedim xizmat yuzasidan gapirayotgan holatga kirib.

— Tinchlik.

Men kasalxonada retsept yozilgan kitobchani varaqlab o'tirib, ko'zimning qiri bilan hamshirani kuzata boshladim. Hamshira parda bilan to'silgan muolaja kabinetiga kirganda, sumkani ola solib, tez yurib, Almaning palatasiga kirib ketdim.

Alma to'shagida kitob o'qib o'tirgan ekan, mening ko'rinishimdan hadiksirab, yana hayron bo'lib qaradi.

— Ma, tez kiyin, — dedim, sumkani oldiga tashlab. — Men uch marta qattiq yo'talganda palatangdan chiqqin-da, pastga tushaver. Uqdingmi? Tez!

Men xonadan ildam chiqib, o'rnimga kelib, avvalgiday retsept kitobchasini olib, varaqlay boshladim. Soatimga qarab qo'yaman. "Necha daqiqada kiyinib bo'lishi mumkin" deyman ichimda sabrsizlanib. "Ikki tufli — "bir, ikki", ko'ylak — "uch, to'rt, besh", yaxshi, "olti", ko'zoynak — "yetti" — tugadi-ku... Kiyinib bo'ldi-ku...

Mayli, yana ozgina vaqt. "Bir, ikki..." Besh daqiqa o'tdi. Men muolaja kabinetiga kirdim. Hamshira igna qaynatayotgan ekan. Borimcha uch marta qattiq yo'taldim. Hamshira hayron bo'lib, yuzimga baqrayib qaradi.

— Opa, — dedim yoniga yaqin kelib. — Bir zarur chiqib qoldi... Qizimga bormoqchi edim... Ikki-uch soatda qaytib kelaman. Tasodifan hech narsa bo'la qo'ymas... Almaning eshigini ochmang men kelguncha... uxlab yotibdi...

Hamshira o'rta yoshli bo'lsa ham hali qarib qolmagan, kulimsiragan ko'zidan yoshlikning qizig'idan bebahra qolmagan odamning nishoni payqaladigan ayol edi.

— O'z ixtiyoringizda-ku, — dedi bir ko'rgan qizig'i esga tushganday iljayib. — Menga nimasini aytasiz?..

Men Alma chiqib ulgurmadimikin degan xavotirda hamshirani hayron qoldirib, qimirlamay biroz turdim. Shundan so'ng hali ham vaqtni o'tkazmoqchi bo'lib, hamshirani ajablantirib:

— Rahmat, — degan so'zni (nima uchun aytganimni bilsam, buyurmasin) donalab, arang aytib bo'ldim-da, burilib, kabinetdan chiqdim. Zinaning chetida sochini yelkasiga tushirib, qora ko'zoynak taqqan Alma pastga tushishga botina olmay turgan ekan. Men Almani qo'ltig'idan ushlagan holda boshimni tikka ushlab, chiqish eshigiga yuzlandim. Orqamizdan:

— Buning bir o'zi kirmaganmidi, qizi qayerdan kirib ketgan? — degan gapni ikkimiz ham eshitdik.

Tashqariga chiqqanda avgust oyining tungi shamoli nafasni kengaytib, erkinlikka, xolilikga chaqirganday quvonchli, havoiy hislar olib keldi. Men ko'zimning qiyig'i bilan o'g'rincha Almaga qarayverdim.

Kelishgan bo'yiga ko'kchil ko'ylak quyib qo'yganday yarashib ketibdi. Aft-angorini yopinqirab tushgan qop-qora sochlari bilan ko'zoynagi ayol qaddiga moslashib ulgurmagan chiviqday chiroyli qomatiga bu oqshomda o'zgacha bir ajib sirli ko'rinish berib turardi.

— Ko'ylaging yaxshimi? — dedim yaxshi ekanligini ko'rib kelayotgan bo'lsam ham. Alma yuziga tushgan sochini silkib tashladi-da, bolacha maqtanganday bir turda bo'yini kerib, menga qa-

rab jilmayib qo'ydi. Shundan keyin engashib, oyog'ining uchiga qaradi:

— Ozgina qisadi, — dedi.

— O'ttiz oltinchi o'lcham-ku, — deb o'zimni oqladim.

Trolleybusga o'tirdik. Tanish birovning ko'ziga tushib qolmaslik uchun, Almani pana qilib, teskari qarab turdim.

— Sening qarindoshlaringning biri ko'rib qolsa, uyatga qolamiz, — dedim qulog'iga shivirlab. Men uning qarindoshlari u yoqda tursin, boshqalarni ham ko'rishini xohlamadim.

— Yaxshi, — dedi Alma. Lekin ko'rinishidan bunga ahamiyat berganligi payqalmadi. Hatto bundan falonday uyat bo'shlarday hech narsa ko'rmay turgani sezilib turardi.

Parkga kelib tushdik. Men qorong'i chekka yerlar bilan yurmoqchi edim, Alma ochiq maydondan o'tishni xohladi.

Yo'lning ikki tarafidagi ol-qizil gullar kechki shulada jilvalanib, tebranardi. Yozgi sahnadan orkestrning shovqinli tovushi keldi. Almaning ko'ngli ko'tarila boshladi. Mening qo'limni yumshoq kafti bilan qisib-qisib qo'ydi. Kinoteatrning ro'parasidan o'taverganda:

— Kinoga kiraylik, — dedi to'xtab qolib.

Yuragim zir etib ketdi. Ammo Almaning oldida xavotirimni sezdirgim kelmadi.

— Kiraylik, mayli kiraylik, — dedim yon-atrofimgan alanglab.

Kinoga bilet olishda ham, kirishda ham, zalga kirib o'tirgandan keyin ham mening ko'zim allakimlar ko'rib turmaganmikin degan xavotirdan ayrila olmay, atrofimga yoltoqlash bilan bo'ldim.

Kino boshlandi. Odamning ichini pishitadigan, yana talay marta qo'yilgan eski kino ekan. Odamlar ham oz yig'ilibdi. Men kinoni ko'rmadim desam bo'ladi. Qorako'lankada ekranga suzilib qarab, qimirlamasdan o'tirgan Almadan ikki ko'zimni ololmadim.

Men uning ko'ziga qaragan sayin, butun tasavvurimdagi go'zallikdan Almaning bugungi chiroyi allaqancha ortiq ekanligini his qildim.

Ta'riflab bo'lmaydigan, eng bir tilsim, noma'lum taassurot — go'zallik taassuroti. Biz o'zimizning butun odob-axloqimizda odamning tan go'zalligidan jon go'zalligini yuqori qo'yishga asoslansak ham, hayotda o'sha tan go'zalligi bilan yuzma-yuz kelib

qolgan paytda o‘zimizning haligi qoidamizni qandayin buzib ketganligimizni bilmay qolamiz. O‘z erkimiz bilan aqli oz bo‘lsa ham go‘zal ayollarga uylanishga tayyormiz, ammo aqlga boy, ko‘rksiz ayollarga yaqinlashgimiz kelmaydi. Ongimizdagi yovvoyi instinkt kabi bir havoyi kuch yengib ketadi. Biz eng o‘sal yeridan qo‘lga tushib, tik turib qolgan ovga o‘xshaymiz. Binobarin, go‘zallikning hali ham tadqiq etilmagan yoki bo‘lmasa bila turib, aytgimiz kelmaydigan sir-asrorlari bo‘lishi mumkin...

Men Almaning tizasi ustida turgan chap qo‘lidan ushladim. Yuraksizlanganimdan kaftim terlab ketdi. Alma jilmayib, qo‘limni qup-quruq, yumshoq kafti bilan qisib qo‘ydi-da, mening ko‘rinishimda odam ajablanarli bir narsa borday katta ko‘zlarini keng ochib, parishon bo‘lib qaradi.

Kinodan chiqdik. Alma ko‘tarinki ko‘ngilda, gapira boshladi.

— Kinoda nega go‘zal ayollar o‘ynashiga tushunmayman, — dedi qo‘lini yoyib. — Go‘zal bo‘lmagan ayollar elga namuna bo‘lolmaydimi? Ularning bo‘yidan yaxshi xususiyatlar topib bo‘lmaydimi?

— Yaxshilikning teran ildizi go‘zallikda, chunki hayot tanadan boshlanadi. Go‘zal odamlarning aqlsiz, yomon bo‘lib chiqishi — disproporsiya, hayotning murakkabligidan muvoza natning tez-tez buzilishi...

— Muzqaymoq yegim kelyapti, — dedi u gapimning oxirini kutmay.

Muzqaymoq uchramadi. Ikkimiz qorako‘lankaga qo‘yilgan, orqa suyanchig‘i yo‘q, oddiy o‘rindiqga o‘tirdik.

— Menga gul uzib bering, — dedi birdan yuzimga tikilib qarab.

Men uning bunday noo‘rin talabini qanday tushunishimni bilmay, sarosimaga tushib qoldim. Va nihoyat:

— Hozir, — dedim-da, qo‘rqib turganimga qaramasdan, o‘rnimdan turib, gul maydoniga yuzlandim. Bu bizning katta xatoimiz bo‘ldi. Noqulay vaziyatda bo‘lsam ham g‘uncha ochgan qip-qizil gullardan ikkitasini yulib olib, chekkaga chiqqanimda:

— Bu yoqqa, bu yoqqa keling, — deb barmog‘i bilan meni ko‘rsatib turgan, qo‘lida portfeli bor, shalpangquloq militsionerni ko‘rdim.

Men yaltoqlab Alma o‘tirgan tomonga qarayverdim.

— Bu yoqqa dedim-ku men sizga! Yoki yana sherigingiz bormi?

— Yo‘-yo‘q, — dedim qutim uchib.

— Bo‘limga!

— Siz nimaga ko‘rib turib, hushtak chalmaysiz, — dedim men izza bo‘lib. — Siz ataylab yulsin deb turibsiz. Chunki sizga birovni ushlash kerak-da...

Militsioner bir lahza dovdirab, javob berolmay qoldi. Shundan so‘ng meni ataylab masxara qilyapti deb o‘ylagan bo‘lishi kerak, yaqin kelib yoqamdan ushladi-da, qo‘pollik bilan yulqib, bo‘lim turgan tomonni iyagi bilan ko‘rsatdi.

Bo‘limning ichiga kirganda asta esimni yig‘dim. “Nari borsa jarimasini to‘lab qutularman” dedim ichimda, adliyadan biladigan ozgina qonunlarimni yodimga tushirib.

— Qani, hujjatingiz, — dedi telefon go‘shagini qulog‘iga qo‘yib o‘tirgan yoshi kattarog‘i meni ko‘rganiga quvongan odamday ko‘ngilli tovush bilan.

Shu paytda xonaga Alma kirib keldi. Men infarkt bo‘lishga sal qoldim. “Tugadi endi” dedim ichimdan najot bo‘lar degan barcha umidimni uzib. Bir lahzaning ichida o‘zimning shifokorlik nomimga mos bo‘lmagan, jinoiy harakatlarim bilan butun kasalxonaga, shifokorlarga, qizning ota-onasiga, qolaversa barcha shahar aholisiga ayon bo‘lgan sharmandali holimni tasavur qilib ham ulgur-dim.

Biroq Almaning kelishi vaziyatni butunlay o‘zgartirib yubordi. Almaning go‘zalligi o‘tirganlarga giyohvand qabul qilgan kabi birdan ta’sir qildi. Telefon go‘shagini qulog‘iga qo‘yib o‘tirgan katta yoshli militsionar ham, meni ergashtirib kelgan shalpangquloq ham, formasiz, oddiy kiyingan yigit ham xo‘mraygan yuzlarini ilitib, umuman o‘zimiz kabi qosh-qovog‘i tushunarli, et-suyakdan yaralgan, oddiy odam qiyofasiga kirdi. Barchasining ko‘zlaridan “ha, o‘tiring, ishingizni ayting, yordamga biz tayyormiz” deganday yaxshi niyat sezildi.

Alma o‘z ustunligini yaxshi his qilib, tajribali go‘zal oyimchalarday atrofiga jilmaya ko‘z tashlab, mening qoshimga keldi-da, qo‘li bilan sochimni siypab ushlab:

— Men aybdorman, og‘a, — dedi militsionerga. — Men ataylab buyurgan edim gul uzib bergin deb...

— Nega? — dedi shalpangquloq qat’iy ohanda, lekin jilmayishi buning shunchaki hazil ekanligini bildirib turganday edi.

— Ataylab, — dedi Alma qaytalab, — ataylab, meni sevarmikin deb...

Mening jismimni to‘k urib o‘tganday bo‘ldi.

— O-ho, — dedi telefon go‘shagini qulog‘iga tutib o‘tirgan yoshi kattaroq militsioner, — mana hozirgi yoshlar... Qanday ochiq fe’l-atvor!..

— Yigitni bunday sinab bo‘ladimi? — dedi formasiz yigit. — Bu jamoat tartibini buzish-ku... Yigitni boshqa joyda sinash kerak.

— Kechirasiz, — dedi Alma meni chap qo‘li bilan qattiq quchoqlab. — Bir safar kechiringlar... Bo‘lmasa, faqat menigina ayblanglar...

— Yaxshi. Qizning oldida yigitning obro‘sini tushirmay qo‘ya qo‘yaylik. Militsionerler ham toshbag‘ir odamlar emas, aylanayin. Hammamiz ham yigit bo‘lganmiz. Ma! — Katta yoshdagi militsioner menga pasportimni qaytib berdi.

— Rahmat!

Tashqariga chiqqanimizdan keyin parkning darvozasiga yetguncha bir-birimizga og‘iz ochganimiz yo‘q.

— Gul uzib beraymi? — dedim to‘xtab, izza bo‘lib turganimni yashira olmay.

Alma qo‘limni ushlab olib, yumshoq qo‘ltig‘iga qisdi.

— Bo‘ldi endi, — dedi qo‘limdan, — menga hech narsaning keragi yo‘q.

Taksi bilan qaytdik. Allaqachon ko‘cha yoritgichlari o‘chirilgan. Oy oq bulutlarning narigi tomoni bilan yelday uchib boradi. Kasalxonaning hovlisidagi o‘tirg‘ichlarning oldiga kelganda oldinga o‘zib borayotgan meni to‘xtatib, o‘ziga burdi-da, bo‘ynimdan quchoqlab oldi. Men labimga yumshoq, rutubatli labning tekkanini sezdim. E, Xudoyim, qanday nozik lab. Men Almaning kelishgan qomatini quchoqlab, bag‘rimga bosdim. Shundan keyin go‘dakni hidlaganday, yuz-og‘ziga yuzimni ishqalab, nafasin yutdim. Qandaydir jon qiyishga bo‘larday ruhiy poklikni his qilayotganga

o‘xshardim. Biroq bu Almaning bo‘yidan topgan tozaligimmi, yo o‘z bo‘yimning tozarishini sezganimmi — buning orasini to‘liq ajrata olmadim.

Ichkariga kirdik. Alma teng yarmini qora ko‘zoynak yopgan yuzini sochi bilan burkab olib, meni qo‘ltiqlab oldi. Ikkinchi qavatga kiradigan eshikning oldida Almani to‘xtatdim-da, o‘zim ichkariga kirdim. Hamshira muolaja kabinetida yo‘q ekan.

— Tez xonangga bor, — deb shivirladim Almaga eshikni qayta ochib.

Alma xonasiga kirib ketdi. Shu zahoti hamshira ham keldi.

— Senmiding, — dedi menga jilmayib.

— Hech gap yo‘qmi?

— Yo‘q.

— Men Almaning palatasida bo‘laman, — dedim xalatimni kiya turib, — bugun pristup bo‘lishi mumkin.

So‘ng ilmiy kundaligimni oldim-da, hamshiraning ko‘zicha, hech aloqasi yo‘q, tushunarsiz so‘zlar bilan uni to‘ldira boshladim. Hamshira shifokorlik ishiga jon-tani bilan berilgan mening shu topdagi holatimga mamnunlik bilan qaradi.

Men palataga kirganda Alma kiyimini almashtirib, to‘shagiga yotib ulgurgan ekan. Umumiy sirlari bor bolalarning bir-biriga ko‘z ishorasini berib, kulaverishi kabi, meni ko‘rishi bilan Alma ko‘zi bilan “haligi esingdami” deganday jilmayib, bo‘ynini ichiga tiqib, kulib yubormaslik uchun qo‘li bilan og‘zini bosdi.

Kundalik odatim bo‘yicha karavotning chetiga o‘tirib, qo‘lidan ushladim. U ham har kungi odaticha qup-quruq, yumshoq kafti bilan qo‘limni qisdi. Mutlaqo erkin. Men uning ko‘z qarashini, butun vujudidan esgan ajoyib iliq oqimni jonim bilan his etib, balqib ketdim.

— Uxla.

— Senchi?

— Men seni kuzatib o‘tiraman... tong otguncha... umr bo‘yi...

Alma ko‘zini yumdi. Dam olishining ildamligiga qarab, ko‘nglidagi tebranishni sezdim.

Mening xayollarim har yoqqa bo‘lindi. Menga manovi o‘zim har kuni ko‘rib, ko‘zqochdi bo‘lgan kundalik hayot tasodifan o‘z-

garib ketgan shekilli yoki shu hayotga o'zim dastlab duch kelib turgandekman. Lekin men hayotga ahamiyat beradigan, ko'rk baxsh etadigan bizning o'zimizning yakka baxtimiz ekanligini, bizga tashqaridan hech qanday shu'la tushmasligini, tirikchilikka, atrofga shu'la sochadigan odamlarning o'zlari ekanligini keyinroq tushundim. O'zimning ichki olamim ajib go'zal, chiroyli yog'dular chiqara boshlagandi, meni qurshab olgan atrof-muhit, butun jamoa, o'rta, hayot yashnab ketaverdi.

Almaning bemorligini esimga oldim. Uni davolash masalasi shifokorlik burch shaklidan tasodifan o'zgarib, endi faqat o'zim uchun jonini saqlab qolish degan favqulodda bir qarorga kelishga undadi.

Qizig'i, o'sha tun o'ng qo'l hech qanday nojo'ya harakat qilgani yo'q.

Alma mening ko'z oldimda behalovat uxlab yotganday, ko'zi sal ochilgan holda tong otguncha tiq etmadi.

Tushdan keyin ishga mudir keldi. U yoshi qirqlarga kelgan, fe'l-atvori jizzakiroq, ozg'in, ko'sa kishi edi. Mening uyqudan toliqib turganimni ko'rib:

— Nima, hali ham tungi navbatchilikni hech kimga bermay yuribsanmi? — dedi. Uning so'zi so'roqdan ko'ra mening ishimni qo'llaydigan rizochilik alomati bor bir narsaga o'xshab ketdi. Shuning uchun men:

— Salomatmisiz? — degen so'zdan boshqa hech nima aytolmadim.

— Fanatizm yo'q joyda ulug'lik ham yo'q, — deb dohiysindi u.

— Siz bilan gaplashadigan muhim bir ish chiqib qoldi.

— Qanday ish?

— Alohida nazoratdagi Birimjanova Almaning ahvoli juda og'ir. Tezroq chora ko'rish kerak.

— Qanday, qanday chora? — dedi mudir ko'zlarini pildiratib o'rindiqqa o'tirayotib.

— Hozir bemor krizis jarayonida. Qizni xavfli pristupdan qutqarish uchun, o'ng qo'lining barmoqlarini, yoki bo'lmasa hatto yaxlit ravishda qo'lini jarrohlik yo'li bilan olib tashlash kerak...

Men o‘zimning bu fikrimni mudirga bundan avval ham aytgan edim. Shu boisdan u bu fikrning yangilik emas ekanligini bildirib, burishib javob bermay, biroz o‘tirdi-da:

— U bunday-ku... — deyaverganda:

— Yo‘q! — dedim yanada o‘sha o‘zimga noma’lum tavakkallik bilan.

U mening yuzimga hayron bo‘lib qaradi. Shundan keyin yuzimdan qandaydir muhim bir ma’no uqqanday bo‘lib, indamay qoldi.

— Men, mana, bir necha oy bo‘yi ko‘z uzmay nazorat qilib kelaman, — dedim yuragim dukullab, bardoshimning tugayotganligini sezdirmaslikga tirishib. — Boshqa hech qanday chora yo‘q... Agar bunday qilmasak, shu ikki-uch kunning ichida qizning o‘zini-o‘zi o‘ldirib tinchishiga kafil bo‘laman... (Mudirga ta’sir etish uchun. Ana shu so‘zni aytishga aytsam ham, yujudimning allanechuk dir etib ketganini, haligi so‘zni bekor aytganimni tushundim. Ba’zan odam taqdiriga to‘satdan ongingdan tashqari aytilgan so‘zlarning hukmronlik etishi bor-ku) Tushunasizmi, boshqa hech qanday chora yo‘q...

Mudirning indamay qolganinidan so‘zimning qulog‘iga kira boshlaganini sezdim.

— Siz jarrohlik amaliyotidan keyin qizni to‘la tuzalib ketadi deb o‘ylaysizmi? — dedi menga ko‘zining qiyig‘i bilan qarab.

— Men bunday deb uzil-kesil ayta olmayman. Biroq biz eng avvalo odamni bugungi ajaldan olib qolishimiz kerak. Ertangisini shundan keyin ko‘ramiz. Siz menga ishoning. Men bemorning qoshida kun-u tun bo‘lib, azobini qator ko‘rib kelib kelayotgan odamman...

Mudirning tirishgan yuzi yumshara boshladi.

— Ota-onasining roziligisiz baribir hech narsa qila olmaymiz, — dedi.

Shunda men:

— Ota-onasi emas, dastavval qizning o‘zining roziligi kerak. Nima bo‘lganda ham u yashashi kerak. Chunki, bemorning ahvolini ulardan ko‘ra biz, ayniqsa men yaxshi bilaman.

— Yaxshi, — dedi mudir menga qarab. — Ammo lekin, ertaga ertalabki ko‘rik paytida o‘zim qo‘rib chiqaman. Shundan so‘ng maslahatlashaylik...

Yuragim dupillab ketaverdi. Men shu onda-yoq ertangi ko'rik qadar jarrohlik amaliyotiga Almani qanday ko'ndirishimni, mudirning oldida bo'lib, savollarga qanday javob berish kerak ekanligini o'rgatishimni tasavvur qilib chiqdim.

Biroq unga bularni hozir aytgim kelmadi. Tungi uyqusida kasalligi kuchayib, unga salbiy ta'sir qilar deb o'yladim. Ertaga ertaroq oldiga kirib, hammasini tushuntiraman...

Bemorlar tinchlik soatidan keyin, soat chamasi beshda tashqari hovliga sayrga chiqishadi. Men Almani shiyponchada topdim. Kitob o'qib o'tirgan ekan. U meni ko'rishi bilan yuzimga qarab kuldi.

— Ko'ziizng qizarib ketibdi-ku.

— Hechqisi yo'q...

— Borib uxlang.

— Hech narsa qilmaydi...

— Hech narsa qilmaydi emas, uxlaysiz! Siz nima, mening gapimni olmaydigan bo'ldingizmi?

Men Almaning yuziga qaradim. Uning chaqnagan ko'zidan taralayotgan jonga yoqimli, ajoyib, iliq oqimni sezib turdim.

— Nega olmayman, — dedim atrofdagilarga eshitilar darajada kulib. — Qachon olmadim?

— Unda borib uxlang, — dedi Alma muloyimlashib. — Bugun yaxshiman, hech narsa qilmaydi. Uyingizga boring. Ertalab kelasiz-ku...

— Ertalab aytadigan muhim masala bor.

— Ha, ertalab aytarsiz.

Men Almaning xonasiga borib, kiyim solingan sumkani oldim.

Kechqurun uzoq vaqtgacha uxlay olmay, o'zimga hayron qolardim. "O'zini-o'zi o'ldirib tinchitishiga kafil bo'laman" degan gapim yodimga tushdi. Balki, shu so'zlarim ta'sir etgandir. Bo'lmasa, mudir kesib olsa, qon chiqmaydigan qaysar odam-ku...

Almani dastlab o'ng qo'lining barmoqlari yo'q holda, undan keyin butun bir qo'li yo'q tarzda tasavvur qildim. Hech nimasi yo'q. Ajoyib, go'zal. Qish kunlari paltosi bilan yurganda umuman bilinmaydi. Protez qo'ydiramiz. Chap qo'i bilan yozib o'rganadi... Yo'q-yo'q! Hech qanday protez qo'ydirmaymiz. Yolg'iz chap qo'li bilan ham ko'chada hammaning oldida yuraversa bo'ladi. Buni

yashirib bo'lmaydi.. So'ngi qarorim o'zimga qattiq unadi. Huddi shunday yurishi mening yuragimni haqiqiy pok his-tuyg'ularga, iliqlikga yo'rgaklaydiganday edi.

Hayotda omad juda siyrak bo'ladi. U odamlarning barchasiga birday yetavermaydi. Biroq omaddan keyin, qolgan omadsizlikning hammasiga ham chidasa bo'ladi. Qiyinchilikni yengishning eng katta quroli — chidamlilik. Chiday bilsang barcha azoblarning yuzi qaytib, qayrilib, o'tmay qoladi.

Masalan, birov bo'yningga 10 kilolik toshni boylab qo'ysa, 20 kilolik tosh boylamaganiga shukr qilib, boyagi holatingni baxtli hayotga aylantirib yuborish mumkin bo'ladimi. Albatta, bo'ladi. Shuning uchun hozirgi og'ir ahvoldan ham haligi yo'l bilan qutilib ketsa bo'ladi. Buning uchun faqat yashash kerak. Hayot kechirish kerak... Qo'l degan nima?.. Qo'l degan hech narsa emas...

Rost, dunyoning hammasi inson qo'li bilan yaratiladi... Ammo, zolimlik ham odamning qo'li bilan yasalmaydimi?.. Zulm qiladigan qo'lni tez kesib tashlamasa, bo'lmaydi... Tez... kesib tashlash kerak... Tez...

Men ertalabki nonushtamni chala-chulpa yeb, kasalxonaga keldim. Tashqari darvozaning kuzatuvchisi hali uxlayotgandir deb o'ylab, qoqishga shaylangan edim, lekin ochiq ekan. Eshik oldida allaqanday mashina turibdi. Ichkariga kirib, ikkinchi qavatga ko'tarilganda xizmatga mendan avval kelgan allakimlarning g'ovur-g'uvur tovushlarini eshitdim. Men shkafdan xalatimni olib kiydim. Allaqayerdan mudirning bo'g'iq ovozi chiqdi. U nimaga erta kelgan?! Cho'chib ketdim. Yo'q, hech narsa yo'q.Ertalabki ko'rikgacha baribir palatalarni oralamaydi... Ungacha ulguraman-ku... Parda bilan bo'lingan kabinetdan hamshira ayol chiqib, telefonga yopishdi. Meni ko'rib boshini irg'adi.

— U yerga bordingizmi? — dedi telefon raqamini terayotib.

— Qayerga?

Hamshira mening yuzimga ajablanib qaradi-da, go'shagini qo'ya solib:

— Anavi qiz o'lib qoldi-ku, — dedi astagina.

Yuragim og'zimga tiqildi. Nafasim tugab, yoqamni yechdim. Haligi so'zni eshitgan onda ko'nglimning bir chetida shu qayg'uli

xabarni bilganday, shunday bo‘larini sezganday vujudimni bir ichki his qamrab oldi. “Bilgandim-ku, shunday bo‘lishini sezgandim-ku... Sezgandim-ku...” “O‘zini o‘zi o‘ldirib tinchishiga (uyib qolgan chakkamni ushladim) kafil bo‘laman...” (Men ekanman-ku o‘ldirgan... Men-ku...) Xonaning ichiga qanday kirganim yodimda yo‘q. Uch-to‘rt shifokor bor ekan.

To‘shakda chalqancha yotgan Almani ko‘rdim. Og‘zidan tili chiqib, ko‘zining qorachig‘i ters aylanib ketgan. Tusidan qattiq qiynalgani ko‘rinib turibdi.

Yaqin kelib, bilagini ushladim. Sovub ketibdi. Tomog‘ida ko‘m-ko‘k qo‘lning izi. O‘ng qo‘li ustida yotibdi. O‘lgandan keyin ajratgan bo‘lishi kerak.

“...Kafil bo‘laman... kafil bo‘laman... o‘ldirib tinchishi...”

“Aytmadimmi? — deydi birov ichimdan. — Aytganim keldimi?..” Men yig‘lamaslikga tirishdim. Achingan holda:

— Bo‘ldi endi, muzlatgichga olib borish kerak, — dedim ovoz chiqarib, nima deb turganligimni o‘zim tushunmay.

Kechga yaqin jasadni ota-onasi olib ketdi. Kelasi kuni dafn etish marosimida qatnashdim...

* * *

U hikoyasini tugatib, sigaret tutatdi.

— Pivo iching, — dedim uzoq unsizlikdan keyin. So‘zni boshqa mavzuga burgim keldi. Ammo ob-havoning issiqligidan ham, gazeta betidagi siyosiy xabardan ham, ro‘paramizda o‘tirishgan oyimchalarning tashqi qiyofasidan ham gapimiz qovushmadi.

— Pivosi eskiroq ekan, — dedim tushib qolgan etiketkaning yozuviga sinchiklab qarab.

U indagani yo‘q.

Ochiq kafe ichida pivo izlovchilar ko‘payib ketdi.

— Ruxsat eting, — dedi ofitsiant qiz langet bilan sanchqi, pichoqlarni oldimizga qo‘yayotib. Shundan keyin pivolarning og‘zini ochdi.

Men o‘zimning pichoq ushlab turgan o‘ng qo‘limga hadiksirab qaradim.

DUKENBOY DO‘SJON

(1942)

Dukenboy Do‘sjon 1942-yil 9-sentyabrda Qizilo‘rda viloyatining Janaqo‘rg‘on tumanidagi Qulanshi ovulida tug‘ilgan. 1964-yilda Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

“Ipak yo‘li”, “O‘tror”, “Farobiy”, “Zavol”, “Daryo”, “Tabaldirig‘inga topin”, “Yo‘lbarsning so‘qmog‘i”, “Kishining haqi”, “Muxtor yo‘li” (1998), “Abay ko‘zgusi” (1994), “Alpning azobi” (1997), “Dala gladiatorlari” (2000), “Oq O‘rda” (2005), “Uch taqdir” (2005), “Boboliq bilan suhbat” (2005), “Jon shirin” (2006), “Astananing bosh arxitektori” (2007), “Taqdirning formulasi” (2008), “Abay ruhi” (2008), “Deraza nuri” (2009) kitoblari, 1990-yilda 2 jildlik tanlangan asarlar, 2002–2003-yillarda 13 jildlik asarlar to‘plami nashr etilgan.

QIMIZ[1]

— Og‘ang chaqirayotir, — degan tovushni eshitgandan darrov to‘g‘ridagi xonaga yetib bordim.

Bo‘sag‘ada yangamning ko‘zlari yosh edi. Vujudim titrab ketdi: kipriklaridan bir tomchi yosh uzilay deb turgan edi. Xona ichi olako‘lanka, salqin. Qo‘sh deraza keng ochilgan. To‘rdagi oq to‘shak ustida og‘am cho‘zilib yotardi. “Karavotning chiyqillashidan miyam achib ketdi” deb, yerga to‘shak soldirgan. Endi ellikka chiqqan polvon kelbatli odam kichrayib qolganday. Bosh tomonidagi karsonda bozordan olib kelgan qo‘nonqimiz to‘lib turibdi, ichilmagan edi. Ichmasayam bosh tomonida qimiz turadi. Uning nordon hididan og‘am keng dalaning, ko‘pkarining, yosh-

[1] Ju’ziy qisqartirildi.

lik chog'larining zavq-shavqini qayta topsa kerak-da. Ha-ha, endi bildim.

Og'amning xastalanib yotganiga yildan oshdi. Kechagi urushning olovlarida kuyib chiqqan, shundan keyin Sir bo'yida ko'p vaqtlar mehnatga beligacha botib chiniqqan odam avvaliga bu dardga bo'ysunmadi. Yovon-dalada ham, o'nlab yillar bo'yi yashash uchun kurashib, kasallikka bo'ysunmay, ko'klamda ildiziga nam yetsa, yana barg yozib, gullab ketaveradigan, ko'p vaqtlargacha yiqilmay, gavdasini kerib kutaveradigan daraxt bo'ladi.Og'amning holati ham mana shu daraxtni eslatadi. Er kishining ajal qurti qay yerida yurganini bilmayman, nima qilsayam, gavdasiga enib, kezib yurgani aniq. Avvaliga og'am yarim yilgacha ishidan ham qolmay, yurdi-yurdi, molni Sir bo'yida boqar, kelasi bahorning g'amini ko'rar, tanasini yemirayotgan dardni bildirgisi kelmasdi. Yangam ikkovimizgina esa og'amning kasallanib yurganini bilardik. Qolgan yurt to og'am yiqilib qolmaguncha sezgani yo'q, qaytanga yig'in-maraka, to'ylarda o'rtoqlari: "tatib ham ko'rmaysan, nima, mulla bo'lmoqchimiding?", "dunyo yig'ib boyib ketmoqchimisan?", "Rahbar bo'lib o'sib, hokim bo'larmiding?" deb hazillashardi. Qora og'ochday qayishmasdan yuraverardi. Bari Avvalbekning traktorchi bolasidan boshlandi, o'sha tentak aroqqa to'yib paromga tushadi, traktorini joylashtiraman deb yurib, daryoga ag'darib qo'yadi. O'zi suvdan chiqadi-yu, yap-yangi traktor daryo ostidagi uyuqqa botib qoladi. Shu kuni og'am uyga ranjib, kayfiyati tushib keldi. "Ishning ham qizig'i qolmadi", deb o'tirib, "pishirgan ovqatingning ta'm-tuzi bilinmaydi", deb qo'ydi. Shu paytgacha shirin tuyulib yurgan choyga ham, ovqatga ham gap topdi, hilvirab pishgan qazidan ham maza topmadi. So'ng, "ovqatga, oshga zavqim chopmayapti", deb hazm bo'lmayotganini aytib, shikoyat qildi-yu... mana, ikki oydan beri to'shak tortib yotibdi.

— Dalaboy, qarog'im — dedi og'am.

Men og'amning qoshiga cho'kkaladim. Qo'li taramishlanib ketgan, tomir urishi zo'rg'a bilinadi. Ko'ziga ko'zim tushgan edi, chindan quvonib ketdim, "beti beri qaragan bo'lsin", deb qo'ydim ichimda.

— Qulonchining boshida o‘tirgan Oqtatening qo‘lidan bir to‘rsiq[1] qimiz olib kelsang...

Og‘amning ovozi dirillab chiqdi. Og‘amning bosh tomonida karson to‘la qimiz turib, Qaratov ichidagi, bir kunlik yo‘ldagi ovuldan qimiz so‘ratgani hayron qolgudayin edi. Har holda dala qimizi bilan shahar qimizining farqi bor albatta. Shaharniki tiqir, quruq bo‘ladi. Sutni sog‘ib olgandan keyin, uy-uyga tarqatib sotguncha chinni, qalay, qang‘iltir-temir idishlarga quyiladi-ku, shular sababchi bo‘lsa kerak-da, yana kim bilsin. Og‘amning gapidan ko‘ngilga quvvat kirdi. Ichgisi kelgan narsani opkelib bersam, sog‘ayib ketadiganday ko‘rindi. Jadal yo‘l tadorigini ko‘ra boshladim. Og‘izdagi uyda yangam ko‘k choyni sovutib o‘tirgan ekan, jovdirab qaradi. Ko‘zlarida boyagi yolg‘iz tomchi yosh.

— Tog‘dagi Oqtatemning qo‘lidan og‘amga qimiz keltirib beraman, — dedim.

Yangam aytishgayam so‘z topolmay, to‘lqinlanib ketdi-yov, birozdan so‘nggina:

— To‘mponglagan qarog‘im-ay, — deb xo‘rsindi.

Keng hovlida ko‘k yo‘ng‘ichqani qirt-qirt uzib yurgan Oqtanger otimni yetalab keldim. Jo‘tasi yumrilanib, jonivor oyog‘ini dadil bosadi. Yangam qo‘radan egar-turman keltirdi. Otga soldim. Kiyimlarimni almashtirdim. Kunning enkaya boshlaganini ham, yo‘lning yiroqligini, tog‘ning qiyin oshuvlarini ham o‘ylab turmadim. Otlanib yo‘lga tushdim.

Oqtangerni erkin qo‘yib, qo‘lning kaftiday qora adirga singib borganim sayin tog‘ havosi aniq sezila boshladi — salqin. Bolaligimda og‘amga ergashib qovunzorga borardim. Ikki quloq, uch quloq bo‘lib o‘sib yotgan qovunlarga intilib, og‘amning “uzasan!” deganiga qaramay, haligi nozik quloqcha-yaproqlarni iskayman. Dimog‘imni to‘ldirgan hidlardan rohatlanardim. O‘sha hidlar yana dimog‘imga kela boshladi. Dala hidi, turli maysa-o‘simliklar isi shunday bo‘larkan-da.

Oqtanger ham yaylovni sog‘inibdi. Qayta-qayta pishqirib qo‘yadi. Tuyoqlarida tosh uchganday bo‘ladi. Yolining osti shilqillay boshladi. Dovondan oshib qir orqasiga yetganimda kun botib,

[1] **To‘rsiq** — ichimlik saqlash uchun teridan tikilgan kichikina idish.

qosh qoraydi. Oyoq ostidan to‘rg‘ay uchganda Oqtanger dirillaydi. Olisdan momaqaldiroq gurillagani eshitildi, chaqmoq chaqdi.

Yilqichi ovulga tong bo‘zargan paytda yetib bordim.

To‘rtko‘z sirtlon ilikni kurt-kurt kemirib yotgan ekan, vanqillab hurib yubordi. Ulkan o‘tovning eshigi ochilib, dupur-dupurdan uyg‘ongan bo‘lsa kerak, bir chol chiqdi. Bu — Oqtatening “xudoy qo‘shgan jufti”. Yilqi qayirish-haydash, biya sog‘ishdan boshqa hunari yo‘q, arqovi bo‘sh, haromligi bor, qiyin kishi. O‘zi-o‘zicha gapirganday ilik kemirayotgan itga baqirdi:

— Ocharchilik boshingdan ketmagur itning bolasi!

O‘yida esa: “Manovning yiltinglab kelishidan jonim cho‘chidi. Bu bekorga kelmagan, birovga o‘r qazmasa boshi og‘riydi...” degan bo‘lsa kerak.

— Assalomu alaykum, o‘tog‘asi, sog‘-salomatmisiz? Mol-jonlaringiz omonmi — deb bidirlab so‘rasha ketdim.

Xayolimda shunday qilsam-u, zora cholning qovog‘i ochilsa, keng dunyoni toraytirib turgan yovvoyi fe’l-atvori sal yumshasa... Chol uzatgan qo‘limni ushladi.

— Bu ham it bo‘lib hursa nima qilarkan? Ochko‘z! Itning bolasi!

— Sog‘in biyalarni qayirib kelar vaqti bo‘lmadimi, o‘tog‘asi?

— Oqtangerni ostimga ber-chi. Qayirib kelaqolay. O‘zimning otim chivinlab qirga chiqib ketgan, — dedi. Shunday deb irjayib kelib, qo‘limdan tizginni oldi. Shu orada ulkan o‘tovdan Oqtatem chiqdi. Oqtate desa Oqtate deguday! Oq ro‘moli kelishgan yuzini ochib yuboribdi. Oltmishga intilgan kayvoni ayol o‘rnida latofatli kelinchak turganday! El-yurtning oltin oshiqday kaftiga olgan qadrdon xolasi-da bu!

Oqtate qo‘lini endi chiqib kelayotgan quyoshga soyalab turdi-da, Oqtangerni birdan tanidi.

— Xudo-yov! Oqtanger-ku bu! O‘qimishlim kelibdi-da! Aylanayin-ov o‘zimning! Tatengni unutmabsan-ku!

Kelib meni bag‘riga bosdi. Tomog‘imga yosh tiqildi. Oq ro‘molidan suydim. Haligi Jarbima chol Oqtangerning ustida o‘tiribdi.

— Tush bu yoqqa! — dedi Oqtate. — Tulporning tuyog‘idan sadaqa ketgur!

— Biyalarni qayirib kelmoqchi edim...

Jarbima otdan shipirilib tusha boshladi. Cholvorining bog'ichi egarning boshiga ilinib qolib, yechilib ketdi. Oyog'i yerga tegishi bilan cholvorining ipini boshqatdan bog'lash bilan halaklanmoqda.

— Uyalmaysanmi, olisdan kelgan mehmonning otiga tarmashib, tentak bolamisan? Yilqingni o'zingning ayg'iring bilan qayirib kel!

Jarbima bukchanglab yilqilari tomon ketdi. Oqtate meni o'tovga boshladi. Uyga kirgizdi. To'shakni yig'ib, to'rga ko'rpacha yoyib, qo'ltig'imga ko'pchik-yostiq tashladi.

— Joylashib, damingni ol, Tatesini izlab kelgan qarog'im mening!

Tuynukni ochib eshikni turtdi. Sakkizqanot oq o'tovning ichi yog'duga to'ldi.

Uy ichini ko'zdan kechirdim.

O'ng qanotda ulkan oq chimildiq. Chimildiqning ichida kumush zarli yog'och karavot. Atlas bilan sirti qoplangan ko'rpa, yumshoq par yostiqlar! Uy ichida shulardan boshqa ko'zga tusharlik jihoz yo'q. Dunyolarni qishlovda qoldirib, yaylovga yengillashib chiqadigan yilqichilar uchun odat bu. Uyning chap qanotida ko'zga avval tushadigan narsa — so'ri. Atrof-javonibga mashhur bo'lgan Oqadil ustaning qo'lidan chiqqan buyum mana shu. U kishi o'z mahsulotlarini o'rik daraxtining o'zagi bilan naqshlaydi. Keraga boshiga ikki saba[1] ilingan — biri toy saba, ikkinchisi — qunan saba. Sabalarning sirt yungi qunduzning kuzgi tuki kabi yaltirab ketibdi, ichidagi qimizning tobi o'tsa shunday qiladi. Bu sabalarni Turkiston ustalari yasagan: yilqi terisini irab so'yib olib, ko'lankada quritib, qimizning yuziga chiqqan irkitdan iy yasab, shu iyga soladilar. Qo'non terisi achigan iy ichida hafta-yarim yotadi. Shundan so'ng terini kermaga ilib qo'yib, qirg'ich bilan qiradi, ko'karib toza terining o'zi qoladi. Saba mana shu teridan tikiladi. To'bilg'i o'simligining butalarini yoqib, achchiq tutuni bilan sabaning ichiga ishlov beradilar. Ishlangan sabaga sovmal[2] quyib, uzoq chayqaydilar. So'ng sovmal to'kib tashlanadi-da, yana ishlov beriladi, yana

[1] **Saba** — yilqi terisidan yasalgan qimiz tayyorlanadigan idish.

[2] **Sovmal** — biya sutining qimizga aylanmagan dastlabki holati.

sovmal bilan chayiladi. Qachon ichiga quyilgan qimizdan teri ta'mi ketib, to'bilg'i tobi qolguncha shunday almashtiraveradi. Bolday totli qimizni hozirlaydigan ajoyib saba dunyoga mana shunday keladi.

Undan pastroqda to'rsiq idishi turibdi, u — yilqi terisining bo'yinidan yasalgan qo'lbola idish, uni hozirlash hadisi ham haligidaqa. Tek to'bilg'ining tutuni bilangina ishlamaydi, teriga o'rikning, ushqat daraxtining so'li (sharbati)ni ham singdiradilar. To'rsiqda saqlangan qimiz ikki-uch haftagacha ta'mini saqlaydi. Yo'lovchi yo'l yurganda, botir yo'riqqa chiqqanida to'rsiq qimizini olib chiqqanlar. To'rsiq qimizi mehmonlarga atab maxsus achitilib qo'yiladi. Ta'mi achqimtil bo'lib, qonni o't bo'lib qizdiradi. Shularni o'ylab o'tirib, so'lakayimni yutdim. To'rsiqdan nari pastroqda taxta ustida ikki qovoqdan qilingan idish. Uni Sir dehqonlari qo'lda ekib, uzoq vaqt kun nurida ag'darishib ushlab, kulga o'tirg'izib pishirgan. Qovoqlarni burun ko'rmagan kishi ularni zargarning qo'lidan chiqqan ajoyib ko'za deyishi aniq. Qopqog'i ham qovoqdan o'yib yasalgan. Uning yonida qayindan yasalgan gubi, ichida sopi qiltiyib ko'rinadi. Bu yerdagi har bir idish bir mohir usta mehr bilan yasaganday, muzey eksponatlariday tizilgan.

— Og'angning ko'nglini so'rab ham borolmayapman, — dedi Oqtate. — Bu uydagi ishlardan hech qo'l tegmayapti-tegmayapti. Kechagina tushimga kirgan edi, lablari gezarib: "Oqtate cho'llab yuribman" dedi. Shundan ko'ngil so'rab borib kelay deb niyat qilib turgan edim. Qulog'ingdan kun ko'rinib o'zing kelib qolding. Endi o'zing bilan ilashib borib qaytaman.

Ko'ngli bo'shab o'tirib qimiz quyib berdi.

— Bir to'rsiq qimiz opke deb og'am yuborgan edi.

Oqtate qimiz shopirib o'tirib, qoshiqni tushirib-tushirib oldi, ro'molining uchi bilan ko'zini artdi. "Qartayib qolibdi-yov...", deb o'yladim. Qanday mehribon inson, asl jon, ammo endi avvalgi kulgilari, hazillari yo'q. Eskirib qolgan suratga o'xshaydi. Yuzlarida faqat mung izlari bor.

Tashqarida Jarbimaning shang'illagan ovozi eshitildi. Allakimlarni qatorasiga chapparastiga so'kayotir.

— O‘qimishli qarog‘im-ov, nega ertaroq aytmading? Qo‘nan qimizni hozirgina sabadan flyagaga qo‘tarib qo‘ydim-a. O‘t o‘rib yurganlar kun ko‘tarilmayoq “terimiz qurib qoldi, qimiz opke”, deb, oshpazni yuboradi-turadi. Attang-ay!

Oqtate qiynalib o‘tirib qoldi.

— Attang-a, oyning yangisida yoyilgan biyaning qimizi-quvlik, em bo‘lar xosiyati oz, uni ichar suv desayam bo‘ladi. Oyning o‘rtalarida yoyilgan biyaning qimizi dori. Yilqi oy yorug‘ida tanlagan cho‘pini terib yeydi, ayniqsa oy shu’lasida ochiladigan sachratqi, o‘ngil degan cho‘plarning guli qanchalar xosiyatli-ya! Otam aytib o‘tirardi, oyning oyog‘ida yoyilgan biyaning qimizi aroq-ku, deb...

Maktabga toy minib qatnab yurgan paytlarim yodimga keldi: o‘rta yo‘lda, hozirgi Chirog‘don adirida Oqtatening uyi o‘tirardi. Ekinchilarga qimiz tayyorlardi. Tanglayim qurib, shoshilib kelib, o‘tovga tushardim. Qimiz so‘rashga jur’atim yetmay, pastda o‘tirib qolaman. Shunda xayolimdagini o‘qiganday bilgir tatem menga qovoqdan qimiz quyib uzatardi. Kosa bilan tutqazadi. Oltin yalatilgan zarang kosa. Tatemni endi gapga solaman desam, tashqaridagi yilqichilarning dobir-shovqini eshitildi. Ayniqsa tanish shang‘i ovoz olamni tutib boradi:

— Yomonlatgur! Yelkang uzilgur! Quriq[1] tashla, bug‘aliq[2] sol bo‘yniga! Qimizga bari xumor, asovni ushlashga hech kim topilmaydi! Otangga la’nat, beri qayir!

— Oqtate, qiynalmang. Sizning qo‘lingizdan totgan sovmalning o‘zi dori emasmi?

— Sovmal nima, qarog‘im-ov. Ko‘zim tirik ekan, sizlarga sovmal ichkizmasman. Qimiz tayyorlashning shartlarini bilmaysizlar-da. Sovmal qimiz yoqtirmagan odamingga beriladi. Uni ichgan kishi tashqariga chiqqisi keladi-da, fayz topib o‘tirolmaydi, yo‘liga ketadi. Qo‘non qimizni sirlashar qo‘nog‘ingga berasan. Maslahat uchun. Oshiqlar va oqin shoirlarga do‘nan qimiz qo‘yiladi. Ko‘ngilga ilhom bo‘lib, ko‘kayga qurt tushiradigan xosiyati bor-da. Ichimlik-suvsinning to‘rasi — beshlik qimiz! Quv qimizni yovga chopadigan botirlar bilan fatvoga boradigan elchilar ichadi.

[1] **Quriq** — yilqini ushlash uchun bir uchiga arqon bog‘langan tayoq.

[2] **Bug‘aliq** — asov yilqi yoki tuyani ushlash uchun ishlatiladigan arqon.

Uv (zahar) qimizni qozoq kezma, baxshi, badikchi, savdogar jonlarga bergan. Har qimizning nomiga mos fe'l-atvori bo'ladi: shunga qarab yo'l-yo'rilg'i yasaladi. Shuni bilmay turib, sutkil iritib, qimiz achitdik, deb yorug'likning arvohini xo'rlashning nima keragi bor?

Boyagi aytganlarimdan uyalay dedim. O'ylamay so'zlab, Oqtatening butun el qadrlaydigan hunariga, bilimiga ko'lanka tushirganday bo'ldim. Oqtatem qimiz achitish san'atining piri-da.

— Tag'in quyaymi, qarog'im?

So'rog'ini so'ragan bo'lsa ham, qo'limdagi zarangga qimiz quymadi. Kaftim bilan zarang yuzini yopdim. Oqtate ortiq quymaydi. Zarang tagidagi ho'plam oqni chayqab, idishga qiziqib o'ylanib o'tirdim. Oqtate yuzimga ser solib qaradi-da, ro'molini tuzab bir tizzalab o'rnidan ko'tarildi.

— Haligining tovushi ovulni ko'chirib yuboradi-ya. Qo'shnilariz orasida yangi tushgan kelinchak bor edi, shundan uyat bo'ladi-yov. Uyda qo'noq bor demaydi, quturib ketadi. Qartaysayam qolipga kelolmayapti. Men borayin, — deb tashqariga betladi.

Jarbimaning tovushi tappa bosildi.

Birozdan keyin o'zi ham uyga kirdi. Shaldiratib qimiz simirdi. Dang'irlatib chelakni bir tepdi. O'tirayotib oyog'idagi etigini eshik tomonga otib-otib yubordi. To'shakka yonboshlayotib:

— I-ya, bola! — dedi. — Ne yangiliklar bor?

— Hech nima yo'q!

— Qo'ysangchi-ey, o'zlaring gazit o'qib, kino ko'rasanlar, shuytib "hech nima yo'q" deysanlar. Mana biz-ku tosh-garang, ko'r-so'qir. Anovi yilgi Gitlerga o'xshagan bir buzuqi shop etib Qoratovni orqasiga solib ko'tarib ketsayam bilmay yotaveramiz, sira.

— Sizlargayam gazeta opkelib tursalar kerak?

— Tuman gazetasidan boshqasini tushunmaymiz ham. Yopirimay, o'zingday bir gazetachidan so'rab olarman deb yurgandim. Shu deyman, hukumat kuniga gazet chiqaradi, ertadan qora kechgacha radiosi sarnaydi-turadi. Shunga so'zni qaydan topaveradi? So'zi tugamaydimi chirkinning? Ayt-chi?

— Tugamaydi.

Javobim uni qanoatlantirmadi, bilaman, olarib-anqayib yotdi-yotdi-da, urillab uxlab qoldi. Sirtdan Oqtatem kirdi. Bu paytda men oldimdagi dasturxonni yig'ishtirib, zarangni artib-surib, o'z o'rniga qo'yib ulgurgan edim. Ko'rdi-yu kulib yubordi. Qo'liga chelak oldi. Biya sog'ishga ketayotganini bildim. Ko'rgim keldi. Sirtga ilashib chiqdim. Oqtangerni qo'shni yigit o'tga qo'yvoribdi. Oshxona tomonda qizil ro'molli kelinchak ko'rindi.

Oqtate avvali chelakni yaxshilab ishqalab yuvdi. Toza idishni shunchalar yuvganiga tang qoldim. Shundan keyin suvini sarqizib, kunga qaratib qo'ydi. Suvini obdon quritmoqchi.

— Sutga yolg'iz tomchi suv qo'shilsa ham qimiz xosiyatidan ayriladi. Biya qurg'aq idishga sog'iladi, — dedi.

Oqtate biyalarni terib sog'di. Payqab turibman, qaritish biyalarni tashlab o'tib, yaqindagina jeli ipga o'rgatilgan yosh biyalarga yaqinlashadi. Ularni sog'ish echki boqqandan battar qiyin. Alanglab bir o'rinda turmaydi, chelakni tepadi, quluniga iymaydi. "Boshini ushlab ko'maklashayin", desam, Oqtate:

— Begona isdan quturib ketadi, — deb yo'latmadi.

Chelakni chap bilagiga ilib olib, tomog'ini liqillatib, o'ng qo'li bilan biyaning sag'rini siypaladi. Bo'ksasini qoqdi. To'manlay kelib, yosh quvlik (yangi tuqqan biya)ning yumshoq yelinin ushlaydi.

Oqchil sut chelakka chiziqlab kelib dizillab tushdi. Biyaning qitig'i kelib yalt burildi. Oqtate ortga tayqib ketdi. Yana taqab keldi. Erkalatdi. Shunday qilib, jon teri chiqib, ko'p zahmatlar chekib qo'sh chelakday sutni arang sog'ib oldi. Og'am uchun mana shunchalik qiynalib yurganini sezdim. Yo'qsa, qo'shni yilqichi yigitni chaqirib, biyani tirp ettirmay ushlatib sog'ib olsayam bo'lar edi.

— Nega biyaning boshini ushlatib qo'yib sog'madingiz?

— Qarog'im-ov, unda yilqining badani titrab, qo'rqib qoladi, sutining asli ma'nizi tomirida qolib ketadi. Yaxshisi qimizga biyaning o'z erki bilan iyib bergan suti bob keladi.

— Yuvvosh, qari biyalarni qoldirib ketganingiz qalay?

— Qari biyaning suti yelinida turadi, yosh biyaning suti esa tomirlaridan yig'ilib keladi. Qoqsholning suti tez achiydi, ham kuchi birdan betga chiqadi. Yosh biyaniki ikki tunemali (ikki ke-

cha)dan keyin bobiga keladi, hol quvvati tubida yotadi. Ha... qimiz ham yilqining minaziga bog'lanishli. Yosh biyaniki kishini yoshartiradi, dori bo'lib singadi. Terib sog'ib yurganim shundan-ku, — dedi Oqtate.

O'zan bo'yidan aravasini shaldiratib cho'pchi (o'roqchi)larning oshpazi keldi. Uy egasi toysabaning qimizini qalayi fiyagalarga qo'tarib qo'ygan ekan. Oshpaz omonlik-sog'lik yo'q, arvanglab aravasiga orta boshladi. Birozdan so'ng ishini bitirib, uyga bosh suqdi. Tatem qimiz quyib berdi. Oshpazning ko'zi damda yoshlanib qoldi. Tamakisining tutunini chiyratib ko'p o'tirdi. So'ng "tishim shiqirlab borayotir", deb, non so'rab yedi. Shu orada chol uyg'onib, ko'zi chatnab tikanakday qadaldi.

— Oshga kelganday yeb-ichib o'tirganini qara-ya buning. Ichingda ajdarho yotibdimi deyman. Uch birday sabani kechagina olib ketgan eding, yana yetib kelibsan-a. Qimiz bilan tol sug'orasanlarmi yoki o'zanga quyib baliq ovlaysanlarmi? Qani, gapir! Boshqarmaga aytib, mehnat kunlaringni qirqtiraman senlarning. O'roqchi emish, qo'rqov shoqollar!

Oshpaz "boshqarma" degan so'zni eshitib, yomon dovdirab qoldi, avranglab turib, aravasini shaldiratib ko'zdan yo'qoldi.

Oqtate to'rsiqdagi qolgan qimizni qovoqqa quydi. So'ng:

— O'qimishli qarog'im, og'angga qimizni maxsus achitaman endi, — dedi.

Eshittirib aytdi. Jarbima yonidan pakkisini olib yer chuqidi. O'zim esa Oqtatening el aytib yurgan qimiz tayyorlash san'atining xufya sirlarini ko'rgim kelmoqda. Ikki ko'zim kayvonining harakati-yu qo'lida... Oqtate to'rsiqni bo'shatdi-yu, oxirigacha sirqmadi. Idish ichidagi sarqindi yaxshigina achitqi bo'ladi. Endi bir tizarlab, o'ng qo'li bilan to'rsiqning og'zini kerib qo'yib, chap qo'li bilan chelakdagi sutni chiziqlatib quydi. Keyingi chelakni ham tugal qo'tardi. Ko'rib turibman, idishni chaygani yo'q. Ko'zim yetdi, idishdagi, to'rsiqdagi sutga bir tomchiyam suv qo'shilmadi. To'rsiq og'zini qayishbog' bilan bog'ladi. Shundan keyin oldiga olib, beshik tevratganday biroz sekin chayqab o'tirdi. To'rsiqni tebrata-tebrata Oqtate qalqib ketganday bo'ldi. Allapaytda to'rdagi

tekematning[1] bir burchagini ko‘tardi, ostidagi o‘t-cho‘p sarg‘aya boshlagan ekan, to‘rsiqni o‘sha yerga tashladi, ustiga tekemetni yopdi. Ostidan dim tortib, ustidan issiq urib, ko‘lankada, sarqindi bilan achigan qimizga teng keladigan dori bo‘lmaydi, deganlarini men ham eshitgan edim.

Zoti qozoq qimizni yetti turli idishga achitadi. Ko‘nak — bu toychaning yoki bo‘taning bo‘yin terisidan tikilgan, ko‘lami o‘rtacha, ichida ichimlikni qo‘l bilan chayqab achitadigan idish, qimizi qitmirlov bo‘ladi. Buni ko‘pincha biror biyasi bo‘lgan dehqonlar tayyorlaydi. Undan keyingi idish mesh, buni karvonga qo‘shilib yo‘lda yurganlar qiladi, ichidagi sut ko‘likning yurishi bilan chayqatilib achiydi, bu idishni ko‘pincha yilqining qorin terisidan tikadilar. Keyingilari — to‘siq, toy saba, qo‘non saba. Undan keyin qo‘l kubi, qimizga qayindan yasalgan kubigina dam beradi. Undan keyin ekmaqovoq. Yettisuv qozoqlari qimiz achitish uchun ko‘pincha qorindan foydalanadilar, shu oddiy qo‘y qornidan tikilgani, biroq qo‘y qornida achigan qimiz ko‘pga chidamaydi, jiniqib[2] ketadi. Asl qimiz — qo‘lto‘rsiq bilan toysabada achigani-da.

Oldimizga gujillab, paqirlab oq samovar keldi. Dasturxon yozildi. Oqtatedan qimiz quyib beradigan idishlar haqida endi so‘rayman deb turgan paytda qo‘shni yigit kirdi. Ikkala uyning osh-suvi qo‘shila ichilsa kerak, ayniqsa qo‘noq kelganda idish-tovoqlar, xizmat, yugur-yugurlar qo‘shilib, hamma birga bo‘laversa kerak. Yigit kirdi-yu, bemalol o‘zimsirab, samovarni yoniga tortib, choy quya boshladi. Oqtate abdira-sandig‘in ochib, ichidan shakar, novvot, siqma, qovun qoqi, moy, qurut, mayiz olib, dasturxonga uymalatib tashladi. “Anchayinda qotgan qora non yeb ketaverardik, boshqarmaning inisi kelib, to‘kib tashlading-a hammasini”, deb qo‘ydi Jarbima. “Oqtatening sandig‘idan qizdan boshqa hamma narsa chiqadi”, gungkilladi qo‘shni yigit. Dasturxonga qo‘yilgan taom, shirinliklarga hadeb qo‘l uzataverishga istihola qildim. Boyagi sharbat qimizning ta’mi tanglayimdan haligacha ketmagan edi. Bir kosa choyni ichganimda, Oqtate:

[1] **Tekemat** — yuzasiga har hil naqshlar solingan kigiz.

[2] **Jiniqmoq** — issiqlikning ta’sirida aynish, hidi chiqishi.

— Qarog‘im-ov, shularning barini senga deb saqlab qo‘ygan edim. Siqmaga bol qo‘shilgan, moyning to‘rtasi ayrilgan, unga solib, qishdan saqlab yurgan toyning qoq poyonboshini osaman hali o‘zingga. Oshgacha qorning ochib qoladi-ku. Qachondan beri qo‘limdan ta’m tortmagan eding, — deb mehmonnavozlik qila boshlagan edi, men olqish aytaman deguncha, Jarbima:

— E, bularga osh berma, araq ber. Shundagina rangi kirib, so‘ziga odam tushunadigan bo‘ladi. “Saqladim, qoqladim” deb o‘tirganingni bu bola shaharning... haligi... nima edi..., — deb so‘zini topolmay turgan edi, qo‘shni yigit esiga solib yubordi-mi, — ha-ya, golbasaga almashmasa kerak, ayniqsa, o‘qiganlar shu golbasa bo‘lmasa sening yonboshingga, qazi-qartangga pishqirmaydi yam..., — deb qo‘yib qoldi.

Jarbimaning gapi Oqtatega yomon ta’sir etdi. Birov gavdasidan nuqib yuborganday bo‘ldi. Yuzi sinib qoldi. Oqtateni juda ayab ketdim. O‘rnimdan otilib turib, yalpayib yotgan Jarbimani tepkilab tashlagim keldi. Tusim o‘zgarib ketdi.

— Qarog‘im-ov, anovi to‘rsiqni ag‘darib qo‘y-chi — dedi Oqtate.

Aylanib borib, tekematni ko‘tarib, to‘rsiqni ag‘darib yotqizdim. Oqtatening aytganlarini qilgan bo‘lsam ham, yana o‘zi kelib to‘rsiqni sekin qo‘zg‘ab ko‘rdi, chayqamadi.

Biya sog‘imi boshlangan. Jarbima o‘roqchilarni qarg‘ab, chelakni bilagiga ilib yo‘naldi. Yilqichi yigit kurashadigan polvonlarday yengini turib chiqdi.

Oqtate qozonni aylana boshladi.

Biyalar odatda to‘rt marta sog‘iladi. Bu gal arang uch marta iydilar. Baquvvat, qoruvli yigitning qurug‘i ostida biyalar dirillab turdi. Jarbimaning chelagi dang‘illab ketib, qulunlar cho‘chib qoldi. Oxiri usti-boshiga sut to‘kilgan choliga Oqtate dedi:

— Qulunlar bo‘g‘ilib o‘lar, bo‘shat, yilqini qirga hayda!

Oqtatening unga solib saqlangan yonboshini qo‘limda olganda, kun botib borayotgandi. Sur bilan yosh et aralash ajoyib oqtomoq osh unsiz yeyildi. Quyuq sho‘rvaning yuzidagi moyni ayt.

Oqtate ovqatdan so‘ng qo‘shni uydagi kelinchakni chaqirib, idishlarni yuvdirdi. Qo‘llari ishga mayishib turgan iboli jon ekan.

Kayvoni opa yonida ro'molday hilpillab ishga kirishdi. Avvali suv isitib qo'ydi, idishlarni soldi, taqirlatib chayib chiqdi, yelkasiga yumshoq sochiq tashlab olib, sochiq uchi bilan birma-bir artib chiqdi. Oqtate qimiz quyiladigan idishlarni o'zi artdi. Ora-orada hurkak kelinchakni erkalab qo'yadi. "Kelinimga qimiz quyishni o'zim o'rgatib yuribman, — deydi, — hademay shunday qimiz uzatadigan bobgar (mohir) bo'ladiki hali". Har idishni qo'lga olganida uning xosiyatini ham qistirib o'tadi.

— Qimiz ichadigan qozoq idishini ham siylab ushlagan. Har idishning egasi bo'ladi. Oddiy, odamlarga kosaga solib berish mumkin. Kelim-ketim ko'pchilik shundan ichishadi. Mechkaylar, savdogarlar to'rtoq bilan ichganlar. Ular uchun yutari mo'l bo'lgani yaxshi. Qadrdon asl do'stlarga zarang idishda tutganlar. Ko'rayapsanmi zarangning o'ynoqlab, yorishib turganini. Yasagan zargari, chopgan ustasiga qarab zarang ham xilma-xil bo'ladi. Qo'limda Oqadil ustaning o'rik yog'ochidan yo'ngan oltin ko'z zarangi. Oshiq bo'lgan jonlarga qimiz oltin yalatilgan ko'zaga quyib berilgan. Qoq kumushdan yasalgan ko'za bilan oqin, hofiz, san'atkorlar ichgan. Ilgariroqda ovulga bir qo'shiqchi-seri tushganda qimiz ichmay yotib olgan edi, otam bechora o'shandan qoq kumush ko'zani ot choptirib Sarvondan oldirgan. Botir va polvonlarga hipchabel ko'zada tutganlar.

"Demak, men ham bu uyning, Oqtatening asl qadrdonlaridan ekanman", deb qo'ydim ichimda.

Ko'hnako'z kayvoni bilan yosh kelinchak idishlarni yuvib, surtib chiqquncha sirlashdilar. Oshdan keyin sergitma (yengillik bag'ishlovchi) qimizni kelinchak quydi.

Qovoqdagi qimizga pishkak solib uzoq to'lg'ab-aylantirdi. Ag'darib yog'och tovoqqa quydi. Dasturxon jiyagiga olib keldi. Bir tizzalab yonlab o'tirdi. Yosh kelin hozirgina sho'rva quygan qalay cho'michni tovoqqa solmoqchi edi, Oqtate to'xtatdi, og'ochdan o'yilgan, sirlangan cho'mich-qoshiq berdi. Yosh kelin cho'mich bilan oldidagi oqni to'rt marta shopirdi. Shopiruv — qimiz taklif qilmoqchi kishining soniga bog'liq, har bir kishiga maxsus iltifoti edi bu. Chap qo'liga zarangni oldi. O'ng qo'lida cho'mich. Zarangni judayam to'ldirmay, oqbilak o'ng qo'liga tutib qimiz uzatdi. Za-

rangni ushlayotganimda qo'llari nozik dir etganday bo'ldi, kuzatib o'tirganimni sezdi shekilli. Yoqimli sharbat qimizni tamshana yutdim. Birdan boshga chopib, asablarimni talmovsiratganday bo'ldi.

To'shakni tashqariga solib qo'yishgan ekan. Ko'pgadeyin ko'zim ilinmadi. Pastlikda oqayotgan o'zanning kuychi ovozi birda olislab, birda yaqinlab, quloqqa yumshoq ohanglar quyib turdi. Tanam qizidi. Atrofga yalpiz hidi yoyildi. Tungi shamol yuzlarimni silab, ko'rpani turtkilab, qo'ynimga kirgisi keladi. Huv kichkinaligimda qishning kuni qo'ynima olib yotadigan mushukchamga o'xshaydi. Pirillaydimi-ey, yuzimga suykanadimi-ey... ko'kda qizil cho'g'i yaltillab samolyot uchib boradi, pirillagan o'sha ekan. Shamol uxlatib tashladi.

"Dalabay qarog'im!"

Xuddi yonginamda og'amning ovozi eshitilganday bo'ldi. "Dalabay qarog'im!" Otimni atab chaqiryapti. Olis safarga otlanib ketyaptimi deyman. Sezyapman, sezyapman-u, xo'shlashib qolgim keladi. Aniq og'amning ovozi.

Ko'zimni ochsam, tong otib ketibdi. O'rnimdan sakrab turib ketganimni bilmabman. "Og'am bir yutum qimizga zor bo'lib yotganda mening uxlab qolganimni qara-ya!" O'kinchdan o'zagim o'rtandi. Yig'lagim keldi. Oqtate huv anov yerda qulunlarni kerma ipga bog'lab yurgan ekan. Yoniga yetib bordim.

— Tangrim-ov, nima bo'ldi senga? Ilon chaqdimi yo qoraqurt tegdimi? Oqarib ketibsan-ku!

— Og'am og'rib yotganida mening bu yurishim qalay?

— Tuf-tuf-a! Sog' bo'lsang bo'ldi-yov, hozir choy ichib, yuramiz. Men ham og'angning ko'nglini so'rab kelaman. Chol Oqtangerni opkelishga ketdi.

Uyga keldik. Kechagi chiroyli zarangga qimiz quyib bergan edi, tomog'imdan o'tmadi. Choy ichilmadi. Jarbimadan eshitdim, Oqtate tunda tez-tez turib, to'rsiqni ag'darib chiqibdi. To'rsiq kechagi o'rnida emas, keragaga ilingan ekan. Qo'liga oldi. Bog'ini yechib, qimizga salqin havo yutqizdi. Og'zini bog'ladi. Xurjinga soldi.

— Yana bir tun turganda qimizmisan qimiz bo'lardi-ya... Ha, mayli...

— Bizlar yetib borgunimizcha achib qolar... — dedim.

— Qarog'im-ay, chayqalib achigan qimiz achchiq bo'ladi, tinch yotib achigan qimizga yetarmidi...

Kun ko'tarila boshlaganda qo'sh otliq yo'lga tushdik. Yo'l bo'yi Oqtate xurjunga solingan to'rsiqni ko'lanka tomonga olib o'tirdi. Tush oldida Arxarbuloqqa kelib tushdik.

Oqtate xurjunini yerga qo'ydi, to'rsiqni bir marta salqin suvga yotqizdi. Keyin bog'ining ipini yechib, qimizga toza havo yutqizdi. Og'zini boylayotgan edi, mo'ltirab tikilayotganimni ko'rib qoldimi, to'rsiqning ernagini burnimga keltirdi:

— Qarog'im-ay, iskab ko'r-chi, — dedi.

Mening ko'zlarimdan yosh chiqib ketdi. Pishgan qovunning achqimtir hidi ko'kragimni ochib yubordi. O'zimni yo'qotar bo'ldim. "Hali iskaganimda shunchalik qildi, ichidagi qimizdan ichsam esdan ketib yiqilib qolarman-ov, sira", deb o'yladim. Oqtatemga aytdim, u kishi hammasini hijjalab turmadi, faqat:

— Cho'pon yulduz ko'ringanda qimizga g'ozning bir tuyur sur yog'idan yutqizgan edim, — dedi. To'rsiqni sochiqqa qaytadan o'rab, xurjunga soldi. Otga qo'ndik.

Markazga kechqurun qaytgan mol bilan qo'shila kirdik. Ko'cha bo'yi uv-chuv, shovqin-suron, havo chang. Oqtanger pishqira boshladi. Tuyog'i shirtillagan qo'y-echkilarning izida bitta-bitta bola uyurlab olib, to'mpillatib quvib boradi. Ushoq mollar ovulga bo'g'irsoqday sochildi. Allaqayerdadir yetim qo'zi ma'raydi. Kuni bo'yi issiqdan, qatqil-quruq yovshandan yeyaverib suvsagan boyoqishlar qo'rasiga oshiqib tipirlaydi. Qani tezroq borib, quduq suviga kallalarini tiqsa! Oldimizda eshagining qo'sh biqiniga tepkilab podachi borayotgan ekan. Salomlashganim shu dedimi yoki miyasi sal achib qolganmi, bizlarni ko'rib, kiyiz qalpog'in yechdi, ichidan taqiyasini olib, betini surtdi, boshidan bug' ko'tarildi. Allaqayerdagi ma'rab yotgan yetim qo'zi endi zorlana boshladi. Og'amning hasham uyining darvozasiga qaraganda ko'z oldimni qorong'i bosdi. Uy oldi to'la tumonat odam. Otdan og'ib tushib yiqilib qolganimnigina bilaman, qolgani yodimda yo'q.

Yetim qo'zi men bo'lib chiqdim. Oqtate ingrab-yig'lab to'rsiq to'la qimizni og'amning tuprog'iga to'kdi.

...Yillar o‘tdi. Yaxshi, chiroyli idishlar eskirdi, ko‘nardi. O‘ttizga chiqdim. Oldda ko‘zga sovuq, ko‘ngilga yot, toyg‘anoq yo‘lli qirqning dovoni turibdi. Qirq yosh deganing bu — charchagan yurakning suronsiz, tanaffussiz gursillashlarini tinglash, yana, yoshlik ovullarining, olislab ketishi, yana, sochning siyraklashuvi, yana, yaxshi do‘stlarning tobora kamayib borishi, yana, vujuddagi kuch-quvvatning sarqila-sarqila, tomchilay-tomchilay yo‘qola borishi... Yana, Oqtatening qimizini sog‘inib kun o‘tkazish. Qizil jiydadan chopilgan, og‘iz tomonida emchakdekkina ko‘zi bor ko‘zadan qimiz simirish... Aytganday, haqiqiy insoniylikning, shafqatning, mehrning guvohi bo‘lmish o‘sha ko‘zani yangamning sandig‘ida hozir ham saqlovli deyishadi.

MOLDAXMET QANAZ

(1942)

Moldaxmet Qanaz 1942-yil 23-fevralda Qizilo'rda viloyati Orol tumanidagi Bekbavul bekatida tug'ilgan. 1963-yilda Chimkent pedagogika institutini tugatgan.

"Sonar" (1973), "Yer kindigi" (1975), "Arna" (1978), "Oq toylog'im" (1980), "Svet dalekogo solnsa" (1982), "Qum qa'ri" (1984), "Staraya zimovka" (1985), "Armondek olis qirg'oq" (1988), "Ekspress iz polinnoy stepi" (1989), "Yomg'irli yoz" (1993), "O'zoqdagi kun nuri" (1993), "Chika — Dabilning bolasi" (2003), "Qasos" (2013) kitoblari, 2009-yili asarlarining ikki jildlik to'plami chiqdi.

YOVSHAN HIDLI TEZYURAR POYEZD

Attang-ay, qish tunining shuncha uzoq bo'lishini qara-ya. Achchiq ichakday cho'zilmay tong ota qolsa-chi.

Chiroq yoqqani bilan ko'z oldi g'uborlashib ko'ra olmasligini bilgani uchun soatga boqmadi. Sarg'ayib termuladigani ham, intiqib quloq tutadigani ham shu deraza — toshqal'aday so'xtasi sovuq uyga tovush kiradigan yagona teshik shu. Xo'roz qichqirmaydigan, it hurmas, sigir mo'ramas, munkib uyquga cho'mgan shahar avval tormozi chiyqillagan ulovning, undan keyingina borib bir-yarim trolleybusning vishillab gursillagan tovushidan asta-sekin ixrab uyg'ona boshlashini tongotarda obdon o'rganib olgan Omonkeldining xaykali tarafga qaragan bir burchakdagi derazadan quyuq qorong'ilikni eshitilar-eshitilmas koyib sog'ina kutgan yana bir tong oqarib keladi. Shundan so'ng qulog'ini tutgan odamga vokzaldagi jarchi qizning xato aytib yuboramanmi degan hadikda urg'ulab avval qozoqcha, keyin o'rischa aytadigan e'lonlari chalinadi. Shu e'lonlar tugagach, buning shunchalik intiqlik bilan uzoq

kutgan, e, voh, yovshan hidini keltiruvchi tezyurar poyezd butun tanasini g'ijirlatib, g'ildiragini g'ichirlatib, odamni juda sog'intirib, vokzalga sekingina yaqinlashib kela boshlaydi. Sariq dalaning belga yetadigan bo'z yovshanining orasidan o'tib kelayotgan ushbu tezyurar poyezdda ketayotgan odamning armoni bo'lmasa kerak. Ayniqsa, burningizga keladigan ko'plab hidlar orasidagi yovshan hidining judayam xush yoqishini aytmaysizmi. Tun bo'yi vokzalga keladigan vagonlarni nari-beri o'tkazish uchun tinimsiz buyruq berib o'tirgan ayolning baqiroq va baland ovozi bilan haligi qizning mayin ovozini adashtirib bo'lmaydi. Bu — tezyurar poyezdni olib keladigan tovush, o'zgacha, sog'inchga to'lgan chiroyli ovoz.

Endi faqat dala tomonga behol intilib, tashqariga quloq solishdan boshqa iloj yo'q. Shamol bilan birga kelgan tezyurar poyezdni yoqalab yuradigan ozod davr-u davronning, qo'l-oyog'ing irodangga bo'ysungan erkin payting ko'z oldingdan uchib ketdi, mangu uchib ketdi. U davrlarning zavq-shavqini faqat o'zi biladi, faqat o'zi tushunadi: yengil xushbo'y hid — yangi uzilgan yovshan hidi usha davrlarda butun yo'l bo'ylab uni kuzatib, yurakka yangicha kuch bag'ishlaydi, bo'g'imlarigacha kirib boradi, keyin qo'l-oyoqlari yengillashadi va o'zini o'zi yugira ketishdan tiyib, odamlarga mag'rur nazar solgan holda yurishini davom etar edi. Shunda uning yuragi yosh bolaning yuragi kabi urganiga nima deysiz. Mashaqqatli mehnati besamar ketmaydi. Albatta, biror-bir tanish odam poyezddan tushadi va yoshi ulug' insonning oldidan salomlashmay o'tib ketmaydi. Ikkovi quchoqlashib, quyuq hol-ahvol so'rashadi. Agar hech kim kutib olishga chiqmagan bo'lsa: "Uyimiz shu yerda. Ehtimol, yo'lda charchagandirsiz. Bizning uyda choy iching va dam oling. Shundan keyin boradigan joyingizga ketasiz", deb o'zi bilan olib ketardi...

Bu uyga qadam bosadigan kishi haligi tezyurar poyezd to'xtagach, yarim soatlarcha vaqt o'tgach qo'ng'iroq qiladi: ojizga tayoq tutqazganday qarshisidagi ko'chadan to'g'ri chiqib, ko'ndalang keladigan ko'chaning ikkinchisi bilan yurib o'ngga 20-30 qadam burila solsa, yetadi. Balki topa olmayotgandir, balki, yukini ko'tarolmay inqillab-sinqillab, terlab-tepchib kelayotgandir, biya sog'inigacha umidini uzmaydi. Ba'zan o'ylaydi: qishloq

odami shaharga tushsa, qiz boladay iymanib qoladi, haligi kelishi mumkin bo'lgan yo'lovchi bularni erta uyg'otib, o'rinlaridan tursin, uyqulari ochilsin, deb stansiyaning yolg'iz taxtasida tong otishini obdon kutib, sarg'ayib o'tirib qolgan chiqar-ov.

Attang, otday yelib borib o'z ko'zi bilan ko'rib, bir aylanib kelarmidi...

Huv narigi ko'chadan o'tadigan tramvayning sharaq-shuraq gurillagani bilan qo'shilib shaharni g'ala-g'ovur bosadi. Endi ko'chadan ham, bemordan ham baraka ketadi. Karavotining boshidan ushlab, eplab o'rniga yetib, mukkasidan yotib qoldi.

Qasdiga olganday ob-havo ham bezbet xotinday bezrayib turib olganini ko'rmaysizmi. Bo'lmasa tavakkal qilib temiryo'l tarafni bir aylanib kelardi. Dastlab qor yog'di, eridi, qotdi, shundan keyin qor aralash yomg'ir yog'ib, uning ustiga bu ham qotdi. Nevaralarining jar yoqalab g'oz-g'oz bosib yurganlarini o'zi ham derazadan ko'rib o'tiribdi.

Kelini bilan o'g'liga, vokzal tomonga meni olib bor, deb yana aytolmaydi. "Osmon to'la farishta, har bittasi bir ishda", deganlaridek hozir tura solib tashvishlanayotganlari: har biri o'z harakatida, haytovur, birovi choy tayyorlashga, ikkinchisi bolani bog'chasiga eltish harakatini qiladi. Cho'nqayib o'tirib choylarini ichadi-da apil-tapil ishlariga oshiqishadi. Shundan ikkovi ikki tog'dan oshib kelganday kechqurun entikib nihoyat qaytib kelganlari.

Qariya o'zini kun sanab, darmoni qurib, orqaga ketib borayotganini yaxshi biladi.

Yozda ancha-muncha yaxshi edi. Undan avval erta ko'klamdagi ahvoli zo'r edi, attang-a! El-yurti bilan shahar orasini obod qilib yurardi. O'sha paytlar hech narsa bilinmasdi. Xalq bo'lgandan keyin yangiliksiz o'tira olarmidi, telefon bor, har soniya xabar yetib turadi, birovning kelin tushirgani, qarindosh-urug'ning qazo bo'lgani, birovning quda kutdisini bahona qilib, poyezdga o'tirib, Arg'umoqmertikken qaydasan, deb ketaverardi. Xumori bosilguncha el oralab qaytardi. Nafaqa puli o'z xarajatiga yetadi, uni nima qildingiz, deb siquvga olib yotgan o'g'li ham, kelini ham yo'q. Onasiga tortgan kenjasi avvalboshdan kamgap. Ayniqsa otasining ishiga yaxshi

ham, yomon ham deb mutlaqo aralashmagan. Kattasi: "Uzoq yuraverib nima qilasiz? Xumoringiz tarqagach qaytsangiz-chi. Bu yoqda biz xavotirlanib o'tiribmiz.", deydi. Chol uning dilidan ayta olmay turgan muddaosini tushunadi. O'g'lining jig'iga tegadigani — eldagi mish-mishlar. "Allaqalay bo'lib olib ketib edi. O'sha yoqda cholning kutuvi yaxshi bo'lmay turibdi-yov chamasi. Qaytish hayoliga ham kelmayotibdi", kabi shivir-shivirlar... Nomuslanadi-da. Shunda buning yonida kindik qoni tomgan yerga degan sog'inchini bosadigan kim bor? Shuni tushunmaydi-da, o'zininggina mezoni bilan o'lchaydi. Ikkovimiz degan ikki zamonning, ikki davrning odamlari emasmizmi.

Endi bu Yaratganning lang'illab yuradigan shu davrini ham ortiqsa deb turganini ko'rmaysizmi.

yemberganning naq hozirgi o'rtangan holi odam boshiga tushmasin.

Qariya mung'ayib, derazaga qarab g'aribona yotgan ko'yi, mana shu bir tosh uyga qanday qamalganligini bir necha bor o'ylab, hayolidan o'tkazdi.

Bechorani tuproq tortdimi, qaydam, avval burunda yo'q qiziqish bitib, shaharga havas qilgan kampiri eng avvalo boqiylik bo'ldi. Qo'lda bo'lgani, xush ko'rgani bilan, yoshlarning ko'z qarashlari, talablari boshqacha, ikki o'g'ilga ham qarshi bo'lgani yo'q, o'tgan yili oldin kattasi, undan keyin ming'illab yurib mana shu kichigi ko'chib tindi. Kichigiga, og'ang bo'lsa o'rnini topdi, qayta ko'chib keladigan u yo'q. Ko'rib o'tiribsan, keksayib qoldim: dard degani bor, ajal aytib kelmaydi, ko'zimning oldida bo'l, deb aytgan edi, tuz-ta'm tortdimi, kelinning uruq-aymog'i mana shu yoqda edi, shu tortdimi, u bahonani bir aytib, bu bahonani bir aytib, haytovur ko'chib borib ko'ngli joyiga tushdi. Arg'umoqmertikkanda qo'nim topmasliklariga avvalboshdanoq ko'zi yetgan. Bolalar o'rnini topdi, xizmatlari ham yomon emas, har biri o'z shaxsiy uyiga ega. Qudasi avtobus bilan yarim soatdayoq yetadigan mana shu yerda, yoshlarga buyum bo'libdimi, hafta o'tmay borib turibdi. O'zi bo'lmasa....

Manovi "yomon" nevarasini bag'riga bosib, ota yurtida tinchgina o'tirgandi. Kelini bolasining maktabga borishini bahona qilib

olib ketgach ikkovi oilada yetim qo'ziday shumpayib qolishdi. Uy ichi jimjit, burungiday g'ala-g'ovur yo'q. O'zi boyagi odati bilan tizzasini bosib, Aqto'rg'inning diydiyosiga hali-veri quloq osmay, chidarga chidab kelgan. U paytlar ikkovining ham salomatliklari yaxshi, oh-vohdan ovloq edi, kamripining og'rib qolgani og'ir zarba bo'ldi. Sovxoz u yoqda tursin, tumanga qaratdi, bo'lmadi, viloyatda davolatdi, unda ham bo'lmadi. Uning katta do'xtirlarga qarataylik, sababini solib shifo topsa zora, hartugul bolalarning ko'z oldida bo'laylik, degani uning tilini qisqa qildi. Ayniqsa, u yoqqa ko'chishga qaror qilib o'tirgan Aqto'rg'inning sigir sog'ib o'tirib, qulab qolganligi ko'zini ochdi. Bir kuni o'ldirib olib bolalarimning yuziga qaray olmay yolg'iz o'zim el ichida so'ppayib qolarman, degan o'y bilan o'g'illariga xabar berib, hamqishloqlari bilan xayrlashib, biroz molini "qaytib kelib joylashtirirman", deb bosh-oyog'i bir haftaning ichida shoshilib ko'chdi-da ketdi... "Tuz-nasibang tortib tursa..." degani mana shu'da.

Shunday qilib ko'chib kelsin, tosh uyga qamalsin, uyda tahorat qilib, naq shu uyda o'tirib yeb-ichsin. Ichida yoqtirmagani bilan, yoqmagani emas o'rgana olmagani, kap-katta bo'la turib oilaning barakasini uchirib nimam bor, deb o'ylab, bolalariga sir bermay yurgani. Aqtorg'inni bolalari qizil "Jiguli"ga o'tqazib olib, u yoqbu yoqqa olib boradi. Turli-tuman shifoxonalarga qayta-qayta yotqizib, hammalari yopirilishib davolatadi. Bu esa bolalarining tayyorlab bergan sut-qatig'ini yetkazadi. Ba'zan mol-holini o't-suvi kechiksa ham, kampirining oldida o'tirib uzoq-uzoq bemalol suhbatlashadi. Davolanish muddati bitib, shifoxonadan ham chiqdi. Buning, sog'ayib ketdi-yov, deb ko'ngli xotirjam bo'lgan kunlarning birida yonida yotgan kampiri tushiga kirdi. Naq o'ngida ko'rganday oydan aniq, suvdan tiniq-ov. Boshidan oyog'igacha yopinib qora kiyingan, qora sigirga minib, qirdan oshib ketib borayotir. Ortiga qayrilib qaraydi. Qarab yana shunday deydi: "Cholginam-ov, men ketib borayotibman. Yaxshi qoling! Bolalarga endi o'zingiz bosh-qosh bo'lgaysiz". Bu esa zil-zambil oyoqlarini yerdan ko'tara olmay ortidan yugurgisi keladi. "Menga o'xshab sigirga minmang, poyezdga mining", deydi yana. Cho'chib uyg'onsa g'ira-shira tong otib kelayotgan ekan. Asta sermab siypalab kelib qarasa kampiri yonida

beg‘am-betashvish uxlab yotibdi. Yuragi qurmagur gursillab urib turibdi uning. O‘tirib kalima keltirdi, qiblaga qarab, qora balo — kasallik-ku, bechora dardidan xalos bo‘lib ketar ekan-ov, deb yaxshilikka yo‘ydi. Degan bilan shu tushi qo‘liga tutqazgan tayoqday naq kelmasi bormi — ichidan titrab, sanab — yetti kundan keyin oshxona tomonda yurgan kampiri: “Hoy, otasi, men o‘zimni yomon his qilyapman”, degach asta qo‘ltig‘idan suyab, divanga olib kelib yotqizdi, oyog‘ini ko‘tarib olgani shu ekan, iyagini qoqdi-da bir og‘iz so‘z aytmay, rangi oqarib jon taslim qildi-qo‘ydi.

Qirq ikki yil bir oilada yashab borini ham, yo‘g‘ini ham birga baham ko‘rgan, biron marta yuziga tik qaramagan, qovog‘ini uymagan kampirini yo‘qotgan odamgina tushunadigan chin yetimlik tushdi boshiga. Umrida qozon-tovoqqa aralashmagan inson umri qisqarib, shumpayib qoldi. Bunday yolg‘izlikni boshiga tushgan kishigina tushunsa kerak. O‘zidan 12 yosh kichik, bokira qo‘shilgan jufti halolini undan oldin qazo topib, shu yoshga kelganida so‘ppayib qolaman, degan o‘y yetti uxlab tushiga ham kirmagan edi uning. Yoshining kattaligi bor, erkak kishining bola-chaqa orasida o‘ng‘aysizligi bor, doim o‘zini oldinga qo‘yib, “u dunyoga ketish mening navbatim edi”, deb o‘ylar edi. Shunday qilib Haqqa bosh egib, ixlos bilan tilardi. Buning gapini qulog‘iga iladigan qismat bormi?

Shundan so‘ng ikki qo‘li oldiga, o‘zi uyga sig‘maydigan bo‘lib qoldi. Qidirib gazeta topib o‘qiydi, televizor qulog‘ini buraydi, zerikkanidan keyin Omongeldi haykali yoniga borib, biroz o‘tgan-ketganga qarab o‘tiradi, so‘ng yo‘ldan o‘tib Yoshlar teatri oldidagi favvorani tomosha qilib, salqinlab turadi. Uch-to‘rt chol-kampir uchraydi, biroq ular bilan gapi uncha qovushavermaydi. Bolalari kelgach, haytovur kech qanday bo‘lsa-da o‘tadi, tong otsa bo‘ldi, yolg‘iz o‘zi hech yerga sig‘maydi. Yotsa yonboshiga yer botib, o‘tirsa xayol qurg‘urga qay-qaylardagi keladi. Yayovlab vokzalga boradigan odat chiqarib, sog‘intirib yelib keladigan elning tezyurar poyezdini qoraylab yurgani shundan.

Baland g‘isht uy soyasida o‘tgan-ketgan, chiqib tushgan yo‘lovchilarga qarab o‘tirib vaqt o‘tkazadi. Haligiday tanishlar uchrab qoladigan kunlar ham bo‘ladi. Uyga mehmon ergashtirib keladigan odat ham chiqardi. Buning chaqirilmagan mehmoniga qovoq

chitib turgan o‘g‘il ham, kelin ham yo‘q. Otalarining yetimsirab, Arg‘imaqmertikkenning yovshanining hidini sog‘inib yurganini anglasalar...

Shunisiga ham shukur. Shaharliklarning fe’li tor keladi, degan qoida qulog‘iga singib ketgan:

— O‘zi tor yerda mazalaringni oldim-ov, chirog‘im. Manovi tilponga zvanttasa, olib ketadi. Tilgrom yuborgandi, poyizga nega chiqmaganlari qaydam, — deb ichki cho‘ntagidan ro‘molchaga tugilgan qog‘oz chiqargan tegirmonchi. Sibanning ayoliga bergan javobi uchun kelinidan o‘ta xursand bo‘lgandi.

— Bizni odamlardan yotsiraydi, deb o‘ylamang. Qisilmay emin-erkin o‘tiravering, buvijon O‘rganib ketganmiz. Otamiz mehmondo‘st. O‘n kunlarcha uyda mehmon bo‘lmay qolsa uyimiz huvillab qolganday.

Avvalo mehmon uy egasini qosh-qobog‘iga qaraydi. Uyda odam o‘tirganda har qaysisini ham emin-erkin yurganiga nima yetsin.

— Nishevo, kelin. Qo‘noq o‘z rizqini o‘zi ola keladi, — deydi bu so‘lqillab kulib. Shunda, “Bunisiga ham shukur, — deb ich-ichidan tavba qiladi. — Shumpayib yolg‘iz qolganimda kelinim ergashtirib kelgan bir-ikki odamimni yoqtirmay, kuydirgan kalladay tirishib yursa nima qilardim. Keksayib qolganimda bu ham Tangrimning menga bergan in’omi”.

Shu ovulning bu chetidan u chetigacha oralab, tag-tugini ajikilab so‘rab, bir yangilikka quvonib, bir yangilikdan ezilib qolardi. U davrlar endi qayda. Ataylab kelgan odam bo‘lmasa, ovuldoshini kim olib keladi, bu uyda Arg‘imaqmertikkenning bola-chaqasigacha taniydigan kim bor? Poyezdni kutib olishga vaqtlari qayda?!

Bu yilgi so‘nggi chillada borib qaytgandan keyin Arg‘imaqmertikken ko‘z oldidan nari ketmay qoldi. So‘nggi bor diydorlashuvi ekanligini aniq bildi. Yuragi sirqirab, hayotining bor ma’nisi shu yerda batamom qolib borayotganlay, haytovur, quruq jussasi qaytdi. Gavdada jon bor demasang quruq jasad...

Hayot shunday shirin, degan bilan ayniqsa Aqto‘rg‘inning buni orqaga tashlab ketgani ko‘ngliga qattiq botdi. Marhumaning ta’ziya marosimlari o‘tib, qarindosh-urug‘ joy-joyiga tarqalishdi, bu yolg‘iz qolgan paytlari yomon ezilgan, juftini yo‘qotgan anovi xosi-

yatli qushday ensasi qotib, qattiq ezildi. Buning shikoyatini tinglaydigan, yupatadigan kimi bor?! Hammasini ichiga yutadi, haytovur, sirtiga chiqarmay, bola-chaqasiga sezdirmay yolg'iz o'tirib olib nari-beri o'ylaydi. Shunday qilib g'amginlikka botaveradi, o'y oqimi bilan ketaveradi. Bunday qaraganda ko'nishga ham bo'ladigan hol, haytovur, issiq jonga bir o'lim, u yoqqa kimning kimdan keyin jo'nashligi buning hisoblaydigan ishimi. Qo'y, bo'lmas, deb o'z-o'zini qayragani bilan ichidagi o'lmas qurt battarroq kemiradi.

Kampiri boqiylik bo'lganidan so'ng uzamay dard yengib olgan. Chamasi g'am-anduhli o'ylardan topib oldim-ov, deb mo'ljallaydi. Avvalboshdanoq u shakllanib qolgan odatiga ko'ra oila tashvishidan yiroq, solib urib yuraveradi, boradigan yeriga boradi, to'ylaydigan yerida to'ylaydi. Endi payqashicha, Aqto'rg'in ketgach arzimas ishning o'zi ham juda qiyin, tutqich bermas asov otday qiyomat-qoyim ko'rinadi-da turadi. Shundan keyin yurak-bag'ri eziladi. "Bechoraga umr bo'yi bir og'iz iliq so'z aytganim yo'q, "past etakning nasibasi shu", deb erkakligimni peshlab yuraveribman-ov". Buni shu paytgacha ko'kayiga bosib yurgani, xulosa qilib aytganda otiga "oq" qo'shilgani shu qora kampirning orqasidan ekan. Endi nima bo'ldi? O'ylab qarasa, hammasi o'z o'rnidagidek, shukur, bolalarining boshlari omon, bag'irlari butun, yaxshimi-yomonmi xizmatlarida qatorlaridan kam emas. Shunday bo'lsa-da orqa suyar qovurg'asi yo'qday ich-etini yeb, ezilishni qo'ya qolmadi.

Dardini biroz singdirib olganligini bir tomondan shu o'zining mo'rt tabiatidan ko'radi. Avvalda elamagan bo'ldi. Dorisini ichganini ichdi, ichmaganini axlat chelagiga tashladi. Yana bir yiqilganda katta o'g'li aytdi:

— Ota, shifoxonaga yotib chiqqaningizda yaxshi bo'lardi. Shifokorlar shunday deyishyapti.

— Ko'rarmiz, — deb qo'ya qoldi u.

Ichida o'ylaydi: "Shu do'xtiring kuchli bo'lsa, Aqto'rg'inni nega olib qolmadi? Mening dardimni qayin yurting qaydan bilsin? El-yurtimga bir borib qaytsam-a, yayrab darddan xalos bo'lib ketardim". Keyin "qul qochsa Qo'ng'irotdan chiqadi", deb ezmalanib o'tirib o'g'lini ko'ndirdi-yu, shosha-pisha poyezdga otlandi. Dori hidi anqigan shifoxonada qamalgandan ko'ra ovulning salqin havo-

sidan rohatlanib nafas olib, oralari siyraklashib qolgan tengqurlari bilan diydorlashib, o'tgan-ketganni eslab, sirlashib-suhbatlashib, ko'ngil ochib kelishga qaror qildi. "Quyonning qochishiga miltiqning bosilishi to'g'ri keldi", deganlariday, uyiga Urkimboy telefon qilib, el orasida falon-falonday yangiliklar bo'layotir, ko'kam bir yerda qadalib o'tiravermay kelib, ko'ngil ko'tarib ketsin, deb chaqirgani ajoyib ish bo'ldi-da!

Shu safar Arg'imaqmertikkenni juda sog'inib ketdi. Oldi tun bo'lganlikdan poyezd yurar-yurmas tars burkanib yotib oldi-da, sahar-mardon turdi. Tug'ilgan yeriga yaqinlashgan sayin havo tozarib, kengayib faqat o'ta ziyrak odamlargina tushuna oladigan sariq dalaning yoqimli shamoli bir essin-a, bir essin. Yovshanning qishqil hidi temir vagonning burchak burchagidan yelib esib, tosh tepasidan butun vujudiga tarab, o'zini benihoyat yengil sezindi. Xuddi yosh boladay.

Oxiri yosh boladay o'zi bilan o'zi ovunib ota uyi — kindik qoni tomib, changitib chopqillab, yigit atalib, otga qo'nib, tutun tutatgan, shundan keyin o'sib-ungan yeriga ham yetdi-yov.

Umr bo'yi talay yerning tuz-ta'min totib yurib Arg'imaqmertikkenni shu safargiday sog'inmagan chiqar.

Qabriston boshiga yolg'iz o'zi borib, kechagi uzangi yo'ldosh tengqurlari, suyagi allaqachon chirib ketgan bobolari ruhiga atab tilovat qildi. Oralab yurib arvohlarning birini qoldirmadi. Bo'g'inlari bo'shab, ko'z oldi tinib, tovushi qaltirab ketdi. "Ey arvohlar, oyoq tomoninglarda yotgan Aqto'rg'inning noaniq sabab bilan yerning tagiga olib borib tashlab keldi manovi bebaxt. Nima qilsangiz ham o'zingiz biling...". Aqto'rg'inning tikib bergan oppoq ro'moli bilan namlangan ko'zlarini artdi, qabr yonlariga bir hovuchdan tuproq tashlab qo'ydi.

Yayrab-yashnab yozilib, qulunday o'ynab sakrab ketmagani bilan o'yi, bo'yi shunday huzurlandi-ki! "Oh, shu yerning havosi-ey, havosi bo'lakcha zo'r-da!" deb kavsar havosidan entikib simirdi. "Bu Qoraqum emas, qarog'im-ku", deb olaqoni bilan qum sidirib, yolg'iz ketib qir yonboshidagi maysazor tevaragida yovshan hidini zavq bilan hidladi. "Elekeng, Yelekeng og'amni"... o'z qulog'i bilan qayta eshitib, eshitgan sayin huzurlanadi. "Elekeng kelibdi,

xush kelibsiz deb aytaylik, salom beraylik", deb yopirilib kelgan yosh-yalangni salomlarini olsin. Shunda har qaysisi kelgan sayin qavat-qavat mungli ko'rinishi ko'zdan yo'qolganday.

Vaqtichog'lik bilan o'tgan ikki hafta ham, bir oy ham o'tib bu yiqildi, yiqilganda ham yurtning kapalagini uchirib yiqildi. Ko'zlari do'lanaday bo'lib qo'rqqan inilari bolalariga telefon qildi. Ular yo'lning yarmisini samolyotda, yarmisini poyezdlatib ertasiga yetib kelib, tezlab Almatiga ola ketishga harakat qilishdi.

"Hoy, biroz qo'ya turinglar. Noumid — shayton. Yaxshi bo'lib ketar. Og'rimaydigan jon bormi". Hovuri bosildi. Buning ichki hisobi shunday: "Oxir ajal qurg'ur mana shu safar tik kelgan bo'lsa tug'ilgan yerining tuprog'i buyursin. Ko'zim yumilsa, keyin meni u yoqqa izlab boradigan kim bor". Insonning aytgani qachon to'g'ri kelib ro'yobga chiqibdi, na tuzalib bo'lmadi, na o'lib. Kattasi ketib, kichigi qoldi. Undan keyin kichik qaytib, kattasi keldi. Bolalarni obdon ovvoraga soldi. Bularning aytganlariga umidlanib, u yoqdagi bilgich do'xtir qarasa tuzalib ham ketishim mumkin-ov, degan umidi qurmagur bir yondan mo'ralaydi. Ichi biladi, unday-bunday bo'la ketsa oydalada qoldirmay o'g'illari otalarini o'zlari chiqargilari kelib, oriyat uchun tirishiboq yurishibdi. Urushadigani-so'kadigani yo'q. Nima qilsin endi. Bir jihatdan ularniki ham to'g'ri. "Nimaga unday bo'ldi?" deb Urkimboyga solsa: "Bolalarning aytganiga ko'nsang-chi. Ular katta do'xtir ko'p joyda-ku", deb ovutadi. Uning ham dilidagini tushunadi.

Bular aytganiga tiralib o'tirgach, nailoj, "tinchgina o'ldirmaydigan bo'ldi-yov" deb qiynala-qiynala ko'ngani. Katta do'xtir ham issiq jon, to'zgan vujudga yamoq bo'la olmasligini bilib turibdi. Ikki bolasini "otasini tashlab qo'ydi" deya yurtga yomonotliq qilgisi kelmasdi. Yana o'ylaydi: yonimda yotsin deb Aqto'rg'in ham bolalarini quvdalab yurgani-da. Mayli, uning aytgani bo'la qolsin, so'nggi tilagini bajarsin-chi bechoraning. Tirigida yetagiga yurmagandim. "Bolalarimizning ko'z oldimizda bir kun yurgani — bir yillik umr emasmi", deb sudramalab qo'ymagan shu edi. Rostdan ham kampirini aytgani bo'lmoqda.

Poyezdga ko'tarib solayotib, ko'ngli bo'shab, Urkimboy inisi: "Endi yana diydor ko'rishamizmi yo'qmi. Tog'day bo'lib oldimiz-

da yuraversangiz qaniydi?! O'zingiz boringizda beg'am-betashvish, sizga suyanib yurardik. Siz ham endi bizni tashlab ketayotibsizmi", deb quchoqlab o'kirib yig'laganida buning ham ko'ngli bo'shab, qattiq hayajonlangandi. Poyezd degani temir sho'rlik, nimani tinglasin, orqa-oldingga qaraguningcha vaqt o'tib, ezilgan ko'kko'z sariq cholni o'pka-jigarini to'lqitib, olislarga olib qochdi.

Attang-ey, endi mana bir vaqtlar ko'rgan shu temir poyezdni ham sog'inib yotibdi. Unisi ham, bunisi ham g'ıit yolg'on, shaqillagan temir poyezdni shuncha zoriqib sog'inarman, degan o'y hayoliga ham kelmagandi. Yovshanning burqiragan xushbo'y hidini olib keladigan odatdagi tezyurar poyezdni ...

Tong otib, xonaning ichi qishki g'ira-shira shu'la bilan to'ldi. Qancha quloq tutgani bilan eshik qo'ng'irog'ini hech kim bosmadi.

Trolleybuslar yo'lovchilarni o'z joylariga yetkazmay tinmaydigan beto'xtov harakatini bir maromda o'z iziga tushirdi, yengil mashinalar ham zuvillab o'tayotir. Faqat stansiya tomon jimjit. Nevarasining stoliga yaqinlashib, qiyshaygan chiroqning tugmasini bosdi. Telefonni durustlab qo'yib, bolalarni uyg'otvormayin, deb o'zining yoddan biladigan nomerini shiqillatmay tera boshladi. Telefonning narigi tomonidan uzoq du-dulagan tovushdan so'ng uyqusiragan qiz:

— Spra-voch-naya slu-shayet, — deya tovushini cho'zib esnaganday bo'ldi. "Boyoqishlar, kechasi bilan uxlamagandan so'ng nima qilsin".

— Debishka, skaji pajalista, kagda Moskovskiy poyiz pribьibaet?

Telefondagi g'oyibona yaxshi ko'radigan qizi:

— Opazdi-iva-yet na-aa tri chas-aa, — dedi-da boshqa so'zga kelmasdan go'shakni tars etib qo'yib qo'ydi.

Qisqa du-dulagan tovush eshitildi. Haligi xabarni tushunib, anglab yetmay, hali ham go'shakni joyiga qo'ymaganini payqadi, xayol bilan karavoti tomon yo'naldi.

Shunda kim kelishi mumkin? Chol tepaga qarab yotib olib, Arg'imaqmertikkenning old tomonida siyrak, narigi tomonida ko'p

uylar o'rnashgan yolg'iz ko'chasining boshidan tushib oyog'igacha xayolan kezib chiqdi. Bu yerda birining bolasi o'qishda, birining quda-andalari bor, balki dam olishga, balki davolanishga kelar. Shunda ovuldan chiqarda, u yoqda boradigan kimning uyi bor edi, deb so'rashmaydimi? So'ragandan keyin bultur kuz ko'chib ketgan Embergan otaning uyi bor, deb aytmaydimi? Stansiya yaqinida, demaydimi? Eng avvalo salom berib, otaning qo'lini olib, bemor ko'rinadi, kayfiyati hol-ahvolini bilib, ishingga shundan so'ng-oq borarsan, deb tayinlamaydimi? Bizning uyni stansiyaga shundoq tegib turganini qishloqning bari biladi-ku!

Kim bo'lsa ham Arg'imaqmertikkendan ko'z ko'rgan haytovur, bir tanishi kela qolsa-chi. O'zining og'a-kelinoyilari, qarindosh-urug'lari bilan itning tishiday siyraklashib qolgan tengqurlaridan biri bo'lsa-ku zo'r bo'lardi. Bu bir bayram bo'lardi. Ovul-aymoqning hol-ahvolini maydalab so'rab bir xumoridan chiqardi. Ataylab kelmayoq qo'ysin it o'lgan joydan ikkini biri kela oladimi, o'z ishlari bilan yurib, yonida faqat bir tunab ketsa bo'ldi edi.

Albatta, Urkimboyning yonida to'rt-besh kun yotib, quvnab-ag'anab uning kayfiyatini ko'tarib ketganiga nima yetsin?... Unday zamon qayda?... Eng yaqin qondoshi, nevara inisi buning ahvolini tushunadigan, Xudodan qaytgur, baraka topgur. Boshqalari cholpol, kampir-sampir, ko'pi qari-qartang. Ular tug'ilgan yeridan olisdagi Almati tugul birortasi tuman markaziga ham chiqa olmaydi... Umid qiladigani Urkimboy. Bitib bo'lmaydigan zarur ish oyog'iga tushov bo'lmasa Urkimboyga hech narsa emas, og'asini sog'inganda solib urib yetib keladi. Urkimboy ekani rost bo'lsa og'asining hol-ahvolini bilishga bir kelmasmi ekan?...

Tunov kuni shifoxonadan chiqishida ataylab kelib yonida yotib qoldi. Shunda odam bolasini izlagani yo'q, o'tganni aytdi, ketganni aytdi, butun umri ko'z oldida qayta gavdalanganday bo'ldi. Yonidan zarra ham uzoqlashmadi, beli, oyoq-qo'lini uqaladi. Qo'ltig'idan suyab yuvinishga olib bordi. Bolalari ishlariga ketganlarida shoshilmay yaxshilab choy ichirdi. Chamasi og'asiga qilgan eng so'nggi xizmati ham, inilik farzi ham shu bo'lar, shunday o'ylagan bo'larov. Ishtahasi ochilib, ko'rgan ko'zga o'zgarib, tuzalib qolganday edi. Pastga tushib o'rindiqqa o'tiradi, qo'ltig'idan inisi suyab yurgandan

so‘ng xiyobonga borib toza havodan uzoq-uzoq nafas olib qaytadi. Essiz, ko‘ngil desang-chi! Inisi yo‘lga otlanganda bu bo‘shashib qoldi. Butun Arg‘imaqmertikken ko‘tarilib kelganday edi, hech kimni ham izlamagandi, yana ko‘chgan elning yurtida qolganday qang‘iradi. Shu o‘tgan bir betakror damlarni hanuzgacha ko‘zi qiya olmaydi. Endigi armon ko‘z tirigida yana bir kelib ketsa... birgina kelib ketsa yetadi. Butun eli — o‘zining kindik qoni tomgan yerdagi katta-kichik urug‘-aymoq nomidan so‘nggi marta xo‘shlashib, Urkimboyning qo‘lini bir qisib qo‘ysa yetardi.

Qariya xayol oqimini shu yeriga kelganida ko‘ngli bo‘shab, xo‘rligi kelib, ezilib borayotganini sezdi, boshi aylanib, ko‘z oldini tuman bosdi.

Qishning uchquni mana shu. Shu sho‘rlikning ham burniga suv yetmay yurgan chiqarov. Molga qaragan kishilarning ahvoli nima kechayotgan ekan-a? “Yut yetti og‘aynili”, deganday yozda qurg‘oqchilik bo‘lgandi, o‘t-cho‘pini yetarli qilib tushirib oldimikin? Balki u yoqda yaxmalak yo‘q, yumshoq qor chiqar. Mollari qo‘rada turib qolmay oyog‘idan yurib kelayotgandir. Nima bo‘lganda ham bu paytla Urkimboyni yubormaydi. Telegram borib tursa unda boshqa gap. Unda, haytovur, og‘asining eng so‘nggi marta yumushini bosh-qoshida bo‘lib, bolalarga bosh bo‘lib, ikki-uch kuniga yarar, kelini bilan kelib, inilarini yupatib ketar...

Yotoq bo‘lmadan oldin kelini chiqib:

— Ota, yaxshi yotibsizmi? — deb yoniga keldi.

— Yotibman, chirog‘im.

— Sut pishirib beraymi?

— Ovora bo‘lmay qo‘yaqol, bo‘tam, hech nimaga ishtaham yo‘q.

Yuvindi, oshxonaga o‘tib choy qo‘ydi, so‘ng bolalarini uyg‘ota boshladi. Undan keyin o‘g‘li turib, apil-tapil kiyinib yurib buning hol-ahvolini so‘radi, qo‘lini siypalab, peshonasiga kaftini qo‘yib ko‘rdi. Saldan keyin biri ishga, biri o‘qishga, yana biri bolalar bog‘chasiga tarqalib ketishdi, uy ichini har kungiday og‘ir sukunat qopladi.

Stol ustiga yaqinlatib tayyorlab qo‘yilgan choyi va dori-darmonlari qo‘l tegmagan ko‘yi mo‘ltayib turibdi.

Zarracha o'pka-ginasi yo'q, mana shu kichik kelini to'g'risida o'ylandi. Qo'lidan kelganini ayamadi. Biroq bu erta kunda boqiylik bo'lib ketsa angrab yo'qlay olmaydi. Qaynonasi o'lganda ko'rgan. Sochi hurpayib ta'ziyaga kelgan odam bilan ham durustlab ko'risholmay, burnini tortib ho'ng-ho'ng yig'lagani bo'lmasa. Qirqi kuni tong sahardan to kechgacha yo'qsab yig'lash tugul hech bo'lmasa yettisigacha boshiga ro'mol solib yursa ekan. Ularning ta'ziya marosimlari ham tantanaga o'xshar ekan. Zamoni shunday bo'lgach, nailoj. Izlab kelgan odamni ko'nglini bo'shatib, dillarini sirqiratib yo'qlov aytadigan kelinlar qancha yurtda?

Qariya karavotga suyanib eplab turib, yengil yuvinib keldi-da nonga og'iz tegizdi, sovub qolgan choydan ikki ho'plab nahorini ochdi, poyezdning keladigan vaqti bo'ldi-yov, degan mo'ljalda qishloq odami uyni topolmay yurgan chiqar, deb derazadan ko'chaga biroz termulib qarab turdi. Vujudi holsizlanib, ko'z oldi qoraya boshladi.

Bugun poyezddan hech kim tushmadi. Kim bilsin, balki, tushgan ham chiqar. Biroq bu uyni izlab kelgan odam bo'lmadi. O'zi chiqsa birov-mirovni ko'rarmidi.

Ertasiga poyezd bir soat kechikib keldi, ammo undan ham hech kim tushmadi.

Kelasi kuni poyezdni o'z ko'zi bilan ko'rib, aylanib qaytishga bel bog'ladi. Qizdan so'ragandi, poyezd yana bir yarim soatga kechikishini aytdi. Bunisi ayni muddao, demak tong ota keladi degan so'z.

Odatdagiday yarim kechada uyg'onib, tashqariga quloq soldi. G'imir-simir boshlanib, ko'chada tirikchilik belgilari paydo bo'la boshladi. Nafasini ichiga yutib, bolalar xonasiga qarab, hammasi pishillab uxlab yotganini ko'rdi. Birortasi uyg'onsa yubormasligi aniq. Erkak emasmi, so'nggi marta tavakkal etishga bel bog'ladi, o'z-o'zini adl tutib, oyoqlarini sudrab kiyina boshladi. "Ertaroq borsam kutib o'tiraman-da". Qo'l-oyog'i bo'ysunmay qaltirab ketyaptimi-ey...

Xastalik qariyani batamom chulg'ab, tobora holsizlanib borardi. Shunday bo'lsa ham u yovshan hidi anqigan tezyurar poyezdni balki so'nggi marta ko'rayotgan bo'lishim mumkin, Arg'imaqmertikkendan kelgan kim bo'lsa ham birortasi bilan eng so'nggi bor

diydorlashuvim bo'lar, degan umid bilan tanasidagi butun kuchini sarflayotgan edi. So'nggi bor. Endigi ko'rarini hammasi ham so'nggi bor.

Shoshganidanmi, kuchli hayajondanmi yoki kuch-quvvati yetmayotganidanmi chiqib borayotib eshikni qattiq tortib, zichlab yopishga darmoni yetmadi. Salqin shabada vujudini siypalab o'tdi. Kesakiga suyanib borib, qo'l cho'zib eshikni yopdi. Ming afsuski, bularning xonalari naq osmonning ostida — beshinchi qavatda edi, bir qadam, ikki qadam bosdi, yopiray bolalarning har kuni gursillatib, nari-beri chopqillab yurgan zinapoyasi shunchalik olismidi?... Ammo qariya oriq qo'yday tirishib, eplab-seplab tushib kelayotganidan shu tobda juda mamnun edi.

O‘ROLXON BO‘KEY

(1943–1993)

O‘rolxon Bo‘key 1943-yil 28-sentyabrda Sharqiy Qozog‘iston viloyatining Qatonqarag‘ay tumanining Chingistoy ovulida tug‘ildi. 1969-yilda Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

1970-yilda Almati shahrida nashr etilgan “Qamshiger” nomli ilk qissa va hikoyalar to‘plami bilan adib nomi ko‘pchilikka tanildi. Birinchi to‘plamdan so‘ng “Urker” (1971), “Qaydasan qashqa qulunim” (1973), “Muztog‘” (1975) kitoblari nashr etilgan. 1978-yilda “Chaqmoq izi”, 1986-yilda “Qish biz tomonda uzun” qissa va hikoyalar to‘plamlari uchun adabiy va davlat mukofotlari laureati bo‘lgan.

OPAMNING TOG‘ORASI

O‘sha kezlari men bola, opam[1] ham yoshroq edi. Ota-onalarmiz qir oshib, adirlarga qo‘nib mol ortidan yurar, oy-yilda bo‘lmasa ularning diydorlarini ko‘rish hamisha nasib etavermasdi. Urushdan keyingi yillarda es yig‘ib, ezilgan yelkasin kerib, ensasi ko‘tarila boshlagan elning barakali va tinch tirikchiligi jar yoqasida o‘tirgan yolg‘iz uy — albatta, bizga ham tegishli edi. Qo‘sh bo‘lmali tomi yopilmagan yo‘g‘on og‘ochli uy qoshida qish-yozi bilan timirskilangan, baqirib, shovqinlagan bolalarning bozoriga aylanardi.

Bizning uydan tosh yetarday joyda shovullab yotgancha oqimi qattiq Buqtirma — yoz chiqa suvga cho‘milgan, qishda toyg‘onoq otgan bolalarning yer-u ko‘kni qidirib izlasang ham topa olmas qiziqlariga to‘la makoni edi. Toshday muz bo‘lib qotgan piymasi, suv tegib ho‘l bo‘lgan ko‘ylak-ishtonini ham bizning uyga kelib quritishardi. O‘shanda opam meninggina emas, butun ovul bolalarining eng mehribon onasiday tuyulardi.

[1] Muallif opa deb buvisi haqida aytmoqda.

O‘n besh yoshimgacha opamning qo‘ynida yotdim, o‘n besh yoshimgacha otaning, onaning kim ekanligini bilmay, shu mehribonim opamning tarbiyasida ulg‘aydim; o‘n besh yoshimgacha opamning etagiga yopishib, ortidan qolmay qulunday ergashib er yetdim.

Shu kishi bilan yursam, mol so‘ygan uyning qulog‘i, totlisi va mazalisi mening og‘zimga tegardi. Men u vaqtda opamning umr bayonini, hatto kim ekanligini bilmay, tashvishsiz nurafshon kunlarga taltayib o‘sardim. Bugun esa ko‘z oldimda oriq-tirriq kampir, quruqshagan kuchli barmoqlar, labi va iyagini kuyik chalib tirtiq solgan nozik raftor, nimchasiga yopishganday osilib turgan oq oralagan qora kokilli sochgina... mening ko‘z o‘ngimda: nishtarini qayrab boshining qoni tepgan erkak-ayolning ko‘kragiga minib, harom qonini oqtirib turgan; yoki teri oshlab, ko‘n tikib o‘tirgan, jun titib, arqon eshgan, ip yigirib, quroq to‘qib, o‘rmaklab kashta tikib o‘tirgan opam; ...ertaroqda qozoq ayoli ne ishlashi lozim bo‘lsa, tugal qo‘lidan keladigan opam; qozoq ayolininggina emas, er azamat bajarar ishni qora norday bajaradigan opam.

Yoz chiqa barchamiz (opalarimni aytyapman) opam eshib bergan ipni olib, to‘qayga o‘tinga otlanardik. Bir-birlab o‘tin orqalab eng oldinda opam, undan keyin qunduzday chuvlashgan bizlar, kulib-o‘ynab kelayotgan edik. U vaqtlari qishlik cho‘pni ham yoz bo‘yi shunday orqalab tashib, qo‘rani pichanga to‘ldirib qo‘yardik. Qishki so‘qim bilan un ota-onamizning bo‘ynilarida. Poliz, potirlagan g‘oz-tovuq, ikki sigir bilan mayda jonivorlarimiz bor, ularga og‘irligimiz ko‘p tushirmasdik. Chinimni aytsam, bizni, faqat bizni emas, avvalroqlari otamizni, uning uka-singillarini asragan opamning terakdan o‘yib yasagan kelisi bilan eski og‘och tog‘orasi edi. O‘sha keli bilan tog‘ora hatto otamdan ham yoshi ulug‘, opam Oltoyning narigi beti — to‘rkonidan (ota uyi) olib kelgan juda qimmatli jihozlari bo‘lgan. Opamning bizning marhum otamiz Do‘sga uzatilishi ham qiziq.

Ba’zan, ayniqsa, hozirgiday noyabr yetishi bilan temir pechka olovini gurillatib yoqib qo‘yib, pechning teshigidan yiltiragan yorug‘ tushib, g‘ira-shira ko‘lankalangan qora uyda o‘tirib opam-

ning hikoyalarini tinglardik. Aslini olganda, u kishi hangomaga no‘noq — ko‘p so‘zlamas, faqat o‘z ishi bilangina ovora bo‘luvchi, ko‘ngli toza, inobatli yuvosh odam edi. Dunyoda yolg‘on-yashiq, quvlik-shumlikni bilmagan, yo bo‘lmasa tirik bandaning betiga “ey, sen shundaysan” deb boqmagan, yoki tirik bandaga tili tegmagan, yorug‘likning ro‘za-namozi buzilmagan, toza va takabbur ayol edi. Bola kezimizda fahm-farosatimiz yetmaganmidi, biz ham mayli, butun ovul-aymoq, hatto qozoq eli eng so‘nggi xosiyatli ayol, turmush urf-odatlarimizning axloqiy, hatto arxeologik boyligidan ayrilganini bildimikan? Hozir o‘ylayman, agar qozoqning ayollari bajargan butun kasb-korlikning hunarmandchilik institutini, hech bo‘lmaganida fabrikasini ochib, opamni boshliq etishganlarida, tutash o‘n barmog‘ining har biridan tomgan hunardan qancha-qancha shogirdlar tayyorlab chiqargan bo‘lardi. Ha, u kishi hayotligida hech kim siylab-saylamagan, oltin qo‘lli qudratli ayol edi. Qozoqda shunchalik irodasi kuchli, shunday oqila ulug‘ ayollar bo‘lgani qanday yaxshi. Lekin biz, yigirmanchi asrning azamatlari, ko‘pincha mana shunday asl bebaholigimizni payqamay aylanib o‘tardik. Ayrilib qolgachgina qadri bilinib, sonimizni shapaloqlab o‘kinardik. O‘zgani qo‘yib, gerdayib yurgan mana mening o‘zim o‘sha opamdan hayotligida nega barcha-barchasini: kigiz bosib, uy tikishni, arqon eshishni, teri oshlab, eplab kiyim tikishni, olacha to‘qib, bezaklab kashta tikishni, saba, suyratma, to‘rsiq ishlashni batafsil yozib olmadim. Endi, mana... vaqtni boy berganimizga achinib qo‘limizni chimchib o‘tirganimiz. Endi, mana buzog‘i o‘lgan sigirday tulupga mo‘rab, teshik tog‘oradan opamning olaqonin, opamning tayyorlagan tolqon-tarig‘ini izlab tamshanib o‘tirganimiz. Bilaman, yer-ko‘kni kezgan Qo‘rqut ham ajaldan qochib qutila olmagan, bilaman, ming yil yashagan Luqmoni hakim ham o‘lmaslikning, o‘ldirmaslikning amalini topolmagan; odamzod — o‘lish uchun tug‘iladi... Barcha-barchasini bilaman.

Xudoyim-ey, boqiy hayot yo‘qligini seza turib, opam kabi odamlarni yer bosib yurgan kezlarida nega ardoqlab, har so‘z, har ishin yo‘q deganda o‘rganib ulgursak — o‘lmagani-ku, o‘ldirmaganimiz-ku, biz esa tirik yurganidayoq o‘ldirib olamiz...

Hozir opam yo‘q! Qora yer qo‘yniga olgan. Bultur men kiydirgan atlas ko‘ylakni ola ketgani yo‘q, yuvib-taragan odamlar kiyib yurishibdi. Sakson yil yo‘ldosh bo‘lgan teshik tog‘orasi ham qarovsiz qoldi, ana... qarovsizlikdan ityaloq bo‘lib yotibdi, ana... opam olib ketmadi.

Ha, shuningdek noyabr kelishi bilan olov chirsillatib, qarag‘ayning qatronini shosha-pisha chaynab, ikki biqini, orqa yelkasi norday qizarib ketgan temir pechga chirt-chirt tupurib, g‘ujurlashib o‘tirgan bolalarning o‘rtasida qarqaraday qaqshayib o‘tiruvchi opam mening qop-qora bo‘lib tilim-tilimi chiqib yorilgan tovonlarimga qaymoq surtardi. Qaymoq tegib zaharday achishganda chivin jonim chirqiraguvchi edi.

G‘ozning polaponiday atrofini qurshab olgan nevaralarin aylanib, o‘rgilgan buvimning faqat noyabrda, maydalab birinchi qor yoqqanidagina aytib beradigan hikoyasi bitmas-tuganmasdek. Uning oqilligi yuzlagan ustoz, minglab maktabdan ortiq, tarbiya degan tushunchaning ulug‘ligining topilmas ulgisi, namunasi ekanligini qaydan bilaylik.

Dunyoda opamning qo‘ynidan burqsib chiqar buvilik hididan ajoyibroq nima bor ekan bu yolg‘onda. Bul yolg‘onda kartopni tilib-tilib yuborib, qizara bo‘rtgan temir pechda qovurib yegandan ta’mli nima bor-a. Bul yolg‘onda qosh qoraya molni yoyib kelgach, opamning atrofida oyoq cho‘zib yotgancha hikoyasini tinglashdan qimmat onlar topilarmikan, qaytib aylanib kelarmikan?

Opam — Oltoyning narigi betidagi Kerey elining qizi. Otasi dongdor boy bo‘lgan, tag-tugli avlodning zurriyodi. Opam erkalab o‘sgan yolg‘iz qizi, o‘n beshga to‘lganida qo‘shni boyning o‘g‘liga sepini qo‘shib to‘yini yasab uzatgan ekan. O‘z davrining juda go‘zal qizi, yana o‘n barmog‘ining har birida bir hunar. Opam ostona hatlagan yilidanoq chaqqon, inobatli, pishiq kelin ataladi.

Shundan, bir kuni ikki kechning orasida boshqa ovuldan hurmatli qo‘noqlar kelib, toy so‘yib, toy etidan qozon osib yotgan choqda, yero‘choqdagi o‘tni hurib yoqaman deganida, opamning etagiga chala cho‘g‘ tushib, lop etib yonadi. Taranglashtirib tor kiyingan, ikki tomoni zarlangan nimcha-ko‘ylaklari yechila qolmay,

bet-aftori butunlay kuyib qolgan ekan. Kuyovi mehr-oqibatli, yaxshi yigit bo'lgan ekan. Olti oy davolatib, chivinday jonini omon saqlab qolibdi. Kelinchagim yarimjon bo'lib qoldi deb tahqirlamay, tuppa-tuzuk ahil umr surishibdi. Alqissa, bir yildan so'ng o'zi hayotdan uzilib, yesir qolgan opam ota uyiga qaytgan.

O'sha vaqtda Oltoyning g'arb betidagi Abdikarim bo'lisning biyi atalgan, chechangina yigit, bizning otamiz Do'sning xotini o'lib, qiz tanlab ovora bo'lib, qir oshib, yor axtarib yurgan. Ham baquvvat, ham atoqli, yolg'iz boshli, pishiq qamchili yigitga tegamiz deb, butun Qaratoy elining qizlari qirilib qolayozishibdi. Biroq bizning otamiz bittasini ham mensimagan. Shu mensimagani bo'yi "Ovuldagining og'zi sassiq" deganday, Oltoydan oshib narigi betidagi Kereydan yor tanlaydi. Kuyovi o'lib, bet-atvorini kuyik chalgan opamni ko'rib, otining ortiga mingashtirib bir kundayoq olib qochib ketgan. "Do's kelinchak olib kelyapti, qirmizi bo'lib yashnab turgan bizni ko'ziga ilmagandi, Kereydan olgan qizi oy bilan kunday suluv chiqar, ko'raylik" deb, oldidan chiqishsa, labi shalviragan tirtiq birovi ekan, butun qiz-juvonlar betini chimchilab kulishibdi.

O'shanda otamiz aytibdi: "Ey, Qaratoyning xotin-qizlari, nimaga yetishib kulasanlar, mening kelinchagim "Elingning qizlari mana shumi" deb senlarga labini cho'chchaytirib turgani" deb, so'z topib qutulgan ekan marhum.

Temir pechda lovullab yongan olov taftiga taltaya isinib, olachalpoq yog'och uyda opamning tizzasiga boshimizni qo'yib, burnimiz pishillab uxlab qolardik. Qachon o'zimiz uyg'onguncha, miq etmay uyqumizni kuzatib o'tiraverardi, yorug'ligim.

Opamning qaysi bir g'ayrat-shijoatini aytib tugatay... Degani bilan, bir-ikkisini sizga hangomalab bera qolay. Otam "Intimoq" ("Hamkorlik") kolxozining qoramol fermasida boshliq bo'lgan. Ovuldan o'n chaqirim Qorajer deb ataladigan fermada yashagan. Onam sigir sog'uvchi. Bu qishlovlari, yoz chiqqanida esa yaylovga ko'chib ketishadi.

Yozning ilk kunida uyga podachi chol Junis keladi. Toqqa ko'chishganida, oyog'i qurtlab, yurolmay qolgan qorabosh ona qo'yni qo'zisi bilan qoldirib ketishibdi, ilojini topib o'shani yet-

kazib olsin, undan so‘ng Qorajerga ekilgan kartoshkaning begona o‘tlarini yulib, sug‘orib, yig‘ishtirib olsin degan xabar yo‘llabdi.

Tong sahardan opam ikkimiz yo‘lga chiqdik. Kun ola bulutli bo‘lgani bilan, g‘afiriq issiq edi. Biz Qorajerdagi ekilgan kartoshka maydoniga yetganimizda kun tush paytiga kelgandi. Boyagi ochiq osmonni qora bulut qoplagan, hash-pash deguncha quyoshning beti ko‘rinmay qolgandi. Men cho‘pni yulib, opam yig‘ib, birpasda tugatdik. Bizning ishni tugatishimizni kutib turganday, haliginda tepaga o‘rmalagan qora bulutdan bo‘g‘irsoqday-bo‘g‘irsoqday do‘l savalay boshladi. Opam ustarada kuni kecha yaltiratib sochimni olib tashlagan taqir boshimga tekkanida, jun solingan tulaqqa tayoq tekkan savashday un chiqadi. Opam yupqa nimchasin yechib boshimni bekitdi. Yugurgilab yoz bo‘yi mol fermasida qorovul bo‘lib qoladigan Qashiboy degan cholning qishlig‘iga qarab boramiz.

Yolg‘iz uyli cholning umr tarixi bitta kitobning yuki.

Yarim asr to‘qqiz yo‘lning to‘ridan siljimay makon tutib kelayotgan oqsoqolning bor ermagi u yoq, bu yoqqa o‘tgan yo‘lovchilarning piket joyi bo‘lish, uyida kutib yotoq berish-u, yo‘l ko‘rsatish edi. Opam ikkimiz o‘sha uyning ostonasini hatlaganimizda, hozirgina tepadan quyib savalab turgan do‘l tugadi-da, kunchiqishga qarab qoraqurum ko‘cha boshladi.

Qashiboy to‘rda ishtonchan, zerikkanidan boybichasi Mamatoyni turtkilab o‘ynab o‘tirgan ekan. Biz kirganda, qadimgiday ko‘ngli o‘sib quvonib qoldi. Zerikadi, bilaman, yetmishga yaqinlab qolsa ham tani sog‘, juda chaqqon, shang‘illab gapiradigan quv kishi ekan.

— Asrar piringdan aylanay, piringdan, — dedi opamga. — Suvdan chiqqan suv sichqonidaysan-ku, to‘rga o‘t, to‘rga.

Soqolini tutamlab o‘zi pastga tusha boshladi.

— Meni qo‘y-chi, sen ikkimiz to‘qmoqlasa ham osonlikcha jon berarmidik? Bolam sovqotib ketdi, — dedi opam mening boshimga yopgan nimchasining suvini siqarkan.

— Bolangni men oq kigizga o‘rab tashlayin. Onasining qornida yotganday rohatlanib dam olsin, — deb Qashiboy o‘tirgan o‘rnidan qalqib turib yonboshida taxlanib turgan yukdan oppoq ki-

gizni sug‘urib oldi. — Kel, bolam, o‘rab tashlayin. Yech ustingdagi lash-lushingni.

Meni shirir yalong‘och yechintirib, kigizga qattiq o‘rab tashladi. Burnimga qo‘y junining u-bu tolalari kirib qitiqlab, ko‘zlarim baqrayib yotdim-da, tanam iligach uxlab qolibman.

Uyg‘onganimda opamlar choy ichib o‘tirishgan ekan.

Qashiboy bizga ot-aravasin bermadi. Xasis chol to‘qayda yig‘ib qo‘ygan o‘tinim bor edi, shunga oshiqib turibman degach, opam rostakamiga ranjidi, bilaman. Kichkina qo‘zini menga ko‘tartirib, o‘zi cho‘loqlanib yurolmayotgan zil-zambil sovliqni bir deganda yelkasiga soldi. Oldingi ikki tuyog‘ini yosh boladay ushlab orqalab oldi-da: “Ketdik, o‘g‘lim”, dedi menga. Men u kishining ortidan qo‘zimni quchoqlab arang, arang yetib ergashib kelaman. O‘n chaqirim masofadagi ovulga opam besh-olti marta dam olib yetib keldi. Shunda mening ko‘z oldimda qolgani: opamning ko‘m- ko‘k o‘tloqni qoq o‘rtasidan kesib, mening oldimda kunbotishni mo‘ljallab qaddini tik tutganicha borayotgani, tik ketayotib, orqasidagi sovliqni bilq etkizib tashlab, to‘qay ichidagi Qorasuvga borib tahorat olgani, undan so‘ng g‘arbga yuzlanib namoz o‘qigani, namoz o‘qib ko‘k o‘tloqqa bir yiqilib, bir turib, qip-qizil kun nuri bilan uyqashgan bandasi opam o‘sha holida qora yerga — tug‘ilgan zaminga topinganday edi, onasiga tortgan qorabosh qo‘zini quchoqlab o‘tirib men opamning dunyodagi eng kuchli odam ekanligiga hech gumonim qolmagandi.

Biz uyga yetganda (yo‘lda echkilarni haydab kelgandik), ikki sigirni buzog‘i emib turgan ekan, yog‘och uyning esa eshigi lang ochiq, chivin kirib to‘lib olgan, opalarim ko‘rpaga o‘ralib uxlab yotishardi. Opam ularni urishmadi, hatto uyqularini buzib uyg‘otgani ham yo‘q. Barcha yumushni o‘zi tinchitib, faqat kechki ovqatga chaqirdi.

Opam mening...

Yoz o‘tib, qilichini sudrab qish yetib keldi. O‘rmon-to‘qay, tog‘-tosh oppoq. Oltoy o‘lkasining ham g‘amgin, ham ko‘ngilli payti tug‘ildi. Opam etagini aylantira belini qiyib tikib bergan, qarag‘ayning qobig‘iga bo‘yagan qizil to‘nimni, teri qo‘lqopimni, ko‘n tumog‘imni, tovoni tarsillar oq piymamni kiyib, qo‘lbola chanamni

(uni ham qayindan egib chiviq solib, opam yasab bergan) sudrab o'ynashga chiqaman. Shunda atrofdagi o'zim tengqur hamma bola menga qiziqib, ham qizg'anib qarashlarini sezardim. Xushomad qilib men bilan do'stlashishga, men bilan o'ynashga xushtor ekanliklarini bilib ichimda suyunardim.

Kecha otam kelib ketgan. Ostida baland tog'day oq bo'z oti bor.

— Yanga, — dedi opamga, (nega yanga deyishini bilmasdim, onam ham shunday derdi) — erta saharlab podachi chol Yunusni yuboraman, bo'rdoqini so'yib beradi.

Shundan bir hafta muqaddam o'sha Yunus chol qisir sigir yetaklab kelib, qishlay mana shuni yeb chiqasanlar degandi, endi shu sigirni so'yib, nimtalab bermoqchi.

Yunus keladi degan kuni Opam suv ilitib, pichoqni, sigirni yiqitishga arqonni tayyorlab ko'p kutdi. Kelmadi. Toqati toq bo'lib oxiri sabri tugagach:

— Yur, o'g'lim, o'zimiz so'yib olamiz, — deb, qo'ng'ir sigirni boshbog'idan yetaklab qo'radan chiqardi. Shundan keyin tumshug'iga chalib muguzidan qoziqqa toshday qilib boyladi; qilarqon bilan sigirning oyoqlaridan ilib-ilib oldi-da, qoziqqa bir aylantirib bor kuchi bilan tortgandi, bahaybat qo'ng'ir sigir gurs etib qulab tushdi. Opam qoziqdan chirmab olgan arqonni taranglatib tortib tuyog'ini silkishiga ham keltirmay chandib bog'lab tashlagani. Sigir tipirlab tinchimagach, quymichiga yopishgandim, anovinday joyga irg'ita uloqtirib yubordi.

— Yo'lama, tepib yuboradi! — dedi opam. O'zi esa shunday ko'z ilg'amas chaqqon qimirlab sigirning to'rt oyog'ini qoziqqa bog'lab tashladi. Shundan keyin tumshug'idan o'ralgan ipni cho'za tortib, sigirning tomog'ini kerib tashladi-da, jez muguz sopli pichoqni menga ushlatdi. Cho'chib ketdim.

— Qo'rqma, o'g'lim, — dedi opam. — Ayol kishi mol bo'g'izlamaydi. Sen azamatsan! Qani, mahkam ushla.

Qo'lim dir-dir etadi. Opam mening kichkina mushtumimning ustidan o'zi changakday yopishqoq barmoqlari bilan qisib ushladi-da, tipirchilashga holi kelmay to'nqayib pishillagan sigirning tomog'idan o'rib-o'rib yubordi. Qip-qizil qon otildi-ey.

— Endi bu yoqqa tur, bir joyingga qon tegadi, — dedi-da, muguzsop pichoqni yalanglatib qo'ng'ir sigirning dabdalasini chiqardi. Hash-pash deguncha terisini shilib, bo'lakladi, tuzlab, solmaga yoyib tashlab, ostiga tutun soldi. Men o'pka-jigardan qovurdoq qovurib halakman. Shundan bor yumushni bitirib, sigirning terisiga tuz sepib yoyib, qor betiga sachragan qon qoldiqlarini tozalab, choyga o'tirganda, darsdan yugurib opalarim, fermadan maymoqlanib Yunus chol keldi. So'qim so'yib berishga otam yuborgan podachi bug'i burqiragan issiq qovurdoqqa kekirganicha to'yib oldi-da, omonlikda ovuliga qaytdi.

Opam mening...

Ulkan opacham Cho'lpon qo'ng'ir sigirni so'qimga so'ygan yili qishda kuyovga qochib ketdi. Qochganda ham boshqaga emas, yaqinda askardan qaytib, ovulda shofyor bo'lib yurgan boyagi bekatchi chol Qashiboyning ko'p o'g'lining biri — bodroqko'z, pakana Abutolib olib qochibdi. Otam, onam avvalida o'ng qo'ltig'idagi qaddi raso to'ng'ich qizidan ayrilib qolganiga nomuslanib qattiq achchiqlangani bilan, ortidan "ketar qiz ketdi" deb, sep-anjomini berishga kirishgan. Albatta, sep qilganda; sirmoq, ko'rpacha, ko'rpa-yostiq kabi uy jihozining mayda-chuyda qismlari o'sha vaqtda faqat qo'lda to'qilib, tikilishi so'zsiz. Opam Cho'lponning tegishli ashyolarini teppa-teng bir oyning ichida tayyorlab ulgurdi-da, chanaga ortib, menga otning jilovini tutqazib, qudalarnikiga otlandik.

Chirmovuq solib asal bilan achitilgan sariq pivoga qizarib bo'kib olgan qudamiz Qashiboy chol ot bog'lashi baquvvat, yaxshi yerning qizini kelin qilib tushirganiga qattiq rizo bo'ldi. O'tgan yili yozda oqsoq qo'yni opamga yayov orqalatib yuborganiga, ot-aravasini bekor bermaganiga o'kindi.

O'zi qilpanglab, xo-xolab kulib qo'yadi. Opamga siylashib ko'ylak kiydirib, mening qo'limga o'n so'm oqcha (hozirgi pulda, bir so'm) ushlatishdi. Quvonib qoldim. Bola bo'lib qo'limga pul tekkani shu edi. Ishtonimdagi oshiq soladigan cho'ntagimga yashirib tiqishtirdim-da, opamni tashlab uyga qochib ketdim. Opam kechlatib o'zi keldi. O'sha kuni tunda opamdan ajralib, qo'ynida yotmay, cholvorimni yonboshimga bosib yolg'iz uxladim. Shun-

dagi xufyona o'yim — Opam qudalar bergan o'n so'm oqchamni so'rab olib qo'yadi degan hadik. O'shanda menga "Opachangni uyingga qaytaramiz, o'n so'm oqchani ber" deyishsa, zinhor-baxinhor ko'rnmas edim-ov, shunda men opachamni o'n so'mga sotib yuborganday edim. Opam lom-mim demadi. Qo'ynimda yot deb aytmadi ham, o'n so'm oqchani surishtirib so'ramadi ham. O'sha kundan boshlab esim tanib, er yetganimni his etdim. O'sha o'n so'm oqcha Opam ikkimizning oramizni ochib berganday bo'ldi. Men bo'lak yotib yurdim. Bir oy mobaynida yonboshimga bosib asragan qog'oz pul sarg'aya boshlab to'zishga aylanganida yo'qotib qo'ydim. Albatta, buni opamdan ko'rdim. Ne degan qitmirlik, ne degan bandachilik deng-a...

Opam mening...

Er yetdik. Bilim olib, xizmat, obro' quvdik.

Ovuldan olislab, opamdan uloqib poytaxtga otlandim. Opam Jenisxan degan o'g'lining qo'lida yashab qoldi.

Onda-sonda ovulga borganimda o'z uyimga qo'nib, opam o'zi kelib salomlashmasa, chiranib yotib olardim. Men o'shanda ovulga kelib-ketib yurib, otamning og'zidan opamning hatto mening buvim emas, choli Do's marhum bo'lganidan keyingina, bizning uyimizda yashaganini, otamizga ona o'rniga ona bo'lib ketgan yangasi ekanligini bildim. Do's esa mening otamning otasi Isaxon bilan tug'ishgan ekan. Men o'shanda ham opamning shunchalik uzoq... juda uzoq ekanligiga ko'zim yetgani bilan, ishonmay, yuragim baribir boyagi kezni — opamning iliq qo'ynini, mehrli kaftini sog'inaman.

O'tgan yozda opam tushimga kirdi. Sakson yil yo'ldosh bo'lgan teshik tog'orasiga arpa solib, g'alvirida yelpib tozalab o'tirgan ekan, menga aytayotgan bo'lsa kerak deyman: "Qudalar bergan o'n so'mni uyda choy bo'lmagach, olgandim". Ertasiga tobim bo'lmay lanj bo'lib uyg'ondim-da, ayolimga: "Dam olishga chiqaylik, ovulga boraylik. Opam tushimga kiribdi, sen toza matojan ko'ylak sotib ol", degandim.

Negaligi mavhum, yuragim orziqib, shunday bir noma'lum kuch ovulga oshiqtirdi; negaligini bilmayman, uyga kelgach ham boyagiday oyog'imni cho'zib yotib olmay, sabrim chidamasdan opam-

ning uyiga qushday uchdim. Eshik oldida nevaralarini o'ynatib o'tirgan ekan, mening ikki betimdan cho'lpillatib suyib: "Opangni unutayin dedingmi, qulunim, burningdan siqib olgan bola eding", deb ko'ziga yosh oldi. Choy hozirlanganida tog'dan o'tin olib o'g'li Jenisxan yetib keldi.

— Opang burungiday emas, qaridi, ikki tizzam buktirmaydi, bo'lmasa tanim sog', tishim butun.

Mening esimga opamning besh vaqt tahorat olib, namoz o'qigan sayin tishlarini tuz bilan ishqalashi, bu kishining hatto saksondan oshgan yoshiga qadar bir joyim og'ridi, yoki charchadim, zerikdim deb noligani, qovoq tuyganini bilmasdim. Rost, chin aytaman, opamning tishlari hali ham marjonday ekan. Rost, chin aytaman, opam bu dunyoda bitta ham shifokorga, bo'lmas tabib, emchiga ko'rinmay, sog'-salomat yetib kelgandi.

Taom oshalib, fotiha berdi, yana uzoq duo qildi. Fotihasi qandaydir ma'nodor, ohangli. Men opamni shu bugun ayricha tanib, ko'p-ko'p qadr — xosiyatini qayta sezganday bo'ldim. Ko'ngil tinchlanib, uydan chiqdik. Jenisxan aytdi: "Sherbekni (arrani) haligacha opam qayrab beradi. Men unnasam, o'tin kesganda yo sakrab yurmaydi, yo o'tmaydi. Ko'zi hali yaxshi ko'radi. Kechagina naqshlab kashtani bitirdi, tushgacha kigiz bosdi. Qiziq, har holda. Tinch o'tirolmaydi, erta ham bor-ku demay, buzoqning bo'yin-bog'ini eshib, no'xta yasaydi. Qo'li bo'shay qolsa, og'rib qoladiganday. Yangang orqa suyab yomon o'rganib qoladimi deb qo'rqaman, taqimga bog'lab yuramizmi, yomon aytmay yaxshi yo'q, bir kuni qiyshayib qolsa..."

— Opam baquvvat-ku, — dedim men yomonlikka qiymay. — Opam yuz yil yashaydi.

Ertasiga... ertasiga tongda soat sakkizda Jenisxonning to'ng'ich qizi yig'lab yugurib keldi.

— Opam og'rib qoldi!

Biz avvaliga ishonmadik, faqat onamgina: "Yangamdan ayrilib qolmaylik, odam chaqiradiganday og'rimagandi", deb tura yugurdi. Barchamiz chuvillashib yetdik.

Opam o'zining yog'och to'shagida ko'kragi xirillab, ters boqib, bukilib yotgan ekan. Ko'zini olaytirib ochadi-da, qayta yumadi.

Tili kurmalanib boylangan, hech kimni tanimasdi, bilaman. Otam ikkimiz boshini ko'tarib suv ichirgandik, tomog'idan o'tmay qaytib oqib chiqdi. Bolalar shovqinlashib, barimiz yig'lab yuribmiz.

— Yanga, — dedi onam quruqshagan oriq qo'lidan tutib. — Ellik yil birga umr surgandik, yomonligim, nogoh aziyat chektirgan bo'lsam, kechiring. Kechiring, yanga, kechiring, ro'za-namozi buzilmagan asilim, — deb, ko'ziga yosh olib, qo'lidan o'pdi. Halitdan beri kishi tanimay, ko'kragi xirillab, tepaga qarab yotgan opam kuch bilan ag'nab, o'girildi-da, iyagini qoqdi. Shundan so'ng arang: "K-e-ch-d-i-m" deya, ko'zini qayta yumdi. Shifokor chaqiraylik degandik, boshini chayqadi. Keyin o'zi imlab, tahorat olish niyatini anglatgach, biz chiqib turdik. Qayta kirganimizda, opam to'shakni yerga soldirib chalqanchasiga yotgan ekan. Kirma degan ulkanlarning so'zini tinglamay, yonlariga tizzalab o'tirib oldim va qudratli barmoqlaridan ushladim. Sovib borayotgan ekan, sovib...

Opam pichirlab: "La ilaha illallohu...", deb imon keltirdi. Opam o'ziga o'zi imon keltirib o'qidi. Opam o'z janozasini o'zi chiqarayotganini sezdim. Kelasi soniyada onam: "Opangdan ayrildik", deb, bismilla degan ko'yi olamdagi eng ulug' onalarning biri — opamning betini yopdi.

Uyning ichi qiy-chuv, yig'i-sig'i. Opam mening... O'lding, og'rimay-netmay, bir tishing chatnamay, "Alloh belim" demay, sakson to'qqiz yoshingda o'z imoningni o'zing o'girib o'lding. Opamni yuvib-tarab, kafanga o'rab, tobutga solib ko'tara otlanganimizda uyning burch-burchaklarida "opam-ov, opam"lab zor ho'ngragan nevaralari qolishdi. Menga tobutning eng bir manglay boshidan tekkandi. Yog'och qirrasi yelkamga botib, jonimni og'ritsa ham chidadim. Meni chidaydi deb o'ylashdimi, yoki odatlanib qolishganmi, ortimdagi azamatlar nomiga ushlashgani bo'lmasa, ko'p kuch ketkazmasdan bo'sh kelishayotganlarini payqadim. O'lgan odamning suyagi og'ir bo'ladi deganlari rost ekan. Oriqqina kampirni buqaday-buqaday o'n yigit qiyshanglab arang ko'tarib kelardik. Opamni uyidan qora o'rmonidan el-yurtni chuvlatib ola qochgan olomon yangidan, qazilgan qabrning boshiga kelib to'xtab, tobutni yerga tushirgach bizga bir-bir so'mdan pul ulashishdi.

Mening ham uvishib holsizlangan kaftimga g‘ijimlangan bir tangani ushlata solganida, yuragim zirillab ketib, ko‘zimdan yosh qalqdi. Esimga anovi bolalikning beg‘am yillarida “oqchamni olib qo‘yadi” deb, opamning qo‘ynida yotmay, bo‘laklanganim tushgan edi. Endi mana, bo‘ynimda qarz bo‘lmasin deganday, o‘sha bir qaynatim choy olgan bir so‘mni o‘zimga qaytarib turganday sezindim. O‘z-o‘zimni to‘xtata olmay yig‘ladim, qora yer to‘mpaygunicha yig‘ladim. Ertasiga eski qo‘raning chekkasida to‘nkarilib yotgan opamning tog‘orasini olib, Almatiga qaytdim.

Opam mening...

Sendan nima qoldi? Teshik tog‘orami? Ha, odam umri ham shu teshik tog‘ora singari qarovsiz qolar ekan-a...

MARHABAT BOYG‘UT

(1945)

Marhabat Boyg‘ut 1945-yil 25-mayda hozirgi Turkiston viloyatining Tulkibos tumanidagi Pisteli ovulida tug‘ilgan. Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

“Chilla”, “Sirbuloq”, “Internat bolasi”, “Navirzek”, “Himoyasiz yurak”, “Tovushning rangi”, “Mashatdagi muhabbat”, “Va’da va e’tiqod”, “Fevraldagi mushuklar” va boshqa kitoblari nashr etilgan.

HOKIMNING AYOLI

Qiziq.

Ikki ming o‘n birinchi yilning noyabrida yer kurrasida yetti milliardinchi inson tug‘ildi.

Ro‘yxatga olindi. “Ko‘ksandiq” xuddi shunday xabarladi. Yettinchi noyabrda. Yetti milliard dedi. Keyin “ko‘ksandiq”dan “Qo‘ng‘ir” guruhining qo‘shig‘i berildi. Uzun, xushqomat qiz: “Dunyo...dunyo... dunyo-ey. Dunyoga kim ega-ey?..” deya xonish qildi. Ikki yigit unga jo‘r bo‘lishdi. G‘alati qo‘shiq. Mungli qo‘shiq.

Besh yil muqaddam, eri mazkur muzofotga hokim etib tayinlanganida, unga tegishli aymoqda millioninchi chaqaloq dunyoga ingalab kelib, tantanali tarzda ro‘yxatga olingandi. Mana shu, Oypara aymog‘ida.

Xalq buni yaxshilikka yo‘ygan. Eri haligi chaqaloqning tutingan otasi, u tutingan onasi bo‘lgandi.

Ayrimlar bu laganbardor va yelpataklar tomonidan ataylab uyushtirilgan, degan oldi-qochdi gap qilgan.

O‘shandan beri o‘tgan vaqt ichida butun mamlakat qatorida

mazkur muzofotda iqtisodiy yuksalish bo'ldi. Muzofot bilan hamjihatlikda ularniki ham beqiyos o'sdi.

Erining jizzakiligini bildirmasdi. Hushyorligini sezdirmasdi.

Ammo o'ziyam xushomadgo'ylar qurshovida qoldi.

Manov Oypara muzofotida hokim bo'lgandan ko'ra, hokimning ayoli bo'lish o'ta mashaqqatli ekanligini angladi. Bular tadbirkorlikdan chiqqan amaldorlardan. Eri azaldan shu lavozimga intilardi. Biznesdan orttirilgan sarmoyaning katta bo'lagi shu maqsad yo'liga sarflangan. Qolgan salmoqli qismi olisdagi davlat bankida saqlanmoqda.

Oyparadagi dastlabki yilning ilk oylari og'ir kechdi. Kelgusi yilga kelib, esini yig'ib olishdi. Hokim chigal tugunlarni yechishni, uzilgan rishtalarni ulashni o'rgandi. O'zini ham, o'zgalarni ham ayamadi. Qat'iyat bilan ishladi. Qo'pollashmadi. Biznesmenlarga o'xshab kibrlanmadi. Omma ichiga kirdi. Faoliyati shaffofligidan oyparaliklar uning nimalarni yamab, nimalarni yasaganini ko'rib o'tirishdi.

Badnafslanmadi. Laganbardorlarni haydamadi. Kadrlarni saralaganday, ularning ham manglaylariga chertib-chertib, ustalik bilan foydalanadigan bo'ldi. Ayoli esa to'pori malaylarni yaqiniga yo'latmadi. Sadoqatiga, o'lsa ham sotmasligiga ishongach, ming turli sinovlardan keyin o'zi turgan sohilga asta-sekin suzib chiqishiga izn berdi.

Er-xotin bir-birining ismini deyarli aytmaydi. Er tomoq qirsa, xotin yo'taladi. Ishora bilan cheklanishadi. Bir-birini qiynamaydi.

Omad kuldi. Tepadan ajratilgan, mahalliy ishlab chiqarishdan olinadigan daromadlar yuz hissaga ko'paydi. Oypara aymog'ida trillion tenga deydigan tushunchalar, milliondan oshgan tenderlik tushumlar oddiy holga aylandi.

O'lchamlar o'zgardi. Imkoniyatlar kengaydi.

Xushomadgo'ylar ko'paydi. Qarindoshlar safi kengaydi.

O'lchamlarning o'zgarishi tufayli ufqlar ham o'zgargani sezildi. Albatta, hokimning ayoli bo'lganidan qarshisida imkoniyatlar cheksizlanayotganini, turli-turli joylardan boylik, aqchalar oqimi

kutilmagan darajada to'lib-toshib, beto'xtov oqib kelayotganini his qildi.

Biroq, pul deganning hisobini yo'qotgan zavqli lahzalarda rahmatli onasining qanoatli qiyofasi ko'z o'ngida gavdalandi. Marhum otasi tuman firqasining uchinchi kotibi edi. Qayta qurish avj olgan yillar. Xizmat ulovi yo'q edi. Poyi-piyoda yurardi. Kunlarning birida boradigan yeriga yetolmay, yo'l chekkasida sarg'ayib, asabiylashib turganida, birinchi kotibning ayoli erining oqish "Volga"sida u yoqqa o'tibdi, bu yoqqa o'tibdi. Kechqurun uyiga kuyinib kirgan ota: "Padariga la'nat, tumanning uchinchisi bo'lguncha, birinchi kotibning xotini bo'lganim ming marta afzal!" dedi. Keyinroq onasi jilmayganicha: "Otangning haligi gapini qulog'ingdan chiqarib tashla", degandi.

O'shanda, o'tgan asrning saksoninchi yillari o'rtasida, o'n uch yoshida otasining achchiq ustida aytgan gapi qulog'iga qo'rg'oshinday quyulib, xotirasiga muhrlanib qoldi. Bu gap farishtalarning qulog'iga chalingandirki, yolg'iz qiz bugun viloyat hokimining ayoli.

Novlardan oqib kelayotgan pul oqimi ko'pligidan, bora-bora uni sanashni bas qilishdi. Tadbirkorlik davrlarida tuqqan-tug'ishganlarni moddiy jihatdan qo'llab turardi. To'ylarida qizg'anmasdan mo'may to'yonalar berishardi. Eri hokim bo'lganidan keyin ham bu odatni kanda qilishmadi. Oyparaga o'tishlari bilan ayol o'zinikilar-u qayin yurtiga ayamay yordam puli berib turdi. Ammo qancha berganing bilan qadrlashmas ekan. Tushunishmas ekan. O'ylashmas ekan. O'zlariyam to'ydim deyishmas ekan, battar ochko'zlashib ketaverar ekan. Yuz marta yordamlashib, yuz birinchisida bermasang, shartta yuz o'girib, qon dushmanga aylanisharkan. Oqib kelayotgan pullar sanalmasa-da, tug'ayotgan ustama foizlar hisoblanmasa-da, ularni qisib-qimtishga o'tishdi. Tuqqan-tug'ishganlar-u, oshna-og'aynilarga ko'mak berish taqa-taq to'xtatildi. Mablag'ning asosiy qismi yana biznesga yo'naltirildi.

Hokimiyat rahbarlari, davlat xizmatidagilar biznes bilan shug'ullanishlari man qilinadi, degan farmon chiqdi. Kulgili, albatta. Hamma kattakonlarning aybi ochilarkan-da. Takabburlik oshib ketgan. Mensimaslik avj olgan. Butun mamlakatda. Shuningdek, Oypara muzofotida ham.

Pullardan zavq tuyish bora-bora ayolning me'dasiga tega boshladi. Sababini tushunmadi. Ishlar to'qson yo'nalishda yurishib yotgan bo'lsa. Zuvillab. Katta tezlikda shuvillab. Yuraversin-chi. Biroq, qandaydir zerikarlimi-ey? Noxushlikka o'xshash... Unday emasdir-ov. Zerikish ham emas. Unda nima? Aqchaga ham ishtiyoqsiz, boshqa narsalardan ham sovib ketgan odam bo'ladimi? Hokimning ayoli bo'la turib-a? Qiziq.

To'rtinchi yil yakunida Xudo qo'shgan yostiqdoshi: "Azizam, ehtiyot bo'laylik. Peshonamizga bir milliondan oshiq aholi yashaydigan hududni boshqarish yozilipti. Tug'ilgandagi ilk ingadan so'nggi lahzadagi nidogacha bo'lgan oraliqda bandasi nimalarni ko'rmaydi? Nimalar qilmaydi? Biz, Xudoga shukr, faqat ro'shnolik ko'ryapmiz. Yoshimiz endi qirqning qirg'og'iga yetibdi. Ehtiyot bo'laylik...".

"Azizam"ni doim aytgan. Odatdagi so'z. "Ehtiyot bo'laylik"ni esa ilk bor aytishi. Bu so'zni onasi ko'p takrorlardi. Eriga ajablanib qaradi. Uzun-uzun kipriklari pirpiradi. "Bolani ko'rib qaytasanmi?" dedi er tushki oromdan keyin jannatning bir burchiday orombaxsh to'shaklaridan turayotib.

Keyingi paytlarda ayolning chet eldagi nufuzli o'quv maskanida ta'lim olayotgan yolg'iz o'g'lidan xabar olish bahonasida serqatnov bo'lib qolishgandi. AQSHdagi saxovatli banklarning holatini o'rganib, to'rva-xaltalarini niqlab qaytadigan bo'ldi. Dastlabki jamg'armalar bilan keyingi tushumlarning miqdoridan lazzat tuyardi. Bora-bora bu lazzat ham so'nganday, sovuganday sezila boshladi. Ko'ngilga urgandaymi-ey... Yoki bu lazzat, halovat yot bo'lgan loqaydlikmidi? Haytovur mujmal bir nima.

Ustiga ustak, AQSHda o'qiyotgan yolg'iz o'g'li ham o'zgacha. Bosiqligi shubhalantiradi. Bilimga chanqoqligidan hayratlanadi. Ko'z tegmasin, iloyo. Bu ketishda, shubhasiz, hokim otadan tez ilgarilab ketadi. Yo'ldan adashadi deya, vahima qilishga asos yo'q. Bunday farzand boshidan ma'lum, yomon yo'ldan yurishi mumkin emas.

Hokimning ayoli bo'lganidan beri chet ellarga ko'p qatnadi. Eri biznes bilan shug'ullanganida ham ko'p tentiradi. Chet elga kezishni er-xotin ikkalovi Taylandga borishdan boshladi. Alohida-alohi-

da ham ketishdi. Nufuzli tadbirkorlarning sinashta suluvlari bilan. O'shalar bilan birgalashib, tizzalashib, tomoshalashdi. O'zga yurtlarni o'rganishdi. Maftunkor bo'lishga intilishdi. O'sha tomonlarda "Dolche Gabbana", "Armani" kabi uslublar bilan maftunkor bo'lish osonligini bilishdi. Maftunkor bo'lish uchun ming-minglab ayollar ozib-to'zib, sog'liqlarini yo'qotishadi. Atayin yog'ini oldiraman deb o'lib ketganlar ham son mingta. Lipoksatsiyada. To'rt milliarddan oshiq qurmag'ur ayollarning safida qiyiq ko'zlarni torttira-torttira, uxlayotganida ham ko'zlari yumilmay yotadiganlari millionlardan oshib ketgan. U chet ellarda orttirgan tajribadan oqilona foydalanadigan darajaga erishdi. Maftunkor bo'lish oson emasligini tushundi. Bunga erishishdan toliqmadi, chekinmadi. Natijada Oypara muzofotining eng maftunkor, suluv ayoliga aylandi.

"O'zimizda yashash va davolanish xatarli", deyishdi qadrdonlari.

"Yurtimizda, Oyparada tug'ish xavfli", deyishdi sirdosh dugonalari.

"Mamlakatimizda o'g'il-qizni o'qitish befoyda", deyishdi do'stlari.

Uddaburon yosh tadbirkorlar bilan tajribali mutaxassislarning ayollari, qariyalarning kelinlari chet el tug'uruqxonalarida tug'adigan bo'lishdi.

O'zlari va oila a'zolari bilan rivojlangan davlatlarning shifoxonalarida davolanishdi.

O'g'il-qizlari, nevaralari nufuzli, bir necha asrlik tarixga ega chet el universitetlarida ta'lim olishdi.

Hokim ayolining bora-bora chet el safarlaridan ham ko'ngli qoldi. O'sha, boyagidagi toliqishmidi? Yoki zerikishmidi?

Gavdani xushbichim qilish uchun uzoqqa borish shart emas, uch qavatli kottejining tagidagi basseynda mashq zali zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan.

Hokimlikning beshinchi yilida ayolning ko'nglini tushuniksiz bir vahima kemira boshladi. Onasi rahmatli tushlariga tez-tez kiradigan bo'lib qoldi. Avvalgiday onasiga xos bo'lgan vazminlik, iliqlik yo'q. Nigohi sovuq, kiprik qoqmaydi. O'zining mehribon, tuqqan onasi. Bir gal xuddi o'ngidagiday unga ko'rsatkich bar-

mog'ini nuqib, jerkidi: "Hoy, hokimning ayoli! Ko'zingga qara! Boylarga taqlid qilib, ularga tenglashaman demasdan, yo'qsillarga qayishib, muruvvat ko'rsatib yashasalaring bo'lmaydimi?!" dedi.

U bu tushmidi, o'ngimi, bilolmadi. Buni aniqlash uchun, hatto badanining u yer-bu yerini chimchilab ko'rdi. O'nggi shekilli. "Oyi, — dedi u o'z ovozini aniq eshitib. — Oyi, olam boylarnigina tan oladi. Biz dunyo miqyosida bo'lmasa-da, mamlakat miqyosidagi boylardanmiz. Bu — zamon talabi. Oyparaday ulkan muzofotni qudratli bo'lmasdan boshqarib bo'ladimi? Zamon bilan hamqadam bo'lmasak, ortda qolib ketamiz".

Onasiga rasmiy gapirganidan o'ng'aysizlandi. Onasi: "Ey, hokimning ayoli! Menga ma'ruza o'qima, ahmoq! Bizning dunyoda ma'ruza emas, yurakdan chiqqan duogina e'tirof etiladi. Men nima deyman, qo'bizim nima deydi?!"

Onasi shunday deb shartta teskari o'girilib ketdi. "Onajonim-ey, jami yo'qsil, yalang'ochlarni to'ydirib bo'larkanmi? Eng rivojlangan, ilg'or deb tan olingan yaponlarda ham yo'qsillar to'lib-toshib yotibdi. O'z ko'zim bilan ko'rganman. O'rgilib ketay, sodda onajonim-ey!" dedi u. O'ngidagiday so'zladi. Onasi esa, o'sha-o'sha teskari qaragancha, battar achchiqlanib, gap qotdi: "Yapon elida nimani anglading, hokimning ayoli!? Ularda boylarning ortiqcha kerilmasligini, yupunlarning kuyinmasligini payqamadingmi, eh-h?!".

U yig'lab uyg'ondi. Umrida birinchi bor... Eri hokim bo'lganining beshinchi yilida. O'shandan beri ko'nglidan g'ashlik arimay qoldi.

Qur'on o'qitdi.

Qayta-qayta.

Tushini unutganday bo'ldi. Eriga mehmon chaqirgisi kelganini bildirdi. Ko'pdan beri mehmon kutmabdi. Shuni o'ylab, ikkovlon ro'yxat tuzdi. Oson bo'lmadi. Ro'yxat tuzish kadr tanlashdan ham qiyinroq ekan.

Unga birinchi bo'lib oligarxning nomi yozildi. Shu viloyatning oligarxi. Takabburgina. Buni e'tiborga olishmadi. Unchalik haddidan oshmaydi, deb o'ylashdi. Ikkinchi — zamindor boy. Serhimmat. Sipo. Uchinchi. To'rtinchi. Beshinchilar yozildi. Yaltiroq

qog'ozga. Avvaldan aralashib yurgan nufuzli tadbirkorlar. Ayollari ayoliga sinashta, sirdosh, ishonchli. Oltinchi — maslahat kotibi. yettinchi — o'rinbosar. Hokim o'rinbosari. Shular yetarli, deyishdi. Yangilik bo'lsin deya, muzofotdagi taniqli olimning ham nomini ro'yxatga kiritishdi. Ziyofat ziyolinamo bo'lsin, degan maqsadda.

Taklif qilinganlar bitta qolmay to'planishdi. Olimning ayoligina kelmadi. Kiyimi yupun ekan.

Ziyofat o'rtalarida oligarx qizishib qoldi. Takabburligiga borib, olimni yoqtirmayotganini sezdirib qo'ydi. Mazax qilishni boshlab yubordi. Ikkalovini tinchlantirib, ko'z-quloq bo'lish hokimning o'rinbosari bilan maslahat kotibiga topshirildi. Boshqalar bog'ni aylangani chiqishdi.

Kiraverishda keng bo'lma bo'lib, undagi divanlarga oligarx, hokim o'rinbosari, maslahat kotibi, shuningdek, olim joylashishdi.

— Qani, alloma! Falsafa so'qishni boshla! — dedi oligarx masxaramuz ohangda.

— Badnafslik, ochofatlik avj olmoqda! Senlar xalqni poda deb o'ylasanlar. Yo bu gapim yolg'onmi? — dedi olim.

— Avaylab, ortingga qarab so'yla! — dedi oligarx ustarada yaltiratib qirilgan dumaloq boshini huzurlanib silar ekan.

— Olimlarning orti toza, qizitaloq! — dedi alloma.

— Siz qizib qopsiz. Tashqariga chiqaylik-chi, — dedi kuyunchaklik bilan hokim o'rinbosari suhbat tezoblashganidan xavotirlanib.

— Shunday qilinglar. Ayolingiz ham kelmapti, — dedi maslahat qotibi titroq ovozda. — Hokimimizning uyidamiz. Uyat. Ishqilib ayollar eshitib qolishmasin...

Biroq hokim ayolining qulog'i ding, kim nima degani-yu, nimani yeganini nazardan qochirmasdi.

— Ey, maslahatchi! Bu bilan menga ket, demoqchimisan? Meni mast deb o'ylama. Haqiqatni aytdim, xolos. Bilib qo'y, men sening deputating emasman, — dedi olim ensasi qotib.

— Yaqinda o'zingday bir olim, ya'ni hamkasbing yozganini o'qidim. "Bizda daholar yo'q. Bor deganlari yolg'on. Millatning soni chorak milliarddan oshmaguncha undan daholar chiq-

maydi", debdi va bu fikrini dalillapti. Hamkasbing. Sening ilmiy kashfiyotlaring oqimga tushib, hayotga tatbiq etilgunicha millating to'zib bitadi. Juda bo'lmasa, mana, bizga o'xshab besh xotin olib, har qaysinisidan uchtadan bola tug'dirib, millatingni to'zishdan asrab, qozog'ingni ko'paytirmaysanmi? — dedi oligarx undan battar xezlanib. — Bizniki o'n besh. Bugungi tongda. Bilib qo'y!

— Senday to'ng'izdan tug'ilgan qo'ng'izlarning saposiga javob berolmayman. Yetti millionga yetmaydigan yahudiylardan necha minglab daholar chiqmaganmidi?

— Qo'ysanglar-chi. Uyat-ku! — deydi hokimning o'rinbosari yuragi olinib.

— Kimning shang'arog'ida o'tirganlaringni unutmalaring, — dedi maslahatchi manglayidagi terni artib.

— O'zimga ham uvol kerak. Keta qolay, — deb o'rnidan gandiraklab qo'zg'aldi alloma.

— "Hukmdorning aqllisi, ulamoga o'zi borib, salom berib turarkan, ulamoning aqlsizi, hukmdorga o'zi kelib, shunday Xudo urarkan", degan ruboiy kimniki edi? — deb qo'rsaydi oligarx.

Bog'ning ajoyibotlarini tomoshalab qaytganlar o'tirishni bundan buyog'iga qizdirib yuborishdi.

Viloyat olimining ketganiga hech kim e'tibor bermadi.

Faqat hokimning savolomuz nigohiga ayoli jilmayibgina, lovullagan olovday ol rangli lablariga nozik ko'rsatkich barmog'ini bosib, tinchlantirdi.

Navbatdagi tanaffusda erkaklar yer ostidagi maxsus zalda alvon xil yopinchiqlarga o'ralib, ko'ngilning chigilini yozishdi. Yoppasiga toshsoqqa surishdi. Ayollar qavmi uchinchi qavatdagi shirin choy bo'lmasiga sirlashgani to'planishdi.

Hazil-hazil bilan ular taqinchoq musobaqasini boshlab yuborishdi. Oligarxning ayoli kumush bandli, gavhar toshli uzuklarni xush ko'rar ekan. Uzuklarning biri — besh karat, ikkinchisi to'rt karat chiqdi. Zamindorning egachisi uzuk musobaqasida g'olib bo'ldi. Uning uzuklaridagi gavhar ko'zlarning rangi ko'kimtir kaptarning qiyilgan tomog'idan tomgan ilk qon tomchisiga o'xshab, har bir ko'z o'n karatdan oshardi.

Uchinchi, to‘rtinchi, beshinchi tadbirkorlar xonimchalarining uzuklari ham musobaqada yuqori pog‘onani egallashdi. O‘rinbosar bilan maslahat kotibi xonimlarining barmoqlaridagi uzuklardagi ko‘zlar yetti-sakkiz karat atrofida ekanligi aniqlandi.

Ikkinchi bosqichda — boldoq-uzuklar namoyishi boshlandi. La’l, yoqutlardan taralgan yog‘dular go‘yoki hokimning mehmonxonasidan ko‘tarilib, butun shaharga sochiladiganday. Boldoq-uzuklardan keyin bilakuzuklarga o‘tishdi. Maslahatchi xonimning bilagidagi bilakzukning yo‘g‘onligi-yu, yoqut toshlari barchaning ko‘zlarini qamashtirib, lol qildi. Taqinchoqlarning qiymati millionlik chegaradan oshib o‘tdi. AQSHning ko‘kish puli bilan hisoblaganda, albatta.

Hokim o‘rinbosarining xonishoyimi oligarxning beshinchi to‘qolidan o‘zdi.

— Voy, o‘lmasak, mast bo‘lib qolmadikmi? — dedi ayollardan biri.

— Xosiyatli xonadonning sharofati bilan emin-erkin, yayrab o‘tiribmiz-da! — dedi ikkinchi ayol.

— Taqinchoq namoyishining zavqi o‘zgacha bo‘larkan, — dedi uchinchisi.

— O‘ylab ko‘rsak, har birimiz qiymati falon million dollarni ko‘tarib yurar ekanmiz!

Ovozi pasaytirilgan “ko‘ksandiq”da “Qo‘ng‘ir” guruhi paydo bo‘ldi.

— Mana shu “Qo‘ng‘ir”ni yaxshi ko‘raman. Ovozi xush yoqadi, — dedi to‘rtinchi xonim. — Anov uzun, ingichka bel qizga havasim keladi.

“Qo‘ng‘ir”ning uzun, ingichka bel qizi “Dunyo... dunyo... dunyo-ey. Dunyoga kim ega-ey?” deb xonish qildi. Unga ikki yigit jo‘r bo‘ldi.

Taqinchoqlar tanlovi yakunlandi.

— Xonanda qizning beli qancha santimetr ekan-a? — dedi ayollarning beshinchisi.

— Kelinglar, kimning beli tolmaroq, qomati adroqligini aniqlash uchun tanlov o‘tkazamiz, — dedi ayollardan biri.

Qomat tanlovi juda qizg'in, ta'sirli o'tdi. Zero, o'zga muzofotlarni bilmadig-u, Oypara muzofotida, ayniqsa, uning markazida fitnes klublar ko'paygan, maxsus elita uchun ochilgan edi. Shu boisdan ham mehmon ayollar biri-biridan xushqomatligi ayon bo'ldi. Ammo hammanikidan ham uy sohibasining qomati jozibali deb topildi. Hokimning ayoli bo'lganligidan emas, albatta. Chindan shunday. U Oypara aymog'ining eng sohibjamol go'zal farishtasi edi-da.

— Eng xushqomat g'olibamizga sovrin beramiz! — dedi oligarxning ayoli uy sohibasining ko'rkam qaddiga havaslanib tikilganicha. — Oypara muzofotining qamar ruxsorli go'zaliga barchamiz bir-bir eng qimmat taqinchog'imizni tortiq qilamiz!

— Bir ovozdan qo'llaymiz! Quvvatlaymiz! — deyishdi qolganlar.

Biri bilagini, ikkinchisi uzugini, uchinchisi ziragini eng xushqomat, maftunkor xonimga tortiq qilish uchun suzilishib, navbatga turishdi.

TINIMBOY NURMAG‘AMBETOV

(1945)

Tinimboy Nurmag‘ambetov 1945-yil 10-iyunda Qizilo‘rda viloyatining Janaqo‘rg‘on tumanidagi Qosuyenki ovulida to‘g‘ilgan. Qizilo‘rda pedagogika institutini (1968), Moskvadagi Oliy adabiyot kursini tugatgan (1981).

Birinchi hikoyalar to‘plami 1971-yili “Qovun hidi” nomi bilan chop etilgan. U “Xayr, ota” (1972), “Qaldirg‘och uyasi” (1975) qissa va hikoyalar to‘plamlari, “Ota hovlisi” hikoyalar to‘plami (1980), “Daryoning narigi tomoni” (1981), “Boyteraklar” (1986) qissa va hikoyalar to‘plamlari, “Ovul tutuni” (1989) romani muallifi. Shuningdek, “Tanlangan asarlar” (1997), Ikki jildlik saylanma (2005–2006), “Afg‘on qushlari” (2009) kabi kitoblari chop etilgan.

Murod Abdullayev tarjimasi

CHINORGUL[1]

Tushdan so‘ng quyosh battar qizdira boshladi. Tashnalikdan cholning tomog‘i qurib-qaqrab qolayotir. Yaqin orada buloq ham yo‘q. Aksiga olib hali tuyog‘i qotmagan, kechagina tug‘ilgan buzoqcha oyoqlari mayishib, dovdiraydi, yurishga yaramaydi. Biroq chol uni ayab o‘tirmaydi, arqonni tortib sudraydi. Tashnalik va ochlikdan diydasi qotgan, buzoqcha o‘lib qoladi, deb ham o‘ylamaydi, yovshan bosgan so‘qmoqdan sudragani sudragan.

Bu holga Muqa chol beparvo esa-da, Oymo‘giz chidolmadi. “Mo‘-mo‘”lab bo‘ynini burgancha buzog‘i ustiga engashdi. Cholning ahvoli ham hozir buzoqchanikidan battar edi. U qo‘lini pana qilib, atrofga razm soldi. Sarobdan o‘zga narsani farqlab bo‘lmasdi. Axir, bu o‘zi tug‘ilib o‘sgan joy-ku, hech bo‘lmasa, hozir qayerda-

[1] Ju’ziy qisqartirildi.

ligini tusmollar. Hov anov qirning ortida o'tgan yili mol fermasi bor edi. Ehtimol, hozir hech kim qolmagan, hamma ko'chib ketgandir. Biroq buloq bo'lishi kerak. Muqaga shu topda bir qultum muzday suv katta armon.

Chol biroz tetiklashgan buzoqchani oldiga solib, qirga o'rladi. Tepalikka ko'tarilganda fermaning qorasi ko'rindi: uzun qo'ralar, sement oxurlar... yetti-sakkiztacha uy. Ayrimlarining tomi, eshik-derazasi ko'chirib olingan. "Hamma ko'chgan. Tashlab ketishgan", o'yladi chol ichida kuyunib. Biroq kutilmaganda chordevorlar orasidan bir it vovullab chiqdi. Cho'ponning iti, qashqirga o'xshaydi. Vajohat bilan irillab kelayotgan itni ko'rib, Muqaning quti o'chdi. Shu payt chetdagi uyning eshigi ochilib, boshiga oq ro'mol tashlagan kampir chiqib bor ovozi bilan itini chaqirdi. "Xayriyat, odam bor ekan, — chol boladay suyunib ketdi. — O'zingga shukur, Xudoyim". U sigir-buzoqqa ham qaramay, otining boshini uy tomon burdi. Yaqinlasha turib kampirni taniganday bo'ldi: "Ko'zimga issiq ko'rinyapti...". Muqa ko'zini uqalab, tikilibroq qaradi. "O'sha... E, Xudo, bu Chinorgul-ku! O'zimizning Chinorgul. Haliyam shu yerda ekan-da...". Xursand bo'lib ketgan Muqa uyga yaqinroq borib, otidan tusha boshladi.

Chinorgul unga qarab turdi. Tanimadi chamasi, Muqa otini qoziqqa bog'laguncha miq etmadi. Chol otini bog'lab, yaqin kelgandagina kampirning yuzi yorishganday bo'ldi: tanidi chog'i, cholga peshvoz chiqdi. Ich-ichiga kirib ketgan horg'in ko'zlarida nur uchqunladi.

— Muqamisan? Xudoyim-ey, o'ngimmi yo tushimmi? — Chinorgul cholning qo'lidan tutdi.

— Omonmisan, Chinorgul? — deya oldi Muqa zo'rg'a. Uning gapirishga holi qolmagandi.

— Axiyri keldingmi? Meni ham eslaydigan odam bor ekan, hartugul, — davom etdi kampir. — Unutib yuborishgandir, deb yurardim. Xudoga shukur... ming qatla shukur! Meni izlab kepsan-da.

Ular uyga kirishdi. Muqa to'rga chiqdi. Qavatida o'tirmasa ayrilib qoladiganday Chinorgul Muqaning yoniga cho'kdi. Chol to'rt-besh yil burun Chinorgulning yolg'iz o'g'li traktor tagida qolib

o‘lganini eshitgandi. U Chinorgulga og‘ir burilib qarab, ko‘ngil so‘radi:

— Qayipbegingdan ayrilibsan, Chinorgul. Joyi jannatda bo‘lsin. Xudo sabr bersin.

— Muqa, Qayipbegimni aytayapsan-da, ha, anglab turibman. Ha, qoqbosh bo‘lib qoldim, Muqa. Yolg‘izimdan ayrilib qoldim...

Cholning qo‘lini mahkam siqib ushlagan ko‘yi Chinorgul ho‘ngrab yig‘ladi.

— Nima deyayotganingni eshitayotganim yo‘q. Qulog‘im tom bitgan. “Qayipbeging endi yo‘q!” Mening oxirgi eshitgan gapim shu bo‘ldi, shu gap meni bu dunyodan uzib qo‘ydi. Birov bilan gaplashmaymanam. “Tiq” etgan tovush yo‘q. O‘zim eshitmay qo‘ydim bu dunyoning tovushlarini. Eshitgim kelmaydi. Nimasini eshitaman? Baribir endi Qayipbegimning ovozi o‘chdi, uning kulganini, gursillab yurishlarini endi eshitmayman-ku. Shukur, meni kar qilib qo‘ygan Egamga shukur.

Yolg‘izlik mushtipar kampirni tiriklikdan bezdirgan, chog‘i. U anchadan beri yuragini bo‘shatmagan ko‘rinadi...

* * *

Chinorgulning eri Qaulen Muqa bilan tengqur edi. Bolalikdan do‘st edi ular. Bir vaqtda uylanishdi. Bir paytda farzand ko‘rishdi. Taqdir ato etgan baxtdan masrur bo‘lib yurganlarida urush boshlanib qoldi. Frontga ham birga otlanishdi. Boshida bir frontda jang qilishdi. Keyin ajralib ketishdi. Urush tugashidan bir yil burun yelkasidan yaralangan Muqa qaytib keldi. Yozning qoq o‘rtasi edi. Tuman markazida poyezddan tushib, ot-ulov kutishga ham sabri chidamay ovulga yayov jo‘nadi. Bug‘doyga o‘roq tushgan palla, yo‘l bo‘yi ayollarga ko‘z solib bordi. Daneker bilan Chinorgul o‘roq o‘rib yurishgan ekan, yugurib peshvoz chiqishdi. Danekerning quvonchi cheksiz edi — kuyovining bo‘ynidan mahkam quchib olgan, sira qo‘yib yuborgisi kelmasdi. Boshqa payt Chinorgul kulib yuborardi, dugonasi o‘lgudek sog‘ingan ekan!..

Chinorgul ham boshini Muqaning ko‘ksiga qo‘yib: “Bizning Qaulenni qaylarga tashlab kelding? Kimga tashlab kelding, Muqa!”, deb yig‘lab yubordi. Ugina emas, o‘roqchilarning bari ko‘ziga yosh

olishdi. Chinorgul Qaulenni uzoq kutdi. Urush tugab, frontga ketganlar qaytib kelgandan so‘ng ham u umidini uzmadi. Eshikning “tiq” etganiga, itining hurigani-yu, qadam tovushiga ham umidlanib ko‘z tikib yotdi. Xat tashuvchining yo‘lini poyladi. Yo‘q. Qaulen qaytmadi. Bedarak ketdi.

Urushdan so‘ng ham ular Toltug‘anda yonma-yon yashashdi. Chinorgul muomalali, ochiqko‘ngil ayol edi. Ovulda hurmati bor edi. Ayniqsa, Daneker bilan oralari qalin edi, xuddi opa-singilday. Ishda ham, uyda ham doim birga.

Ishchanlikda Chinorgulga yetadigani yo‘q edi kolxozda. Yelib-yugurib yolg‘iz o‘g‘li Qayipbekni odam qildi, elga qo‘shdi. Danekerning qazosidan uch yilcha burun Qayipbek fermaga traktorchi bo‘lib ishga joylashgach, Chinorgul o‘g‘li bilan Toltug‘andan bu yerga ko‘chib kelishdi. Muqa uni Danekerning azasida ko‘rgani. Ko‘z qiymas dugonasining janozasida ko‘z yoshini selday oqizganlardan biri shu Chinorgul. Hayotda g‘am ko‘raverganidanmi yo fe’li o‘zi shunaqami, Chinorgul aytib yig‘laganida diydasi tosh odamlarning ham ko‘ngli buzilib, ko‘zlari namlandi.

Toltug‘andan ko‘chib ketishganidan buyon Muqa Chinorgulni ko‘rmagan edi. Ko‘rmak tugul, bir og‘iz xabar ham eshitmagandi. Ko‘p narsa o‘zgarib, unutilib ketarkan. Ko‘rgan-kechirganlaring ham asta-sekin xayoldan ko‘tarilarkan. Muqaga qolsa-ku, unutmasdi-ya, lekin nachora, hayot hammani shu ko‘yga solib qo‘ydi-da... Mana, oradan o‘n ikki yil o‘tib, Chinorgul bilan yana diydorlashib turibdi.

* * *

Chinorgul ko‘p yig‘ladi. Ko‘nglidagi dardini to‘kdi. Muqa taskin berib, yupatishga urindi. O‘zining ham ko‘zlari yoshlandi. So‘ng Chinorgul yengi bilan ko‘zlarini artib, o‘rnidan turdi. Obtoba va dastsho‘y olib kelib, cholning qo‘liga suv quydi, sochiq tutdi. Dasturxon yozdi. Muqa boshidagi bo‘rkini olib tokchaga qo‘ydi. Choponini yechmoqchi bo‘lib, belidagi belbog‘ini bo‘shatgandi, bir hovuch o‘rik shov etib ko‘rpachaga to‘kildi. Orasida ba’zilari ezilib qopti. “Ko‘rpachani bulg‘adim-ov”, deb o‘riklarni terib olayotgandi, xonaga Chinorgul kirib keldi.

— Xudoyim-ov, bular o'zingizning bog'ingizning o'rigimi? Haliyam meva solarkan-da-a?.. Voy, sadag'ang ketayin... Xudoyim bersa rizq ado bo'lmasakan-da. Haliyam tip-tiniq, top-toza, har qaysi chaqaloqning mushtiday, qara! Sap-sariq, oltin, oltin! — Chinorgul o'rikdan bittasini olib og'ziga soldi. — Ta'miyam burungiday. Bol, bol! Muqa, yeb ko'rdingmi o'zing? Sen to'yguncha yeb qaytgandirsan. Eh, bir xumoridan chiqayin-a.

Chinorgul o'rikni quvonib chaynadi, chiroyi ochilib ko'zlarida nur uchqunladi. Muqa bir dona o'rikni olib dasturxon chetiga artayotanda Chinorgul:

— O'rikni artganing nimasi? O'rik kir bo'lmaydi. Daneker ikkovimiz mazasi ketib qoladi, deb yuvmay yerdik, — dedi.

Muqa o'rikni og'ziga soldi, hech qanday o'zgacha ta'm sezmadi. Qaytanga og'zining ta'mi qochdi. Biroq Chinorgulga sir bermadi.

— Shirin ekan, — deb qo'ydi.

— Esingdami Muqa, Daneker bilan kelinchak paytlarimiz tolning soyasida kun bo'yi o'tirib yong'oq chaqardik. Shunda Qaulen ikkoving: "Senlarni yong'oq chaqib o'tirsin, deb olganimiz yo'q", deya koyirdinglar. Bu bizga biram xush yoqardi-ey. Kulib qo'yardik. O'sha kezlar juda baxtli edik... G'am neligini bilmasdik. Umr doim shunday — o'yin-kulgi bilan o'tadi, deb o'ylarkanmiz-da. E, taqdiri qursin...

Chinorgul ko'nglini ochib o'tgan-ketganlar haqida so'ylar, og'zidagi o'rikni mazasini tatib, huzur qilib chaynardi. U yana bir dona o'rikni og'ziga solayotib:

— Muqa, qolganini belbog'ingga tugib ol, — dedi. — Bolalaringga oborasan. Ularning ham og'zi tegsin. Uylanganingni eshituvdim. Qutlug' bo'lsin! Undanam farzand ko'rgandirsan? Ol, tugib olib oborgin, ota makonlarining o'rigi-ku!

Shunday deb u ichkari xonaga kirib, top-toza oq chit olib chiqdi. O'rikning qolgani ko'p emas, shu bois cholning ko'nglidan: "Buning nimasini ovulga olib boraman?" degan o'y kechdi. Biroq Chinorgulning ra'yini qaytargisi kelmadi.

Muqa u bergan chitga qolgan o'rikni tugib, chakmonining cho'ntagiga solib qo'ydi. Birozdan keyin Chinorgul choy keltirdi.

Tashnalikdan tanglayi qurigan Muqa terlab-pishib choy ichdi. Dasturxondagi yumshoq non, sariyog'dan totindi. Chanqog'i bosilgach o'zini tetikroq sezdi. Chinorgulni gapga solib, gurunglashib o'tirgisi keldi-yu, kampirning kar bo'lib qolgani esiga tushib, o'y surib qoldi. Yana Chinorgulning o'zi gap boshladi:

— Yolg'iz qoldim, Muqa. O'tgan yili sening Beljigiting butun fermani ko'chirib olib ketdi. Mana bu yoqda, ikki qir naridagi qo'shni sovxoz yerida ekin ekadi. O'sha yerga borib turaman. Qand-choyni ham shulardan sotib olaman.

Muqa bosh irg'ab, uning gaplarini ma'qullagan bo'ldi.

— Qayipbekning yilini bergandan so'ng kelinim qarindoshlarinikiga ketib qoldi. Qaytayin, qol deyolmasam. Qayipbekdan bola ham tug'madi... Tuqqanida shu yerda qolarmidi, kim bilsin? Manglayimga yozilgani shu ekan-da. Ne qilay? Yig'lab-siqtab qolaverdim. Tashlab ketding, deb qarg'aganim yo'q. Oq fotiha berdim. "Ko'z ochib ko'rgan bo'sag'ang, qulunim, unutib yuborma!" dedim. U ham yig'lab-siqtab xo'shlashdi. Nima qilsin?

Chinorgul piyoladagi choyidan ho'plab, gapida davom etdi:

— Shunday qilib, hammani kuzatib, Alipsoq ikkov qoldik. Uni boya ko'rding-ku, jo'n it emas u. Meni tashlab uzoqqa ketib qolsa ne qilardim? Yig'lab qolaverardim-da. Bu qoq boshim nelarni ko'rmadi. Ko'nardim, bungayam... Yo'q, tashlab ketmas, Xudo biladi yanayam, harqalay tashlab ketmaydi. Men o'lgan kunim qirning boshiga chiqib, uvlab yotadi hali...

Muqa dasturxon chetini buklab-yozib Chinorgulni unsiz tinglardi. Choy ichilib, tashqariga chiqdi. Kun og'ib qolgan, havoning hovuri bosilib, salqin tusha boshlabdi.

— Bugun dam ol, ertaga barvaqt ketarsan. Soya betga to'shak solib qo'yaman, — dedi Chinorgul bo'shagan samovarni ko'tarib chiqayotib.

Muqa bosh silkib, "ma'qul" ishorasini qildi. Oymo'giz buzog'i bilan eski qo'raning soyasida ekan. Buzog'i tortqilab uning yelinini emib yotibdi. Muqaning yaqin kelganini sezmadi ham. Oymo'giz boshini burib qaradi. Muqaning ortidan Chinorgul ham ular oldiga keldi.

— O‘zimizning Oqsigir zotidan-ku. Yelini to‘la sut bo‘lardi-ya. Bir sog‘ganda Danekerning chelagi to‘lib, arang uyga ko‘tarib ketardi.

Chinorgul Oymo‘gizning sag‘risini siladi.

— Daneker Oymo‘gizni sog‘a olibmidi, o‘zi? Aytmoqchi, biz Danekerning qirqiga borganimizda shu — birinchi buzoqni tuqqandi-ku, a. E, jonivor-e... yeliniga qo‘l cho‘zish nasib etmadi Danekerga. “Oymo‘gizim ham Oqsigirdan kam bo‘lmaydi, qaytanga undan sutliroq bo‘ladi”, deguvchi edi.

Chinorgulning mayin qo‘li terisiga tekkanda Oymo‘giz burilib, unga qarab turdi, silayotganda esa bezovtalanmadi ham.

Chinorgulning ko‘zi buzoqchaga tushdi: “Hoy, arzanda-ey, buncha tirg‘almasang! Hech yelindan ayrilging kelmayaptimi? Tortqilaganini qara-chi, uzib oladi,·chog‘i”.

Uning qo‘li tekkanda buzoqcha og‘zini yelindan bo‘shatib, ortga tisarildi.

— Buzoqchaning bo‘ynini arqon qiyib ketibdi-ku, Muqa?! Xudoyim-ey, endi oyoqlagan buzoqchaga ham shuncha jabr qiladimi?! Bo‘yniga qil arqon solganing nimasi?..

Chinorgul Muqaning ishidan ranjib, kuyib-pishib gapirgancha uyga kirib ketdi.

Muqa otini o‘tloqqa qo‘yib yubordi. Qo‘l-oyog‘ini yozmoqchiday u yoq-bu yoqqa yurdi. Birozdan so‘ng uy oldidagi tol soyasiga to‘shalgan ko‘rpachaga cho‘zildi. Ikki kun sigir axtarib oyoqdan qolgan ekan, boshi yostiqqa tegiboq ko‘zi ilindi.

Chol soyalar uzayib qolganda uyg‘ondi. Yostiqdan boshini ko‘targanda o‘zini xiyla tetik his etdi. Qorni ochganini sezdi. Chinorgulning ovqati tayyor ekan.

Qo‘lini yuvib, dasturxon boshiga o‘tirdi. Chinorgul tovoqni to‘ldirib ovqat suzibdi, bir emas, uch-to‘rtta kishiga yetgulik.

— Qo‘y so‘yib siylashim kerak edi, Muqa. Tuyoqlarning barini yaqinda ovulning chorvasiga qo‘shib yuborib edim. Borib kelishga menda oyoq qayda deysan, qarichilik. Senga qo‘y so‘ymasam, kimga so‘yaman. Sendan ortiq mehmon bormi menda? Xudoyim-ey, oylab, yillab yo‘lingga ko‘z tutdim... Ko‘nglimni uzmadim. Yaxshi-yomon kunlarni birga tatigan tengdoshim-ku, nima bo‘pti,

o‘lgunimcha bir xabar olar, deb yurgandim. Xudoga shukur, axiyri kelding... Ovqatdan ol, Muqa. Yigit kezlaringda Qaulen ikkoving bir tovoq go‘shtni ko‘rdim demasdinglar. To‘ymay qolsanglar Daneker ikkovimiz aybdorday damimizni ichimizga yutardik. Kishi bilmas yo‘qchilikdan nolinardik. Xudoga shukur, hozir irkitga it qayrilib qaramaydigan zamon-ku. Ol, Muqa. Yigit kezingdagiday bir yegin-chi. Ana shunday. Seni ko‘rib, men Qaulenimni eslayin, qavatingda birga-birga non-tuzni bo‘lib o‘tiribdi, deb o‘ylayin.

Muqa rosa ochiqqan ekan, shuning uchun go‘shtni ishtaha bilan chaynadi. Baribir yetmishni qoralab qo‘ygan cholning yegani nima bo‘lardi. Ikkovlashib tovoqni yarim qilisholmadi. Ovqat ustidan bostirib choy ichishdi. So‘ng Chinorgul eshik oldidagi so‘riga Muqaga joy soldi.

Idish-tovoqlarni yuvib-yig‘ishtirgach, Chinorgul Muqa yotgan so‘ri chetiga kelib o‘tirdi.

— Uxlab qoldingmi, Muqa?

Muqa uxlamaganini sezdirib qo‘zg‘alib qo‘ydi.

— Kindik qoning to‘kilgan yerning havosidan huzur qilayotgandirsan? Senlar tomonda kun issiq bo‘ladi, chivin-chirkaylar ham g‘uj-g‘uj deyishadi.

Chinorgul rost aytadi. Kunduzi chivin, oqshom pashsha talaydi... Muqa unsiz tin oldi. Umid bilan bir yostiqqa bosh qo‘ygani, talay yil birga yashagan xotinining, ota-onasining qabrlari boshiga borib Qur’on o‘qishni ko‘ngliga tukkandi, borolmadi. Shundanmi, dili xijil bo‘lib, yuragi siqildi. Hartugul Chinorgulning eshitmaganiyam tuzuk. Cholning javobini kutib o‘tirmay yana gapiraveradi.

— Nimasini aytayin, burnog‘i yil ko‘klamda, birovlar direktor kelarmish, dedi. Beljigitning shu sovxozga direktor ekanini bilaman-ku. Chinini aytsam, yuragim tars yorilgudek quvondim. Qayipbegim bilan ikkovi bir yil, tengdosh-da. “Aylanayin, Qayipbegim bilan birga o‘ynab-kulgan joylarini bir ko‘rgisi kelgandir, ko‘ngil so‘rar”, deb o‘yladim. Suruvdan qo‘y saylatib obkeltirdim. Bolaligida bizning Qayipbek ikkovi qo‘rga pishirilgan tova nonni talashib yeyishardi. Shuni esiga solayin, deb Beljigitga deb kulcha ham pishirib qo‘ydim.

Bir mahal: "Direktor keldi, direktor keldi", deb to'pirlashib, yugurgilab qolishdi. Tashqariga chiqib cho'zilib qarasam, qo'ra yonida mashinasidan tushayotgan ekan. Tanidim. Bolalaring o'zingga tortgan, qoruvli, bo'ychan. Darrov tanidim. Mashinasidan tusha solib bizning uyga qarab yurganday bo'ldi. Shoshilib, uyga kirib ketdim. Daneker Beljigitni Beljon deguvchi edi. Beljonni uyimning bo'sag'asida kutay, dedim. Qayipbek bilan, tepishib katta bo'lgan, bag'rimga bossam Qayipbegimning isi kelar, deb o'yladim. Kutdim, kutdim, yo'q, kelavermadi. Tashqari chiqdim. Qarasam, boya yugurgilab yurganlar tarqashyapti. Hay-haylab: "Beljon qani?", deb so'radim. Kimdir: "Beljoni kim? Direktorni aytayaptimi? U ketib qoldi-ku", dedi. Ichim muz qotganday bo'ldi. Uyga sudralib qaytib kirdim. Bundan ortiq azob, xo'rlik bo'lmas ekan, Muqa. Uyga kira-kira ho'ngrab yig'lab yubordim... Muqa, men mushtipar yig'lamay kim yig'lasin, o'zing ayt-chi... Keyin bilsam u mendan ko'ngil so'ragani emas, fermani ko'chirib, meni esa bu yerda yolg'iz tashlab ketgani kelgan ekan.

Muqa hech qachon bunday noqulay ahvolga tushmagandi. Bezovtalanib ko'rpasini yelkasiga tortib, yonboshladi. Chinorgul hasratini to'kib solayotganda cho'zilib yotishga iymandi.

— Toltug'andan ko'chib ketgan kezlarda ko'nikolmay, ancha payt sizlarni qo'msab yurdim. Elga elakishib, asta-sekin yangi joyga, odamlarga ko'nikdim. Qayipbekni uylantirdim. Qo'l yetgancha to'y qildim, ovuldagilar o'ynab-kuldi, yaxshi tilaklar tilashdi. Endi o'ylab qarasam, bu yolg'onchi dunyodagi ko'rganim o'sha kunlar ekan. Bir davron ekan-da. Yuragim yorilgudek quvonib yurardim, biroq buni ham Egam ko'p ko'rdi...

Qayipbegimdan ayrilib, qovurg'am mayishganda, negadir sizlarni qo'msadim. Danekerni o'yladim, seni o'yladim. Muqaga ne bo'ldi, nega kelmaydi, deb xavotirlandim. Yopirim-ay, eshitmadimikan? Nega eshitmaydi? Yetti yot begona bo'lib ketganida ham, yer-u ko'kka yetgan hasrat-u nolamni guvlab esgan shamol yetkazmadimikin? Mening ko'z yoshlarim oq yomg'ir bo'lib derazangni chertmadimikin? Yetkazgan chiqar!.. Chertgan chiqar!.. Shundayam miq etmadingmi? Qanday chidab turding? Nega kela qolma-

ding, Muqa... Nega? Bir kunlik yo'l edi-ku. Yo, Xudo, bolangning moshinida g'iz etib kelib-ketsang bir sut pishgulik vaqt ketardi-ku. Men sho'rmanglayni yupatib ketarding... Mayli, meniyam qo'ya tur. Yaratgan Egamning bir bandasi o'ldi-ketdi.

Xo'sh, biz, o'zimiz nega bir-birimizni unutib qo'ydik? Nega begona bo'lib ketdik? Bir-birimizga talpingan, mehr to'la, ko'rmasa turolmaydigan ko'ngillarimizga ne bo'ldi? Muqa, ularni qayga ko'mdik? Qayda yo'qotdik?

Muqa uyatdan churq etmay yer chizib o'tirar, qaniydi bir yoriq bo'lsaydi, kirib ko'rinmay ketsa. U o'zidan o'tganini o'zi bilardi. Chinorgulning bir nafaslik sukuti unga bir yilday tuyuldi, Chinorgulning gapirishini betoqat kutdi.

— Daneker tirik bo'lganida kelarmidi, kelmasmidi — Xudo biladi. Kelardi-yov. Meni zoriqtirmasdi, allaqachon kelib, ko'zimni yoshlangani qo'ymasdi. Qaydam, u oramizdan bekor ketmagan chog'i, Muqa. Oramizdagi qadr-qimmatniyam o'zi bilan olib ketgan. Burungilar xayr-u saxovatli odamlar bo'ladi, deguvchi edi. Daneker o'shalardan biri ekan. Bu rost.

Muqaning ko'zlarida munchoqday yosh yiltiradi.

— Mayli, endi damingni ol. Erta turasan, shekilli, — dedi Chinorgul Muqaga qarab. — Bo'lar-bo'lmas gaplarni aytib boshingni qotirdim, a. Senga aytaman-da. Hartugul, hasratimni kimgadir to'kishim kerak-ku. Shukur, ichimni bo'shatdim, yengil tortdim. Endi uxlay qol, Muqa.

Hozir yorug' bo'lganda Muqa Chinorgulning yuziga qaray olmasdi. Xayriyat, qorong'u, shungayam shukur qildi.

Chinorgul enkayib uning ko'rpasini to'g'riladi, Muqa ko'nglini orziqtirgan bu mehribonlikdan allanechuk bo'lib ketdi. Ko'z o'ngida ayoli Daneker gavdalandi...

* * *

Muqa to'rg'aylar tovushidan uyg'onib ketdi. Tong otib qolibdi. Chinorgulning choyi qaynab yotibdi. Muqa ildam kiyinib, yuvindi. Chinorgul so'riga dasturxon yozib, samovarni olib keldi.

— Oymo'gizni sog'dim. Uvuzini ichib ko'r, — deb Chinorgul tovoq to'la uvuzni o'rtaga qo'ydi.

Uvuz suyulib qolibdi. "Oymo'gizning bolalaganiga bugun uch kun bo'pti", xayolidan o'tdi cholning. Ammo uvuz juda mazali. Muqa ozroq ichib, tovoqni Chinorgul tomon surib qo'ydi.

Jo'nash vaqti yetdi, biroq Muqa kechagidek ovuliga tezroq yetib olishga shoshilmasdi... U oldinda nimalar kutayotganini emas, ortda qolgan kunlarini o'ylab xayolga toldi. Yoshlik chog'lari ko'z o'ngida jonlana boshladi. Kecha tunab qaytgan ota makoni Toltug'an... Chinorgul. "Kuzga yaqin Toltug'anga bir borib, o'riklarni sug'orib qaytsam, — o'yladi chol. — Ne'mat-ku, axir. Ko'karib tursin. Ota makonimning tiriklik belgisi. Nobud bo'lmasin... Chinorgulni ham, bolalarimga aytib, qishga yaqin ko'chirib opketmasak bo'lmas. Qanday bo'lmasin ko'chirib obketaman...".

Chinorgul ichkaridan uning choponini, qamchisi, chit matoga tugilgan o'rikni olib chiqdi. Ikkisi yonma-yon yurib to'riq yo'rg'a yoniga kelishdi. Muqa otini egarladi. Chinorgul kecha tikkan no'xtani buzoqning tumshug'iga kiygizmoqchi bo'lib engashgandi, buzoq Oymo'gizning bag'riga tiqildi, biroq qochqoqlamadi. Chinorgul no'xtalayotganda tanasi dir-dir titrab, tangaday ko'zlarini undan uzmay qarab turdi.

Muqa otiga mindi. Oymo'giz oldinga tushdi. Ancha joygacha Chinorgul buzoqchani yetaklab bordi. Ovul ortidagi qir beliga chiqishgach, buzoqchani qo'yib yubordi. Muqa bilan qo'l olishib xayrlashdi.

— Eson bo'l, Muqa. Yana aylanib kelasanmi, kelmaysanmi... Omon bo'l... Meni so'raydiganlar bo'lsa, Chinorgul yolg'iz ekan, dema! Ota makonini, qarindosh-urug'lari mozorini tashlab ketolmas ekan, de. Shunday degin, Muqa!

Chinorgul o'zini qo'lga oldi. Yig'lamadi. Faqat tovushi qaltirab chiqdi.

— Xush qol, Chinorgul! — dedi Muqa ham tovushi titrab. Yana bir nima demoqqa holi kelmadi. Otini qamchiladi. Biroz yurgach, qayrilib ortiga qaradi, qir boshida Chinorgul hali ham oq ro'moli shamolda hilpirab, qarab turardi...

MAG'IRA QO'JAXMETOVA

(1946)

Mag'ira Qo'jaxmetova 1946-yil 5-fevralda Ko'kchetov viloyatining Zerendi tumanidagi Qo'chqorboy ovulida tug'ilgan. 1969-yilda Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

"Iliq chehra", "Quyoshning oltin sinig'i", "Ohang olami", "Sirli odam", "Jon taslim", "Tanho" va boshqa kitoblari nashr qilingan. "Ko'chim xon — Suzge", "Kutilmagan sir-suhbat" nomli dramalarning, "Men — Imonyusuf" tarixiy monodramaning muallifi.

QORA MUSHUK

— Rahmat, — dedi Darig'a diplomatini qo'liga olayotgan yigitga jilmayib. — Bugun biroz xizmat qilding. Ovulga ketguncha shunday yordam berib turmasang...

— Qanday xizmatni aytayapsan? Rosa xunob qildim-ku, bir daqiqada qoqadigan mixni uch soatda arang... mayli kulaver, faqat hech kimga aytib qo'ymagin.

Eshik tomon yurgan bo'lsa ham, qanday xayrlashishni bilmagan Jandarbek ostonada serraygancha turib qoldi. Darig'a "salomat bo'l" deb, eshikni ochib bermasa o'rnidan qo'zg'almas edi.

Besh qavatli uyning tor yo'lagining havosi shunchalik dim ekanini tashqariga chiqqanda bildi. Tungi shaharning salqin havosi tanani yayratib, kayfiyatni ko'tardi. Zinapoyadan tushayotganda dimog'iga urilgan yoqimsiz hiddan xalos qilib, diliga huzur baxsh etdi.

Hech narsadan hayiqmasdan, yo'lning ayrilish joyiga yetganda kutilmagan tovushdan seskandi. Yon-atrofiga shubha nazari bilan qaradi. Oldiginasidan qora mushuk yugurib o'tdi. Shoshib,

dovdirab qoldi. Ko'ngli tushib ketdi. Boshini egib, oldinga yoki ketga yurishni bilmasdan, bir joyda turib qoldi. Dunyoda eng yomon ko'rgani qora mushuk edi. Har doim oldidan o'tganini ko'rsa, shoshib turgan bo'lsa ham darrov orqasiga qaytardi. O'sha odatiga binoan orqasiga qaytdi. Uy-uylarni oralab, mushuk yurgan yo'llardan yurmaslikka qaror qildi.

Tavba, shuncha vaqtini ajratib, bir necha mavzeni aylanib kelganida qora mushuk yana oldidan chiqdi. Iloji yo'qligidan chap tomondagi bolalar bog'chasining temir panjarasidan sakrab o'tib, kelasi bekatga eltadigan yo'lni izladi. U yoq-bu yoqqa yurib, qaysi tarafga ketganini ham taxmin qilolmadi. Mutlaqo notanish hovlidan chiqib qoldi. Shaharning bu tarafini yaxshi bilmasdi. Bu yer viloyat markazi bo'lsa ham, faqat ish yuzasidangina kelib ketardi. Oliy o'quv yurtini jonajon diyori Ko'kcha bilan chegaradosh Omskda bitirgan. Hozir o'qituvchilarning malaka oshirish institutining yonidagi kursda o'qiyapti.

Darig'aning yonida shuncha ko'p qolib ketarman, deb o'ylamagandi. Oshxonaning sharoitiga hali o'rganolmasdan, qaymoq qo'shilgan quyuq choyni sog'inib borgan. Darig'a bolaligidan birga tepishib o'sgan sinfdoshining opasi. Tikuv fabrikasida ishlaydi. Sakkiz-to'qqiz yoshlardagi qizi bilan birga yashaydi, yangi kvartira olganiga ikki yildan oshibdi. Ba'zan bir o'zi, ba'zan Darig'aning ukasi bilan ilgari ijarada turgan uyiga ko'p marta kelib ketgan. Qachon kelsa samimiy kutib olib, mehmonnavozlik ko'rsatadi. Ovulda sakkizinchi sinfni tugatgandan keyin shu yerda ishga joylashganini biladi. Shaxsiy hayotining ikir-chikirlaridan bexabar. Lekin uni ham o'z opasidek ko'rishi rost. Yolg'iz ukasini o'stiraman deb harakat qilganini, topgan-tutganini uning keraklariga sarflaganini ovuldoshlari ko'p aytishadi. Afsuski, ukasi, uning tengdoshi Tuyoqboy hozirgacha tushunarsiz hayot kechirmoqda. Hatto birinchi ayolining bolalariga alimentini Darig'a to'lamoqda, deb aytishadi.

Goh bolg'aga, goh omburga yopishib, qo'lidan kelmaydigan ishga kirishgan Darig'a uni quvonib qarshi oldi.

— Kelganing qanday yaxshi bo'ldi. Manavi mittigina mixlar ertalabdan beri jig'ildonimni qaynatib yubordi... Erkaksiz uyning ahvoli qanday bo'lishini endigina tushunyapman...

Beton devorga mixning qoqilishi juda qiyin ekan. Avval qilmagan ishi bo'lganligi bois derazalarga parda tutishga Jandarbek ancha-muncha qiynaldi. Darig'a — g'alati, uning horib-tolib bajargan arzimas ishiga yosh boladek quvondi. Gul bilan hoshiyalangan oppoq parda osilganda yuzi quvonchdan porladi. Xona bir damda yashnab ketgandek bo'ldi. Parda tutish munosabati bilan yozilgan dasturxon oxiri kichik bayramga aylandi. Jandarbek shuning uchun mo'ljalidan ko'proq qolib ketdi.

Endi, mana, tasodifiy falokatni qarang, qayoqqa yurishni bilmasdan turib qolgan. Hatto uning boshi og'riy boshladi. Ko'chada yurganlarning soni ozaydi. Qora mushukning kasofatidan qochgan yigit yetti xuftongacha kichkina yerni bir necha marta aylandi. Odamlar qorasi o'cha boshlashi bilan maxluqlar ko'paya boshlagandek. Birinchi uchraganida e'tibor qilmasdan, ko'zni yumib yurishi kerak edi. To'xtadimi, endi qaytolmayapti.

Yo'lini kesib o'tgan qora mushukni yomonlikning uyasi hisoblab, sarosimada qoldi. Lekin tevarak-atrofga hukmini o'tkazgan tunning kibridan hayiqmaslikka, har holda qora mushuk bilan uchrashmaslikka qaror qildi. Chekkadan qarab turgan kishiga u telba kabi ko'rinardi, shaksiz. Yana yon-atrofiga sinchiklab qaradi, hech kim, hech narsa ko'rinmadi. Ko'pqavatli baland uylarning elektr chiroqlari charaqlab yonib, derazadagi turli-tuman, alvon rangdagi pardalarning bahosini oshirayotgandek tuyuldi. Kunduzi unchalik ko'zga tashlanmaydigan oqish gazlamalar chiroq yorug'ida ingichka chizig'igacha aniq, ravshan ko'rinib turardi. Buni qiziqib tomoshalayotgan Jandarbekning ko'nglidagi g'ashlik biroz tarqalib, ko'rganlarini unuta boshladi.

Avtobus, mashinalarning ovozi kamayib, atrofni tinchlik egallay boshladi. "Taksi tutganim ma'quldir", deb katta yo'l tomon yura boshladi. Ancha vaqtdan keyin kimsasiz yo'l bo'yiga chiqdi. Lekin qayer ekanligini bilolmadi. Onda-sonda yengil mashinalarning ovozi chiqayotgan tomonga quloq tutdi. Shunga qarab biroz yurib, piyodalar yo'lagining keng tosh yo'lga qo'shiladigan chorrahasiga yaqinlashganda, tavba, qora mushuk uni masxara qilgandek "lip" etib ko'rindi. Yam-yashil ko'zlari qip-qizil o'tga aylanib, ko'z ochib-yumguncha yana yo'q bo'ldi. Peshonasiga tikondek qadalgan

juft yorug‘ — ikki nuqta quvvatini olib, sehrlab qo‘ygandek, boshini chayqab, jismini qimirlatolmay bir lahza turdi. Cho‘ntagidan sigaret olib tutatdi. Bu uning jismini ezgan tushunib bo‘lmaydigan bema’ni holatdan qutqargandek bo‘ldi. “Endi hech qayoqqa bormayman”, dedi pichirlab.

Oldinga qarab yursa, mushuklar to‘dasiga duch keladigandek tuyuldi. Oz-moz vahm ichida Jandarbek orqasiga burildi. Avvallari bunday holatga tushmagandi. Mushukning u bilan nega shuncha o‘chakishganiga hayron edi. Mushuk kesib o‘tganida nima bo‘ladi? Bu qilig‘ini kimdir eshitsa, bilsa, juda uyat bo‘ladi-ku. Qozoqlar mushuk masalasiga e’tibor berishmaydi. O‘rislarning qandaydir bir bid’atiga ergashib shuncha sarson bo‘lgani nimasi? O‘zini qancha yozg‘irsa ham, baribir yotoqxonaga borishga hafsalasi bo‘lmadi, mushuk o‘tgan yo‘ldan yurmasligi aniq. Bu nima? Qo‘rqoqlikmi? Balki mushuklar unga muhim xabarni yetkazmoqchi bo‘lgandir, balki qandaydir xatardan ogohlantirgandir. Hammasi bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘zini ayblamaydi.

Ko‘ziga tanish uy ko‘rindi. Jandarbek qaytib kelganim qalay bo‘ldi, deb jag‘ini ushlab qo‘ydi. Bo‘ynini cho‘zib tanish derazani izladi. Darig‘a ham uxlamabdi. Yo‘l-yo‘l gullar tizilgan, chiroy ochib turgan parda ko‘ziga o‘tdek ko‘rindi.

— Sen ekansan-ku, kelaver, uyga kir.

Darig‘aning mayin ovozidan uning hayratlangani yoki yoqtirmasdan qaragani sezilmadi. Qo‘lidagi nina-ipini xalatining yoqasiga qadab, bunga qaramasdan zalga kirib ketdi. Jandarbek uyda begona birov bormikan deb o‘yladi. Vannaga qayrilgan bo‘lib, ikki xonaga ham qaradi. Har birida alohida o‘rinni ko‘rdi. “Kimdir bo‘lsa kerak, eh, kelganim uyat bo‘ldi-mi?” degan gumon bilan anchagacha qo‘lini yuvgandek bo‘lib vannada turib qoldi.

— Uydagi kim? Ovuldanmi? — dedi xush ohangda.

— Hech kim yo‘q, o‘zimiz-ku... qizim ikkimiz ikki xonada alohida yotamiz. Uning uyqusiga xalaqit bermaslik uchun zalda uxlayman. Ba’zan uxlay olmasam, kechasi ham tikaman, kitob o‘qiyman.

— Men boshqa birov bormikan deb...

— Nima bo‘pti, boshqa birovning bu yerda yotishga haqi yo‘qmi? Ilgarlari Tuyoqboy kelganida ham xonalarning hammasiga kirib chiqardi. Qizg‘anganini nima qilaman? Agar shunday bo‘lsa ham, bir-birini yoqtirganlarning uchrashgani aybmi? Men o‘zim bundaylarni ayblamayman.

Jandarbek javob bermadi. Qattiq charchagan edi. “Shuncha vaqtdan beri qayerda yuribsan?” deb Darig‘a so‘ramadi. Stol ustidagi gazlama parchalarini, qaychi va iplarni yig‘di. Mashinasini sozlab, ishini yana picha davom ettirdi. Divandagi ko‘rpa va yostiqni qizining yoniga ko‘chirib, unga shu yerga o‘rin to‘shab berdi.

— Eshik kalitini ichkaridan burab ol. Ochilib ketsa, yelvizak bo‘ladi. Derazani ochib qo‘y. Xudoning rohati, havoning qanday ekanligini birdan bilasan.

Dastlab to‘shakka yotishi bilan kipriklari bir-biri bilan quchoqlashib qoladigandek tuyuldi. Lekin yostiqni u yon ag‘dardi, bu yon ag‘dardi, uxlay olmasdan anchagacha ag‘anab yotdi. Ko‘z oldida nimalardir paydo bo‘lar, so‘ng qora mushuk qiyofasiga kirib bezovta qilaverdi. Faqat tong chog‘ida salqin havo uni o‘z quchog‘iga olib, uyquga eltdi. Tonggi havo qanday mazza ekan. Chuqur nafas olganida, a’zoyi badaniga bol kabi kirib bordi. Jismi bo‘shashdi.

Ajoyib holat. Tog‘larning orasidan yugurib keladi, toshlardan qanday tez o‘tayotganiga o‘zi ham hayron qoldi. Qarasa, o‘ng qo‘lidan Darig‘a mahkam ushlab olib, uni shoshiltirib yetaklab ketayotgan ekan. Ikkisi qushday parvoz qiladi. Birdan uyg‘onib ketdi. Tushning ta’sirida anchagacha qimirlamasdan yotdi. Darig‘a ikkimizning tog‘-toshlarda yurganimiz nimaga ishora? Insonning tushiga har narsa kiraverar ekan-da!

Tez-tez kiyindi. Darig‘a quyib bergan choyni xohlar-xohlamas ichdi. Darig‘a uning yurak qa’ridagi noma’lum noqulaylikdan mutlaqo bexabar edi. U qizini maktabga tayyorlashga kirishdi. Jandarbek uydan chiqib ketguncha shoshildi.

* * *

Darsi erta tugasa ham, Jandarbek har xil narsani bahona qilib o‘qituvchilar xonasida uzoq o‘tirdi. Ish qilishga hafsalasi yo‘q.

O‘z xayollari bilan band. Yaxshiyamki, hamkasblari uning bu holatiga e’tibor berishmadi. Tanaffus vaqtida yig‘ilishdi, lekin har birining o‘z tashvishi bor, bir-biriga qarashga fursat yo‘q. Navbatdagi qo‘ng‘iroq chalinib, ustozlar sinf jurnallarini qo‘ltiqlariga qisib tashqariga yo‘l olishdi.

Boyadan beri ertangi darslarning rejasini yozishga harakat qilib ko‘rdi, xayolini jamlay olmadi, ruchkani tashlab qo‘ydi. Hech kim yo‘qligidan foydalanib, qiynalib ketgan odamdek og‘ir xo‘rsindi. Turdi, yurdi, o‘tirdi, lekin ko‘ngli notinch bo‘laverdi. Keyingi tanaffusda bekordan bekorga o‘tiraverishni noma’qul ko‘rdi va noiloj ko‘chaga chiqdi. Qadamlarini sanab bosayotgandek, sekin yurib ketaverdi.

Ayoliga o‘g‘rincha qarab, qovog‘idan keyingi paytlarda uyni egallab olgan “sovuq”ning hali uzoqqa cho‘zilishini sezdi. Kelishmovchilikning nimadan boshlanib, qanday davom etganini esida saqlamaydi. Chunki doim mayda-chuyda narsadan katta janjallar chiqishi odatiy hol bo‘lib qolgandi.

Pildirab yuradigan ikki o‘g‘li ikki oyog‘iga birdan yopishdi. Dadasini bir-biridan qizg‘angandek, qo‘lchalarini sermab, bir-biriga bildirlab gapiradi. Ikkisini ham ko‘tarib oldi. Faqat shulargina ko‘nglini yupatadi, bag‘riga bosganida xafagarchilikni unutadi.

— Pap...a...pap... mama Bo‘latni uldi...

— Ha...senga...o‘zing ulishding... — ikki quchog‘iga yopishgan ikki o‘g‘li bir-biriga gal bermasdan gapirardi.

— Senlar mamaning jahlini chiqarmanglar, ana shunda urishmaydi, urmaydi...

— Sizni ham urishmaydimi, ha, pap... ha... — Jandarbek beixtiyor jilmaydi. Kichkina qizini emizib o‘tirgan ayoliga qaradi, lekin u xo‘mrayib o‘tiraverdi. Erining kechirimga chaqirgan ishorasiga parvo qilmadi. Jandarbek ham tik qaradi, bolalarni polga qo‘ydi. Oyoqlari yalang, sovqotgan, qo‘li tekkanda bildi.

— Poldagi namatni nega olib tashlading, bolalar muzlab qolibdi-ku. Bo‘lmasa devordagi gilamni to‘sha... bolalarning sog‘ligidan qimmat emas-ku.

— Ota-bobongdan qolgan devoriy gilaming, zarbof to‘ning qani... to‘sha... kiydir... eh...

Jahl ila gapirayotgan ayoliga yolvorib qaradi.

— Xudo haqqi, iltimos, bolani emizganda qattiq ovozda gapirmagin!

— Joning achibdi-da... bilimingni menga ko'rsatma... topgan puling oziq-ovqatga ham yetmaydi... eh, shunaqasi ham bo'ladimi?..

Chakagi tezroq o'chsin deya Jandarbek o'g'illarini yetaklab boshqa xonaga kirib ketdi. Lekin ayolining ovozi tobora avjiga chiqardi. Endi bema'ni so'zlarni ko'paytirmaslik ilinjida to'plab qo'yilgan latta-puttalarning orasidan o'g'illarining oyoq kiymini izlay boshladi. Bo'g'ziga tiqilgan jahlni bolalarni erkalash bilan bosdi:

— Podshohlarim mening, erkatoylarim mening...

Kechki ovqat pishirilmadi. Jandarbek qotgan non va choy bilan kifoyalandi. O'g'illariga guruch bo'tqa pishirdi. Tamaki tutunini pag'a-pag'a chiqarib, odatiga xilof ravishda chuqur-chuqur tortdi. Xayollar girdobidan bo'shay olmadi. Qalin tumandan chiqmoqchi bo'lar, bari-bari arzimas narsaga o'xshardi. Uning birgina qayg'usi har kungi urush-janjal, eng dahshatlisi — yigit nomiga dog' tushirib unga bo'yinsungani. Hamma vaqt Jandarbek faqat bir narsani o'ylagan. Lekin tan olishga o'zi uyalgan. Xohlagani — ayolining iliq muomalasi. Agar birdaniga o'sha niyati bajarilsa, osmondan nur yog'adigandek, dunyoni ajib bir iliqlik egallaydigandek, qing'irliklarning barchasi yo'qolib, mutlaqo o'zgacha shodlikka belanadigandek edi nazarida. Baxtli bo'lishga yetkazmagan iliq muomala... qandaydir yengil-yelpi fikr... kishining xayoliga kelmaydigan narsa yo'q...

Jandarbek boyadan beri mehr ila tortgan tamakisini o'chirib, derazadan uloqtirib yubordi.

Avvalgi odatiga ko'ra bekorga qo'rqmagan ekan. Har bir janjalning oxiri ayolining ona yurtiga "mehmonga ketishi" bilan tugardi. Ko'cha darvozasining "tars" yopilishidan Jandarbek ahvolni tushundi. Oldindagi ikki haftaning qanday o'tishi, hech narsa bo'lmagandek qayin yurtiga borib, bola-chaqasini olib kelishi, ayolining bir og'iz e'tiroz bildirmasdan jimgina ergashishi — tanish manzaralar ko'z oldida gavdalandi. Ko'p marta takrorlangan,

hali ham qancha marta takrorlanishi noma'lum holat Jandarbek uchun. Shuning uchun izma-iz yo'lga chiqishga bu safar shoshilmadi. Agar izlab bormasa ham o'zlari bir kuni kelishi aniq.

O'xshash kunlar erinibgina davom etdi. Jandarbekning hayotida o'zgarish sodir etmadi. Maktabga to'g'ri borib, to'g'ri qaytadi. Uy ishlari ham deyarli yo'q. Bittagina sigir bor, qisir qolgan, uni ham qo'shnilar podaga qo'shadi. Besh-olti qo'yga ham shular qarashadi. U ishdan bo'sh vaqtlarida gazeta-jurnal, kitobga tikiladi. Yolg'izlik azobidan qutqaradigandek har kungi pochtani o'zgacha "ochko'zlik" bilan o'qiydi. Shu tariqa vaqtning qanday o'tganini ham sezmay qoladi.

Mudray boshlabdi. Taqirlagan chelakning ovozi qulog'iga chalingach, hushini yig'di.

— Bolalarning biri chelakka qoqilib ketdi... oxiri o'zi kelibdi-da...

U bolakay yiqildi deb o'rnidan irg'ib turdi. Lekin ayolining oxirgi marta xafa qilgani, uning qahrli qiyofasi ko'z oldiga keldi-yu, to'xtab qoldi. "Hammasiga ko'narman, faqat zahrini sochmasa bo'lgani... nega men doim xushomad qilishim kerak, o'zim birinchi gapirishim kerak?..."

Bolalarini ko'rishni istasa ham, oxirgi fikri uni yana karavotga cho'ziltirdi.

— Chelaklarni saf bilan qator qo'yishganini qara, bolalarning ishi-da bu...

Dastlab kimning ovozi ekanini ajratolmadi. Har holda ayoli emas. Qo'shnilarning birimikan? Ular bolalarning uyda yo'q ekanini bilishadi... Lekin yana o'rnidan qo'zg'alish istagi tug'ilmadi. Kim bo'lsa ham, yolg'iz qarshi olishni noqulaylik deb bildi.

— Tavba, uy egalari qani?.. Dahlizning ichi qop-qorong'i, biror narsalaringni pachoq qilsam kerak. Hukumatning chirog'ini tejaysanlarmi, nega yoqib qo'ymagansanlar?

Jandarbek o'z qulog'iga ishonmadi. O'rnidan qo'zg'aldi.

— Darig'a...

Salom berdi. Xonaning ichidagi tartibsizlikni endi ko'rgandek. Qog'oz, kitob sochilgan. Nega ilgariroq e'tibor bermagan?

— Kechki avtobusdan tushdim. Tuyoqboyning uyi yopiq. Tashvishlanadigan bola-chaqa yo‘q. Ayolini mototsiklga o‘tqazib, biror yoqqa ketganmi? Keyin to‘g‘ri shu yerga kirdim.

Ikkisi choy ichishdi. Ukasinikiga olib kelgan o‘rik, mayizdan dasturxonga qo‘ydi. Odatdagidan kayfiyati yo‘qroq.

— “Uyimizning miqtisi”ni bola-chaqa bilan mehmondorchilkka jo‘natgan edik.

— Yaxshi... yaxshi... aylanib kelgani yaxshi... bizning Tuyoqboylarga har kuni to‘y-ku...

Jandarbek keyingi yillarda bordi-keldi yo‘qligini, o‘rtalari umuman sovib ketganini esladi. Ikki farzandi bilan ayolidan ajrashganini tushunmagan. Shuning uchun uni ma’qullamagan. Keyingi ayolini yaqinroq bilmasa ham, negadir yoqtirmaydi. Shuning uchun aloqani to‘xtatgan. Darig‘a buni biladimi, u tomonidan bexabar. Balki bilmas, agar bilganida ehtimol kirmasdi. Ikkisini avvalgidek qadrdon deb o‘ylasa kerak.

Xonani yorug‘lik tark eta boshladi. Tashqaridan kechki taraddud ovozlari eshitiladi. Daladan qaytgan mol, o‘rdak, g‘ozlarning ovozi, itlarning hurishi — turli-tuman ovozlar aralashib ketgan. O‘rtadagi stolda ro‘para o‘tirgan ikkisiga bu ovozlarning umuman ahamiyati yo‘qdek, ularga begonadek.

— Hamma hayot uchun kurashayotganda, tinchgina indamasdan o‘tirish dahshat-ku, — dedi Darig‘a. — Bunga faqat ovuldagina guvoh bo‘lasan...

Darig‘a ketaman demadi. Har xil gaplarni gaplashib uzoq o‘tirdi. Aslida suhbatga no‘noq bo‘lgan Jandarbek bu safar shunchalik berilib gaplashganiga o‘zi ham hayron. Qalban Darig‘aning ketmasligini istadi. Chunki yutib yuboraman deb turgan uyga allanechuk yorug‘lik kirgandi.

— Eh, qaniydi, sen mening opam bo‘lsang yoki senday umr yo‘ldoshim bo‘lsa!..

Darig‘aning ko‘zlarida o‘zgacha quvonch nurlari porladi. Soxta tabassum emas, insonga xush yoqadigan mung aralash uchqun. Uning shu qadar ham nozik, ham zaif jihatini birinchi marta ko‘rdi. Bungacha ehtimol, ahamiyat bermaganligi, lekin Darig‘ani tep-

sa temirni sindiradigan yigitga teng hisoblagani uning xatosi edi. Chunki ovuldoshlarining maqtoviga qarab shunday xulosa chiqargandi. Aslida ayollarni bunday o'xshatish mantiqqa mos emas ekan-ku. Darig'aning hozirgidek aftoda bir ahvolda gapirishini ilgari tasavvuriga sig'dirolmasdi. Balki u qiyin taqdirini hech qachon tan olmagan, hech kimga dilini ochib, og'irligini kimgadir ortmagan. Hatto aytganda ham, o'zining taqdirini gapirmasdan, Tuyoqboy haqidagi gaplarni gapirardi.

— Yoshligimizda ajoyib, baxtli edik Tuyoqboy ikkimiz. Ko'plab tonglarni g'alati rejalar tuzib kutib olardik. Biz bajarmaydigan ish, amalga oshmaydigan orzu yo'qdek edi nazarimizda. O'sdik, balog'atga yetdik. Endi ishonolmayman: bir-birimizga o'gaydekmiz. Yo bolalarini, yo meni borib ko'rmaydi. Notanish birov hozir unga eng yaqin bo'lib qolgan... tushunmayman... Tug'ilib o'sgan uyim ham begona menga...

— Mening ham aybim bordir. Yordam bermadim. Hammadan xato o'tadi, hamma qoqiladi. O'zing sezgan bo'lsang kerak, hozir bordi-keldi qilmaymiz. Nima qilib yurganidan mutlaqo bexabarman.

— Urisholmayman, qattiq gapirolmayman, nima qilishni bilmayman. Boshqalarni aytmaylik, birga tug'ilib o'sgan qadrdonlar ham tobora uzoqlashib ketayapmiz. Senga ham oson emas... yuking og'ir...

Darig'a bir daqiqa jim qoldi va birdan so'radi:

— Ota-onangga borib turibsanmi?

— Ba'zida. Ular ham yozg'irmaydi. Tushunadi... Ovqat qilmaganimizni qara boyadan beri, sen xamir qilgin, men go'shtni qozonga tashlayman. Hali kech emas, tun uzoq...

— Ma'qul. Shoshiladigan yerimiz yo'q...

Jandarbek uch-to'rt bo'lak go'shtni olib ichkariga kirganida Darig'a o'rtadagi xonaning derazasidan tashqariga qarab turar edi. Nega turibdi? Qo'llarini, chirmashtirib, xayolda qolibdi. Yelkalari silkinadi. Jandarbek jur'atsizgina yaqinlashdi. Uning nigohida yosh tomchilari qator tizilgan edi. Yigit unga qarab qo'lini cho'zdi.

— Yo'-yo'q, shunchaki o'zim, sen kechirgin, — deb Darig'a pichirlab gapirdi, lekin uning qo'lini olib tashlamadi. Peshonasidan,

labidan, ko'zlaridan o'pgan yigitning harakatiga monelik qilmadi. Yuzini Jandarbekning ko'ksiga qo'yib, yum-yum yig'ladi. Hayrat, zoriqishdan ko'ra jussasida charchash, obdon toliqish belgilari ravshan sezilib turardi.

* * *

Jandarbekning kelganiga ukasining jajjigina o'g'il-qizlari juda xursand bo'ldi. Uning atrofini aylanib, yonidan bir lahza ham ketmadi.

— Bo'lat va Qanatni olib kelmadingmi? Shu tariqa ular bir-birini tanimasdan ketadi, hozirdan boshlab tanishtirib o'rgatmasanglar...

Oyisining yuzi siniq, charchagandek edi. Avvalgidek tetik harakati yo'q, pechka yonidagi karavot ustidan turmaydi, shekilli. Atrofini o'rab olgan nevaralarning sochidan, boshidan, yelkasidan hidlash uning bor ermagi edi.

— Buvi, mening sochim shokolad-ku, ha, yana bir ayting...

— Yo'q. Sening boshingni emas, mening boshimni shirin degansiz... ha, buvi...

Oyisining tizzasiga yopishib, biri peshonasini, ikkinchisi burnini tutgan kichkintoylarni kuzatib o'tirgan Jandarbek kulib yubordi. Ular gal bermasdan chug'urlashardi.

— Hammang ham mening shirintoyimsanlar, hammang... — gaplashishga chog'lanib, ularni arang pastga tushirdi. — Bas, bo'ldi, quturmanglar, boringlar, o'ynanglar!

Eshikda otasi paydo bo'ldi. Qo'lida qandaydir temirlar bor edi. Uni ostonadagi katga tashladi. O'g'lining kelganidan xursand bo'lib, unga astagina yaqinlashdi.

O'g'li yugurib kelib salomlashdi. Uning kaftini qisib:

— Durust...durust, — dedi. Uning kelganigami, salom berganigami yoki boshqa narsagami, nega "durust" degani o'zigagina ayon. Avvaldan kamgap, ko'p gapirmaydi. Hozir ham ortiqcha hech narsa so'ramadi.

Shoshilmasdan dasturxon yig'ildi. Xonada hech kim qolmagach, onasi yoniga chaqirdi.

— Yotib ketmaysanmi? Doim shoshilib yurasan, bir o'zing kelasan. Sababi bormi? Nevaralarimni bizga ko'rsatishni xohlamaysan-

mi, nega olib kelmaysan? Kelin bilan ikkingga nima yetmayapti? Nega men senlar haqingda yomon gaplar eshitishim kerak?.. Yosh emassanlar-ku... Nabiralarimning kelajagini o'ylamaysanlarmi? Senlarning uyingdagi arzimas gap bizga bir necha baravar bo'lib yetadi. Qarigan chog'imizda bizni uyatdan kuyib o'lsin demasang, bola-chaqangga ega bo'l. Har kuni nimasi bor, kuchuklarini ergashtirgan itga o'xshab, ketib qoladigan... To'xtatmaysanmi, tarbiya qilmaysanmi?

Onasi bunchalik koyimasdi. Jandarbek sarosimada qoldi. Uning har so'zi yuragiga sanchilardi. Lekin onaning asta-sekin ovozi mayinlashib, yuzidagi ajinlar yozila boshladi. So'z ohangi ham o'zgardi, yuziga qizillik yugurdi. Uni ayblamasligining belgisi sifatida yuziga mehr bilan qaradi.

— Noiloj, — dedi ancha jimlikdan keyin, — hammasiga ko'namiz. Men faqat bolalaringni o'ylayman. Toshbag'ir, bemehr, aqlsiz bo'lmasin deyman. "Mingan oting sustkash bo'lsa, quvganing ketar, xotining yomon bo'lsa, qarindosh ketar, bolang yomon bo'lsa hayoting o'kinchga to'lar", deb bekorga eslatishmagan. Alloh taolom farzandlarning yomon bo'lishidan saqlasin. Rafiqam nodon deb hovliqma, ko'nglingga shayton kirmasin, endi hech narsani o'zgartirolmaysan. Faqatgina bolalarning kelajagini o'yla. Sendan roziman, qarog'im. Hech biringga onalik oq sutimni minnat qilmayman... Bu yil yetmish uch yoshga yetdim. Ota-ona hech kimga abadiy berilmagan. Hayot bor yerda — o'lim bor. Hamma narsaga doim tayyor bo'linglar. Ahil bo'linglar. O'zaro tortishib, xalqqa sharmanda bo'lmanglar. Dafn marosimi o'ziga xos bir imtihon. Ayniqsa, bugungi kunda. Bu gaplarimdan bizni yaqinda o'lib qoladi, deb qo'rqma. Hali ikkovimiz ham bardammiz. Sen doim oldimda bo'lmaysan. Juda kam ko'raman, shuning uchun ham eslatib qo'ydim-da bir... Endi yo'lingdan qolma, qayn yurtingga salom aytgin, kelinga ham... "yomon" nabiralarimning yuzidan men uchun o'pib qo'y...

Quda tomonga ayolininng orqasidan borayotganini ayni xatosiz topganiga hayratlandi. Lekin atayin bizni ko'rishga kelmaysan deb gina qilmadi. Doim yo'l-yo'lakay kelib-ketishiga obdon o'rganib

ketgandi. Jandarbek o'zining uyiga begona yo'lovchidek kirib-chiqishini endi tan olayotgan edi.

Onasi ularning hech biri bilan qo'l berib xayrlashmaydi. Bu safar ham karavotda tik o'tirgancha bilinar-bilinmas boshini qimirlatib qo'ydi. Ostonadan chiqayotgan Jandarbek onasining qiyofasini baland tog'ning tepasiga qo'nib olgan katta qushga o'xshatdi.

Chim ustida o'ynayotgan bolalar unga qarab yugurdi.

— Amaki, qoling... mashinaga mindiring...

— Nega tez kelib, tez ketaverasiz?

— Meni osmonga uchiring, osmonga.

Bolalar qo'llarini cho'zib, amakini quchoqlamoqchi bo'ldi. U ham bolalarga egilib, bag'riga bosib hidlab qo'ydi. Juda kam ko'rishsa ham, bu bolalar yotsiramasdi.

— Qarindoshini tanigan aqllaringdan aylanayin, amakilarini e'zozlagan yaqinlarimdan aylanayin, bo'taloqlarim!

Bolalarning har birini navbat bilan ko'tarib osmonga uchirdi. Ular shod bo'lib "yana, yana" deb galma-gal kelaverdi. Shu tariqa amakining orqasidan qolmasdan, jilmaygancha atrofida girdikapalak bo'lishardi. Hatto mashinaning eshigini yopib, u bilan birga ketishga shaylandi. Motorni o't oldirgach, Jandarbek tashqariga chiqib yana biroz qarab turdi. Bolalarni arang aldab-suldab, qoldirishga ko'ndirdi, haytovur.

O'zgacha shiddat bilan mashinasini ko'chaning narigi yuzidagi tosh yo'lga burdi. Tevarak qizil-yashil rangga belanib, tobora go'zallashgan. Yozning kechki osmoni o'z ufqi doirasini kengaytirib cheksiz daryoga tutashib ketgan. Qizil tusga kirgan momiq bulutlar katta-kichik kemalarni eslatadi. Quyoshning mag'ribga engashgan tomoni qip-qizil olovga chirmalib, ora-orasidan minglab nurlar tomchilaydi. Jandarbek uchun hayot ma'no-mohiyatini endi egallagandek, barcha xossasi bilan namoyon bo'lib, buyuk tantanaga qo'shilgandek edi nazarida.

O'ng tomonda uzoqlarga cho'zilgan cheksiz o'rmon. Ufqqa engashayotgan quyosh ta'sirida bo'lsa kerak, o'rmon rangi allaqanday mungli ko'rinadi. U tomonga boshqa qayrilib qaramadi. Rulni mahkam ushlab, faqat oldga, uzoq-uzoqlarga ko'z tikkancha tezlikni oshirdi. Qayin yurti iliq kutib oldi. Ayoli ham tez-tez narsala-

rini yig'ishtirishga kirishdi. Bolalari bo'yniga yopishib, o'z quvonchlarining cheki yo'qligini hammaga ko'rsatardi.

Qaytib kelayotib o'z qishlog'i burilishida ayoliga "uyga kirib chiqsaqmikan?" deb niyatini bildirdi.

— Hozir hech nimamiz yo'q-ku, keyin ataylab kelarmiz.

— Gapingda jon bor. — Yo'qotib qo'ygan narsasini birdan topib olgandek ayolining mayin tovushi uning ko'ngliga huzur baxsh etdi.

Oilasida ilgarigi achchiq kunlar orqada qolib, keyingi oylarda shirin barqarorlik hukmini o'tkaza boshladi. Lekin endi Jandarbek mavhum dardga yo'liqdi. Darig'aning qiyofasi tez-tez tinchini oladigan bo'ldi. Ana shunday paytlarda o'zini qo'yarga yer topmasdi.

Bir kuni uyqudan uyg'onib, atrofiga qaradi. Yonidagi umr yo'ldoshini Darig'aga o'xshatib, quchoqlab olishni niyat qildi. Sehrli hislar u tomonidan ham, bu tomonidan ham avramoqda, u esa peshonasini ikki qo'li bilan ushlab olgan. Ayoli hech narsani sezmaydi, pishillab uxlamoqda. Tun yarmida bu tarzda birdan uyg'onib ketmasdi. Uzoq yotdi. Qorong'i xonada uyg'oq yotganidan boshi og'riy boshladi. O'rnidan sekin turib, zalning eshigini izladi. Qo'liga ilingan kitobni olib varaqlay boshladi. Qancha o'qishga harakat qilsa ham, Darig'a bilan bog'liq arzimas narsalar aql-hushini o'g'irlayverdi. Jilmaygani, erkalagani, arazlab boqishi...

— Bu qanday sinoat, — deb pichirladi. — bu yaxshilikka emasku! Ongimga joylashib olgan, uni zaharlayotgan sirni qanday tushunishim lozim? Tasodifan "yalt" etib so'ng yo'qolgan o'sha dam nega shu qadar jonimni qiynaydi?

Shiddatli xayollardan chakkasi zirqirab og'ridi, chiroqni o'chirmasdan, holdan toyib o'zini divanga tashladi.

* * *

— Kuzatib qo'yaman, — yupqa paltosini kiygan Darig'a eshik tomon yurdi.

Bir necha muddat muqaddam Jandarbek ketishini ma'lum qilganida, u ham tinchini yo'qota boshladi. Yigitning yuzidagi xafalikmi yoki jahlmi unga ham o'tdi, o'zgarmas ko'rinishining qanday o'zgarganiga e'tibor beradigan holatda emasdi. Hatto stolning

yonidan turaman, deb o'ylamagan. Xo'mrayib, xayrlashmayman deb tirishgani bilan, Jandarbekning nigohidagi ma'yuslikni ko'rganda o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Uzoq vaqt haykaldek bo'lib sovuq muomala qilganini unutdi.

— Biroz o'tirib turaylik...

Jandarbek yana zalga kirdi. Bir pasning ichida o'zining yolg'iz qolayotganidan bezovlalanganini bildirib qo'yganidan noqulay ahvolda tushgan Darig'a paltosi va tuflisini yechmasdan stolning chetiga o'tirdi.

— Demak, bundan keyin kelmaymanmi?

— Bizniki shunchaki ovoragarchilik, behuda harakat... — Darig'a ichki tug'yonini bosib arang gapirdi.

— "Agar yoqtirsa, uchrashganning nimasi ayb?" demaganmiding. Bularning eng oxiri biz bo'lmasak kerak.

— Bir-birini yoqtirmaydigan odamlarning uchrashuvi ham, xayrlashuvi ham juda oson...

— Sen buni qayerdan bilasan?

— Men avval shunday edim...

Jandarbek "tushunmadim" degandek savol alomati bilan boqdi.

— Qulog'ingga og'ir tegmasin, shu vaqtgacha erkaklar bilan osongina uchrashib, qiynalmasdan xayrlashganman. Hatto hech biriga yuragim og'rimagan. Chunki ularga har kuni foydalanadigan cho'tkaga, sovunga, qiziqarli ko'rsatuv, kino ko'rsatadigan televizorga, oziq-ovqat saqlaydigan sovutgichga qaragandek qaraganman. Balki ularning menga munosabatlaridan diydam qotib...

— Sen, sen... nima deyapsan?... Se-n... — Jandarbekning ko'zlari kosasidan chiqadigan darajada ochildi. Jahli chiqqanidan Darig'aning chakasiga tarsaki tushirdi. — Sen kimsan shunda? Faqat tashqi qiyofang ekan-ku hammamizga pokiza... oppoq... farishta ko'ringan, ha...

Achishgan yuzini qo'li bilan panalab, boshini quyi solgancha Darig'a jim qoldi. Beixtiyor qilgan ishidan Jandarbek ham o'kinib, teskari qaradi. Darig'aning yuziga tekkan kafti o'tdek qizib ketgan.

— Kechir...

— Yo'q... sen kechir, — dedi Darig'a ko'z yoshidan bo'g'ilib. — So'zimni tugatishga imkon bermading. Sening o'rning

boshqacha... Ikkimizning ishimizni aytaman... umuman... bir-biriga intizor insonlar qanday xohlasa, shunday uchrasholmas ekan... ikkimizda-chi... bilsang. Sening qiynalishlaring meni butunlay o'zgartirdi... bilsang agar... odatda erkaklar qiynalmaydi... qiynalmasdi... sen haqingda ham shunday deb o'ylagandim. Bu yil yoshim o'ttiz yettiga keldi. Sendan, Tuyoqboy ikkovingdan uch yosh kattaman. O'sha vaqtgacha erkakning ko'kragiga boshimni qo'yib yig'lamagan edim... Sening yelkangga boshimni qo'yib yig'laganda... ha, ha... shundagina baxtning haqiqiy ta'mini totdim... birinchi marta... ishonasanmi, ishonmaysanmi, o'zing bilasan... endi butunlay qaramasdan ketsang ham roziman.

— Ishonardim, o'zimga ishongandek ishonardim, afsus...

Xonada nari-beri yurayotgan yigit Darig'aning oldiga kelib to'xtadi va og'ir xo'rsindi.

— Avtobusdan kechikasan, chiqaylik.

Kuzning sovuq shamoli o'z kuchini ko'rsatayotgandi. Iliq uydan chiqqan vaqtlarida badanlari junjikib ketdi. Busiz ham og'ir xayollar yanchib tashlagan ichki dunyolarini shamol shiddati butunlay egiltirib qo'ydi.

Jimgina ketishdi. Shamol yanada kuchiga mindi. Tashqi kiyimlarining etaklarini hilpiratib, biydek dalaga tortayotgandek bo'lardi. Sovug'i ham, tezligi ham yuzdan urardi. Ular bir-birini qo'ltiqlab olishdi.

— Shahar-ku, bekorga sovqotmasdan.

— Loaqal bekatgacha...

— Shohbekatgacha bormoqchimisan, tunda bir o'zing qanday qaytasan?

— Birinchi marta deysanmi, doimo bir o'zim yuraman... faqat Xudoning ko'zi to'g'ri bo'lgay...

Bekatda yo'lovchi oz. Juft-juft bo'lib bir-birining pinjiga tiqilgan qiz-yigitlar. Ikki avtobus birin-ketin keldi. Hamma unga o'tirdi. Yo'nalish raqamiga qarab Jandarbek yana bir necha avtobusni o'tkazib yubordi. Oxirgi kelgan avtobusda deyarli hech kim yo'q edi. Zuvillab ketayotib, yo'lovchilarning turganini ko'rib qoldi, shekilli, zo'rg'a to'xtadi. Jandarbek avtobusga chiqdi, lekin haydovchi eshikni yopib ulgurmasdan qayta sakrab tushdi. Haydovchining so'kinib baqirgani eshitildi.

— Xudo haqi, uyga borgin, bo‘lmasa avtobusga o‘tira olmayman...

— Seni kuzatib qo‘ymasdan ketmayman.

— Yo uyingga olib borib qo‘yaman, keyin o‘zim qaytaman.

— Yo‘-yo‘q, senga orqaga qaytish mumkin emas... baribir ketishing kerak, cho‘ntagingda bileting bor.

— Ko‘ryapsan-ku, ketolmayman... mayli... bir o‘zing ketavergin... ket dedim senga.... — Jandarbekning ovozi qattiq chiqdi. O‘zining endigina murti sabza urgan o‘spirindek, Darig‘aning qiz boladek erish harakatlariga jahli chiqa boshladi. O‘tayotgan avtobuslarning hammasi shohbekatga borardi. Ketmoqchi bo‘lardi-yu, Darig‘a tomonga noma’lum bir kuch tortib turardi.

— Ket, Xudo haqi ket dedim-ku...

Darig‘a iziga qaytdi. Orqasiga qayrilib qaramadi. Jandarbekning yuragi dukillab, xuddi og‘ziga tiqilgandek bo‘ldi. Qop-qorong‘i tun quchog‘ida abadiy qolib ketadigandek, uzoqlashgan sayin yolg‘iz ayolning xiralashgan qiyofasi joni dilini qurtdek kemira boshladi. Bor kuchini to‘plab orqasidan yugurdi.

Uning qaytib kelganiga Darig‘a umuman hayratlanmadi va bundan xafa bo‘lganlik alomatlari ham ko‘rinmasdi.

— Uy tomonga bormaymiz... aylanib yuraylik...

— Qayerda?

— Bilmayman... balki shu atrofda...

Qorong‘ilik quyuqlashib, simyog‘ochlardan taralgan yorug‘lik xiralasha boshladi. Shamol shiddati kuchayib, o‘rgimchakning to‘ridek qurilgan uylarning o‘rtasidagi, tomlarning ustidagi simlar asabga tegadigan darajada chiyillay boshladi. Baland-baland uylarda hayot borligini bildiruvchi chiroqlar asta-sekin o‘chib, shaharni og‘ir sukunat qopladi. Biron derazasidan yorug‘lik ko‘rinmagan uylar Jandarbekka uzoqdan baland-baland dahmaga o‘xshab ko‘rindi. Atayin atrofiga aylanib qaradi. Boyagi fikri yanada barqarorlashdi. Atrofini bir xildagi baland-baland dahmalar o‘rab olgan edi nazarida. O‘lik sukunatni faqat behalovat shamolgina buzib turardi.

Shunday bemahal vaqtda qaysi tomonga ketayotganlari umuman noma’lum, oyoqlarining yetovida ikkisi ohista qadam bosaveradi. Ikkisining ham yelkasidan qorong‘u zulmatning botmondek

og‘irligi bosib turgandek, navbat bilan, goho ikkisi bir vaqtda xo‘rsinib, og‘ir nafaslari baravar chiqadi. Birdan o‘zini qabrlar orasida yurgandek his qildi, o‘zining fikridan o‘zi cho‘chidi. Uzoq cho‘zilgan bema’nilikdan telba bo‘lmoqdami, xuddi shu holatni avval ham aniq boshidan o‘tkazgan, lekin qachon, qay holatda eslamasdan qiynaldi. Tanish, notanish hovlini bir necha marta aylanib chiqqandek tek qotib qoldi. Tavba, o‘tgan gal xuddi shuni boshidan kechirgandi. Ayni hozirgidek gir aylangani rost. Qora mushuklarning o‘rnidan qimirlatmaganini esladi. Ana shu kungi chigal izlardan hozir Darig‘a ikkisi takror o‘tib kelmoqda. Uydan chiqqanida jo‘nab ketishga hech qanday to‘siq yo‘q edi, lekin allaqanday sehrning jiloviga kirib... Og‘ir yuk ko‘targandek tun yarmigacha cho‘zilgan ikkisi o‘rtasidagi bema’nilik yigitning achchig‘ini keltira boshladi. Yonida yurgan hamrohining ham negadir kayfiyati yaxshi emas.

— Avtobusdan qolib ketding-ku bekorga...

— Ertalabki beshdagiga ulguraman... tumanga...

— U yog‘iga nima qilasan?

— Bir nima bo‘lar. Amallarmiz. Doim to‘g‘ri borib, to‘g‘ri kelish shart emasdir.

— Sovqotdim. Uyga qaytaylik...

— Uyga qaytsang, yo‘ling bekiladi, degansan.

— Bu shunchaki gap-da...

— Seni yolg‘iz qoldirib men qanday ketaman...

— O‘zing bilasan.

— O‘n gulidan biri ochilmagan qiz va yigitdek shunday yuraveraylik...

Jandarbekning ko‘kragida bo‘y ko‘targan istehzo aralash alam yo tashqariga chiqmadi yo bosilmadi. Ichini yoqqan o‘kinchning loaqal yarmini tashqariga chiqarishga madori yetmadi. Tilida turgan qo‘pol so‘zlar havoga tarqalmadi. Jur’ati yetmadi. Chunki o‘rtalaridagi tugashi qiyin hangomani shu damdan, bir-birining ko‘nglini mutlaqo sovutib to‘xtatishni o‘ylagandi. Afsus, harakati zaif chimchilashdan nariga o‘tmadi. Darig‘ani hech qachon xafa qila olmasligini shundagina tushundi. Hozirgi niyati bilan ko‘ngil ixlosi bir-biriga mos emasligini bildi. Endi Darig‘aning o‘zidan

koyish kutdi. Agar unga malol keladigan biror terslikni bilsa, balki orqasiga qayrilmasdan ketardimi, nima qilardi? Har holda tezda bir nima qilish kerakligini, yuragiga suqilgan ninalardan xalos bo'lish lozimligini aqli aytib turardi.

— Sen menga bir narsa qilib qo'yganmisan?

— Nima?..

— Sehrlab qo'yganmisan, deyman.

Darig'aning o'z kulgisiga bo'g'ilgan ovozi tun pardasini yorib o'tdi:

— Qiziq, ha... darhaqiqat, bo'lishi mumkin-ku, ha...

— Mana, yana sen aytgandek... uyingga kelib qolganimizni ham sezmabman...

— Hozir uyga kirganingni ham bilmay qolasan... oyoqlarimdan sovuq o'tib ketayapti...

— Uyga kirmayman baribir... uyat... Kamila nima deydi?

Qizining ismi aytilganidan keyin iltimosini boshqa takrorlamadi. Sovuq badanini qaltiratib qolmasdan, muzlatsa ham chidashga ahd qildi. Labini tishlagancha turaverdi. Biror ishora kutmagan Jandarbekning issiq quchog'idan panoh izlamadi. Sovuq o'tib borayotgan bo'lsa ham ikkisi birlashmagan holatlarini o'zgartirishmadi.

Tundan tongga ulangan sovuq izg'irinda vaqtni shunday o'tkazishdi. Qora quyunning tagida qolgandek esankiragan Jandarbek bu kunning sababchisi qora mushuk ekanini tushuntirmoqchi edi, uzuq-yuluq hikoyaga o'xshab qoldi. Nima aytishni o'ylasa ham yuragiga bir nima og'irlik tushirayotgandek asabini qaqshatardi.

— Bundan keyin qiynalma, sen hech qachon azob chekmagin.

— Nima qil deysan?... Yo'lini ko'rsatgin.

— Azoblarni Tangrim bizlarga, ayollar peshonasiga yozgan.

— Bilmadim... xayolimda hech narsa yo'q edi... kutilmaganda yashindek kelding, momoqaldirog'-u chaqmoq bo'lding... hislar toshqini meni rasvo qildi... men kabi ojiz-u notavonlarga bunday holatlarning hojati yo'qligini aniq bilaman... Mayli, yaxshi... endi kuzatib qo'yaman deb ovora bo'lma. — Jandarbek paltosi yoqasini ko'tardi. — Qaltirab arang turibsan...

Darig'aning yuzidan o'pib oldi, sovuqqina ekan.

Birdan qalbni titratuvchi ingichka ovoz o'lik sukunatni nayzadek yorib o'tdi. Ham achchiq, ham yig'lamsiragan, ham shu qadar manfur... mushuklarning miyovlab fig'on chekishi...

Ikkisi bir-birining pinjiga tiqilib, seskanib ketishdi.

Jandarbek orqasiga qaramaslikka harakat qildi. Yer-u ko'kni mushukning oh-u fig'oni tobora qoplab borardi. Ikki qo'li bilan qulog'ini berkitib, qancha harakat qilsa ham, teshik topib quloqqa kiraveradigan zorli ovoz edi, xalqumini zahardek achitgan naqadar achchiq edi... yuragini beshafqat timdalagan... haligi yig'loqi miyov...

ERSIN QO'YBAG'ARULI

(1946)

Ersin Qo'ybag'aruli 1946-yil 23-aprelda hozirgi Turkiston viloyatining Sayram tumanidagi Qurliq ovulida tug'ilgan. 1969-yilda Almati davlat tibbiyot institutini tamomlagan.

"Qarasha", "Shimol yog'dusi", "Doktor Arseniy" qissalari va boshqa ko'plab hikoyalar yozgan. Hikoyalari "Armon qanotida", "Qiyshiq mix", "Kulamizmi, nima qilamiz?", "Qanot qoqdi" nomli jamoaviy to'plamlarda nashr etilgan. Ko'plab dramatik asarlari viloyat teatr sahnalarida qo'yilgan.

KOMILANING KUNI

Uyiga gandiraklab kirib kelgan Shomansurni xotini odatdagidek qosh-qovoq bilan kutib oldi.

— Yana chayqalib turibsan-ku! Biron kun ichmay kelsang — harom qotarmiding? Seni tavbangga tayantiradigan odam topilmayapti-da, a? Tashqarida qilichini qayrab qish kelayotir, anov bolalaringning usti yupun, palto tugul, issiqroq kiyimi yo'q. Katta qizing maktabga paypoqsiz qatnab yuribdi. Sening bu xayolingga ham kirmaydi-ya, aroq qurisin, aroqni chiqarganlar qurisin! O'zingniyam, o'zgalarniyam bezor qilib yubording-ku, piyanista!

— Bizillama, ey!...

— Nega bizillamas ekanman! Meni o'ylamasang ham, yoshgina bolalaringni o'yla axir. Jonimdan to'ydirib yubording-ku!

— Shang'illama! O'zim topdim, o'zim ichdim, nima...

— Ich, ichaver, odamlar yetib bormagan shishaning tubiga sen yetib borarsan. El-yurtga kulgu bo'lib, sharmanda bo'lib yurguncha, meni ham, bolalaringni ham sotib-sotib ich!

Komila joni og'ziga kelib yig'lab yubordi. Shomansur xotining suyagigacha yetib boradigan biror og'ir so'z aytmoqchi bo'lib,

endi og'zining atrofidagi tupukni artib olmoqchi edi, ostonada turgan qo'shni ayol Qarg'aga ko'zi tushdi.

— Nima balo, har kuni kechqurun uyingdan shovqin ko'tariladi? — dedi Qarg'a.

— Ey, jim tursang-chi sen! — deb qo'lini siltagan Shomansur shu zahoti gandiraklab borib, divanga ag'anab tushdi.

— Yer yutsin... to'yib ketdim. Qarg'a opa, yana ichib kelibdi! Nima qilsa bo'ladi-ya?

— Da...

— Ichmagan kuni yo'q. Anov bechoralarning esa shu sovuqda ko'chaga kiyib chiqadigan kiyimi yo'q. Buning parvoyi palak... O'lib bo'ldim.

Shomansur divanga qulagan ko'yi xur-xur uyquga ketdi. Komilaning og'zi tinmaydi:

— Qaydanam shu piyanistaga tekkan ekanman, a, opa?! Boshingni borib uradigan tosh yo'q, nima qilsam bo'ladi?

— Yig'layverma. Bolalaring qo'rqoq bo'lib o'sadi. Qani, bu yoqqa kel-chi...

Qarg'a Komilaning bilagidan tutib, narigi xonaga boshladi.

— Mening gapimni eshit, Xudo haqqi, achinganimdan aytyapman, mana shu yo'lini ham bir ko'rmaymizmi, bunday qilsak...

Ikkovi ikki o'rindiqqa o'tirishdi.

— O'zingni bosib ol... Yig'ini bas qil, dedim. Uxlabdimi? Uxlayversin. Yig'laganing bilan, yig'idan foyda yo'q. Yig'i bilan tuzata olmaysan endi uni. Gapirsang — aytganlaringni bari havoga uchadi-ketadi, mast bo'lib kelgan odam sening gapingni nima qilsin? Uxlayaptimi axir?

Komila ko'zlarining yoshlarini artdi.

— Uxlayapti. Hech narsani bilmaydi, parvoyigayam keltirmaydi...

— Shunday ekan, nimaga bekordan bekor yig'layverasan?

— Jig'ildonim qaynab ketgan bo'lsa nima qilay, opajon?! Men yig'lamay — kim yig'lasin, men kuyib-pishmasam — kim kuyib-pishadi? Mening qora boshimdan boshqa kimga kerak bu piyanista?!

Qarg'a eshikdan boshini chiqarib, divanda xurillab uxlayotgan Shomansurga qarab qo'ydi — uyquga ketgani aniq shekilli.

— Jig‘ildoning qaynamasin. Men bir yo‘lini o‘yladim. Meni tingla...

Komilaning butun vujudi quloqqa aylandi. Chorasiz ahvolda madad izlaganday, yoshi o‘zidan kattaroq ayolning yuziga umid bilan tikildi.

— Saharmardonlab turib garmdori qo‘shib, achchiq bir sho‘rva tayyorla. Do‘kondan anovi zormandasidan ham bir shisha keltirib qo‘y. Uyg‘onganida sovuq suv so‘raydi. Sovuq suv ichib olganidan keyin yana o‘zini divanga tashlamoqchi bo‘layotgan payt sen sho‘rvani, aroqni, topgan-tutganingni barini o‘rtaga chiqarib, dasturxonni yasatib tashla. Aslo qosh-qovoq uyuvchi bo‘lma. Otasi-otasi, Shomansur-o Shomansur deb atrofida parvona bo‘l. Iloji bo‘lsa, o‘zing stakanga aroq quyib ber. Terlab-pishib sho‘rvaniyam ichsin. Ta’bi olsa, yana bir stakan aroq quyib ber. Ana shundan keyin aytadigan gapingni ayt, qo‘yadigan shartingni qo‘y. Ana shunda insofga kelsa-kelgani, gapingni tinglasa-tinglasin, agar tinglamasa, tamom, shundan keyin so‘nggi chorangni ko‘raverasan — “qo‘y bo‘ldi” qilasanmi, boshqami...

— Shunday qilsam... bo‘larmikin, opa?

— Shu yo‘lini ham bir ko‘r...

* * *

Tunda izg‘irin izg‘ib, suvning yuzi to‘nglaydigan, kunduz kuni quyosh jonni yayratadigan qo‘ng‘ir kuz. Choshgohga yaqin boshi qattiq gangib uyg‘ongan Shomansur “Shu paytda ellik grammgina bo‘lsami” deb o‘yladi. Do‘konga chiqib, qarzga bo‘lsayam olib kelsammikin? Yo qo‘shnisi Qarg‘a opadan so‘rasa — qalay bo‘lar ekan-a? Mehmon-sehmon kelib qolgan paytlari xotinlar o‘zaro oldi-berdi qilishadi-ku axir...

Shomansur vanna tagiga boshini tutib, muzday suvni ochib yubordi. Joni rohat topganday biroz o‘zini yengil his qildi. So‘ng turgan joyida:

— Bolavsa, sochiq! — deb baqirdi.

— Mana, papa.

Payqamabdi, qizi eshikning og‘zida sochiq tutib turgan ekan.

Endi esiga tushdi — bugun dam olish kuni, shekilli. Baribir pivoxona ishlayversa kerak. O‘sha yerda hamma ulfatlar, Azim ham,

Salimgirey ham... Balki ular ham boshlari og'rib, allaqachon yetib borgan, Shomansurni kutmayoq, pivoxo'rlikni boshlab yuborgandir. Ketish kerak, ichish kerak! Ichmasa bo'lmaydi... Shomansur vannaxonadan chiqib, divan yoniga keldi-yu, og'zi vang ochilib qoldi: kimdir stol ustiga qorday oppoq dasturxon yozib, vazaga ikki-uch dona gul ham tashlab qo'yibdi. Yo'q, vaza emas, shisha shekilli, Shomansur ko'zlarini ochib-yumib, uqalab, qayta-qayta tikildi, — vaza ekan, vazaning yonida esa bir shisha aroq turardi! Faqat aroq emas, yana bir shishada mineral suv ham bor, ol-a! Manavi nima, bodringmi? Iye-iye-iye, stakanlarning yaltirab turishiga qara-ya! Kutilmaganda, bu nimasi ekan-a?

— Komila!

Qizi Bolavsa oshxona tomondan tez yetib keldi.

— Nima deysiz, pap?

— Mamang qani?

— Hozirgina chiqib ketgan edi, kelib qolar...

— Sen nima qilyapsan?

— Hozir ovqat solib kelaman. Mamam tayinlab ketgan edi, qozonning yonida tur deb.

Shomansur apil-tapil aroqni ochib, bir stakanga qultillatib quydi-da, ichib yubordi. Shu tezlikda bodringdan bittasini olib, burniga bosdi.

Ust-ustiga mineral suvdan ham ichib-ichib yubordi. Bolavsa kartoshka bilan mayda to'g'ralgan go'sht qovurayotgan ekan. Ichilgan aroq, suv Shomansurning ishtahasini o'ynatib yubordi.

— Aynanayin! — dedi u katta qiziga mehri iyib. — Bog'chaga bormadingmi?

Bolavsa kuldi.

— Maktabga qatnayapman-ku, pap. Anovilar bog'chaga qatnaydi...

— Iy-y...

Shomansur qizining gapidan uyalib ketib, narigi xonaning eshigiga qaradi. Ichkaridan o'rtancha qizi Boljon bilan kenjasi Estoy mo'ralab-mo'ralab qo'yardi.

— Qani, bu yoqqa chiqinglar!

Boljon va Estoy bir-bir mo'ralab qo'yishdi, ammo chiqishga yuraklari betlamadi.

— Papa aloq ichdi, uladi, — ovozi eshitildi Estoyning.

— Mamamni uradi, bizni urmaydi, yur! — dedi Boljon ukasini qistab.

— Kelinglar, o', aynanib ketaylar, ma, Estoy, kartoshka beraman, qani, iye-iye-iye... Kel deyman!

Estoy otasining urmasligiga aniq ishonib, taltanglab-taltanglab borib, bo'yniga osildi.

— Go'sht yeyman, papa, go'sht!

— Ma, og'zingni och, qani, Estoyim — polvonim!

— Men ham yeyman! Og'zim mana!

— Og'zingni och, qani, o', Boljonim — bolim!

— Ana, mamam keldi!

Komila kirdi. Oq koftasining yoqasini qo'ng'ir kostyumidan chiqarib, sochini yelkasiga yozib yuborgan Komila bugun juda chiroyli ko'rinardi.

— Boshlab yubordinglarmi? — so'radi u erining yoniga cho'kar ekan. — Ko'chada ushlanib qoldim...

Komila kecha Qarg'a o'rgatganiday, Shomansuming bo'yniga qo'l solib, noz-karashma qilib o'tirmadi-da, stol ustidagi ikkinchi stakanga ham aroq quya boshladi.

— Sen... ichmasding shekilli?

— Bugun Bolavsaning tug'ilgan kuni-ku, esingda yo'qmi? To'qqiz yoshga to'ldi. Oila qurganimizga o'n yildan oshib borayotir. Bundan o'n yil avval, "dunyoda eng baxtli oila bo'lamiz!" deb bir-birimizga va'da bergan edik. Qancha mehmonlar, uzoq-yaqindan kelgan qo'noqlar bizlarga yaxshi tilaklar bildirishgandi. To'y kuni to'ldira boshlagan "Tilak daftari"miz o'sha kuniyoq dastxatlarga to'lib qolgan edi. Bugun o'sha tilaklarni bir bor esga olaylik... O'tgan o'n yil ichida baxtli yashay oldikmi-yo'qmi? Shomansur, sen o'sha oq, pokiza orzu-umidlarimizni sotib ichib yubording...

— Boshlandi!

— Ha, ha, sen meni baxtli qilolmading! Manov qorako'z farzandlaringga ham sotqinlik qilding, ularning ham hurkak, yovvoyi, odamovi bo'lib o'sayotganiga sababchi — sensan!

— Ey, qisqartir gapingni! Qaysi kitobdan olding?! Yodlab olgansan bunaqa gaplarni?!

— Bizlar hozir yer yuzida yashayotganimiz yo'q. Bizlar ayanchli, tuban bir ahvolga tushib qoldik mening nazarimda...

— Bo'ldi qil-e! "Mening nazarimda... mening nazarimda..." emish. Topib kelgan manovi bir shisha arog'ing bilan manov ovqatingni minnat qilayotirmisan? Vey, menga qara, nima demoqchisan o'zi, qani ayt!

— Shomansur, manovi achchiq zaharni nimaga ichasan o'zi? Shunchalik azizmi shu harom suv? Men ham ichay, qani, bolalar ichsin, hammamiz ichaylik qani shu zormandani, agar shunchalik aziz bo'ladigan bo'lsa? Men... odamlarga o'xshab yashamoqchi edim... Qolgan hayotimizni manovi bolalarimizning tarbiyasiga bag'ishlab, ularni sog'lom, yetuk qilib voyaga yetkazishni, o'zim ham sog'-salomat bo'lishni istayman.

— Yana shu gap! Ey!.. Nasihat qilishni bas qilasanmi-yo'qmi?! Kim o'rgatdi o'zi senga bu gaplarni, Qarg'a opami?

— Shomansur, men boya... kassaga borib, bilet ham olib kelgan edim. Ko'chaga chiqaylik, bolalarni ham olaylik yonimizga. Kinoga kiraylik, bolalar ham ko'rsin boshqalar qanday yashayotganini... Bolavsaning tug'ilgan kuni axir...

— E, men kinoteatrga borib, nima, bolamanmi? Undan ko'ra, manovini oz-ozdan quyib ichib o'tirganim afzal! Yaxshiyamki, aqling kelib, shu bir shishani topib kelibsan...

Shomansur endi egilib, shishaga qo'lini cho'zgan edi, Komila undan chaqqonroq qo'l uzatib, shishani chetga olib qo'ydi.

— Hozircha shu yetadi! Kinoga bilet olib kelganim — hayotni, yashashni o'rgansin degan ma'noda edi. Boshqa erkaklarga o'xshab, na bir kitob ushlaysan qo'lingga, na televizorda bo'layotgan voqealarga qiziqasan, na radio tinglaysan. Qo'lingga hech gazeta-jurnal tutib ko'rganmisan o'zi? Erkak kishi degani oilada bosh bo'lib, dasturxon atrofida bolalariga ibratli-ibratli gaplarni ay-

tib o‘tirishi kerak edi. Sen esa aroq ichishdan boshqa narsani bilmaysan...

— Uf-f, jim bo‘lasanmi-yo‘qmi? Yoki tayoq yeganingdan keyin to‘xtaysanmi gapdan, a?!

“Tayoq” so‘zini eshitgan zahoti, janjal boshlanishini anglagan bolalar tovonlarini yaltiratib narigi xonaga qochdi. Komila yuzini qo‘llariga bosib “g‘is-g‘is” yig‘ladi.

— Bo‘ldi-e... ko‘z yoshiga balo bormi bugun?! Qizingni tug‘ilgan kuni bo‘lsa... Aytganday, bolalaringni kiyintirgin-da, aylantirib kelaqol. Men uyda o‘tiraman, ko‘chaga chiqib nima qilardim... Kinoga borsanglar, kinoga boringlar...

Komila yig‘lab-yig‘lab, oxiri o‘zini tiydi. Bolalarni kiyintirmoqchi bo‘ldi, so‘ng o‘ylanib qoldi-da, Boljon bilan Estoyga yuzlandi:

— Men Bolavsa opangni olib, ukolga chiqib kelaman, sizlar esa uyda o‘tira turinglar. Faqat shovqin qilmanglar, papani jahli chiqsa, uradi!

“Uradi”ni eshitib bolalar endi o‘zlarini karavotlarining tagiga olishdi.

“Qolgan aroqni yashirib ketadi, olib qo‘yish kerak!” xayoliga kelgan fikrdan Shomansur sakrab o‘rnidan turdi. Qarasa, xotini dasturxonga parvoyi palak, Bolavsani kiyintirish bilan andarmon bo‘ldi-da, saldan keyin ona-qiz chiqib ketishdi.

— Bu yoqqa kelinglar, — bolalarini chorladi Shomansur. — Ovqat yeb olinglar!

— Men yemayman, — karavotning tagida yotib ovoz berdi Estoy. — Limonad ichgim kelyapti...

— Men ham yemayman, — allaqayoqdan ovozi keldi Boljonning. — Limonad bo‘lsa ichaman.

— Nega bu yoqqa chiqmaysanlar?

— Sen yomonsan! Aroq ichasan. Mamamni urasan.

— Estoy, sen nimaga kinoga ketmading.

— Kiyimi yo‘q!

— Sen nimaga ketmading, Boljon?

— Mening ham kiyimim yo‘q. Kinoga esa kiyinib borish kerak.

— Ko‘chagayam chiqmaysanlarmi?

— O‘ynagani chiqamiz... Sen uxlasang, chiqamiz.

— Boljon, aroqni kim olib keldi?

— Bilmasam... Mamam olib kelgandir.

— Pulni qayerdan oldi?

— Qarg‘a opadan oldi. Hamma narsani shu pulga oldi. Limonadga pul yetmabdi.

Shomansur dasturxondagi aroq shishasiga tikilib jim bo‘lib qoldi.

Bolavsani ergashtirgan Komila ko‘chaga chiqib borayotib, Qarg‘anikiga bosh suqib o‘tdi.

— Kuyoving qalay?

— O‘tiribdi. Oldida bir shisha aroq ochiq qoldi. Ko‘p gaplarni aytib tashladim. Endi shundan keyin ham ichadigan bo‘lsa, o‘zidan ko‘rsin, ajrashaman, opa, boshqa iloji yo‘q! Siz ham nasihat qilasizmi degan maqsadda boya ertalab chiqib, kinoga bilet opkegan edim. “Men kinoga borib, nima, bolamanmi?” deb baqirib berganidan keyin, Bolavsani ergashtirib chiqaverdim. Yuring, opa, sal ko‘nglimizni yozib kelaylik.

— Yaxshi qilmabsan, Komila. Bugun uning yonida o‘tirishing kerak edi.

— Nima qilishimni bilmay, miyam qotib qoldi. Bola-chaqamni ergashtirib bir yoqlarga ketib qolsam-u, kelganimda Shomansur o‘lgan bo‘lib chiqsa — shundan so‘ng qutilganimga ishonch hosil qilsam, degan o‘y xayolimdan ketmaydi...

— Qo‘y unday dema, Komila, yomon o‘yni xayolingga keltirma. Birovga o‘lim tilaganing — hech qachon o‘zingga yaxshilik keltirmaydi, shuni unutma. Aroqni yashirmay, oldiga qo‘yib kelganing yaxshi bo‘libdi. Agar o‘jarlik qilib, oldidagi aroqni ichmaysan deb yashirib qo‘yganingda, biribir, sen ketganingdan keyin topib olib ichardi. Ana unda achchiqma-achchiq qarzga topib kelib, usti-ustiga ichardi. Endi buguncha sabr qilib kutaylikchi, qani, nima qilarkan. Agar sen ketgandan keyin shishaning qolganini ichmay, olib qo‘ysa, umid qilsa bo‘ladi. Agar yana ichib, shishani tugatib qo‘ygan bo‘lsa — unda o‘zing nima yozilgan bo‘lsa, peshonangdan ko‘raverasan.

— Men bilgan Shomansur shu bo‘lsa — shishani tugatib, yana aroq izlab ketishi aniq. Tentirab, ko‘chaga chiqmay, anovi ikki

bolaga qarab o'tirsa, yaxshi bo'lardi. Bugun bog'cha ham ishlamaydigan kun.

Kinoteatrda o'tirgan yerida ham Komilaning xayoli uyiga og'averdi. Oh, eri ikki bolani uyga tashlab, o'zi aroq izlab ketmagan bo'lsin-da... El qatori kiyinmay yashayapti, to'y-to'maloqqa, ma'rakaga qatnashmay yashayapti, manavinday madaniyat markaziga qadam bosmaganiga necha zamonlar bo'lib ketdi. Ko'ngli alag'da jon bunaqa madaniyat markaziga kelarmidi sira? Dasturxon atrofida bola-chaqang bilan kulishib-yayrashib, tomoqlanib-choylanib o'tirganing ham — katta bir boylik ekan. Tinch o'tirib, bola-chaqang bezillamay, uyda emin-erkin yayrab-chopib yursa — shungayam ming shukur qilib o'tirar edim-ov, shuniyam ulkan davlat deb bilar edim...

Komila so'nggi paytlarda "Baxt degani nima o'zi? Odam bolasining yashashdan maqsadi nima?" degan savollarga javob topgisi kelardi. Bu dunyoda umr bo'yi baxtga botib, ko'milib yashaydigan odam bormikan o'zi? Inson hayoti asli baxtli va baxtsiz lahzalardan iborat bo'ladi, lekin nega birovlar nuqul boy-badavlat yashasa ham, boshqa birovlar kambag'allikdan boshi chiqmasa — nega baribir o'zini afsus-armonlar ichida yurganday sezaveradi?

Bir paytlar mana shu o'tirgan Komiladan baxtli odam yo'q edi.

Hozir-chi u qaysi bir qo'ltiqlashgan yigit-qizni ko'rib qolsa, "Hoy sho'rlik qiz, kimning quchog'ida ketib borayapsan, taqdiringni ishongan odamni yaxshilab o'rganib oldingmi o'zi? — deb hayqirgisi kelardi. — Ishongan odaming turmushingning birinchi kuniyoq ichkilikka mukkasidan ketadigan piyonista emasmi? Yarim kunlik "kayf-u safo", sarhushlik uchun obro'yini, bola-chaqasining sog'ligini, o'zingning tinchingni, ya'ni baxtingni sotib, ichib yuboradigan irodasiz, imoni sust, lapalov bir odam emasmikan? Shu tomonlarini ham o'ylab ko'rdingmi, singiljonim?!"

Komilaning ko'zi ekranda...

Ana, bir necha yuz polapon qanotli yoshlar, endigina mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan pok qalbli, pokiza qalbli yigit-qizlar maktab hovlisida to'planib, sho'x-shodon o'ynab-kulishib turibdilar. Ana ular yangrayotgan so'nggi qo'ng'iroq sadolarini

eshitish, ustozlari oldida tantanali va'da berish uchun g'ozqator bo'lib tizildilar. Ular orasida Komila ham o'zini ko'rganday bo'ldi. So'nggi qo'ng'iroq chalindi! "Xayr, aziz ustozlar! Xayr, aziz maskan — qadrdon maktab! Bizlar mustaqil hayot sari dadil qadam tashlar ekanmiz, sizlar bergan bilimni, malakali hayotning har bir lahzasida baxt uchun, ezgulik uchun, iqbolli kelajagimiz uchun foydalanamiz! Ishonchingizni oqlashga, baxtli yashashga, insoniyatning oliy kelajagi uchun bor g'ayratimizni, bilimimizni sarflashga va'da beramiz! Va'da beramiz!"

Voy nozanin singiljonlarim, hayotdan faqat yaxshilikkina kutgan pokiza qizaloqlar! O'sha va'dalar, ishonch-e'tiqodlaringiz sarobga aylanmadimikan? Va'dalarni oqlay oldinglarmi? Baxtli yashayapsizlarmi ishqilib, yoki Komilaga o'xshab...

Qalbi orzularga to'lib-toshgan o'n yetti yashar Komila maktabni bitirgach, tikuv fabrikasi yonidagi "Atelye"ga ishga kirdi. Avval tikuvchilar kursini o'qib tugatdi, maktabdaligidayoq bichib-tikish, ayol-u erkakning bo'y-bastiga yarashadigan kiyimlar modasini yaratish — Komila uchun qiyin ish emasdi. Salgina vaqt ichida usta tikuvchi sifatida nom qozonib, obro' orttira boshladi. Tikuvchilar kursini tamomlab, tuman maishiy xizmat ko'rsatish uyiga ishga joylashgan Komila ishlab topgan ilk maoshiga ko'ylaklik mato olib, onasiga chiroyli ko'ylak tikib sovg'a qilganida, qizini yolg'iz boqib-o'stirgan onaizor bechora quvonganidan yig'lab yuborgan edi! Onasining baxtiyorligini, shodliklarini ko'rgan Komiladan baxtli inson yo'q edi o'sha kuni!

Shundan ko'p o'tmay, mana shu kinozalning huv orqa o'rindig'ida dumaloq yuzli, uzun sochli yigit bilan birga o'tirib kino ko'rdi. Bu Komilaning yigit kishi bilan ilk bor kinoga tushishi edi. Eh, ilk uchrashuv, ilk izhor, birinchi bo'saning ta'mi...

Yigit juda so'zamol ekan, har gal uchrashganda Komilaga navbat bermasdan o'zi gapirar, uning aytayotgan va'daga moyil so'zlaridan yosh Komilaning boshlari aylanib ketay derdi...

— Ikkimiz hozir ikki yarimmiz. Qo'shilib bir butun bo'lamiz. O'z uyimiz, bola-chaqamiz, qozon-tovog'imiz bir bo'lgach, o'zimiz ham bitta maqsad sari intilib yashagach, baxtimiz ham, obro'-izzatimiz ham bir bo'ladi, shunday emasmi?

— Ha, Shomansur!

— Demak, sening opang — mening ham opam, mening ota-onam, aka-uka, opa-singillarim — sening ham qarindoshlaring, azizlaring bo'ladi...

— Shunday, Shomansur!

Shomansur uydagi besh qizdan keyingi yolg'iz o'g'il, eng kenjatoy farzand — erka supraqoqdi ekanligini yashirmagan edi.

— Mening texnikumni bitirganligim haqidagi manovi nishon senga ham tegishli. Menimcha, qiz bola uchun institutni bitirish shart emas. Qizlar uchun yaxshi kuyovga chiqish, toparmon-tutarmon yigitni topish — institutni bitirgandan ham afzalroq baxt. Men bu yil xalq xo'jaligi institutiga sirtdan o'qishga kiraman. Qanday qilib demoqchimisan? O'rtancha opamning eri o'sha institutda ishlaydi. Pochcham o'sha institutda ko'zir hisoblanadi. Institutni bitirib chiqsam — katta opamning eri o'zining yoniga ishga olishga va'da berib qo'yibdi — nazoratchi bo'lib ishlayman. Katta pochchamning ishlari — besh, tagida nol-nol raqamli "Volga". Diplomni cho'ntagimga solib olayin, men ham shunday oq "Volga" minaman. Shundan keyin boylik ham, baxt ham o'z oyog'i bilan keladi qo'yadi...

Qiziq, Shomansur ikki katta pochchasi haqida og'zidan suvi qochib gapirardi-yu, qolgan pochchalari borasida lom-mim demasdi. Komila bunga ahamiyat bermasdi-yu, ammo keyinchalik bilib oldi. Shomansurning qolgan pochchalari oddiy ishchi, xizmatchi, xodimlar ekan.

Ajabo, bo'lajak umr yo'ldoshining hovliqib gapirishlari, gohida ichib kelib, rostakamiga lof urishlari, maqtanchoqligi o'shanda Komilaga yoqarmidi-ey, sevinib-sevinib ketarmidi-ey... Yaxshi ko'rgan odamining yomon qilig'i ham yaxshi ko'rinib, yomon ko'rgan odamning yaxshi qilig'i ham yomon ko'rinaverar ekan. Buni endigina o'n sakkizga chiqqan yosh qiz qaydan bilsin?! Ko'r edi, kar edi, sodda edi Komila, yaxshi-yomonning farqiga boravermasdi. Mana endi mast bo'lib to'rt oyoqlab emaklab kelgan erining erkalashlari, betidan o'pishlari jirkantiradi Komilani, jirkantiradi!

...Shomansurning aytgani o'ng kelib, institutga sirtdan o'qishga kirdi. To'rtinchi bosqichda o'qib yurganida pochchasining yor-

damida nazorat bo'limiga ishga o'tdi. Afsus, afsus, institutni bitira olmadi, ichkilikka berilib ketdi. Ishi shunaqa emish, ziyofat ko'p bo'larmish, "akasi, akasi"lab, ikki qo'li ta'zimda turadigan odamlarning "sog'lig'i, ishdagi muvaffaqiyatlari, kelajakdagi rejalari va hokazolar" uchun ichmasa bo'lmas emish. "Hoy" deb tartibga, intizomga, odobga chaqiradigan odam bo'lmagach, o'z oyog'i ila kelib turgan davlat, mol-dunyo Shomansurni butkul yo'ldan urdi.

Qarab tursang, yaxshi — qizlarning bari,

Qaydan chiqar xotinning yomonlari?! — degan hikmatli so'z bo'lardi, xuddi shu hikmatni erkaklar haqida ham aytsa bo'lar ekan, ya'ni —

Qarab tursang, yaxshi — yigitning bari,
Qaydan chiqar erkakning yomonlari?!

Oh, o'n sakkiz yashar beg'ubor Komila, soddagina, ishonuvchan Komila o'z hayotining bunaqa teskari tus olib ketishini qaydan ham bilsin? Yigit kishining bunchalik manfur, jirkanch piyanistaga aylanib qolishi mumkinligini yetti uxlab tushida ko'ribdimi bechora qiz? G'ayratsiz, orsiz, aroq ichishdan boshqa narsaga yaramaydigan erkaklar dunyoga nima uchun keladilar o'zi, o'zini ham, o'zgalarni ham baxtiqaro qilish uchunmi? Sho'ring qurg'ur Komilaning ikki ko'zi ekranda bo'lgani bilan, xayolida mana shunaqa almoyi-aljoyi o'ylar...

Ayniqsa, so'nggi ikki-uch yil ichida jonidan to'ydirib yubordi bu Shomansur. Avvallari Komilaning ko'ngliga ozor beradigan, qalbini yaralaydigan so'zlarni aytib xafa qilardi. Keyin-keyin mast bo'lib kelib, janjal qiladigan, uradigan odat chiqardi. Yaqindan beri esa xotiniga qo'shib norasida farzandlarini ham uradigan bo'ldi. "Papa ichibdi" degan gapni eshitsa, bolapaqirlar karavotning, divanning tagiga o'zlarini urib ketishadi. Shunday davom etsa, bu norasida go'daklar ertaga kim bo'lib yetishadi?

Komila shunday lahzalarda obdon xo'rligi keladi, tunlari uxlolmaydi, uyquda yotgan erining bemalol xurrak otishini ko'rib-eshitib, xayolga botadi: bu qanaqa hayot o'zi? Bu xo'rlik-zo'ravonlikning ham cheki-chegarasi bormi o'zi? Bu xurrak otib yotgan bemehr ota qachongacha bola-chaqasining rizq-nasibasini qiyib,

topgan pulini o'zining jig'ildoniga aroq qilib, vino qilib, pivo qilib quyib yuboradi! Had-poyoni yo'q bu azob-u uqubatlardan, jabr-u zulmlardan qachon qutiladi o'zi? Baridan battar shovqin-surondan, shapaloqdan bezillab qolgan norasidalarga qiyin, norasidalarga!

Bu yil yozda Bolavsa uyqusizlik kasaliga yo'liqdi, ozib ketdi, kechasi bilan uxlolmay chiqadigan, ertasi kuni esa boshi gangib yuradigan bo'ldi. Natijada bo'lar-bo'lmasga jizzakilanib, ukalariga baqiradigan, goh esa o'zidan o'zi g'ingshib, yig'laydigan odat chiqardi. Bir kuni kechasi Boljon qizi uyqusidan cho'chib uyg'onib, titrab-tipirchilab, ko'p vaqtlargacha bezovtalanib yotdi. Komila tong otishi bilan qizlarini ergashtirib, shifokorlarga uchrashdi.

— O'zingizning ham yuragingiz sanchib-sanchib, tez-tez bosh og'rig'ingiz tutib tursa kerak, — dedi shifokor.

— Ha, keyingi paytlar shunaqa bo'lyapti, — deb qo'ydi Komila o'ylanib turmasdan.

— Aytdim-a, o'zi uyingizda shovqin-janjal chiqaradigan kimdir bor...

Komilaning ichi "shuv" etib ketdi. Xuddi erini yomonlash uchun kelib o'tirgan ayolday... uyat-ku bu?! Endi nima qiladi?

— Yo'q, unaqa odam yo'q! — dedi jon holatda.

— "Og'rig'ini yashirgan harom o'ladi", degan gap bor tibbiyot xodimlari ichida. Rostini aytavering. Manov qizlaringizning kasali ham, sizning kasalingiz ham — qo'rquvdan, xafagarchilikdan kelib chiqqan.

— Erim... ichishni yaxshi ko'radi.

— Barakalla, ana endi haqiqatga sal yaqinlashdingiz. "Yaxshi ko'radi"gina emas, g'irt mast bo'lib kelib, uyda janjal-to'polon ko'taradi, shovqin soladi desangiz-chi. Shuning oqibatida uy ichining bari kasal, asabiylashgan... Sizlarni-ku davolash mumkin, ammo-lekin... — Shifokor qo'lidagi ruchkaga tikilib, biroz jim qoldi. — Eringiz ichishni tashlamasa, janjalni bas qilmasa, befoyda, kasallik yana paydo bo'laveradi, oqibati... yomon bo'ladi.

— Nima qilishim kerak shunda?

— Bizlarda narkolog-vrachlar bor, eringizni shularga ko'rsatish kerak. Ular o'zlari biladi nima qilish kerakligini, davolaydi...

— Ma'qul... Iye, yo'q, u kelmaydi, ko'nmaydi.

— Ko'nmaydigan bo'lsa, militsiyaga ayting. Olib kelishadi. Davolanmasa, majburan davolaydigan joylarga yuborishadi...

Komila qo'rqib ketdi. Nimalar deyapti bu vrach? Shomansur shu gapni tushunadimi? Militsiya oraga tushsa — xo'p-xo'p, mabodo Shomansurning o'zi xohlamasa-chi, baribir befoyda bo'lib chiqmaydimi shuncha harakatlar? "Militsiya Shomansurni majburiy davolashga yubordi" degan gap chiqib ketsa, Komilani qayin yurti yeb tashlamaydimi?

Piyanista erni majburiy davolashga yuborish ayol uchun nechog'lik nomus ekanligini Komila shu kunlari aniq his etdi. Bunday ishga oiladagi ayol emas, yaxshisi erning qarindosh-urug'lari, aka-ukalari tashabbus ko'rsatishi kerak ekan. Hech bo'lmaganda qo'ni-qo'shnilar orasida ko'pni ko'rgan oqsoqollar, katta-kichikka so'zi o'tadigan kayvoni kishilar oraga tushsa ekan. Qani shunday odamlar? Shomansurning otasi piyanista o'g'lining qilmishlaridan kuya-kuya, yoshi oltmishga yetmay besh-olti yil burun dunyodan ko'z yumdi. Erkatoy o'g'ilga onasining so'zi o'tmaydi. Yaxshi-yomon misol keltirib, ibrat ko'rsatadigan opalar, pochchalar nasihat aytishni bas qilib, endilikda "o'zlaring pishirgan osh, o'zlaring bir yoqli qilinglar" deyishdan nari o'tmay, o'zlarini chetga olib qochadigan bo'lishgan.

Shu kunlarda Komilaning boshi tamom gangib yurdi. Shifokorlarga uchrashni bas qildi. Yaxshiyam qo'shnisi Qarg'a opa bor ekan, shuning yoniga chiqib, dardini to'kib, yig'lab-yig'lab oladi...

Nimadir qilish kerak?

Nima qilsa ekan? Endiyam davom etaverishi mumkin emas!

Kechqurun uchovlon kinoteatrdan qaytib kelayotib, muyulishdan burilganlari zahot, uzoqda to'planishib turgan tanish-notanish kishilarni ko'rgan Komilaning yuragi bir baloni sezganday tez-tez urib ketdi.

— Nima bo'lyapti, nega hamma bizning uyimiz oldida to'planib turibdi? — dedi g'alati ovozda.

— Tinchlik bo'lsin-da ishqilib... — deb qo'ydi Qarg'a ham.

Ko'chaning qoq o'rtasida dasturxonday oppoq mato bilan nimanidir yopib qo'yishibdi. Ikki militsioner yo'lning goh u yog'ini,

goh bu yog‘ini o‘lchab yuribdi. Yana biri daftariga nimalarnidir yozayotir. Bir burchakda uch g‘ildirakli mototsikl ag‘darilib yotibdi. Militsiyachilar minib yuradigan sariq mashina ham shu yerda.

— Qayda yuribsan, Komila, boyaqish qizim-ov... — yig‘lab oldilariga chiqdi bir kampir.

— O‘lguncha ichib mototsikl haydaydi bu og‘zingdan qoning kelgurlar! — deb qichqirdi bir ayol.

Ko‘zining oldi qop-qorong‘i zulmat bo‘lib qorayib ketgan Komila ko‘cha yuzida yotgan kichkina poyabzalga ko‘zi tushdi-yu, oyoqlari chalishib, munkib ketdi-da, unsiz ag‘darilib tushdi.

— Suv purkanglar!

— Oyijon! — chinqirib yubordi Bolavsa.

— Nashatir hidlating, o‘ziga keladi!

— “Tez yordam” chaqirish kerak! Tez!

Qarg‘a jonholatda Komilaning uyiga qarab yugurdi. Hovlidagi quvur yonida turgan yarim chelak suvni ko‘tarib, iziga qaytdi. Suv purkaganlaridan so‘ng Komila ingranib o‘ziga keldi. Yuzlari dokaday oqarib ketgan ko‘yi pichirlagan bo‘ldi:

— Boljonim qani, Boljonim?

— Uyiga olib kiraylik, nima bo‘lganini o‘sha yerda aytarmiz, — degan gapni eshitib, yana shilq etib o‘zidan ketdi.

Qarg‘a ikkinchi marta uyga kirganda Shomansurni izladi. U to‘rgidagi xonada hech narsadan bexabar xur-xur uxlab yotardi.

Stol yonida aroqdan bo‘shagan shisha, ikki stakan turardi. Bo‘layotgan tapur-tupurdan, shovqindan uyg‘onib ketgan Estoy ko‘zini uqalab miz-miz yig‘lay boshladi.

Qarg‘aning izidan uyga yugurib kirgan Bolavsa singlisi Boljonning uy ichida yo‘qligini, endi hech qaytib kelmasligini anglab yetdi-yu, dodlab yig‘lab yubordi.

ROLLAN SEYSENBAYEV

(1946)

Rollan Seysenbayev 1946-yil 11-oktyabrda Semey shahrida tug'ilgan. Semey muhandislik-texnologiya institutini tamomlagan.

Birinchi qissasi 1975-yilda nashr etilgan. O'shandan beri "Sog'inch", "O'zimni izlayman", "Sog'intirib kelgan yoz edi", "Agar yashaging kelsa", "Tog' cho'qqida qo'shilgan yo'l", "Iblis taxti" va boshqa kitoblari chop etilgan.

ERKAK, AYOL VA BOLA

Oshxona eshigini yopib olib suhbatlashayotgan ikkovlon — Erkak va Ayol — Bolaning tashqari eshikni ochib, uyga kirganini payqamadilar. Bola oyog'idagi yengil poyabzalni yechib, poygak javon ichiga tashladi-da, o'zining xonasiga kirib ketdi. U hozir tezlik bilan onasining oldiga chiqadi-da, keyingi haftada musobaqaga ketayotganini aytadi! Onasi buni eshitib quvonib ketadi, ha, ha, quvonib ketadi. Keyin murabbiy aytgan gaplarning bittasini ham qo'ymay, to'kib tashlab, xabardor qiladi: "Erkin, yashavor, azamat! Sendan umidim katta, hali chempion ham bo'lasan, Yasha!.."

Bola xonasidan chiqqanida, oshxona eshigi qiya ochilib qolgan edi, u yerda onasi begona bir Erkak bilan gaplashib o'tirardi. Bola ichkariga mo'raladi: stol ustida bug' taratib turgan ovqatga, pechenye va konfetlarga, bir shisha shampan vinosiga ko'zi tushdi. Nafas olmay yana mo'raladi, bu gal onasining yalong'ochtob bilaklarini, yengilgina titranayotgan barmoqlarini ko'rdi...

Erkak bo'yra sochlarini chap qo'li bilan silab-sirib yubordi-da, shampan to'la qadahni qo'liga oldi. Ayolga jilmayib qaradi. Uning yuz-ko'zlaridan Ayolga nisbatan mehribonlik, g'amxo'rlik yog'ilardi. Bola shu paytda qattiqqo'l va talabchan, ammo mehribon

murabbiyini esladi, u ham shogirdlariga yomon gapirmas, sportchi bo'ladigan bola nimalarga e'tibor berishi kerakligini muloyimlik ila shogirdlariga tushuntirardi.

— Kelasi dam olish kuni ko'lga borayllik, — taklif qildi Erkak.

— Rahmat, o'g'limni qoldirib ketolmayman. — Bu onasining ovozi.

— Bir yo'lini toparsiz axir...

— Iloji yo'q.

Erkak Ayolning qo'llarini kaftlari orasiga olib silay boshladi.

— Birga olib ketsak-chi?

Ayol qo'llarini darhol tortib oldi-da, mehmonga choy taklif qildi:

— Sovub qolgandir, yangilab beraymi?

— Rahmat. Juda xushta'm choy bo'libdi. — Erkak piyolasini uzatdi. Choy to'ldirilgan piyolani oldiga qo'yar ekan, yana Ayolga iltifot nazari bilan boqdi:

— Sigaret cheksam bo'ladimi?

— Bemalol, bemalol.

Erkak cho'ntagidan sigareta qutisi va gugurtini chiqardi-yu, biroz o'ylanib qoldi. Chekmadi. Cho'ntagiga qayta joylab qo'ydi.

Bola yo'talib ovoz berdi. Erkak keskin burilib eshik tomon qaradi. Bola ko'zlari Erkak ko'zlari bilan to'qnashdi. Erkak jilmayib, yuz-ko'zidan porloq nur tarala boshlagan edi, biroq Bolaning qovoq solib, indamay turganini ko'rib, nigohini yig'ishtirib oldi-da, o'zini xuddi oldidagi choyni sovutayotgan odamday tutib, piyolani aylantira boshladi.

— Erkin keldi! — Onasining quvnoq ovozi bu gal jaranglab eshitildi. — Shu paytgacha qayerda yuribsan Erkinjon? — dedi-da, quchoqlab yuzidan o'pdi.

— Mashg'ulotda edim, — Erkin onasining og'zidan kelayotgan sharob hidini sezib, shartta ters burildi. O'g'lini yana quchib o'pmoqchi bo'layotgan Ayol uning izidan qarab qolar ekan:

— Yuvinib kel, seni mehmon bilan tanishtiraman, — dedi.

Bola Ayolga javob qotmasdan, vannaxonaga kirib ketdi. Egnidan maykasini yechib, buklab kir yuvadigan mashina ustiga otdi-da, suvni sharillatib ochib yubordi. Vannaxonadagi ko'zguga

tikilib, oriqqina yuzini, keng manglayini, kalta qora sochlarini endigina ko'rayotganday tomosha qildi. Vannaning qirrasiga o'tirib oyoqlarini chalishtirdi. "Nima qilsam ekan?" deb o'yladi.

* * *

— Men ketaqolay, — dedi Erkak.

Shunday dedi-yu, biroq o'rnidan qo'zg'almadi.

Ayolga qarab siniq iljaydi-yu, nigohlari so'zladi: "Ketaman, deyapman-u, biroq ketgim kelmayapti. Qaniydi, shu xonada sen bilan o'tiraversam. Qachonlardir, o'ttiz besh yoshingda bir Ayolga oshiq bo'lasan, desalar, aslo ishonmagan bo'lardim. Lekin, mana...".

— Kechirasiz, — dedi Ayol, so'ng gunohkor odamday ko'zini pastga tikdi. Qayta boshini tikladi-yu, lablarida siniq tabassum qotib qolgan Erkakka yer ostidan sinovchan qaradi. Sinovchan qaramadi, yo'q, balki "Tushun meni, tushun, ahvol mana shunaqa", deganday iltijo aralash Erkakka nazar tashladi. "Kechirasiz, — deb iltijo qilardi Ayol hurkak nazar ila, — kechiring meni! Bilaman, siz meni qadrlaysiz, chin hurmatlaysiz. Sevishingizga ham shubham yo'q. Men sizning halol niyatda kelib yurganingizga ham ishonaman... Nima qilay, o'g'lim bor."

Erkak: "Biz, erkaklar, ayollarning hammasi bitta qolipdan chiqqan, deb o'rganib qolgan ekanmiz. Xato ekan bu fikr, xato ekan. Agar Janar mana shu Ayolday bo'lsaydi, men u bilan ajrasharmidim? Dumanni ho'ngratib, ona qo'lida qoldirib ketarmidim? Sud bo'layotganda Dumanni olib kelma, deb yalindim. Janar esa "Olib boraman" dedi..."

— Olib bormaysan!

— Olib boraman! Sening ishing bo'lmasin.

— Janar, nimalar deyayotganingni tushunyapsanmi o'zi?

— O'zing-chi, o'zing, nimalar qilayotganingni tushunyapsanmi?!

— Bizlar endi hech qachon birga yashay olmaymiz.

— Baribir menga. Lekin Duman men bilan qoladi.

— Nega?

— Shu aytganim bo'ladi.

— Uyda nimaiki bo‘lsa, barisini senga qoldirib ketyapman-ku! Bersang-chi menga Dumanni, yolg‘izgina o‘g‘limni xor qilmoqchimisan?

— Uy ham menga qoladi, Duman ham, vassalom! U mening ham o‘g‘lim.

— Men esa Dumanni bu uyda qoldirolmayman. U mendan boshqa erkakni ota demasligi kerak!

— Yo‘qol-e, erkak emish...

— Janar...

— Hammasini sud hal qiladi.

— Mayli, ammo...

— Sud so‘raydi Dumandan, kim bilan qolasan, deb so‘raydi. Shunda Duman aytadi, onam bilan qolaman, deydi, vassalom! Shunaqami, Duman? Ana!..

— Dumanni sudga olib borma, Janar. U yerda har xil gaplar aytiladi, qo‘y, eshitmasin Duman. Nima bo‘lgan bo‘lsa ikkovimizning o‘rtamizda bo‘ldi-ku. Janar, shunchalar beshafqat, shunchalar bag‘ritoshmisan? Axir senga hamma narsani tashlab ketyapman-ku, uyni, mebellarni, gilamlarni... hammasi senga qolayotir. Faqat o‘g‘limni o‘zimga ber. Begona odamni ota deb o‘smasin, meni nomuslarda tiriklayin o‘ldirasan-ku...

— Sen faqat o‘g‘ling uchun yashagan ekansan-da men bilan?

— Ha, faqat mana shu Duman uchungina barcha zahringga chidadim. Sakkiz yil!

— Ahmoqsan, dedim-ku, ahmoq! Endi senga o‘g‘limni qoldiraymi?

— Bolani qiynama, Janar, yalinaman!

— Yo‘qol-e!..

* * *

Erkak bilan Ayol achna vaqt unsiz o‘tirishdi. “Siz nega xotiningiz bilan ajrashdingiz o‘zi? — deb so‘ragisi kelardi Ayolning. — Nega?.. Men bundan keyingi hayotimni sizning qo‘llaringizga topshirmoqchiman. Biroq Janar shunaqa yomon ayolmidi? Biz birga yashamoqchi bo‘lsak — o‘rtada hurmat bo‘lishi,

ishonch bo'lishi kerak. Men ishonib, o'zimni toptirmoqchiman, sizga ishonsa bo'ladimi? Erkin nima deydi hali...".

Erkin vannaxonadan chiqmadi.

* * *

Ular hamon unsiz o'tirishardi.

Erkak ikkinchi marta sigareta tutatmoqchi bo'lib taraddudlandi, cho'ntaklarini timirskilandi, ammo yana chekmadi. O'rnidan turdi.

— Men bora qolay endi...

— Hozir... — Ayol shoshib qoldi. Vannaxona eshigini ochib qaradi. Bola hamon oyoqlarini chalishtirgancha pastga qarab o'tirardi.

— Erkin... Senga nima bo'ldi?

Bola indamadi. Qovog'ini uyub olgan. Oq-bo'zloq yuzlari battar oqarib ketgan edi.

— Nega yuvinmayapsan, o'g'lim? — Onasining ovozi g'alati chiqdi. Xuddi yig'lamsirayotganday.

Bola boshini ko'tardi. Onasiga o'qraygan ko'zlarini tikarkan, boshini oshxona tomonga silkidi:

— Anovi, ketsin...

— Kim... ketsin?

— Anovi... — Bola boshi bilan oshxona tomonga imo qildi. — Qo'noqni aytyapman.

— Yuvina qolsang-chi, uyalmaysanmi?

Bola boshini ko'taray demas, vannani qirrasiga suyanib o'tirganicha qimir etmas, nimadandir qattiq norozi edi. Nimadan? Ehtimol, Bola mana shuni aytolmay, norozi ekanligimni onam o'zi bilib olsin degan niyatda yarim soatdan beri yuvinmasdan o'tirgandir?

Nihoyat bola yana tilga kirdi:

— Anavi ketmaguncha, yuvinmayman!

— Erik, doim aytganingizni qilaman, birorta gapingizni ikkinchi marta takrorlatmayman, derding-ku, bolajonim... — Ayol Bolaning boshini silab, bag'riga tortdi. — Nima bo'ldi, nega o'jarlik qilyapsan? Sening bilan tanishmoqqa kelgan odamning oldiga chiqmaganing nimasi? Qani, tez-tez bo'l, yuvin-da chiq! Bizlar birga ishlaymiz... Yaxshi odam... Erik... — Ayol yolg'on gapga

o‘tayotganini sezib qizarib ketdi. Qizara boshlaganini bildirmaslik uchun o‘zi vanna suvini ocha boshladi. — Seni kutayapmiz, Erkinjon, yuvinib, chiq tezroq!

— Chiqmayman!

— Sekin! Eshitib qoladi... — yalichoq ovozda gapirdi Ayol.

— Eshitaversin! — ovozini ko‘tardi Bola.

— Sen odobli bola eding-ku, Erkinjon, — yig‘lagudek bo‘lib shivirladi onasi.

— Odobli bola emasman, mama!

Bola bo‘ynini burib ters qaradi.

Ayol oshxona kesakisiga suyanib, chuqur uh tortdi.

Erkak shosha-pisa qo‘lidagi sigaretasini o‘chira boshladi. O‘rnidan turdi.

— Mayli, men keta qolay.

Ayol unsizgina bosh silkidi.

— Kechirasiz-da endi, tashvishga qo‘ydim sizni... — dedi Erkak ketishga tayyorlanar ekan.

— Siz emas, men so‘rashim kerak kechirimini.

— Mayli, hech qaysimiz so‘ramaylik.

Yana sukunat cho‘kdi. Ular unsiz vidolashmoqda edilar.

— Sog‘ bo‘ling, — dedi Erkak nihoyat.

— Xafa bo‘lmang, bola-ku hali.

— Bola emas... — iljaydi erkak. — Mana, mening Dumanim ham, — deb gap boshladi-yu, bu gapi o‘rinsiz ekanligini payqab, darrov gapni uzdi.

— Hammasi o‘rni-o‘rniga tushadi hali. Hammasi.

Ayol unsizgina Erkakka tikildi.

Erkak unsizgina Ayolga qaradi.

Ayol: “Agar hozir Erik kelib qolmaganda edi, o‘tiraverardi. Sevib qolyapman uni, sevib qolyapman. Voy, Xudoyim-a, nima qilsam ekan-a?..”.

Erkak: “Taqdirning bu ishini qara-ya. Shuncha yillar men seni izlay-izlay, endi topdim deganimda... Mana bu bola chiqib qoldi-da... ”.

— Qattiq gapirib urushib yurmang, bolaga, — dedi Erkak uydan chiqib ketarkan.

Ayol bosh silkidi. "Bora-borguncha nimalarni o'ylab borarkan? Yana kelarmikan?..".

"Kelaman, albatta kelaman. Bolaga onayam kerak, otayam. Shuni Janar tushunmadi-ku. Mana, mening Dumanim ham...".

Ayol derazaga ma'yus boqqanicha mungli ko'zlari bilan odamlar orasidan uni izlay boshladi. "Ana, boshini egganicha borayapti. Ne-ne umidlar bilan kelgan edi-ya...".

Odamlar orasiga singib, bekat tomon siljib borayotgan Erkakni sog'inch, iltijo ila kuzatarkan, Ayol avvalo Erkakka, so'ng o'ziga achina boshladi. Bir payt ko'cha bo'ylab sekin qadam tashlayotgan Erkak burilib, Ayol turgan derazani izlay boshladi. Ayolga ko'zi tushdi-yu, xursand bo'lib iljaydi. So'ng shahdam qadamlar bilan yurib ketdi.

"Ketdi... Ketdi... Kelarmikan yana?.." o'yladi Ayol. O'g'lining qadam tovushini eshitib, shosha-pisha mijjalaridan tomchilayotgan yoshlarini artdi-da, kulimsirab orqasiga burildi.

— Kel, o'tir, Erik. Hozir choy quyib beraman.

— Kechir meni, mama.

Ayol indamadi. O'g'lining oldiga dasturxon tuzab qo'ydi-da, o'zi qoshni xonaga — televizor ko'rish uchun kirib ketdi. Bolaning ovqatlangisi kelmadi. Boya mashg'ulotdan qaytishda qorni ochib, ishtahasi karnay bo'lib turgan edi, biroq endi negadir hech narsa tomog'idan o'tmayotir. Bola yana biroz o'tirdi, so'ng dasturxonni yig'ishtirdi, issiq suvni oqizib, piyola-qoshiqlarni chaydi.

Oshxonaga Ayol kirdi.

— O'zim yuvardim-ku, Erik, nega?..

— Mana, bo'ldi.

— O'tirib darsingni tayyorlasang bo'lardi.

— Boya tayyorlab qo'ygan edim.

— Yana bir marta ko'rib chiq.

Ayol boshqa idishlarni ham yuvib-chaya boshladi.

— Mama, kechir meni. — Bola Ayolning orqasiga yopishdi. — Xafa bo'lma, maylimi?

— Bolajonim-a, xafa emasman.

— Mama, mening bir iltimosim bor edi...

— Nima gap ekan?

— Ko‘zimga qarab to‘g‘ri turing, xo‘pmi?

Ayol yuvayotgan likopini qo‘lda tutganicha o‘g‘liga qaradi.

— Mana...

— Mana... — Bola Ayolga qattiq tikildi. — Anovi bu uyga boshqa kelmasin!

Ayol qizarib yerga qaradi. Bola, xuddi shunday bo‘lishi kerakday, onasidan ko‘z uzmay turardi.

— Mama, xo‘p degin...

— Xo‘p, Erik, bolajonim, xo‘p, xo‘p!

Ayol bolani quchog‘iga oldi. Boyadan beri soqov bo‘lib turgan radio ham bir-ikki marta qitir-qitir qildi-da, birdan qo‘shiq boshlab yubordi:

“Qaydasan sen, qaydasan, ey baxt?!”.

* * *

Bola yarim kechasi to‘shagidan turdi-da, oyoq uchida yurib borib, zalda turgan servant ichidan oilaviy albomni, suratlar turgan qora xat-jildlarni o‘zining xonasiga olib keldi. Ko‘chadan tushib turgan chiroq nurlari ostida albom ichidagi suratlarni saralay boshladi. U ancha vaqtgacha uxlamay, surat tomosha qilib o‘tirdi. Suratlar ichida o‘ziga eng yaqin, aziz inson qiyofasi aks etganlarini tanlab olib ajrataverdi, ajrataverdi...

Nima qilmoqchi ekan?

Bola suratlarni ajratib bo‘lgach, to‘shagi tepasida ilig‘lik turadigan chornaqshni oldi, unda qochib borayotgan quyon surati chizilgan edi. Uni bir paytlar o‘zi bog‘chaga qatnab yurgan paytlari chizgan, onasi necha yillardan beri o‘g‘li chizgan bu suratni avaylab-ardoqlab kelar, so‘nggi paytlarda esa Bola yotadigan karavot tepasiga osib qo‘ygan edi. Erkin chornaqsh ichidagi “Senimi, shoshmay tur” deb yozilgan quyon suratini ko‘chirib oldi-da, o‘rniga o‘zi uchun dunyoda eng aziz, eng mehribon bo‘lgan insonning rasmini joylab, chornaqshni devorga qayta osib qo‘ydi.

Qolgan suratlarni nima qilar ekan?

Bola qolgan suratlarni nima qilishni ham o‘ylab qo‘ygandi, u rejalashtirgan ishlarini to‘liq amalga oshirib bo‘lgachgina to‘shagiga kirib yotdi. Ancha vaqtgacha uxlolmadi. To‘lg‘anib-ag‘anab, uzoq

vaqtgacha to‘shakda yota-yota, oxiri tong uch bergan g‘ira-shiralikda uxlab qoldi...

* * *

Ayol sahar mardonda uyg‘onib ketdi-da, tong qorong‘isida balkonga chiqib, deraza va pardalarini ochib yubordi. Uyga shabada oqib kirdi. Havo iliq, yulduzlar yerga engashib, nimalarni shivirlab, yodga olmoqchi bo‘ladi. Ayol derazadan bo‘yini cho‘zib, bekat tomonga ko‘z tikdi. O‘zicha, bekatda turib unga qo‘l silkitayotgan Erkakni ko‘z oldiga keltirmoqchi bo‘ldi, keltirolmadi. Deraza raxiga suyanganicha xayolga toldi...

Ayolning eri injener edi. Bundan ikki yil muqaddam shaxtada avariya yuz berib, qazo topdi bechora. O‘sha yili bola maktabga bogan edi-ya...

Ayol balkon eshigini ochiq qoldirib, ichkariladi. Ichkari hali g‘ira-shira, qorong‘i edi. Tashqarining yorug‘i hali uy ichiga urmagan. Ayol suv ichgisi kelib, oshxonaga yo‘naldi. Oyoqlariga allaqanday qog‘ozlarmi-nimami yopishayotgan, polda allanimalar shitir-shitirlab, yopishib-uzilib tushayotganday edi. Ayol oyoq ostiga boqmasdan oshxona to‘riga, idish-tovoq yuviladigan suv jo‘mragi tomon intildi, jo‘mrakni ochib suv ichdi. Shundan keyingina xona o‘rtasidagi stolga, keyin polga qaradi — stolga ham, polga ham qandaydir qog‘ozlar tashlab qo‘yilgan.

“Nimalar bu? — o‘yladi Ayol, — Erik tushmagur daftarini yirtib, varaqlarini sochib tashlabdimi? Namuncha, hamma yoqqa qog‘oz to‘shab chiqmasa?!” Qog‘ozlarni bosib-toptab borib oshxona chirog‘ini yoqdi — qog‘oz emas, suratlar ekan! Ayol ko‘zlariga ishonmay bittasini qo‘liga oldi-yu, ko‘ksidan achchiq bir nola otilib chiqdi:

— Oh!..

Ikkinchi suratni olib qaradi.

— Oh!.. Oh!

Uchinchi, to‘rtinchi, o‘ninchi..., yigirmanchi..., yuzinchi...

— Oh!.. Oh!.. Oh!..

Ayol eshik kesakisiga suyanib o‘tirib qoldi. Butun olam-jahon, uy ichi, stol-stullar, pol, deraza raxlari, javonlarga tiklab qo‘yilgan, to‘shab tashlangan suratlarga to‘lib ketgandi. Hammayoq surat —

dahlizlar, vannaxona, shkaflar, televizor atroflariga surat qo'yilgan, hamma suratlardan eri, o'zi, o'g'li boqib turar, ular bari go'yo Ayoldan "Holing qalay" deb, ahvol so'rayotganga o'xshardi.

Ayol boyadan beri tovoniga yopishib yurgan bir suratni ko'zdan kechirdi — kuyov va kelinchak bo'lib qo'ltiqlashib tushgan ilk rasm... Manovi esa — to'yga taklifnoma ekan... Manov surat — Erik tug'ilganda, tug'uruqxona oldida olomon bo'lib tushgan suratlari... Manovi — Erik otasini ot qilib mingan surat...

Ayol oh urib yig'lagancha sochilgan suratlarni terib chiqa boshladi. Biroq suratlar juda ko'p edi, hammasini yig'ib, taxlab, yilma-yil qilib joy-joyiga qo'yib chiqish uchun, eh-he, qancha vaqt ketar ekan-a? Erik qurmag'ur otasi bilan onasi birga tushgan surat bo'lsa hammasini albomdan ko'chirib olib, eshikdan — derazagacha, poygakdan to'rgacha yoyib, to'shab, sochib, tashlab chiqibdi. Mana — Erik bilan otasi hayvonot bog'ida, tuya ustida. Mana — eri qo'liga qadah tutib, Ayolni tug'ilgan kuni bilan tabriklayotir. Bunisi — Medeodagi muz saroyida konki uchishga borganlarida. Bunisi mashina rulida Erik va otasi... Tabassumlar, iljayishlar, kulgilar...

Ayol xuddi itday ulib yurib, rasmlarni terib chiqdi. Shundan so'nggina o'g'li yotgan xonaning eshigini ochdi. Erik pish-pish uxlab yotardi. Bu xonadayam hamma yoqqa surat sochib tashlangan — pianino qopqog'i, kitob javoni, stollar, deraza raxlariga xuddi qor yoqqanday turli xildagi suratlar uyub tashlangan. Mana — bo'yra sochli, qaysartabiat erining talabalik yillarida katta qilib ishlangan portreti, uni Erik chornaqshga joylab, o'zi yotgan to'shakning tepasiga — "Senimi, shoshmay tur!"dagi quyon surati o'rniga osib qo'yibdi.

Ayol o'g'liga uzoq tikilib turdi.

Ayol tushundi: o'g'li katta bo'lib qolibdi, otasiga o'xshab or-nomusli, aytganini qiladigan, qat'iyatli yigit bo'libdi.

Ayol tushundi: o'g'li endi bola emas, o'r va mulohazali, azamat yigit bo'libdi, u otasiz o'sa-o'sa, mashaqqatli turmush zarbalarini yeya-yeya, ota o'g'il bo'libdi.

Ayol tushundi: o'g'lida qasoskor erkak ruhi uyg'ona boshlabdi.

Bola uyqusirab, nimalarnidir gapirdi — u tushida otasi bilan gaplashmoqda edi...

MARAT QABANBAY

(1948–2000)

Marat Qabanbay 1948-yil 22-martda Sharqiy Qozog'iston viloyatining Zaysan tumanida tug'ilgan. 1975-yilda Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

"Baqbaq boshi to'lgan kun" (1975), "Arslon, men, violonchel va qassobxona" (1977), "Jahongashta Titi" (1982), "Pishiq bo'ldim, mana" (1983), "Shahar va qiz" (1984), "Qozoq, qayoqqa ketyapsan?" (1995), "Rasm chizgim kelmaydi" (1995) qissa va hikoyalar to'plamlari, "Ko'rkam ta'm" (1977), "Oychilik olis yo'l" (1987) romanlari nashr etilgan.

JIGAR

Qarag'ayday qora diplomatini yerga qo'ydi. Pidjagini yechib qo'liga oldi-da, Almatidan ilashib kelgan changni qoqdi. Vagondagi yoqimsiz baqiriqlar va qulog'ida qolib ketgan poyezd g'ildiraklarining tinimsiz shovqini sekin-asta so'nib, butunlay o'chib ketmagunicha o'rnidan jilmadi.

Eng avvalo qadam qo'ygan makonining quyoshiga nazar soldi. Kunni yaxshi ko'radigan, oftobda kuygan qir bolasi qayerda bo'lmasin, shunday qiladi. Sibirning yangi tushgan yosh kelinday tortinchoq quyoshi osmonning o'ng chakkasida osilib turibdi. Bilagidagi soatiga qaradi. Beshta kam to'rt. Ikki kun burun to'rtdan o'n daqiqa o'tganda Almatidan otlangan edi. Poytaxtning qizdirib turgan olovli quyoshi joningni qo'yishga joy toptirmas edi. O'mbining uyatchan kuni, aksincha, jonga rohat. Avgustning so'nggi kunlari bo'lsa ham, teraklar o'z malohatini yo'qotmagan. Yam-yashil holida chayqalib turibdi. Shaharning qay qismiga qaramang, hayot bir maromda kechmoqda. Shoshib-pishib yurgan odamlar barakali uyning bolalariday mushtarak tilda so'zlashadi, aft-angoriga qara-

sangiz ham, deyarli hammasi egizaklar singari o'xshash. Almatida hammasi boshqacha. Sharqning bozoriday shovqinli vokzali arining uyasiday g'uvillagani-g'uvillagan. O'mbida esa u yoq-bu yoqqa yurganlar oz, katta vokzalning oldi sokin.

Vokzalning shaharga qaragan tarafiga chiqdi-da, yonboshiga shaxmat taxtasiga o'xshash tasvir tushirilgan taksini to'xtatdi. Tizzasi iyagiga tegib ketay deb engashiib o'tirgan sarg'ish sochli ko'k ko'z yigit "yoqut yoki buryatmisan?" degan ma'noda Manapning yuziga sinchkov nazar tashladi.

— Qayerga borasiz?

Darhol taksining mushtdekkina tranzistorining qulog'ini buragan edi, Alla Pugachyova: "Ne jdi menya, nichego ne govori..." — deb, gunohkor birovni "urusha boshladi".

Ko'chaning nomini, uyning raqamini aytdi. Kaltaroq qirqilgan sochini barmoqlari orasida taragan ko'k ko'z yigit o'ylandi. Tezlikni almashtiradiganining qizil to'r plastmassa qalpog'ini qattiq qisgan edi, qo'lining sirtiga taram-taram ko'k tomirlari g'o'dayib chiqa qoldi. Manap toqatsizlandi. "O'zi yashaydigan shahar ko'chasini bilmaydimi? Ishga yangi joylashgan bo'lsa kerak...". Shu chog' manglayi ajin yig'ib, bir zumda qartaygan qiyofaga kirgan yigit xirillab gapirdi.

— Bolalar uyimi?

— Ha.

— O'tiring!

Yoniga joylashdi va yap-yangi shimining chizig'i ketmasin deb tizzasidan barmoq uchi bilan chimchib, pastga tortdi. Badqovoq haydovchi o'ylanib turib birdan gazni bosib yubordi. Nim yashil rangdagi "Volga" gerdayganicha tor ko'chaga tushib suzib jo'nadi. Manap kulimsiradi. "Ikkining biri — yo uyqusi qonmagan, yo uning kunlik me'yori kuyib ketayotibdi".

Taksida tomosha qilib kelayotgan shahari o'sha Pyotr zamonidan qolgan dabdabali turli xil imoratlarga anchagina boy, shuningdek, sharqona naqshinkor saroylar ham uchrab turadigan aralash shahar deb eshitgandi. Bo'ynini o'ng, so'lga qilt-qilt burib, ro'parasidan baland uylar qalqib chiqa qolsa, enkaya solib old oynaning ostidan suzib qarab, bir holda o'tirgan edi, soqov haydovchiga til bitdi.

— Kim?

— Kimni aytayapsiz?

— Bolalar uyidan kimni izlab kelayapsiz?

— Ukamni...

— A-a...

Shundan keyin tundfe'l bu yigit peshtoqigacha ko'k, yashil rangga bo'yalgan uch qavatli g'ishtin uyga yetguncha lom-mim demadi. Taksi to'xtagandan keyin ham katta ochilgan ko'zini bir nuqtaga tikilib qimirlamay o'tirib qoldi. Shimining cho'ntagidan pul izlab, halak bo'lgan Manapga pinagini ham buzmadi, qaragani ham yo'q. "Bunday fe'l-atvordan saqlasin. Kechga tomon erkalangan bola-chaqasi bo'yniga osilib-osilib o'ynaganda ham shunaqa bezrayib o'tirib olarmikan? Yoki ertalab lo'lisifat ayoli boshida choy qaynatib, qulog'ini obdon yeganmi?"

Tundfe'l shofyor yigit Manap uzatgan yap-yangi shitirlagan uch so'mga e'tiborsiz nazar soldi da, ming'irladi:

— Kerakmas.

"Aytdim, a... Qovog'idan qor yog'ib turishi yomon. Oz deyapti..."

Manap bidirlab ketdi.

— Qo'ying-e... Mana, to'rt so'm. Davlatning mashinasi... Yonilg'i qushning sutiga teng bu zamonda...

Yigit qo'lini silkidi-da, enkayib cho'zilganicha — chuvalchangday aylangan — shunchalik ham uzun bo'larkanmi — Manap tarafdagi eshikni chetidan itarib lang ochib tashlab:

— Oq yo'l, omad! — dedi.

"Qiziq... — deb o'yladi Manap ko'chaning burilishida bir silkinib uzoqlasha boshlagan taksini ko'zi bilan kuzatib qolar ekan. — Kirakashlar ko'likning qoni yerga tommay turgan aeroport, vokzallarda och bo'ri kabi yalmanglab, iloni qaytmay turar edi... Qiziq...".

* * *

Manap "Direktor" degan zarhal yozuvli kabinetni tez topib oldi. Ruxsat so'rab, sipoyigina kirdi. O'rta yoshlardagi, oq sariqdan kelgan ayol o'rnidan turib, uning boshidan oyog'igacha tez

razm solib chiqqach, naq oldidagi kursini ko'rsatdi. Bu kabinetning ostonasidan hatlagan har bir jon avvalo ochiq yuz va iliq so'zni istab kelishini yaxshi bilganidanmi, direktor uning sog'ligini, yo'l azoblarini birma-bir so'radi. Oxiri direktorlik qiyofasiga ko'chdi. "Xo'sh xizmat?" degan savolni ko'ndalang qo'ya qoldi. Manap o'z maqsadini aytdi. Diplomatining tishdek qotgan ikki qarich og'zini ochib, necha kun burun yaxshilab buklab, chekkasini temir bilan qistirib qo'ygan qog'ozlarini chiqardi. Direktor hujjatlarni oldiga yoyib, diqqat bilan o'qidi. Shundan so'ng bir necha savollar qo'ydi. Universitetda o'qidi, necha yillardan beri takror izlab, surishtirib, Qalining shu kundagi yashash joyini, mana bu bolalar uyini arang topibdi, necha yillardan buyon inisini ko'rgan emas — Manapning bir chetidan qaytargan javoblari shu mazmunda edi. Har javobga boshini goh chayqab, goh silkib, yigitni iliq qiyofada tinglab o'tirgan direktor barmoqlarining bo'g'inlarini qarsillatib qo'ydi-da, so'zga ko'chdi...

— Ha, bizda oz bo'lsa ham qozoq bolalari bor. Ko'pchiligi mana shu O'mbi, unga yaqin Qo'rg'on, Tyumen, Pavlodar viloyatlaridan. Ahvollari yaxshi. Qo'ldan kelgancha ota-onalarining yo'qligini bildirmaymiz.

Sekin so'z boshlagan direktorning tuyog'i asta-sekin qizib yerga tegmay ketdi. Direktor bo'lganiga, mana, bu yil roppa-rosa o'n besh yil bo'libdi. Undan avval o'quv ishlarini boshqargan. Mundoq aytadigan bo'lsak, bolalar uyining ipidan-ignasigacha unga ma'lum. Bir necha yotoqxona, sport zali, turli kasblarga yo'naltiriladigan ishlab chiqarish ustaxonalari, qalin o'rmonning o'rtasidan qurilgan yozgi lager — hamma-hammasi bolalar uyining xazinasi. Ansambl, drama, raqs va yana boshqa to'garaklar bor. Har bayramda bolalar o'zlari konsert qo'yib, spektakl ko'rsatishadi. Bolalar uyining tarixi ham teran. Ancha avval ulg'ayib, qanot qoqib uchgan bitiruvchilar orasida shu kunlarda Mehnat Qahramoni, akademik, bir necha doktorlar yetishib chiqqan. Mashhur yozuvchilar ham bor. Ular o'zlari voyaga yetgan maskanni hech qachon unutishmaydi. Yiliga hech bo'lmasa bir marta bolalar uyiga kelishib, suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib turishadi. Bolalar uyini, kim bo'lishidan qat'i nazar, katta hayotga yo'llanma berganligi uchun sira yodidan chiqarmaydi. Xat

yozishib, xabarlashib turadi. Kelayotgan, ketayotgan xat-xabarlar shunchalik ko'pki, ularni o'rganib javob yozadigan maxsus guruh tashkil etishga to'g'ri kelgan.

Berilib gapirayotgan direktor so'z o'rtasida to'xtab, inisini izlab kelgan yigitga qarasa, stol yuziga tikilib, yaltiroq taxtani nigohi bilan surtib o'tirgan ekan. "Noo'rin ko'p gapirib, tun qotib, tusi qochib kelgan mehmonimni charchatib qo'ydimmi?" deb o'yladi shekilli, bexos qizarib, kulimsiradi. Quyi qarab, ko'zi bilan yer chizish Manapning, qolaversa, To'rekeldi avlodining peshonasiga yozilgan xislat ekanini bir marta ko'rgan direktor qaydan ham bilsin.

— Ha, mayli, ularning hammasini bugun-erta ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab ko'rarsiz. Yotoqxona hisobidan bo'lingan kichikroq, kichik bo'lsa ham, qulay bo'lgan mehmonlar uchun xonalar bor. Iningizni yoningizga olib yoting-da, sirlashib, bafurja suhbatlashing, og'alik maslahatlaringizni sira ayamang. Bo'lajak faylasufman dedingiz, uni ham bir sinab ko'ring. — Direktor o'ng qo'lining ostidagi qizil tugmachani bosdi.

— Eljbeta Sergeevnani chaqirib bering, Lidochka. Serquyosh qardosh respublikadan mehmon kelganini ta'kidlab ayting, — deb shoshilinch topshiriqni sekingina yurib kelgan yosh qizchaning zimmasiga yukladi.

Stol, o'rindiqlardan boshqa hech narsasi yo'q kabinetda mehmoni zerikib qolmasin dedimi, direktor g'arbiy devorni ko'ndalang to'sib turgan sarg'ish pardani surib yuborgan edi, narigi tarafda poldan shiftgacha jimir-jimir xarita osig'liq turgan ekan.

— Bu yoqqa keling...

Yaqin borsa, xarita emas, kichkina shaharchaning loyihasi.

— Kelajagimiz shu. Tanlov e'lon qilgan edik, viloyat arxitektorlari tez orada tayyorlab berishdi. Shaharning bosh arxitektori bizning tarbiyalanuvchimiz edi, shu kishining nafi tegdi. Ildizimiz qayoqlarga ketayotganimizni sezgandirsiz. Bolalar uyi degandan ko'ra bolalar shaharchasi degani to'g'ri emasmi, a? To'g'ri qadimiy Irtishning sohiliga quramiz. Ellik gektar maydonni egallaydi. Keng va baland sport zali, yotoqxona, ustaxona, klub deysizmi, qaysi birini aytayin.

— Viktoriya Ivanovna, meni chaqirdingizmi?

Eshik oldida o‘ttiz besh yoshlardagi chiroyli kelinchak kulimsirab turardi. Sira ortiqcha vazni bo‘lmagan tanasi havoda qalqib turganday.

“Etak-yengida pirpiroqlari ko‘p hamda uzun etakli ipak ko‘ylak kiyib, havosi bo‘yiga taraladigan bo‘lsa, Ikarga o‘xshab gir aylanib, osmonga uchib ketar edi-yov”, deb o‘yladi Manap.

— Voy, kakkuginam, kelib qoldingizmi?.. Qiyin-qistov paytda qo‘limni uzun qilib, nafasimni kengaytiradigan jon o‘zingiz-ku, to‘tim-ey! To‘g‘risini aytsak, mana bu yosh mehmonimiz bir oylik olis yo‘ldan sizni izlab kelibdi.

Xushchaqchaq qiyofaga osongina ko‘chgan direktor Manapga yuzlandi.

— Tanishib qo‘ying, katta tarbiyachi Eljbeta Sergeevna Voynitskaya! Chiroyli va salobatli familiya! Ellochka — badarg‘a qilinganlar avlodidan.

— Xizmatingizga tayyorman... — Manap boshini sal irg‘adi. Shu zahoti yashirin bir sirini payqamay sirtga chiqarib, sochib yuborganday yuzi lovillab ketdi. “Xizmatingizga tayyorman”, deb kulimsirab, betoqat arg‘umoq otday kokilini yelpigandan ko‘ra, oddiygina: “Juda xursandman!” deb qo‘ya qolishi kerak edi. Sodda, aniq, qisqa.

Umuman olganda, Viktoriya Ivanovnadan juda minnatdor. Odamning qanday kayfiyatda o‘tirganini yong‘oq kabi chaqib, tez fahmlaydigan tiyrak hamda sergak odamga o‘xshaydi. Sal hayajonlanib, dovdirab kirgan Manapni oldi-ortiga qaratmay o‘ziga rom etib, ko‘p xavotirlarini tezda tarqatib yubordi. O‘n bir yildan buyon ko‘rmagan ukasiga bo‘lgan sog‘inchini ham, yurak yorilgudek quvonchini ham, bor dunyosini ayttirmay sezib-bilib o‘tirgan, shekilli. Shu holatda yana katta tarbiyachining go‘zalligini, Manapning qirchillama yoshdaligini aytib, shingil hazili bilan ham imkon boricha ko‘nglini ko‘tarsam deb halak.

— Ukangizning ismi sharifi qanday, eslatib yuboring...

O‘yga cho‘mgan Manap boshini ko‘tardi.

— To‘rekeldiyev... To‘rekeldiyev Qali!

– A, Turekeldiyev G'ani! Kechirasiz... Ellochka, bir daqiqa kechiktirmasdan, bu kishini G'aniga yetaklab obora qoling. Faqat, avaylang, Manap... e-e...

— Manap Simbatovich...

— Rahmat. Ha, Manap Simbatovichday akam bor degan fikr, albatta, G'anining uch uxlasa tushiga kirmagandir. O'zingiz ham bilasiz, bolalar uyiga murg'ak paytida, bor-yo'g'i to'rt yoshida qabul qilinadi... Shuni e'tiborga oling, — dedi va yigitga "Hechqisi yo'q, xavotirlanmang, hammai yaxshi bo'ladi" ma'nosida qarab qo'ydi. Shundan so'ng katta tarbiyachiga burildi.

— O'sib ketgan barvasta bo'z bolani Manap Simbatovich ham darhol taniy olmasa kerak. Shu ikki orada noqulay holatlar bo'lib yurmasin tag'in. Manap Simbatovich ranjimasa, tashqarida qoldir, G'aniga o'zing kirib, oldindan bafurja yaxshilab tushuntir. Odamning joni tiniq oyna, chatnatib olsak, qayta yamay olmaymiz...

Zerikibroq qoldimi, sal qovog'ini chitgan Eljbeta Sergeevna direktorning oldini kesib, yo'rg'alab ketdi.

— Hech qayg'urmang, Viktoriya Ivanovna. Har kuni ko'rib yurgan odatiy ahvol... Biroq Turegeldiyev G'ali degan familiya qancha o'ylansam ham, esimga tushmayotibdi. Sakkizinchi sinfda Turkeldiyev G'ali degan sportsmen bola bor. Uni o'zingiz ham bilasiz. Lekin Turekeldiyev, Turekeldiyev... bilsam, buyurmasin.

Viktoriya Ivanovna qovog'ini uydi. Ellochka, tarbiyachilar jamoasining yuzi bo'lgan, chiroyli va odobli Eljbeta Sergeevna qarab o'tirib, ikki marta xato qildi. Tuqqan og'asining ko'z oldida inisining familiyasini noto'g'ri aytdi — bir. Qalini G'ali deb yoza boshlagan Viktoriya Ivanovnaning xatosini tuzatib, og'zidan qoqdi. Nafsoniyatiga tekkani, ayniqsa, so'nggisi edi.

Direktorning nomi qachon bo'lmasin, direktor, achchiqlanmadi, otilib chiqayozgan zahrini to'xtatib qoldi.

— Bolalarni saralagan paytda unaqa xatoliklar ko'p bo'ladi, Eljbeta Sergeevna. Ha-ha deganda bir-ikki harf to'g'ri-noto'g'ri yozildimi deb kim qarab o'tiradi. Qanday eshitilsa, shunday yoziladi. Turekeldiyev shunday qilib Tukeldiyevga aylandi. — O'ziga pand bergan G'ani, Qali masalasini cho'zib o'tirmadi. — Bunday xato, ayniqsa, Turekeldiyev singari uzun familiyalarda juda

ko‘p uchraydi. Xo‘p, iningiz bilan yaxshilab ko‘rishing! Bir xona ketguningizcha sizga beriladi. Qancha kun ag‘anab-quvnasangiz ham o‘z ixtiyoringiz. Ochilib sirlashib, bir-biringizga obdon o‘rganingizlar. Ertaga qaytasizmi? Attang, attang! Unday bo‘lsa, ketayotganingizda ukangiz bilan menga kirarsiz. Ko‘rishguncha sog‘ bo‘ling, Manap Simbatovich!

* * *

Eljbeta Sergeevna zinapoyalarni bir-bir bosib, quyi tushib kelar ekan:

— O‘zi bolalar uyi bo‘lsa, chug‘irlagan o‘smirlari qayda ekan deb o‘ylayapsiz-a? — dedi o‘girilib qarab. — Yozgi ta’til hali bitgani yo‘q. Quyi sinflar pioner lagerida. Yuqori sinf o‘quvchilari shahar yaqinidagi sabzavotchilik sovxozida bodring, pomidor terib yurishibdi. Qaliga o‘xshagan sportchi bolalarni olib qolganmiz. Bayram arafasida shahar maktablari o‘rtasida sport turlaridan an’anaviy musobaqa o‘tkaziladi. Kuni-tuni kuyib-pishib, rosa ter to‘kib shunga tayyorlanib yurishibdi. Bultur birinchi o‘rinni olganmiz. Bu yil ham birinchilikni hech kimga bermaymiz degan niyatimiz bor.

Katta tarbiyachining izidan kelayotgan Manapning o‘yi boshqada. Hammasi yaxshi. Viktoriya Ivanovna, Ellochka — Eljbeta Sergeevna ham oydekkina qarshi olib, bilganlaricha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, yordam berayapti. Gap yo‘q, direktor ko‘pni ko‘rgan vazmin ayol. Yoshligidan iliq so‘zni kam eshitib, yetim o‘sganidan ko‘rsatayotgan ehtiromlari uchun ko‘ngli yayradi. Biroq bir olmoqning bir salmog‘i bor. Ko‘ngil qurg‘ur azaldan qarmoqning po‘pagi singari o‘ynab turadi. Manap direktorning xonasiga kirgandan buyon tomog‘iga tiqilib qolgan g‘alati hissiyotdan qutila olmadi. Viktoriya Ivanovna olisga o‘pkasi o‘chmay yetadigan uzoq masofaga yuguruvchi sportsmenga o‘xshar ekan. Hash-pash deguncha bolalar uyining buguni, kelajagi haqida qizg‘in ma’lumotlarni ustma-ust to‘kib, og‘zi-og‘ziga tegmay so‘zlab ketdi. Manap qoqilar, to‘xtab qolar, tuyog‘i toshga tegib ketar degan edi. Chin yurakdan chiqqan so‘z azaldan to‘rt oyog‘i teng tushib yo‘rg‘alab yuravermaydi. Mantiqda o‘qigani rost bo‘lsa, chin so‘zda alg‘ov-dalg‘ov kayfiyat-

ning barcha gammasining shu'lasi ko'rinishi kerak. Biroq direktor o'z kuchining ortiq-kamini yaxshi biladigan, shuningdek, marra chizig'iga birinchi yetishiga, yo'lda nafasi bo'g'ilmasligiga, hech yanglishmasligiga komil ishongan mohir chempionlarcha kokilini yel uchirib, zuvillab ketaverdi. Direktor ham farzand tarbiyalayotgan ona. Shunday ekan, kechqurunlari bolalarining davrasida ham to'xtamasdan gapiraverarmikan? Hay, qaydam, oqar suvda tobora silliqlashib, daryo tubida yarqirab yotadigan tosh kabi dono so'zlar boshqalar tugul o'zagini yorib chiqqan o'z bolasining qulog'iga kirarmikin?

Ikkovi daraxtlarning uzun soyalari qoplagan alleyadan tez o'tib, bir qavatli g'isht uyga kelib to'xtadi.

— O'ynaydigan ham, qaynaydigan ham sport zalimiz mana shu. Bolalar hozir mashg'ulotda. O'rindiqqa o'tirib kutib turasiz. Men Qalini aytib chiqayin. Kechiksak, kechirarsiz. Sportsmenlarning mashg'ulotdan so'ng yuvinib, terisi qotguncha kutishini o'zingiz ham bilarsiz, — deb Eljbeta Sergeevna Manapning baquvvat gavdasiga ko'z ostidan nazar tashladi. Qatlari qator-qator tizilib tushgan yubkasini shamol bo'lmasa ham, o'ng-chapga chayqab, zinapoyadan yuqori ko'tarildi.

* * *

Qalin qora sochi mayda-mayda, jingalak, qo'l-oyog'i kengayib qolgan, keng yelkali bo'lmasa ham hech kimdan qarzga kurak so'ramaydigan, kichikroq jussali oq sur bola, to'g'risi, bo'z bola tashqariga ildam chiqqanida, Manap o'rnidan irg'ib turdi. O'sha, shuning naq o'zi. To'rakeldi avlodining sinig'i. Qo'l cho'zib bu bolaning qayerini ushlasangiz ham, otasi Simbatning o'zi bilan birga yer qo'yniga olib ketgan nishon, belgilari. Odatiy kunlarda qo'y og'zidan cho'p olmaydigan yuvosh, mo'min, lekin to'y-yig'inlardagi kurashda bir chetidan tuya polvon deb nom qozongan, ko'pkaridan ko'pkarini qoldirmaydigan To'rekeldiyevlar avlodi... kechagi qonli urushda Simbatdan boshqa bittasi ham tirik qolmagan, Manap bilan manovi qora quloq Qali boladan boshqa farzand qolmagan To'rekeldiyevlar sulolasining kenja quluni... Odamning birdaniga

hayajonlanib ketishi yo to‘g‘riga, yo egriga ko‘nmaydigan arosat fursat emasmi, ikki qo‘lini qayerga qo‘yarini bilmay dovdiradi-da, qoldi. Oxiri orqasiga ayqashtirib soldi-da, butog‘i chopib olingan sarvday qaqqayib qoldi.

Ergashib kelayotgan Eljbeta Sergeevna Manapga jilmayib qarab, bir qadam ortga chekindi, “ko‘ring, metinday bitiruvchi yosh qironimizni. Oshiqmay-shoshmay sinchiklab ko‘rib oling” deganday yubkasi sal chayqalib qarab turdi.

O‘smir Manapga loqayd, e’tiborsiz ko‘z tashladi-da, katta tarbiyachiga burildi.

— Eh, Eljbeta Sergeevna, terimizni endigina ezib, tirish-burishlarini yoya boshlagan edik. Boshqa qulay fursat yo‘qmidi? — dedi o‘ziga xos yoqimli ovozda.

Kaftiga qistirib chiqqan tarog‘ini qalin sochlarining orasiga yuborib, ortga qarab ko‘tarib-ko‘tarib tashladi. “Manglayiga yoyib tushirib qo‘ysa, juda yarashar edi. Katta odamlar kabi ortga taraganini qara. Tez ulg‘ayolmay, o‘n besh yoshning tor qobig‘iga sig‘may qisilib yurgan qarog‘im-ey!” Manapning ichida o‘tday issiq bir narsa jizillamasdan, kuymasdan sekin erib borardi.

— So‘zing bor bo‘lsin, G‘ali. Mashg‘ulot og‘angdan ham ortiqmi? Olisdagi og‘ang yil-o‘n ikki oyda bir keladi. Mashg‘uloting qayga qochadi, ertagayoq sharros terlab, ketgan haqingni ortig‘i bilan qaytarib olasan, — dedi jilmaygan qiyofasin zarracha buzmagan Eljbeta Sergeevna.

Og‘a bilan inining yo u yoq, yo bu yoq bo‘lmagan ahvolini aytmasa ham sezib turibdi. Shu sababli Qalining hozirgi sovuq so‘ziga qovoq uyib, asabiylashmadi. Aksincha hushyor tortuvchi so‘zlari bilan ko‘ngilda qolgan tirish-burishlarni qanday qilib bo‘lmasin yozishga tushdi. Shunga qaraganda badarg‘a bo‘lgan otalari bilan momolari Sibirning qahraton sovug‘ini ham, temir kishanning iskanjasini ham pisand qilmagan xushfe’l jonlar bo‘lgan, shekilli. Manapning kim ekanligini Qaliga ataylab aytmagan xushmuomalali juvon yaxshi zamonlarda ham juda kam uchraydigan qiziq uchrashuvning qaymog‘ini shimirib, butun ta’mini totishni istayotganga o‘xshardi.

"Olisdagi og'ang..." degandan keyin Qali yuzini o'girib qaradi. Bu safar diqqat bilan qaradi. Bir paytlar birovni birov tanimaydigan qonbozorning qoq o'rtasida tasodifan uchrashib ko'ndalang bo'lgan ko'k otlini hozir tusini taniy olmay turganday yuzida hayajon bor. Avval do'mpaygan qora chemodanini orqalab, poytaxtga o'qish uchun otlanganda Manapni hech kim kuzatib qo'ymagan, o'qishga tushib, quvonchi qo'yniga sig'may qaytganda bir jon qarshi olmagan. Shundanmi, Manap bunday sinovli damda nima qilish kerakligini bilmas ekan, quchog'ini keng ochib, "Oh, jigarim!" deb entikib yugurishning o'rniga qoqqan qoziqday bo'lib tersayib turaverdi. Eljbeta Sergeevna jiddiylashdi. Qalining qulog'iga shivirladi: bo'ychan bo'z bola shundagina qalqib ketdi, zinalarni sanab bosganicha, quyi tushib, beri kela boshladi.

Bu paytda o'z-o'zini qamchilab ulgurgan Manap ham qo'rg'oshindek oyog'ini arang ko'tarib, qarshi yurdi. Bo'yi barobar bo'z bola ro'para kelganda:

— Bor ekansan, jigarim! — deb, oldinga cho'zgan ikki qo'lini keng ochib, issiq quchog'iga olay degan edi, Qali:

— Zdravstvuyte, dyadenka! Kak jivyote? — deb qoldi.

Cho'zgan qo'li singanday shilq tushdi...

Ovloqdagi bolalar uyi taribyalanuvchilarining ruscha o'qib, ruscha so'zlashlarini nega bilishmasin. Bilish boshqa, ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlash bo'lak ekan. So'nggisi oldingisidan o'n hissa og'irroq, deb o'yladi. Chetdan qaraganda Manap sabrli, vazmin ko'ringani bilan yetim o'sgan odamning fe'li bunga ham o'tgan; hech kimga bildirmasa ham ichidan qiynalib, ichidan yeyilardi. Katta tarbiyachi ayni vaqtida yodiga tushirdi, u es-hushini yig'di. Qalining salomlashish uchun salanglatib cho'zgan qo'lini ushlab oldi va silkib o'ziga tortib, to'shiga to'sh tekkizdi, peshonasidan hidladi. Tip-tikka bo'z bola egilmadi, yog'ochdan yasalgan jonsiz haykalni quchoqlaganday bo'ldi. Sochidan chiqqan arzon sovunning hidi dimog'ini yordi. Eljbeta Sergeevnadan uyaldimi, Qali yuzini olib qochib, quchog'idan sitilib chiqaverdi.

— Da nu...

Yaxshiyamki, katta tarbiyachi vaziyat sal o'xshamay borayotganini sezib qoldi.

— Men borayin... Kerak bo'lsam Viktoriya Ivanovnaning yonida bo'laman.

Ohista yurib uzoqlashdi. O'n-o'n besh qadam beri yurgandan so'nggina Ellochka — Eljbeta Sergeevna ekani yodiga tushdimi, bo'ynini g'oz ko'tarib, yelkasini tutib, dik-dik bosib ketaverdi. Yubkaning mayda qatlari bir-biriga urilib sopirilgancha yurib ketdi. Nigohi bilan kuzatib qo'ygan Manap mana shu ochiq-yorqin noziktabiat juvonni yoqtirib qoldi. Bu dunyoning karomatini qarang, kelinchakning bo'yidan nozanin Ellochkani emas, mehribon ona timsolini izlayotganga o'xshaydi. Qirqqa yaqinlashgan ayollarni ko'rsa bo'ldi, o'z onasi yodiga tushadi. Onasi shu yoshda vafot etgan edi. O'mbida tanishgan Eljbeta Sergeevna ko'ziga yanada issiq ko'rinib ketdi. O'la-o'lgunicha bu dunyodan onasini ming qiyofadan izlamasin, umrbod topa olmay armonda o'tsa kerak...

Qali oyog'iga kiygan ola tasmali krossovkaning tumshug'i bilan ko'ndalang yotgan xas-cho'p qiyqimini tepkilab-turtkilab, beparvo turaverdi.

— Kel, o'tiraylik! — dedi Manap o'rindiqqa omonat cho'kkanda.

O'tirdi.

— Ahvoling qalay. Qali?

To'rekeldiyevlar zamonning zardobini totgan yili bolalar uyiga o'tib ketgan to'rt yashar boladan bugun baquvvat o'spiringa aynalgan Qaliga: "Ahvoling qalay, inim?" deyolmadi. Agar aytsa Qali uning og'a ekanligiga ishonmay qoladiganday, tinglamasligidan qo'rqdi.

— Spasibo. Tak sebya... — Qalining ko'zi botib borayotgan kunning qalin yaproqlar orasidan sug'irilib tushgan o'ynoqi shu'lasiga qamashib o'tiribdi.

"Nima qilsin, kindigi bir bo'lsa ham, o'sgan muhiti boshqa. Odamzod yangi qalpoqni ham, eski qalpoqni ham ehtiyotlab kiyadi. Yer ostidan chiqqan Yelim botirday yopisha ketgan yangi og'asini yotsirab o'tiribdi. O'zimga ham o'l deydigan odam yo'q. Avvalo xat yozib, so'rashib, og'ayni, tug'ishganning ahvolini qulog'iga sekin-asta singdirib borganda bo'lardi. Yigirmadan to'rt yosh oshib

turgan mening bunaqa barakam qochib, kulim sochilganda, beshikdan beli chiqmay turib, ona yerdan olislab ketgan bundan ne gina!" deb o'yladi. Qalining do'ng burun, kesak bichim yuziga ichi ezilib achinib qaradi.

— O'qishlaring qalay? Bu yilgi sinfing sakkizmidi?

— Sakkiz... A... Ha... — Qali boshini sal irg'adi.

— Yotar joying, kiyar kiyim, ichar osh... qiynalib yurganing yo'qmi?

Qali: "Qiziq, u nima deyapti o'zi?" deganday bor gavdasi bilan burilib, yigitga teshib yuborguday qaradi. O'rinsiz savol berganini kech uqqan Manapning betidan olov chiqdi. Og'a bo'lish ham qiyin ish ekan. Qalini qaydam, Manap iniga og'a bo'lib ko'nglini olishni eplolmay qolibdi. O'ylab qarasa, o'n bir yil burun, Qalini bolalar uyiga topshirib turib, ko'z yoshi tinimsiz oqib, unsiz yig'lagandagina og'a bo'lgan ekan. Hozir oradagi o'sha hissiyot unut bo'lgan. Sal oldin Qalini ko'rgandagina ko'ksiga nur quyildi. Hozir esa uning o'rniga zahar quyilganday. Har narsaning boshini bir boshlab, vaqt o'tkazish — mana tirikchilik. Bolalar uyining yo'q-bori bilan nima ishi bor? Qali birdan shikoyat qilib: "Qiynalishimni bilsangizlar o'n yil burun bolalar uyiga o'z qo'llaringiz bilan bermasmidingizlar?" desa, qanday javob berardi? Yoki: "Bo'lib beradiganingiz bormi?" deb dangal so'rasa-chi... Agar aytsa ham o'rinli, ko'tarasan. Simday tortilib, prujinaday otilishga tayyor turgan Qalining, davlat g'amxo'rligidagi Qalining ahvoli, o'z holidan, yalangoyoq talaba ahvolidan ancha yaxshi. O'ng-so'lini tanib qolgan bola buni bilmaydi deysizmi?

Umuman olganda, ich-ichidan qo'rqib o'tiribdi. Almatidan otlangandan buyon ichidan tayyorlanib, necha marta puxtalab kelgan asosiy savolini endi aytishga og'iz juftlashga hadiksiradi. Bo'lmasa: "Ahvoling qalay, yotar joying, kiyar kiyim, ichar osh deb po'ng'illamoq — o'n bir yil ko'rmagan iniga qo'yadigan savolmi bu? Kecha kelib, bugun ketib, har kuni quchoqlashib yurgan odamning so'zi-ku bu anchayin. O'z-o'zini ichidan so'kib, shundan so'ng o'zini rostlab oldi va bir nafas bilan:

— Ovul esingdami? Akam, men... Qalg'uti... tog', qalin o'rmon esingdadir, a? — deb so'ray qoldi.

Krossovkaning tumshug'i bilan yo'lakni o'ngga-chapga chizg'ilagan Qali boshini beparvo chayqadi. Shoshib qolgan Manap tomog'ini qirdi. Unut, butunlay unut, unutib qolibdi. Bo'lmasa ikki qo'lini kursi suyanchig'iga cho'zib yuborib, chalqaygan mana bu holatini ozgina bo'lsa ham o'zgartirar edi. "Yo, tavba, shu Manapmi? Jigari yopishib, tug'ishgan akammi?" deb, boshini ko'tarib, yuziga qaramasmidi?

Chin tug'ishgan kechirimli bo'ladi. Qattiq ranjigani bilan inisining bu holatini yomonlikka yo'ymadi, darrov oqlaydigan dalil izladi. Qalining fe'l-atvori o'sgan sayin ustidan karvon o'tib bora yotsa ham, qinq etmaydigan otasiga tortishi g'alati... Shunday, ha shunday bo'ladi-yov. Ishga kelganda yovday yopirilib, tindirib tashlaydigan, biroq so'zga kelganda, og'ziga marjon solib, ko'zi boylanganday tuyuqlanib o'tiradigan "ichimdagini top" deydigan qing'ir nasl-ay!

Choy qaynagani vaqtdek to'lg'anib, o'yini obdon pishirib oldi va birdaniga dadillanib, ust-ustiga to'kib solib so'zlay ketdi.

— O'skemendagi bolalar uyiga seni kech kuzda olib borib topshirdik. Boshqa ilojimiz bo'lmadi. Onamizni tomoq saratoni olib ketdi. Otamiz enkayib juda cho'kib qoldi. Urushda kontuziya olgan odamdan nima so'raysan. Yana uylanib, bizga o'gay bo'lsa ham ona topib beradimi desak, qon bosimi qayta-qayta ko'tarilib, shifoxonadan chiqmay qo'ydi. Men maktab-internatda o'qiyman. O'shanda: "Qolmayman, sira qolmayman!" deb, zor ezilib yig'laganing haligacha ko'z oldimda. Ushlab, qo'yib yubormagan tarbiyachining bilagini tishlab olding. Biz ham ko'z yoshimizni to'kib: "To'rva-to'rva konfet olib, ikki-uch kunda kelamiz, qo'rqma, olib ketamiz qaytadan", deb aldadik. Ters burilib, kalovlanib turgan otamga ko'p qaramay, menga qo'l cho'zib, ho'ng-ho'ng yig'layverding: "Manapga tiling kelmay, Maka der eding — konfetni sen olib kel, meni sen olib ket!" deb... Shuning uchun harsillab ovulga yetguncha... birovni ko'mib kelayotganday... og'iz ochmadik. Bir hafta bo'yi boshimga qo'ygan fufaykam ertalab nam tortib yurdi. Opamdan ajralganimizdan keyin seni otam boqdi. Yozgi dam olishga kelganingda kirlaringni o'zim yuvib yurdim. Meni o'lguday yaxshi

ko'rarding. Bir bug'doyni bo'lib yedik. Qayerga borsam, o'sha yerga do'mboqlanib, izimdan sira qolmasding.

Manap ko'zi bilan yo'lakka boqqancha o'tirib qoldi. Qora yer qo'yniga o'zi bilan birga olib ketarman-ov deb talay yil dilida saqlagan sirining uchini chiqarsa ham, oxiriga yetguncha shoshildi. Manap nafasin yutib, sekin xo'rsindi. Tug'ishgan ukasi bilan qurayni qirt-qirt yeganday so'zlasharman deb sira o'ylamagan edi.

Qali-chi? Quyi qaragan kiprigi ko'zini to'sibdi. Nimani o'ylab o'tirgani noma'lum. Qo'llarini ayqashtirib olgan holatda bag'riga tiqib, ichi og'riganday enkayib o'tiribdi.

Manap nafasini yutib, sekin xo'rsindi. Enkayib, yerda tik turgan diplomatini qo'liga oldi va oldiga yotqizib og'zini ochdi. Yozgi yengil kostyumning taxini yozib, bir-ikki silkidi, o'rindiq ustiga yoyib qo'ydi, barmog'ining uchi bilan Qaliga siljitdi.

— Bu yil qurilish otryadiga borgan edim... Topish yaxshi bo'ldi. Qirq oltinchi... Loyiq bo'lishi kerak. — "Kiyib o'lchab ko'rgin", — deyishga esa tanglayiga yopishgan tili aylanmadi.

Qali beparvogina kostyumga ko'z tashladi-da, miyig'ida kulib qo'ydi. Shu payt ustki labining chap taraf cheti dir etib uchdi. Manapning chekka tomiri yorilib ketguday bo'ldi. Jon dunyosi ostin-ustun bo'ldi. Yoshga to'lgan nigohini Qalidan o'girib, kun shu'lasiga qamashgan derazalari yaproqlarning orasidan yil-yilt mo'ralab turgan o'quv korpusiga qadadi.

Og'may o'xshamagur, xuddi otasi! Otasi kulmay o'tib ketdi, qiyratganda kulimsirardi, shunda ustki labining chap taraf cheti shunaqa yuqoriga sapchib qolar edi.

— Kiyim tomoni... bor... yil sayin yangilab turadi... Qirq sakkiz bo'lmasa, qirq olti menga tor.

Ohista ovoz qulog'iga yetganda uchib kelayotib, jar yoqasiga o'ynoqlab chiqib qolgan otday yelkasi tortib, iyagi ko'tarilgancha qotdi. "Oydan-oyga xabar-o'charsiz... izsiz ketgan, necha yillar dumini ushlatmagan... arang topilgan inisi... shu Qalimi?" deganni saqichdek cho'zib, bo'lib-bo'lib o'yladi.

Yulqilab shamol esdi, yashil yaproqlardan ikki-uch sariq ola tangalar shovdirab tushdi-da, bittasi qalqib kelib, Qaliga tor ko-

styumning yoqasiga sirg'ib qo'ndi. Yolg'iz yaproqdan ko'zini olmay:

— Avvalgi yili... otamning boshiga tosh yig'ib, qo'rg'on ko'tardim. Somon g'ishtini o'z qo'lim bilan quydim. Qo'shni tumandan ikki otamiz bir bo'lgan tug'ishganlarimiz topilgan edi, ular ham qarab turishmadi, obdon ko'maklashishdi, — dedi. Sal to'xtab, so'zida davom etdi! — Bugun elning ahvoli yaxshi. Qorin to'q, ko'ylak ko'k.

Yo'qchilik yillarda eldan ketgan bola: "Yetim akajonim bu gal ham bor-yo'g'idan qiynalib kelmadimikin?" — deb o'ylamasin degan maqsadda oxirgi so'zlarni aytgan edi. Gapni uzoqdan boshlab: "Yetim bo'lsak ham, yolg'iz emasmiz; qolaversa el, yer bor, esingni yig', qayg'urma!" degan ma'noda aytgandi.

Qali boshini pastroq tushirib, unga burildi. Yuzida hayronlikmi, hayajonmi, nima bo'lganda ham bir o'zgarish izi yaqqol ko'rindi. Kichkina ko'zi yaltiray boshladi. O'tirgandan beri ilk bora Manapning og'ziga qaradi. Og'asi ham Qaliga qaray intilib, siljiy berdi.

Bo'z bola:

— Tosh yig'ish... U nima o'zi? — deganda siljib ketgan yerida cho'kkanicha o'tirib qoldi. Kostyumining matosini kaftiga qisib ezg'ilayverdi. Nima deyapti o'zi bu bola? Boshi karaxt. Birdan: "Qoshingda ining o'tiribdi, ko'zingni ochib qara, ining!" deb, turtkilagan hardamxayol ko'ngil yana eridi. Kindik kesib, kir yuvgan yerdan olisda o'sgan bola o'z xalqining urf-odat, dasturlarini bilmasa, aybdormi? O'lsa — Manapning otasi o'ldi. Lekin Qali shu kungacha ota-onam yo'q, egasiz, so'rovchisiz yetimman deb keldi. "Yetim qo'zi —toshbag'ir". Bola vafot etgan odamning boshiga qozoqlarning tosh yig'ib, sag'ana qurishini osmondan o'qib biladimi? Ko'rsa, shaharning temir panjarali xoch, yulduzcha, tosh haykalli mozorlarini ko'rib yuribdi. Shunda ham ko'rsa...

— Qanday tushuntirsam... Qozoqlar vafot etgan odam qabriga bir yil o'tkazmasdan sag'ana quradi. Birinchidan, qabrni it-qush, tuyoqli mol toptap, uvol qilmasin deydi. Ikkinchidan, "O'rningni yo'qotmaydigan, tutuningni so'ndirmaydigan mehribon odamlaring bor, izing o'chgani yo'q, tuprog'ing yengil bo'lsin!" degan

ma'noda o'lgan odamga ko'rsatiladigan izzat. Qo'li yetganlar qizil g'ishtdan gumbaz ko'tarishadi. Qolganlari tog'ning toshini sandiqlab terib, somon g'ishtdan qo'rg'on o'rnatishadi.

Boshini quyi solib o'ylanib qoldi. Ha, shu toshni terib bitguncha tongning otishi, kunning botishi bilan olishib shoshdi. Qo'rg'on qalqayib, bo'y cho'zgandagina ota oldidagi so'nggi farzidan qutulib: "uh!" dedi. Mashaqqatli yetimligini tosh ostiga qo'shib bostirib ko'mib, yorug' dunyoga qaytib chiqmasday qo'rg'on bilan o'rab, ikki yelkasini kerib nafas olgan edi.

Ko'zining qiri bilan Qalini kuzatsa... beparvo, e'tiborsiz, loqayd. "So'zlasang — og'iz o'zingniki, so'zlamasang o'zing bil, aytding ishondim, rahmat!" degan holat. Ostki labi yig'ilmayotibdi. Sal turib tarog'ini qalin, g'ayir sochiga ko'mib yuborib, tisir-tisir taradi. Xo'mpaygan lunjiga havo yig'ib oldi-da, yuzini mo'ljallab turib ufurdi.

Manap arosatda qoldi. Qali otasi qachon, qanday vafot etdi, batafsil bilish tugul, bir og'iz so'ramadi. Og'asi Manap qanday kun ko'rdi, qay institutga tushdi, o'qishi, kelajagi qanday, lom-mim demadi. Mayli, Manapni qo'yaver, familiyasiga yozilgan ota haqida tirnoqday bir o'y, tebranish qayda?

Ko'zdan yiroqlashgach, ko'ngildan bulbul uchgani — shu-da!

Biron bir ota, ona sharpasi ko'rinmagan och ichakday uzun alleyaga ko'zi tushgach qadami sekinlab, o'ziga keldi: "qarog'im!" deb qanotining ostiga olmagach, manglayidan hidlab, ter hidi anqigan qo'yniga olib yotmagach, ota qiyofasi eskirib, yil ortidan yil o'tgan sayin o'chib ketavergani-da.

O'zi ham sho'rpeshona yetimlikning azobini ko'p tortdi. To'g'ri, otasi tirikligida och qolaman, to'q bo'laman deb o'ylamadi. U o'tib ketsa ham, do'stlari, tengdoshlari, otasini ko'rgan ovul qoldi. Manglayidan chertgan, orqasiga tepgan Tekebay tentaklar ko'p emasdi. Tuman markazidagi maktab-internatga qabul qilindi, shu yerda yotib o'qidi. Yozgi, qishki ta'tillarda o'shalarning bolalari ota-onalari topshirganlari uchunmikan, yo o'zlari bilib chaqiradilarmi, har holda, qo'ymaysdan ko'ndirib, ovulga olib ketishardi. Mobodo o'jarlik qilib bormay qolsa, ota-onalari: "Manapjonga ko'p duoi salom!" deb, nuqul murg'ak bolalarning og'zidan

yulib-yirib bergan pishgan go‘sht, qurt-pishloqlarini bolalarining sumkasiga solib yuborishardi. Hozir ham yozgi dam olishda uyga boraman deb qiynalmaydi. Shunday ekan, mana shu el bilan yer degan muqaddas tushunchadan murg‘ak yoshidan mosuvo bo‘lgan kichkina ukasidan nega ranjiydi? Qorni to‘q, ko‘ylagi ko‘k bo‘lsa ham “tuqqan ota, ona, tuqqan og‘a, ini, ona yurt, el” degan muqaddas tushunchadan mosuvo boladan nimani so‘rab, nimani umid qilib o‘tiribdi? Beshikdan beli chiqqandan buyon ko‘rgan-bilgani o‘zi kabi yetimchalar, tarbiyachilar bilan to‘rt devor, terib qo‘yilgan yetim to‘shak, yetim parta...

Kimga ayb taqasin? O‘choqning kulini ko‘kka sovurgan urushgami? U ayblovlaring kimga dori? Butkul g‘amgin ko‘ngil so‘zlar shodasi tomog‘iga to‘lib kelgan edi, Qaliga to‘satdan til bitdi. Endi ochmoqchi bo‘lgan og‘zini yuma soldi. “Mayli gapirsin, ichdagi dardini sirtga chiqarib, emin-erkin eshilib bir oqsin, ona yurtning kaftdek mujdasini olisdan orqalab kelgan og‘a oldida jigari yozilsin” degan fikr so‘zdan to‘xtatdi.

— Bayram arafasida o‘smir bokschilarning shahar birinchiligi o‘tadi. Shunga kun-u tun tayyorlanib yotibmiz. Bultur finalda yutqazib qo‘yganmiz. Bu yil qanday qilib bo‘lmasin, hisobni to‘g‘rilashimiz kerak. O‘smirlar guruhi bo‘yicha birinchi razryadim bor.

Maqtanib qo‘yganini kechroq anglagan bola yuzini burib ola soldi.

Manap sergaklandi. Biroz maqtanish aralash so‘zlarni eshitgandagina yonida oddiygina dovdir bola o‘tirganiga ishondi. Jo‘ra-yo‘ldoshlarining uyiga borganda o‘yinchoqlarini yig‘ib, qayta sochib, o‘yinga aldanib yuradigan qop-qora dumaloqqa qaragin, manovi Qaliga qara, baribir. Shunday desa ham yana shubha o‘y ko‘lankasidan peshonasi soviy boshladi. Jigari yopishib, birga tuqqan do‘st-yoronlarining inisiga tenglab, o‘zidan olislatib, quyrug‘ini chetga solib o‘tirgan ekan. O‘z inim, qondosh Qali inim deganni ongiga qanchalik singdirgisi kelsa ham bo‘lmasdi. Yonmay yotib o‘chgan bu qanday ko‘ngil bo‘ldi?

Qolgan ko‘ngil-da...

Og‘ir o‘y Manapni obdon gangitib, ezib tashladi. “Boksidan boshqa ermagi bormi o‘zi?” degan xayolda:

— Boshqa nima bilan shug‘ullanasan, Qali? — dedi. “Inim” degan yolg‘iz va iliq so‘z yana og‘ziga ilinmadi.

Qalining qovog‘i ochilib, yayray boshladi. O‘rindiqning ko‘ndalang yog‘ochiga kaftini tirab, ko‘tarilib-ko‘tarilib qo‘ydi. Har so‘zi quvnoq, jarangdor.

— O-o, tabiatni yaxshi ko‘raman! Ayniqsa, jon-jonivor, hasharotlarni! Bizdagi tirik tabiat burchagi mening qaramog‘imda. Ilon, baqa, chayon, qo‘ng‘iz, qush — bari topiladi. Tugal o‘zimiz boqib parvarishlaymiz. To‘garakka o‘ttizga yaqin bolalar a’zo. Kecha shahar biqinidagi o‘rmonga sayohatga chiqqan edik, safarimiz muvaffaqiyatli bo‘ldi. Omadi bor bola ekan, Kolya Jerebsov Patrikeevnaning kichkina kuchugining ustidan chiqsa bo‘ladimi...

— Patrikeevna?

— Tulki-da. Kuchuk oltmish hiylali maston ekan. Shu qochgandan qochib, yo‘g‘on emanning kovagiga kirib ketdi. Yengimni qayirib, qo‘limni suqqanimni bilaman, barmog‘imni tishlab oldi. Mana izi! — deb, uchi chizilgan ko‘rsatkich barmog‘ini cho‘chchaytirdi. — Jerebsovning hurmatiga “Kolya” deb ot qo‘yganmiz. Qo‘lga o‘rganarmikin, yotsiramasmikin deb qo‘rqqan edik. Bugun ertalab oldiga qopqonga tushgan sichqon tashlagandik, yotsiramoq tugul, ikki yamlab, bir yuta soldi. “Yana nimalaring bor, olib kelaveringlar”, deganday, “Kolya”, tushmagur, alang-jalang qiladi, — kulib qo‘ydi. — Patrikeevna desa Patrikeevna! — “Bu tomoshaga endi nimani qo‘shib aytsam ekan” deganday biroz o‘ylandi. — O‘tgan yili shahar maktablari bo‘yicha burchagimiz g‘olib bo‘ldi. Hayvon-qush, jonivorlarning xilma-xil turlariga boy ekan deb oyog‘imizni yerga tekkizmay maqtashdi. Yaqinda Eljbeta Sergeevnaning ingliz setlari bolalabdi. Bittasini tekinga beraman deyapti. Shunday yaxshi odam o‘zi! — deganida tusi o‘zgarib ketdi. — Qozog‘istonda oq bo‘kan yo‘qolib ketadi deb o‘qidik. Shuning yoqimtoy bir uloqchasini qo‘lga tushirsak edi, viloyatda ham oldimizga tushadigan jon bo‘lmasdi. — Nimadandir umidlanganday Manapga ko‘z ostidan qarab qo‘ydi.

“O‘sha yoqimtoy uloqni siz topib bera olasizmi?” degan isho-rani Manap ham tushundi. Qali bolaga nisbatan o‘pka-ranjlarini

endi butunlay yig‘ishtirib qo‘ygan. Bitta-bitta so‘zga tortishni ham qo‘ydi. Yana ham Manapdan hurkkan Qalining kalavasining uchini ushlay olmay ilojsiz qolganini, juda qiynalib o‘tirganini tag‘in uqdi. Izlaganga so‘ragan deganday, manovi malolsiz tinch suhbatning boshlanib ketgani yaxshi bo‘ldi. O‘n besh yoshdagi boladan nima so‘raysan. Ko‘rgan-bilgan bor qizig‘i tabiat burchagi, o‘ylagani birinchi o‘rin, boks bo‘lsa, rostdan ham, boshqa nimaniyam aytsin. Tushungan odam kechira biladi.

Boshini shalviratib o‘tirib-o‘tirib:

— Kelajakda kim bo‘lasan? — dey soldi og‘iz uchida.

Qali o‘ylanib o‘tirmadi.

— Uchuvchi... Harbiy uchuvchi bo‘laman. Bolalar uyini bitirib ketgan uchuvchi og‘alar ko‘p.

Manap jilmaydi. “Og‘a” degan so‘z ko‘p kuttirib borib og‘zidan axiyri chiqdi-yov. O‘z o‘yi bilan o‘zi ovora Qali uni sezmadi.

— Tunov kuni shularning biri keldi. Klubda uchrashuv o‘tkazdik. Sidorov Aleksandr Pavlovich. Ordeni bor. Polkovnik. Urushda qazo topgan otasi ham qiruvchi-uchuvchi bo‘lgan ekan. Ikkinchi kuni yotmay-turmay poylab yurib, yotoqxonaning chiqaverishida ushlab oldim-da, alohida so‘zlashdim. “Harbiy uchuvchi bo‘laman desang, tan-sihatligingni shu kundan boshlab yaxshila. Sportingni tashlama!” dedi. Hozir Sasha amaki bilan xat yozishib turamiz. Shunday bir ko‘ngli ochiq yaxshi amaki!

Qali qisinqirab olgan ko‘zini qarshisidagi katta terakning eng yuqorisiga tikib o‘tiribdi. Ko‘k osmonning to‘shini tilib, samoda uchib yurgan o‘zini xayolan tasavvur qildimi, qiziq? Pishiq bola emasmi, hushini tez yig‘ib oldi. Manapning qaytarilgan yengidan so‘yilday chiqib turgan bilagiga tikildi.

— Soatingiz necha bo‘ldi?

— Besh daqiqasi kam besh.

— O‘! — Qali irg‘ib turdi. — O‘tirib qolibman. Vaqtdan yutqazsam, musobaqada yutilganim. Besh yarimda mashg‘ulot tugaydi. Hech bo‘lmasa, qolganiga qatnashayin. Yoz bo‘yi salmoq qo‘shib, muskullarim bo‘shab ketibdi. Yaxshi qoling...

Shunday dedi-yu, tilini tishlab qoldi.

— Siz... qolasizmi?

Manap quyi qaragan ko'yi:

— Yo'q, ketaman. Kechki oltida poyezd bor, — dedi.

— A-a... Safaringiz o'ngidan bo'lsin! —ildam yurib sport zaliga qarab yugurib ketaverdi.

O'rindiq ustida qirq oltinchi kostyum yoyilib yotardi.

— Beri kel, Qali!

Burildi.

Yaqin keldi.

— Kechirasiz... Menga sig'maydi. Ortiqchalik qilmaydi. Mening qatorimda yotadigan Eldar Gizzatullinga quyib qo'yganday ekan. Birga o'qiymiz. Bo'yi kichik. Shunga sizning nomingizdan sovg'a qilaman. Ranjimaysizmi?

— Sira ranjimayman.

— Rahmat! — kostyumni qo'ltig'iga qisib, boyagi to'g'ri yo'liga tushib ketdi.

— Xat yozaman. Kelasi yili yozda kelaman... kelsam kerak,— dedi Manap izidan.

Eshitmadimi, Qali indamasdan ketaverdi. Zinapoyaga ikki sakrab irg'ib chiqib, shartta burildi va qo'lini silkidi. Kulimsiragan edi, ustki labining chap taraf cheti yuqoriga sapchib qoldi. O'rindiq qoshida turgan Manapning bor vujudi dir etdi. Ko'z oldi qorong'ilashdi.

Oldiga qarab yugurgilab borgani esida. "Qalqam-ay! Qanotim-ay!" degan shivir qulog'ida yangrab turardi. Eshik tars yopilgandagina hushini yig'di. Baland zinapoya bo'sh ekan...

* * *

Bir kursida uzoq yil o'tirib qolgan boshliqlar avvalo stol, kreslosini o'zining dunyoqarashiga, fe'l-atvoriga qarab moslashtirib oladi-da, yillar o'tgach, bora-bora o'zi ham o'sha jihozlarga obdon kirishib, ularga o'xshay boshlasa kerak. Viktoriya Ivanovna avvalgi qiyofasiga gard yuqtirmay, qog'ozga baqrayib o'tiribdi. Ruxsatsiz kirgan, u ham yetmaganday ohista kelib, kresloga shilq etib o'tirib olgan yigitga hayratlanib ko'z tashladi. Yarim daqiqaday chaqchayib qaradi-da, ko'ngli joyiga tushdi. Sekin kulimsira-

di. O'n bir yil ko'rishmagan ini bilan diydorlashish — ne bir tosh yurakni ham eritib yuborguvchi hodisa. Quvonch ham, qayg'u ham birday degani mana shu. Tushunaman... Sizlarni tushunish uchun o'tiribmiz. Bunday quvonchning zo'rini, otasini ko'rganmiz. Bu xonada o'lib-tirilganlar ham topishishgan", deganday to'qligi bilan juda minnatdorlik qiyofasi yuziga qaynab chiqibdi. Qanoat tuygan qiyofada chalqayinqirab o'tirdi-da:

— Qo'lingizni qisib, chin yurakdan tabriklab qo'yamizmi, Manap Simbatovich? Ellochka orqali xabardor bo'lib turibman. Yo'l-yo'lakay aytib ketgan. Yolg'iz emassiz... Ha-ya. Bundan buyon iningiz bor... Tinchingiz bor... — deb, oxirgi so'zlarini to'xtab-to'xtab, salmoqlab aytdi.

— Albatta... Rahmat! — dedi ikki kaftini stol yuzasiga tep-tekis qilib yozib yuborgan Manap yerdan ko'zini uzmay.

Direktor qoshini kerib, o'ylanib qoldi. Yanglishmasa, yosh yigit u qadar oshib-toshib, havolanib o'tirgani yo'q. Dala xalqi quvonchga ham, qayg'uga ham birday sabrli bo'ladi, deyishardi... Shu rost bo'lmasin, ishqilib.

— Eljbeta Sergeevna yotoqxonangizni ko'rsatgandir.

Juda hovliqib, dovrug' solib ketganiga o'kinib qolgan direktor rasmiy qolipga ko'chdi. Yigit boshini ko'tarib oldi-da, direktorga tik qarab:

— Ketsam kerak. Kechki oltida poyezd bor, — dedi har so'ziga urg'u berib.

Direktorning qalami stol yuzida nog'ora chaldi-da, birdan to'xtadi.

— Kelmasdan, ketaman deganingiz nimasi? Hech bo'lmasa, ikki-uch kun qolib, ag'anab-quvnab qaytsangiz kerak degan edik. G'alini ergashtirib, shaharni tomosha qilsangiz, ochilib gaplashib, ahvolini bilsangiz bo'lmasmidi? O'mbi — tarixiy urflari boy shahar, Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy, eng og'ir va mahsuldor yillarini shu shaharda o'tkazishgan. Balki... Xudo ko'rsatmasin, biz ko'nglingizdan chiqa olmay qoldikmi?

Viktoriya Ivanovna: "Men sizdan ranjidim. Qo'limizdan kelguncha ko'maklashib, ko'nglingizni olishga intilayapmiz. Osto-

namizdan hatlaganingiz zamon yov quvganday orqaga qochdingiz", degan e'tirozini ochiq bildirdi.

Yigit sovqotib o'tirganday besh barmog'ini tizzasiga qo'yib, sekin uqalay boshladi.

— Voy, nima deyapsiz, Viktoriya Ivanovna?! Ikki dunyoda roziman sizlardan. Qali baquvvat yigit bo'lib o'sib kelyapti... Sportchi... tabiatshunos... minnatdorman... juda shoshilinchman. Ovuldan kelib o'qiydigan studentlarning ahvolini bilasiz. Bir oyog'i shaharda, bir oyog'i dalada. Kelasi yil omonlik bo'lsa, yana kelarman.

— O'zingiz bilasiz.

Xayrlashib ketib borayotgan Manapni tashqaridan eshitilgan tovush to'xtatdi.

— Diplomatingizni unutib borayapsiz.

Bo'ynini burgan yigit jilmaygan edi, ustki labining chap taraf osti sapchib qoldi.

— Ha, aytmoqchi... diplomatni Qaliga tashlab ketsam degandim. O'yga-qirga yugurgan turli safarda talay yil halol sherik bo'lgandi. Ko'zimday ko'rib ushlasin. Malol kelmasa, mening nomimdan ko'p salom aytib, topshirsangiz. Mening yodimdan butunlay chiqib ketibdi.

Manapning yurish-turishidagi katta o'zgarishni Viktoriya Ivanovna sezdi. Biroq shu o'zgarish qanday o'zgarish, aniq ajrata olmay hang-mang. So'rashga noqulay.

Pishiq bo'laman deb yigitning unga noma'lum bo'lgan eski yarasini tirnab olishi ehtimol. Biroz o'ylanib turdi.

— Yuring, darvozagacha kuzatib qo'yaman. — Direktor o'tirgan o'rnidan nari-beri chayqalib, qo'zg'alishga intilsa ham yopishib olgan kreslo osonlikcha qo'yib yubormadi.

— O'zim... Qayg'urmangiz. Olqishdan boshqa aytarim yo'q. Eljbeta Sergeevnaga ko'pdan ko'p salom. Yaxshi qoling!

Ochgan eshigini qayta yopmagan yigit dahliz bo'ylab ohista yurib ketaverdi.

* * *

Qalin tuman orasidan qalqib chiqqan "Volga"ga qo'l ko'targanini, shofyorning tezgina eshik ochganini, yumshoq o'rindiqqa og'zi bo'g'ilgan qopchiqday shilq etib o'tira qolganini, "Vokzal!" degan so'zni arang aytganini biladi. O'rindiqning suyanchig'ini yelkasiga to'g'rilab, boshini ortga tashlab yubordi-da, ko'zini yumdi.

Manapning fe'l-atvori ham otasiga o'xshagan edi. Qovurg'ani qayishtiradigan qandaydir bir dardni unsiz ko'tarib yuraverardi. So'zga, hazil-mutoyibaga ham shunday edi. Hech kimga hech narsani bildirmasdi. Faqat ichdan ezilardi. Mana shu fe'lini yaxshi bilgan jo'ra-yo'ldoshlari: "Hay, shunga oqidan ichkizib ko'raylik. yelim botir bag'rini shunda yerdan ko'tarib qolar. Talay botmon va polaponni jin chalib ketganday dikonglatgan mashhur achchiq suv emasmi", deb o'zaro kelishib olib, araqqa yiqib ko'rmoqchi bo'lgan. Umidlari oqlanmadi. Manap bag'rini yerdan ko'tarish u yoqda tursin, qo'l-oyog'i ham qo'zg'alishdan bosh tortdi. Do'stlari so'rab so'z ololmadi. "So'zga solsang bosmaydigan, aroqqa solsa, botmaydigan manov bir Alpomish ekan", deb ikki qo'llarini tepasiga qo'yishgan edi. Totib olmasa-da, shu daqiqalarda ham shunday bemador bir holni boshidan kechirmoqda edi.

— Xo'sh, iningizni topib oldingizmi? — degan tovushni eshitgandagina zilday boshini zo'rg'a ko'tardi. O'sha haydovchi, o'sha taksi...

— Topdim.

— Ahvoli qalay?

— Juda yaxshi.

Taksining shinasigina shivirlab kelardi.

— Tez qaytdingiz.

— Ishlarim boshimdan oshib yotibdi.

Haydovchi "tushundim" degan ma'noda boshini silkidi. Chap ko'zini picha qisib olib, sekin so'z boshladi. So'zlagan sayin ovozi qat'iylashib, tezlasha bordi.

— Men ham yolg'iz singlimni yo'qotib, afsusda qolgan odamman. Otam Vengriya tuprog'ini abadiy makon tutdi. Onamizni Leningrad qamalida berib qo'yganmiz. Hov pirimlab tirik qol-

gan qo'shnilar qiyin kunlari panoh bo'lib, qamal tugagach, bizni bolalar uyiga o'tkazishdi. Urushdan keyingi alg'ov-dalg'ov yillarda bolalar uyi ikkiga bo'linib, bittasi boshqa o'lkaga ko'chirib yuborildi. Shu ur-to'polonda bir-birimizdan ajralib qoldik. Men beshda, u esa uch yoshda edi, — deganda "Volga"ning yengil tovushi birdan kuchayib, gurillab borib, shundan so'ng uni pasaydi. — Uy bo'ldik. Bolali-chaqaliman. Suvning ham so'rovi bor. "Sveta ketgan bolalar uyi Irtishning Sibir tomondagi ulkan shahariga almashdi", deganlarini o'shanda chala-chulpa eshitib qolgandim. Turmushim yaxshilangach, aytgan shahri mana shudir deb, O'mbiga ko'chib keldik. Dom-daraksiz... Qo'shni shaharlardan ham izlab ko'rdim. Svetlana Konovalova yo'q, yana yo'q... Kim biladi, turmushga chiqib, familiyasini o'zgartirgandir balki. O'rganib qolgan shaharni qiyib tashlab ketish ham qiyin, shu kunlarda o'mbilikman deb qo'yib, yayrab yashab yuribmiz, bovurim. Yana qizig'i, nega ekanini bilmayman, mana shu shahardagi paxmoq soch qizlar Svetaga o'xshab ketadi judayam. O'zingiz kirib chiqqan bolalar uyining yonidan har kuni ikki-uch marta zuvillatib o'tmasam, ichgan oshim hazm bo'lmaydi. "Viltyuk!" deb, shu uch yashar holida sochi hurpayib darvozadan yugurib chiqib keladiganday... Vokzaldan bolalar uyiga to'g'ri boradigan yo'lovchilar ham ko'pchilik. Har yerdan o'zingizga o'xshab inisini yoki singlisini izlab keladiganlar ko'p. Svetadan tiriklayin ayrilsam ham, qo'msab topishgan odamlarning quvonchiga sherik bo'lib, hech bo'lmasa hojatlariga yarab qolsam deyman. Shularning oshib-toshgan quvonch-shodliklarining bir uchquni yuragimga uchib tushmaydi deysizmi. Hozir uyning manzilini yozib berayin. Cho'ntagingizga solib qo'ying, bir kuni keragingizga yarab qolar. Millatimiz boshqa bo'lgani bilan, dardimiz bir yigitlar ekanmiz. Kelasi gal kelganingizda iningizni ham ergashtirib oling-da, bizning uyga kirib o'ting. Svetam bir kuni topilib qolar degan umiddaman. O'sib qolgan bo'y yetgan qiz bo'lsa, kim biladi, sizning er yetgan iningiz bor, quda-andali bo'lib qolarmiz, — deb ko'zini qisib qo'ydi. — Manovi temir tulpor omon bo'lsa, vokzaldan o'zim kuzatib yuboraman. Faqat keladigan kuningizni avvalroq ma'lum qiling, telegramma yuboring.

Taksini to‘xtatib qo‘yib, yon daftarchasidan qog‘oz yirtib oldi. Cho‘ntagidan qalam chiqarib, nimanidir qitirlatib yozgan bo‘ldi. Qog‘ozni Manap old cho‘ntagiga soldi. Yo‘lovchining yukini hech bo‘lmasa bir ko‘z yugurtirib tugallamagan kirakash bo‘lmaydi. Manapning oyoq ostiga ko‘z yugurtirdi.

— Og‘ayni, bolalar uyining yonida tushib qolganingda qo‘-lingizda qora diplomat bor edi. Hovliqib yurib, bekatda tashlab ketganingiz yo‘qmi?

Manap boshini chayqadi.

— Inim olib qoldi. Er yeta boshlagach, o‘ziga qaray boshlagan o‘smir-ku, qiziqib qarayvergach: “Ko‘zimday ko‘rib yurarsan!” deb tashlab keldim.

Kirakash Manapning yelkasidan qattiq quchoqlab o‘ziga mehr bilan tortib-tortib qo‘ydi.

— Qanday baxtlisiz, og‘ayni! — deb, qozoq yigitiga mehr bilan qaradi, Manap ko‘zining qirg‘oqlari qizg‘ish tortib, kiprik uchlari namlanib qolgan ekan...

TURISBEK SAVKETAY

(1950)

Turisbek Savketay 1950-yil 14-noyabrda Rossiyaning Oltoy o'lkasida tug'ilgan. 1970-yilda Qozoq davlat universitetiga o'qishga kiradi.

"Oydin kechada", "Kenja", "Oq qayinlar, oppoq qayinlar", "Soyalar podsholigi" kabi hikoyalar to'plami nashr etilgan. Shuningdek, u "Oysiz kecha", "Yelkanli qayiq", "Epilog", "Bir bor ekan, bir yo'q ekan", "Burgutchaning o'limi", "Men — telbaman" kabi romanlar muallifi hamdir.

YOVTERAK

(Muhabbat daraxti)

Derazaning katta-kichik ko'zlaridan bilinar-bilinmas oqish yorug'lik suzib kirgan chog'da oqsoqol uyqudan uyg'ondi. U uvishgan oyoq-qo'lini qorniga tortib, ko'rpasiga burkanib oldi. Kichkina sariq nevarasi bag'riga tiqilib "pish-pish" uxlaganida pechka misoli badanini ilitib turardi. Bir haftadan beri u ham yo'q. Onasi: "Maktabga tayyorlanishi kerak, ingliz tilini o'qitamiz", deb olib ketgan. Dikillab yonida yurganida yolg'izligi bilinmasdi, go'dak bo'lsa ham jon ekan, mana endi hayhotdek uyda bir o'zi yolg'iz qoldi. Qizi sho'rlikdan ginasi yo'q, ikki uyning o'rtasida tinmasdan borib kelmoqda. Onasining qirqi o'tguncha shu yerda bo'ldi. Uning ham o'z turmushi bor, qachongacha yuradi bu yerda. "Endi oyim yo'q, kim kiringizni yuvib, ovqatingizni pishirib beradi? Bir o'zingiz qanday yashaysiz? Kasal bo'lib qolsangiz kim qaraydi? Har haftada kelib turishga mening imkonim yo'q. Mollaringizni soting. Shaharga yuring. Yonimda bo'lasiz. Zerikaman desangiz, nevarangizni maktabga olib borib, olib kelasiz.

Bizga ham yaxshi, o'zingizga ham ermak bo'ladi", deb Xudoning zorini qildi. Shaharga borsa, sharoiti yomon bo'lmasligini biladi. Otasi uchun qizi jonini berishga tayyor. Kuyovi ham "dada, dada" deb iltifotini ayamaydigan mo'min, esli yigit. Lekin o'zi uzoq o'ylanib, rafiqasining o'rni sovimasdan turib, shuningdek, qirq yildan beri o'rganib qolgan uyidan butunlay ko'chib ketishga jur'at etolmadi. Atrofidagilarning hammasi kampirining ko'zidek, ko'ngliga iliq tegadi. Har bir narsa, har bir burchakka qaragan sari achchiq-chuchugini birga baham ko'rgan eski kunlarning sog'inchli sharpasi ko'kragida aks-sado berib turadi. Shularning hammasini qanday tashlab ketadi? "Hozircha o'z oyog'imda yuribman, bardamman, qarog'im. Onangning yili o'tguncha oilaning chirog'ini o'chirmasdan turaverayin. Keyinchalik yana ko'rarmiz", deb mujmal javob qilgan.

Qizi yig'lab-yig'lab ketgan. Qo'shni kelin Vasilaga pul-mul berib ketgan bo'lsa kerak, kirib o'tini yoqyapti, sigirni sog'yapti. Qo'shnilardan ham Xudo bergan. Agar shajaraga qarasa, uzoq qarindoshligi — jiyanligi bor. Doim "tog'a, tog'a" deb iliq muomalasini ayamaydi. Faqat eri oltin boshini xor qilib yuribdi. Ichgan kuni uyda to'polon, bola-chaqasini yig'latgani-yig'latgan. Kampiri rahmatlik tirik paytida kelin bolalari bilan yum-yum yig'lab kirardi, shu uyni panoh qilardi. Ichmagan kuni mo'min, hamma ishni bajaradi. Ba'zan kampiri kuyunib: "Ordona qolg'ur, bir kuni seni mayib-majruh qilib qo'ysa nima qilasan, militsiyaga aytib, qamatib yubor yoki ajralish, qachongacha xo'rlik ko'rasan?" desa, "Qo'ying, xola! Eri urmaydigan xotin bormi? Ichmasa juda yaxshi! Yetim-ku, mendan boshqa hech kimi yo'q", deb javob qilardi. "Bo'lmasa yuraver har kuni kaltak yeb!"

Allaqayerda tomog'ini cho'zib xo'roz qichqirdi. Kaftdekkina ovul uyqudan uyg'ondi. Eshiklar g'ijirlab ochilib, g'imir-g'imir hayotning yana bir tinimsiz kuni boshlandi. Og'ilxona tomonda chelak shaqirladi, sigir mo'radi. Barjadan ko'mir tashiydigan Jabborqulning "ko'kyo'tal" "Belorus"i yo'talib-yo'talib gurilladi va tonggi sokinlikni yorib ketdi. Abdulhayning egari olinmaydigan qari hangisi ham egasiga: "Ey, qoqvosh, qachon meni o'tga qo'ya-

san?" degandek tinmasdan hangray boshlagandi, ko'k traktorning ovozi ham eshitilmay qoldi.

Har bir tovushga quloq solib, yolg'izligini baham ko'radigan yupanch izlagan oqsoqol: "Bu yotishim nimasi, namozim qazo bo'ladi-ku", deb o'rnidan turdi. Namxush namatni yalong'och oyog'i bilan bosganida dastlab junjikdi. Yupqa choponini yelkasiga tashlab, tashqariga chiqdi. Mashriqdan bosh ko'tarayotgan mayning oppoq tongi uvizdek ivib titrab turgandek. Molxona tarafdan sog'ilayotgan sutning "viz-viz" ovozi eshitiladi. Vasila o'choqqa o't tashlab qo'yibdi. Issiq kulga ko'milgan jez obdastadagi suv iliqqina edi.

Dunyoning o'yin-kulgisidan sovib, vazminlik egallagan vaqtda jon rohati uchun Yaratuvchidan madad istar ekan. Mana, to'rt yildan oshdiki, Allohga ibodat bilan mashg'ul. Kitob hijjalab o'qib-o'rgangan duo-oyatlarni qiroat bilan o'qiy olmasa ham, ixlosi zo'r, niyati to'g'ri. Namoz o'qib, Haqning so'zini yuragiga jo qilgan sayin sabri barqaror topib, ichki olami tozalanib, ilgarilari hech qachon sezmagan, his qilmagan lazzatli holatni boshdan kechirmoqda. Shu vaqtgacha Allohning shunday ne'matidan bebahra qolib, adashib yurgan ekan-a?!

Tengdoshi Abdulhay yaramas: "Ey, qora ayg'irni necha marta yuvsang ham oqarmaydi. Endigi toat-ibodatdan ne xayr, ne foyda?", deb piching qiladi. Bu uning o'tgan kunlariga sha'masi edi. Men bilmaydigan siring bormi, taqvolik senga munosibmi? Ha, hayotning ilonizi, tor so'qmoqlarida xato qadamlari kam emas. Yoshligida nimalar qilmadi?! Kommunist bo'lib yurib, ta'ziyalarda qo'lini fotihaga qo'l ochmasdan bezrayib o'tirardi. Baqirib-chaqirib hammaga hukmini o'tkazib fermaga boshchi bo'ldi. Ichkilik ichganini ham rad etmaydi. Kimgadir tili bilan, kimgadir qo'li bilan ozor bergandir. Lekin shunday qildim deb qorong'i qabrga kirguncha taqvosiz yurishi kerakmi? O'zgarib, tavba qilganning nimasi xato? Abdulhay to'y-bazmda o'zi bilan avvalgidek qadah urushtirmagani uchun tegishaveradi.

— Tog'a, — dedi Vasila yuziga doka tutilgan chelakdagi sutni qozonga quya turib, — qora sigir tepkilab sog'dirmayapti.

— Yotsiragandir. Xolangning xalatini kiyib olmadingmi?

— Kiyganman. Har kuni unaqamasdi... Kuyikish davri kelganga o'xshaydi.

— Mol bo'lgur, echki bo'lib ketganmi, yaqindagina buzoqlagandi-ku.

— Sizni boy qilmoqchidir, — dedi Vasila jilmayib. — Buqaga olib borish kerak. Bo'lmasa to'xtamaydi.

"To'xtamasa, harom o'lsin", deb tebranmas ko'ngil bilan toshdek qotib turdi, lekin molning uvolini o'yladi.

— Yurtdan insof ketmoqda. Hamma narsa savdoda. Temirg'ali buqasiga qancha pul olar ekan, bilasanmi?

— Biz yaqinda besh ming berganmiz. Qayrat olib boradi.

— Ha, shunday qilsin, qarog'im! — deb oqsoqol quvonib ketdi. Chunki sigirning arqonidan yetaklab yurganini ko'rishsa, uyat deyishmaydimi? "Kampiridan ajralganiga ko'p bo'lmadi, sigirni yetaklab ko'cha-ko'yda yurgani nimasi, bitta o'ziga nima yetmayapti?" deb gapirishlari aniq...

Choy ichib bo'ldi, tahorat oldi va qabriston tomonga asta yo'l oldi. Masofa uncha uzoq emas. Bir vaqtlarda gurkirab rivojlangan xo'jalikning markazi edi. Endi mana shu ovuldagi uylar ozayib, aksincha eski qabristondagi tepachalar ko'payib bormoqda. O'ziga o'xshagan qarilarning ko'pi qabristonga ko'chib olibdi. Zich joylashgan qabrlardan o'tib kelmoqda. Qo'rg'onsiz tepachalar, oyi qiyshaygan temir panjara, oq, qizil, g'ishtdan qurilgan gumbazlar. Ularning hammasini yaxshi bilardi. Bu Sunnatillo... To'xtarboyning mozori o'pirilib ketibdi... Shekerbekning gumbazini yangidan qurishganmi?... Ha, o'rtancha o'g'li tumanda militsiya boshlig'i-ku... Bunisi esa Serik... No'g'ayboyning asrandisi. Ichkilikka berilgan edi bechora. Har biriga bir fotiha qilib, oxiri eng chekkadagi oq g'ishtdan qurilgan to'rtburchakli qabrga yetdi. Qizi va kuyovi qirqigacha bunyod etishgandi. Eshik raxining tepasiga oq tunuka bilan hoshiyalangan yarim gaz yaltiroq qora marmarga tushirilgan endi qaytib kelmas mushfiq siymoning ma'yus boqishidan uning ham qalbi g'amga to'ldi, o'zini bir dam yo'qotib qo'ydi.

— Ha, Shamila, yotibsanmi, yorqinim? Mana, men keldim! — dedi ovozi titrab. Tizzasi bukilib, cho'kkalab qoldi. Bir dam ezilib

o‘tirdi, keyin jismini tiklab, qur’on o‘qidi. Bilganlarini yig‘ib-yig‘ib uzoq o‘qidi. U dunyoda joniga malham bo‘lguvchi duoni takror aytib, Yaratganga yolvordi. Bir qarasa, qaltirab turgan kaftlariga iliq tomchilar tomayotgan ekan.

Oqsoqol novcha bo‘yini tikladi, tizzasini qoqdi. Lekin birdan ketolmadi. Go‘yo qora toshga tasviri tushirilgan Shamila: “Qayoqqa shoshasiz? Hayhotdek uyda bir o‘zingiz nima qilasiz?” — deydigandek biroz turdi. Devor osha ichkariga qaradi. Tuprog‘i hali bosilmagan, tepasi shu holicha turibdi. Nimjon olabo‘ta va bug‘doyiq sarg‘aya boshlabdi. Bittagina tepacha yakkalanib qolgandek. “Eh, esim qursin, — dedi afsus bilan. — O‘shanda yana bir kishilik o‘rin qoldiringlar, keyin devor olinglar deb bolalarga aytmabman-da, esankirab yurib”. Toshtaxta oldiga yana keldi. Yomg‘ir changlarni yuvganidan yo‘l-yo‘l izlar qolibdi. Ro‘molchasi bilan ishqalab artdi. Yaltiroq, qora marmardan go‘yo Shamila chiqib kelayotgandek. Oqsoqol qalb sog‘inchi bilan, mehr bilan qarasa, Shamila esa achinib boqqandek: “Hech yerga sig‘masdan yuribsizmi?”

Shamila kasal bilan uzoq olishdi. Yomon qiynaldi. Oxirgi ikki haftada butunlay yotib qoldi. Oqish yuzlari kulib turgan suluv edi. Yumaloq qo‘ng‘ir ko‘zlari, kerilgan qoshlari, yuziga takabburlik baxsh etgan qirra burun. Keksaygan chog‘ida ham chiroyini yo‘qotmadi, bashang kiyinib, gavdasini g‘oz tutardi. Qo‘qqisdan kelgan kasal hammasini rasvo qildi, yog‘i tugagan chiroqdek ko‘z oldida tamom bo‘ldi. Umrining oxirigacha sadoqat va halollik timsolini namoyon etdi. Oxirgi kunlarda o‘zi qiynalib yotsa ham uning tashvishi bilan yashadi. Chuqur jarlik tagidagi chiziqdek, qorachig‘i zaif yaltirab, entikib nafas olgan holda aytgan so‘nggi so‘zlari hamon qulog‘ida jaranglaydi: “Sizga qiyin bo‘ladi! — dedi sovuq kaftlari bilan uning qo‘lini silab. — “Xotini o‘lgan qizi bor ovulga qaraydi”, deyishar edi. Sizga endi qiz qayoqda? Sizdan avval ketar ekanman, Alloh taolo nega meni ertaroq olib ketmadi? Loaqal kiringizni yuvib, choyingizni qaynatib beradigan birov bilan hayotingni davom ettirardingiz. Yetmishdan oshib, keksaygan chog‘ingizda yolg‘iz qolayapsiz... Kim sizga suyanch bo‘ladi? Bag‘ringizni ilitib o‘g‘il farzand tug‘ib berolmadim. Hanifa jonim,

albatta, tarbiyali qiz. Chaqaloqligidan yer-u ko'kka ishonmadik, erkalatib o'stirdik. Bor yaxshiligimizni berdik. Shuning uchun u begonalik qilmas. Lekin qozoni boshqaning qayg'usi boshqa, ayol zoti erining qoshi-qovog'iga qaraydi. O'z oilangda dildan suhbat qurib o'tiradigan juftingizning o'rnini hech kim bosolmaydi... Qolgan kuningiz qanday bo'lar ekan, a?" U ma'yus holda yana shu gaplarni takrorlab turgandek.

— Kecha-kunduz xayolimdasan, nega yolg'iz bo'laman? — dedi oqsoqol pichirlab. — Shukur, Hanifamdan aylanay, oq tuzingni oqladi. Kuyov ikkovi hamma ishni bajarib bermoqda. Hatto meni olib ketmoqchi bo'ldi. Biznikiga yuring, shu yoqda yashaysiz, deb Xudoning zorini qildi, yig'lab-yig'lab ketdi. Shukur, menga qarayotgani shumasmi qarog'imning?! Hozir Vasila kirib turibdi. O'tim yoquvli, o'rnim to'shalgan. Hammasi joyida. Faqat sen yo'qsan. Shu mening og'rig'im, Shamila... Shamilam! — Oqsoqol ikki qo'lini beliga birlashtirib, yo'lga termulgan holda gapirib kelardi. — O'rning endi bilinyapti. Birovdan ilgari, birovdan keyin yashabmiz. Shirin damlar ham, achchiq kunlar ham o'tdi. Hayot o'zi mana shu ekan-da. Sog'inganda, zoriqqanda ana shularni eslab o'tiraman-da!

Ha, bu yolg'on dunyoda hech kim bir-birining qadriga yetmaydi. To'g'ri yo'l qolib, egri ko'chalarni ham ko'rgan. Shamilani nohaq xafa qilib ko'p marta qo'nglini og'ritdi, necha marta yig'latdi. Aroq va nafsga berilib haddidan oshdi, ko'p noma'qulchiliklar qildi. Sen bepushtsan, men farzandsiz o'tamanmi deb, ikki bolali beva kelinchakka xushtor bo'ldi, uch yilcha uydan ketib qoldi. U ayoldan ham farzand ko'rmadi. Shunda Abdulhay yana mazax qilib: "Ey, ustidan erkak pashsha uchib o'tsa, homilador bo'ladigan xotindan farzand ko'rolmayapsanmi?" deb ustidan kulgan edi. Bir kuni qora sumkasini sudrab, qorong'ida tumshayib qaytib keldi. Ana shunda ham Shamila lom-mim deb og'iz ochmadi. Jimgina eshikni ochib berdi. Oldiga issiq ovqatini keltirib berdi. "Hamma ayb sizda ekan-ku" degan gap og'zidan chiqmadi. Taqdir nimani ravo ko'rsa, birga baham ko'rishdi. U uchun Shamila o'zining onalik baxtini qurbon qildi. Mana shunday vafodor yordan ayrilib, orqasidan oh chekib keldi.

Oqsoqol uyga qaytishga shoshilmadi. Qabriston va ovul o'rtasi bir vaqtlar yuzlab daraxtlar yashnagan, butog'ida qush sayragan ajoyib sersoya xiyobon edi. Endi, mana, har yer-har yerda bir qorayib turgan daraxtlargina qoldi. Ovulning oyog'ida arang turgan qarilari bilan birga ular ham ozayib bormoqda. Yaqin o'tmishdan qolgan qoldiq-ku! G'alabaning o'n yilligi munosabati bilan o'zlari o'tqazgan. Ovuldan urushga jo'nagan bir yuz sakkiz yigitdan o'ttiz ikkisigina qaytgan ekan. Ulardan biri oqsoq, birining bir qo'li yo'q, biri ko'r, biri — kontujin...

Ular urushni ko'rmadi. Lekin etikda qon kechgan otalari va akalari urushni ovulga olib keldi, mana ko'ringlar deb. Ularning ko'zlari va so'zlaridan urush dahshatini his qilardi. Ichib olganda yoki uyqudan cho'chib uyg'onganda "Ura" deb hayqirib o'rnidan turib ketardi. Shularning tirigiga ta'zim, halok bo'lganlarga hurmat tarzida bir-birdan ko'chat ekishgan. Uni "G'alaba xiyoboni" deb atashgan edi.

O'sha paytda ular oltinchi sinfda o'qirdi. Shamila ikkisi birga uzun ko'kterakning ko'chatini ekishgan. O'z qo'ling bilan ekkan narsani har qachon e'zozlaysan. "Kimning ko'chati baland o'sarkin?" deb bir-biri bilan musobaqalashib, hamma o'z ko'chatini qizg'onib himoya qilar, qo'lidan kelgancha parvarishlardi.

Ikkovi ekkan ko'chat shoh chiqardi, o'zlari bilan birga o'saverdi. Qisqa vaqt ichida shohlari ko'payib, ko'kka bo'y cho'zayotgan katta terakka aylandi. O'zagida tiriklik sharbati tinmasdan oqdi, lahza sayin o'ssam, unsam deb talpinib quyoshga intildi. Tanasi tep-tekis, biror g'adir-buduri yo'q edi. Shu xiyobondagi eng balandi. Yozda bo'ladigan ovul to'ylari ko'pincha mana shu xiyobonda o'tardi. Yig'lgan kattalar: "Voh, Shamila va Alixon ekkan ko'chat Yovdaraxt bo'ladi", deb maqtashardi. Qadim zamonlarda, talonchilik ko'p bo'ladigan vaqtlarda, boshiga chiqib, atrofni kuzatadigan, yov kelayotganidan xabardor bo'lishda foydalanadigan eng baland daraxtni "Yovdaraxt" deyishar ekan. Bo'ronli qishda adashib qolganlar yo'lini topib olsin deb Yovdaraxtning tepasiga chiroq yoqib qo'yishar ekan.

Haqiqatan ham, ularning daraxti boshqalardan o'zib, "Yovterak" bo'lib o'sdi. Boshqalarga nisbatan chin ixlos bilan parvarish-

lab, ko'p mehr bergani uchun yuksakliklarga yetgandir. Ko'ngillaridan ko'kargan ko'kteraklariga birga xursand bo'lib yurib astasekin oralarida allaqanday tuyg'uning kurtak ochayotganini o'zlari ham sezmay qolishdi. Shamila bahor misoli go'zal qiz edi. Bo'yi cho'zilib, jismi to'lishib, bir yildayoq ko'zga tashlanib qoldi. Ikkita qilib o'rilgan sochlarini silkitib yurishini tomosha qiling. Marjondek tizilgan tishlarini ko'rsatib, xandon tashlashi o'ziga xos bir surat. Yoki faqat uning ko'ziga o'zgacha go'zal bo'lib ko'rinardimi? Har holda chakka sochlari jingalanib, qo'ng'ir ko'zlari porlab turgan oq yuzli qiz ko'kimtir ko'ylak kiyib, dadil qadamlar bilan yurib kelayotganda, bargi shivirlab, quyoshga yetsam deb intiluvchi yosh terakka o'xshardi. Bora-bora ikkisining terak tagida uchrashuvlari ko'paydi. Ko'kterakni parvarishlash uchunmi yoki bir-birini ko'rish uchun kelarmidi? Bir o'q bilan ikki quyonni otishardi.

Shamila — partorgning qizi. Dadasining qo'li uzun. Yozgi ta'tilda oyisi ikkovini Yaltaga, Almatiga yoki Buraboyga yuboradi. Ana shunday damlarda u o'zini yolg'iz qolgandek hisoblar, bo'm-bo'sh ko'ngli yer-u ko'kka sig'masdi. Bunday kunlarning tongi otib, kuni botmaydi. Kechqurunlari kino yoki raqs maydoniga sudragan do'stlaridan qolib ketar, qalb yupanchini topadigandek Yovterakka kelardi. Uni quchsa, Shamilani quchgandek bo'lardi. Yumshoq po'stlog'ida Shamilaning kaft izlari qolgandek silaydi, o'padi. Sog'inchini unsiz aytib shikoyat qilgandek, terakka boshini qo'yib, o'tdek yongan ikki yuzini navbat bilan bosib turadi. Tuproqdan ildiz orqali o'tayotgan bilinar-bilinmas shildir qiz yuragining dukuriga o'xshab eshitiladi.

* * *

Oqsoqol daraxtlari siyraklashgan xiyobondan o'zining Yovteragini izladi. Ko'zini kafti bilan panalab, uzoq qaradi. Bu tomonga ko'pdan beri qadam bosmagandi. Hatto, qayerda ekanini unutib qo'yibdi. Maktabni tugatgandan keyin, uyadan uchgan polapondek, hamma o'z hayoti bilan ketdi. Biri o'qishga, biri harbiyga otlandi, ovulda qolganlarning ham avvalgidek shijoati yo'q, daraxtlarni parvarish qilish o'quvchilik davri bilan tugagan bolaning ermagi

bo‘lib ko‘rindi. U ham uzoqda o‘qishda yurgan Shamilani sog‘ingandagina kelardi, ataylab kelmasdi. Oilali bo‘lgandan keyin umuman kelmay qo‘ydi. Bora-bora unutib ketishdi. Agar Shamilaga yetolmasdan armon bo‘lib yuragida mangu qolganida, Yovterak ham ko‘kragining qa’rida soyasi o‘chmasdan yam-yashil bo‘lib turardi. Oqsoqol xiralashgan ko‘zini uqalab, atrofga yana bir marta qarab chiqdi. “Shu yerda bo‘lishi kerak. G‘arbdan sanaganda to‘rtinchi qatorning qoq o‘rtasi. Mana, mana shu!” Ko‘zi bilan izlab topdi. Birdan kayfiyati tushib ketdi. Daraxtning boshi sinib, pasayib qolibdi. Yon atrofga taralgan baquvvat shoxlarining aksariyati qurib, rangi o‘chgan, mayda yaproqlar har yer-har yerida qolibdi... Terakdagi kamchiliklarni sanab turib, ko‘zini olib qochdi. “Ey, o‘zing qanday ahvoldasan? Mana shu qari daraxtdan afzalliging bormi? Seni kechagi baquvvat yigit deyishganiga kim ishonadi hozir?” Yovterakning atrofidagi daraxtlarning anchasi kesilib, faqat to‘nkasi ko‘zga tashlanadi. “Ekkan odam o‘lsa, daraxti ham qurib qoladi”, degan gap rost ekan-da. Daraxt to‘nkalariga qarab, o‘tgan kunlarni esladi. Bu Seytqulning, undan narida Jo‘ldosboyning, mana bunisi Bekmambetning daraxti edi. Hammasi ham dunyo bilan xayrlashgan. Manavi kuya-kuya eng kichik to‘nka — Saydashniki. Saydash mashina falokatidan halok bo‘lgan kuni daraxtga yashin tushgan.

— Bormisan, eski do‘stim, qari daraxtim! — oqsoqol quchog‘ini ochib, oldinga intildi. Ko‘p yil avval yo‘qotgan do‘sti bilan yana uchrashgandek Yovterakni mahkam quchoqladi. Juda yo‘g‘onlashibdi, qulochi yetmadi. Uni ancha vaqt quchib turdi. Ko‘zini yumib, tanasiga peshonasini qo‘ydi. Po‘stlog‘i taram-taram yorilib, dag‘allashgan, silagan kaftingni tirnaydi.

— Eh, Yovteragim, sen ham qaridiing, men ham qaridim. Sen ham yolg‘izsan, men ham yolg‘izman! — dedi oqsoqol past ovozda. Shamolda tebrangan tana g‘ijirlab, qari terak ham dardini aytayotgandek. “Shuncha yil qayerda bo‘lding, nega kelmading?” deb so‘rayotgandek. Oqsoqol qaddini tiklab, terakning tanasini ko‘zi bilan to‘liq qarab chiqdi. Yoshlangan nigohi bilan g‘adir-budur tanadan nimanidir izlay boshladi. Uch shohi uch tomonga tarqalgan “Sh” ning shaklini singan butaning yonidan arang topdi. “A” ni

tananing orqa tomonida ko‘rdi. Bu ikki harfni Shamila yozgi ta’tilda shaharga ketganda pakki bilan o‘yib yozgan. Shamila kelgach xafa bo‘lgandi. Bilagidan ushlab, tirnog‘i bilan tirnatgandi. Tirnoq iziga qarab:

— Qalay, og‘rirmikan? Buning ham tanasi og‘riydi. Bular ham yig‘laydi, qiynaladi. Faqat biz tilini bilmaymiz, — deb qovog‘ini osiltirgandi.

Voqea ketidan voqea quvalab, sarobdek tovlanib qo‘l silkitgan sog‘inchli kunlar gavdalandi. Yosh terakning tagida oq ko‘ylagining etagini hilpiratib raqsga tushayotgan go‘zal qiz nozlana-nozlana qochib, tutqich bermasdi...

Asr namozi yaqinlashib qoldi. Qariya uyqudan uyg‘ongandek bo‘lib atrofiga qaradi. Shirin xayollardan ajralgisi kelmadi. “Yopiray, rostdan ham yana qarib qoldimmi?”, deb o‘z ko‘ziga ishonmasdi. Oz vaqtdan keyin beli bukilib, ovulga qarab asta qadamlar bilan kelardi.

* * *

Oqshomga yaqin bir qora sharpa qabriston yonidan chiqib shu tomonga kela boshladi. Qalin va uzun dumli ot mingan, qora kiyimli, vajohatli qora kishi qora soyadek tobora tezlikni oshirardi. Taqimiga bosgan boltaning yuzi yaltirab ko‘rinadi. Yovterakka yaqin kelib, ot jilovini tortdi. Kirtaygan sovuq ko‘zlarining qorachig‘i chaqnab, daraxtga havas bilan qaradi. Quriy boshlagan terakning har yer-har yerida o‘sgan yirik-yirik yaproqlar, shabada bo‘lmasa ham, o‘z-o‘zidan titray boshladi.

— Voh-voh, daraxtmisan daraxt ekan! — deb Yovterakning boshigacha qarab chiqdi. — Qishliq o‘tinga arzir ekan.

Oyboltaning dastasidan qisib ushlab turdi-da, qo‘lini tortib oldi.

— Buni chopib yiqitish uchun bir kun vaqt kerak. Boltam ham o‘tmaslashib qolibdi, charxga tutish kerak. Ma’qul, boshqa kuni kelarman!

U otining boshini orqaga burib, oyog‘i bilan niqtadi. Yovterak jimgina “xo‘rsindi”.

* * *

Oqsoqol Yovterakning tagida o'tirishni odat qildi. Tong otsa, kech bo'lmaydigan, oqshom cho'ksa tong otmaydigan, doimo ta'qib qilguvchi yolg'izlikdan qochganda, albatta, shu yerga kelardi. Bomdod namozini o'qib, choyini ichib olgach, ishdan kech qoladigandek vazmin qadamlar bilan qabristonga yo'l oladi. Shamilaning oldiga borib, biroz vaqtini o'tkazadi. Keyin Yovterakning yoniga keladi...

Qari daraxtning panasidan yoshgina qiz "yarq" etib chiqadi, quchog'ini ochib oldiga intiladi.

— Uff, Ali, ikki yil ikki asrdek bo'ldi-ya!

— Menga ikki ming yildek tuyuldi.

— Harbiy kiyim senga shu qadar yarashar ekan. Barvasta yigit bo'libsan. Mana qara, men hatto yelkangga yetolmayabman...

— Meni sog'indingmi?

Shuni ham so'raysanmi, degandek qiz mo'ltillagan nigohini bir aylantiradi va kiprigini pastga tushiradi.

— Seni o'ylasam, doim shu terakning yoniga kelardim.

— Men ham teragimizni tushimda ko'p bor ko'rdim...

Quchoqlari qo'shilib, gir aylanib raqsga tusha boshlagan yigit-qizga yosh terakning qalin yaproqlari shodlanib qarsak chala boshladi...

Ko'zini ochsa, terakni quchoqlab turgan ekan. Atrofdagi ma'yus, begona dunyoni ko'rishni istamagandek yosh qalqigan ko'zini qayta yumdi... Qora cholning to'nidan sug'urilib chiqqan qora bola yuragi dukillab, uzoq-uzoqlarda izi qolgan nurli lahzalarning izidan yugurib ketdi....

Har kuni shu holat. Terakning tagida o'tirgancha mudroq holatda xayol suraveradi. O'tgan kunlarning unutilmas esdaliklari bilan qayta uchrashgan ko'ngli chor tomonga charx uraveradi. U bunday holatda hozirgi kunini unutib, o'tmishi bilan yashaydi. O'tgan kunlar naqadar taftli, naqadar jo'shqin edi. Mayli, qahatchilik, yetishmovchiliklarni ko'rdi, lekin baribir kamchiliklarga to'la bo'lsa ham, joningga yaqin, sog'inch bilan esga olishga arziydi. Qadrini qir oshib o'tgandan keyin bilib, pushaymon bo'lar ekansan. Xayolingda tirilgan ming bitta xotira o'ziga maftun etib, olam girdobi

sari yetaklaydi. Shirin qayg'u bilan yuragi uvishib, o'zining Shamilasini bag'riga bosadi. Baxtli kunlar va asaldek shirin tunlar. Ilonizi bo'lib ketgan so'qmoq goh pastga tushar, goh nishablik bilan yuqoriga ko'tarib olib ketadi.

Xayolan uchrashgan Shamiladan endi ajralish niyati yo'q. Ilgari tezak yoqilgan o'choq boshida ikkovi to'xtovsiz gurunglashardi. Gap tugamaydi. O'sha kunlarning quvonchi bilan mehri oshar, o'kinchi bilan g'amga botardi. Bir-biridan nafis damlarning qizig'i tugamaydi...

Quyosh ufqqa bosh qo'yganda ko'zini ochdi. "Bu nima, men qayerdaman?" deb atrofiga begonasirab qaradi, yana uzoq o'tirdi. Lekin o'zi bardam, ko'ngli ancha joyiga tushgan. Shamilaning so'zi va kulgisi qulog'ida jaranglab, kaftining issig'i ushlagan yerlarini qizdirib turardi. O'sha issiq nur ko'krakka cho'kkan yolg'izlik va ma'yuslikning ko'm-ko'k muzini eritardi go'yo. Oyoq-qo'li yengillashib, o'rnidan irg'ib turdi.

Hafta o'tdi, oy o'tdi... Bir kuni kelsa, yo qudratingdan, qari terak yana barg yoza boshlabdi. Tang qoldi. O'z ko'ziga ishonmadi. Po'stlog'i muloyimlashib, nim yashil rangga kirgandi. Butalarning hammasida kichkina-kichkina yaproqchalar o'zini ko'z-ko'z qilib turardi. Yaratganning qudratidan hayratlanib, yuragi dukillab quvongancha Yovterakni quchoqlab oldi. Daraxt o'zagidan yuqori ko'tarilgan tiriklik sharbatining shildiri eshitilayotgandek bo'ldi.

Ko'p o'tmay Yovterak ilgari qanday yashnab turgan bo'lsa, yana shunday o'z ko'rkini namoyish etib, atrofga mamnun boqdi.

* * *

Tunov kungi qora kiyimli, vajohatli qora kishi namozdigardan keyin qabriston yonidan soyadek chiqib, yana shu tomonga kela boshladi. Tagidagi qalin yolli qora otini tinmay qamchilardi. Bu gal oyboltasi o'tkirlangan, charxda o'tkirlangan yuzi yalt-yult etardi. Daraxt kesish ishtiyoqidagi qora kishi qora boltasini qulochlab urib, atrofni payraxaga to'ldiradigan zavqli damlarni tasavvur qilib entikardi. Otda yelib Yovterakka yaqinlashdi va otning jilovini tortib birdan to'xtadi. Men qayerga kelib qoldim degandek,

atrofga hayron boqdi. Ro'parada qalin barglari shovillagan, hayotga quvona talpingan yirik terak mag'rur chayqaladi. Yaqindagina qurib, kuchdan qolgan qari daraxt yangi hayot yo'lini topib qaytadan ko'karibdi. Bo'y-bastini ko'rsatib asta tebranadi. Soyasidan shabada yelpib, issiqdan bo'g'riqqan yuzingni silaydi. U qo'liga mahkam tutgan boltani qanday qo'yib yuborganini sezmadi. Nima uchun kelganini ham unutdi. Chunki qiya tushgan quyoshning zarrin nurlarida titrab o'ynagan barglar qandaydir sirli til bilan shivirlardi. Bunga butadan butaga uchib-qo'nib yurgan mitti qushlarning ovozi qo'shilib, yer yuzi bozorga aylanib ketgandek tuyuldi. U: "Hayot, sen naqadar ajoyibsan!" degandek xushqad Yovterakka mahliyo bo'lib turaverdi.

* * *

Oqsoqol vaqt chegarasini yo'qotdi. Faqat eski uyiga kechqurun kelib, sovuq to'shagiga yonboshlashini mustasno qilganda, xayolan bozorli kunlarni maroq bilan eslashdan zerikmadi. O'sha eslashga arzigulik buyuk sog'inchdan baquvvat yosh hayot kurtak otib, ko'ksida daryo bo'lib oqdi. Yovterakdek yana ko'karib, barq urdi. Yurishi bardam, ko'ngli ziyrak, hatto yuzlaridagi ajinlar ham tekislanib, qizara boshladi.

Oqsoqol uyiga kelgandan keyin Vasila har kungidek choy qaynatib, to'garak stolga dasturxon yozdi. Eshikdan chiqaverishda orqasiga qayrilib:

— Tog'a, Qayrat bugun bir mashina pichan olib keldi. G'aramlab qo'ydi, — dedi tog'asini quvontirmoqchi bo'lib.

U "Qayrat kim, qanday pichan?" degandek jiyanning yuziga ma'nosiz boqib turdi-da:

— Ha, juda yaxshi, — dedi beparvo ohangda.

— Yoyilmaning atrofini o'rganda yana bir mashina keltiraman deyapti. Qishga yetib qolar?

— O'zlaring bilasanlar, qarog'im.

Vasila ajablanib qarab, tashqariga chiqib ketdi. "Bu kishi g'alati, — dedi o'ziga. — Bir narsani aytsang, kimga aytding demaydi. Ha, qariganda yolg'izlik oson emas, xolani o'ylab, qiynalib yurgandir. Lekin ko'rinishidan mashaqqatning biror alomati ko'rinmaydi.

Aksincha tetiklashib, soqol-sochining oqi kamayib, yosharib ketganga o'xshaydi".

Ko'zini yumib, kirt-kirt kavsh qaytargan qo'ng'ir sigirni sog'ib, endi turmoqchi bo'lganida, darvozaning qiyshiq tabaqasidan gandiraklab kirayotgan erini ko'rdi. Vasila xo'mraydi. "Boyagi besh yuz tengening boshiga suv quyib keldi, menimcha. Bola-chaqam uchun demaydi, qora tirnog'i qimirlasa, pul so'raydi". "Kuni bilan dalada pichanda yurib, chang yutdim, tomog'im qichishib turibdi, yuz gramm ichmasam bo'lmaydi", deb tinchlik bermadi. Endi tinch yota qolsa bo'ldi.

Sut to'la chelakni qozon yoniga qo'ygan edi, gandiraklab yoniga kelgan Qayrat bir tepib, ag'darib yubordi.

— Quyonchiq! — dedi kelin kuchanib. — Zaharni ichsang, o'z yo'liga ichmaysanmi?

Uning har bir harakatiga hadiksirab qarab turardi. Chunki ko'p marta mana shunday hollarda kaltak ta'mini tortgan. Agar biror nojo'ya harakat qilsa, qochib ketishga shay turardi.

— Padaring... bu chol bizni qul qilib oldi-ku! — dedi Qayrat tishini g'ijirlatib. — Sigirini nega sovasan?

— Voy, oqsuyak! Podshoh avlodi! Sigir uniki bo'lsa ham suti seniki bo'lyaptimi? Sut va qatiqni qayerdan ichyapsan? Og'ilda chichqoq ulog'ing bo'lmagandan keyin nega chiranasan?

— Bu qoqvosh obdon jonimga tegib ketdi, — dedi Qayrat pastroq ovozda. — Hamma ishi bizga qolgan. Bugun uzzukun pichanini g'aramlab, bo'larimcha bo'ldim.

— Aroq ichganda qaysi pulimga ichyapman demaysanmi, ha?

— Tunov kuni sigirini buqaga olib borganman...

— Eh, juda qattiq qiynalgan ekansan-da, sho'rlik! Anavi alkashlaring o'rgatib yubordimi? Ishlayotgan bo'lsang, tekinga ishlamayapsan. Har bir harakating — pul. Hanifa hammasining haqini to'layapti. Bu kamdek qizing uning uyida turibdi, o'qitayapti. Ana shu yaxshiliklarni nega nazaringga ilmaysan? Agar uyalsang, hamma erkaklarga o'xshab ishla, bizni ta'minla!

— Qanday qilib? Mening molim, traktorim bormi?

— Ularda nega bor, senda nega yo'q?

— Ey, padaringga... sen xotin, jo'rttaga asabimga tegma. Tiling o'sib qopti-ku sening. Chaqqon tilingni tagidan sug'urib olaman, aptibo'shamayt! — qo'lga ilingudek bir narsa izlab yerga engashganda, voqeaning nima bilan tugashini biladigan kelin darvoza tomonga quyondek zipilladi. Uyga qaytib kirmadi. Yettinchi sinfga ko'chgan o'g'li: "Dadam uxladi", deb quvonchli xabarni yetkazguncha ko'chada yuraverdi.

Ikkovi tez urishadi, tez yarashadi. Ayniqsa, Vasila kechirishga moyil. Eri sal iliq muomala qilsa, bas, chehrasi ochilib, gaplashib ketaveradi. Hamma gina, arazlar shu bilan tugaydi.

Ertalab nonushtada er-xotin hech narsa bo'lmagandek bemalol gaplashib o'tirdi:

— Qayrat, sen sezasanmi, tog'amning yurish-turishi g'alati bo'lib borayapti, o'zi ham yasharib ketganga o'xshaydi.

— Yasharsa, uylanay deb yurgandir, — dedi Qayrat bo'yniga tashlab olgan oq sochiqning uchi bilan peshonasidagi terlarni artib. — "Kampiri o'lgan choldek o'ynoqlab" naqlini qozoq bekorga aytmagan.

— Bo'lmag'ur gaplarni aytma. Tog'am undaylardan emas.

— Bunday emasligni qayerdan bilasan? Ichiga kirib chiqdingmi? Hozir chollar quturgan zamon!

— Gunohkor bo'lma. Tog'am namoz o'qiydi. Taqvodor. Shayton yo'rig'idagi chollar bilan solishtirma!

— Yo biror-bir juvonga borib yurgandir!

— Bas! — dedi Vasila achchiqlanib. — Og'zingdan bitta ham yaxshi so'z chiqmaydi!

U jahl bilan o'rnidan turib ketdi.

* * *

Oqsoqolda yuz berayotgan mavhum o'zgarishlar tashqaridan kuzatib turgan ziyrak nigohlarning e'tiboriga tushdi. Ikki xo'roz urushsa ham, ikki kun aytib yuradigan, qiziq voqealarga havasmand ovulga Xudoyim kutilmagan sovg'ani osmondan tashladi. Oqsoqol haqidagi gap-so'zlar ovulni tutdi. "Qurib turgan pichanga o't yoqqan" ovul podachisi Ergashboy ko'sa edi. Har kuni qabriston tomonga sigirlarni haydab ketayotganida Alixon oqsoqolning

daraxtni quchoqlab, yig'lab turganini ko'rar ekan. Bir kuni qalin qamishlarning orasidan borib tinglasa, kampirining ismini aytib, zorlanib "Jonim-m-m!" deb g'o'ldirarmish. Buni ko'rib cholga jin tegibdi, deya qochib qolibdi. Keyin o'zidan biror gap qo'shib, hatto "Daraxtni "Xotinim!" deb quchoqlab turganini o'z ko'zim bilan ko'rdim", deb aytib qoldi. Bundan keyin odamlar xayoli yetguncha o'zgartirib, qo'shib-chataverdi:

— Astag'firulloh, har kuni quchoqlayvergach, qurib qolgan daraxt yana ko'karib ketibdi.

— Yopiray, bu chol o'sha daraxtning tagida pari bilan uchrasharmish. O'tirg'ich va echkining qurigan terisini olib borib qo'yibdi. Ikkisi shu yerda quchoqlasharmish.

— O'zi ham quvnab, tobora yasharib ketyapti. Har kuni qabristonga ketayotganini ko'rib, "Nima qilsin, boyoqish, kampirini sog'inadi-da", deb yursak, gap bu yoqda ekan-ku!

— Do'stim bizdan ajralgandan keyin shu holga tushdi, — dedi Abdulxay ta'ziyaga yig'ilgan chol-kampirlarning orasida o'zini ko'rsatib. — Qariganda ibodat qilaman dedi-ya. Biz kabi "yuz grammlab" yuravermaydimi?! Tunov kuni uchratib qoldim. Odam tanimaydi. O'zidan o'zi kulib, dalaga qaraydi. Shunda mening yuragim sezgandi. Jinni bo'lib qolgan ekan-da!..

* * *

Bir kuni odatdagidek Yovterakning tagiga kelib o'tirgan oqsoqol uxlab qoldi va qayta uyg'onmadi. Birdan shamol boshlandi. Bir nimadan cho'chigandek duv ko'tarilgan bir gala qush tepada aylanib turib qoldi. Boshini chayqab yig'lagan Yovterakning ko'z yoshidek sariq yaproqlar oqsoqolning ustiga chitir-chitir benavbat to'kilaverdi.

NURDAULET AQISH

(1950)

Nurdaulet Aqish 1950-yil 15-iyunda Sharqiy Qozog'iston viloyatining Tarbag'atay tumanidagi Mang'iraq ovulida tug'ilgan. 1973-yilda Abay nomidagi Qozoq davlat pedagogika institutini tugatgan.

"Yashirin izlar" (1980), "Indamas o'g'il" (1982), "Olisdan kelgan kabutar" (1984), "Siniq do'mbiraning sozi" (1986), "Ertalabki dovul" (1987), "O'zgacha yoz" (1989), "Yotoqxona qizlari" (1990), "O'g'ri qizning taqdiri" (2001), "Oltinbek" (2003), "Bemavrid olov" (2010), "Sodda qiz" (2011), Ikki jildli tanlangan asarlari (2011), "Qozoq nasrida qatag'on mavzusi" (2005), "Qozoq memuar romani" (2011), "Zamon ruhi" (2014), "Shafqatsiz bahor" (2016), "Muhabbatga vido" (2019), "Altinsarin olovi" (2021) va boshqa kitoblari nashr etilgan.

BEMAVRID OLOV

— Oqsoqol, ozgina sabr qiling. Tugataylik manovi gapni, — dedi Mahmud.

Lekin chol qayrilib qaramadi. Otga qamchini bir tortdi-da, bo'rt-bo'rt etib ketaverdi.

— Ana, ko'rdingizmi, — dedi vakil qiz Mahmudga qarab. — Yoshi ulug' deymiz, hurmat qilib, past ketamiz. Oqibat esa mana shunday.

Kirza etigining uchi bilan yerning yuzasiga allaqanday tasvirlarni chizayotgan, qorachadan kelgan, puchuq burunli yigit boshini ko'tardi.

— Bekorga ovora bo'lib nima qilasizlar? Xohishi bo'lmasa... yarashgisi kelmasa, o'zi bilsin, — deb yon-atrofiga qaradi.

Oddiy cho‘ponning iltifotsiz ketganiga ozgina jahli chiqqan Mahmud charm nimchasiga yuqqan tuklarni tushirdi, sun’iy tishlarini yarqiratib jilmaydi:

— Ketsin... ketaversin... yetgan yeri shu boyoqishning. Nachora, endi majlisda ko‘rishga to‘g‘ri keladi.

Jahli chiqib, to‘xtamay gapiray deb turgan ovul hokimiyatidan kelgan vakil qiz Bolshakar:

— Mana, o‘zingiz ham ko‘rdingiz, Mahmud og‘a. Har kelganingizda, shunday urush chiqarib yuradi. Hukumat hamma yaxshilikni boshqa xo‘jaliklarga qilib, faqat Oqilbek og‘adan ayab o‘tirganga o‘xshaydi. “Ahvolim nochor, yem-xashak yetmayapti, u narsam yo‘q, bu narsam yo‘q”, deb yig‘lab yuradi. Endi kelib o‘zining farzandi qatorilar bilan talashgani nimasi?! Aksincha yoshlarga o‘rnak bo‘lib, yo‘l ko‘rsatsa bo‘lmasmi? Men o‘zi bilan boshqacha gaplashar edim, attang, oldingi zamon yo‘q. Har bir xo‘jalik alohida...

Mahmud ko‘zoynagining qoramtir oynasini ro‘molcha bilan surtib, qayta taqdi. Ingichka mo‘ylovini shoshilmasdan siladi. Vakil qizni ovutdi va:

— Ikkimizning maqsadimiz: qo‘l ostimizdagi odamlarni urishtirish emas, Bolshakar, topishtirish. Ammo oddiy mehnatkash xalq bilan aytishmaslik kerak, — dedi qat’iy gapirib.

— Nega, Mahmud og‘a?

— Sababi ular kun-u tun tinim bilmasdan, mehnat qilib yuribdi. Ular sen ikkimiz tushunganday tushuna olmaydi. Mana shu dala, shu qo‘ydan boshqa nimani ko‘radi ular? Sen ikkimiz hozirgi Oqilbek oqsoqolni, shuningdek, Kabenni madaniyatga o‘rgatib, tarbiyalashimiz kerak. Mayli, bularni qo‘yaver, Bolshakar, sen hali yoshsan. O‘qib-biladiganing, o‘rganadiganing oldinda. Men bo‘lsam... o‘qigan, bilimli, aqlli, erudirovanniy ziyoliman. O‘ylab ko‘r... Mendek ziyoli, ulug‘ odamning allaqanday cho‘pon bilan aytishayotgani. Bo‘lmaydi bu.

— Voy, boshqasini qo‘yavering, Oqilbek og‘a hozirgina sizga ham gapirib tashladi-ku. “Bular meni deb kelgan-ku, iltifot ko‘rsatay”, degan fikr umuman yo‘q. Maslahat bergan biz ham bir, onasi-

ga qarab vovillagan it ham bir bo'ldi. Shunchalik ham bo'ladimi? Attang, oldingi zamon yo'q...

— Voy, Bolshakar, aytdim-ku hali yoshsan deb. Ular kichkina odamlar. Bizning tengimiz emas... O'zimizdan past oddiy odamlarning xatosini kechira olaylik, bu janjalning esa sababi boshqa. Cho'pon bilan urushib o'tirgan ham — cho'pon, ya'ni, bir kasbning, bir maqsadning kishilari... Xususiy xo'jaliklar.

Uzoqdagi Jang'izto'be yaylovida bo'lgan favqulodda voqea tuman qishloq xo'jalik boshqarmasining bosh mutaxassisi Mahmud bilan "Mang'iraq" ovuli hokimining o'rinbosari Bolshakarni shu yerga boshlagandi.

Atrofi qir-adirli, chiroyli bu manzilda "Jilanboy" chorva xo'jaligi joylashgan. U ham xo'jaliklar uyushmasi. Bu yerda xo'jalik a'zosi Kaben va azaldan cho'ponlik bilan mashg'ul bo'lgan Oqilbek bilan so'z talashib qolgan ekan.

Voqea bunday bo'lgan.

Kaben bahorning go'zal tabiati va qo'zi-uloqlarni tomosha qilib o'tirgan. Xayolida hech narsa yo'q, oftobga yuzini qaratib, tranzistorini tinglardi. Birdan dukillatib chopib Oqilbek oqsoqol yetib kelgan. Kela solib hech narsaga qaramasdan:

— Nega mening yerimga yoyasan? — deb achchiqlanadi.

Mol boqishda tuzukroq tajribasi yo'q, yuvosh yosh yigit sababini aytib, o'zini arang himoya qiladi.

— Nahotki, boshqa yer qurib qolgan bo'lsa?! Janubga qarab hayda.

— U yoqda — chegara, borishga bo'lmaydi.

— Nega bo'lmas ekan? Men zastapning yonida ham o'tlatganman. Bularning bari yalqov. Erinasanlar borishga.

— Unda o'sha tomonga o'zingiz yoying.

Fe'li juda jahldor kishi aytilgan bu so'zni qaydanam quloqqa ilsin. Yoyilib ketgan mollarni chetidan yugurib hayday boshlagan. Kabenni ham qo'shib so'kibdi. Shu paytda xo'jalikning yana bir a'zosi kelib qoladi. Oqilbek yo'liga ko'ndalang turib olgan Kabenni uning ko'z oldida qamchi bilan urgan. "Qani ishlaringni qillaring. Senlarni qo'lingdan nima kelishini ko'rarman". Otasiday odamdan bekorga kaltak yegan yigit ortiqcha harakatga bormasdan, sabr

qilib qolavergan. Lekin bo'lgan xabarni eshitib, jahli chiqqan — xo'jalikning boshqa odamlari. Uyushma boshliqlariga xabar bergan ham shular.

Oqilbek oqsoqol bolaligidanoq cho'pon tayog'ini ushlab, umrini qo'yga bag'ishlab kelayotgan tajribali chorvador. Bu atrofda molning holini undan ortiq biladigan odam yo'q desa ham bo'ladi. Qo'y desa ichgan oshini yerga qo'yadigan molparvar cho'pon. Oldingi davrda ham uning otari boshqalarnikiga qaraganda yaxshi bo'lgan. Lekin qo'zilatishda haddan oshgan emas. Yuz sovliqdan yuz qo'zi olardi. Qishdan molni omon olib chiqish bo'yicha ham peshqadam edi. Jamoa xo'jaligi tarqatilib, mustaqil bo'lgandan keyin ham hech bir uyushmaga qo'shilmasdan, alohida xususiy xo'jalik sifatida qo'lida bor ozgina qo'yini boqib yuravergan.

Qo'ydan boshqaga qiziqmaydigan Oqilbekning yana bir o'zgachaligi — ichkilikni og'ziga olib ko'rmagan, qishloqdan hech qachon chetga chiqmagan, mehnat ta'til deganni bilmagan. Hech kimga quloq solmaydigan mehnatkash va o'jar kishi bilan el-yurtning ham ishi yo'q. Moliga ham, o'ziga ham mahkam, umri bir maromda kechayotgan cho'ponga xo'jalik, ferma boshliqlari ilgarilari ham e'tibor berishmagan. Endi, o'zi bilan o'zi yurgan odamga hech kim ham yo'lamaydi. Balki shuncha cho'pon birin-ketin olayotgan orden, medal, maqtov qog'ozlarining bunga buyurmagani shundan bo'lsa kerak.

— Hoy, Kaben, sen menga qara! — ziyoli odamga o'xshab ovozini cho'zib gapirdi Mahmud. — Qari cho'pon kechirim so'ramadi deb xafa bo'lma. Butun umrini mana shu joyda o'tkazib kelgan, o'zi yarim yovvoyilashgan odam, madaniyatni qaydan bilsin. Madaniyatsiz, nodon bo'lganiga Oqilbek otang ham aybdor emas. Ammo yig'ilish qilib, u kishini senga bosh egdiramiz. Hozir esa og'zingni ochib qarab turma. Xo'jaliklaringga har kuni kelayotganimiz yo'q. Bizning yaxshilab dam olishimiz uchun biror narsa uyushtirib yubor...

— Dam olish deysizmi? Bizning ovulga qarashli bo'lsa ham, bu xususiy xo'jalik. Bizning aytganimiz qanday bo'lar ekan? — dedi Bolshakar kichkina ko'zlarini pirpiratib.

— Hech narsa qilmaydi. Mas'uliyatni o'z gardanimga olaman. Tuman rahbarlarining hammasi meni taniydi, biladi... Bizga o'xshagan bilimli kadrlarni el hurmat qiladi. Men rezervda turgan odamman. Shuncha bilimni o'zi uchun yig'ayapti deb o'ylaysanmi? Mana shu xalq uchun, yurt kelajagi uchun. Direktorlikni qo'yib turaylik, bizga o'xshagan yigitlarni tuman, viloyat miqyosida ko'tarishayapti. Tak chto, men yurgan joyda hammasi yaxshi bo'ladi, singlim...

Xo'jalikning barcha qo'ralarini shoshmasdan aylanib ko'rgan boshqarmaning bosh mutaxassisi yoshlarga maslahat berishni kanda qilmadi.

Ishdagi yoshlarni erinmay tekshirib qattiq-qattiq gapirib yurgan ziyoli yosh yigit endi bir alohida xonada o'zini erkin tutmoqda. Charm nimchasini ilgichga ilib, galstukni bo'shatib qo'ygan. Hozir uning yoqasi — yaylov, ko'kragi — qishlov.

— Mahmud og'a qiziq ekan, — dedi Kaben yoniga kelgan Bolshakarga. — Menga dam olishni tashkil qilgin deydi. Bizga hech kim unday demagan.

Ikki-uch yigit uyga palos olib kelayotgan. Yonlarida yurgan erka, kichkinaroq sariq qiz Bolshakarning gapini iltifotsiz qoldirmadi.

— Mahmud og'a — intelligent odam, — dedi qiz birdan javob berishga shoshmay. — Intelligent degan kim ekanligini bilasanmi o'zlaring?

— Bilamiz... Galstuk taqadigan kishilar, — deb qoldi Sherizod ismli yigit hazil-chini bilinmas ohangda.

— Tak, bilasanlar. O'zi o'ttizdan endigina oshdi. Yosh bo'lib tuman bo'yicha, chorvachilik bo'yicha yetakchi mutaxassis. Osonmi shu?

— Pishiq bo'lgandan keyin qo'yganda.

— Pishiq bo'lmaganda-chi... Bilasizlarmi, Mahmud og'a rezervda turgan odam. Hozirning o'zida xohlagan xo'jalikni boshqarib keta oladi. Ishi charchatadi-ku. Ozgina dam olsa nima qilibdi?

— Qanday zo'r gapiradi o'zi... — deb gap boshlagan Kabenning so'zini Sherizod bo'lib yubordi:

— Hey, sen qiz... O'sha intelligent og'angning boshini aylantirib yurgandan omonmisan? Juda ko'p maqtading. Hali uydagi kelinoyiga aytib yetkazmasam.

Bolshakar bunday qo'pol hazilni sabr bilan tinglab, chidab turadiganlar sirasidan emas, qoshlarini chimirib hazilkashning adabini berdi:

— O'zing xo'jalikning faol a'zosisan, og'zingga kelganni aytasan. Esingda bo'lsin, men bunday hazilga yo'l bermayman. Og'aning qanday inson ekanini bu yerdagi hamma biladi.

— Rost, — dedi Kaben boshlagan o'yini yakunlab. — Hozirgi aytganiga... hayron qoldim... shunday ajoyib odam ekan. Biz bilmaydigan qancha so'zni aytdi... Og'zimni ochib qoldim...

Jang'izto'be deb ataladigan bu makon bir necha xo'jalikning boshini qo'shgan.

Soy boshidan shildirab oqqan buloqning tagida sanoqli uylar tarqoq joylashgan.

"Jilanbay" chorva xo'jaligi qishloqning quyi qismida joylashgan bo'lsa, cho'pon Oqilbekning yeri buloq suvining narigi betida, alohida. Xo'jalikdagilar kunduzgi ishlarini bitirib, kechki dasturxonga yig'ilganlarida ham qari cho'pon qorasini ko'rsatmadi.

— O'sha qaysar kishi keladi deysanmi, — dedi Bolshakar. — Vallomat bo'lsa ham unday odamni osongina yo'lga solar edim. Attang, burungi zamon emas...

— Balki, Oqilbek og'a bizlarni o'zi kelsin deb o'tirgandir, — dedi boyagi hazilkash yigit Sherizod. — Hammamiz o'rnimizdan turib uning uyiga boraylik. Bir qo'zining kallasini yeb kelamiz.

— Ha, debsan! Qishda qor so'rab olasanmi undan? Xasis odam, yeysan, — dedi yana bir yosh cho'pon.

— Oqsoqolni bekorga g'iybat qilavermanglar. Yetar, — deb o'zgacha fikr aytganlar ham topildi. — O'z ishiga pishiq odam. Kabenni urdi deb, yomon otliq qilib bo'ladimi? Kabenning o'zida ham ayb bor.

— Qanaqasiga? — dedi Mahmud.

— Og'ang mol desa, ichgan oshini yerga qo'yadi. U uchun o'lishga tayyor. "Og'a, sizniki to'g'ri" deb, qo'yini haydab ketavermaydimi? Cholning oldida gap qaytarib turgandan ko'ra.

Yig'ilganlarning nazari to'rda o'tirgan muloyimgina shirinsuxan og'ada. Oqilbek og'a haqida har xil gaplarni aytib qizdirib o'tirgan ham shu. Hammaning ham yodida qolmaydigan hazillarning turlisini aytadi. Bilimli ekanligini ko'rsatadigan qulay vaqt ham hozir. Kadrlarni juda yaxshi o'rganganmi, har bir boshliqning hayotini, tanish-bilishini yoddan aytadi. Shuning barini qachon bilib ulgurgan? Bolshakarning boyagi gapi esiga tushgan Kaben:

— Naqadar bilimdon! — deb hayratini yashirmasdi. — Chindan ham. Shu kishilarning hammasini o'zi ishga olganga o'xshaydi.

Birovning o'sgani, birovning o'chgani yoki qaysi boshliq kim bilan iliq munosabatda ekanligi yosh cho'ponlarga kerakmi-yo'qmi, Mahmud xayoliga keltirmasdi.

Hamma kutgan odam ayni ovqat ustiga keldi. Yuzlari mushtdekkina, kirtaygan ko'zlari sovuqqina boquvchi, yoshi yetmishlarga kelgan kishi. Yoshlar iltifot ko'rsatib, to'rga chaqirsa ham osonlikcha egiladiganga o'xshamasdi. Qoshini chimirib o'ziga berilgan kosani indamay qo'liga oldi. Birdaniga noqulay vaziyat tug'ilganini sezib yig'ilganlar jim bo'lib qoldi. Faqat boyadan beri gapirib o'tirgan Mahmud gapirishdan to'xtamadi. Kelgan kishiga ahamiyat bermagandek gapini davom ettirdi.

— Og'a, — dedi saldan keyin chiday olmagan Bolshakar. — Yig'ilishni nima qilamiz? Vaqti o'tib ketayapti... Oqilbek og'a ham keldi...

— Kelsa, kutib tursin. Hamma ovqat ichyapti.

— Hoy, Mahmud! — dedi oqsoqol kosasini oldiga qo'yib. — Senlarga o'xshab bekor yurganim yo'q. Gaping bo'lsa ayt shu yerda, cho'zma. Bo'lmasa, katta ketib boshimni qotirmanglar.

— Og'a, ozgina sabr qilib, ehtiyot bo'lib gapiring. Siz ko'pning oldida o'tiribsiz. Baqiraveradigan biz sizga yuvosh mol emasmiz. Qo'yni qo'raga qamab kelgan bo'lsangiz, endi qayerga shoshasiz? Bugungi ish bitmadimi?

—"Bugungi ish bitdi" deydi! Ishni tez bitirishini-ya! Molning ishi bitarmidi? U sening mana bu galstuging emas, kuni bo'yi taqib yurib kechga tomon ilib qo'yadigan, — deb Oqilbek piyolani ag'darib qo'ydi va qamchisini qo'liga oldi. — Aytadigan so'zlaring bo'lmasa bekorga boshni qotirmanglar.

Ana xolos! Bu kishi tumandan kelgan bosh mutaxassisga ham osonlikcha bosh egmaydi. Hamma narsaga tayyor, qotib turib oladiganga o'xshaydi:

— Sen boshqa ishni qo'yib tur. Yer janjalini hal qilasanlarmi, yo'qmi, shuni ayt menga... Boshqa fikrlaringni keragi yo'q.

O'z qadrini biladigan odamday, Mahmud hali ham shoshmasdi. Qandaydir bir cholning yetoviga yurishga g'ururi yo'l qo'ymasdi. Lekin o'tirganlarni qoniqtiradigan javob aytolmadi.

— Oqsoqol, yaylov masalasi hozir hamma joyda qiyin. Hamma o'z yerini xususiylashtirib olgan. Bu masala bo'yicha partiya bilan... yani, hukumat bilan haligi nima... qishloq xo'jaligi ministrligi kerakli tadbirlarni ishlab chiqmoqda. Yaylovlarning hammasi bo'linib qo'yilgan. Uning ustiga bizning tuman chegarada joylashgan...

Shu payt eshik tars etib ochildi, xo'jalik a'zosi, yoshgina qiz shoshib kirib keldi. Majlis bo'ladigan yerga bostirib kirish odobdan emasligini esdan chiqargandek.

— Og'a... og'a, — dedi u ko'zlari ola-kula bo'lib, nafasini bosa olmay. — Anavi yoqda... anavi yoqdan bir... yong'in ko'rindi.

Tund qiyofada o'tirganlar hech narsaga tushunmasdan tashqariga qaradi. Kimdir qayta so'ragandan keyin, qiz xabarni shoshib qaytadan aytdi:

— Anavi yoq yonayapti deyman, yong'in... yursangiz-chi!

Hozirgina Oqilbek oqsoqol kelishi bilan oldiga qo'yilgan issiq qovurdoq ham, bug'i chiqayotgan samovar ham, gapirilayotgan masala ham qoldi. Yonboshlab yotgan Mahmud yelkasini ko'tarib:

— Kimdir borib bilsin, — degan edi, o'tirgan yoshlarning hammasi o'rnidan turdi. Harakati chaqqon qari cho'pon ham lip etib turib ketdi.

Birozdan keyin qora yigit Kaben qayta kirib:

— Og'a, yuring, o'zingiz ko'ring, — dedi xavotirlanib. Bosh mutaxassis osonlikcha qo'zg'alish xayoli yo'q edi, o'rnidan sekin qo'zg'alib:

— Attang, salqin tegib qoladigan bo'ldi! — deb charm nimchasini yelkasiga ildi. — Nega shuncha hovliqasanlar?

— Ana, tepalikning ustida...

— Voy, singlim-ey, anavi yerda deganing qani? Qishloqning sharqidan ko‘rinyapti-ku.

— Men shu tepalikni aytdim.

— Yo‘q, u bo‘lmaydi, “anavi yoq” deb, chegara tarafni aytadi, — dedi Mahmud.

Endigina botib borayotgan bahor quyoshi atrofidagi patsimon bulutlarni qizil rangga bo‘yagan edi. Quyoshga qarama-qarshi tomonda, ovuldan ikki-uch chaqirim naridagi tepada lovullagan o‘t ko‘rindi. Yo pasaymaydi, yo kuchaymaydi, bir xilda lovullab ko‘rinadi.

Eshik oldida yig‘ilgan yurt bu kutilmagan hodisaning sababini bila olmay hayron. Sababi, u yerda hozir odam yashamaydi. Ovulning bir-ikki katta yoshlilari ham yoshlarning oldiga kelib qo‘shilishgan ekan. Mahmudning uydan chiqqanini ko‘rib:

— Maxa, tumandan kelgansiz, balki, bu yong‘inning sababini siz bilarsiz, — deb unga yaqinlashdi.

Ko‘zoynagining qoramtir oynasini artib, qayta taqqan Mahmud:

— Yaqin atrofdagi odamlar bo‘lsa kerak o‘t yoqqan, — dedi.

— Qanday odamlar? U yoqda hech kim yo‘q, bo‘sh turgan yerlar emasmi?

— Balki o‘ynab yurgan shu ovulning bolalaridir...

— Bolalar u yoqda nima qiladi? Nima bo‘lsa ham bu bemavrid yong‘in... Bekorga emas, — deb qoldi Oqilbek oqsoqol.

— Chegaradan o‘tgan shpion bo‘lmasin tag‘in. O‘t yoqib, ovqat pishirib o‘tirgan, — dedi hazilkash Sherizod qarab turmay.

Hamma har xil fikr aytib, so‘z ko‘payib ketgan paytda:

— Bas, yetar! Bekorga valdirab turavermay, otga mininglar! Hoy, Sherizod, sening to‘riq ayg‘iring qayerda? Ortimizdan yur, — dedi Oqilbek oqsoqol.

Yong‘in tarafga qarab turgan yoshlarning hammasi:

— Qani, ketdik. Nima bo‘lganini bilaylik, — deb chiqib ketishdi.

— Hoy, to‘xtanglar! — dedi Mahmud. — Bu senlarga o‘yinchoq emas. Qanday yong‘in ekanini kim biladi? Bu yer — oddiy joy emas, chegara atrofi bo‘lsa. Quroli bor dushman bo‘lsa-chi? Bo‘sh qo‘l bilan borib nima qilmoqchisizlar?..

— Voy, og‘a, siz ham gapirasiz, — dedi Sherizod. — Shpion bo‘lsa qishloqqa qarab o‘t yoqib turadimi? Men boya hazil qilib aytdim.

— Rostdan ham ehtiyot bo‘lish kerak, — deb Bolshakar ham bir og‘iz so‘z aytdi.

— Mayli, chegara buzishga kelgan bo‘lmasa ham, balki dalani yoqmoqchi bo‘lgan dushmandir. Qayerdan bilasan?.. Balki ichkilik ichib, chekib olgan tartibsizlardir. Qora niyatli kishilarning qo‘liga tushsang o‘ngdirmaydi. “Ketdik” degan so‘zga uchib hammang. Yosh bola emassanlar, ehtiyot bo‘lish kerak... uning ustiga hozir majlis bo‘lyapti, qo‘yinglar!

— Hoy, Mahmud! — dedi Oqilbek jahli chiqib. — Bolalarning boshini qotirma. O‘zing aytib turibsan, dalani o‘rtaydi deb. Usiz ham yaylov yetmay janjal chiqyapti. Shunday vaqtda bor yaylovdan ayrilib qol demoqchimisan? Menga kigiz, kurak topib beringlar. Yeydigan balo bo‘lsa, yomon cholni yesin.

— Oqsoqol, yig‘ilish dedim-ku sizga.

— Buni qara! O‘zing aytganday yerimizni birov o‘rtamoqchi bo‘lib turgandami?

— Og‘a, to‘xtab turing, — deb Sherizod ham otiga qarab yugurdi. Qiziq ko‘rgisi kelgan yoshlarni hech qanday so‘z bosa olmadi. Mahmud bilan ikki-uch kishigina qoldi. Uning biri — yaxshi ko‘rgan og‘asini tashlab keta olmagan vakil qiz. Hech narsa qilmay qarab turishga uyaldimi, mashinasi tomon yurdi. Qolgan uchtasi ham orqasidan bordi.

— Maxa, meni ham olib keting, — dedi ovulning odami yoniga kelib.

— Siz qayerga borasiz?

— Qayerga bo‘lardi, yong‘in ko‘ringan joyga bormaymizmi?

— Kechirasiz. Bizning ishimiz undan ham zarurroq. Boshqa joyga boramiz.

— Ha, shundaymi?

Kichkina ovuldagi pochta bo‘limi bu vaqtda ish kunini tugatib, eshigiga qulf osilgan bo‘ladi. Pochta boshlig‘ini uyiga borib olib kelishga to‘g‘ri keldi. Mahmud telefoni orqali tezda okrug, tuman markazi bilan bog‘landi. Tegishli idoralardagi mas’ullar

bilan qisqa-qisqa gaplashdi. Jang'izto'be yonida bo'lgan voqeani yetkazdi.

— Ancha-muncha ko'rinib turibdi. Nima bo'lganini bilmaymiz!.. Bu yerdagi odamlar mening so'zimga kirmasdan ketib qoldi. Ular uchun endi men javob bermayman... Tezda chora qo'llangizlar. Uy o'rnidek joy. Kun ham kech bo'layapti. Bu yerda o'zimdan boshqa rahbar yo'q. Odamlarni to'xtatishga harakat qilyapman. Ba'zilar itoat etishni xohlashmayapti... Har holda boshchilik qilyapman... Zastavaga zudlik bilan xabar beringizlar.

Markaz bilan gaplashganda o't o'chiruvchilarni chaqirishni ham unutmadi. Agar yong'in kuchaysa, yaylovdan quruq qolish xavfi borligini ham aytdi.

— Og'a, — dedi Mahmudning yonidan qolmay yurgan Bolshakar. — U o't chindan ham hozirgi kishi aytganday bo'lsa, nima qilamiz?

— Qanday?

— Birovlar yoqib tashlab ketgan o't bo'lsa?

— E, bo'lsa, bo'laversin. Qayta yaxshi emasmi? Anavilar borib o'chirishadi.

— Qaydam?.. Bekorga shuncha kishini ovora qilib uyat bo'lmasin deyman.

Shu payt tashqarida turgan haydovchi shoshib kirib:

— Maxa, haligi yong'in...

— Ha, nima yong'in?

— Yong'in yo'q bo'lib ketdi...

* * *

Ovulning hovliqma bir-ikki yigiti yong'inni ko'rishi bilan, mototsiklga qarab chopdi. Toshloq yo'lda mototsiklning balloni yorilib, ular ham traktorga minib oldi.

Tepa tomon borayotgan odamlar ancha. "Ho-hozirlab" ikki-uch itni ilashtirib chiqqan — Oqilbek oqsoqol. Hech kimning xayoliga kelmagan narsa. Guruhning eng oldida kelayotgan ham — o'sha itlar. Ular qozoqi um yoki tozi emas. Shaharliklar juda qadrlashadigan zotdor itlarga ham o'xshamaydi. Ovul ichida tentirab yuradigan itlar. Lekin it degan nomi bor, ko'ngilga taskin.

Ulardan keyin toshlarni otib, otda chopib kelayotgan ikkisi — Oqilbek bilan Sherizod. Yosh yigit minib olgan to'riq ayg'ir — qishloqdagi eng sara otlarning biri. Egasi vaqti-vaqti bilan jilovini bo'sh qo'yib yuboradi. Boshqa otlar sal orqada kelishardi.

Kechki toza havoni bulg'ab, tutun chiqarib kelayotgan ko'k traktor ham ularga yetib qolibdi. Tirkamasi chayqalib-chayqalib ketadi. Tekis yerga kelganda kuchanib oladi. Shu paytda tirkamada o'tirganlar:

— Hayda, hayda, bos, o'z! — deb chuvillashadi.

Shu tariqa bu yurish traktor va chavandozlarning musobaqasiga o'xshab ketardi.

Tepalikka yaqinlashgan sari haligi o't ham aniq ko'rina boshlagan edi. Lekin qanday yong'in, nima yonayotgani hali ma'lum emas. Aniq bir narsani aytish mushkul edi.

Traktor o'z yo'lidan, otliqlar esa qiyaliklan tepaga qarab yurdi. Eng oldinda kelayotgan Sherizodning:

— Voy, qayerga ketdi, a? — degan ovozi eshitildi.

Hamma yuqoriga yalt etib qaradi.

Boyadan beri yonib turgan o'tning o'rni hech narsa bo'lmagandday tinch. Ozgina to'xtab, hayron bo'lib qolgan otliqlar oldinga qarab borardi. Oqsoqolning itlari ham o'zlaricha bir nima topa oladiganday butalarni timirskilab, vovillab yuribdi.

Haligi o'tning yo'q bo'lganini o'ylab kelayotgan otliqlar tepalikning ustiga chiqdi. Traktor esa pastroqda kutib turibdi.

— Ana, qaranglar! — deb baqirdi Kaben.

U ko'rsatgan tarafga hamma yalt etib qarab, bir ovozdan:

— O', o'! — deyishdi.

Olov endi boshqa joyda gurillab yonib turgan edi. Ikkinchi bir tepalikning boshida. Yaqin joyda, otliqlar turgan tepalikning ancha pastrog'ida. Kun botayotgani sababli yong'in boyagidan ham kuchliroq ko'rinardi.

— Bu nima, jinmi, shaytonmi? — dedi chidamsiz Sherizod ayg'irining jilovidan tortib.

— Chindan ham jumboq. Qanday o't? — deyishdi o'zgalari ham hayron bo'lib. Shundan keyin hammasi birdaniga burilib, Oqilbek

oqsoqolga qarashdi. Oralarida butun umrini dalada o'tkazgan, tajribasi ko'p bo'lganligi sabab, undan qandaydir gap kutishdi.

— Hey, nimaligini bilmayman, — dedi Oqilbek haligi yorug'lik tarqalayotgan tomonga kirtaygan ko'zlarini qadab. — Qirq besh yil qo'y boqsam ham, bundayini ko'rmaganman. It bilsinmi nima ekanligini?

— Balki, shaytondir?..

— Ehtiyot bo'lib gapir, Kaben. Vakil qiz buni eshitsa, o'ngdirmaydi. Hammani qo'rqitdi deb yig'ilishda aytadi hali, — dedi hazilni qo'ymaydigan Sherizod.

— Balki NUJdir.

— U nima yana?

— NUJ! Osmondan tushadigan likopcha.

Ajablanarlisi shuki, Oqilbek oqsoqol shu yoshgacha "Xudo" degan so'zni og'ziga olgan emas. Yo'qdan boshqaga sig'inish, irimga ishonish uning tabiatida yo'q narsa.

— Yonayotgan bir narsaning bo'lmaganligi yaxshi bo'ldi. Manavi butalarga o't tegsa, osonlik bilan bosiladimi? Qani, turmaylik, — deb ishga kirishdi. — Sherizod, Kaben men bilan yursin. Traktorni tekislikka tushir, bu yog'iga yura olmaydi, unga mingan yalqovlar tushib, o'zlari borishsin. Bir martaga chotlari ayrilib ketmas. Attang, shoshib chiqib durbin olmaganimizni qara-ya. Miltiqli bola o'tga tikka kesib chiqsin. Biz uchtamiz anavi yo'l tomondan aylanib boramiz. Qorong'i bo'lmasdan bu balodan qutulaylik. Haligi amerikaliklarning yasab qo'ygani bo'lmasa, bas. Biz ko'pmiz, ko'pdan qo'rqmaydi deysanmi, — deb qari cho'pon ovul tarafga qarab qo'ydi. — Sigirlar yaylovdan keldimikin? Egarning tagligini yamamoqchi edim... Qaragin nima bo'ldi?... Hoy, sen nimaga qarab turibsan? Tezlataylik. Ey padaringga... Qo'rqayapsanmi?..

Boyagiday emas, odamlar boshqacha hisda edi. Shijoat, g'ayrat botgan quyosh bilan birga uzoqlashib, sovib borayotgandek edi. Tun qorong'iligiga qo'shilib ularning jismini qandaydir noma'lum vahima egallab, qo'rqinch bosardi.

Shunday g'ira-shira bir paytda yarqiragan o't bilan olishish aqlga sig'maydiganday ko'rinardi. Guruhning ichida yurgan bir-ikki qiz:

— Ota, shu tarafga bormasak bo'lardi. Kim biladi, nima uchun yongan olov ekanligini. Bu chindan ham haligi NUJdir... — dedi.

Shundan keyin oqsoqolning fikri o'zgardi:

— Unday bo'lsa, hammamiz bekorga bormaylik. Nima ekanligini bilib qaytamiz. Qani, Kaben, Sherizod! Ketdik. Haligi miltiq qayerda?.. Boshqalar shu yerdan qarab turinglar. Chaqirsak, belgi beramiz.

Qari cho'pon bilan birga otiga qamchi urib, ikkovi ham ketdi.

Oldinda otliqlar ikki tepalikni bog'lab turgan yo'l bilan ketdi. yerning tepa-pastligiga qarab yonayotgan olov yo'q bo'lib qolishi mumkin. Tezda ko'zlagan joyga yetib qolishdi. Shu payt oldinda kelayotgan Sherizodning:

— Voy... — deb baqirgani eshitildi. — Qayerga ketdi yana? Shayton-ku, bu. Aniq shayton.

Yonib turgan joyida o't yana yo'q bo'lib chiqdi. Bu tepalikning boshi tekisroq ekan. Uchovlon dursillatib tezda yetib kelishdi.

— Ana, — dedi Kaben qo'lida ko'rsatib.

Ajab! Yo'qolgan olov endi yana bir boshqa tepalikning yonida yonib turibdi. Kun qorong'ilashgan, tepalikdagi o't boyagidan ham yorqin ko'rinardi.

— Hoy, bolalar, bu nima shunda? — dedi hamma narsani biladigan Oqilbek qarining o'zi ham. — Endi qorong'ida izidan bora olmaymiz.

— Nima qilamiz, og'a? — dedi Kaben.

— Bilmay turibman, lan'atini. Aytdim-ku, qirq besh yil qo'yning ketidan yurib bunday baloni ko'rmaganman. Nima bo'lsa ham ortga qaytamiz. Meni qo'yaver, senlar bir narsaga uchrab yurmanglar. Qurib ketsin, ortga qaytamiz.

Oqsoqolning so'ziga ko'nmay, qiziqib qolgan Sherizod:

— Yana ozgina turaylik. Nima qilar ekan? — dedi.

Oqilbek oqsoqolning achchig'i chiqdi:

— Hoy, kattaning so'ziga quloq solmaydigan qanday bolasan o'zi?

— Qandayligim bilan ishingiz bo'lmasin. Kaben, miltiqni ber!

— Nima deydi, hey, bu kuchuk? Gap qaytarishini qara-ya, kichkina bo'lib. Shapaloq tortsammikin. Kecha Kabenni emas, seni urishim kerak ekan. Qani, yur! — deb, yigitning oldiga tepinib bordi.

— Og'a, meniki hazil-ku. "Haziling yarashsa, otang bilan o'yna" deyishadi-ku. Oramizdagi yolg'iz chol bo'lgandan keyin...

— Hazil deydi. Hazilni ko'rsataman men senga...

— Og'a, qaytamiz. Qaytmaganda, endi shu yerda tunaydi deysizmi. Faqat qaytishimizdan oldin shu o'tga qarab bir o'q otib ketaylik.

Otdan tushib Sherizod taltayib turib olib, askarda o'rgatgan usul bilan miltiqni tars etkizdi. Keyin uchovi ham qaytadigan yo'lga qarab burildi. Shu payt Kabenning:

— Ana, qaranglar. O't o'chib... qoldi! — degan ovozi eshitildi.

...Osmonga yarqirab yulduzlar chiqqan. Keng dalani qorong'ulik bosgan. Qorong'ida yonib turgan olov yalt etib o'chgandan keyin atrofni jimjitlik qoplaganday ko'rindi.

Quruq qo'l bilan qal'aga hujum qilgandek, aqlsiz kuch ko'rsatishning nima keragi bor. Shunday qarorga kelgan uch otliq kelgan izlaridan ortga qaytdi. Itlar ham endi oldilarida ketdi.

Qishloq tashqarisida kutib turgan ancha odam bor ekan. Telefon orqali tuman markaziga yetib borgan xabar ovulga yetmaydimi?! Bo'lgan voqeani ko'rganlar buni nimaga o'xshatishni bilmay, har xil taxmin qiladi. Nima bo'lsa ham, bugungi tunning tinch o'tmasligini aytishardi.

— Bekorga qo'rqib, vahima qilmanglar, — dedi Mahmud. — El omon, yurt tinchida yov kelarmidi? Hech narsa qilmaydi, kerakli joylarga xabar berib qo'ydim. Hozir mas'ul shaxslar kelib qoladi. Shovqin qilmay uylaringga tarqalinglar.

Keyin baland ovozda oqsoqolni chaqirib oldi. Bir oyog'i mashinada turib so'z boshladi:

— Oqsoqol, majlis qilishga kech bo'lib ketdi. Biroq javobgarlikdan qochib qutilib keta olmaysiz. Yosh cho'ponni aybsiz jabrlab, yana yarashgingiz kelmaydi. Burungi zamon emas, afsus. Masalangiz yig'ilishda ko'rilib, ahvolingizni ko'rar edik. Bunday beboshlikni osonlikcha nazardan chetda qoldira olmaymiz. Uning ustiga boshliqning so'ziga quloq solmas ekansiz. Yosh bolalarni o't o'chirishga olib ketganingiz ham bor.

— Hoy, bolam, aqllilik qilma. Yaylov masalasini qachon hal qiladigan bo'lding o'zi? Shuni ayt.

— U masalani kim hal qilishini aytdim-ku sizga. Shu ahvolda yaylov kerak bo'lib qoldimi?

— Ha, hal qila olmayman de. Unda nima qilib turibmiz bekorga ikkimiz? — deb, otini minib ketdi.

Boyagi o't o'chirishga borgan paytda Kaben ikkalasining yarashib olganligi haqida og'zini og'ritib, aytib o'tirishni istamadi.

Bemavrid olov voqeasi ovuldagilarga ertasigayoq ma'lum bo'ldi. Elni tinchini o'g'irlaganlar boshqa birov emas, shu yerning odamlari ekan. Tumandagi chegara xizmatchilari bilan kelishib o'tkazgan "Yong'in" operatsiyasi bo'lib chiqdi. Operatsiyaning maqsadi — chegara atrofida turadigan xalqning sergakligini tekshirish ekan.

Ovul tashqarisida bo'lgan voqeani tezda ko'rib, chora qo'llashga harakat qilgani uchun Mang'iroq ovul hokimiyatiga maqtov aytildi. Shu yerda xizmat safari bilan yurgan qishloq xo'jaligi boshqarmasining bosh mutaxassisi Mahmud favqulodda holatda shu yerliklarni yig'ib, tinchlantirgan. Kerakli joylarga vaqtida xabar bergan. Bosh mutaxassisning o'zgacha iltifotga sazovor bo'lishi, sovg'a bilan taqdirlanishi ham shu sababdan. Bu xabarni eshitib Bolshakarning rangi bo'zarib ketdi

— Nega? — dedi baqirib. — Oqilbek og'a-chi?! Jang'izto'be ovulining yigitlari-chi?

O'sha payt uning tasavvurida faqat bir narsa: yig'ilishga ham qaramay ketgan Oqilbek cholning ajin bosgan yuzi gavdalanardi.

Yong'inning sababini aniqlash uchun "Jilanbay" chorva xo'jaligi bilan qishloq yoshlarini to'plagan kim edi? Maqtovga sazovor bo'lishi kerak bo'lgan odam faqat Mahmud emas. "Oqilbek otaning unutilgani nimasi?" degan xayol Bolshakarni anchagacha bezovta qilib yurdi. Lekin keksa cho'ponning avvalgi zamonda ham har doim e'tibordan chetda qolib, sovg'a-salom degan narsani ko'rmay o'tganligidan yosh xodim bexabar edi...

NAG'ASHIBEK QAPALBEKULI

(1950)

Nag'ashibek Qapalbekuli 1950-yil 16-martda Almati viloyatining Jambul tumanidagi Qizilasker ovulida tug'ilgan. 1979-yilda Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

Qorasoy botir haqidagi "Qorasoy, Qorasoy", Jambil haqidagi "Jambil ota", "Kiesi — qizil yo'lbars" hamda Saribay bi, Makish polvon haqidagi kitoblari ko'p kitobxonlar tomonidan yuqori baholandi. "To'la biy", "Polvon Cho'loq", "Sipatoy botir", "G'ibrat", "Ota ta'limi", "Ospanxondan qolgan so'z", "Inkar tuyg'u — sirli ohang", "Kitoblar olamiga sayohat", "Fotiha bilan el ko'karadi" va boshqa to'plamlari bor.

QIZIL-CHIPOR YO'LBARS

Ikki otliq og'zini kerib-ochib oqayotgan Ile daryosini yoqalab, shitob bilan ketib borayapti. Daryo bo'yining maysa-butalari bola bilagiday uyushgan qalin qamishlik, yaproq yozgan daraxtlar o'sib yotibdi.

Jambul atrof-tevarakka hozirlanib ko'z tashlaydi. Bari — qiziq, tansiq manzaralar. Ko'ngli ko'tarilib, xayoli allaqayoqlarga olib qochadi. Manov yo'l boshlab ketayotgan oqin og'aga ming rahmat, shu kishining sharofatli taklifiga ko'ra yosh Jambul ham ergashib yo'lga chiqdi...

Suyunboy uning otasini chaqirib olib:

— Jaba, Jambul bu yilgi yozda mening yonimda yursin, — dedi. — Anov ko'pdan beri ko'rmagan Ile, Balxash bo'yidagi tog'alarning ovullarini oralatay, el ko'rsin, yer tanisin, uyda yuraveradimi...

Bu gaplarga onasi uchib-qo'nib quvongan bo'lsa, otasi zo'rg'a-zo'rg'a, ikkilanib rozi bo'ldi. Mana, uzatiladigan qizday yasanib-ki-

yinib, egar-turman, jabduqlarni tuzatib, otko‘rpa, yopinchiqlarini yangilab, yo‘lga chiqdilar.

Ovuldan chiqqanlariga necha kunlar bo‘lgan bo‘lsa, o‘shandan beri yonlaridan qo‘shiqchi-yu, sozanda, oqin-u xonanda arimaydigan, — oydini oshgan[1] Suyunboy oqin tunaydigan uy — ma’rifat maskaniga, she’r va qo‘shiq, terma-to‘lg‘ovlar bozoriga aylanadi-qoladi. O‘zlaridan burun tovushi yetgan atrof-elat darrov quloqlanib, bir kunlik yerdan oldilariga chiqib olib, kutib turadilarki, hurmat-ehtiromning hech cheki yo‘q. Ketayotganlarida ham shunday.

Suyunboy oqin bu safar Jambuldan boshqa hech kimni yoniga olmadi, ergashtirmadi. Lekin uning doimgi qizilchiroy yuzi endilikda qalin o‘y-xayollar quchog‘ida. Jambul otini tepinib, Suyunboy og‘asining yoniga qancha kelmasin, nomi taralgan mashhur oqin bolaga qaray demaydi, xuddi bitta o‘zi yolg‘iz ketayotganday jim. O‘smir Jambul munaqada ko‘p gapirishgayam qo‘rqadi.

Sabovday-sabovday[2] norqamishlar orasidan ko‘rinib qoladigan surlov yo‘l toshib oqayotgan daryoni birda ko‘rsatmay, birda qiya tortib olib ketib qoladi. Qalin bir tolzorlikka yetganlarida oqin otdan tushib, kunbotish-iyakka qaray yayov tortdi. Jambul ham shoshib izidan ergashdi. Qamishzor shovullab-yoyilib yotibdi. Ko‘pam yurmadilar-u, bola darrov terchib-terlab qoldi. Bir ulkan ochiq joyga kelganlarida Suyunboy to‘xtadi. Huv o‘rtada — do‘ngchalanib yotgan quba do‘ng ekan. Bu yerning qabriston ekanligini Jambul yetib kelganlaridan keyingina payqadi. Tepalikning usti to‘la qabr.

— Kel, o‘g‘lim, shu yerda qur’on o‘qib ketaylik.

Suyunboy oqin yoqimli ovozda Qur’oni karim oyatlarini qiroat qila boshladi. Kutilmaganda huv naridan otlarning hurkib pishqirgan ovozi kela boshladi-yu, Jambulning shundoq oldida qalin o‘rmonni qoq yorib kelayotgan, uzun kerilgan qip-qizil yo‘lbars ko‘rindi. O‘spirin bola qo‘rqqanidan seskanib ketdi, ko‘zlari chaqchayib o‘tirdi-qoldi. Bir payt Suyunboy og‘asiga qaragan edi, u kishi tovushini qilchayam o‘zgartirmay, mavj urib, tilovat qilishda davom etaverdi. Orada bolaga vujudi erib, mehrlanib bir qarab

[1] **Oydini oshgan** — obru-e’tibori oshgan degan ma’noda.

[2] **Sabov** — paxta, yung savaydigan uzun tayoq.

oldi-yu, "indama, tinch o'tir" degan im bildirdi. Haligi qon qizil nahang yo'lbarsning izidan sho'nchig'i (bolasi) yugurib keldi-da, onasiga erkalanib, u yoq-bu yoqqa chopqillay boshladi. Goh onasining bag'riga kiradi, goh boshini burib qarab turadi-da, yana alangsiz o'ynoqlay boshlaydi.

Tilovat tugagandan keyingina, yuzlarini siypalay boshlaganlaridan so'ng boyadan beri kerishib-yalbaroqlab turgan yo'lbars osmonga og'zini ochib, rohatlanib esnadi-da, sho'nchig'ini ergashtirib, qamishzorlar ichiga kirib ketdi.

Jambul uch intilib, o'rnidan zo'rg'a turdi. Suyunboy oqin kelib, tanglayini ko'targan edi, bo'yi yengillashib, o'zini tutib oldi.

— Yur, bolam, senga shohli O'tagan botirning qabrini ko'rsatay, — deb, do'ngning o'rta chenidagi qabrdan bir chimdim tuproq olib tashladi oqin. — Mana, botir O'taganning yotgan yeri... Odamga baxt bekor qo'nmaydi, bolam. Baxt kelib qo'ngan odam — avliyo, bashoratchi bo'ladi. Manov hangomaga quloq sol, bolam. Arvohlaringdan aylanay to'rt botir — O'tagan, Rayimbek, Qaban, Qarashlar O'taganning uyida o'tirgan ekanlar. Rayimbek bilan O'taganning yoshi teng qurdosh, Qarash — eng kichigi, Qaban esa bularning eng yoshi kattasi ekan. Shunda uchovlari turib:

— Qaban og'a, bu yerda yoshi ulug'imiz — sizsiz. Ko'pni ko'rib, ko'pni bildingiz. Xudoga shukur, tavba-yo, tirikligimizda hurmat-izzatni oz ko'rmadik. Ha endi, o'lganimizdagi ahvolimiz qanday bo'ladi? Qaysimiz qayda bo'lamiz? Shuni aytib bering-a... — deb so'rab qo'ymabdilar.

Shunda Qaban aytgan emishki:

— Uvolim — otimni Qaban deb qo'ygan ota-onamga bo'lsin. U dunyolik bo'lib ketganimdan so'ng bir buloqning boshida, cho'g' qamishning tubida qolaman. Uch kun tanim yerda yotadi, uch kundan keyin topilmaydi. Ol, O'tagan, sening yoqimli-iliq fe'l-atvor bor ekan, siljib oqqan sokin ulkan suvning yoqasida qolasan. Biroq kunning kuninda, tupning tubinda u yerdan ham siljiysan. Rayimbek, sen tug'ilganingdan ko'pchil eding, qiyomat-qoimgacha boshingdan shaldir-guldir ketmaydigan ulkan yo'lning yoqasida qolasan. Qarash, sen umr bo'yi qirg'izlarni Olatovning teriskeyidan oshirmasding, elingga qo'rg'onday savlat to'kib, qirg'iz-

qozoq o‘rtasida, ulkan tog‘ning etagida yotasan, — debdi yorug‘lik (rahmatlik). Mana o‘sha shohli O‘tagan botirning qabri. Avliyo demay ko‘r, qani. Qabakengning aytganlari bari keldi-turdi. Yur, endi, bolam, otlanaylik.

Etaklarini qoqib, o‘rinlaridan turdilar. Otlarning yaqiniga kelganlarida payqadilar — jonivorlarning quloqlarini tubigacha qora ter ko‘mib, suv bo‘lib ketgan ekan.

— Og‘a, siz boyagi yo‘lbarslarni ko‘rdingizmi? — so‘radi Jambul. Oqin indamadi, hech narsa ko‘rgan-bilmaganday bo‘lib, yo‘lga tushaverdi.

Qamishzordan chiqib, surlov yo‘lga tushganlaridan keyin, otlar pishqirib, bemalol yo‘rtishga o‘tdi.

Daryo tomondan salqin shamollar esa boshladi.

Oqin hali indamasdan kelayotir. Nimalarni o‘ylamoqda? Boyagi yo‘lbars Jambulning ko‘ziga elaslab ko‘rindimikan? Axir Jambul yo‘lbarsni ham, uning sho‘nchig‘ini ham yonginasida — ko‘zining oldida ko‘rdi-ku. Yo‘lbarslarni payqagach, hatto otlar ham qo‘rqqanidan qora terga tushib ketibdi-ku...

Oqin esa hech narsa bilmagan-sezmaganday bo‘lib, qiroatini keltirib tilovat qilaverdi, tilovatdan keyin ham o‘zini hech narsa bilmaganday tutdi. Bu qanaqasi?..

— Og‘a, “O‘tagan botir” dostonimizdagi botir O‘tagan o‘sha kishimi?

— Ha, ha, qarog‘im. Eli-xalqi uchun jonini qurbon qilishga tayyor botirni ming tun bo‘yi kuylasang ham charchamaysan, bolam. O‘sha avliyo, ota-bobo, atoqli abiz botirlarning arvohlariku meni qo‘llab-quvvatlab, hifzi-himoyasiga olib yurgan. Senga bir hangoma aytib berayin. Yodingda tut! Alloh yor bo‘lsa, buning bari gavdangga qo‘nar qushing bo‘lar. Ko‘kayingga qo‘nadigan qilib, yaxshilab tingla, ol, qarog‘im...

Ikki ot taypalagan[1] yurish bilan qator yurib kelayotir.

— Yo yaratgan Egam! Muhammadning ummati — Qorasoy bobo arvohi qo‘llay ko‘r! — dedi oqin ichida hayajon va yuzida chanqoqlik bilan. So‘ng davom etdi:

---

[1] **Taypalab yurish** — otning bir tekisda chiroyli yurishi.

— Sen Qorasoy boboning kim ekanligini bilasanmi? Bo'lmasa, tingla. Qorasoy bobo — ismi o'ronga[1] aylangan bizning bahodir-botirimiz. Butkul qozoq elining to'rt burchini o'zining sheriklari bilan qo'rg'ichlab-himoya qilgan xosiyatli inson, uning nomi rivoyatga aylanib ketgan hozir. Muqaddas avliyo jongagina baxt kelib qo'nadi. Baxt qo'ngan, Xizr ko'rgan odamlar botir, sarkarda bo'lib, qo'shin boshlaydi, oqin bo'lib so'z boshlaydi. Bizning elning piri, avliyo-arvohi — qizil yo'lbars.

— Yo'lbars? Qizil yo'lbars dedingizmi?.. Hozirgina ko'rdik-ku, og'a!

— Ha, bolam, hayajonga tushmay, yaxshilab tinglab ol. Qizil chipor yo'lbars Qorasoy boboga qanday kelganini aytib berayin. Qorasoyning otasi Oltinboyni el "abiz" deb ataydi. Abiz dega-ni — aytgani keladigan, ko'ripkel, bashoratchi, avliyo degani. Qora-soy — yirik gavdali, cheksiz kuch egasi, ko'zlari porlab turgan, shahd-u shiddatli bo'lib o'sibdi. Gavdasining yirikligi shuncha — bir ho'kizning terisi ikki oyog'iga etik tiktiraman desa zo'rg'a yetar ekan. Qorasoy o'n olti yoshga to'lganida otasi yoniga chaqirib aytibdi:

— Xudoga shukur, oldimga o'n son ko'k-ola yilqi bitdi. Biroq bu yilgi yut[2] alomat bo'ladi. Sen yoningga qoruvli-kuchli yigitlarni tanlab ol-da, yilqilarni yoy. Yilqi moli — juda kirpiyoz, oldini qayirma, o'rishini ham, qo'nishini ham o'zi topib boradi, — debdi.

Qor kishi bo'yidan oshib, qahraton qish uzoqqa cho'zilib, oq suyak yutdan elning tikarga tuyog'i qolmay qiriladi. Kunlar isiganda, yoz kelganda ham odamlar yaylovlariga ko'cholmay qoladilar. Xuddi o'sha paytda oldiga solgan biyalarini qulunlatib, qalin yilqisini shurqiratib Qorasoy elga eson-omon qaytib keladi. Oltinboy abiz Qorasoyni chaqirib olib, manov maslahatlarni beradi:

— Qo'yni serka boshlaydi, to'yni erka boshlaydi, ol, endi elni xonim-hazratim — yelka boshlaydi, deganlar. El boshqaradigan

---

[1] **O'ron** — odamlarni bir ishga yo'naltirish maqsadida undov, chaqiruv, bong o'rish.

[2] **Yut** — ob-havoning yomon kelishi sabali bo'ladigan ofat, uy hayvonlarining qirilib ketishi.

xon hazratimiz esa mol-u chorvasi tugal qirilib, xonning o‘rdasi ko‘cha olmay, qishlov o‘rninda qiy sasib o‘tirib qoldi. Uyam olti otasidan buyog‘i Xizrning nazari tushgan otaning bolasi, uning yuzini yerga qaratmaylik. Endi, bolam, manovi yilqining qoq yarmini xonga sovg‘a deb, oborib ber, — deb yo‘lga soldi.

Tikishga tuyoq qolmay qora qiy yurtda o‘tirgan xon qalin changni, ulkan do‘birni ko‘rib:

— Yutni yetti og‘a-ini der edilar. Manovilar yut olgan elni chopish uchun kelayotgan qalmoqlar bo‘lmasin, — deb, vahimaga tushib qoldi.

Yayovlab bo‘lsayam yovga qarshi turishga tayyorlana boshlagan edi, chopar kelib suyunchi so‘rabdi:

— Oltinboy obizning o‘g‘li Qorasoy sanoqsiz qalin yilqini oldiga solib obkelayotir!

Qorasoy o‘shanda xonga yuk ortadigan tuya, sog‘in sigir ham olib kelib, tortiq qilibdi. El o‘zini tiklab-to‘yinib, xonni yaylovga ko‘chirishib, Qorasoy xon o‘rdasida bir oy yotib mehmon bo‘libdi. Xonga kelib, qaytishga ruxsat so‘rabdi. Xon xursandligini yashirmay:

— Butun el-yurtimni ocharchilikdan omon olib qolding. Nima tilaging bor, bolam? Ukkiday qilib o‘stirib o‘tirgan o‘n nafar bo‘y etgan qizim bor. Shulardan tanlab ol, menga kuyov bo‘l! Kuyov demaydigan o‘g‘lim bo‘l! — deb, chin niyatini bildiribdi.

— Chin niyatingizga men ham roziman, xon hazratim. Menga manovi o‘zingiz o‘tirgan qora bo‘sag‘ani bersangiz, bir umr rozi bo‘lib yurardim, — debdi Qorasoy. Shunda xon taxtidan otilib turib:

— Oltinboyning obizligiga qoyilman, bolam! Aytganing bo‘lsin, mana bu qora shangroq seniki. Oq fotihamni berayin, — deb chiqib borib, o‘zining ikkinchi o‘toviga kiribdi. Shunda xon taxtidan turavergan paytda o‘ng tomonida qizil-chipor yo‘lbars paydo bo‘libdi. Yo‘lbars xonga ergasha chiqib borib ikkinchi o‘tovga kuzatib boribdi-da, ichkariga kirmay, burilib kelib, oq o‘rdada qo‘zg‘almay o‘tirgan Qorasoyning etagini yalab, o‘ng tomon yelkasiga boshini qo‘yib, erkalanib, orqasiga cho‘nqayib o‘tiribdi.

Qorasoy bobomizning qora bo‘sag‘asi bilan qizil-chipor yo‘lbars elimizga shu tariqa kelib qolgan ekan...

Oqin yana biroz vaqt unsiz qoldi-da, so‘ng:

— Jambul bolam, mana shunday shajara-tarix voqealarni ko‘kragiga quyib olsin, deb yakka sening o‘zingga aytyapman-da, — dedi ta’kidlab. — Yurgan-turgan yeringda Qorasoy boboning arvohiga bosh egib, madad surasang seni doimo omon-eson olib chiqadi. Men ham har gal o‘lan boshlayotgan paytimda shu bobomning arvohiga bosh egib, madad surab keyin boshlayman.

— Og‘a, siz boyagi yo‘lbarsni ko‘rdingizmi?

— Ko‘rdim, albatta.

— Sho‘njig‘i bilan edi-ku, og‘a, shundaymi?

— ...

— Qo‘rqmadingizmi sira? Birdaniga tappa bosadi, deyishardi.

— Bolam, yo‘lbars ham avliyo jonivor. O‘zing tegmasang, o‘chlashtirmasang, och bo‘lmasa — uyam odamga chopmaydi. Qur’on o‘qib o‘tirib, ularni ko‘rganda “Qorasoy bilan O‘tagan bobolarimning arvohi, o‘zing qo‘lla”, degan edim qilt etmay turib qoldi-ku. Payqadingmi shuni? Ular ham g‘oyibona, har qanday qozoqning ko‘ziga ko‘rinavermaydi. Botir odamning qabri boshida ko‘ringanini ayt. Bularni hech kimga aytib-maqtanib yurma, til bor, ko‘z bor deganday. Arvohlaridan aylanay bobolarimning!

Oqin yana gapni tarix voqealariga burdi:

— Keyin Qorasoy bobo qartaygan paytida atoqli To‘lebiyga fotiha bergan. Otasi Oltinboy tushiga kirgandan so‘ng, Qorasoy To‘leni izlab keladi. Kelsa, To‘le chiviqni ot qilib minib yurgan kichkina bola ekan, uyiga kirib fotiha beribdi bobomiz yorug‘lik. “Yaxshining ixlosi — yarim podsholik” deganlari shu, bolam.

Oldidagi biyikroq cho‘qqining ustiga chiqqanlarida Suyunboy oqin ko‘z uchini yuborib, kunga orqa to‘sib, xuddi dam olayotgan botirlarday tog‘ning viqorli bichimiga tikilib, tomosha qildi. Jambul yana bir hikoya eshitish ilinjida uning yaqiniga keldi.

— Kel, bolam, sal dam olamiz. Manov ko‘klamning ifor isini aytsang-chi! — deb, Suyunboy oqin otining chilvirini uzaytirib, o‘tloqqa qo‘yib yubordi.

Dalalar to'liqsib, chiroylana boshlagan payt. Yangi kelgan oqbag'ir qaldirg'ochlar yerbag'irlab naridan-beri uchib yuribdi. Bolaning mushtchasidaygina mitti mullato'rg'ay ot ustidagi egar-to'qimga cho'mpayib kelib qo'ndi. Olis-olislarda ko'zning oldida hilpirayotganday sarob-sag'im yuribdi. Odam qarab to'ymaydi. Xuddi dostonlardagi ko'ch ortgan karvonlar o'tib-ketib borayotganday.

Jambul maysalari ko'rpako'k bo'lib dur ko'tarilib qolgan tepaga otko'rpani ikki qavatlab to'shadi. Oqin og'asi joylashib olgach, bu ham borib tizza bukdi.

— Qarog'im, yaxshilab quloq qo'yib tinglab ol. Senga endi Qorasoy bobo va uning avlodlari haqida biroz kengroq hikoyalab beraman. Haybatidan tog' qo'zg'olib, bult hurkadigan, nomi olti alashga ketgan Qorasoy bobo chehrasidan nur tomib, duo qo'nib turgan arvohli kishi-ku. Yaxshi odamga ko'z bilan so'z tegaveradi. Qorasoy botirning kelinchagi yilda bo'shanadi, yilda chekkalari to'rsiqday otasiga o'xshab ketadigan o'g'il tug'adi. Biroq yorug' dunyoga endi kelgan o'sha norasida go'dak kelasi o'sha vaqtga yetmay chatnayveradi, chatnayveradi. Birovlar, "Qorasoyga ko'z tekkan, shuning uchun uning bolalari yashab qolmaydi" deyishsa, birovlar "endi, kelasi yo'lgi bola turib qoladi" deb umidlantirib yupatadi. Qayda yursa-da, uyida oyog'i og'ir ayoli bo'shanadi deb bugun suyunchi so'rab kelsalar, ertasiga o'g'li bir kun ham to'liq umr surmaganligini aytib, chopar yetadi. Shunday qilib, kelinchagi to'qqiz marotaba qursoq ko'tarib, chekkalari to'rsiqday to'qqiz o'g'il tug'ib, to'qqiztasiyam bir kunga yetmay, chatnab ketibdi.

Qancha botir bo'lgani bilan, Qorasoy ham et bilan suyakdan yaralgan jon, sirtdan sir bermagani bilan, ich-ichdan qattiq mujilib, alam chekadi, o'rtanadi. "Parcha yerimni ham bo'tan-begonalarga toptatmayman, elim-yurtimning nomusini hech kimga bermayman!" deb yurib, talay yovlarimning qonini suvday sochgan edim. Ular ham Xudoning bandalari edi-ku. Ularning avlodlari-yaqinlari qarg'ab, manov dunyodan quvbosh bo'lib o'tib ketamanmi?" deb gungranadi. To'qqizinchi o'g'lini yerga berganida sochlari oqarib ketibdi.

O‘ninchi marotaba kelinchagi yukli bo‘lib, oyi-kuni yaqinlashgan paytda, qurol-yaroqlarini osingan bobomiz:

— Men ov ovlashga ketdim. Manov nayzani tashlab ketaman. Agar tug‘ilgan bolam tirik bo‘lsa — o‘tovimning tepasiga bo‘ri surati solingan bayroq ilinglar. Agar u ulay-bulay bo‘lib ketar bo‘lsa, tullantirib (azador qilib ko‘rsatib), qora yilqining qora quyrug‘ini bog‘langlar. Ko‘z ko‘rmas, quloq eshitmas olisga ketaman, suyunchilaringni uch kundan keyingina kelib so‘ranglar, suyunchiga bor boyligimni beraman. Ol, agar, chaqaloq o‘lib qolib, yomon xabarini olib kelgan jonning tilini kesaman. Uch kun kutaman, — debdi qora toshday qotib, qahrlanib.

Ov qoqib, qush solib, tog‘-u toshlarni oralab qancha sayriravon qursa ham, botir ko‘ngli alanglayveradi. Bir kuni uyining ustida bo‘rili bayroq ilinganini ko‘rib, “yo tavba, tavba, uzoqroq suyuntiraver!” deb, ko‘zidan yoshi oqib, qayta qarashga yuragi dovlamay, nari ketaveradi, ketaveradi, ketaveradi. Qancha ko‘zlarini sarqib qarasa ham, huv olisga, tuk ham ko‘rinmas yoqlarga ketib, ola burtib, intizor bo‘lib endi yaxshi xabar kutadi. Ikkinchi kuniyam bir xabar bo‘lmaydi. Uchinchi kuni tong otishi bilan bir o‘rinda tura olmay, joni fayz topmay, sarson-sargardon ko‘yga tushadi. Ovuli-eli tomonga bo‘ynini cho‘zib, kuni bo‘yi og‘ziga tuyur osh-suv olmay, suyunchi so‘ragan jon kelayotgani yo‘qmi deb, teshila-teshila qarab charchaydi. Qirq ming qalmoqqa qashqayib, qarshi chopganda ham, ne bir alpaut ajdarhoday ishqiringan yovning bahodirlari bilan yakkama-yakka chiqqanda ham zig‘ircha “shilt” etib jimirlamagan yuragi tarsillab, tadbiri qochadi. Uchinchi kuni kech bo‘lib, kun botib borayotgan paytda ko‘z uchidan cho‘kimdaygina chang ko‘rinadi. “Eh, oqsariq bosh, oqsariq bosh!” deb turguncha bo‘lmadi, haligi chang undan bir, bundan bir burq-burq o‘tib, yoniga yetib kelibdi. Aniqlab qarasa — o‘zining yovga minib chopadigan Oqtuyoq tulpori! Asl tulpor-da Oqtuyoq! U botirni uch marta aylanib, gumbur-gumbur kishnabdi. Tulporining quyruq-yolini tutday qilib kuzab tashlabdi. Otning ikki ko‘zi qontalab-qizarib, botirning qarshi oldiga boshini to‘sib dir-dir etib turibdi.

— A, yomonlig‘ xabar yetkazgani kelgan sen ekansan-da! Bu yolg‘onchi dunyoda quvbosh o‘tdim desang-chi! Dunyoning bari

tark! Sho'rlab qolding yana quvbosh, desang-chi! Endi men ham o'lik, sen ham o'lik! — deb, olmos qilichini olib, qoq chekkangning tushi shumidi deb, unda o'lar yeringni ham shu yerdan deb, tulporining manglayini mo'ljallab siltab yuboribdi. Shunda umrida siltaganini tirik yubormagan botirning qo'li ilk bor qalt ketib, tulporining o'ng qulog'ini kesib tushibdi.

Tulpor ham og'zini kerib ochib, osmonga sapchib bir sakraydi-da, egasining oldiga "bosh kessang — mana" deganday shilq etib yotadi.

Botir manov odamdan ortiq aql bilan tug'ilgan asl tuyoq tulporini quchoqlab, ho'kizday o'kiribdi. Boyagi to'kilgan ipak yoli yo'q, endi bir qulog'i chinoq bo'lgan tulporining kaftday ikki ko'zidan ham yosh buloqday oqibdi, deyishadi. Jonivor birdan otib turadi, ustida botir, ovulga qaray qush bo'lib uchadi, yel bo'lib esadi, quyun bo'lib uytqiydi. Ana-mana deguncha ovulga yetib keladi. Qarasa, ayoli eshik oldida o'lgan bolasini beshikka solib, bo'zlab o'tirgan ekan. Shu chopishi bilan beshikni ilib olib, beti oqqan taraf oqizib ketaveradi. Ichida o'lgan bolasi bor beshikni quchoqlagan Qorasoy tog' oshadi, qum bosadi, o'rmon kezadi, oydini chalqigan ko'ldan o'tadi, haybati oshgan tog'-beldardan o'tadi. Asl tug'ilgan jonivor to'xtamasdan bir kun, bir tun chopibdi. Bir kezda tulpori to'xtaganda dir-dir etib, qulog'ining tubidan oqqan qora ter tuyog'idan buloq bo'lib yerga quyilibdi. Qorasoy botir otidan tushib, chetnagan norasidasini bag'riga bosib, bo'taday bo'zlabdi, bo'tasi o'lgan inganday angrabdi, kunday ko'krabdi, tunday tunaribdi. Xafalanib, gungranib: "Ay buytib, bu yolg'ondan quvbosh atanguncha, shu bola bilan birga o'liboq ketayin-chi... El-yurtning ko'ziga ko'rinmayoq qo'yayin bir yo'la", deb, o'lik bola bor beshikni tebrata-tebrata obdon kuchi qochib, tongga yaqin ko'zi ilinib ketibdi. Ko'zi ilinib ketganda tushiga yorug'lik abiz otasi Oltinboy kiribdi. Kumushday oppoq soqolli, oppoq kiyingan abiz otasi yoniga kelib:

— Hov, bolam, tur, qaddingni ko'tar, Xudodan nima so'rasang tubini so'ra, xayrini so'ra! Elingning to'rt tomoniga qo'rg'on bo'lguday to'rt farzanding bo'ladi. Mana, sening ko'z yoshlaringga, oq tilaganingga qirq chiltan bergan bolang! Mana, qabul qilib

ol! — deb, beshikka oyoq-qo'li tirvanglagan erkak bolani solib berib, abiz otasi ko'rinmay ketadi.

Uyg'onib ketib qarasa, gavdasini turtmaklagan beshikdagi bola tirik, manglayi to'rsiqday o'g'il, chirillab yig'lab yotibdi. Yalang'och qo'yniga solib, peshbandi bilan qovshurib, belini bo'g'inib, tulporiga minadi. Oytuyoq ham tip-tinch.

Ovuliga kelib, o'toviga yaqinlashadi. Sochlarini yoyib yuborib, betini keregega bosib, shinq-shinq yo'qlov aytib o'tirgan ayoliga:

— Qani, to'xtat, o'chir uningni! Mana, qirq chiltan qo'rg'abqo'llab, bolamiz tirik qoldi! Tirik! Ma, emiz! Abiz otam ayon berdi, oti Avaz bo'ladi. Mol so'yinglar. To'y qilamiz, — deydi quvonchdan yorilguday bo'lib.

O'sha Avaz oqyo'ltoy bo'lib, undan keyin Qorasoy uch o'g'illik bo'ldi. Avaz o'n uch yoshga to'lganda, Qorasoy bolasini chaqirib olib, sinamoqchi bo'ladi.

— Sen mening o'rishda yurgan Oytuyoq tulporimni ushlab obke, — debdi. To'ng'ich o'g'il ertasiga bo'sh qaytib kelibdi.

— Cho'qqidan cho'qqiga sakrab, o'rtakaday o'rg'iydigan Oytuyoq menga ushlatmadi, — debdi otasiga.

— Ay, obdon qartayib qolgan shu yilqini otib olsang ham ushlay olmagan qanaqa yigitsan sen?! Botirning bolasi degan nomingga dog' emasmi bu? — deb urushib-urushib, "nima qilsang ham olib kel", deb qaytadan yana yuboribdi.

Osmonga otilgan, bulut bilan bahslashgan, sadoqning o'qiday zuvillagan tulporga arqon sololmay, qoshiga yo'lay olmay, Avaz bir qo'ra yigitlari bilan quvalay-quvalay obdon charchab, zo'riqibdi. Oxiri quruq qo'l bilan bo'sh borsa, otasi o'ngdirmasligini bilib, "qovjirab obdon yoshi o'tgan qari yilqi-ku, baribir buni endi minmaydi" deb, haligi Oytuyoqni otib olib, o'ligini sudrab uyiga kelibdi. Buni ko'rgan Qorasoy botir qattiq nizolanib debdi:

— Ay, Avaz bolam-ay, attang-ay!.. Er yigit ostidagi otini qo'ynidagi xotinidan ortiq ko'radi. Sababi, ot — erning qanoti, yovga oldirmaydigan, ajalga qoldirmaydigan o'sha ostingdagi ot emasmi? Ay-ay! "Yaxshi bola ordan paydo bo'ladi, yomon bola yordan paydo bo'ladi" deganlariday, bu yilqi emas, xosiyatli tulpor edi. Shuning qanot-burog'i bilan sen hayotga kelgan eding. Talay

balo-qazodan omon olib chiqqan, mening bir yoq qovurg'amday bo'lib ketgan tulporim-ay! Nasli toza jonivor edi-ya! "So'yilni sola bilmagan o'zining sonini sindirar", deganday, bu ishing ne masxara, bolam-ov! Seni sinayman deb yuborgan edim. Uch marta "Qorasoy, Qorasoy, Qorasoy!" desang, yuvosh tortib, yuganni o'zi kiyib turardi-ku! Shuni uqmagan ekansan-da, bolam?! Qizil-chipor yo'lbarsim bolalarimning hech qaysisiga ergashmay, sening o'qingdan hurkib ketadigan bo'ldi-yov... Ay, qayirilsa, o'ninchi urpog'imdan keyin qaytar... Attang-a... — deb, botir bobomiz tulporining boshini quchoqlab qattiq xafa bo'libdi.

"Ota — bolaga sinchi" degan-ku, Qorasoy bobo bir kuni o'zining to'rt o'g'lini sinamoqchi bo'libdi. Avaz, Turkman, O'tab, Ko'shak degan bolalari ot yolini tortib minib, yigit bo'lib qolgan vaqti ekan. Qangtarning[1] shaqillagan sariq ayozida yilqichilarning yoniga olib borib, semiz toyni so'ydirib, tutash pishirtiribdi. Et yegizib, qo'yning quruti qo'shilgan quyuq sho'rvasini ichkizibdi-da, to'rtoviga to'rt ishik-chopon beribdi.

— Senlar botirning bolasisanlar! Manov ishikka o'ranib, anov yilqining chetiga borib uxlanglar. Qorning usti, sariq ayoz gavda saroylaringni ochib, kuch-quvvatlaringni toshdiradi, qora yer xosiyat beradi, — deb oq qor, ko'k muzga bolalarini bir-bir chopon bilan yotqizadi, o'zi yilqichilar bilan chaylada hangomalashib o'tiradi. Tongga yaqin sovuq obdon avjiga chiqqan, ayoz so'rib-chaqqan paytda "bolalarim qalay yotgan ekan" deb, sinovga chiqadi. To'rtovining chetlariga taqayverganda:

— Ko'ka-ov! — deb ovoz beradi Avaz (uxlamay yotgan ekan).

— Avaz, sen umr bo'yi el ichidan uzoqqa chiqmaydigan, o'rtadagina o'tiradigan el bo'ladi ekansan, — debdi botir.

Turkman degan bolasi ko'ndalang yopingan choponni ochib tashlab, gavdasi ko'rikday ko'tarilib, ustidan bug'i burqirab, ikki qo'lini ikki tomonga kerib, g'ijinib uxlab yotgan ekan.

— Turkman bolam, sen qo'ling yetgan yerni so'rarsan-ov. Sening avlodlaring ichidan dovyurak botirlar ko'p chiqib, qora o'rmonday ko'payib, el-yurtga qo'rg'on bo'ladilar, — debdi.

O'tab ikki mushtini tugib uxlab yotgan ekan.

---

[1] **Qangtar** — yanvar oyi.

— O‘tab bolam haqini hech kimga berib yubormaydigan, ichiga begona jonni kiritmaydigan esli tentak bo‘lib, haq-halol moli bilan kun ko‘radigan odam bo‘ladi, — deb sin[1] aytibdi.

Kenjasi Ko‘shak ishik (chopon)ni tugal qimtab o‘ranib, boshini ichga bukib, pishillab uxlab yotganini ko‘rib:

— Ko‘shak — uya buzmas mo‘min, yutgani bo‘yiga doriydigan boy bo‘ladi — deb, Qorasoy botir Ko‘shagiga baho beribdi.

Ana shu Qorasoy boboning to‘rt o‘g‘li to‘rt urug‘li elga aylandi, bolam. “Yaxshining ishi — namuna” deganlari shu, deb, Suyunboy oqin ko‘z qiyig‘idan Jambulga qarab qo‘ydi. Bola berilib, ikki ko‘zi nurlanib, oqinning har bir so‘zining mazmunini chaqib, og‘ziga kirib ketadiganday intiqlik bilan tikilib tinglayotgan ekan. Oqin shogirdining bunchalik berilib eshitishidan sevinib, muloyim kulimsirab, gapiga yana va yana jon kiritaverdi. “Bu safarga nega olib chiqqanimni hali tushunarsan, gavdangga tushgan donlar bo‘y ko‘tarib, mevali ne’matlarini berar hali...” degan niyat joniga rohat bag‘ishlab, vujudini shamol bo‘lib yelpiyotganday edi.

* * *

— Jambul, qarog‘im, endi o‘sha Qorasoy bobomizning bolalariga qoldirgan vasiyati haqida aytib berayin. Qari quloq[2] qariyalar bu shajarani ham biridan biri eshitib, ilib olib bizgacha yetkazganlar. Axir yaxshi so‘z hech vaqt yerda qolmaydi. Ol, quloq sol unda. To‘rt o‘g‘liga to‘rt qora qo‘yning oshiqli iligini ushlatib, Qorasoy botir shunday vasiyat aytibdi:

— Senlar — tirikligida avliyo deb atalgan Oltinoy abizning nevaralari, Qorasoy botirning bolalarisizlar. Yaxshi qiz — yoqadagi qunduz, yaxshi o‘g‘il — ko‘kdagi yulduz. Yaxshi uqib olinglar. Botir tug‘ilsa — elning rizqi, yomg‘ir yog‘sa — yerning rizqi, ko‘pga solsa — durusi, ko‘nmasa — bo‘lar urushi. Eng avvalo elingning, oringning g‘amini o‘ylanglar, so‘zimga teran bo‘ylanglar. “E’tibor berilmagan og‘riq yomon, esda turmaydigan dov yomon, ichingdan chiqqan yov yomon”. Dovga aralashmay, ad-

[1] **Sin** — tanqid.

[2] **Qari quloq** — o‘tgan-ketgandan xabari bor, qadim voqealarni yaxshi biladigan, mustahkam odam.

lini qoq tilib aytadigan biyga yukuninglar. Qiyqiroq biy ot ustidan biylik aytib elni buzadi. Qora qilni qoq yoradigan, el ko'nglini topadigan, ko'pni biriktiradigan biyni yonlaringga olinglar.

Baland tepaga chiqsang — ko'zing ochiladi.
Yaxshi bilan yo'ldosh bo'lsang — ko'ngling ochiladi.
Aqlli biy bilan bo'lsang — doving bosiladi.
Qasd botir bilan birga yursang — yovingni qochiradi.
Qutli odam bilan qo'shni bo'lsang — ruhingni oshiradi.
Oting yaxshi bo'lsa — bu dunyoning Burog'i,
Xotining yaxshi bo'lsa — yonib turgan chirog'ing.
Biying yaxshi bo'lsa — so'zing elda turadi.
Bolang yaxshi bo'lsa — elingning asl chinori.
Qizing yaxshi bo'lsa — yaylovning bo'lar turog'i.
Yaxshi inson hech kimni yotsiramaydi.
Jon yo'ldoshing hech vaqt aldamaydi.
Muttaham, yomonlargina so'zingni tinglamaydi.
Arg'umoq otning bolasi oz o'tlab, ko'p kavshaydi.
Asl erning bolasi — oz so'zlab, ko'p tinglaydi.
Kinoya so'z jonni yaralaydi.
Tuhmat so'z tiriklay qoralaydi.
Yaxshi so'z — dam berar,
Kuch-quvvat, hol berar.
Po'lat ishlovda chiniqadi,
Botir maydonda chiniqadi.
Er ot ustida ko'p yurib,
Eli uchun oz dam oladi.

Bu aytganlarimning ko'pisi — burungi o'tgan otam qozoqdan qolgan asl so'zlar! Senlar uchun bu so'z yo'lboshchi bo'lsin. Fotiham qabul bo'lib, yo'lga chiqqanlaringda yo'ldoshlaring bo'lsin! — deb ovmin qilibdi. To'rt o'g'liga to'rt oshiqli ilikni tutash g'ajitib, to'rt oshig'ini olib, bo'sag'aning o'ng tomoniga ko'mibdi-da:

— "Intilganning rizqi ortiq", men bu qora shang'roqning o'ng bo'sag'asiga oshiqlarni atayin ko'mdim. To'rtovingning hech vaqt

keragalaring[1] ajramasin. Oralaringga xiloflik tushmasin. Shunda qut-barakaning o'zlari keladi, oshib-toshadi. Ol, bir-birlaringni ko'ra olmay, kunchillik qilsanglar, ichtorlik ko'rsatsanglar — barakalaring ketadi. Shularni keyingi avlodlaringgayam omonat tarzida aytib yuringlar, Qorasoy bobomizning vasiyati, deb! O'shandan beri Qorasoy boboning bo'sag'asini chin ixlos-niyat bilan ziyorat qilganlarning tilaklari ijobat bo'lib, yo'li bo'lmay yurganlarning qirsig'i kesiladi...

Ulug' insonlargina odamlarga foydali so'zlarni ayta oladi. Ulug' insonlarning og'zidan chiqqan har bir so'z — inju-marjon, keyingilarga vasiyat, namuna, yo'riq. Yaxshining ko'lankasi ham issiq bo'ladi. Asl so'zning qadrini asl odamgina uqa oladi. Ko'nglilarda ko'zi bor odamning bolasisan-ku, Jambul, shunday ota-bobolarning so'zlarini boytumorday uqib, yodingda asra, qulog'ingga quyib ol!

Suyunboy oqin o'rnidan turib, balaqlanib o'sib yotgan yovshanlardan bir hovuch yulib olib, huzurlana iskadi, olis-olislarga ko'z tashladi. Olisda — huv yuksakliklarda qiron qush bularni aylanib uchib yuribdi. Jambul ham tog' burgutining parvozini tomosha qilib, teshila kuzatdi.

Ko'klam bu yil erta chiqqan, tosh tepadan kun erib borayotganday porlaydi. Yoyilib yotgan ko'ksarob dala ifor sochadi. Qon qizg'aldoqlar shamolda hilpirab, ta'zim etganday nozlanib egilishtebranishlarini ayt. Xuddi oqin boshlagan hikoyalarni tang qolib eshitayotganday, o'z otlarini o'zlari aytib chaqirayotgan sovushqonlar bularning izidan qolmay ergashadilar. Ovul-el haliyam ko'klam yaylovlariga ko'chib-qo'nib joylashayapti, hamma yoqda g'imir-g'imir harakat, hech kim tinch o'tirmaydigan payt...

Oqin minib kelayotgan chovdar ot pishqirindi. Qarshi tomondan kelgan yigitlar otdan dumalab tushib bular bilan omonlasha boshladilar.

— Sizlarning kelayotganlaringizni eshitib, ko'zimiz to'rt bo'lib, uch kundan beri yo'l qarab kutamiz. Xon hazratim: "Suyunboy oqin yo'lda emish, oldidan peshvoz chiqib, maxsus chaqirib, taklif qilib opkelinglar, ta'm tatib, ovqat yeb o'tsin", deb, yo'l to'stirib

[1] **Keraga** — kigiz uyning yog'ochdan yasalgan yig'ma devori.

qo'ydi, — dedi qora soqol gapdon yigit moyga solingan qoshiqday lipillab.

— Xon hazrat dedingmi?

— Ha-da! Tezek to'ra sizni kutib o'tiribdi. Ot boshini buringlar.

Shunday deb gapdon yigit chechanligini namoyish etarkan, yana uzoqlardagi ovullarga yo'l boshlab ketdi.

Archilgan tuxumday oppoq xon o'rdasi olisdanoq ko'zga ko'rindi. Mol tuyog'i temagan ko'kmaysalar yo'l bo'yida tog'-toshlarda qulfurib turibdi. Qir-adirlarni yoqalab qo'ng ovullarda qora o'rmonday odamlar g'imir-g'imir, o'tovlarga kirib-chiqib yuribdi. Qalin elning idish-tovoq ko'tarib kirib-chiqib yurgan odamlarining ko'pi ayollar, qiz-kelinchaklar. Har ovul o'z saltanatini, podsho ko'nglini, mirzo boyligini ko'z-ko'zlab, yaylovlarga o'tov tikib, yarqirata bezab qo'yibdi.

O'n ikki qanotli oq o'rda oldida turgan odamlar bularni uzoqdan ko'rib, peshvoz yurdilar. Xon boshqalardan ajralib, yelkasiga zarchoponini yelvagay kiyib kutib turgan ekan. Suyunboy oqin bu to'daga besh-olti odim qolma yoq shanqillab terma boshlab yubordi:

Tilimning osti o'lan, usti ham o'lan,
Kuy-qo'shiqni sog'ingan ovul-o'lkam.
Er marqasi, Tezek to'ro, omonmisan,
Abilayxonga o'xshatdim seni biram!

Hozirning o'zida to'qib sola, badihago'ylik ila aytilayotgan o'lanni eshitgan Tezek to'ra gul-gul ochilib qah-qah urib kulib yubordi-da, oqinga qarab yurarkan, diydori ochilib:

— Oqin emasman, qip-qizil yelman desang-chi! Qani oq o'tovga marhabo! O'lan bilan salom bermasang, Suyunboy bo'larmiding? — deb, bu tashrifdan benihoya xursandligini bildirdi.

Suyunboy oqin ham hayallamasdan shu yerda turgan kazo-kazolarga she'r bag'ishlab aytib, ham quchoqlashib ko'rishib chiqdi.

— Yonimda boylangan she'r tulpori... Tanglayim yorilib, o'lan-she'r uya solgan, shuning-chun gavdamga sig'may toshar o'lan, — deb kelib, Tezak to'raning davlati-yu savlatiga ham to'xtalib ota-bobolarini esga olib o'tdi. Kunning oltin shafag'i shang'rog'in-

gizga tushibdi, ustingizga nur bo'lib yotibdi, — deb qo'shib qo'ydi. "Oqinning, san'atning, o'lan-termaning qadriga yetgan Tezek to'ra, omonmisan?" deb kela, shu yerdagi jamoatga, yurtchilikka yana salom berdi. Shundan so'ng ham ilhomi toshib davom etavermoqchi edi, xon uni quchoqlab olib:

— Yashavor qizil yelim! Kel, o'tovga to'rlat! She'r-o'lanning asl koni, omon bo'l! — deb o'rdasiga taklif qildi. Suyunboy og'asiga hamma yoppatarmag'ay omonlik aytib, ko'rishib turganlarida:

— Ov, bu kichkina Jambultoyim-ku, bormisan, omonmisan! — deb birovi bosh solib, iskalab, suya boshladi. Qo'yni, isi, butun bitim-bo'lmishi, tovushi xuddi Qapadan otasinikiga o'xsharkan. Ko'zlariga liq etib yosh keldi, kipriklari pildirab, keng quchoq ichiga kirib ketdi Jambul.

— Suyunboy oqin kelayapti degan xushxabar quloqqa chalinib, ming yillik qudamiz, yana jiyanimiz deb, oldiga chiqib qarshi olayin, deb yotsak, yoniga seni ergashtirib kelgan ekan-ku. Hay barakalla, Xudo yo'lini keng qilgan Suyakeng, dunyo turguncha yomonlik ko'rma...

Jambul boshini ko'tarib yaxshilab qaragan edi — Qapadan otaga juda o'xshab ketadigan inisi — O'rinboy ekan! Bu kishiga ham qarilik yetib kelibdi, soqol-sochlari oqarib, ko'z jiyaklari qizarinqirab, munkillagan cholga aylanay deb qolibdi.

Oq o'rdaning qoq to'rida o'tirgan Suyunboy Jambulni yoniga chaqirib olib, yurtga tanishtirdi.

— E, Japa og'amizning bolasi ekan-ku, — deb chuldiragan Nuraddinni ham endi payqadi. Nuraddin o'sha-o'sha turishi, qaytanga ochilishib-to'lishib olgan edi.

Xizmat qilib yurgan yigitlar eshik oldida semiz tu biyani tipirlatib opkelib, so'yishdan oldin oqindan fotiha olib, qozon-tovoq, taom tayyorlash harakatiga kirishdilar. Elning ko'zi, qulog'i ham oqinda. O'zidan burun ovozasi yetib kelgan oqin nima demoqchi ekan deb, katta-yu yosh hammalari intiqib quloq tutadi.

Qimiz ichib, achchiq qovurdoq yeb, chanqovini qondirgan Suyunboy oqin ukili (qush pati qistirilgan) do'mbirasini qo'liga oldi. Ich saroyingni ochib yuboradigan, tog'ning toza bulog'iday tip-tiniq tovush bilan she'r va kuy yomg'irini sellatib yubordi, dersan!

Er yigitning yaxshiligi unutilmaydi,
Haqiqatni durust aytsang, el tinglaydi.
Ertada o'tgan ekan er Qorasoy,
Aytayin shundan oz-moz, kim bilmaydi.

Suyunboy Er Qorasoy haqidagi dostonni yilqi so'yilib, muchalangandan so'ng boshlab edi, qozonga solinib, pishib, taom bo'lib oldiga kelganidan keyin ham tugata olmadi. Jambul burun eshitib ko'rmagan, yangi tug'ilgan haybatli qasd botir haqidagi bu dostonning har so'zini qalt yubormay, ko'kayiga quyub olayotir, xotira-yodiga to'qib solayotir...

Oqin dostonni tunning bir mazgiliga borib bitirdi.

— "Xosiyatli biyaning ichida oltin egarli tulpor yotar, xosiyatli ayolning ichida haydarli o'g'il yotar" deganlariday, seni tuqqan ona ham naqadar baxtli ayol ekan, Suyunboy! Onangga jon tasadduq, aylanayin oqinim! — dedi doston aytimlaridan mast bo'lib o'tirgan Tezek to'ra. — Otingning boshini bizning ovulga burganing, shuncha zavq-shavqli so'zlaringni dostonga qo'shib aytib berganing uchun ming rahmat, ko'p yasha!

Usti-ustiga olqish yog'dirayotgan to'ra oqinning yelkasiga juni qulfurgan bulg'un terisidan chopon yopdi.

— Davom etaveramizmi? Charchab qolganingiz yo'qmi?

— Aytavering, aytavering!

— Aylanayin-ov, sening tovushingni sog'indik, mehrimiz qonsin, aytaver! Kunda bunday yig'in bo'lavermas, — deb chuvillashgan elga to'xtam aytib, maslahat solgan bo'ldi Tezek to'ra. — Bizning bir kunlik uyqumiz sizning bir og'iz o'lan-dostoningizning sadaqasi emasmi, chirkin-ov!

— Unday bo'lsa, hozir mening shogirdim Jambul "O'tegen botir" degan dostonimni o'rganib yuribdi, shuni aytib beradi, qabul olinglar! — deb, qo'lidagi ukili qizil do'mbirasini Jambulga uzatdi Suyunboy. Ovuldan uzab chiqib ko'rmagan bola xonning oq o'rdasining qoq to'rida o'tirib, shuncha qalin elning oldida Suyunboyday haqiqiy oqinning ishtirokida doston aytaman-ov, deb hech o'ylaganmidi? Manglayi sovuq terdan burq etdi.

— Aytaver, bolam, — dedi Suyunboy dalda bo'lib, jilmayib.

— Aytaver, Jambultoyim, — deb bir elning ustuni bo'lib, yo'l ko'rsatib o'tirgan O'rinboy oqsoqol olg'a intilib, gavdasini bir tutib oldi.

— Aytsin!

— Ayt, ayt!

— Jambul deyishyapti! Suyunboyning shogirdi ekan. Qani ko'raylik-chi, eshitaylik!

Eshik og'zida, sirtda to'planib, ichkariga jon quloqlarini tutib o'lan-doston eshitayotgan muxlislar ham alang eshib qolishdi. O'rdani o'rab olganlarning ko'zlari olazarak ichkariga tikilib, qoq to'rda do'mbirani ting'irlatayotgan, uchadigan qironday tuyulib o'tirgan qoracha bolaga tikiladi. Burangbel, oq tomoqli suluv — qizil kamzuli o'ziga yarashgan qiz.burala bosib, egilib, dasturxon yoniga qimiz to'la idish qo'yib ketdi.

Do'mbira zorlab kuylashga mos sozlanib, bobinda tayyor bo'lib turgan ekan, Angraqayning yeliday, yeldirmaning nafasiday bobov qoqib, soz ohanglari yangradi. Ohang jimirlab borib-borib Suyunboy oqinning jonga yoqimli, odamni elitadigan-eritadigan ohang yo'nalishiga kirdi. Butkul dostonning qo'shiq-she'rlari, ohanglari qolipini buzmay, ko'mayga kelib qoplanib, halovatni o'g'irlab, tiralib turib olib ko'kka parvoz qilishini endi qay so'zlar ila ifodalab bersa bo'lar? Do'mbira bezillaydi, dovullaydi, kichkina, o'rgamchik barmoqlar pardalarni axtarib topib so'qqilaydi, "endi qachon, endi qachon men parvoz qilaman?" deganday ohanglar chalinishga navbat kutadi. Jambul og'zini ochgani sayin, tili tanglayiga yopishib qoladiganday, ko'mayi bo'g'iladiganday, bo'yni shishib, uni chiqmay qoladiganday tuyuladi. Ikki ko'zi qo'lga tushgan bug'unikiday jovdirab, itilgiday bukilib oqin og'asiga qarayveradi. Ustozi bolaning terchigan yag'rinining o'rtasidan "hap, barakalla" deb siypalaganday etib, ikki marta qoqib-qoqib yuborgan edi, shogirdining hayajoni bosilib, tovushlari ochilib, shanq-shanq sayrayverdi. El bu yoshgina shogirdda shunchalar keng, chuqur, tip-tiniq ovoz bor deb o'ylamagan edi, kutmaganda yoqimli sayrab yuborgan bolaning o'tkir ovoziga tang bo'lib, og'zini ochib qarab qoldi.

— Bu Suyunboyning xuddi o‘zi-ku!

— Ustoziga o‘xshab, qizil yel ekan buyam!

— Issiq yel!

— Tovushi — biyikka, ovozasi — olisga ketadi manov bolaning!

— Aylanayin-ov, bo‘layin deb turgan bo‘z tarlonim-ay, dunyo seniki bo‘lsin!

— Til — ko‘zdan saqlasin seni, omon bo‘l, omon!

Yettisuv qanori o‘shanda yoz bo‘yi ustoz va shogirdning san’atiga, Suyunboy va Jambulning o‘lanlariga tebranib turdi...

SERIK ASILBEKULI

(1951)

Serik Asilbekuli 1951-yil 18-sentabrda Qizilo'rda viloyatining Qarmaqchi tumanidagi Qaraq ovulida tug'ilgan. 1973-yilda Abay nomidagi Qozoq davlat pedagogika institutini tugatgan.

Qozoq va xorij tillaridagi 10 ta nasriy kitoblar muallifi. Uning "Dahshatli dekabr tuni", "Imperiyada tug'ilgan kun kechasi", "Kuzgi romans" pyesalari qozoq va xorij teatrlari sahnalarida muvaffaqiyat qozonmoqda.

EH, ROSSIYA

Qashqirboy harbiydan qaytgach, kaftdekkina ovuli — Oqiinga sig'may qoldi. Ayniqsa, tug'ilgan yer ob-havosi negadir yoqmadi. U ikki yil Vatan oldidagi yigitlik burchini Rossiyaning Yevropa qismidagi N. shahrida o'tadi. Bu yer yozgi soya-salqin bog'lari bilan mashhur edi. Oqiinda bo'lsa, janubning osmonni yerga tushirgan oftobidan panalanadigan N. dagidek bepoyon o'ris o'rmon-to'qaylar tugul, loaqal tuzukroq butazor ham yo'q.

Ovul o'rkach-o'rkach qumloq tepaliklarning etagidagi kaftdek tekislikda qo'nim topgan o'ttiz-qirq yaydoq uydan iborat. Uning qaysi tomonidan qarasang ham, faqat sarobni ilg'ash mumkin bo'lgan cheksiz sahroni ko'rasan. Xudoning quyoshi bu taraflarda uyasidan qip-qizil bo'lib qizdirib chiqadi va qip-qizil sharday bo'lib olov purkab botadi. Uzzukun mana shu begunoh qozoq dalasini o'rtab yuborishni istagandek lovillab o't bo'lib yonib turadi. Ovul tuman u yoqda tursin, jamoa xo'jaligi markazidan ellik-oltmish chaqirim olisda. Oqiindagi yolg'iz, ko'pchilik to'planadigan joy — oziq-ovqat do'koni. Boshlang'ich maktab esa, yozgi ta'tilga yopilgan. Kimsasiz bo'sh maktab ovulning yaylovga yetolmay qol-

gan qing‘ir-qiyshiq mollariga va qo‘zilariga, tentirab-sanqib yurgan itlarga to‘lgan.

Aytganday, kutubxona bor ekan-ku! Uning eshigini qulf qo‘riyotganiga bir oydan oshib qoldi-yov: kutubxonachi qiz dastlab jun qirqimiga yordam berdi, hozir pichan o‘ruvchilarga oshpaz.

Fermadagi ishga yaroqli erkaklarning barchasi hozir ish boshida — pichanzorda, ovulda qolganlar — qariyalar bilan ayollar, bola-chaqa.

Qashqirboy issiq o‘tmasin deb, eshik-derazalarini qorong‘ilatib tashlagan uyda u yoqdan bu yoqqa ag‘anab yotib rosa zerikdi. Quyosh mag‘rib tomon engashgach, huv anavi ovul chekkasidagi ola-bula pastakkina qum tepalikka chiqadi. Kun botayotganda asta-sekin kichrayib, ufq ortiga o‘tib yo‘qolib borayotgan saroblarga, Qizilqumning uzoq bir chekkasida e’tibordan chetda qolgan ovulni markaz bilan tutashtirib turgan tuproq yo‘lga termulib qaraydi. U tomondan ham biron-bir tiriklik nishonasini ko‘ra olmay azoblanadi. “Naqadar behuzur qishloq”, deydi u egnidagi dengizchilarning yo‘l-yo‘l ko‘ylagining ko‘kragini yelpib qo‘ygancha. Qashqirboy shunday paytda o‘zining mana shu ovulda tug‘ilib o‘sganini ham unutib yuboradi. Bir olis joyda yotgan shu bir kichkina ovulga u o‘zini uzoq o‘lkadan bir necha kunga mehmon bo‘lib, bir necha kunga mana shunday yolg‘izlikdan bezmoq uchun kelib yurganday his qiladi. “Eh, Rossiya!”, deydi chuqur xo‘rsinib. Ana shunday damda ikki yillik umrini o‘tkazgan Rossiya shahrining mudroq bog‘lari, oqbilak qayinlari, baland binolari, shahar chekkasidagi harbiy kazarmaning kattakon darvozasi ko‘z oldida gavdalanadi.

Qashqirboy rotada qozoqlardan bitta o‘zi edi. Jamiyatda yashab turib, jamiyatdan ajralib umr surolmaysan — yotib-turib ruscha o‘rganishga to‘g‘ri keldi. Qozoqcha gapirganda hech kimga yo‘l bermaydigan Qashqirboyning chechan tili avvaliga egasini biroz uyaltirgani bilan, asta-sekin layoqati tezda o‘zini ko‘rsata boshladi. Aksincha rus o‘rtoqlari uning ismini aytolmay sharmanda bo‘lardi.

— Ma’qul, boy — tushunarli, Qash... skir... esa...

— Qadrdonim, sen ranjima, undan ko‘ra biz seni “Kolya” deb qo‘ya qolaylik. Tak budet proshe, — dedi ular.

Qashqirboy esa: "Yo'q, do'stlarim, meni ota-onamning qulog'imga azon chaqirib qo'ygan ismi bilan atanglar", deb qarshilik bildirib qiynalib o'tirmadi, ko'pchilikning taklifiga ko'na qoldi. Shunday qilib, oddiy askar Qashqirboy — Kolya Qaramendinning harbiy hayoti boshlanib ketdi. O'zidan mansabi yuqorilarning aytganini ikki qilmaydigan, tirishqoq, ishiga pishiq qizilqumlik bo'zbola o'zini og'ushiga olgan davraga toshday cho'kib, suvday singdi. Qishloqdagi ota-onasi bilan o'zining so'zi o'tadigan tengdoshlariga qiladigan ayrim erkaliklarining endi ketmasligiga alal-oqibat amin bo'ldi.

Otasi Qaramendinning kuyinganida aytadigan: "Boshingda chumchuqnikiday miyang yo'q, senda miya yo'q!" degan avliyoligini Qashqirboy osongina inkor etdi. Otilib oldinga chiqmasa ham, ko'pchilikdan orqada qolmadi, harakatchanligi-tirishqoqligi orqasida "dedlarning" azob-qiynoqlaridan qutulib ketardi. Ofitserlar u bilan iliq ko'rishardi, hatto rota starshinasining o'ng qo'li bo'lib ketdi desa ham bo'ladi. Shu sababli starshinaning shu yerlik olibsotarlardan qo'lga tushirgan besh-olti dengizchilar ko'ylagining eng sifatlilaridan biri "dembel"ga tayyorlanib yurgan qurilish batalyonining safdagi askari Kolya Qaramendinga tekkan edi-da.

Starshinadan boshqa rotada bunga alohida iltifot ko'rsatgan o'zi kabi oddiy askar Sasha Juravlyov bo'ldi. Qashqirboyning qaysi sifati yoqib qolganini kim bilsin, negadir o'sha qattiqqo'l rus yigiti buni o'ziga yaqin tutadi. Balki Qashqirboy kabi qishloqdan chiqqanligi uchundir. Sasha shaharni, uning ichida N.ni ham yoqtirmaydi. Doimo o'zining sibirlik, qishloqlik ekanidan faxrlanib yuradigan, shimolning shiddatli taygasi bilan beg'ubor oppoq qishini, alg'ov-dolg'ov bo'ronlarini alqamoqdan navqiron joni rohatlanar edi. Ochiqko'ngil yigit edi. Siniqchilikdan boshqa barcha hunar yuqadi deganday, Qashqirboy gitara chalishni ham o'sha Sashadan o'rgangandi. Uning eliga qaytarda Oqiinga olib kelgan bittagina sovg'asi N.ning madaniy tovarlar do'konidan sotib olgan yetti ichakli gitarasi edi.

N. o'zining mudroq bog'lari bilan, oq to'piqli teraklari bilangina ajralib turmasdi. Rossiyaning mana shu tarixiy shahriga markazdan, hatto chet ellardan taniqli artistlar, opera, balet guruhlari, ne-

ne qo'shiqchi va raqqosalar ansambllari tez-tez sayyor safarlarga kelib turishardi. Qashqirboy xizmat qilgan askariy bo'lim bunaqangi ajoyib madaniy-ma'rifiy ishlardan chetda qolmasdi. Imkoniyat bo'lgan paytlarda safdagi askar Qashqirboy Qaramendin ham safdagi do'stlari bilan birga N.ning qimmatbaho qandillar yorug'iga cho'milgan kalonna zallarida bir qancha yakshanbalik kechalarini mumtoz musiqalarning ham ko'hna, ham navqiron sehrli kuylari ili qarshilab yurdi. Eh-he, naqadar ajoyib! "Yevgeniy Onegin", "Boris Godunov", "Oqqush ko'li...". Yashiradigan hech vaqo yo'q, Qizilqumning bir chekkasida o'sgan Qashqirboyning esida ularning faqat nomlarigina qoldi. Haqiqatiga kelsak, o'sha olamshumul klassik asarlarning ruhiyati qancha kuchli bo'lgani bilan qizilqumlik bo'zbolaning ruhiy olamini sehrli sozi ila lol qoldirolmagandi. Qashqirboy o'zi yosh paytidan katta san'atdan chetda qolgan. Ayrim tengdoshlari singari ajoyib sehrga to'la kontsert zallarining parterlarining oxirgi qatoridagi o'rinlarning birida zerikib esnab qo'yib, mudrab o'tirardi. Ammo haqiqat nomi bilan — haqiqat, safdagi askar Qashqirboy — Kolya Qaramendinning bunday dabdabali kechalarda qatnashganligini hech kim inkor etolmaydi. Qizilqumlik hamqishloqlarining bunday spektakllarda esnab o'tirish baxti u yoqda tursin, tushiga ham kirmasligi aniq. Buning o'zi yosh yigit uchun katta mukofot edi.

Bir safar, tanaffus paytida, teatrning ikkinchi qavatidagi bufetda limonad ichib turib, oldidan o'tib borayotgan ikki-uchta balerinani juda yaqin masofadan ko'rish baxtiga ham muyassar bo'lgan. Yalong'och suluv oyoqlarini tulporlardek tik tutib uning yonida paydo bo'lgan. Ular patli qanot bog'lab, jannatning o'zidan tushgan hur qizlarday ajoyib edi-ya... Ha, shunaqa! Qashqirboy buni ko'rgan!

Balerinalarni mustasno qilganda N.ning oppoqqina, ko'kko'z oddiy bekajonlarning o'zi juda xurliqo edi. Ertapishar mevalarday ishtahangni qitiqlab, nafsingni chulg'ab turar edi.

Bir kuni, dam olish kunlarining birida, Sasha Juravlyov uni Natasha bilan tanishtirdi. Natasha — iliq kunli ko'm-ko'k osmon kabi top-toza, nozlarga to'la ko'zlari ila kishini maftun qiladigan, o'n sakkiz-o'n to'qqiz yoshlar atrofidagi yosh go'zal qiz. Juravlyovning yuradigan qizi Lyubaning dugonasi ekan. Ikkovi N.dagi

to‘qimachilik fabrikasida ip yigiruvchi bo‘lib ishlashar ekan. Yashiradigan hech narsa yo‘q, Kolya — Qashqirboy Natashaga bir ko‘rishdayoq oshiq bo‘lib qoldi. O‘sha kuni to‘rtovlon rosa sayr qilishdi: muzqaymoq yeyishdi, parkda halinchak uchishdi, kechga tomon markaziy stadionga borib N.ning “A” klassi birinchi guruhida o‘ynaydigan mahalliy futbol jamoasi o‘yinini tomosha qildi. Stadionga har doimgidek erkaklar yig‘ilgan ekan, shu sababdan futbol spektakli vaqtida avvalgiday tamoshabinlar orasida beboshliklar bo‘lmay qolmadi. Ora-orada haqorat so‘zlar ham eshitilib turdi. Bu holatni yonlarida qizlar bo‘lmasa Qashqirboy ham tushunardi, yana N-lik futbolchilar shu kuni mutloq omadsiz o‘yin ko‘rsatgandi. Ammo bir yaxshi yeri, Natashaga ham, Lyubaga ham erkaklarning ayrim bebosh qiliqlari u kutganday ta’sir qilmadi. To‘rtovlon N.liklarning yutilib qolganlariga qaramasdan hush kayfiyatda qaytishdi. Stadion oldidagi avtobus bekatiga kelishganda Sasha Lyubani uyiga kuzatib qo‘yishni bahona qilib, bu ikkovini birga qoldirib ketdi. Qashqirboy — Kolya shoshib qoldi. Hali beti ochilmagan yosh yigit uchun Natasha kabi yosh go‘zal bilan yolg‘iz qolishning qanday vahimali ekanligini mohir donjuan Sasha Juravlyov qayoqdan bilsin!

Xudo asrab, ko‘p o‘zamay tizginni Natasha o‘z qo‘liga oldi. Ikkovi qo‘ltiqlashib ketyapti. Bu Qaramendin kutmagan bir ajoyib baxt edi-da. Natasha o‘zining oilasi haqida gapirib ketmoqda. Otasi bundan uch-to‘rt yil avval avtohalokatda vafot etgan, hozir onasi, maktabda o‘qiydigan singlisi uchovi yashar ekan. Onasi ham to‘qimachilik fabrikasida master bo‘lib ishlarkan, qisqasi, ishchi avlodi ekan. Qashqirboy ham ruschani uncha eplolmaydigan asov tili bilan bilganicha o‘z tarjimai holidan qisqacha ma’lumot berib o‘tdi. Yonidagi qalqon quloq, ko‘zlari ola, lekin o‘zi yoqimsiz bo‘lmagan, o‘rta bo‘yli, qorato‘ri osiyolik askar yigitning yetti aka-uka ekanini eshitganda Natasha hayratini yashira olmadi.

— Aytmoqchi, qo‘shnimiz Aldanish traktorchining o‘n ikki farzandi bor, — dedi Qashqirboy gapini davom ettirib.

— Ujas! — Natashaning ajoyib ko‘m-ko‘k ko‘zlari qinidan chiqib ketayozdi. — Ularni qanday boqadi?

— Nima bo‘pti? Mol bor, sigir-qo‘y deganday...

— Aytmoqchi, senlarda tuya ham bormi? — dedi Natasha negadir ko‘zlari porlab.

— Bor, albatta!

— Oh, qanday ajoyib! Meni yaqinda televizordan arab davlatlarining birida o‘tkazilgan tuyalar musobaqasini ko‘rdim. Sizlarda ham bo‘ladimi shunaqangi musobaqalar?

Qashqirboy yolg‘onni boplab to‘qib yubordi:

— Albatta, bo‘lganda qanday!

— Ax, kakaya zabava! Bilasanmi men musobaqa o‘yinlarini yaxshi ko‘raman.

O‘sha yozda Qashqirboy Natashaning yoniga tez-tez borib turdi. Bir safar ruxsatsiz ketgani uchun gaupvaxtada ham o‘tirib chiqdi. Ammo qiz turganda gaupvaxta nima bo‘libdi?! Iloj qancha ikki-uch oydan so‘ng ko‘kko‘z go‘zal soviy boshladi. “Bugun boshim og‘rib turibdi”, degan so‘zni topib olib, uchrashuvdan qochadigan bo‘ldi. Kunlarning birida Natashaning onasi — ellik yosh atrofidagi, to‘la, semizgina Polya opa — qizining yo‘lini to‘sib yurgan Qashqirboyni yoniga chaqirib olib, maslahatini aytdi:

— Bolam, sen u qizga oshiq bo‘lishingni yig‘ishtir. Uning o‘zing kabi harbiyda yurgan yigiti bor, yaqinda keladi. Qiz qachonki ayol bo‘lib oyog‘i tushovlanguncha kapalakday uchib-qo‘nib, bugun u gulga, ertaga bu gulga qo‘nadi. Bekorga ovora bo‘lib nima qilasan?!

Qashqirboy Natashaning so‘nggi paytlarda o‘zidan nima uchun qochib yurganini shundan keyin aniq tushundi. O‘sha kuni ostidagi temir karavotni g‘ijirlatib, ag‘anayverib uxlayolmay chiqdi. Shundan buyon ko‘ngli asta-sekin sovib, u tomonga qadam bosmay qo‘ydi. Buni ermak qilgan Natashadan ham, erka qizning quruq ermagiga aldanib qolgan o‘zidan ham qattiq xafa bo‘ldi. Oradagi ozgina yaqinlikning esdaligi bo‘lib, Natasha ikkovining ikki-uch bora terak tubida, ular turadigan beshqavatli omborxona uyning yarim-yorti dalda kiraverishida o‘pishib turgan paytlarigina elas-elas esida qoldi. Sasha Juravlyov esa seviklisiga yolg‘iz borib yurdi...

Qashqirboy ovul tashqarisidagi yastangan oq qumlik tepaning ustida turib, o‘sha damlarni esga oldi. “Eh, Rossiya!” deb, qancha

olov yoqib xo'rsingani bilan o'sha kunlarning qarshingdagi dalani qoplagan sarob kabi endi qaytib kelmasligi qalban sezsa ham, ko'ngil qurg'ur o'tganni qo'msab, orzu qilaveradimi, uni o'zi ham aniq anglolmadi. Tushunib bo'lmas qandaydir holat. Tepaning ustida ana shunday xayollar og'ushida biroz turdi-da, erinchoqlik bilan uyi tomonga ketdi.

Qashqirboy — Qaramendi bilan Qamqaning qornidan chiqqan yetti bolaning kenjasi. Bundan kattalari hozirgi kunda o'z holicha alohida oila bo'lib, biri — xo'jalik, biri tuman markazida, xizmatlariga qarab allaqachon taraf-tarafga sachrab joylashib ketishgan. Shu sabali ularning qarigan paytidagi bor umidi oldilarida qolgan kenjatoyida edi. Balki uning yoshlikda erka-tantiq bo'lib o'sganligi o'qishga ixlosining pastligiga sabab bo'lgandir.

Eshik oldidagi o'choqqa o't yoqayotgan Qamqa qir-adirda aylanib qaytgan o'g'lini aylanib-o'rgilib qarshi oldi.

— Mama, qanday ovqat pishirayapsiz? — dedi Qashqirboy.

— Go'sht pishiryapman, toychog'im!

Askardan kelgan yigit chirs etib yondi:

— Kajdiy den beshbarmaq — nadayelo! — dedi yoqtirmay. — Borsh pishirsangiz bo'lmasmidi?

— E-voy, poshshoginam-ov, unga "kapusta"ni qayerdan olaman? Bu qishloqning do'koniga kuzdan beri kartoshka ham kelgani yo'q. Bu yer markazdan olis bo'lsa.

Qashqirboy bu safar onasiga nojo'ya talab qo'yganini tushundi:

— Ha, mayli unda, — dedi bo'shashibgina.

Qamqa esa o'g'lini qaytadan alqab-o'rgila boshladi:

— O'zim aylanay yonib turgan ko'zingdan, qalqiygan qulog'ingdan, buzoqnikiday burningdan!...

O'ta erka bo'lgani bilan Qashqirboy onasiga ortiqcha aylanib-o'rgilishiga yo'l bermaslikka harakat qildi:

— Nu, xvatit, mam! — dedi u siltab.

Qamqaning to'xtaydigan turi yo'q. Bolasining ruscha gapirganiga qiziqib, undan battar ilhomlanib ketdi:

— Chuldiragan tilginangdan aylanay sening! "Mam" deganingdan aylandim! — deya kutilmaganda o'g'lining yuzidan "cho'lp"

etib o'pib oldi. Qashqirboy, kampirning betiga yuqqan so'lagini, burnini tirishtirgancha, kaftining orqasi bilan surtib tashladi. Mana shunday yuzidan o'pishni kim chiqargan ekan, Oqiinning onasiga muborak bo'lsinga kelgan kampirlari ham askardan kelganining dastlabki ikki-uch kunlarida Qashqirboyning yuzini so'laklab tashlagan edi.

Ayni paytda yolg'iz Qamqa emas, kichkina ovulning boshqa ayollari ham tirikchilik g'ami ila tashqari chiqishgan edi. Boyadan beri bularni tashqaridan kuzatib turgan ko'chaning qarama-qarshi tarafidagi qo'shnining xotini — Qarlig'oyim dabdurustdan radioday shang'illab so'zlab qoldi:

— Hay-hay, onam-ov, qaynimning yuzida qiz o'padigan joy qoldirmadingiz-ku rosa so'laklab. Yomon kampirning hidi urib qolibdi deb, ertaga Kenjamdan qochib yurmasin, ko'k chechak bosgurlar.

Bundaylarga haqini yuboradiganlardan emasdi Qashqirboyning onasi.

— Anavi qiltiriqlar mening oltinimning bosgan qadamlariga sadqa ketmaydilarmi! Bu nimasi-a, birdan asabni buzdi valdirab!.. — dedi u ham qo'shni kelinidan qolishmay.

Qashqirboy yana biroz shu yerda tursa, yangasi u bilan hazillashib uni ancha joyga oborib qo'yishini tushunib, otasi Qaramendining chorak asr avval qurgan uyiga qarab yo'l oldi. Shu payt uyga tezroq kirib qutilgisi kelganligidanmi, boshini eshik toqiga yaxshigina urib oldi.

— Nu, proklyataya xata! — dedi jazillab qolgan peshonasini kafti bilan ushlagancha. — Shuni balandroq qilsa bo'lmasmikin?

— Ha, nima bo'ldi, jonim? — dedi bolasining achchiqlangan ovozini eshitib qolgan onasi o'choq boshida turgancha baralla ovozda. Qashqirboy yoqtirmaganday:

— Hech narsa, — dedi-da, uyga kirib ketdi.

* * *

O'sha kuni kechqurun ovulga kir-chirini yuvib, bir-ikki kun oilasida yayrab-yashnab qaytish uchun Oqiinning qo'sh boshidagi pichanchilari yopirilib kelib qolishdi.

Ko‘pdan beri bir-birini ko‘rmay sog‘inib qolishgan bola-chaqa otasi bilan, kelinlar kuyovlari bilan, yoshlar tengdosh o‘rtoqlari bilan diydorlashib deganday, kichkinagina ovul oqshom paytida avvalgiday baqir-chaqirga to‘ldi-da qoldi. Kichkinagina ovulda yangilik yotarmidi, Qashqirboyning harbiydan qaytganini ishchilar dalada yuriboq xabardor bo‘lishgandi. Shuning uchun uylariga kirib, yuvinib-chayinib, bir-ikki piyola choy icha solib, ko‘pchiligi Qaramendining uyiga yo‘l oldi:

— O‘-o‘-o‘, o‘g‘ling kelib xursand bo‘lib qoldingmi, yanga?!

— Muborak bo‘lsin! Oxiridan quvontirsin!

— Ana xolos! Manavi Qashqirboymi? Chorpahil azamat yigit bo‘libdi-ku! Qani, kel, ko‘rishaylik, — kabi gap-so‘zlar Qaramendining to‘rt xonali paxsali uyi bilan hovlisiga tikilgan o‘tovni bir zumda g‘ovur-g‘ovurga to‘ldirib yubordi.

Ikki-uch kun oldin bo‘shab ketgan qizil g‘unajinni izlab yurgan Qaramendi chol endigina otdan tushib o‘tirgandi. U ham o‘lja bilan qaytibdi — onasidan ayrilmaydigan qizil ola buzog‘ini ergashtirgan g‘unajinni qo‘raga kirgizib, kechki choyga bemalol o‘tirgan payti edi.

Kattalar bu voqeani ham yaxshilikdan darak deyishib, bashorat ham qilishdi:

— Mehmonni qadami qut kelsa, qo‘y egiz tug‘adi, degani mana shu. Qashqirboyning qadami qutlug‘ ekan.

— Yopiray, bizning kelishimizga qarshi buzoqlaganini ko‘rsang-chi. Biz ham bexosiyat emasmiz-ov deyman, — deb baqirib-chaqirib o‘tirishibdi. Hovlidagi o‘choq boshida ham yugur-yugur.

Qamqaning qo‘shni kelinlari bilan ovsinlari biri samovarga o‘t yoqib, biri katta qozonga go‘sht tashlab, chopqillashib yuribdi. Bu qishloqda to‘yga chaqirmasa ham, barchasi bir soniyada yig‘ilishib, barcha ishlarni o‘zlariyoq boshlab yuborishadi.

Sivilizatsiyadan yuzlab, hatto minglab chaqirim uzoqlikda yotgan Qizilqumning bir chekkasidagi mana shu bir ovulida qozoq degan oqko‘ngil, bag‘rikeng xalq shu kunlarda unutila boshlagan o‘zlarining tug‘ma xosiyati — qozoqligini unutmaganligini mana shu tarzda isbotlashardi.

Bu paytda Qashqirboyni o'rab olgan qishloqning yetti-sakkiz yigiti kattalarning oldi-qochdi so'zlaridan tinglay-tinglay tashqariga chiqishgan edi. Ikki yildan beri ko'rishmagan tengdosh do'stlar harbiydan kelgan yigitni rosa sog'inib qolishgandi.

Qashqirboyni o'rab olishdi.

— Hoy, ikki haftadan beri xabarlashmay, nega dom-daraksiz bo'lib ketdinglar? — dedi Qashqirboy so'z kelganda Sultonbek sinfdoshiga qarab. Hozir u Oqiinning asosiy mexanizatori bo'lgan.

— He-e-ey, hozir mavsum vaqti-ku. Tilepboy o'ldim desang ham yubormaydi, — deya o'zini oqlagan bo'ldi. Brigadir Tilepboyning boshchiligida harbiyga ketguncha Qashqirboy ham yetti-sakkiz oy ishlagan, ammo hozir o'sha Tilepboyni uncha mensinmaydi.

— Hey, o'shandan ham qo'rqasanlarmi?

— Qo'rqmaysan-u, ammo ishning nomi ish-da, — dedi Sultonbek hijolatomuz

— Nu, ladno, — dedi Qashqirboy bu so'zni davom ettirishni istamaygina. — Hozir biznikida "vecher" o'tkazamiz. Mening harbiydan kelganligim sharafiga. Ovulda qizlar bormi?

Bu ish yigitlarga yoqib qoldi, ammo masala qizga kelib taqalganda, ancha sarosimada qolganligi sezildi.

— Kunimay bor, — dedi maktabni o'tgan yili bitirgan mayin murtli o'spirinlardan biri Aqat ovuldagi kutubxonachi qizning ismini aytib. — Haligina biz bilan birga pichandan keldi.

— Tak, durust. Yana kim bor? — dedi Qashqirboy.

Yigitlar o'ylanib qoldi. To'g'risini aytganda bu ovulda qizlar juda kam edi. Uning o'z sabablari bor. Oqiinda qizlarga ish yo'q, shu sababli o'qishni tugatiboq ular tuman, viloyat, shahar, hatto respublika markaziga ketib qolishardi. O'qishga kirgani o'qib, kirmagani o'sha yerdagi zavod-fabrikalarning birortasida ishlashadi. Uylariga qaytgach, ayrimlarini Oqiinning yoki qo'shni ovulning baloga uchragur tirranchalari ko'p o'tmay olib qochib, qutli xonadoniga qo'ndirib bitiradi.

— Aytmoqchi, Ibadillaning Aynashi-chi? — dedi oraliqda Sultonbek. — Bugun ular ta'tilga chiqib, kelishyapti. Yonida yana ikki-uch talaba qizlariyam bor.

Ana bu kutilmagan xushxabar bo'ldi. Yigitlar bir ishonib, bir ishonmay "hey, sen qayoqdan bilasan?" deganday bir-biriga hayron bo'lib qaradi.

— Rost, o'z ko'zim bilan ko'rdim, — dedi Sultonbek qasam ichmoqchi bo'lib.

— U holda — bitdi! Masala hal, deb hisoblayveringlar, — dedi Qashqirboy tashkilotchilikni biryo'la o'z qo'liga olib. — Aqat sen borib Kunimayni boshlab kelasan. Haligi talaba qizlarga esa...

— Ular bizni mensinmasdan, kelmasligi mumkin, — dedi dabdurustdan doimo ustidan may hidi sasib yuradigan Jubanish ismli yuzlariga husnbuzar toshgan, so'yloq traktorchi yigit.

Qashqirboy Jubanishning fikriga qo'shilmadi:

— A chto, mi xuje drugix? — dedi u achchiqlangancha ruscha gapirib. — Mensimay ko'rsin! Sultonbek talaba qizlarga o'zing borasan. Ular o'zlari qayerda o'qishar edi? E-ha, anavi o'zimizning Qizilo'rdadami? Nichego, bizlarning oramizda unday shaharliklarning otasini ko'rganlar ham bor.

Qisqasi oradan biror soat o'tganda, Qoramendining nishabsiz uyining to'rdagi xonasida Kunimay bilan Aynash boshlab kelgan to'rt-besh qiz va qishloqning haligi yetti — sakkiz bo'ydoq yigitlari Qashqirboyning askardan kelganligi sharafiga yozilgan dasturxon atrofida chaqchaqlashib o'tirishardi. Talabalar aroq-sharob ichishda yo'l bermaydiganlardan ekan, bu uy egasiga ham, boshqalarga ham yoqib tushdi. Asta-sekin bu kechaning bemalol, o'yin-kulgu bilan o'tadigan bayramga aylanishiga bo'lgan ishonch orta bordi. Jubanishning talaba qizlarning manmanligi haqidagi hadigi shu bilan chippakka chiqdi. Yigitlar ham, qizlar ham tadbir odatiga ko'ra kecha sababchisi Qashqirboyni vaqti kelganda tabriklab o'tirishdi.

— Men chiroyli gapirolmayman. Aytadiganim shuki, yurtimiz jangchilarining shuhrati ortaversin! — dedi so'z navbati kelganda harbiydan kelgan yigitning yonida o'tirgan Qalamqosh degan talaba qiz. Eng chiroyli chiqqan so'zlarning biri shu so'z bo'ldi. Qashqirboy bu so'zga o'rnidan turib ichib yubordi.

Adolat qilib aytganda, unga Qalamqoshning faqat so'zi emas, o'zi ham: hilpirab turgan sochlari bilan chaqnab turgan o'tkir qora ko'zlaridan boshlab, jussasiga tanasi bo'ylab yopishib turgan yub-

kasigacha yoqib qolgan edi. Qashqirboy so‘z navbati kelganda Rossiya haqida, o‘zi xizmat qilgan N. shahri haqida alohida zavq bilan gapirib o‘tirdi. Bir payt to‘lqinlanib ketib:

— Yigitlar, Xudo haqqi, mana shu miyani qaynatguvchi, it bog‘lasa turmaydigan manavi cho‘l-u biyobonda qanday chidab yurganinglarni bilmayman, men oxir-oqibat Rossiyaga, N.ga ketsam kerak, — deb yubordi.

Rossiyaga qaytish, ketish fikri Qashqirboyning xayolida yo‘q edi. Aytadiganini aytib qo‘ysa ham, aynan hozir ko‘nglining shu paytgacha o‘ziga ham no’malum qalbining tubidan: "Ha, ketsa nima bo‘pti! Ketaman-u qolaman" degan bir nizoli fikr bo‘y ko‘rsata boshladi. To‘g‘risini aytish kerak, askar yigitning mana shu fikri ko‘pchilikka yoqmay qoldi. Ammo qozoq kengfe’lli emasmi, dasturxon atrofidagilar uy egasining bu "erkaligini" kechira qoldi

— Eh-he, hozir shu yerda rus samagoni bo‘lganidami. Samagon yaxshi-da, ajoyib, birdan qoningni shopirib tashlaydi, — dedi Qashqirboy yana bir so‘zida. Uning dasturxonda davlat ishlab chiqargan toza aroq-sharobining tur-turi to‘lib turganda samagonni orzu qilishi hamqishloqlariga qandaydir erish tuyuldi. Askardan xizmatini tugatib qaytgan mana shu befoyda "rossiyalik"ning xulq-atvori saldan keyin ayrim yigitlarning izzatiga tega boshladi.

— Qashqirboy, sen bunday... safsata sotavermasang-chi. Hammamiz ham mana shu ovulda o‘sib-ulg‘aygan edik-ku, — dedi sinfdoshi Sultonbek chiday olmay.

Dasturxon boshida ikkovi gap talashib qoldi. Oraga qizlar tushmaganda, shu zahoti ko‘ngilsizlik boshlanishi mumkin edi. Tun o‘rtasi yoshlar toza havoga tashqariga — hovliga chiqishdi: ichkilik ichib, musiqa tinglab ko‘ngil ko‘tarmoq qanchalik maroqli bo‘lgani bilan, endi har kim uy-uyiga tarqalishi kerak edi.

Go‘zal Qizilqumning qora-ko‘k osmonida yulduzlari jimirlagan mayin tuni ajoyib-da! Mana shu o‘ttiz-qirq uyli kichkina ovul shirin uyqu og‘ushida. O‘n besh kunlik to‘lin oy dunyoni oq harir nuriga cho‘miltirib, tun beshigiga belab, alla aytmoqda. Mayin shabada salqin nafasi bilan erkalab, yer kindigidan o‘sib-ungan barcha mavjudotni birozgina tin oldirib, rohatlanmoqqa chorlaydi. Atrof jimjit, faqat ahyon-ahyon qo‘radagi qo‘ylarning pishqirgani, bolajon sov-

liqlarning qo‘zilarini izlab ma’ragani eshitiladi. Hovliga chiqqan yoshlar oldiniga mudrayotgan tun sokinligiga sehrlanib, bir on hayron turishdi. Saldan keyin shovqin-suron boshlandi. Qashqirboy bilan Sultonbek talaba qizlarni kuzatib qo‘yishga shaylandi. Ana, Aynash bilan uning dugonasi yonida Sultonbek, ulardan yigirma-o‘ttiz qadamcha orqada Qashqirboy bilan Qalamqosh qator kelishyapti.

— Sen menga yoqib qolding, — dedi Qashqirboy qizga.

— Qo‘ysang-chi! — dedi Qalamqosh keskin ovozda.

— Rost aytayapman, — deb Qashqirboy qizning yelkasiga qo‘lini qo‘ydi. Talaba qiz yigitning qo‘lini sekingina olib tashladi.

Qizning bu qilig‘i ichimlik ichib olgan, yoshlik g‘ururiga bo‘y bergan yosh yigitning izzat-nafsiga tegdi. Qandaydir maqsad sari tavakkal qilgan Qashqirboy birdan qizni o‘zi tamon zo‘rlab tortib, quchoqlab, uning issiq, yumshoqqina mayin lablaridan o‘pib oldi. To‘y egasining bu odobsizligidan shoshib qolgan qizning oldiniga birdan ovozi chiqib ketdi-da, so‘ngra darrov o‘zini o‘nglab olib, o‘ziga qarab qaytadan intilgan yigitning betiga bir shapaloq urdi.

— Saldofan...

Qashqirboyning yuzi achishib ketdi. Dabdurustdan chiqqan baqiriq va shapaloq ovozi, ayniqsa, bunday osoyishta yoz tunida aniq-tiniq eshitildi. Sultonbek bilan Aynashlar ham shu zahoti orqa tomonda yolg‘iz qolib ketgan qiz bilan yigitning yonlariga yugurib kelishdi.

— Nima deding?! — dedi Qashqirboy kafti bilan jag‘ini silagancha, Qalamqoshga betma-bet kelar ekan.

— Eshitmadingmi?! Saldofan ti, bolshe nikto! — dedi Qalamqosh qaltiroq ovoz bilan.

O‘zining nima qilib, nima qo‘yganiga hisob berolmay qolgan Qashqirboy temirday qo‘llari bilan qizning yoqasidan olib, uni itarib yubordi. Qizlar qichqirig‘i sukunatni buzdi.

— Hoy, sen jinni bo‘lib qoldingmi?! — Qashqirboyning bu ishiga tushunmagan Sultonbek yugurib borib uni quchoqlab oldi.

Jahlga mingan Qashqirboy Sultonbekni mushti bilan savalab ketdi. Shundan so‘ng u ham qarab turolmadi. Tasir-tusir musht ovozlari, hansiragan tovushlar, ahyon-ahyonda tish orasidan chiq-

qan zaharli so'zlar kutilmaganda ajoyib kechaning dabdalasini chiqardi. Qora suvoq uyda yotgan saq quloq Qaramendi chol shu zahoti eshik olida yotgan kalishini yalang oyog'iga kiyib, o'tov panjarasida osilib turgan o'rma qamchisining sopini jahldan qaltirayotgan qo'lida qisib ushlagan holda, yoqavayron bo'layotganlarning yonlariga yetib keldi. U kelishi bilan yo'l-yo'l ko'ylakli Qashqirboyning ko'k yelkasiga sakkiz o'rmali qamchi bilan solib-solib qoldi.

— Hoy, noinsof, sening jiningni shu yerda qoqib olayin! Voydod, tinchgina uxlab yotgan elning tinchini buzgani-ey manavining!

Qashqirboyning qamchi tekkan beli qiyshayib ketdi.

— Otets, uspakoysya! — dedi u shu zahoti sakkiz o'rmali qamchining bir uchidan tutgancha. Qilayotgan gunohi kamday yana otasiga ruscha chuldiragani Qaramendining jahlini undan battar qo'zdirdi.

— Manavi hezalak menga "ispakoy" deydi-ya. Qozoqning yomoni haligi ... bir narsa bo'ladi deb... Hoy juvonmarg, ruslashgan bo'lsang, shu elning yaxshi xislatlarini nega o'rganib kelmading, a?! Seni haligi "komandiring" mana shunday tinch yotgan elning tinchini buz, deb o'rgatib yubordimi? Xayf, manavi noinsofni-ey. Ertagayoq boshliqqa aytib, pichan o'roqqa jo'natay men seni, ko'zingni ko'k pashshalarga to'ldirib! Senimi, seni!

Shu orada ko'kimtir sochlari to'zib ketgan Qamqa kelib qolmaganda, bu voqeaning yakuni nima bilan tugashini tasavvur qilish qiyin edi. U yolvorib:

— Voy-dod qo'yinglar! El-yurtdan uyat-t!.. — deb, cholining oldini to'sib oldi. El-yurtning nomi aytilganda Qaramendin ilojsiz to'xtab qoldi. Bu vaqtda Sultonbek ham, talaba qizlar ham o'z uylariga ketib bo'lgan edi.

— Ketaman, ertaga ketaman N.ga, bunaqangi el-yurt qurisin!.. — dedi yoniga onasi kelgach qaytadan qutirgan Qashqirboy yig'lamsirab.

— Ketsang undan nariga, qaytib menga qorangni ko'rsatma! — Qaramendi shu so'zini aytdi-yu, yalang oyoq kalishini shipship bosib, qora suvoq uyiga kirib ketdi.

— Qo'yaqol, poshshoginam, qo'y! Otangning bir achchig'ini kechira qol, — deb yolvorindi onasi sho'rlik ikki o't o'rtasida qolgancha.

— Yo'q, hech kimni kechirmayman, ketaman Rossiyaga!

— Qo'y deyapman senga. Ahmoq bo'laverma o'g'lim-ov. Butun elga sharmanda bo'ladigan bo'ldik. Bor, yotib damingni ol, poshshoginam!

Saldan so'ng Qashqirboy uyga kirdi, noiloj o'rniga yotdi. To'shakka yotganidan so'ng ham ko'p vaqtgacha achchig'i bosilmadi. "Bunaqangi el-yurti qurisin, ketaman!" dedi kimlarnidir qo'rqitmoqchidek tishlarini g'ichirlatib. Ko'p o'tmay, asta-sekin o'ziga kela boshladi "Ma'qul, ketib qoldim deylik. Shunda qayoqqa boraman? — dedi achchig'idan tushib, aqlga kelgan bir paytda u o'zini-o'zi tergov qilib. — N.gami? U yoqda kimim bor? Natasha meni allaqachon unutib yuborgan. Hozir askardan kelgan yigitiga turmushga chiqib olgandir. Hozirgi qizlarning ahvoli ma'lum. Qo'zi Ko'rpesh bilan Bayan suluvlarning paytidagi zamon ordona qolgani qachon. Anavi Sasha Juravlyov esa, albatta, Sibirda, tug'ilib o'sgan qishlog'ida rohatlanib yurgandir. Aqlli, epli yigit-ku, bunga o'xshab oy-kuni o'tib otasidan kaltak yeb, safsata sotib to'shakda yotibdi deysanmi. U holda bu N.ga kimni, nimani izlab bormoqchiman?..." Shunga o'xshash odamning yuragini ezuvchi xayollar girdobida yotib, Qashqirboy bir payt uxlab qoldi.

* * *

Qaramendi va'dasida turdi. Ertasi kuni peshindan keyin dalaga qaytayotgan pichanchilar bilan birga bahaybat "K-700"ga tirkalgan tirkamalarning birida, ustidagi dengizchilarning ola yo'l-yo'l ko'ylagi sal-pal oqarib qolgan Qashqirboy ham chayqalib ketib borardi.

Boshga savdoni hamma tilab oladi. Kim biladi, agar odobli bo'lib yurganida, onasining unga atab saqlagan qurti bilan qaymog'ini yeb, yana biroz vaqt erkalanib yurarmidi? Endi iloji yo'q. Aytganday, shu oraliqda uning o'sha kuni tunda tush ko'rganini ham aytib ketmoq kerak. Tushida ot chopadigan katta stadionni aylanib Natasha ikkovi ikki tuyada chopishib yurganmish.

QUANISH JIENBAY

(1952)

Quanish Jienbay 1952-yil 3-mayda Qizilo'rda viloyatining Orol tumanidagi Bo'gen ovulida tug'ilgan. 1976-yilda Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

"Yolg'iz yelkan" (1984), "Dengizdagi bir tomchi" (1986), "Qulon nigohidagi umr"(1988), "Zilziladan bir hafta avval" (1996), "Shuhrat turmasining asiri" (2000), "Yanglishyapsan, azizam" (2004), "Yurtda yo'q qoidalar" (2006), "Jiydali to'qaydagi yetti kun" (2007), Ikki jildli asarlar to'plami (2008), "Qo'shiqqa hali erta" (2008), "Kun tushmas deraza" (2012), "Yer yuzida ham jannat bor" (2017), "Kuzning iliq yomg'iri" (2019) kabi o'ndan ortiq nasriy to'plamlar muallifi.

KICHKINA ODAMLAR

Eh, odam-a, aql-hushi sog'mi o'zining, avval uy ichi bilan maslahatlashib olmaydimi?! Otamning fe'li chatoqroq edi desa, ana, onasining ko'zi tirik-ku, oyog'i yerga tegmasdan ovul-aymoqni tugal kezib, chopqillab yuribdi. Unga quloq qoqish qilsin edi. Eshquvvat menga nega shipshib qo'ymadi deb g'ijinsa nima deysan? Bunday yangilikni, yangilik bo'lganda ham yuragingni sug'urib oladigan darajadagi holni ichga yutib, unsiz yuruvchi matonat Irisbekaga xo'r bo'lib qaydan keldi. U shu kezda chala uyg'onib, favqulodda tepasidan osmon qulab tushganday faryod solar. Eshquvvatdan boshqa orqasuyar kimi bor? Tinglasa ham, tinglamasa ham yer tepkilab bor achchig'ini undan olar.

Shunday endi, shunday... Kenjasi Meyramgul tolchiviqday buralib xon qiziday erkalab-elanib bo'y yetdi, mana! O'qidi, to'liqdi. Viloyat markazidagi ajabtovur idoraning bilimdon xodimi. Tur-

mushga chiqaman, vaqti yetdi desa kim ham qarshilik qilardi. Eshquvvatlar: "Yo'ling bo'lsin, chirog'im, baxtli bo'l", deb aytishi aniq. Undan ortiq tilak bo'larmidi sirasini aytganda! Endigi masala el-yurtni tong qoldirmasa ham, qo'ldagi qo'r-quti bilan dunyoni yorqiratib, quda-andani kutib olib, chiqarib solish. Masala shunda. Eshquvvat tevarakdagi evi butun, o'ng-so'ngini ajrata bilishi bilan birga so'zning tub mohiyatiga yetuvchi, aniqrog'i — birovlarga aytganini o'tkazib bajartira oladigan e'tiborli azamatning biri. Obro'li. Ovul orasidagi ming'ir-ming'ir g'iybatlarga aralashmaydi, bo'y-bastini toza tutadi. Mana, shunday odam suyukli kenjasini sep-zebi bilan uyidan o'rab-chirmab chiqara olmasa uyat, uyatning ko'kasini ana shunda ko'rasan!

"Kelasi oyning boshida qudalaringizni kutib olinglar!" deb xabar yo'llabdi qizi omon bo'lgur! Barakalla! Choy-suvi, so'qim moli, aroq-sharobi topilar ku-ya. Eshquvvat u tomondan qisilmaydi. Ozib-yozib yuz choqli quda kelsa ham barcha-barchasin g'ing degizmay kutib olishga quvvati yetarli. Qo'lini bog'layotgani — haliginday yurtga bosh og'ritadiganday qiyin masala bo'lmasa ham, o'zlari uchun haligacha tugunini yechish mashaqqat bo'layotgan gap. Bu — manovi tiyinga ham qimmat sanalgan elektr chirog'ining mashmashasi. Goh kulasan, goh asabing qo'zib, jinniga aylanishing turgan gap. Amaldagilar Xudo ko'rsatmasin, lunjlarini shishirib puflab-kuflab va'da berishganda ajablanmang, "men qayoqda yuribman?" deb o'zingizni koyib. "Senlar nima, to'qoldan tug'ilganmidinglar, tez qimirlab taraqqiyot karvoniga ilashinglar, internetdan foydalaninglar, bolalaringni inglizcha o'qitinglar!..." Voh-ey, "yorqin kelajak" qo'l yetar joyda qo'l silkitib turganday. Boshqasi mayli, jahonga mashhur Boyqo'ng'ir kosmodromining naq biqinida o'rin olgan Eshquvvatlarning ovulida chiroq yo'q. Hammasi bor ku-ya, falon deyishga beting chidamaydi. Kosmodrom, undan narida Qo'rqit ota maqbarasi. Yer yuzining burchak-burchagidan oqib kelayotgan sayyohlarning soniga sochingning toli ham yetmas. Naqd dunyoga ochiladigan oltin darvoza. Ko'ksingni g'oz ko'tarib ko'kka tirab, orting yirtilguncha baqirging keladi. Banda emasmi, yo'l-yo'lakay notanishlar yo'liqqanda, ayniqsa

tezyurar poyezdning yumshoq vagonida chayqalib ketayotganida Eshquvvat ham shunday kerilgandir, balki. Po‘sht, hovuringni bos!

Aytdi nima, aytmadi nima, shu kungi hayoti unga alam qiladi, yuragi yulinib og‘ziga tiqiladi. Markazdan chekkada manzil tutganlari uchun bular aybdormi? Tumanning gullab-yashnashiga qurbi yetguncha bu ovul ham hissa qo‘shgan. Hali ham qatordan qolishmayapti.

Bir to‘da yoshlar bo‘limchaning nomidan borib, port-shaharga qatnashib, har turli ishlarda ishlaydi. Hammasiga birday biznes bilan shug‘ullanish qayda?! Biri payvandchi, biri Qizilqumdan podachilarga quduq qazib beradi. Barchasi chetidan tepsa temir uzadigan yigitlar. Eshquvvatning boshida bu ma’lumotlar toshga bitilganday, bulbulday sayrab turibdi. Faqat tinglar quloq topilsa deng. Ajablanarlisi shuki, tumanning elektr ta’minoti bilan shug‘ullanuvchi idoradagilar: “senlarga shu yetmayaptimi?” deganday, chirog‘i qurmagur bir-ikki soat yonib turadi-da, qosh qoraya ovqatingni ichib bo‘lar-bo‘lmas yov tekkanday lip etib, o‘chadi-qoladi. Shundan to kelasi kungacha atrofing tosh qorong‘i zulmatga cho‘madi. Televizor soqov. Aytishuvni ham, terma xabarini ham ko‘ra olmaysan.

Xo‘sh deganda, unisiga ham ko‘narsan-a... Shunday kezda turmushga chiqaman deb yulqinib o‘tirgan manovi Meyramgulga nima dersan? Unga baribir, qiynaladigan Eshquvvat. Qudasi ovuldan chiqqan bittasi bo‘lsa so‘z bormi, bo‘lar ahvolni tushunardi-ku, qudalikning urf-udumini kun yorug‘ida yasab, karnay-surnay chaldirib, katta ko‘chani boshlariga ko‘tarib, kech botarda uylariga tarqashardi. Irisbekaning og‘iz ko‘pirtirishiga qaraganda, keluvchilar viloyatni suyab turgan “kattalar”. Kezi kelganda bir necha yengil mashinada yo‘lga chiqishmoqchi ko‘rinadi. Ayolida ham es yo‘q, bor dunyo shunga tayanib turganday, qo‘noqlarni chegaradan kutib olishimiz durustdir deb joni halak. Yo‘ling bo‘lgur-a, muncha vahima qilmasa, shu ham tashvish bo‘ldimi?! Kerak desa, Eshquvvat ularni Qorao‘zakning bu tarafdagi qulamasidan kutib olar.

Bu muammoni tasavvur qilishning o‘zi mushkul... Qudalikning qizig‘i eng avjiga chiqib, quda va qudag‘ay qo‘ltiqlashib, yosh juftliklar qo‘sh oqqushday tizilib, endi o‘rtaga chiqa berganida chiroq

lip etib o'chib qolsa-ya... Ana masxara! Qir-adir oshib chopqillab qilgan asl mehnating bari puch. Taltayib, oqqaynar (aroq demoqchi) ning ko'pigini ko'proq chayqatganlarning nimasi ketardi, etidan tilib olganday jon orqasi jizillab, ichmay-yemay qora terga tushadigan Eshquvvatda. Ertaga shunday ko'yga tushmaslik uchun Eshquvvat nima qilishi kerak? Chaqmoq urgandek, Meyramgul bizni behudaga qiynamasin. Turmush qurish degani grafikdan adashmay, kosmodromga naq vaqtida, daqiqa ham kechikmay yetib keladigan yuk poyezdi emasdir. Biror hafta ortga surilsa hayot chizig'idan chiqib ag'darilib ketmas... Endi bu tarafda Eshquvvatlar ham qo'l qovushtirib qarab o'tirishmas. Biror muammoning yechimin topishar. Eng asosiysi, elektr quvvatini maromiga keltirgani afzal.

Uyqu chala. Uzoq safarga otlanadiganday bugun ham xo'roz qichqirmasdan to'shagidan turib ketdi. Irisbekaning "qayoqqa?" degan savoliga til ham qotmadi. Haligi xabardan so'ng aql-hushidan ayrilgan. Eshquvvatning ilgari bunday parishonxotirligi yo'q. Ha, nima ham qilarding, kecha kechqurun hovlining narigi burchidagi qamish saroyning eshigini tambalashni unutibdi. Anqayib ochiq yotibdi. Tanasidan tok urib o'tganday bo'ldi. Bundayda xayolga birinchi yomonlik kelishi odat emasmi... Hozir o'g'rini uzoqdan izlashga hojat ham yo'q. Zamonning niyati buzilib, qo'sh o'pkani qisa boshlaganini shundan ham bilsa bo'ladi. Odamlar bir turli... boyagi emin-erkin ochiqko'ngil ko'zqarashning urvog'i ham qolmagan. Tog'a-jiyanligini pesh tutib, hazil-chin aytuvchilar siyrak. Keyingilarning salom-aligini ham sotib olasan. Qulog'iga qo'yning qumalog'iday bir nimani qistirib oladi-da, jin urganday o'z-o'zi bilan gaplashib, o'z-o'zidan tirjayib kulib, yoningdan suzilib o'taveradi. Ular uchun shu atrofga bir tirik odamday mehnati singgan, bo'limni boshqargan, brigadir bo'lgan, namunali oila boshchisi sifatida tanilgan Eshquvvat ham bir, og'ziga yuz gramm tegsa yonboshidan nam tekkanini ham sezmay, ariqmi, chuqurmi, farqi yo'q, ko'zi kirtiyib, yiqilib yotadigan aroqxo'r ham bir. Qani, bunga nima deysan?! Oqibat, qaydagi oqibat, bir qorin talashib tushgan tug'ishganlar o'rtasidagi munosabatga darz tushgach, boshqasiga yo'l bo'lsin?! Eshquvvat anov oxirzamonni sud-

rab olib kelib ko'zingga ko'rsatishdan yiroq. Desa ham, ko'zing bilan ko'rib turganni aytmaslikning chorasi bormikan-a. Muruvvat tag-tomiri bilan yulingan. Bo'lmasa, shu ovuldagi amal-taqal qilib, kunini zo'rg'a o'tkazib yurgan Omonboy qariyaning buzoqli sigirini kunning yorug'ida birovlar qo'rasiga yetaklab olib ketarmidi?!

Qamish saroyga qo'rqa-pisa bosh suqdi. To'yning yasan-tusani bekam-u ko'st shunda. Uch oyoqli "Ural" mototsikli bilan aroq-sharobni ham yashiklab tashigan. Kampit-mampiti qo'sh-qo'shidan. Yo'q, suyuq qo'ldan omon ekan hartugul. Og'ir xo'rsinib, ortidan miriqib tin oldi. Kaftlarini ishqalab bir urib, miyig'ida kuldi. Kaliti tushmagur chiybarqut kostyumining cho'ntagidan chiqib qolmasi bormi... katta-kichik molning oxuriga panshaxa bilan cho'p soldi. Birozi ertaag so'yiladi.

Meyramguldan hech narsani ayamaydi. Bari yaxshi, anov-manov kamu-ko'stini yo'l-yo'lakay eplar. Eshquvvatning baxtiga barcha ishlariga "Ural" mototsikli yarab turibdi. Ulov, ulov bo'lganda qanday! Tepkisiga bir tepasan-da, tarillatib tumanga chopqilaysan. O'tin-suving ham shuning zimmasida. Bugun ham tumanga bormoqchi bo'lib, oldindan rejalagan. Erta turgani sababi ham shu. Izlagan odamingni idoraga kirar joyida ushlamasang, undan keyingisi ovoragarlik. Idoradagilarniki bitmas, tugamas uzzukun yig'ilish. Ertadan qora kechgacha tugamaydi. Ularning qachon ish bajarishlari noma'lum.

Eshquvvatniki bittagina yumushi boyagi. Manglay terisini to'kib mehnat qilgani bor, el o'rtasida obro'si bor, quda kelgan kuni elektr yorug'i tun o'rtasigacha yarqirab tursa... Shunga qiynaladigan nimasi bor-a! Pulini to'lashdan ham qochmaydi. "Ural"ning u yer, bu yerin kovlab, saroydan tashqariga olib chiqdi. Kun iliq. Qora kuzning so'nggi kunlari yog'in-sochinsiz ochiq bo'ladigan turi bor. Hovlining bu burchidagi tol-terakning sarg'ish yaproqlari shabadada yengil tebranadi. Ola qarg'aning qaysi butoqqa qo'nib o'tirganini aniq payqay olmadi. Qar-qar. Yerdan barmoq boshicha keladigan tosh olib, uchirib yuboray-chi deb shaylandi-da, keyin niyatidan qaytdi. Qushning tilini tushunishga chama qayoqda. Eshquvvatga oq yo'l tilab tursa, buniki ko'rar ko'zga xiyonat.

— Qayoqqa? — Irisbeka shoshilib-entikib ko‘ylakchan tashqariga chiqa solibdi.

— Oyga! — Eshquvvatning tag‘in fe’li aynidi. So‘nggi kezlari ayoli bilan nega til topisha olmay yurganini haligacha tushunmaydi. Mayda-chuydaga ham urishib qolishadi. Irisbeka ham shuniki durustdir deb qo‘ya qolmaydi. Biroz yergacha talashib tortishadi. “Meyramgulni kulga ag‘nab tuqqanim yo‘q, sen otasi bo‘Isang, men onasiman” deganga sha’ma qilaveradi. Quda kutishga qatnashadigan yoki bularga qo‘l uchin beradigan og‘ayni-tug‘ishganning tizimi eng kami o‘n marta qayta yozilib, qayta o‘chirilgandir. Biriga unagani, biriga yoqmaydi. “Qizimizning uzatish to‘yi o‘tguncha ajrashib ketmasak”. Eshquvvatning bu gumoniga Irisbekaning ham berar javobi tayyor: “Mayli, to‘qol olib, bo‘lak chiqaman desang ham yo‘ling ochiq”. Undan nariga hangoma cho‘zilmaydi. “Rostdan aytyapsanmi?” deganday Eshquvvat ayolining yuziga o‘g‘rincha ko‘z tashlaydi.

— Choy tayyor, nonushtangni qilib ketsang-chi hech bo‘lmasa. — Irisbeka sekin kelib kuyovining yelkasidan chang qoqqan bo‘ldi. Bunday g‘amxo‘r iliq tovushni Eshquvvat dunyoni gir aylansa ham topa olmas. Sezilar-sezilmas yumshaganday bo‘ldi. Irisbekani ham ayagani afzal bir jihatdan. Unga ham oson emas. Obro‘ har ikkisiniki. Ba’zan dovlashib oshirib yuborishini nega yashirsin. O‘tog‘asi aytdi, bitdi, shuniki ma’qul, deb ko‘na qolmaydi. Biqindan musht tushirishga usta. Hoy, bunga bir oilaning tizginini jilovlab o‘rganib qolgan Eshquvvat ko‘narmikan?! Hozircha to‘qol olish o‘yiga kirib chiqmagandi, biroq kuch-quvvati hali o‘zida.

— Shoshib turibman! — Mototsiklning kalitini burab qolgani shu, tarr eta qoldi, yaragur. Anchayinda ikki-uch tepkisini bosganida ham o‘t olmay, biroz ovora qilguvchi edi. Moy o‘tkazuvchi naychalarni tozalaguncha, Irisbekaning ham bo‘tqasi tayyor bo‘lar deb, ichak-qorni chuldiragandi. Shaharda unga dasturxon yozib kutib o‘tirgan kim bor ekan.

— Qanaqa ish? — Irisbeka achchiq qilganday o‘tirg‘ichga dik etib, qo‘nib olgan Eshquvvatni tortqiladi. — Bekorga ovora bo‘lasan!

Qora ish pishitgan hamma ayollarda uchrayvermaydigan kurakday kafti bilan kuyovining yelkalaridan siladi. O‘t olgan mototsiklning oldingi g‘ildiragini butining orasiga qistirib, Eshquvvatning zahil tortgan yuziga tikilib boqdi.

— Yo‘lni to‘sma! — dedi Eshquvvat. Jerkib aytdi. Bir tarafdan qaysarligi tutsa, undan yaqin vaqtda qaytishi qiyin edi. Gazga undan battar kuch berdi. Hovlining ichi ko‘k tutunga to‘ldi.

— Ko‘pchilikka masxara bo‘lma!

— Masxara bo‘ladigan nima qilibman?!

— Bekorga charchaysan, bu ish hozircha hal bo‘lmaydi.

— Sen buni qayoqdan bilasan?

— Bilaman.

— Buning bilag‘onligini qara-ya!

— Uning kaliti tumanda emas, shu yerda. Bir kishining ko‘ngliga yo‘l topsang, qolgani risoladagidek hal bo‘ladi.

— Voy, avliyoginam, folchiligingga baraka bersin! — shamol tegmasin deb taqadigan ko‘zoynagini manglayidan tushirgan Eshquvvat ayolini chap qo‘li bilan nari itarib surgach, orqa g‘ildirakdan uchgan quyuq chang to‘zonini burqsitib sochib, hovlidan otilib chiqdi.

* * *

O‘tgan safar ham quyunday borgani bilan, hech natijaga qo‘l yetkaza olmagandi. Tuman xalqini elektr quvvati bilan ta’minlovchi hissadorlik jamiyati raisi Eshquvvatning arzini ko‘zi baqrayib tinglagani bilan javobini maydalab, chuvalashtirib yubordi. Ikki tomonga ikki marta ovora bo‘lgan kishi gapga chechan. Aytar so‘zini obdan o‘ylab pishitib olgan. Eshquvvat keng kabinetda o‘tirib, bo‘sh kezida mudrasa, nima deysan. Avtomatning o‘qiday tarillatib turib: “Oldingizga birinchi kelishim, chirog‘im. Tukka ham arzimaydigan ish, hatto uchrashmasak ham bo‘lardiku-ya. Sizning qizingiz ham bo‘y yetar. Quda tamon qachon singishib ketguncha sinamasmi... Yana begona odamlar. Shuning uchun quda kelar kuni bizning ovulning svetini o‘chirmang! Men ham yot emasman. Shu elning o‘ti bilan kirib, kuli bilan chiqqan ko‘kang mana, oldingizda...”.

"Chiroqni o'chirishning ham biror vaj-karsoni bordir, axir. Chiroqqa qarz bo'lsangizlar, men uni cho'ntagimdan to'laymanmi? Mijozlarni shunday tartibga solmasak, bizni odam qatoriga qo'shishmaydi. Hokimiyatda yig'ilishim bor edi", deb, qo'zi qornini stolning chetiga tirab, arang ko'tarilgan rais ketishga hozirlandi. "Manovi kishiga tushuntirib, javob beringlar", deb kotibasiga uqtirib tayinladi. Eshquvvat ichidan moy chiqadiganday bir-bir kompyuterni quchoqlab, ekranga tikilgan bir guruh qiz-kelinchaklar o'rtasida qayoqqa boqishni bilmay, biroz vaqtgacha serrayib turdi.

— Bu yoqqa yaqinroq keling, — dedi sochini sarg'ish tusga bo'yagan oq-sariq kelinchak. Balki turmushga chiqmagan qiz.

— Men — Ko'hnabo'gan bo'limining turg'uni Eshquvvat Azbergenov! — safdagi soldatday ism-familiyasini shartta ayta qoldi.

— O'tiring. — Kompyuterning ekrani bir necha marta o'chib-yondi. Faqat suluv jononlarni tanlab shu yerga yig'ishganmi, biridan biri qolishmaydi. Ustidagi shaiviragan kiyimidan qisildimi yoki chang bosgan botinkasi ko'ziga so'galday ko'rindimi, haytovur Eshquvvatning bo'yini bir turli junjikish egalladi.

— Siz qarz emassiz, — dedi haligi suluv ekrandan ko'z uzmagan ko'yi.

— Albatta! — Tepasidan bosib turgan og'ir yuk qulaganday Eshquvvatning tovushi qattiqroq chiqdi. — Biz nafaqa qo'limizga tegishi bilan qarzdan qutilamiz. Bizning ovul shunga o'rgangan.

— Qarzdan qutilmaganlar ham bor hali...

— Ular kimlar, menga ro'yxatini bersangiz, bugun borib otalarini ko'zlariga ko'rsatay! Mening qizim turmushga chiqayotganda... — Eshquvvat masalaning yechimini topganday o'rnidan uchib turdi.

— Endigi kelganingizda ro'yxat qo'lingizda bo'ladi. Ko'ryapsiz-ku, oy oxiri. Hisob-kitob, burnimiz bilan cho'qilab yotibmiz.

Eshquvvat oynavand eshikning dastasiga qo'l uzatayotganida kimlarningdir pichingi qulog'iga chalindi:

— Chiroq nega kerak bularga? Qayta... shunday imkoniyatdan foydalanib, qozoqning sonini ko'paytirishmaydimi. Zamonida chiroqsiz ham umr surdi-ku bu qora xalq. — Birovlar kuldi, balki birovlar boshlarini chayqashdi. U yog'i Eshquvvatga ahamiyatsiz edi.

Mototsiklning tezligini kamaytirib, yo'l ustida rulni darrov ortga burdi. "Irisbekaning haligisi nima alahsirash! "Uning kaliti shu ovuldagi bir kishining qo'lida". U kim, butun ovulga chiroq bergizmaydigan, u qayoqdan chiqqan Xudo?!" Mototsikl tumshug'i bilan darvozani qulatayozib, hovlining tashqarisiga kelib arang to'xtadi.

* * *

— Tez qaytding-ku, — dedi Irisbeka katak tarafdan etagiga to'rt-besh tuxumni solib olganicha hech nima payqamaganday, sal jilmayib. Eshquvvatning rangi o't o'chirganday. "Nega yetishib kuladi bu ahmoq?! Shunisiga yelkasidan boplab musht tushirsam, "qo'y" deydigan kim bor? Hali meni masxara qilyaptimi?!"

Qo'ng'ir ko'zoynagini dahlizdagi temir karavotning ustiga tashlay solib, yonidan o'tib borayotgan ayolining yo'g'on bilagidan ushlab oldi.

— Mendan yashirgan qanday xufyang bor, qani, joning borida ayt!

— O'zing-ku...

— Nima "o'zing?"

— Dunyoni tutib turganday odam bilan gaplashmaysan, juda! — erining qo'lidan arang qutilarkan. — Avval ayolni tinglash kerak, ayol zoti bilmagan xufya yer tagida. Bor baloni chiqarib yurgan sening do'sting.

— Kim?!

— Kim bo'lardi. Sangqiboy!

— Sangqiboy? — Eshquvvatning tovushi undan battar jaranglab, o'shqirib eshitildi. — U oqsoq nima qilibdi shuncha?

— Qayoqdan bilaman, o'zidan so'ra. — Irisbeka peshonasidan siljib borayotgan oq ro'molchasini tuzatib, ikkinchi qo'li bilan kuyovining alg'ov-dalg'ov kiyimini tuzatishga ulgurmadi: — Ikkoving bir nimaga aralashib, elga sharmanda bo'lmanglar! Senlarniki qad kerganlaring ko'krak bo'm-bo'sh. Bo'lmasa, ikkoving ham kichkina odamsanlar. Bugungi kunda kichkina odamlarni hech kimsa tinglamaydi.

— Nima?!

— Nima eshitsang shu! — Irisbeka ham to‘g‘ri kelgan so‘zni ichga yutgisi kelmadi. Yana behol qaqqayib qolgan Eshquvvatning yonida nega turibman deganday, shart burilib etagidagi tuxumlarni kuyovining ko‘zoynagi yotgan karavot ustiga sekin tera boshladi.

— U oqsoqning sog‘ oyog‘ini sindiraman! — deb Eshquvvat tayyor nonushtaga ham boqmasdan, hali sovumagan “Uralning” tepkisiga bir tepdi-da, o‘tirg‘ichga bukchayib qayta qo‘ndi. Sangqiboyning uyi ovul tashqarisidagi do‘nglik tepasida. O‘tgan yili shahardagi bolalari yopirilib, qizil g‘ishtdan hashamlab uy qurib berishgan. Ko‘chirishga otasi ko‘nmadi. “Suyagim shu yerda qoladi”, debdi oyoq tirab. Durust uniki. Eshquvvat bilan qurdosh. Qurdoshligidan avval ovuldagi ta’bi tuzuk odamning biri shu. Bo‘lsa ham ovulda chiroq yo‘q. Ertalab choy-suvlarin ichib olgach, tosh-tepaga boqib bekor yotarmidi. Bu ovulga qorong‘ilik o‘zi kechroq tushadi. Zamon tushunarsiz deydi. Tushunarsiz bo‘lsa “chollar” yoppasiga cho‘ntaklariga uyali telefon solib yurisharmidi?! Bir-birlari bilan tez xabarlashib, eski klubning yoniga zumda yig‘ila qolishadi. Vo, ajabo, shundan o‘yda-qirdan quloq eshitmagan hangomalar ulanib ketishini qo‘yaver! Mavzusi turfa-tuman. Ham quloqqa shunday yoqimli. Rost-yolg‘oniga ko‘ngil bo‘lib surishtiradigani yo‘q, barchasi yurakka iliq beradi. Yulduz tug‘ib bir narsani qiyratib ketganday, “ko‘rishguncha” deb gandiraklab uylariga tarqalishardi. So‘nggi kunlari o‘sha yig‘inlardan chetlashib qolgan yolg‘iz Eshquvvatgina, dardlashishga chamasi ham yo‘q.

“Uralning” pishqirganicha, tepalikka ko‘tarilganini yaylovga mol qo‘shgan ovuldoshlarining barchasi ko‘rishdi. “Tinchlikka bo‘lgay” deyishdi birozi. Ko‘zlagani —Sangqiboyning uyi. Sangqiboy oqsoq oyog‘ini siltab, ovul orasi bo‘lmasa, olisga chiqa bermaydi. Oqsoqligi urushdan topgan dard emas. Yoshligida eng boshibuzuqning (bezorining) o‘zi bo‘lgan. Bir janjalning oqibatida undan kuchlilar duch kelishadi-da, poyezdning tamburidan uloqtirib yuborishadi. Kun sovuta boshlasa yo‘g‘on sonidan kesilgan oyoq qaqshatib og‘riydi. Gipsni ahyon-ahyonda kiyadi.

Ildam yurishdan Eshquvvatning ko‘zi yoshlandi. “Sen haqiqiy it ekansan, Sangqiboy! Mening birni ikki qilolmay qiynalib yurganimni ko‘rding-ku. Hech bo‘lmasa: “Qizingni uzatayotgan ekansan,

o‘ngidan bo‘lsin!” deganing ham yo‘q! Aytmasang aytma! Biroq kasringni tekkizma, Xudoning yorug‘ini bergizmayotgan ham sen bo‘lsang kerak! Bilaman, qog‘oz qoralaganda odamni yanglishtirasan. U chaqqonligingni biz tashvishimizni bir taraflama etgach davom ettirarsan! Bo‘lmasa, oyog‘ingni sindiraman!”

Sangqiboy chayqalib yetib, Eshquvvatni eshik oldida kutib oldi. Qurdoshining xunuk avzoyidan talay sirni anglaganday. Omonliq-sog‘lik so‘rashmoq tugul, uzatgan qo‘lini olishni ham ep ko‘rmadi. Bundayda odam choyga taklif qilarmidi, chaqirsa ham ortidan xayrlisi bo‘ladimi?! Es-hushli kishilar tushunmovchilik vajidan bir-biri bilan yoqalashib yotsa, uyga kirib-chiqib yurgan kelinlardan o‘lim-ku!... Shuning uchun Sangqiboy qurdoshini panalab, yopiq qo‘raning narigi burchiga qarab ergashtirdi. Ko‘kligicha yig‘ilgan shuvoqning hidi dimoqni yoqimli qitiqlaydi. Qamish qo‘raning ichi salqingina. Sangqiboy oqsoqlab yurgani bilan qo‘lga olgan ishni puxta bajaradi. Pishiq, duch kelganga ochilib-sochila bermasligi ham bor. Sangqiboy avvalgiday tizzasiga qoqib-qoqib yuborib, nosvoy shishasini taklif etgandi, Eshquvvat bu iltifotga hatto e’tibor bermadi.

— Nima qilib yuribsan?!

— Menmi, nima qilardim, hech bo‘lmasa senlarday o‘n ikki mucham sog‘ emas! — Sangqiboy cho‘loq oyog‘ini yonidagi yog‘och to‘nkaga tiradi. So‘ng bir cho‘qim achchiq nosvoyni ostki labi tagiga tashlab yuborib, kaftini kaftiga ishqaladi.

— Shu ahvolingda yon-tevaragingni yanchib borasan-ku. O‘n ikki muchang sog‘ bo‘lganida kim bilsin?

— Xo‘sh, maqsadga ko‘chsang-chi, shu kunlari odamga vaqt tig‘iz, — Sangqiboy qurdoshi bilan bu gal til topisha olmasligini anglab, Eshquvvatdan qutilishga oshiqdi.

— Sen bunday o‘rningni bil, arizangni qaytarib ol. Mening ahvolimni bilasan.

— Qarzga pul so‘rasang beray, biroq meni bekorga qiynama. Haqiqatni yozganim rost. Ichida zarracha yolg‘oni bo‘lsa, meni sudga bersin!

— Sud senday cho‘loqni nima qiladi? — Eshquvvat qizishib sal ortiqcha ketganini keyin angladi. Nomusga tegmasligi kerak edi

yaxshisi. O'sha so'z o'ziga qaratilsa nima qilardi? Osilib o'lishdan toymas. Shunday zil gapni ichiga yutib, sirtiga yuqtirmagan Sangqiboyning qaysarligiga, toqatiga rozi bo'ldi. Devorga suyantirilgan panshaxani ola yugursa nima qilardi? Cho'loqligini betiga bosib, g'olib bo'lishni istagan shoshqaloq fe'lini yerdan olib, yerga soldi. Ko'klay yig'ilgan shuvoqning bir butog'ini sug'urib olib, tishiga bosgan ko'yi unsiz o'tirgan qurdoshini juda yaxshi ko'rib ketdi.

— Ahvolni tushunaman, — dedi bir payt Sangqiboy. Ust-boshini qoqib o'rnidan sal ko'tarilib, orqasi bilan yig'ilgan cho'pga suyandi. — Sen lekin hovuringdan tushmay, unda nima yozilganini so'ramading. Tuman ko'lamida odam chidolmas iflosliklarni ipday tizib, dalillaganim uchun aybdormanmi? Qo'lida bo'lsa-bo'lmasa amali borlarning ko'zlarini shira bosgan. Hech nima ko'rmaydi, qora xalqning arz-dodini berkitib davrini surgilari keladi. Biroz nafslari qonmaydi, to'xtash, tiyilish bo'ladimi go'ringda tiqilgurlarga! Yo'q, odamni kuydiradi-chi, oyoq bossang — razillik. Pora bermasang maktabga farrosh bo'lib ham ishga kirolmaysan. Shifokordan spravka so'rasang, allakimning tomog'ini moylashga majbursan. Bir quti shirinlik bo'lsa ham... Ko'hnabo'gan bo'limiga borar yo'lni asfaltlaganmiz, deb axborot beradi tepaga. Otasining boshi! Sirasi, bu yo'l ikkimiz u dunyoga otlanganimizdan so'ng jo'nga kelar... O'zing bilasan, Omonboy oqsoqolning yangi buzoqlagan sigirini ko'z o'ngimizda o'g'irlashdi. O'g'rining izini sovutmay ushlaymiz deb va'da berishgan. Ushlashdimi?.. Keyin eshitsam, moliga ega bo'lmadi deb munkillagan cholni aybla-moqchi...

Eshquvvatning ko'z oldi qorong'ilashdi, nafasi qisdi. Boshi aylandi...

— Aroq ichib rulga o'tirganini qo'yaver, odam qoqib ketgan boshliqning bolasi hech nima bo'lmaganday, taltayib yura beradi. Tish do'xtiri ko'richakni operatsiya qiladi... Musiqadan bilimi bor yosh mutaxassis o't o'chirish mahkamasining boshlig'i... Bolalar bog'chasiga navbatda turganlarning o'g'il-qizlariga maktabga borgunlaricha o'rin nasib etmaydi... Bu qanaqasi? Umr shunday o'tib keta beradimi?! Hoy, bularing qanday sharmandalik, tevaraklaringga qarasalaring-chi deydigan bandaning o'zi yo'q. Jimjitlik...

Ichimga sig‘magach yozdim, yorilib o‘laymi endi? Yana yozaman. Men aybdor bo‘la qolay, senlar oqil azamat atalib yura qolinglar! Sangqiboy — o‘qimagan omi, savodsiz, kichkina odam. Qo‘lidan nima keladi, aytadi-da qo‘yadi... deyishadi. Qo‘ymayman! Bir natija chiqaraman oxiri... Tuman boshliqlarining talabini ko‘r, meni sotib olmoqchi!... Sangqiboy Jo‘layev arizasin qaytib olsin, keyin bo‘limning barcha uyiga yorug‘lik beriladi...

Eshquvvat tengdoshini gapi tugagunicha jimgina tingladi. Men shu bilan tugatdim deganday, Sangqiboy bir payt salmog‘ini sog‘ oyog‘i tarafga solib, g‘aramga ko‘k holicha yig‘ilgan shuvoqning bir tutamini sug‘urib olib, armonsiz hidladi. Eshquvvat indamay kelib, uni quchog‘iga bosdi. Chekkadagi qo‘radan tashqariga chiqquncha shoshildi. Sangqiboyning choy ichaylik deganini ham eshitmadi.“Ural”ni zing‘illatib keldi-da, o‘nqur-chuqurga ham qaramasdan baland tepalikning boshiga ko‘tarildi. Qo‘l telefoni shu yerdan yaxshi ushlardi.

— Boshlig‘ing qani, meni katta boshlig‘ingga qo‘sh-chi, qarog‘im! — deb o‘tindi necha bor ostonasini to‘zdirgan idoraning qabulxonasiga qo‘ng‘iroq qilib.

— Boshliq yig‘ilishda...

— Bo‘pti. Yig‘ilishini davom ettira bersin. Unga manovini yetkaz, meni taniydi. Qabulida bo‘lganman. Ko‘hnabo‘gan bo‘limidan Eshquvvat Azbergenov ataylab xabarlashdi degin. Yorug‘ligi boshidan qolsin! Elektr quvvatisiz ham kunimizni ko‘rarmiz!...

Bor tovushiga kuch berib tomog‘ini yirtguday baqirgisi keldi. “Ulkan kishi, kichkina odam degan bo‘lmaydi, odamning bari birday. Yo‘q, bo‘ladi desanglar, endi senlar kichkina odamlardan ko‘rasanlar ko‘radiganinglarni! Qog‘ozga tushgan haqiqatni e’tiborsiz qoldirmaymiz! Qudalikning esa bir chorasini amallarmiz...”.

Yengillashni istaganday chiyduxoba kostyumini yechib oldi-da, mototsiklning yukxonasiga otib urdi.

RAXIMJAN OTARBAYEV

(1956–2018)

Raximjan Otarbaev 1956-yil 19-oktyabrda O'tror viloyati Qurmang'azi tumanida tug'ilgan. 1977-yilda O'rol pedagogika institutini bitirgan.

Yozuvchining "Sher", "Yulduzlar qulagan joy", "Yoyiq jiri", "Qarasha g'ozlar qaytganda", "Ovozingni eshitdim", "Otverjenniy mir" kabi nasriy to'plamlari, tanlangan asarlarining 2 jildligi chop etilgan. "Beybars sulton", "Bosh", "Nashaxo'r haqida novella", "Nurjaug'an-g'umir", "Sirim botir", "Mustafo Cho'qay" kabi pyesalari respublika va xorijiy teatrlarda sahnalashtirilgan.

BIZNING QISHLOQ AMAZONKALARI

Dengiz bo'sag'asiga qadar kelib qolgan uchta uy. Xonadon egalari uchta ayol. Bola-chaqalari allaqachon shaharga ko'chib ketishgan. Mollar qurg'ur ham dalaga ketib qolgan. Mol degani — bor-yo'g'i o'nta sigir va mayda jonivorlar. Tushlik payti bir parcha oq ro'molini boshidan tashlamaydigan Ayman samovar ko'tarib chiqdi. Uning ortidan yaloq bo'lib ketgan lablarini bir yalab so'z boshlaydigan Qarg'ash, undan so'ng g'ilayroq ko'zli Bibi ko'rindi.

— Haligi ovsil (kasallik) sigirlar hali yo'qmi? — dedi Ayman ovozini jaranglatib.

— Sayoq qolgur! — dedi qisqagina qilib Qarg'ash. — Buzoqlarga qayrilib qarashni ham qo'ydi.

— Qashqir tortgurlar, — deb uning gapini ma'qulladi Bibi.

— Shular bizni ertaroq qaritadigan bo'ldi-da.

Jaziramada soya joyning o'zida ham issiq jizillab turibdi. Atrofni issiq garmsel bosgan. Qo'ra tomonidan ingichka ovozda buzoq-

ning ma'ragani eshitildi. Uyning tepasiga chiqib olgan, miyasi qaynab ketganday qora qarg'a aranggina "qarq" degan ovoz chiqardi.

— Yaxshilik chaqir, nafaqamiz kelsin! — dedi unga qarab Ayman.

Qarg'ash qo'liga bolta olib, yog'ochni maydalay boshladi. Bibi kerosin olib keldi va tutantiriqni tutatdi.

Kichkina quvurdan tutun erinibgina chiqa boshladi. Vaqt sekin o'ta boshladi.

— Men mizg'ib qolgan ekanman. Tush ko'rdim, — dedi Bibi uning og'ziga qarab turgan ikkita tengdoshiga qarab. — O'sha qizlik paytimiz ekan...

— Shundan boshqa narsani tushingda ko'rmaydigan bo'lding-da, — dedi yonidagi tengdoshi.

— Eh, afsus, qanday paytlar edi, qanday edik-a, bu o'sha paytlarni qo'msash bo'lsa kerak.

Ha, qanday davrlar edi. Uchalasi ham to'lin oydek suluv edi. Maktabni bitirishlari bilan faol yoshlar brigadasi qurildi. Shiorlar ko'tarildi. Yuqoridan kelgan mehmon chiroyli nutq so'zladi.

— Yurtimizning yosh, g'ayratli, irodali yoshlari sizlarsizlar. Rossiyaliklar Baykal — Amur magistralini qurishga harakat qilishayapti. Biz sizlarni ayozda, sovuqda to'ng'ib qolmasin deb ovulda qoldirishni ma'qul deb topdik. Yigitlar ikki yil sigir boqadi, qizlar esa sigir sog'adi. Obro' ham, atoq ham sizlarda bo'ladi. Orden-medal ham sizlarniki. Keyin esa oliy o'quv yurtiga o'qishga kiramiz desanglar, hamma eshiklar ochiladi. Oliy o'quv yurtlari sizlarni quchoq ochib kutib oladi. Hatto o'zimimz ham shunga yo'llanma beramiz. Sizlarni qo'llaymiz. Hukumatning topshirig'i ham shunday.

Bu so'zlarga hayajonlanib turgan, intiq bo'lib turgan yoshlarning hammasi bir ovozdan ma'qullab, bosh chulg'ab rozi bo'lishdi. "Ha, to'g'ri, ota kasbimiz" deyishdi.

Qo'shiqchi bo'laman degan Ayman:

— Va'da berasizlarmi?.. — dedi uyalinqirab.

— Albatta, azizam, — dedi yuqoridan kelgan mehmon.

— O'qishga borishimizga albatta va'da beramiz.

Kelajakda ustoz bo'lishni orzu qilgan Qarg'ash:

— O‘qishga kirishimizga yordamlashasiz-a? — dedi yuzlari qizarib.

— Albatta, yordam beramiz!

— Yaxshi, bo‘lmasa, sigir sog‘uvchi bo‘laylik. Keyin esa men tikuvchilikka o‘quvga kiraman, — dedi Bibi.

— Albatta, kirasizlar, orzularingiz ro‘yobga chiqadi. Hech ikkilanmasdan olg‘a harakat qilinglar, — dedi nutq irod qilgan vakil.

Podachi bolalarni bir-birlab harbiyga chaqirishdi. Qizlar esa shu sigirlarni sog‘ib kunlarini o‘tkazaverdilar...

— Kechadan beri yo‘q. Qorovul qamab tashlagan bo‘lar, — dedi Ayman. — O‘n sigir bitta maydonni yeb qo‘yadi-ku.

— Shu cho‘loqdan ham ko‘rdik ko‘radiganimizni, — dedi keyingisi.

— Avval maza qilib choy ichib olaylik, keyin ularni izlashga chiqamiz. Agar qamab tashlagan bo‘lsa yana tashvish bo‘ladi-da.

...Va’da berganlarning biri o‘sib ketdi, keyingisi esa bu hayotdan o‘chib ketdi. Faqat sigir sog‘ish bilan ovora bo‘lgan bular nima qilishsin? Avval Ayman turmushga chiqdi. Qochib ketibdi degani shunchaki so‘z. Qo‘shnisi bo‘lgan traktorchining uyiga qo‘rani aylanib kirib bordi.

Qarg‘ash esa vodovoz haydaydigan yigitning kabinasida qolib ketdi. Bibi bo‘lsa ovullariga notanish erkak kelib qolsa: “Voy, meni olib qocharmikin” deb o‘ylab yuraverdi. Armon qilish bilan “qariqiz” atandi.

— Hamma balo Alining xotinidan chiqqan, — dedi Ayman. Ikki tengdoshi bilan yo‘qolgan sigirlarning so‘ngidan yo‘lga chiqdi. — Yotsa ko‘rpachaga sig‘maydi, bo‘ksasini ko‘tara olmaydi, bechora.

— Vasilaning eri qorovul bo‘lgandan beri ko‘zini yog‘ bosibdi. O‘tgan safar bitta to‘yda ipak ko‘ylakni kiyib olibdi. “Menga qaranglar” deganday u yoqdan bu yoqqa savlat to‘kib, borib-kelib yuribdi. Qonim qaynab ketdi-da!

— Odamlarning ko‘zicha “Shu senlarning nechta sigirlaring bor?” deya mensinmay gap qotsa-da!

— Ha, qizg‘onadi-da.

— Cho‘loq erini qizg‘onadimi?

— Sigirlarini ham!

— O‘sha to‘yda Alini sen ham qotirding. “Bitta qo‘ling bilan qilgan duoing qaysi birimizga yetadi?” deding-ku. Shunday ko‘nglim yayrab ketdiki.

— Endi nima qilay?

Yosh paytingdagi yengiltaklik yoshing ulg‘ayganda ham qolmas ekan. Kuzga yaqin mehmonga chaqirib Ali semiz sarkasini so‘ygandi. Oyog‘ini bog‘lab, pichoqni qayroqqa o‘tkirlab olib tomog‘idan bir tortib yuborganda o‘zining qo‘lining bosh barmog‘i haligi pichoqqa ilinib ketibdi. Haligi molning og‘ziga tushgan barmoqning bir bo‘lagini molga ham jon kerak, tipirlab chaynab yuboribdi. Ham sarkaning, ham Alining baqirgan ovozi butun borliqqa yetdi. “Kim kimni so‘yayapti deb birdaniga hayron bo‘ldik” deb qo‘ni-qo‘shnilar haligacha kulib, gap qilib yurishadi. O‘sha kesilgan bosh barmoqning o‘rni ancha og‘ridi. Keyinchalik, og‘rig‘i kuchayib, chiday olmasdan yuqorisidan kestirib yubordi. El-yurt uni “Ali cho‘loq” deb atay boshladi.

— Kechagi kunlar qanday edi-ya?! — dedi o‘tgan kunlarni qo‘msab Qarg‘ash yaloq labining bir tomonini yalab qo‘ydi. — Hisobsiz mollar, keng yaylov, hamma to‘q.

— Yerlarni xususiylashtirishni kim ko‘rgan? Sotib oldim deydi, o‘sha yerning egasini aytayapman. Savdoga solinmagan biron narsa qoldimi o‘zi? Shu bizni ham sirtimizdan birovlar pullab yuborgan yo‘qmikin?

Bu so‘zlar Aymanning achchig‘ini keltirdi.

— Sotib oluvchilar ko‘p. Shunda molni taqir yerlarda yoyib o‘tlatamizmi? Yaylovning hammasi shularniki. O‘sib-unganning hammasi shularniki. Go‘shtini yeb, suyagini bizlarga uloqtirishadi. Shuning uchun ham qorovul haligi sigirlarni qamab tashlagan. Ot ustidan yulib tushirib ta’zirini beraylik!

Aytganlari rost chiqdi. Ikki qir oshib o‘tgandan keyin aniq ko‘rindi. Yog‘ochlardan yasalgan ochiq qo‘rada sigirlar qamalib turibdi. Ot ustida oq telpakli mujraygan qorovul o‘tiribdi. Jahl bilan kelayotgan uchta ayolni ko‘rganda oti ham tipirchilab, qorovulning cho‘loq qo‘li qaltirab ketdi. Bir baloning bo‘lishini sezdi... Yer egasi kechga tomon kelsa, mana shu o‘nta sigir ko‘m-ko‘k bedani

yeb yuribdi. O'zi uyiga tushki choyni ichishga ketgan edi. Mizg'ib olsammikan deb kechikib qoldi. Kelgandan keyin eshitmagan haqorati qolmadi. Ishqilib, yugurib yurib sigirlarni yog'och qo'raga qamadi. Eshigini temir zanjirni ikki marta o'rab qulflab qo'ydi. Qo'liga bir bog'lam qog'ozni ushlatib ketgan. Otni nuqib qochib ketay desa erkaklik nomusi yo'l bermadi. Indamay turay desa bo'z bola paytidan taniydigan mana bu vajohatli uch ayolga qo'rqa-pisa qarab qo'ydi.

— Qaranglar, mana bu chaqaloqning kaftiday yana bitta ordenni ko'ksiga qadab olganmi? Yaltirab turishini qaranglar, — deya Ayman qo'lini peshonasiga qo'ydi. — Bibi, mana shuning harbiydan kelgan yili esingdami?

Nega esida bo'lmasin, beliga besh yulduzli kamar taqib, qushday bo'lib kelgan. Beshpetining ikki tomoni tutashib, yalt-yalt etib turardi. Qaragan odamning ko'zi quvonadi. O'zidan so'rasangiz askar bo'lib yurgan paytidagi qahramonligi zo'r emish.

— Qahraton qishda Sibir o'rmonlari o'tga o'randi, — deydi sog'uvchi qizlarni hayratda qoldirib u. — Bitta o'zim shu olov bilan kurashdim. Kunduz-tuni tinmadim. Ishqilib, kurashib yurib o'chirdim.

— Tavba! — deydi qizlar unga achinib, hayrat-la qarab.

— Bir yaxshi tomoni, bir oy bo'yi to'yib kabob yedim. O'rmon ichidagi to'ng'izlar uyur-uyuri bilan olovda utilib qolibdi. To'nqayib yotishibdi.

— Boshqa askarlarchi? — so'raydi qizlar.

— Ular bu yerda chegarani himoya qilib turishdi. Mana ordenni shu paytda general menga o'z qo'li bilan taqib qo'ydi, — deydi kattaroq birovini ko'rsatkich barmog'i bilan ko'rsatib. — Manavi esa... Chegarani buzgan chet ellik qaroqchilarni ushlab berganim uchun marshal o'zi menga topshirgan.

— Boshqa askarlarchi?

— Boshqa askarlar o'rtangan daraxtlarni kesib yurishdi. — Mana buni esa... — u boshqa bir belgini qo'li bilan ko'rsatib, — bu haqda aytadiganim juda ko'p...

Hamma ham eshitavermasin deb Bibining qulog'iga sekin shivirlab qo'yadi.

Yurtini himoya qilgan bunday qahramonga kimning ko‘ngli ketmaydi deysiz. Shundan qizlar “ana-mana” deb yurganda u qo‘shni ovuldan Vasilani qo‘ltiqlab kelib qoldi.

Chimildig‘i hilpirab o‘tirgan Vasilasi qurg‘ur Aliga aytmasdan tumanga boribdi. Vatan uchun jonini ham, tanini ham ayamagan eri uchun xizmat, ish so‘rabdi, boshpana so‘rabdi. Qo‘shimcha pul so‘rabdi. Shu paytda qahramonning siri ochilib kolibdi. Qarasaki, Alining askarga xizmatga borgani rost ekan-u, lekin u ot boqqan ekan. Bor-yo‘g‘i shu. Ordenlar deb ko‘ksiga tizib taqib olgani esa do‘konchalarda sotiladigan znachoklar ekan.

— Qo‘ra boshiga qo‘yilgan qaroqchiga o‘xshab turishini qaranglar! — dedi Bibi jahl bilan. — Qo‘yib yubor sigirlarimizni!

— Chiqmaydi ular, — dedi qorovul ko‘zini olib qochib.

— Buni qaranglar- a!

— U nimaning evaziga?

— Pulini to‘langlar! Yerning egasi kelib akt yozdi. Har bir sigirga sakkiz ming tengedan sakson ming tenge to‘laysizlar.

— Sakson ming?!

Buni aytayotganda Aymanning qo‘lidan tayog‘i tushib ketdi.

— Mana hujjatlari. Keyin esa, pajalista, — dedi qorovul.

Qorovul cho‘ntagidan bir necha qog‘ozni sug‘urib oldi-yu, lekin bularga betlashga chidamay qo‘raning narigi tomoniga o‘tdi.

— Ordening qutlug‘ bo‘lsin! — dedi so‘zni davom ettirib Qarg‘ash.

— Bu — medal!

— O‘rmondagi yong‘in uchun oldingmi?

— Yo‘q, mustaqillikning yigirma yilligi uchun.

— Nima uchun? Uch ayolni zor qaqshatganing uchunmi?

— Kelinglar, gapni qisqa qilaylik.

— E-e, kelishaylik. O‘zingni chetga olma, yaqin kel, — dedi Ayman.

— Yaxshisi, medalingning ko‘rmanasini beraylik.

Shunday dedi-da, u “shap” etib otning tizginidan ushladi. U epchillik bilan otning tizginidan tortdi. “Voy-dod” deyishiga qaramasdan qorovulning cho‘loq qo‘lini cho‘ltanglatib, yerga sudrab tushirdi.

— Arqon olib kelinglar! — dedi keyin. — Oyog‘ini bog‘langlar.

— Ayg'irligi kuchli ekan! Bichib tashlaylik!

— Mana kalit, faqat qo'yib yuboringlar! Mana kalit! — dedi uch ayolning qo'lidan chiqolmay Alining baqirgan ovozi eshitildi.

— Pichoq qayoqda?

— Qani olib kelinglar!

Sho'rlik chalqasidan yotsa ham tepkilanib yotardi. Yolg'iz qo'li bilan kurashardi. Yengi yirtildi, yoqasi yulinib ketdi. Ishqilib, Xudo bir kuch berib, ularning qo'lidan qutilib qoldi. Oti esa hurkib, uzoqqa ketib qolibdi. Ko'zlari qonga to'lgan mana bu uch ayolning qo'liga yana tushsa sog' qolmasligini bilardi. Shuning uchun qalin qamish tomonga qarab qocha boshladi. Bibi va Qarg'ash uning ortidan chopdi.

— Quvala, Bibi!

— Ushla, Qarg'ash! —deb Ayman narigi tomonda yotgan kalitni qo'liga oldi.

— Yubormanglar! Qaytmasin! Men molni oldimizga solib olay.

— Qutulsam ekan. Butkul erkaklarga degan alamingni mendan olasanlarmi?! Hammang shundaysanlar! — deb Ali baqirib qochib borardi. — Mana shulardan qutulsam ekan!

— Qalin qamishning orasiga singib ketdimi, yo'q bo'lib ketdi. Oldimizdan irillab bir qashqir chiqdi, — deb ikki ayol hovliqib qaytib keldi. — Bechora, shunchalar qo'rqoq ekan-da?

Qorovul esa o'shandan beri yo'q. Butun xalq izladi. Qalin qamishning har bir tolasini tintib chiqishdi. Topilmadi. Biron xabarini topgan odamga suyunchi taklif qilishdi. Yer yutganmi, jin ko'targanmi, yo'q. Butun biladigan qarg'ishlarini erini quvlagan mana shu uch ayolga bag'ishlagan Vasila esa chidab o'tira olmasdan ularning uyi tomon keldi. Dengiz bo'sag'asiga kelib qolgan uchta xonadonning egalari bu paytda soyada choy ichib, ship-ship terlab o'tirishgan edi. Ter chiqqandan keyin so'z ham chiqadi-da.

Kecha kechqurun bularning mayda moliga bo'ri kelgandi. Kun endi qorong'u tusha boshlagan payt edi. Qo'ra tomondan qo'ylarning dukirlab qochgani eshitildi. Qo'llariga panshaxa kurak olib, bular ham shu tomon yugurishdi. Dumi bir qarichgina kulrang

qashqir qo'rqmadi ham. Hurkib qochgan qo'ylarning so'ngida qolgan kichkina qo'zichoqni bo'ynidan tishlab orqasiga opichlab oldi. Hayiqadigan avzoyi yo'q.

— Chap oyog'i maymoq ekazn. Qopqonga tushib chiqqanku, — dedi Ayman kattagina ro'moli bilan terini bir artib tashlab.

— Bu xuddi biz qamish ichida ko'rgan, irillab turgan qashqirga o'xshaydi, — dedi Qarg'ash.

— Ishqilib, ko'zlari tanish. Ko'rganga o'xshayman, — dedi Bibi hayrat bilan. —Ko'z qarashi teshib yuborgudek bo'ldi...

...— Alini shuncha quvlaganlaring nimasi? —dedi Ayman hayratlanib.

— O'zing-ku, ushla-ushla degan...

— Doim bizga buyruq berib o'tirasan.

— Suvga tushib ketdimi? Botqoqda cho'kib o'ldimi?

— Hech tushimdan chiqmaydigan bo'ldi, — dedi Bibi og'ir xo'rsinib. — O'sha qiz paytimiz ekan...

Hikoya yana qizigan paytda Ayman:

— Manavi yolg'iz yayov kelayotgan kim? Vasila-ku! — dedi.

— Nima deysan?!

— Qo'y-ey, unday emasdir! — deb o'rnidan shoshib turganda Bibi yonidagi samovarni ag'darib yuboray dedi.

— Nima qilib yurgan ekan?

Etagini tepkilab, qoqilib yetib kelgan u:

— O'-ho'o', uchta quzg'un o'tiribsanlarmi? —deya ko'k ko'zli, qizil burunli, sariqdan kelgan ayol ikki qo'lini biqiniga qo'yib ularga qarab turardi.

— O'tirmasdan qayoqqa ketamiz?

— Ko'chirib yubormoqchimiding?

— Qanday muammong bilan kelganingni ayt!

— Erimni o'ldirib, yashirib qo'ygansanlar. Senlarning qo'llaringdan hamma narsa keladi. Alining qorovul bo'lib otga minganiga ko'rolmaslik qilib, baxillik qilib yurgansizlar.

— O'ldirdinglar deganing nimasi? — Aymanning boshidagi bir parcha oq ro'moli qimirlab ketdi.

— Nimasiga baxillik qilamiz? — dedi Qarg'ash yaloq labini yana bir marta yalab.

— Rohatini o'zing ko'rgansan-ku?! —dedi Bibi g'ilay ko'zini yanada qisib.

— Ha, xuddi shunday, xuddi shunday. Hammang erga yolchimagan baxti qarosanlar. Senlar birovning qadriga yetarmiding?!

— Tilingni tortib gapir, — dedi Ayman. — Ali bilan har ikki kunning birida janjallashib, yoqalashib yurgan sen emasmiding? Mening erim o'lsa o'z ajali bilan o'ldi. Nima? Uni charchatib zo'riqtirdi deysanmi? Sen ayol shoshmay tur! Xudo xohlasa, qo'limda turadigan nevaram o'qishini bitirib qaytsin, ko'rsataman!

— Ana, nevarang o'qishni bitirib qaytdi deylik. Nima? Poyezd haydaydigan nevarang menga chipta bermay qo'yadimi? Men biron yoqqa borayotganmidim?

— O'zing baxilsan. Ichingda qil aylanmaydi, — dedi erini yoshgina ayol ilib ketgan Qarg'ash boshqa so'z topa olmay. — Qizil sigirim xohlab turganida buqangni bermagansan. Ko'rsatkich barmog'ingni orasiga bosh barmog'ingni tiqib ko'rsatganing esingdami? "Mana buqa senga, mana buqa senga" deb baqirib, dalani boshingga ko'targansan. Yolg'onmi shu?

— Senlarning ovozing hech qachon o'chmas...

Qarg'ash o'tirgan joyidan sakrab turib Vasilaga intildi. Ayman bilan Bibi uning etagiga yopishib, yubormaslikning harakatini qilishdi...

Qorovul esa o'shandan beri yo'q. Butun xalq izladi. Qalin qamishning har bir tolasini tintib chiqishdi. Topilmadi. Biron xabarini topgan odamga suyunchi taklif qilishdi. Yer yutganmi, jin ko'targanmi, yo'q.

Faqatgina o'sha oyog'i maymoq qashqirgina har kecha Vasila yotgan xona derazasining oldiga kelib tong otguncha "uv-uv"deb uvlab chiqar ekan.

JULTOY JUMAT-ALMASHULI

(1957)

Jultoy Jumat-Almashuli 1957-yil 14-fevralda Qizilo'rda viloyatining Yangiqo'rg'on tumanidagi Qirash ovulida tug'ilgan. 1979-yilda Qozoq davlat universitetni tamomlagan.

Yigirmadan ziyod nasriy va drama asarlarining muallifi. "Tor dunyo" trilogiyasi kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi.

BANDASINING KUNI

— Inim-ov, shu... sen meni nega sizlamaysan? Men sendan bir yosh katta bo'lsam...

Qalmaxan yana qiyshaya tortib, o'zi bilan xizmatdosh bo'lgan, narigi bo'limni boshqaradigan bo'yrasoch yigitga chunkilladi. Bo'yrasoch ham bir gapdan qolmaydigan, janjal xumor qirt yigit ekan, baland kelmoqchi bo'ldi:

— Ey, nima bu, — dedi u yulqinganday bo'lib. — Bir yosh kattaman, nima, oting o'zib kelyaptimi?!

— Haliyam-ku bir yosh katta ekansan, agar o'n yosh katta bo'lganingda bormi...

— Hay-hay-hay, sen bunchalikka boraverma. Bir yosh bo'lsa ham, sendan kattaligim bormi? Bor! Shunday ekan, jo'ningni bilgin-da, ukaginam. Yoshi kattalar bilan munosabatda kichiklik izzatingni saqla. Sen bilan men baribir qardosh bo'la olmas ekanmiz...

— Eh-he, og'am-ov, — kuldi bo'yrasoch. — Men sizni o'zimga yaqin olib senlagan bo'lsam, senlagandirman. Nima endi, shungayam... Boyagida bizning ovulda ikki chol bir-biriga "Men sendan bir kunlik kattaman, shunday ekan, qo'y kallasiga birinchi bo'lib

mening qo'lim tegishi kerak, tort qo'lingni!" deb, to'yda talashib ketgan ekan. Bizlarnikiyam shunga o'xshash gap bo'lyapti, shekilli...

— Nima desang, de! Men sendan bir yosh kattaman. Shuni esda saqla. Sen uchun men — "sen" emas, "siz" man, bildingmi...

Qalmaqan shularni aytib solib, tars-tars uzoqlashdi-yu, bo'yrasoch ancha vaqtgacha turgan yerida kalovlanib, o'ziga kelolmay turib qoldi.

* * *

Bu hangoma shu bilan oyoqlana qolmadi, aksincha...

Bir kun o'tib, mahkama xodimlarini oldiga chorlab, navbatdagi yig'ilishni o'tkazayotgan boshliq va'z oxirini xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga burdi.

— Vaqtimizning ko'p qismi shu yerda o'tar ekan, rosti gap, bir-birimizni aka-ukaday izzatlab-hurmatlab yurishimiz kerak. Izzat-hurmatga nima yetsin! Og'izbirchilik bor yerda baraka bo'ladi. Ishimizdagi unum shunga bog'liq-da...

Shu yerga kelganda bo'yrasoch tinch o'tirolmay qoldi.

— Og'a, men bir narsani tushunmay yuribman. Bizning oramizda ba'zi bir yoshi katta xodimlar bir yosh-ikki yoshni o'rtaga solib, e'tiborni tortgisi keladi. "Mening yoshim senlardan katta, meni hurmat qilinglar" demoqchi bo'ladi. Shuncha-a izzattalab bo'laverish ham... shu to'g'rimi, shu?

— Yosh degani xizmat o'rnida asosiy gap emas, — dedi mahkama boshlig'i bir yo'talib olib. — Oldda turgan vazifa, burchni bajarish — asosiy maqsad. Hamma kuch-g'ayrat, aql-u iste'dod oldda turgan vazifani bajarishga qaratilishi kerak, "sening yoshing kichik, meniki katta" degan gap — bu umuman boshqa hangoma.

— Ana, ana! — deb bahsga qo'shilib ketdi Qalmaxan burchakda o'tirgan yerida sakrab turib. — Oldimizdagi vazifani bajarish — asosiy maqsad ekan. Bunda yoshi ulug'larning tajribasidan foydalanish kerak, buning uchun esa ularning yoshini izzat qilishimiz kerak-ku axir. Qolaversa, bizlar — qozoqlarmiz, qozoqlar doimo yoshi kattani siylab-hurmatlab kelganlar...

— Buni muhokama qilishning hozir vaqti emas-u, lekin aytib qo'yay, qozoqi tartib degan gap bor, hammamiz ham shunga amal qilib, shuni vujudimizga singdirib olganmiz-ku axir. Yoki oramizda shuniyam bilmaydiganlar bormi? Idoramizda hammaning ham o'z o'rni bor... Nima, yoshi kattalarni birov xafa qilyaptimi?

— Yashang! — Qalmaxan hayqirib yubordi. Shu bilan u g'alaba qozonganday bo'yrasoch tomonga qarab qo'ydi. Bo'yrasoch ham xo'rozlana boshlagan edi, boshliqning so'zi hammani o'ziga keltirdi.

— Hov, senlarga nima bo'lgan o'zi? Asosiy ishimiz qolib ketmasa bo'ldi, shunda hammasi joy-joyida bo'ladi, chalg'imaylik, o'rtoqlar!

Agar bo'yrasoch yana gapiradigan bo'lsa, Qalmaxan ham qaytmoqchi emasdi, yaxshiyam boshlanib ketay deb turgan dahanaki jang shu yerda barham topdi. Ikkovlariyam, boshliqning hurmati bor dedilarmi, ishqilib mahkama rahbarning oldida sipolik qilib, boqib turdilar...

Uyiga qaytgan Qalmaxan kela-kelguncha boyagi majlisni o'ylab, ko'ngli joyiga tushmadi. "Rahbarning oldida shu gapni qo'zg'ab o'tiribdi-ya. Yoshi katta odam baribir kattaligini qiladi, bir yoshmi, yarim yoshmi, nima farqi bor?.. Yoshi kattami — bo'ldi-tamom, izzat hurmatini joyiga qo'y. Ulkanga hurmat bo'lmasa, kichikka qaydan ham bo'lsin? Bunaqada, so'z yo'q, siylashuv degan gaplar huv bir chetda qolib ketadi-ku...". O'ylayversang ham, tagiga yetib bo'lmas so'zlar edi bular.

Qalmaxan o'zi yaqindan beri mana shunday mayda gaplarga ko'p e'tibor qiladigan bo'lib qoldi. Nimaligini kim biladi endi, yaqinlaridan ham, do'stlaridan, ishdagi hamkasblari orasidayam kamchilik qidiradi, kamchilik topadi, darrov aybdorning yuziga bosadi. Anovi bo'yrasoch ishga yaqinda kelgani bilan, Qalmaxan ikkovi bir kunda ikki bo'limga mudir qilib belgilandi. Shungacha oralarida hech qanaqa chalakam-chalish gaplar bo'lib o'tmagan. Ikkovi teng qator lavozimga o'tirdilar-u... boshlandi. Boshlanishi — ziyofat kuni bo'lib o'tdi. Oilaviy ziyofatga chaqirilgan edilar. O'sha bazmda bo'yrasoch bilan qarama-qarshi o'tirib qolgan ekan. Qarasa, bo'yrasoch "uni olib ber, buni nariga qo'yib qo'y" deb, kattalik

qila boshladi. Qalmaxan e'tibor ham bermadi, "uni olib bervor" desa, nima bo'libdi, birga o'tirgandan keyin, birga ichgandan keyin, odam bir-biriga ishonganidan shunday deydi-da. "Anovi piyolani nari sur-da, yumkani bu yoqroqqa qo'y" desa, demak, o'ziga yaqin olayotgani shu-da. Birga ichsak, ichibmiz-da... o'tirish juda ko'ngilli o'tdi, xohlagan yeyapti, xohlagan ichyapti, ora-ora hazil deganday...

Yo'lda kelayotib xotini Jibek uning yuzidan oldi:

— Sen borib turgan sodda-muloyim ekansan!

— Iye, nega bunaqa deyapsan?

— Soddaligingdan hech narsani farqiga bormaysan. Anovi bo'yrasochni ko'rmaysanmi, sendan bir yosh kichik bo'la turib, seni "senlayapti"! Anovini olib qo'y, manovini surib qo'y emish...

— Shunday degan bo'lsa nima qilibdi? Yoshimiz deyarli tengqator bo'lsa... Olib qo'y degan bo'lsa degandir, men bilan ichmoqchi bo'lgandir...

— Ey, tushunmagan movbosh! — Ayoli shiqillab kuldi. — Seni mensimagani uchun shunday deyapti-ku axir! Senga buyruq beryapti, seni o'zidan past ko'rayotir, "siz" degisi kelmay, "sen"lab so'zlayapti, nahotki shuni tushunmagan bo'lsang?!

Qalmaxan indayolmay qoldi. "Rostdan ham shundaymikin? Meni o'zidan past ko'rganimi shu? U bo'lim mudiri bo'lsa, men ham bir bo'limni boshqarib o'tiribman-ku. Oramizdagi bir yilday farqni manovi xotin sezibdi-yu, men sezmagan ekanman-da, eh sodda-bayov Qalmaxan-a...".

Ertasi kuni ishxonaga endi qadam qo'ygan edi, dahlizdan o'tib borayotgan bo'yrasoch Qalmaxanni ko'rib qichqirdi:

— Seni boshliq so'rayapti-ku! Boyning bolasiga o'xshab bemalol yurishini buning! Chop boshliqning oldiga!

Kecha ziyofatdagi sensirab so'zlaganlarini eslab, Qalmaxan achchig'i chiqib kelayotgan edi, buning esa kelar-kelmasdan oldidan chiqib sensirayotgani battar botib ketdi. Xotinining kechagi gaplari qulog'i ostida jaranglab ketganday bo'ldi. Bo'yrasochning gapini shart kesdi:

— Sen inim... meni sensirayapsanmi? Yoshimning sendan ko'ra kattaroq ekanini bilasanmi?

Bo'yrasoch xo-xolab kulib yubordi, Qalmaxanning e'tiroziga parvoyam qilmadi.

Mana shu kundan ikkovlari o'rtasida odam bolasi tushunavermaydigan ichki bir kurash boshlangan edi.

* * *

Qalmaxanlar ota-onadan to'rtov edilar: o'zidan katta ikki qiz opasi bor. Ular turmush qurib, bola-chaqali bo'lib ketishgan. Eng kichkinalari — Jarmaxan.

Jarmaxan ham shu shaharda yashaydi. Ishi yaxshi, kichkinagina bo'lsa ham, bir idoraning boshlig'i. Rafiqasi juda odobli kelinchak. Shirindan shirin farzandlari bor.

Huv boshda inisi Qalmaxanni panalab, shaharda ishlab qolgan edi. Omadi yurishib, ikki-uch yilning ichida xizmatida ko'tarilib, ana-mana deguncha lavozimli bir yumushga tayinlandi. U paytlarda Qalmaxan bilan Jarmaxan, Jibek bilan Bayan bir oila bo'lib yashar, aka bilan uka, ularning rafiqalari ahil-inoq edi. Qalmaxan aytsa, Jarmaxan "yo'q" demasdan, o'sha zahotiyoq bajarar, Jibek gapirsa, Bayan "xo'p bo'ladi" deb, ishga kirishib ketaverardi. Bularning shunday ahil-inoqligiga boshqalar ham havas qilishardi.

Qalmaxan tug'ishgan ukasi bilan to narigi dunyoga otlanguncha mana shunday siylashib o'tarmiz deb o'ylardi. Bir kuni esa...

Hangomaning boshi Bayanning ko'zi yorigan kundan boshlandi. Bayan o'g'il tug'di. Jarmaxan uyga quvonib kelib, kennoyisidan suyunchi so'radi.

— Jibek, kelining o'g'il topdi! — dedi u qichqirib. — Tug'uruqxonadan kelyapman! Endi mening ham o'g'lim bor! Kelining ham baxtli!

Bu so'zlarni eshitib Jibekning yuzi bo'zarib ketdi. Sirtidan sir bergisi kelmasa ham ichida, Bayan kelinning o'g'il tuqqanini ko'rolmadi. "Qaranglar-a bularni, o'g'il topdik deb kerilishlarini ko'ring! Qizning o'g'ildan qayeri kam? Kerak bo'lsa, kishi o'g'ildan yaxshilik ko'radimi, qizdan yaxshilik ko'radimi — unisini Xudo biladi hali..."

Kechqurun Qalmaxan ishdan kelib o'tirgan zahoti, choy quyib berayotgan Jibek kuni bo'yi o'zini o'rtab yuborgan gapini sirtga chiqarib, eriga yorildi.

— Sen juda oqko'ngilsan, anqildoqsan! Jarmaxanni "bovurim" deysan, Bayanni "odobli kelinim" deb maqtanasan. Ol, o'sha odobli kelining nima deganini eshitdingmi?

— Nima debdi?

— U bo'shanmay turiboq erini suyunchiga yuboribdi! "Men o'g'il topdim! Jibekning topgani qiz edi. Meniki esa o'g'il! O'g'ilning oti o'g'il-da!.." debdi.

— Bu... nima degani?..

— Iye, shuni tushunmayapsanmi? "Og'ada uyga ega bo'ladigan o'g'il yo'q, Jarmaxanda esa o'g'il bor" degani-ku, axir.

— Nahotki shunday degan bo'lsa?!

— Suyunchi so'ratib yuborgani — shunday degani-da! Odobli degan kelinning qilgan ishi bu!

— Shundaymikin-a?

— Albatta-da!

Qalmaxan indamadi-yu, lekin shu voqea yuragiga tikanday bo'lib qadaldi-qoldi, kulib turgan ukasiga kulib qarayolmadi...

Bayan uyga kelganidan keyin, inisi telefon qilib, "kelyapsizmi?" degan savoliga sovuqqina qilib, "keyinroq kirarman, hozir ishim ko'payib turibdi" deb, yoqar-yoqmas javob qildi.

Shunday kunlarning birida ukasining xizmat lavozimi o'sib, chog'roqqina bir idoraga boshliq bo'ldi. Birga ishlashadigan bir necha jo'ra-yoronlarini chaqirib, yangi lavozimni yuvdilar. Og'asiga bu gal "kiring" demadi. Qalmaxan ham "o'zlari o'tirgilari kelgandir-da" deb qo'ygan edi, biroq Jarmaxanning bu qilgani Jibekka yoqmadi.

— Ana, ko'rdingmi, xizmati o'sa boshlagan edi, seni unutdi-qo'ydi. Uka degan akani chaqirib olib, to'rga o'tirg'izib qo'ymaydimi?..

— Birga ishlashadigan yigitlar-ku, men ularning orasiga suqilib nima qilaman?

— Nima qilaman, nima qilaman emish... Shu lavozimgacha o'sib chiqqan ekansan, "shunda akamning ham hissasi bor, akam

quvonib o'tiribdi" deb o'ylamaydimi, eng avvalo senga yuvmaydimi?

Qalmaxan indamadi, biroq Jibek aytganlari ko'p vaqtlargacha o'yidan ketmay yurdi.

Oradan bir muddat vaqt o'tganidan keyin, inisi chet elga safar qiladigan bo'ldi. Xizmat yo'li bilan ekan. Qalmaxan bilan Jibek Jarmaxanni kuzatib qo'yish uchun ataylab aeroportgacha chiqishdi.

Jarmaxan bir hafta deganda chet el safaridan qaytdi. Qaytgan kunining ertasigayoq Bayanni, o'g'lini ergashtirib og'asining uyiga keldi. Chet el safaridan sovg'a deb kennoyisiga ro'mol, akasiga soat, yugurib yurgan jiyaniga bejirim ko'ylak olib kelibdi. Jibek sovg'alarni qabul qilib olar ekan, Jarmaxanning o'g'lini kostyumigacha bir-ikki marta qarab qo'ydi.

Jarmaxanlar uydan chiqishi bilan, Jibek eriga qarab to'ng'illadi:

— Aka, ko'rdingizmi? O'zining o'g'ilchasiga qimmatbaho kostyum olibdi. Mening qizimga olgani esa, anov do'konda turgan arzon ko'ylak...

— Qo'ysang-chi, shunaqa gaplarni, — achchiqlandi Qalmaxan. — Umring bo'yi pashshadan fil yasaysan-da. Puli yetgani shu chiqar... Har holda bo'sh kelmabdi-ku...

Jibek shundayam bosilmadi.

— Menga olib kelganiyam arzon ro'mol, ko'ramiz erka xotini qanaqa ko'ylak kiyib chiqar ekanlar. Ol, senga bergan soati...

— Og'zingni yum, dedim! O'tgan safar ham shunaqa gaplaringdan keyin bir haftagacha o'zimga kelolmay yurgan edim, endi yana boshlayapsanmi?..

Qalmaxan shunday dedi-yu, uydan chiqib ketdi.

Ko'cha aylanib yurarkan, yuragining huv bir burchagida g'alati og'riq turganini his qildi. Bu og'riq xotinining gapidan keyin paydo bo'lgan edi. O'ylasa, og'riq kuchayaveradiganday, o'ylamayin desa... qo'lidagi manov soat ham o'zimizning do'konda sotiladigan soat emasmi deb, "tiq-tiq" yurib turgan jonvorni bir-ikki marta obdon tekshirib chiqdi. Qay-qaydagi gaplarni topib yuradi-ya bu xotin!

Kun yangi edi. Ko'chada borib-kelib yurdi. Oxiri sabri chidamay, inisiga qo'ng'iroq qildi.

— Labbay, eshitaman, og'a...

— Jarmaxan, yaxshi yetib oldinglarmi? Men hozir sizlar tomonga borayapman. Uyingning oldiga chiqib tur.

— Tinchlikmi, og'a, uyga kirib kelavering...

— Yo'q, ko'chada gaplashamiz...

— Yaraydi, hozir chiqib turaman.

Inisini ko'rgandan keyin ham ancha paytgacha kalovlanib, gapirolmay turdi. Anov-manovni so'ragan bo'ldi.

Og'asining gapirolmay turganini inisiyam sezgan shekilli, birinchi marta qarab-qarab qo'ydi-da, oxiri:

— Og'a, sizga nima bo'ldi, — deb so'rashga jur'atlandi. — Ishxonangizda... tinchlikmi axir?

— Tinchlik, tinchlik... Hammasi yaxshi...

— Yaxshi bo'lsin-e... Biror narsadan xafa bo'ldingizmi?

— Yo'g'-e, shu... ikkovimizning oramiz sovub borayotganday...

— Nega bunaqa deysiz? — ajablandi Jarmaxan, — nega oramiz sovur ekan?

— Kelin ham qarab yurmay, "men o'g'il tug'dim", deb maqtanibdi...

— Iye-ha o'g'il tuqqaniga quvonsa, quvongandir. Hammayam quvonadi-ku farzand tug'ilganida. Hali Jibek yangam ham o'g'il topadi, hali. Qolaversa, nima, qiz bola farzand emaskanmi?

— Sening o'zing ham... xizmating o'sa boshlagani sari bizni unutib qo'ya boshlading...

— Unutgani nima, og'ajon-ov?.. Safardan kela-sola sizlarnikiga qarab yugurdim-ku, axir. Bu deyman, og'a... Xizmat bilan og'ainilikni solishtirib bo'ladimi sira?

— Chetga borib ham, men bilan yangangni bir chetga qo'yib turganda, qizimga tuzukroq biror narsa olib kelmading...

— Eh-he, gap bu yoqda deng. Og'am-a, og'ajonim-a, bola bo'lib qoldingizmi? Bu aytayotganlaringiz o'zingizning gapingiz emas-ov, yangamning gapi-ku... — kuldi Jarmaxan. — Ayollar shunaqa bo'ladi, og'a. Ayniqsa, janjal chiqargisi keladigan ayol, uni-buni bahona qiladi-da, erini mana shunaqa qayrab, azobga tashlab qo'yadi.

— O‘zingning o‘g‘lingga qimmatbaho kostyumcha olganingchi, rost-ku axir...

— Og‘a, Xudo haqi, pul yetmay qoldi, o‘lay agar! Singlimga eng chiroyli ko‘ylakni olib kiydiraman degan niyatim bor edi, nima qilay, birinchi safarim-ku bu, pulni oz olib chiqqan ekanman. Yo‘qsa, hech o‘zimga boshqacha, singlimga boshqacha qarash... Yo‘q-yo‘q, sira tushimga ham qirmagan gaplar-ku bular...

— Sen o‘zgarib ketding, Jarmaxan, — dedi Qalmaxan salmoq bilan. — Lavoziming, pullaring seni buzayin debdi...

— Og‘ajon, bu nima deganingiz? Omadim kelib, endi baxt qushi atrofimda aylana boshlab edi, shuniyam ko‘ra olmayapsizmi?

Shu yerga kelganda Qalmaxan chatnab ketdi.

— Nega ko‘rolmas ekanman?! O‘s, o‘saver, menga o‘sganing kerak! “Falonchining akasi” degan nom meniyam quvontiradi! Mana bunday paytingdan shu shaharga olib keldim, o‘qitdim, bitta uyda turdik! Endi nima, sensiz kunimni ko‘rolmay qolarmidim? Haliyam hech kimdan kam joyim yo‘q!

— Nega bunaqa deyapsiz, og‘a, kim sizni pastga urayapti o‘zi?

Shu yerga kelganida esa Qalmaxan qo‘l siltadi-da ketdi-qoldi.

— Og‘ajon, to‘xtang axir, mendan o‘tgan bo‘lsa, kechiring...

To‘xtamadi, uzoqlashib ketaverdi...

* * *

Yoshlik paytlarida bular bir-birini qiz Jibek bilan To‘lagan, Bayan suluv bilan Qo‘zi Ko‘rpesh[1] deb hazillashishar, kulishar edi. O‘sha sof muhabbatli lahzalar qayerda qoldi, hali o‘ttizdan endi oshib-oshmagan bir paytda pokiza tuyg‘ular mahv bo‘ldimi? O‘sha beg‘ubor yoshlik paytlari bular ham “dunyoni baxtga ko‘mamiz! Odamzodga tinchlik, baxt-saodat, farovonlik bag‘ishlaymiz! O‘zimiz ham baxtli bo‘lamiz, boshqalarning baxtli bo‘lishlari uchun kurashamiz!” degan suluv-suluv, mo‘ldir-mo‘ldir orzular og‘ushida yashar edilar-ku... Nahotki o‘sha orzular ham mahv bo‘lib, payhon bo‘lib, o‘lib ketgan bo‘lsa?

Bir kuni Bayan Jarmaxandan sekin so‘radi:

---

[1] Qiz Jibek bilan To‘lagan, Bayan suluv bilan Qo‘zi Ko‘rpesh — qozoq liro-epik dostonlarining qahramonlari.

— Sizlarga nima bo‘ldi o‘zi? Og‘ang kelib turardi, sen unikiga borarding, nega bordi-keldilarni to‘xtatdinglar?

— Ay, sen tushunmaysan baribir! — qo‘lini silkidi Jarmaxan.

— Nimani tushunmayman? Og‘ang bilan o‘rtangizga sovuqlik tushib, bir-birlaringni yo‘qlamay qo‘yganlaringni tushunmaymanmi? Sen unga qaraganda yoshsan-ku, bir dona tarvuzmi, qovunmi ko‘tarib, “og‘a!” deb borib quchoqlasang, nima, seni quvib soladimi? Tur, kiyin, birga borib kelamiz!

— Kerak bo‘lsam, o‘zi kelar oxir...

— Kelmaydi. “Birinchi bo‘lib o‘zi kelsin” deb yurgan bo‘lsa qaynog‘am bechora... Kiyin, dedim-ku senga!

— Qo‘ysang-chi! Erta-indin o‘zi kelib qoladi. Men unga biror gap aytmadim, o‘zi o‘pkaladi, o‘zi ketdi...

Bayan yig‘lab yuborguday bo‘lib, narigi xonaga chiqib ketdi.

* * *

Xuddi shunday oilaviy suhbat Qalmaxanlarning uyida ham bo‘lib turardi. “Ana, aytmadimmi, ukayam uka bo‘lib chiqmadi, necha oy bo‘lib ketdi kelmay qo‘yganiga!” deb qichiq qidirardi Jibek xonim. “O‘zi bilar, men uni o‘qitdim, ishga joylashtirdim, shaharda olib qoldim... hay, mayli...”.

Bu — ukani sog‘ingan akaning gaplari.

Kunlar shunday o‘tib borar, oradagi sovuqchilik tog‘i esa eriy demasdi.

“Nega bunaqa bo‘ldi?” Ikkovlari ham, to‘rtovlari ham latta-puttalar jon ayamasday aka-ukalikni, mehr-oqibatni, bordi-keldilarni qoq ayirib yuborishi mumkinligidan hayratda edi.

Shunday kunlarning birida... Qalmaxanlarning idorasida ichki tartib, shtat bilan bog‘liq o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi, ba’zi bir bo‘limlar qo‘shiladigan, ba’zilari bo‘linadigan, ba’zilari umuman yangi mahkama bo‘lib ajrashib chiqadigan... Bo‘yrasoch yigit yangi tuzilayotgan boshqarmaga rahbar bo‘lib tayinlanar emish, Qalmaxanning bo‘limi uning qo‘l ostida ishlar emish. Tavba, shunaqayam rasvoyi raddi balo o‘zgarishlar ham bo‘ladimi? Bo‘lar ekan, zamonaviy ish boshqarishni tashkil qilishda har narsani kutsa bo‘ladi bu rahbarlardan...

Shu kuni Qalmaxan uyiga ko‘ngilsiz qaytdi.

— Senga nima bo‘ldi? Kyfiyating past... — tipirchiladi Jibek.

— Ishxonada shtat o‘zgarishi bo‘lyapti.

— Qanday o‘zgarish?

— Vazirlikdan buyruq berishibdi, idoramizdan yangi bir bo‘lim mustaqil mahkamaga aylanar emish, shunga anavi bo‘yrasoch boshliq bo‘lib tayinlanar emish.

— E, Xudo olsin o‘sha oliftani! Endi... uning qo‘lida qanday qilib ishlaysan?

— Ishlamayman dedim. Boshqa ishga o‘taman...

Qalmaxan shunday dedi-yu, o‘zini yostiqqa otdi...

Ertasiga ishxonasiga borib, ariza qoldirda-da, ish izlab boshqa bir vazirlikdagi tanishlarini ko‘rish uchun ketdi. Avvallari ikki oyog‘i bir etikka tiqilgan mana shunday tashvishli damlarda inisi bilan maslahatlashardi. Bu safar maslahatlashadigan ham odam yo‘q. O‘zining bilganicha ish tutdi.

Yangi ishxonasidagi boshliq ham Qalmaxandan naq ikki yosh kichik bo‘lib chiqdi. Kichik bo‘lgani hech gap-ov, birinchi yig‘ilishda yoq Qalmaxanni sensirab boshladi. Buning esa “Men sendan ikki yosh kattaman, chirog‘im-ov...” deyishga darmoni yo‘q. Nima qilsa ekan?..

Uyda Jibek quloqni batangga keltira boshladi.

— Ertagayoq oldiga kirib shart qo‘y: sen emas, siz deydigan bo‘lsin! Nima endi, sen yosh yigitmidingki, hammaning oldida senlab tursa!

— Sen deganda nima-yu, siz deganda senga nima? — qichqirib yubordi Qalmaxan.— Ish bo‘lgandan keyin, birov boshliq, birov xodim bo‘lgandan keyin, aytilaveradi-da “sen” deb, “siz” deb. Shungayam ota go‘ri-qozixonami qilib yurish shart ekanmi? Nima, bu hayotdagi bor izzat-hurmat faqat shu ikki so‘zga kelib tiralib qolgan debmiding?! “Siz, siz” deb yurib, sillangni qotiradiganlar ko‘p-ku hayotda!

Keyingi paytlarda shu ikki so‘z xayolidan nari ketmay qoldi o‘zi... “Sen deganda nima-yu, siz deganda nima? Nahotki bizning qozoqning butun turmush tarzi shu ikkita so‘zning farqi bilan bel-

gilansa? "Sendan bir kunlik bo'lsayam kattaman!" deb talashadi bizning xalq. Kattaligingni shu ikki so'zning farqi bilan emas, ish bilan ko'rsatsang bo'ladi-ku axir... Nafasiga non pishgan ko'kraklar-a!.."

Shularni o'ylab borayotib lop etib inisi esiga tushdi.

"Yopirim-ay, bir ota, bir onadan tug'ilib, mana, ellikka yetmasdan bir-birimizni ko'rmasday bo'lib ketdik. Xo'sh, bunga kim aybdor?!"

Qalmaxanning ko'zining oldini g'ubor bosdi. O'tgan-u o'tayotgan umrining har xil voqealari ko'z oldida qator-qator tizilishib turganday. Xotira deganlari shularmi? Shularni xotira deydigan bo'lsak, nega ular orasida yorug' voqealar, turli o'tmish hodisalari yo'q? Nega ko'zining oldini mayda-chuyda narsalar, aytishga ham arzimaydigan g'uborli xotiralar bosib yotibdi?!

Mana shu g'uborlik, is bosgan, tutun bosgan arzimas esdaliklar ichidan bir payt Jibekning vishillaganday qo'ng'ir ovozi eshitila boshladi: "Ularning farzandlari — o'g'il, bizlarniki qiz, shuning uchun ham... vish-vish... Mansabi o'sgani sayin o'qitgan akasini tanimay ketadi odamlar... vish-vish... ko'rinib yuradi-da, sendan foydalanib, foydalanib, sening o'rningga mansabni o'zi egallaydi-ketadi... vish-vish... O'zining bolasiga qimmatbaho kostyum oladi, ol, sening qizingga esa... vish-vish...".

Dod devorgisi kelib ketdi Qalmaxanning, voy-dod! Bu dunyoda g'iybatdan, hasaddan, ko'rolmaslik kasalligidan qutiladigan kun bormi o'zi?!

Atrofiga alangladi. Pivoxonaning oldida turgan ekan. Pivo xuddi bosh og'rig'ini bosadiganday birdaniga ikki krujka olib ichdi. Endi uchinchini olish uchun pivoxonaning ichkarisiga sho'ng'idi. Ulkan xonaning ichi ko'k tutun. Ana, bir chetdagi stolda ikki yigit mijjing-mijjing qilib, hangomalashmoqda. Shularning yoniga borib qo'shilmoqchi bo'ldi. Biroq qanday boradi? "Ket nari" deb haydab yuborishsa, nima qiladi? Ana, birovi beri burildi. Inisi Jarmaxanga o'xshar ekanmi? Yo'q, o'xshaydi emas, xuddi o'zi! Qalmaxan yuzini buraman deguncha, inisin o'zi yetib keldi.

— Og'a, bu yerga qachon keldingiz? Yolg'izsiz?..

— Bu umrda, bovurib, odam bolasi yolg‘iz yashagani yaxshimi deyman...

— Nega bunaqa deyapsiz, og‘ajonim-a...

Inisi yig‘lab yubordi.

Buning mijjalari ham yoshlanib qoldi. Quchoqlashdilar.

* * *

O‘shandan beri Qalmaxan bilan Jarmaxan qayta topishganday yashab kelmoqdalar. Bir-birlari bilan tez-tez xabarlashib turishadi. Endi ularning oralarini boshqa bir mayda gap... buzib qo‘ymasmikin?

Bunisi endi Jibek bilan Bayanga bog‘liq, shekilli...

ZARYA JUMANOVA

(1959)

Zarya Jumanova 1959-yil 1-yanvarda tug'ilgan. Qozoq milliy universitetini tamomlagan.

"Ikkiga bo'linmas kelinchak", "Tungi olovlar", "Siz izlagan olam", "Oqbo'ta", "Zapax dojdya", "Guloysha, Rokfeller va boshqalar" nomli nasriy kitoblar muallifi.

TAQDIRNING "KUTILMAGAN TUHFASI"

Yollari hurpayib, doira shaklida o'ralayotgan dahshatli ajdarho kabi baland tog'lar yonbag'ridagi azim shaharda erta quyosh botib, oqshom tez cho'kadi. Devorlari oynakdan bo'lgan savlatli binoning yuqori qavatidan tungi shahar nafasiga quloq tutib, sukunat domiga cho'mdim. Mashina tirbandligi kamayib, odamlar oyog'i tinganda shoshmasdan uyga ketaman, deb o'yladim. Ko'pdan beri tugamagan ishlarimni yakunlab, ancha o'tirib qolibman. Xizmatdosh qizlarning hammasida yengil avtomashina bor. Hozir uylarida mazza qilib dam olib o'tirgandir.

Ish vaqti tugashi arafasida boshliqdan tezkor topshiriq olgan uzun bo'yli, qorachadan kelgan, charos ko'zli, ozg'ingina qizdan boshqalar allaqachon ketib qolgan. U kompyuterni o'chirdi, keng kabinetning burchak-burchagida xonaga ko'rk berib o'sib yotgan behisob gularning yaproqlarini kaftiga solib, changini arta boshladi.

"Ko'pchilik bilan yurib, o'zini yolg'iz his etganlar bilan tub ildizi qishloqdan chiqqanlargina uy o'simliklarini qiyomiga yetkazib parvarishlay oladi", degan gapni internetdan o'qigandim, to'satdan o'sha gap yodimga tushdi, hech sababsiz kulgim qistadi, lekin uni ranjitgim kelmadi, yuzimni yashirdim....

Baland marmar zinali, tepasi ko'kka yetgudek mahobatli imoratdan ikkimiz shoshilmay chiqib, manzilga tomon yo'l oldik. Kutilmaganda qarshimizdan, sariq qizil sharlar bilan bezatilgan, uzundan-uzun qop-qora limuzin chiqib keldi. Hammani o'ziga qaratib, baralla muzika yangrardi. Oynalari qoraytirilgan qimmatbaho mashina ko'zdan g'oyib bo'lgunicha, yonimdagi sherigim mashina ortidan qarab qoldi. So'ng o'zining bu holatidan uyaldimi men tomonga keskin burilib qaradi.

"General bo'lishni orzu qilmaydigan askar yo'q... Endigina bo'yi yetgan qizlar barchasi oq libos-u, harir ro'mol ila pokiza ostona hatlab kelin bo'lishni shirin xayollar ila orzu qiladi", deb o'yladim, uning bu qarashlaridan chamalab.

U mahzun, bolalik davrini xotirlab:

— Siz bilasizmi, opa, bolalik chog'imdan tezroq ulg'ayishni, boshimga oq ro'mol tashlab, egnimga keng etakli ko'ylak kiyib, baland poshnali tufli bilan "taq-tuq" bosib yurishni orzu qilganman. Yodimda, o'rtasi pech bilan bo'lingan to'rt xonali uyimizning eng to'rida qizil rangli mato yopilgan baland karavot turar edi. O'sha karavotga faqat qadrli mehmonlar kelgandagina soladigan ko'rpachalar taxlanib turardi. Uydagi eng bebaho boylikning cho'qqisida quloqlari dikrayib par yostiqlar savlat bilan turardi. Onam ularni chetlarida nozik naqshlari bor harir parda bilan ehtiyotlab yopib qo'yardi. Uyda hech kim yo'q paytida o'sha harir pardani bir tomonga burmalab yig'ib, to'g'nag'ich bilan qadab, yangi tushgan kelinchakning kiyimiga o'xshatib boshimga yopardim.

So'ng otam bilan onamning mehmonga borgandagina did bilan kiyib, so'ng uyga kelgach yaxshilab tozalab, ardoqlab olib qo'yadigan sutday oppoq tuflisini oyog'imga kiyib olib, oyna oldida sollana yurishga havasmand edim. Lekin balog'at yoshiga yetib, kelinning qorday oppoq, behisob yulduzlar kabi tovlanib, ko'zni qamashtiruvchi munchoqli, etagi yer chizguvchi to'y kuylagidan voz kechib, boshqa shaharga qochib ketish yetti uxlab tushimga ham kirmagan edi, — deb u uzundan-uzoq hikoyasini boshladi.

— Ajabo?! Shunday qildingmi sen?.. O'z to'yingdan o'zing qochib ketdingmi? — deya hayratimni yashira olmadim.

— Ha, ayni to‘y ustida... Kuyov yigit ikkimiz do‘kon oralab, bir necha kun davomida to‘y ko‘ylagini, nikoh uzuklarini tanladik. Har doim shahar to‘la bozor-u do‘konlar, do‘konlarda ming turli matohlarga to‘la bo‘lsa ham, o‘zingga yoqadigan, ko‘ngildagi narsangni topish juda mushkul ish ekan. Bir kuni kuyov yigitning opa, yangalari biz bilan do‘kon aylangani chiqdilar. Qudalarga sarpo olmoqchi edi. Shirin orzular og‘ushida ikkimiz qo‘l ushlashib, biroz orqada kelayotgandik. To‘satdan haligi ayollarning bittasi: “Bo‘lajak kelinimizning ismi g‘alati ekan? Ozod degan... Qiz bolaga ham shunday ism qo‘yarkan, a?! Bu qiz tug‘ilganda otasi turmadan chiqqan ekanmi?” deya qiqirlab kuldi. Eshitsam ham eshitmaganga olib jimgina ketaversam bo‘lardi, lekin qalbimga nomusim sig‘madi, umrbod boshimga balo orttirgim kelmadi-da, sekingina ularga qarab: “Davlatimiz mustaqilligini e’lon qilgan kuni tug‘ilgan ekanman. Shunda “Dadang qiz bo‘lsa ham ismini Ozod qo‘yamiz deb turib oldi”, deb rahmatli onam aytardi”, dedim vazmingina. Biroz bo‘lsa-da og‘izlarini yopgan edim. Ko‘p vaqt o‘tmay ayollardan birining: “Voy, onasi yo‘q yetim qiz ekan-ku... U holda bizga qay yolchigan sarpo opkelardi?! Yetim qizga u qadar chiqim, harajat qilib nima qilamiz? Arzon garov latta-puttalarni baraxolkadan olaqolaylik”, deya shivirlagani qulog‘imga chalinib qoldi bexosdan. “Yetim qiz... yetim qiz...” Naqadar yoqimsiz, sovuq so‘z! Qulog‘imda qolgan, miyamda aylanib qolgan o‘sha mudhish so‘zni yonimda kelayotgan yigitning ham eshitishi aniq edi. Lekin menga shu gapni aytgan yaqinlariga qarshi bir og‘iz so‘z aytolmadi, meni himoya qilolmadi!.. Ko‘nglim qoldi, shartta burilib, ko‘zim yoshga to‘lib, boshim oqqan tomonga keta boshladim. U izimdan qolmasdi, menga uzoq yalindi: “Menga shafqat qilmasang ham ota-onamni ayagin, shahardagi eng krutoy restoranga buyurtma berib qo‘yishgan. To‘yga chaqirilgan nozik mehmonlarga nima deymiz? Xalqdan uyat emasmi?!” O‘zi ham, onasi ham bir necha kun qo‘ng‘iroq qilishdi. Yuragim ezilib, jonim faryod qilib tursa hamki egilmadim. Egilolmadim. Shu ketgancha uzoq ketdim, — dedi ko‘zi yoshga to‘lib.

Menimcha, o‘sha limuzin, uning sokin ko‘nglini alg‘ov-dalg‘ov qilgandi. Mening ham boshimga, daraxt shoxlariga

uchib kelgan to‘rg‘aylar misoli turfa o‘y yopirilib kela boshladi. Ikkalamiz bekatda mashina kutib uzoq turdik. Oq-sariq sochi orqasini yopgan, egniga kindigiga yetar-yetmas kalta kurtka, tirsillagan tor shim kiygan to‘ladan kelgan ayol qarshimizga salom-aliksiz kelib turdi. Birozdan so‘ng do‘rillagan ovozda baqira boshladi:

— Mening qadrdonlarim yo‘q! Meni hech kim kutmaydi! Ayol quyosh kabi mangu nur socholmaydi!.. Qalb tafting bilan hammani ilitish — tentaklik!.. Men, ahmoq, buni kech tushundim!

Mastga o‘xshamaydi, bemahalda joni kuyib, ichdagi dardini kimga aytishni bilmay turganmikin?.. Yoki es-hushini yo‘qotgan kimsami, kim bilsin? Balodan nari deya Ozod ikkimiz sal nariroq borib turdik.

Yana xayol dengiziga sho‘ng‘idim. Negaligini bilmayman, shu lahzada o‘zimni emas, Ozodni o‘ylardim, hozirgi begona ayol aytmoqchi uning ishdan qaytishini kutib yo‘liga ko‘z tikkan, kechiksa xavotirlanadigan kimi bor ekan uyida?! Ayni damda uning ham chuqur xayolga cho‘mganini dildan sezdim.

— Opam bilan pochchamning uch o‘g‘lini shaharga, yonimga opkevoldim, ovulda ish yo‘q, to‘planib aroq ichib, mol o‘g‘irlab, qiz zo‘rlash kabi jinoyatga qo‘l urganlar talaygina, qamoqqa tushib qolmasin deyman. Ijaradan ijaraga ko‘chgan sayin, o‘shalarni bo‘ri bolasini og‘izda tishlagani kabi asrab, o‘zim bilan olib yuribman. Ancha yil bo‘ldi. Ikkita kattasi telefon hamda kompyuter sozlash kurslarini tugatgan. Hozir uncha-muncha pul topmoqda. Kichigi sartaroshlikka o‘qiyapti. Lekin rostini aytsam, o‘shalar men kechiksam xavotir olib, yo‘limga qarab kutadi, deb o‘ylamayman. Agar meni o‘ylaganida oldindan pishirib sovutgichga olib qo‘ygan qozon-qozon ovqatlarimni ba’zida menga bir qoshiq ham qoldirmay yeb qo‘ymasdi, — dedi hilolga ko‘z tikkancha.

Gap topolmay unsiz jimib qoldim.

— Bir kuni ular ham o‘z yo‘lini topib ketar. Ana shunda men yakka-yu yolg‘iz qanday yashar ekanman? — deb og‘ir tin oldi. Shu paytda taksiga minib olgan begona ayol yana baqirdi:

— Hech qachon hech narsaga bog'lanib qolmang! Hatto joningiz ham o'zingizniki emas, bir kuni tashlab ketadi!

— Ajab! Hozirgina sizga sekin aytgan so'zimni eshitib qolganday, — dedi Ozod hayron boqib.

"Aqlli" ayolning ketishini kutib turganday, guvillab avtobus keldi. Uning orqa tomoniga ikkimiz o'tirib oldik. Ko'cha bo'yidagi qozoq tilida savodsizlarcha yozilgan reklamalarga derazadan beparvo tikilib, o'z xayolim bilan band bo'ldim. Uni Ozod bo'lib yubordi.

— Opa, yonimdagi jiyanlarga qaramasdan, erga tegib ketsam nima qilarkin?

— Ularning ovulda ota-onasi bordir? — boshqa gap aytolmadim.

— Allohga shukur, yetim emas. Lekin shu yoshda "ikki yarim — bir butun" bo'ladigan birovni qayerdan izlayman?

Men esa chuqur o'yga cho'mdim. Sehrli nurlari tovlanib ko'zni qamashtirgan tungi klublar va restoranlarga bormasligi aniq... Hatto bu tugul qancha-qancha gavjum davralarning ostonalarini to'zdirgan, ancha-muncha charm etikni nazarga ilmaydigan, zamonaviy hamkasb qizlar ham turmushga chiqolmasdan yuribdi.

— Ey, Xudoyim, binoyiday qizlarni ko'rmagan yigitlar Oyga qarab yurganmikan?! — dedim jim qolishga iymanib.

— "Yurgan oyoqqa yo'ldosh qo'shilar" degan otam zamondagi maqol ham hozir eskirib, asl-mohiyatini yo'qotgan menimcha, — dedi u biroz qovog'ini uyib.

— Nega? — hayron bo'lib, yuziga tikildim.

— Biz bilan bir kabinetda o'tirgan qizlar har yili dunyoning to'rt burchagini kezib yuribdi. Ta'til chog'lari yurt oralab, negr bormi, nemis bormi quchoqlashib, rasmga tushib deganday... Hatto ularning bormagan joylari, bosmagan tog'lari qoldimikin?! Rasmlariga qarasang ko'zing quvnaydi. Boshliq aytganiday, "Mustaqil Qozog'istonning eng erkin qizlari" shular emasmi?!

— Attang, dunyoning yarmini aylansa ham, joniga oro bo'ladigan es-hushli yigitlar uchramayapti! — dedim men.

— Ularning didi ham, talablari ham, juda osmonda-ku, opa. Har tomonlama kamchiliksiz, to‘rt muchasi sog‘, komil yigitni topmoq — menimcha, shunchaki orzu. Mening esa bitta orzuyim bor.

— Qanday?

— Umi, u... ular kabi dunyoning go‘zal maskanlarini, xotirjam sayohat qilsam deyman.

— Orzu qilsang, erishib bo‘lmaydigan narsa emas-ku, odamlar hozir istagan joyiga borib kelyapti, to‘g‘rimi?! Ularning barchasi — millioner emas, sen kabi insonlar.

— To‘g‘ri aytasiz, opa. Shu kunlarda o‘zim ham ko‘p o‘ylayman. Ularning topganini men ham topib yuribman. Lekin topganim barchasi shu ondayoq qumga singganday bir zumda tugab ketyapti. Hech bo‘lmasa ishdan horib kelganimda oyog‘imni uzatib yotadigan o‘z uyim yo‘q. Shu qisqa umrga faqat mehnat uchun keldimmi? Qachon o‘zim uchun hayot kechiraman?! Bu yurishim qanday yurish? — Ozod chimirilib gapirardi... Javobsiz savollarini menga emas o‘z-o‘ziga berib o‘tirganini tushundim.

Ba’zilari mudrab, ba’zilari chuqur o‘yga tolgan, horg‘in chehrali yo‘lovchilar o‘tirgan avtobus, ko‘p o‘tmay bizning uyimiz qarshisiga kelib to‘xtadi. Ozod bilan indamay xayrlashib avtobusdan tushib qoldim. U shaharning bir chekkasida, kimningdir barak kabi eski uyida turadi. Negaligin bilmadim, Ozodni ko‘p o‘yladim. Hatto uning har bir xatti-xarakatini tashqaridan kuzatib, ko‘zim bilan ko‘rib turganday his etdim.

...Ana u avtobusdan irg‘ib tushdi. Qorong‘ulikka bepisand, aylanma qing‘ir ko‘chaning eng chekka tomonidagi, chiroqlari miltillagan ijara uyi tomon ildam yurib boradi... Negaligin bilmadim, har holda uning endigi hayoti butunlay boshqa tomonga o‘zgarsin, deb tiladim.

* * *

Ertasiga ikkimiz har kungidek tushlik tanaffus paytida birga ovqatlanib, toza havodan nafas olib, shinam bog‘chada sayr qilib yurdik.

— Opa, donishmandlardan biri: “Dunyoni o‘zgartmoq istasang, o‘zingdan boshla” degan ekan, — dedi Ozod past ovozda.

Uning uzoqdan boshlagan hikoyasiga indamay quloq tutdim.

— Uyga kelsam, barzangi yigitlar taomga to‘yib olib, telefonga termulib, qirqilgan terakday uzala tushib yotgan ekan... Menga taom qoldirmabdi ham. Maydalab piyoz to‘g‘rab, tuxum qovurib yeb oldim. So‘ng faqat o‘zim foydalangan tova va kosa-qoshiqni yuvib qo‘ydim... Kun bo‘yi tog‘day uyilib yotgan ishlatilgan idishlarga barmog‘imning uchini ham tekkizmadim. Har kuni hammasini o‘zim yuvib ovvora bo‘lar edim.

— “Yigit boshlaring bilan qozon-tovoqqa aralashmanglar!” deb boshidan o‘zing o‘rgatgandirsan? Endi o‘sha o‘zing yoqqan olovga o‘zing isinasan! — deb kuldim.

— Ha rost aytasiz, opa. Olov dedingiz...

Deraza oldida ancha vaqtdan buyon yig‘ilgan gazeta-jurnallar yotardi. Shularni quchoqlab ôlib borib, eshik oldiga, bir chekkaga olib chiqdim-da, yoqa boshladim. Hali yonib ulgurmagan qog‘ozlarga tikilib tursam, kichik jiyanim kelib:

— Oziko, nima bo‘ldi, yana ko‘chamizmi? — deydi.

— Yo‘q men tez orada turmushga chiqaman, — deb aytib yubordim. Nega unday deganimni o‘zim ham bilmayman opa, u esa:

— Nima-nima?.. Turmushga chiqish nimasi? Biz...biz kimga qolamiz unda? — deb shoshib qoldi.

Qordek yog‘ilgan so‘roqlarga javob bermasdan so‘nayotgan cho‘g‘larga tikilib o‘tiraverdim. U mendan javob ololmagach, yuzimga qarab-qarab turdi-da, ichkariga yo‘naldi. “Voy uyat-ey, nimalar deb qo‘ydim? Qaydagi er? Alloh buyurmagan, yo‘q narsani aytganim nimasi?” deya ikki kaftim bilan yuzimni berkitib, eshik oldida naridan-beri yurdim... “Turmushga chiqsam aybmi?! Shunday katta shaharda o‘zim singari yolg‘iz bir er yigit topilmas ekanmi?!” deya o‘ylanib turgandim, “Yarim tunda yolg‘iz o‘zing nega turibsan, bolam!? Tinchlikmi?” deya, qo‘shni ayol oldimga kelib, shirin xayollarimni to‘zitib yubordi. “Shunchaki, toza havoda yuribman. Uzzukun kompyuter oldida o‘tiraman. Bugun tun ajoyib ekan, a?!.” deb, uni chalg‘itib javob berdim.

— Shamollab qolasan, yur, ichkariga kiramiz, bugun uyda yolg‘iz edim, ikkalamiz o‘tirib choy ichamiz! — deb, e’tirozimga qaramasdan, uyiga olib kirdi.

Usti ancha to'zib, temir ilgaklari har yeridan ko'rina boshlagan eski divanning ustiga quroq ko'rpacha to'shadi. To'kilay deb turgan divanga chorasiz o'tirdim. To'satdan keladigan mehmon uchun atab olib qo'ygan shirinliklaridan olib kelib, dasturxonga qo'ya boshladi.

— Qisilma, bemalol o'tir. O'g'lim ishdan keyin kirakashlik qilib, har kuni kech keladi. Senga aytadigan bir gapim bor edi, — dedi.

Choy ustida o'sha gapini ayta olmadi chog'i: "Bolam, manavi qo'shnilar, "Shu shaharda bir mashhur kompaniyada ishlar ekan", deb sening orqangdan gap qiladi. Aslida u joyga duch kelgan odam kirib ishlay olmaydi, deb eshitganman. Shu rostmi?" — deb gapning mavzusini o'zimga qarata burdi...

Ozod qattiq kulib yubordi. (Shu savol mening ham xayolimda yurgandi, quloq solib tinglay boshladim). — Avvaliga shu boshqarmada ish borligini bitta tanishimdan eshitdim... Lekin, shunday dedi-yu, "Vuy, seni ishga olarmikin? Boshliq faqat o'z urug'doshlarini olar edi" deya u kishi xijolat bo'lib qoldi. Borib o'z baxtimni sinab ko'rishga qaror qildim. Boshliqning urug'ini so'rab bilib oldim. Lekin yoniga borganimda salobati bosdimi, birdan yodimdan ko'tarilib qoldi. "Hujjatlaring joyida ekan! Dur-u-u-st!.. Bir necha til bilar ekansan! Xo'o'sh, endi aytchi, o'zing qay urug'dan bo'lasan?" deya tikilib qarab qolsa bo'ladimi.

"Haligi" urug'i omon bo'lgurning nomi yodimga tusha qolmadi. Kuzgi yaproq singari dir-dir titrab, terlab ketdim. "Yaproq" degan so'zga o'xshardi aftidan. So'ng tavakkal qilib, sekingina: "Ya-p-ir-roq-li", dedim. Qo'lidagi hujjatlarimni sekin titkilab chiqib, oromkursida qornini quchib bemalol joylashib o'tirgan boshliq, boshini o'qilondek birdan ko'tardi-da: "Nima, nima deysan?" dedi lol bo'lib. Men qaytadan: "Ya-p-ir-oq-li", deb ming'irladim. U kishi quchoqlab o'tirgan xamirday katta qornini birdan qo'yib yuborib, keng xonani boshiga ko'targudek kulib yubordi.

Yo'talib-yo'talib, ko'zidan yosh chiqqunicha kuldi. Kirgani teshik topolmay, qoqqan qoziqday joyimda turib qoldim. U birozdan so'ng kulgidan to'xtab, ko'z yoshini yengi bilan artib: "Ma'qul,

qiziqarli bo‘lsin uchun, begona urug‘dan ham oramizda kimdir yursin!” dedi va arizamga jimjimador qo‘lini qo‘ydi. Shunday qilib o‘sha boshqarmaga ishga joylashdim, — dedi Ozod iliq tabassum bilan.

— Qachongacha tanish-bilish, urug‘doshlarini to‘plasin. Biz kabi, ishdan “o‘lgan” fidokorlar ham kerak-ku konpaniyaga. Lekin bardoshing toshday ekan, — deya chin dildan havas qildim u qizga.

— O‘sha voqeani qo‘shni opaga ham aynan aytib berdim. “Yopiray, a! Qayta seni Xudo asragan ekan. “Kimni aldaging keldi?” deb, urishib-urishib, quvib yuborsa, nima qilarding?” deb, cho‘chib yoqasini ushladi. “Opa, men uyga qaytayin. Menga so‘zingiz bormidi?” deb boshlagan so‘zini qayta yodiga soldim. “Shu gapni senga aytsammi-aytmasammi deb ikkilanib turibman. Ajabtovur mashhur kompaniyaning xodimiga aytish noqulay menimcha”, deb talmovsiradi.

— Aytishni niyat qilgan ekansiz aytaversangizchi, — men ham aytmasiga qo‘ymay, tovon tirab turib oldim.

— Anchadan buyon qishloqdagi uyimizga bormay yurgan edim. Kecha to‘satdan xabar keldi... O‘zim bormasam bo‘lmay turibdi, boray desam... — deb qo‘shni opa noqulay holda yerga qaradi. — Tog‘ tomonda hashamatli uylar bor-ku, biroz vaqtdan buyon shu uylarning kiraverishini tozalab yurgandim. Haftasiga bir marta. Vaqtincha almashtirib turadigan odam topilmay turibdi. Ish haqini beraman-ku. Bola-chaqaga ishonmayman. Menimcha, shu atrofdagi eng o‘zini tutgan, ehtiyotkor inson sensan. Lekin ... — deb bir chuqur xo‘rsinib qo‘ydi.

— Voy, buncha qiynalib, iymanib aytgan gapingiz shumi? Baribir dam olish kunlari hech qayerga chiqmayman. Xotirjam boravering qishlog‘ingizga, — dedim. Qo‘shni ayol yelkasidan og‘ir yuk tushganday yayrab ketdi.— Kulib yubordi Ozod.

— E, endi dam olish kunlari farroshga aylanaman degin! — deb hazil bilan yelkasidan qoqdim. Uning kayfiyati ko‘tarinki edi.

— Hech kim tanimaydigandek kiyinib olaman. Imijimni butkul o‘zgartiraman. Soyaboni uzun oppoq kepkamni kiysam, meni boshqalar tugul uydagi yigitlar ham tanimas, opa!?

— Ishbop kiyimlaring bormidi? — deb so‘radim, kechqurun bekatda avtobus kutib turganimizda.

— Bor-ku, faqat uyga borgach, temir karavot tagidagi eski kiyimlarni titkilashim kerak. Karton qutichalar bilan, ola qoplarga ortiqcha kiyimlarni solib qo‘yganman. Uydan uyga ko‘chganda qulay bo‘lsin deb....

Har doim tizzadan salgina tushadigan to‘g‘ri etakli kostyum, oq shim kiyib, baland poshnali tuflisini taq-tuq qilib yuradigan salobatli qizning boshqacha ko‘rinishini ko‘z oldimga keltira olmadim.

* * *

Tong — shanba bo‘lsa ham, kundagi ishga boradigan mahalda uyqum birdan ochildi. Lekin uyg‘onganim bilan, hafta bo‘yi erta tongdan bekatda turishlarimni eslab, o‘zimga rahmim keldi, huzurli to‘shakdan turishni istamadim. Loaqal bir kun odamga o‘xshab uxlay deb o‘yladim, lekin kiprik ilolmadim. Negaligin bilmadim, Ozod xayolimdan ketmasdi.

Tonggi avtobusdan tusha solib, tinch, sokin tog‘ yonbag‘ridagi basavlat, zamonaviy uy tomonga shoshilib borayotgani ko‘z o‘ngimga keldi... Hatto uning it uyasiday kichkina uychasi ichida go‘yo bitta davlatning chegara qo‘riqchisiday tutgan qorovuliga maqsadini tushuntirib, yo pirim deb ichkariga yo‘l olayotganini ham aniq kinodagiday ko‘rdim.

Har kimning ham qo‘li yetmaydigan, bahosi osmonda, ko‘p qavatli qulay ham shinam uylarda, ko‘proq boy-badavlatlarning urug‘-aymog‘i, sevganlari-yu, erka ikkinchi ayollari yashashini Ozod qaydanam bilsin. O‘ralgan keng hovlidan, qimmatbaho mashinalarini ilonday to‘lqitib, unsizgina chiqayotgan alpqomat yigitlar-u nozik qizlarni ko‘rib, havasi ortadi deb o‘yladim.

* * *

Shanba, yakshanba kunlari vaqt o‘rnidan surilmay, bir joyda turib qolgandek his etdim. Odatda, tong otsa kun botib, bir zumda kun o‘tib ketardi. Ozodning necha yildan buyon bo‘yog‘i so‘lg‘in, bir yo‘nalishdagi hayotida bir katta o‘zgarish bo‘ladigandek, salgina ko‘zdan yiroq qilsam, ajoyib yangilikdan quruq qoladiganday

ko‘nglim alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib ketdi. Rostini aytsam dushanbaga bazo‘r yetdim. Ikkalamiz ishga hammadan avval kelibmiz. Ozod go‘yo boshqa galaktikadan kelgan kishiday:

— Opa, ishonasizmi, men borku, tun-u kun faqat, “uy-ish-uy” deb, yon-atrofimga bo‘yin burib qaramay, dikinglab yuraveribman. O‘zim kabi insonlarning qanday uyda yashayotganlarini ko‘rib, og‘zim ochib, ko‘zimni yumdim-ku. Hamma yashayotgan ekan, men bo‘lsam faqat tirikchilik deb yurgan ekanman. Agarda nafaqaga chiqqunimga qadar, tun-u kun dam olmasdan, ikki-uch joyda ishlasam ham, ichmay-yemay, to‘y-ma’rakaga bormasdan, topganimning hammasini yig‘sam ham, shu uylarning bitta xonasini ololmasligim tayin! — dedi ko‘rishar-ko‘rishmas.

O‘z o‘rnimga joylashib o‘tirib, kompyuterimni qo‘shayotib:

— Qani endi nima ish qilganingni, nima ko‘rganingni bir chekkadan shoshilmay-hovliqmay aytaver, qulog‘im senda. Ikki kun dam olishda sen yodimdan chiqmading hech, — dedim unga.

— Juma kuni ishdan chiqib uyga borgach, to‘zigan jinsiy shim, futbolka, kepka, krossovkalarimni topib oldim. Bir chekkadan kiyib ko‘rdim, so‘kilgan joylarini tikib, yuvib, dazmollab, tun yarmidan oqqunicha obdon ovora bo‘ldim. Jiyanlarim hayron, menga qarab, o‘zlaricha bir-biriga imlab qo‘yadi. Pol yuvishga borishimni ular qayerdanam bilishardi. Ular meni tog‘ tomonga, tabiat qo‘yniga, bo‘lajak “kuyovi” bilan bormoqchi deb o‘ylashdi chog‘i... — Ozod olma yuzi yoyilib, kulib oldi.

Kulganida kichkina charosdek tim qora ko‘zlari yumilib ketarkan. Uning avvallari bu qadar rohatlanib kulganini ko‘rmaganim uchunmi, chiroyli chehrasiga havas bilan tikilib qoldim.

— Shanba kuni erta tongdan yetib borgandim, eshik oldidagi nazoratchi ham mijg‘ov ekan, obdon so‘roqqa tutsa bo‘ladimi?! Men go‘yo bitta davlatning chegarasini buzib kirmoqchi bo‘lgan jinoyatchiday. Yo pirim deb ichkariga kirdim-u, tin olmasdan ishga kirishdim. Hatto kunning qanday o‘tganini ham payqamay qolibman.

Eshik oldiga chiqib, yuzlarimni artib, dam olib o‘tirgandim, suyanchiqli uzun o‘tirgichning nargi boshida, yosh, chamamda, o‘n uch-o‘n to‘rt yoshlardagi o‘g‘il bolalar boshqotirma topib, o‘ynab

o‘tirgan ekan. Bir gapning to‘g‘ri javobini topolmay boshlari qotdi. O‘ylanmasdan bir so‘zni shartta aytib yubordim.

“O‘, to‘ppa-to‘g‘ri!” — deyishdi, men esa sevindim. Bolalar men tomonga ko‘z qirini ham solmasdan, o‘yinini davom ettirdi. Saldan so‘ng ular yana so‘zga ma’nodosh topolmay qolishdi. Bilib turib indamasdan o‘tirishga sabrim chidamadi. Bu safar ham javobim to‘g‘ri bo‘lib chiqdi. Shaharning eng kuchli gimnaziya maktabida bilim olayotgan balandimog‘ bolalar, hayron bo‘lib bosh chayqashdi.

“Biz topa olmagan qiyin javoblarni oddiy farrosh qayoqdan biladi?” deb o‘ylaganlari ko‘zlaridan ko‘rinib turardi. Ko‘p o‘tmay menga o‘zgacha iltifot bilan qarab, bilmaganlarini, yaqin olib so‘ray boshladi.

— Xo‘p, yigitchalar, men ketdim, omon bo‘linglar, ana avtobusim ham kelyapti! — deb, kulib xayrlashdim, sumkachamni yelkamga ilib, bekatga yugurdim.

“Gudbay!”, “Chao!” deb, barmoqlarini salgina qimirlatib, xayrlashuv ishorasini qilgan bolalar, qaytadan o‘yinga muk tushdilar. Lekin haligi avtobusga ulgurmay qoldim. Bekatda uzoq turib qoldim. To‘satdan qarshimga haybatli jip mashinasi kelib to‘xtadi, oynasini ochib:

— Voy, siz hali turibsizmi? — deb, kimlardir qo‘l chulg‘asa bo‘ladimi?! Qarasam, haligi birga “boshqotirma” o‘yinini o‘ynagan bolalar ekan. Ko‘p o‘ylanib turmasdan orqa eshikni ochdim, avvaldan tanishlar kabi bolalar surilib joy berishdi. Hazil-kulgu bilan shaharga qanday yetib kelganimni ham bilmay qoldim. Men ham bolalar bilan birga tushmoqchi edim, yo‘l bo‘yi gapga aralashmay, onda-sonda ko‘zgudan o‘g‘rincha qarab, musiqa tinglab kelayotgan, yoshi qirqlar atrofidagi shofyor:

— Siz qaysi tomonga borasiz? Manzilingizni ayting, uyingizga yetkazib qo‘yaman! — deb qoldi.

Yurishi me’yorida, yumshoq mashinadan tushgim kelmay tursam-da:

— Yo‘q ovora bo‘lmang, rahmat! Men shaharning chekkasida turaman, yo‘lingizdan qolmang! — dedim.

— Balki yo'limiz birdir, borar manzilingizni ayting, — deb, u ham turib oldi.

Hali yo'lbo'yi hazil gaplar aytib kulishib kelgandim, er kishi bilan yolg'iz qolgach biroz noqulay ahvolda qoldim. Shahar chekkasiga yetguncha ikkalamiz gapirmay, qo'shiq tinglab keldik. Birozdan so'ng u yigit:

— Hademay manavi qiyshiq-qing'ir, eski uylar hammasi buziladi, — deb so'z boshladi va meni noqulay vaziyatdan qutqardi.

— Rostdanmi? Siz buni qayerdan bilasiz? — dedim.

— Kelgusi bahorda bizning kompaniya shu yerda qurilish ishlarini boshlaydi, — dedi bamaylixotir. Men uni kompaniya boshlig'ining shofyori, deb taxmin qildim.

— Ha, shunday, singlim, suyunavering! Eski uyingiz buzilsa, yangi uylarning biridan, qulay boshpana olasiz! — dedi u ishonch bilan.

— Bu yerda mening shaxsiy uyim ham, kvartiram ham yo'q. Birovning tashlandiq uyini ijaraga olib turaman, — deb, rostini aytdim.

— Hali siz beparvo, beg'am, o'ynab-kulib kelayotgan edingiz, shu boisdan men sizni, hamma taraflama tugal, beg'am, betashvish inson ekan deb o'yladim, — dedi u.

— Uyi yo'q, eri yo'q ayollar kulmasin deb qaysi nizomda yozilgan? Qani menga o'shani ko'rsatingchi! — deb alam bilan kulib yubordim. So'ng ko'zlarimda qalqib turgan yoshlarimni tutolmay qolsam bo'ladimi... Shofyor shoshib qoldi, mashinasini shart to'xtatib, yo'l chetidagi kichkina do'konga yugurdi. U sotib olgan salqin suvga men yuz-qo'limni yuvib oldim.

— Kechiring, biroz noto'g'ri fikr bildiribman. Hamisha sir bermay tuppa-tuzuk yurardim.... Siz aytganday, "to'rt tomoni tugal kishiga o'xshab" — dedim birozdan so'ng.

— Bu hayotda beg'am, betashvish, to'rt tomoni tugal inson bor ekanmi o'zi?! — deb u chuqur xo'rsindi. Oldingi o'rin suyanchig'iga chalqancha yotgan kabi ters qarab, so'zini davom ettirdi. Go'yo yolg'iz o'zi qolib o'zi bilan o'zi gaplashayotganday:

— Bundan bir necha yil burun o'zimni eng omadli, baxtli inson deb hisoblar edim. Talaba kezlari bir kafeda ofitsiant bo'lib ishla-

dim. Bir kuni o'sha joyga katta yoshdagi, soqol-mo'ylovi burama turk chol keldi. Istanbul shahridan ekanligini keyin bildim. Turkcha gaplashib, ovqatga byurtma oldim. U kishi menga hayratlanib qaradi.

Shu kundan boshlab bizga tez-tez kelib turdi. Bir kuni meni yoniga chaqirib, shoshilmay bafurja so'rashdi. Qozoq-turk litseyini bitirganimni, universitetda o'qishimni, yolg'iz onamga yordam bo'lsin deb, darsdan so'ng ishlab yurganimni aytdim. "Otang bormi, bolam?" deb yuzimga sinchkov qaradi. Otamning 1986-yilgi dekabr isyonida qatnashib, og'ir jarohat olganini, singan qovurg'asi o'pkasini yiringlatib, shu darddan shifo topmasdan, men kichkinalik vaqtimda vafot etganini aytdim.

U kishi mening gapimni qunt bilan tingladi. Chehrasida achinish hissini ko'rdim. Bir kuni menga:

— Bolam, har kelgan sari kuzatib yuraman, sen nafaqat turk tilini, rus tilini ham yaxshi bilarkansan. Almatida rus tilini bilmasang, ishing olg'a yurmas ekan, menga yordamchi bo'lgin, — dedi.

Bajonu dil rozi bo'ldim.

Bilsam, bu chol oddiy kishi emas, katta qurilish kompaniyasining prezidenti ekan. Bir necha yil biznesga band etdi. Meni o'z bolasiday ko'rib, ko'p ishni ishonib topshirib qo'ydi. Shunday kunlarning birida to'satdan betob bo'lib shifoxonaga tushib qoldi. Holini so'rab, tez-tez borib yurdim. Bir borganimda:

— Shu joyga notariusni chaqirib kelgin, — deb iltimos qildi.

Xayolimda hech narsa yo'q, uni olib keldim. "Mening tez orada totar tuzim tugaydigan ko'rinadi. Tush ko'rdim... O'g'lim yo'q, ikki qizim bor. Ularning o'z davlatlari o'ziga yetadi. Ayolim ham hech narsaga zoriqmaydi. Mening yig'ib tergan boyligim uning umri so'ngigacha yetadi. Qozog'istondagi shu qurilish kompaniyasining endigi boshchisi — sensan. Hozirgina o'shaning hujjatini sening nomingga o'tkazib tayyorlab qo'ydim, — dedi.

Hayratda qolganimdan, ovozim chiqmay qoldi... Faqat ikki ko'zimdan yosh oqib ketdi. O'z otam qila olmagan yaxshilikni ko'chadagi begona kishidan ko'raman deb hech qachon o'ylamagandim. Dastlab eshitganida onam ham: "Otangning tortgan azobi

behuda ketmabdi... Alloh uning ko'rmagan rohatini yolg'iz zurriyodi senga beribdi!" deb, hayajondan yig'lab yubordi....

Ko'p o'tmay, otamday bo'lgan o'sha inson olamdan o'tdi. Mayitini samolyotda Turkiyaga olib bordim. Bola-chaqasi, yaqinlari mendan rozi bo'ldi. Istanbul aeroportida reysimni kutib o'tirganimda, husni jamoli oy kabi tovlangan, beli chumoli misoli ingichka bir qiz bilan tanishdim. Amerikada o'qigan ekan, milliy kompaniyalarning birida, top-menejer ekan. Dengizga dam olgani kelibdi. Elimizga birga uchdik. Bir-birimizni bir ko'rishda yoqtirib ham qoldik. Ko'p o'tmay to'yimiz ham bo'ldi. Lekin uyimizdan taom hidi chiqmadi. Qulay uy, qimmatbaho mashina deysizmi, bizda hammasi muhayyo bo'ldi. "Qachongacha pitsa, sushi opkeltirib, quruq taom yeymiz? Odamga o'xshab bir issiq ovqat ichaylik!" desam: "Yur, restoranga boraylik unda!" derdi erkalanib.

Yo'qchilik ko'rmay o'sgan, behisob davlatga ro'baro' bo'lgani uchun uy ishlariga uquvi yo'q edi. Avval men uning kamchiliklariga ko'z yumib, e'tibor bermadim. Bir kuni yeguliklar orqalab, iymanib opam uyga kirib keldi. Onamni opa deyman. Shirin-totli, issiq-yumshoq yeguliklar olib keldi... Har xonada qator-qator idishlar bilan qotib-sasib yotgan taom qoldiqlarini, usti ochiq yotgan ovqat qoldiqlari achib-aralashib, tartibsiz sochilib yotgan sochiqlar bilan kir kiyimlarni ko'rib, onamning avzoyi buzilib ketdi. Lekin hech narsa demadi. Kelishidan ketishi tez bo'ldi. Shu ketgandan, qaytib bizning ostonaga qadam bosib kirmadi...

Shofyor yigitning gaplarini gap-so'zsiz berilib tinglab o'tirgandim, lekin so'ngigacha bardoshim yetmadi:

— Ikkingizning orangiz darz ketmasin deb tilini tishlagan-da. Onangiz aqlli ayol ekan!.. — deb so'zini bo'ldim.

— Ha, mening onam juda aqlli ayol. Uzoq yillar shogird tayyorlagan ustoz-ku! Bizning shaxsiy ishlarimizga aralashgan emas,— deb u so'zini davom ettirdi. — Chorasiz qolgach uy xizmatkorini yolladim. Ayolimning bo'sh vaqtlari fitnes klublar bilan soch salonlarida, savdo do'konlarida, qimmatbaho mollarni ko'rish bilan o'tar edi... Ikkimiz ikki olamning odamlari ekanmiz, buni ko'p o'tmay tushundim, o'ylandim, qiymadim, qiynaldim. So'ngra, hammasiga

qo'limni bir siltadim-da, uydan ketdim. Kiyimlarim bilan hujjatlarimnigina olib ketdim. Mana, o'shandan buyon Xudo — yolg'iz, men — yolg'izman, — dedi shofyor yigit menga yuzini burib.

Men tez-tez rahmat aytdim-da, uy tomondan uzoqroqda tushib qoldim. Xira chiroq yorug'ida ko'rib qoldim: ko'zi mungli bo'lgani bilan, istarasi issiq, bo'yi basti chiroyli ekan.

— Eh! Shunchaki yurgan kishi emas, taniqli kompaniyaning a'zosi ekaningni aytib, telefoningni bermadingmi?! Kim biladi, tuz-nasibanglar qo'shilib, topishib ketarmidinglar?! — deb afsus bilan bosh chayqadim.

— Voy, opa, siz ham bo'lmaydigan gapni aytasiz! Odatda, poyezdda olis yo'lga yurgan yo'lovchilar eng yaqinlariga aytmaydigan sirlarini aytadi biri-biriga, chunki ular qaytib biri-birini ko'rmaydilar. U ham ikki million aholi yashaydigan ulkan shaharda to'satdan uchragan "farrosh"ga ichidagi dardini to'kib, bir yengillab olgandir, — dedi Ozod.

* * *

...Oradan bir hafta vaqt o'tdi. Kundagidek yo'lovchilari tirband avtobusdan Ozod ikkimiz birga tushib, kompaniyamizning basavlat binosiga qarab yo'l oldik. Eshik oldida o'rta bo'yli, keng kelbatli, bug'doy rangli, iliq chehrali, salobatli yigit qo'li orqasida oldi-ortiga nari-beri yurgan ekan. Uni ko'rib, Ozod to'xtab turib qoldi. Yuragi qinidan chiqqudek hapqirib, nigohi olazarak bo'lib qolganini sezdim.

— Ozod! Salom! — dedi yigit shodlana kulib.

— Sa-sa-lomatmi-siz! Siz... siz mening ismimni qayerdan bilasiz? Mening bu yerda ishlashimni, ish manzilimni sizga kim aytdi? — dedi Ozod shoshgancha.

— Anchadan buyon bizning uyning ostonasini tozalab yurgan opadan surishtirib bildim... Sening qo'shning ekan-ku. Seni rosa maqtadi: "O'z bilimi bilan el bo'lgan juda abjir qiz. Juda mehribon. Hatto o'z jiyanlarini yoniga olib kelib, o'qitib kasb-hunarli qilib mustaqil hayotga tayyorlayapti. Lik-lik qilib ko'cha kezmaydi. Ishdan boshqa hech qayerga borganini ko'rmaganman", deb aytdi.

— Ajab, men u ayol bilan yaqindan tanishmaganman! Tanimaydigan kimsaning ortimdan gap qilgani nimasi?! — deb Ozod, na ranjishini, na quvonishini bilmay, dovdirab qoldi. Uning qizarib-bo'zarib, noqulay ahvolga tushganini sezsa-da yigit shashtidan qaytmadi:

— Qo'shni bolalar ham: "Biz yecha olmagan krossvordni pista kabi chaqib tashaganida og'zimizni ochib qoldik. O'zi oddiy farrosh bo'lsa ham shu qadar bilimli qiz ekan!" deb, seni juda maqtashdi.

— Voy, bolalarning so'zini ham so'z degan g'alati odam ekansiz! — dedi Ozod boshini nari olib qochib. O'zi mening qo'limdan tutib tosh kabi qotib qolib, ajraladigan emas.

— Onam ham necha kundan buyon seni aytib quloq-miyamni tinch qo'ymadi.

— Qo'ying-e! Onangiz meni qayoqdan biladi? — deya lol bo'lib qoldi Ozod.

— Shundoqqina ko'rinib turibdi-ku. "Lochinday bir uchqur qiz ekan. Polnigina yuvib ketmabdi, oyna romlarini, liftni, hatto kirish eshigining devorlarini ham tozalab yaltiratib yuvib chiqibdi. Menga ham aynan shunday ozoda, uquvli ziyrak kelin kerak edi!" deb, kirsam ham chiqsam ham aytib qo'ymayapti, — dedi yigit samimiy kulib.

Ozodning yuzi olmaday qizarib ketdi:

— Men hatto sizning ismingizni bilmayman. Biz tuzukroq tanishmadik-ku hali, — dedi hayajonini bosolmay, tiliga boshqa gap ham keladigan holatda emasdi.

— Ha, rost aytding. "Kimga keldingiz?" deb kimdir so'rasa, sening to'liq ism-sharifingni ham, hatto qaysi xonada o'tirganingni ham, qaysi qavatda o'tirganingni ham bilmayman. Shu boisdan eshik oldida kutib olay deb, erta tongdan kelib turgandim, — dedi xushro'y yigit past ovozda. O'zidan o'n yosh kichik qizga "siz" deb oliftalik qilmasdan, uning biryo'la "sen" deb o'ziga yaqin olib aytganidan, dilimda iliqlik paydo bo'ldi.

NURG'ALI ORAZ

(1960)

Nurg'ali Oraz 1960-yil 25-avgustda Turkiston viloyatining Qazig'urt tumanidagi Montaytas ovulida tug'ilgan. 1982-yilda Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

"So'qmoq yo'l", "Baqirshaning bolalari", "Qazig'urt voqealari", "Tugamagan ertak", "Daladan shaharga kelganlar", "Yilqining ko'z yoshi", "Balandlikdagi go'zallik", "Tungi yolg'izlik", "Sehrli ko'l", "Biz, u, "mersedes" va muhabbat", "Qiz minorasi" qissa va hikoyalar to'plamining muallifi.

BO'RONBOY BARON — TESKARI DARAXT

Biz hikoya qilib bermoqchi bo'lgan Bo'ronboy Baron bu sohadagi eng dastlabki safarini qishloqdagi sakkiz yillik maktabni o'lda-jo'lda bitirgan yili boshlagandi. O'lda-jo'lda deyishimizga sabab — beshinchi sinfga qadar boshqa bolalar kabi bir maromda tuzukkina o'qib kelayotgandi. Oltinchi sinfga o'tganida oyoq ostidan birdaniga sustlashdi. Birdaniga sustlashishining sababi — shu vaqtning o'zidayoq jingalak sochli, dumaloq ko'zli qora bola Bo'ronboyning bo'yidan boshqalarda uchramaydigan noyob xislatlar payqala boshlagan.

Shundan keyin uning o'qishi tuzalmadi. Chunki maktab degan dargohni butunlay unutib, hafta-oylab qorasini ko'rsatmasdi. Qazig'urtdagi yilqichilarga, Qumsoydagi cho'ponlarga, Cho'chqabuloqdagi tovuqboqarlarga ketib qoladigan odat chiqardi.

Qisqasi, Bo'ronboy bola qip-qizil dangasa bo'ldi-qoldi. Albatta, tog'dagi yilqichilarga ham, cho'ldagi cho'ponlarga ham, sassiq buloqning boshida o'tiradigan tovuqboqarlarga ham, qanday bo'lmasin, yordamchi suv va havoday zarur. Ayniqsa, ishing boshingdan

oshib, bosh qashishga vaqt bo'lmay turgan soatda, Xudoning o'zi yordamga yuborganday qir tarafdan salmoqlab kelayotgan, qo'lingdan ishingni oladigan yordamchi bolaga ular quvonsa quvonardiki, aslo xafa bo'lishmasdi. Chala-chulpa choyini berib, qishloqdagi yangiliklarni so'rab bilib olgandan keyin bolaning chamasiga qarab ishga buyura soladi. "Sen bu yerlarga nimaga kelding? Maktabing yopilib qoldimi? Darslaring qolib ketmaydimi?" deb uni hech kim tergab ham qo'ymasdi. Yo'l-yo'lakay duch kelgan mashinaga osilib, biroz yerni yayov yurib, ajabtovur mashaqqat bilan kelgan Bo'ronboyga ham keragi shu — tergamagani. Hatto undan kimdir bexosdan so'rab qolganida ham oyoq ostidan topib beradigan javobi yo'q. Chunki, bu yerga nimaga kelganini, uni qanday kuch haydab kelganini o'zi ham bilmasdi. Xullas, ko'ngli shu yerni tusadi-keldi. Bor bo'lgani shu.

Uning ustiga Bo'ronboy mehmon ekanman-ku deb musiqa tinglab yotadigan odam emas, qo'li qo'liga tegmay duch kelgan ishning boshini tutib ketadigan tirishqoq bola. Boshqalar u yoqda tursin, hatto o'zi ham bu yerga qachon aylanib kelganini esidan chiqarib qo'yadigan vaqtlari ko'p bo'lgan.

Onasi esa: "Tushmagur bolaning otasi ham dangasa edi. Men kelin bo'lib tushgan yili ikki oy yo'q bo'lib ketgan, bazo'r topib olganmiz. Bu bola ham qoniga tortibdi-da", deb kuyib-pishib o'tirardi.

Keyingi yillarda ovqat tarqatish punktiga hisobchi bo'lib ishga kirgan sinf rahbari Bag'isbay o'qituvchi ham: "Uf, shu ko'radiganimni Altayevdan ko'rdim-ov!" deb halak bo'lgandi.

Albatta, maktablarda darsdan ko'p qolgan bolaning boshini siypab qo'yishmasligi azaldan ma'lum. Bo'ronboy Altayev ham oltinchi sinfni bir yil, yettinchi sinfni ikki yil qayta-qayta o'qib sakkizinchi sinfga arang yetib keldi. So'nggi yili ustozlarining o'zlari undan qutulishga oshiqishdimi, hartugul yo'lini to'sishmadi. Biroq, fikr plyuralizmi deganimiz maktabda ham yo'q emas. Allohga shukur, bor. Shuning uchun ustozlarining ichida ham: "Umuman olib qaraganda Altayev ham yomon bola emas. Masalan, adabiyotga ixlosi bor..." deguvchilar topildi.

Bo‘ronboyning o‘zi ham bundan keyin bosh qotirib o‘qishni mutlaqo keraksiz, aravaga ortiqcha ballon taqib qo‘ysa ham bir xil yuradi deb, hisobladi. Nima qilibdi! Sakkiz yillik bilimning qadriga yeta olgan kishiga bu ancha-muncha dunyo emas. Va unga sinfdan sinfga o‘ta olmay qolib, qayta-qayta o‘qigan yillarini qo‘shing! Umuman olganda shu ham yetadi. Shu bilim bilan ham hali qanchadan-qancha quvonchli damlarni boshdan o‘tkazishga chamasi keladi.

Bo‘ronboy sakkizinchi sinfni bitirgan yili qishlog‘imizning chekka joyiga lo‘lilar kelib joylashib oldi. Ustiga narvon tortgan ot-aravalarini kichik Keles daryosining qirg‘og‘iga turnaqator qilib tizib qo‘yib, tuni bilan olov yoqib, qo‘shiq kuylab, o‘yin-kulgu qilib chiqishdi. Suvning narigi tarafidagi qozoq ovulining uyqusi buzilib, tong otguncha har turli o‘y-xayollarga berilib yotdi. Ko‘p etakli qizil-yashil ko‘ylak kiygan lo‘li qizlari naqadar chiroyli, naqadar tantiq, naqadar hur....

Lo‘lilar makonini ko‘rgan Bo‘ronboy, o‘z uyasini topgan qush misoli ko‘lning bu tarafida qarab tura olmadi. Tip-tiniq suvi to‘piqdan oshmaydigan kichik Keles daryodan xuddi itlardek shopillatib o‘tib, lo‘lilarning oldiga yetib keldi. Pismayib yurib nimalar deganini kim bilsin, lekin haligilar bilan tez orada til topishib oldi.

Shu kunning ertasiga qishlog‘imizdan bir qo‘y, ikki-uch kurka, besh-oltita tovuq va Bo‘ronboy bola o‘rni-tegi bilan yo‘qoldi. Kechasi kichik Kelesning bo‘yiga joylashgan lo‘lilarning o‘rnida bugun aravalarning ayqash-uyqash izlari va hali to‘liq o‘chib ulgurmagan gulxanning tutunigina burqsib yotardi...

Shu ketganicha Bo‘ronboy ancha vaqtgacha qaytmadi.

Keyingi yil qishlog‘imiz shirin uyquda yotgan vaqtda narsalarini o‘maradigan o‘g‘rilar paydo bo‘la boshladi. Avvaliga ular Qazig‘urtdagi yilqichilarni, Qumsoydagi cho‘ponlarni qon qaqshatdi. Shundan keyin navbat bizning qishloqqa yetdi. O‘g‘rilikning “bismillosi” Bayqazaqning ertaga Shorabozorga olib borib sotaman deb turgan qizil buzoqchasidan boshlandi. Afsus, bozorga eson-omon yetganida besh yuz ming tangaga savdolashma yoq sotsa bo‘ladigan, boshqalaridan ajralib turadigan jonivor edi-da. Buyurmagan ekan. Boyqazaqning ichi achib barmog‘ini tishlab qolaverdi. Ala-

mini bola-chaqasidan, xotinidan oldi. Xonadonidan baraka qochdi. Albatta, bir kun janjal bo'lgan uydan qirq kun baraka qochadi deyishgan.

Qizil buzoqchaning o'zi bexosdan bo'shab ketmaganiga shubha yo'q edi. Chunki, boshidagi ipi yechilib shu atrofdagi simyog'ochga ilib ketilgan edi. O'g'ri xuddi tog'asining uyida yurgandek shoshmay, hayallamay olib ketgandek edi go'yo.

Shundan keyin qishloq aholisining tunda qo'ramizga o'g'ri tushibdi degan gap-so'zlari tez-tez eshitila boshladi. Hatto, birovning ko'chada osilib turgan ko'ylagini ham olib ketgan ko'rinadi.

Ovul aholisining tinchi buzildi. Yotardan oldin qo'ralariga katta qulf solib eshigining oldiga katta it bog'lab qo'yadigan bo'lishdi. Lekin shunda ham o'g'irliklar soni kamaymadi. Eng qizig'i shundaki, shuncha o'g'irliklar sodir etilyapti. Xalq sezadiki, bugun bo'lmasa ertaga biron-bir ishonganidan ayriladi. Lekin o'g'rini ko'rib qoldim, tanib qoldim, bilib qoldim, hech bo'lmasa sezib qoldim deb aytguvchilar yo'q edi. Hatto, o'g'rilar tushadigan kuni itlar hurmay qo'yishiga nima deysiz?!

Bir kuni qishloqda qiziq voqea sodir bo'ldi. Bo'ronboy bilan qarama-qarshi uyda turadigan Balimsha degan yanga kechki salqinda mol boqib yursa, qo'rasidan allaqanday tiqirlagan tovush eshitadi. Bu nima bo'ldi ekan deb engashib qarasa, anchadan beri bo'rdoqilab boqib yurgan, biroz semirib qolgan qora buzoqni birov orqa oyog'idan ushlab olib, sudrab chiqib kelyapti ekan.

— Kim bu? — debdi shoshib qolgan Balimsha.

— Omonmisiz, yanga! — debdi bir tanish ovoz bexavotir.

— Allohga shukur...

— Uydagi ukalarim qalay, yaxshimi, to'polon qilib yurishibdimi?

— Rahmat, qaynim... yurishibdi...

— Abdiakim akam uydami?

— Akangiz hovuzga ketgandi....

— Haaa, kelib qolar. Qochib turing-chi, o'tib ketayin.

Bu yerda anqov Balimsha semiz buzoqni dirillatib sudrab ketib borayotgan yigitning aft-angoriga jiddiy nazar tashlamay eshikning oldidan qochib haligi yigitga yo'l beribdi.

Yigit ancha olisga ketib qolganidan so‘ng ichi bir narsani sezib:

— Hoy, sen o‘zi kimsan?! — deb baqiradi. Lekin unga hech kim javob bermaydi. Terlab-pishib hovuzdan qaytgan kuyoviga choy quyib bera turib, anqov Balimsha boyagi voqeani boshidan oxirigacha aytib beradi. Abdiakim akamizning ko‘zi kosasidan chiqib, rangi o‘zgara boshlaydi...

O‘g‘irlik deb shuni ayting! Keyin Balimsha yanga qancha o‘ylangani bilan haligi tanish ovoz kimniki ekanligini esiga tushira olmadi. “Yo Xudoyim, qanchalar tanish ovoz edi”, deydi. Lekin unday o‘ylab ko‘radi, bunday o‘ylab ko‘radi, baribir esiga tushira olmaydi.

Shu voqeadan avvalmi yoki keyinmi, xullas Bo‘ronboy shaharda Muxnisa degan bir lo‘li qizi bilan ishqiy munosabatda bo‘libdi. Agarda bu voqealar o‘zining aytishiga qaraganda shoirlarning qulog‘iga yetsa katta romanga aylanib ketishi aniq emish.

Temiryo‘l bo‘ylab biroz yursangiz katta stansiyaning oldidagi eshik-derazalari qiyshiq-miyshiq bo‘lib yotgan eski vagonlarning bir qanchasini payqagan bo‘lar edingiz. Ular sizga xosiyatsiz bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Eski va mutlaqo yaroqsiz bo‘lgan narsalarni odam ko‘zidan ovloq joyga qo‘ysa bo‘lmasmikan?! Hech bo‘lmaganda metall siniqlarini qo‘shib “qayta ishlab chiqarish” sexiga topshirib yuborsa bo‘lmaydimi deb o‘ylashingiz ham mumkin. Bunga shoshmay turing. Hartugul, oxir-oqibat shu yoqqa borishi belgili, hatto unday bo‘lmasa ham shu yerning o‘zida chirib bitishi aniq-ku. Bunday mayda-chuyda ishlar bilan bizning zamondoshlarimiz boshini qotirmasa, kelajak avlod vakillari bir yoqli qilar.

Chunki hayot deganimiz cheksiz, hozir ba’zi bir ehtiyojlarimizga yarab turibdi!

Bizning qishloqning Bo‘ronboyi va lo‘li qiz Muxnisa ikkisi mana shu vagonlarning birida uchrashibdi. Siniq derazalardan esgan yozning mayin shabadasiga yalang‘och gavdalarini to‘sib, temiryo‘l atrofidan anqigan qora moyning hidini ikkovlon hidlab yotibdi.

Ular bir-birlari bilan hayot haqida, muhabbat haqida va dunyodagi jamiki tirikchiliklar haqida uzoq vaqt suhbatlashibdi.

Tonggi soat to‘qqizdan kechikmaslikka harakat qilib shoshilib ishga borib, kun bo‘yi o‘zining ham o‘zgalarning ham, me’dasiga tegib, kechki soat oltiga zo‘rg‘a yetib, tiqilinch avtobusga o‘tirib uyiga qaytadiganlar va yetti-sakkiz soat uxlab yana ertalab ishga kechikmaslik uchun budilnikning jiringlashi bilan uyg‘onadigan insonlar haqida fikr yuritishibdi. Ularni o‘zlari bilan solishtirib kulibdi ham, solishtirib yig‘labdi ham....

O‘zaro gaplar nihoyasiga yetgandan keyin Muxnisa:

— Sen bizning baronga kundan kunga ma’qul bo‘lib kelyapsan, — debdi yonida yotgan Bo‘ronboyga. — Agar ikkimiz turmush quramiz desak, endi ular qarshi bo‘lishmaydi. Yam-yashil o‘rmon orasida, quyosh nurlari charaqlab tushib turadigan ochiq maydonda to‘yimiz bo‘lib o‘tadi. Tundan tonggacha olov yoqib qo‘shiq kuylab, o‘yin-kulgi qilamiz.

— Yo‘q, — deydi Bo‘ronboy. — To‘yni bizning ovulda o‘tkazamiz.

— Ovuling nimasi? U qanday ovul edi? Haligi o‘zing o‘g‘irlik qilib yurgan qishloqni aytyapsanmi?

— Ha, shu ovul. Biroq men....

— Xudo saqlasin! Ular bizni ushlab olsa terimizga somon tiqsa kerak?

— Yo‘q. Bizga hech kim hech narsa qilmaydi...

— Qanday qilib?! Xa-xa-xa! Sen ularni tunaysan, ular esa sen uchun to‘y qilib beradimi? Qiziq xalq — qozoqlar! Xa-xa-xa! Yaramabsan bo‘lajak baron! To‘y o‘rmon ichidagi ochiq maydonda o‘tadi.

Muxnisaning qozoqlar haqida aytganlari, qiqirlab kulganlari Bo‘ronboyning nafsoniyatiga tegadi.

— To‘y ovulda bo‘ladi, tamom! — deydi.

— Biz erkinlikni yaxshi ko‘ramiz. Alp tog‘ning balandligini, yam-yashil o‘rmonning jozibasini yaxshi ko‘ramiz.

— Biz ham erkinlikni yaxshi ko‘ramiz, — deydi Bo‘ronboy. — Lekin, to‘y ovulda o‘tadigan bo‘ladi.

— Unday bo‘lsa vaqtni bo‘shga sarflamay o‘z yo‘lingni top! — deb lo‘li qiz qorong‘uda yaltirab turgan oq badanining ustiga kiyimlarini kiya boshlaydi.

— Topsam topay! — deb otilib turibdi Bo‘ronboy ham. Achchiqlangan ko‘yi azongi avtobusga o‘tirgan Bo‘ronboy “qayerdasan, ovulim” deb yo‘lga chiqibdi.

Ikkovining orasidagi hangomalarning ikir-chikirlarigacha qayerdan bilasan, deyishingiz mumkin. Ozgina shoshmay turing. Shubhalanishga shoshmang. Boshqa birovning emas, aynan Bo‘ronboy Baronning og‘zidan qancha marta tinglaganmiz. Yetmishinchi yillarda chiviqni ot qilib o‘ynab yurgan duch kelgan bolalardan so‘rasangiz ko‘zini yumib turib aytib beradi. Chunki Bo‘ronboy Baron o‘zining mana shunday qiziq hikoyalari bilan bizning bolalik xayollarimizni anchagina boyitib ketgan.

Bizning ovul aholisi qanchalik sodda bo‘lgani bilan, haligi aytganday ahmoq emas. Devona Bo‘ronboy kelgan kunning ertasigayoq hamma balo shu boladan ekanligini barchaning ichi sezdi, lekin o‘z qo‘llari bilan ushlab olmaganliklaridan so‘ng, quruq so‘z bilan isbotlay olmasligini bilganidan hamma gumonlarini ichlarida saqlab qolaverishdi. Eng birinchi bo‘lib uni Balimsha yanga bildi. U Bo‘ronboyni ko‘rishi bilan:

— Sharmanda, bizning semiz buzog‘imizni o‘g‘irlagan shu ekan-da, — dedi yo‘qolgan buzog‘i qayta topilganday quvonib. — Kimligini bilmay haligacha boshim qotib yurgandi. Ovozi juda tanish eshitilgandi. Eh devona qaynim-ov, semiz buzog‘im qani?!

— Qanaqa buzoq? — debdi Bo‘ronboy hech narsa bilmagan odamdek. — Yangajon, nimalar deyapsiz o‘zi?! Men sizlarni anchadan buyon ko‘rmagan bo‘lsam, sog‘inib kelsam...

— Ey tushmagur bola! Buni qara-chi. Sog‘indim deydi... Semiz buzog‘imizni bizni sog‘inganing uchun olib ketibsan-da. O‘sha kundagi ovozingni hech ikkilanmay eslab turibman.

— Ha, yangang ovozingni eshitibdi-ku! — deydi eshik oldida ketmon charxlab o‘tirgan Abdiakim akamiz ham. — Davay, endi buzoqni qaytar. Bo‘lmasa, sudga beraman. Shunda holingga maymunlar yig‘laydi.

— Nima deb berasiz sudga?

— Semiz buzog‘imizni lo‘lilarga qo‘shilib o‘g‘irlaganing uchun beraman!

— Isbotingiz bormi?

— Bor! Ayolim ovozingni tanib turibdi-ku?

— Aka, sizning yodingizda bo'lsin, ovoz bu isbot emas!

— Nima, nima, nima?! — bunday javobni kutmagan Abdiakim og'amiz boshqa dalili yo'qligidan ko'zi kosasidan chiqib ketayozdi. — Lo'li... lo'li...

— Aka, men shunchaki lo'li emasman, tushundingizmi? Men Baronman! — deydi Bo'ronboy undan battar hayratda qoldirib. Shundan keyin ko'ngli tushib, ovozi pasayib:

— Eh, sizlar... — deydi bosh chayqab — olisdan sog'inib, qishloqda Abdiakim og'am va Balimsha yangam bor-ku deb kelganimda... Shuncha kutganimda menga aytgan gaplaringiz shumi? Eh, og'ajon, sizdan kutgan so'zlarim shumidi... Men bechora otamdan qolgan yolg'iz yodgorlik bo'lsam, qayerda yursam ham sizlarga ishonib, sizlarga orqa suyansam. Eh, yanga, ko'nglimni qoldirdingiz-ku. Ichim kuyib ketyapti. Muzdek ayron quyib bering-chi... Uff!

Oyoq ostidan o'zgarib qolgan Bo'ronboyning bu gaplariga tushuna olmay turgan Balimsha yanga turgan joyida qotib qoldi.

— Ey, xotin ayron olib kelib ber bu bolaga, — dedi Abdiakim og'amiz ketmonining sopi bilan bolani ko'rsatib. — Ayron so'rayapti-ku. Nega tashqarida turibsan, ichkariga kir. Hoy, Balimsha haligi, uyda bo'yni uzun shishadan bormi? Bo'ronboy bola ovulga kelib qolgan ekan, shuning hurmatiga ko'p emas, yuz-yuzdan... Yursang-chi, uyalmasdan. Bu nimasi, qizlarga o'xshab suzilib...

Bu voqeadan keyin Bo'ronboy Baron mashhur bo'lib ketdi. Xuddi tog'asining uyida yurgandek, har bir uyga bir kirib, erkalab, zerikkunicha aylanib yurardi. Shundan keyin uni ikkita militsiya xodimlari usti yopiq mashinaga mindirib tuman idorasiga olib ketishdi. Eshitishimizcha, harbiy xizmatga borishdan qochgani uchun Bo'ronboy Baron ikki yilga ozodlikdan mahrum etilib, olis Sibirga daraxt kesgani yuborilibdi...

Noyabrning yomg'irli kunlari boshlandi. Ovulning tuproqli yo'llari oyoq bosib yurolmaydigan, loyli balchiqqa aylanib ulgurgan edi. Kunlar ham sovib ketdi. Osmondan bir tomchi, daraxtlardan ikki tomchi yomg'ir yog'ardi. Atrof-muhit ham ko'rimsiz holatda edi. Kuz osmoni ham yig'lagani-yig'lagan. Musoffo osmon go'yoki endi qaytmaydiganday, qora bulutlar ketmaydiganday edi.

Kuz oyining shunday yog'in-sochinli kunida, hali pechkalar yoqilmagan salqin uyda o'tirib: bechora lo'lilarning ahvoli nima bo'ldi ekan? Qayerdan boshpana topibdi? Ular kuz va qish oylarida qanday tirikchilik qiladi, deb hech o'ylab ko'rganmisiz? Albatta, buni siz va menga o'xshagan oddiy qozoq xalqi qayerdan ham bilsin. Ha, agar oramizda Bo'ronboy Baron bo'lgandami, hammasini tushuntirib, aytib berardi. Lekin u hozir ovulda emas. Olis Sibirda daraxt kesib yuribdi...

Tumanga kuniga bir marotaba qatnaydigan avtobus loy ko'chalardan surilib-surilib bazo'r yetib keldi. Ertalab bozorga ketgan xaloyiq sumkalarini ko'tarib, birin-ketin avtobusdan tushishyapdi. Oxirida haydovchiga nimalarnidir tushuntirayotgan, qizil-qo'ng'ir plash kiygan qiz ko'rindi. Oyoq bosishi sumka ko'tarib turtinib-surtinib kelayotgan ovul aholisiga mutlaqo o'xshamas, anchagina tetik edi. Qo'lida qizil-ola soyaboni bor.

U botqog'i chiqib ketgan yo'ldan tez-tez sakrab o'tdi va Bo'ronboy Baronning uyiga qarab yurdi. Qalingina jingalak sochining ustiga oppoq gulli ro'mol tashlab olgan edi. Soyabon ko'targan nozik qo'llari to'la bilakuzuk edi. Qosh-ko'zini qalam bilan chizib qo'ygandek chiroylikkina lo'li qizi edi. Bu bizning Bo'ronboy Baronni izlab kelgan shaharlik Muxnisa edi.

Ustiga kuyovidan qolgan eski fufaykani kiyib olib, mol boqib yurgan Maldiqiz unga hang-mang qarab qoladi. Avvaliga u qo'shnisining shaharda o'qiydigan qizi bo'lsa kerak deb o'yladi:

— Hoy, Anafiyamisan? Qachon kelding? — deb so'radi.

— Zdravstvuyte!

— A-a?

— Dobriy den, xolajon!

— Ko'tar-e!

— Kak pojivayete?

— Iye, qozoqmi desam, o'rismi, nima balo?

— Buranbay doma?

— Nima dedi, burungi dedimi?..

— Xolajon, Buranbay bor? Yo'q?

— Ha-a, Bo'ronboymi? Mening o'g'limni so'rayapsanmi? U yo'q. U anavi yoqda! Daliko, turma papal!

— V tyurme? Kak je tak?! — deb shoshib qoldi Muxnisa. — ox, bednenkiy! Vse-taki kakoy je vi jestokiy narod! Iz-za kakix-to barashek svoego cheloveka posadili da...

— Ha, ha, — dedi Maldiqiz ona boshini burib belgisiz tarafga qarab boshi bilan imo qilib ko‘rsatdi. — Shu yoqda. Shu tarafga ketdi...

Muxnisa yuzini ikki qo‘li bilan berkitib, teskari qarab oyog‘idagi yap-yangi tuflisi bilan boyagi balchiq tomon ketdi. Balki kuz osmoni kabi silkinib-silkinib yig‘lagandir lo‘li qiz...

Bo‘ronboy baron ikki yildan so‘ng qishloqqa mutlaqo boshqa odam bo‘lib qaytdi. Avvalgi devonaligini Sibirda daraxt kesib yurganda unutib ketganday mo‘min-qobil, soddagina qozoqqa aylangan edi. Qishloqdan hech qayerga chiqmadi. Atrofidagi daraxtlarni xuddi yosh bolakaylarni ulg‘aytirgandek erkalatib boqib parvarishladi.

Nimagadir Sibirdan kelganidan keyin daraxtlarga mehri o‘zgacha tushdi. Chor-atrofini yashnagan boqqa aylantirdi. Maldiqiz ona esa kuzda pishgan olmalarni Yangibozorga olib borib sotadigan bo‘ldi. Uning ko‘nglida men ham el qatori kelin olib yetti qavat ko‘rpachada o‘tirsam edi, degan orzu-umid paydo bo‘la boshladi. Uy ishlariga ixlos bilan kirishgan Bo‘ronboy ham o‘ziga munosib sherik kerak ekanligini tushundi. Shunday qilib, Alloh nasib qilgan bir kuni u So‘zoq tarafdan sariqdan kelgan do‘mboqqina qizni olib qochib keldi. Qadimgi zamondagi urf-odatlari bo‘yicha “P” harfi shaklidagi stol yasab, kelin-kuyovning ortiga katta gilam osib unga paxta bilan “Bo‘ronboy — Balag‘iz” deb yozib, ichimliklar to‘kin-sochin dasturxon atrofida tong otguncha bazmi-jamshid qilishdi. Kelin olgan Maldiqizning boshi osmonda edi. To‘y ustida ovsin-ojinlar orasida yastanib o‘tirgan Maldiqiz ona: “Allohim, o‘zim yosh boshim bilan yesir qolib o‘ldim-qoldim deb zo‘rg‘a yetishgan o‘g‘lim ham devona bo‘lib ketadimi deb, qo‘rqadigan edim. U ham el qatori oilali bo‘ladigan kuni bor ekan. Allohimga behisob shukur, shu kunlarga ham yetdim. Endi o‘lsam ham armonim yo‘q”, deb aytib qolibdi. Ba’zida shunday quvonchli kunlarda chin ko‘ngildan aytilgan tilaklar naq nishonga tegib ortidanoq bajo bo‘lishiga hayron qolasan kishi. Maldiqiz ona to‘ydan keyin

bir hafta o‘tib boqiy dunyoga rixlat qildi. Shomga tomon kelini damlagan issiq choydan bir-ikki yutum yutgan ona: “Bugun boshim qattiq og‘riyapdi. Biroz yotib mizg‘ib olayin-chi”, deb yostiqqa bosh qo‘ygan va qaytib ko‘tarmabdi. Shunday qilib o‘yda, xayolda yo‘q, og‘rimay-netmay, o‘zini ham, atrofidagilarni ham qiynamay so‘nggi safariga bir og‘iz so‘zsiz ketib qolibdi. U kishi qazo topgan kun juma edi. Imomlarimizning aytishicha, Alloh o‘zining suygan bandalarinigina juma kuni chaqirib olar ekan...

Mana, sizlarga aytmoqchi bo‘lgan hikoyamiz shu yerda o‘z nihoyasini topsa bo‘lardi. Lekin unga yurt qatori qozoq bo‘lib yashash oson emas edi...

Moyga tushgan to‘qashdek bo‘lib yuradigan Balag‘iz yangamiz bilan Bo‘ronboy Baronning gap-so‘zlari hali-veri to‘g‘ri kelavermasdi. Boshqa vaqtlar mayli, hatto, tun yarmida ham ularning uyidan baqir-chaqir, shang‘illagan ovozlar eshitilib turardi. Buning oxiri qanday tugagani ovul ahliga ochiq ayon.

Bir kuni Bo‘ronboy Baron barvaqt uyg‘onib:

— Tur xotin, tez-tez kiyin! — debdi uxlab yotgan ayoliga baqirib.

— Ertalabdan ko‘zingga nima ko‘rindi? — debdi, Balag‘iz yangamiz ham issiq o‘rnini qiymay, narigi tarafga o‘girilib. Yangamiz “s” o‘rniga “sh” deb gapirardi. — Inshonlarga o‘xshab uxlaychi...

— Tur bo‘l, tez, qayinyurtimga boramiz!

— Qayerga? ...

— So‘zoqqa.

— Nima? Sho‘zoqqami?

— Ha, ivirsimay tur dedim! Sening uyingga boramiz.

— Tush ko‘rdingmi, bechora-ey?!

— Hoy, “bechora-bechora” deb yalpayib yotaverasanmi? Bo‘lsang-chi ertalabki avtobusdan qolib ketamiz-ku!

Xullas, o‘sha kuni Bo‘ronboy Baron Balag‘iz yangamizni qo‘yarga-qo‘ymay ertalabki avtobusga o‘tirg‘izadi. Ular Chimkentga kelgandan so‘ng qirdagi bozorga kirib chiqadi. U-bu olib yangamning qo‘lidagi qora sumkani to‘ldiradi. Bozordan chiqaverishda to‘xtab uch tangalik gazli suv ichishadi. Avtostansiyaga kelib

So‘zoqqa ikkita chipta sotib olishadi. Uyiga qora sumkasi to‘lib ketayotganidan xursand bo‘lgan yangamiz:

— Muzqaymoq yeylik, — debdi kuyoviga erkalanib. Anchayinda bo‘ralab so‘kinib ketadigan Bo‘ronboy Baron ham yugurib borib muzqaymoq olib kelibdi. Balag‘iz yangamiz qo‘lidagi muzqaymoq erib tushib, yashil barqut ko‘ylagini dag‘al qilib olibdi.

— Sigirlarga o‘xshab yerkansan! — debdi unga Baron.

— Eh, bechora devona! — debdi tilidan achchiq bol tomgan yangamiz. Shu vaqtda So‘zaqqa boradigan avtobus ham kelib qolibdi. Balag‘iz yangamizni joyiga o‘tirg‘izib:

— Men hozir suv ichib kelaman, — debdi Bo‘ronboy Baron. — Boraman-u kelaman.

— Men ham chanqadim shekilli, — debdi yangamiz.

— Ikkovimiz suv izlab yurganda, qora sumkadan ayrilib qolmaylik. O‘tir o‘rningda qimirlamay!

— Bo‘ldi, tushundim! Shuvni ichmayman!

Shunday qilib Bo‘ronboy Baron o‘z ayolini aldab, duch kelgan tarafga qarab qocha boshlaydi. “Uf, qutildimmi, qutilmadimmi?” deb o‘ylaydi. Qutilgani shudir. Ortiga qaraydi, uni quvib kelayotgan hech kim yo‘q.

So‘zoqqa boradigan avtobusda o‘tirgan Balag‘iz yangamiz erini rosa kutadi, kelmaganidan keyin so‘kinib, qarg‘anib ketaveribdi. Shu ayrilishgandan so‘ng ular qayta topishmadi.

Bu voqealardan keyin oradan ancha vaqt o‘tdi. yetmishinchi yillarning o‘rtalarida yosh novdalarni ot qilib o‘ynaydigan bolalar — biz ham ulg‘aydik. Kimgadir qamchining sopiday qisqa, kimgadir uzoq, hatto tugamasdek ko‘rinadigan bu hayotda hammamiz o‘z tirikchiligimizni qilib kelyapmiz. Bolalik olamimizni barvaqt boyitgan daydi Bo‘ronboy Baron bu yorug‘ olamdan ellik to‘qqiz yil yashab oyoq ostidan kutmaganda qazo topdi. U ham juma kuni og‘rimay-netmay vafot etdi. Til aytishicha, juma kuni... Ha, aytgancha bu haqda bilasizlar-ku, ha. Bo‘ronboy Baronning ortidan iz qolmadi. Erkinlikni bag‘oyatda qattiq yaxshi ko‘radigan avlod bo‘lar edi... Afsus, Bo‘ronboy Baronning kindik qonidan bunyod bo‘ladigan bolaning yo‘qligi afsuslanarli. Butun bir oilaning tutuni uchdi, belgisi qolmadi...

Ha, aytmoqchi, Bo‘ronboy Barondan qolgan bir belgi bor, shekilli. U bizning ovulda o‘sib turgan Teskari daraxt. Xalq uni anchadan buyon shunday ataydi. Sirtdan qaraganda atrofidagi daraxtlardan farqi yo‘qdek. Lekin siz uning tarixini eshitganingizdan so‘ng borib diqqat bilan qarasangiz, biroz o‘zgachaligini payqaysiz. Qisqa qilib aytganda bu voqea shunday bo‘libdi. Bir kuni Yerkebay og‘amning bizdan bir-ikki yosh kichik o‘g‘li — Antay uzun novdani ot qilib uchib ketayotgan qushni quvalab kelib Bo‘ronboy Baronga duch kelib qolibdi. Baron uni barmog‘i bilan o‘ziga chaqiribdi. Gijinglagan oti bilan yugurib kelgan botirning “otini” yulib olibdi.

— Hoy, ahmoq, — debdi Antayga qarab. — Uvol emasmi?! Bu novda ham xuddi sen kabi bola-ku...

Shunda boshqa daraxt ekishga tayyor turgan yerga qo‘lidagi novdani tikka qilib ekib qo‘yadi. Antay uning uchini ters tiqib qo‘yganini payqab qoladi va:

— Baron og‘a, bu novda baribir o‘smaydi, — debdi. — Chunki siz uni noto‘g‘ri ekdingiz!

Bo‘ronboy Baron orqasiga o‘girilib qarasa, haqiqatan novda teskari ekilgan edi. Lekin u o‘zini yosh bolaning oldida tushirgisi kelmay:

— O‘sadi! — dedi ovozini cho‘zib. — Baron ekkan novda o‘smasligi mumkin emas!

Haqiqatan ham boyagi novda ulg‘ayib, katta daraxtga aylandi. Lekin boshqa daraxtlarga qaraganda ildiz tomoni ingichka, barglari turgan tomon yo‘g‘onroq edi. Mana shu daraxt barglarini quloch yoyganda uzoqdan Bo‘ronboy Baronning jingalak sochlari kabi ko‘rinib turadi. Yo‘l chetida o‘sgan bu daraxtga o‘tin kesishga kelgan yigitlar otini, eshagini bog‘lab ketishadi. Bolalar ham bu daraxtning shoxidan-shoxiga sakrab yuradi. Chunki faqat mana shu daraxtga qushlar ko‘proq uya solishadi. Balki, Bo‘ronboy Barondan qolgan nishon shudir...

JUSIPBEK QO‘RG‘ASBEK

(1961)

Jusipbek Ko‘rg‘asbek 1961-yil 3-fevralda Taldiqo‘rg‘on viloyatining Panfilov tumanidagi Ulkenag‘ash ovulida tug‘ilgan. 1984-yilda Qozoq davlat universitetini tamomlagan.

“Moviy karvon” (1983), “Jansebil” (1995), “Jinni qayin” (2009), “Ulpildek” (2012), “Kutubxona” (2014), “Ko‘kyollar” (2016), “Mehnat va hikmat” (2019) kitoblari muallifi.

MILLION ARI, MILLION ILON VA YANA MEN

Men hozir aytib bermoqchi bo‘layotgan bu voqea kutilmaganda ro‘y bergani bilan va u qudrati kuchli Xudoning irodasiga ko‘ra bo‘lib o‘tganligiga shubham yo‘q. Bu voqea asli mening bovurlarimning katta uyni tashlab, tirikchilikning g‘ami bilan shaharga ko‘chishga tadorik ko‘rishlaridan boshlangan edi. Bizning otamiz yo‘q, otamiz solgan katta uy esa hozirgi qiyinchilik tug‘ilib turgan paytda kirim-chiqimi qo‘ldagi ozmi-ko‘p mol bilan birga tugagan, binobarin endilikda bovurlarimgayam panoh bo‘lishdan qolgan edi. Ularni qari onam bilan birga o‘zimning yonimga, shaharga ko‘chirib olib ketishga keldim-u, qizil g‘ishtdan o‘ralgan ko‘k tomli, hashamdor uyni ko‘zim qiymay ko‘p bora aylanchiqlab yurdim. Onamning xo‘rsinishlari ko‘paydi, ammo ukalarim va ularning bolalari shaharga ko‘chib borishlaridan quvonishib, uchib-qo‘nib yurishardi.

Biroq ko‘p vaqtlardan beri ko‘chishga taraddudlanib yurgan bo‘lsak ham, yo‘q yerdan oldimizga turli xil to‘siq uchrayverib, ko‘chishni galdan-galga surishga bahonayi sabablar topilaverdi: bir gal yaqin og‘ayinning qirqini (ma’rakasini) berganda qatnashishimiz shart bo‘lib qoldi; yana bir gal aka-ukalarimizning biri xus-

usiylashtirib olgan yerlarining burungidan qolgan soliqlarini yig'ib-terib to'lab, hukumatga o'tkazib ketmasa, tepamizda dinkayib turgan hokim yukni olib yurishga ruxsatnoma bermaydigan bo'lib chiqdi. Bovurlarimning ulushiga tekkan yerning hosil bermaydigan yerlar ekanligi ma'lum bo'lgach, uning boshqalarga o'xshab tirikchilik qila olmaganlarini betiga solib, o'zlarini obdon nari-beri oborib-opkeldim. Ko'chmasdan shu-shu, ovulda qolib qo'yadiganday, o'rtanchamizning qovog'idan qor yog'ib, kenjamiz ham vahimaga tushib qoldi. Oxiri, bu ishga men o'zim chin dildan aralashganimda hammasi o'z o'rniga kelgan edi-yu, endi nima kerak deydigan paytda xo'jayini ko'nib turgan ko'ligimiz sindi-da qoldi.

Yana ikki-uch kun kutishga to'g'ri kelar ekan. Bunga ranjib-qiynalib o'tirmadim — ertasigayoq ertalabdan ovga chiqib ketdim. Ov ovlab yurib, tog' ichidagi bir pastqamlikda shundoqqina cho'qqining tagida so'ponglab chiqa kelib qaqqayib turgan egasiz eski pastak uyning ustidan tushdim. Qancha qamchilasam ham, otim qulog'ini qaychilab, pishqirinib, ilgari bosmay qo'ydi. Nima bo'ldi ekan deb diqqat qilib, atrof-tevaragimga quloq qo'yib tinglasam, tom tomondan guvillagan bir ohang eshitilayotganday bo'ldi.

Otdan tushib, yayov yurib yaqinlaganimda ko'rdim: eski tomning ichi-sirtini g'ujum-g'ujum, ming-million yovvoyi ari uchib-qo'nib, bosib, yeb yotibdi! Tomlarning tepasidagi chodirga uya bosgan arining uyini talay buzganmiz-ku, ol, tomni teshib uya solgan arini birinchi bor ko'rib turishim edi. Qoraqurumday qalin ari qo'shinlari to'p-to'p bo'lib, guv-guvlab, viz-vizlab, qoplab uchib-qoplab qo'nib yotibdi. Xudo bilar, ular mening yaqin kelganimni sezganlari yo'q-ov deyman, agar sezganlarida edi, qop-qora bulutday men tomonga oqib kelib, mening o'zimni talab yeb qo'ygan bo'lardi.

Yo'limda ov uchramay, urinib ko'rishga ham qora topmay, zerikib kelayotgan edim. Bir tentaklik o'yimga kelib, o'qtalib turdim-u, seskinib yana ra'yimdan qaytdim. Bu tentaklik — uyga qarata tosh otsammikan yoki o't qo'yib ketsammikan degan oshufta bir shum xayol edi. "Kel, qo'y, — dedim o'zimga-o'zim, — bola bo'lsam ekanki, shunday ishga qo'l urib yursam...". Menga o'xshagan kap-katta odam shunday ish qilib yursam, yarashmas,

deb o'yladim. Kel, qo'y... bir paytlar odamlar yashab, endilikda arilarning uyasiga aylangan shu eski chaldevorga tegmay qoya qolay. Biroq ne qilay, yosh bolaning ham allane xayolga berilib, o'zini-o'zi ichini g'ulg'ulaga solib, "nima bo'pti, bir marta tosh otib ko'rsam..." deganday o'ynoqi xayollari junbushga kelib, sho'xlikka undab turadigan paytlar bo'lar ekan, shu havas qayta-qayta yonimga kelib, "ana, tosh, ana..."lab meni bezor-bezovta qilaverdi. Maysalarni chirt-chirt chalib-yulib, og'izlig'i bilan birga qitir-qitir chaynayotgan olaoyoq otim bemalol o'tlayapti. Oldidan olaqarg'a uchsayam yalt qarab, e'tiboringni tortishga, diqqatingni berishga undaydigan bu jonivorning sergakligiga ko'pdan beri hayron qolib kelardim, men bo'ktarga bog'lagan surkanob suvliqni yechib olayotganda yoq otim allane ehtiyotlanib, boshini silkib-chulg'ib pishqirib, qulog'ini qaychilayverdi.

— Nima bo'ldi, hoy, nima bo'ldi shunchalik o'qranib?! — deb kaftim bilan sag'rinidan shappatlab qo'ydim. Men qattiq-qattiq so'zlaganimga, jonivor yana alang etdi-da, ko'zlari to'stag'anday[1] bo'lib mo'lt-mo'lt qildi. Yilqi jonivor juda aqlli-da, aqlli bo'lmasa odam unga ishonib o'ziga yo'ldosh qilib olarmidi?! Ovulga kelgan biroz vaqtdan beri shu jonivor mening sherigim bo'lib yuribdi. Bir-birimizni yaxshi tushunishamiz. Shu jonivor ham endi mendan tiksinib, o'z-o'zidan tipirchilay boshladi. Sezdi jonivor, mening g'ujlab turgan yovvoyi arilarning uyasiga kirib borishga ahd qilganimni sezdi! Boshini kejanglatib, chidamsizlanib-o'shqirina boshladi.

Lekin men ahdimdan toymadim. Negadir eski uyning ichiga kirib, tomlarini ko'rgim kelaverdi. Suvlig'imni kiyib, belimni tortib boylab, etak-yengimni qimtanib, uy tomonga yo'naldim.

Mol boqadigan tuzdagi odamday bo'lib oldim — keng, uzun etak, keng suvliq, boshimda bo'rkama. Osh-suv soladigan to'rvani qoq ayirib, ko'zoynagimning chetlarini bostirib, bet-og'zimni ham o'rab tashladim. Qolgan gazlamayam yalong'och qo'llarimni suvliqning yengi bilan qavatlashtirib tang'ib boylashga erkin-bemalol yetdi. Oyog'imda kerza etik, qo'limda o'sha yerdan topib

[1] **To'stag'an** — yog'ochdan yasalgan kichikroq doirasimon idish.

ko'targan bilakday yog'on tayoq, shu turishimda men yovga yaroq saylab, o'rtaga kelgan botirga o'xshadim-qoldim. Burulib qaraganimda otim hurkib ketdi. Biroq olislab ketmadi, o'ngqirinib yuraverdi. Allanima ustimdagi kanop suvliqqa sharpillab urildi. Bosh barmoqdan kattaroq qizg'ilt-qo'ng'ir devari yerga dumalab tushganday ko'rindi. U yoq-bu yog'imga qaraguday bo'lmadim, zuvillab boshimdan bir aylanib uchib yo'qoldi. Tag'in birovi qoq manglayimga zuvillab kelib, naq ko'zimning oldida burilib, uchib ketvordi. Men uyga yaqinlashgan sayin qarshi uchib kelayotgan arilar ko'payaverdi. Uchib kelayotib shart-shart urilayotgani qancha, aylanib uchib ketayotgani qancha! Top-toza, mo'p-mo'ldir havoda qoplangan tuyur-tuyur qora dog'! Bir pasda ularning lashkari pitirlab qarshi betdan urib-so'qib, toshburchak-do'lday yopirilib keldi.

Ana-mana deb es yiqquncha bo'lmadi, qoraqurum lashkar osmonni qoplab oldi-da, men sanoqsiz kelib urilayotgan devarilar o'rtasiga tushib, ko'milib qoldim. Xuddi shu yerdan o'tvolsam, naryog'ida ozod-erkin nafas oladiganday, sof bo'm-bo'sh havoga yetishadiganday, qo'limdagi tayog'imni sermab-sermab, qalin lashkarni qoq yorib, jon-jahdim bilan olg'a intilaman. Yo Xudoyov, deyman, bu jonivorlaring netgan ko'p, tugaydigan zamoni yo'q. Yiqilib qolmayin, to'xtab qolmayin, to'xtasam bo'ldi — yiqilaman, yiqilsam bo'ldi — uyulib-to'kilib kelayotgan manov devarilarning tagida qolib, yemga aylanaman. Arilar bet-og'zimni chirmab olgan ro'molning sirtidan ham bijir-bijir uymalashib, nafas olishimni qiyinlashtirmoqdalar. Ko'zoynagimga to'g'ri kelganlari tayg'anib-tirmashib, dumalab tushayotir. Qo'lim bilan ko'zoynagimning ko'zini supirib-artay desam, artgan zahotim qaytadan g'uj-g'uj, viz-viz qoplab oladi. Oldimda bir yorug' oqarib ko'rinadi-yu, shu zahotiyoq olachipor mavhumot qop-qora zulumotga do'nadi. Olddagi eshik-derazasi, huvullagan-ungraygan eski tomni bir ko'raman, bir ko'rmayman. Qulog'imning ichini ham faqat g'uvillagan, vizillagan ovoz bosgan, boshqa hech narsani eshitmayman.

Kiraman-u chiqaman deb mo'ljallagan eshikka to'g'ri borolmay, siljib-intilib yaqinlashdimmi deyman, bir payt devor qovur-

g‘asiga urildim. Shuning jahdi bilan ustimda ninaning uchiday joy qoldirmay pitirlayotgan ari lashkarlarni guv ettirib bir silkitib tashladim. Qalin ari uyulib yerga tushdi. Ucha olgani uchib, ucholmagani oyoq ostiga tushib jipirlab yotibdi. Biroq shu bilan arilar jamoasi ozayib qolgani yo‘q, hamma yog‘imda quyunday tipir-tipir, g‘uv-g‘uv, jipir-jipir, duv-duv... men ularni ustimga yo‘latmaslikka tirishaman, qo‘l-oyog‘imni likillataman, silkinib-qoqinaman. “Balki, yotib olib, ag‘anab-ag‘anab oyoq-qo‘llarimni ko‘tarib qoqinsam qutularman” deb ham o‘yladim, lekin bu fikrdan shu zahoti vahimam qo‘zib, qo‘rqib ketdim. Yoki shataloq otib orqamga qochib qolsam-chi? Orqa deganimiz qay tomonda ekan o‘zi?! Anglolmayapman-ku! Arilar birining ustiga biri g‘ujlab qo‘nib, jipirlasha-o‘ymalashib, qovshira yalab-yulib, bo‘g‘ib borayotir. Ko‘rar yorug‘, tinchlanar teshik qolmagan, shekilli. Damim qaytib nafas ololmay bo‘g‘ilib o‘lar holatga yetishdim. Qo‘lim bilan qoqqishlab, teshik topib, bet oldimga bir qarab olaman, shu orada havodan ham bir misqol yutaman, o‘pkamni qovurg‘amga yopishib qolishdan qutqarishga ulguraman. Birdan boshimga “balki qorong‘i zulumotga kirishim kerakdir?” degan o‘y keldi. Jon holatda timirskilanib-siypalanib yurib, eshikni topib oldim-da, ichkariga sho‘ng‘idim. E, g‘ijo-g‘ij arilarning ko‘kasi shu yerda ekan-ku! Tevarak-atrofimni boyagidan-da ko‘proq ari bosdi. Pastak uyning ichi olaquyun, chang emas, ari qoplagan edi. Ularga guvullagan o‘z ovozlari juda yoqadi shekilli, bir lahza tinay demaydi-ya. “Endi eshikni yo‘qotib qo‘ymayin, iloyo, yo‘qotsam qandoq chiqib ketaman?” deb zarram uchib, vahima bosdi. Bir-ikki devari qo‘ni-qo‘njimga ham o‘rmalab kirib olgan shekilli. U yer bu yerim jiz-jiz etib qo‘yayotganday bo‘ladi. Hech xayri tegmagan tayog‘imni tashlay solib, kanop yomg‘irpo‘shning sirtidan o‘zimni o‘zim ikki qo‘lim bilan sharta-sharta urib yuribman. Arilar mingsonlab yopishgan suvlig‘imning etak-yengi ajabtovur bo‘lib og‘irlay boshladi. Nafasim bo‘g‘ilib, darmonim qurib, yana o‘lar holatda aloqlab esim kirdi-chiqdi bo‘lib turibdi. To‘rt devorga birin-ketin urilib, o‘z-o‘zimdan qoqpaqilga[1] tushdim. Qay devorga borib boshim tegsa arilar birch-birch qirilib, yanchilib yotganday. Biroq manov falokatlar shundayam

[1] **Qoqpaqilga tushish** — qo‘ldan-qo‘lga o‘tib, qiyin ahvolga tushish.

ozaya qolay demaydi-ya! Odamni bo'ri yo ayiq, arslon yo maymunlar galasi talab o'ldirishi mumkindir, timsohning og'ziga tushib, yo filning oyog'i ostida qolib o'lishi mumkindir odam bechora. Ammo "ari talab o'ldirdi" degani — qanaqa jazo, yo Xudoyim! "Nima yomonliklar qiluvdimki, menga bu xil g'alati o'limni ravo ko'ribsan?" deb yolvorinib-yig'lab, jon uchirib alahlab yuribman.

"Vidolashib chiqib ketayotgan jonimga oro kir!" deb so'rab, "Yo Yaratgan egam, — dedim o'zimni bilib-bilmay, — Endi seni aldamasman! Bor ekanligingga ham iymon keltiraman! Dunyodagi hamma mo'jiza-yu karomatlar — sening komil irodangdandir, yo qodir Xudoyo, jonimni osonlik ila topshirayin, o'zing qabul qilib ol! Arilaringning talaganini sezmay qo'ya qolay..." deb alahsirab, devordan devorga borib urilib yursam, birdan qulog'imning ostida bir narsa "i-i-ss!"laganday bo'ldi. Kimdir yo'g'on qamchi bilan yelkamga tortib, dovul qoqqanday qoqib yubordi. Yana kimdir yelkamga bilaklarini osib, bo'ynimni qovshirib quchoqlab olganga o'xshaydi. Tag'in birov oyog'imga o'ratilib, sumanglab gapirib, yuqoriga o'rladi. Arilar orqaga chekinib, quyush-muyushga tiqildi. "O'zingdan zo'r chiqar, ko'zingni ko'r qilar" degan so'z rostligiga iymon keltirib turdim. Qaydan chiqqani, qaydan kelgani noma'lum, haytovur, chiqib ketayotgan jonimni tutib olib qarasam — boyagina jin-jipir arilar nariga surilib, ularning o'rnini... ilonlar egallab ola boshlagan ekan! Tepadan ham shalvirab tushayotir, quvis-muyushdan ham o'rmalab chiqayotir, hammayoq — ilon, ilon, ilon!.. Shunchalik hisobsiz ko'p ilonning kichkinagina pastaktomga qandoq sig'ib yotganini bir Xudoyimning o'zi bilmasa men bilmasman. Tepadan shalvirab tushgan ilonlarning bittasi bo'ynimga chirmashib oldi, endi bittasi boshini kajanglatib-o'ynatib, gavdamga qaray o'rmalab, chuvalgan uzun tanasi bilan belimga o'ratildi.

Men qo'rqqanimdan tilim tanglayimga yopishib, bo'g'in-bo'g'inimdan hol ketib, yerda yotibmanmi, oyoqda turibmanmi bilolmay boyagi-boyagicha alahsirab qolganman.

Bir chipor ilon boshi qaqshayib, ayri tili sumanglab, tumshug'ini ko'zoynagimga taqab oldi. Og'zi-boshimni o'rab-chirmab olgan ro'molning sirtidan ilon tanasi sekin qo'zg'alayotgani bilin-

di. U boshimdan oshib tushib, orqamga yopishib, pastga qarab siljidi. Bir yozilib, bir buklanib, yerga tomon siljib tushib borayotir. Uning o'rniga suvlig'imning etagidan kirib, bo'g'ib boylangan belbog'ning ostidan o'ta olmay, turtiniklab, qaytadan sug'irilib chiqib, tag'in biri o'rmalab kelayotir.

Boyagi boshimdan oshib tushgan ilon joyiga ketgandan so'ng bir amallab es yiqqanday edim. O'ng tomon cho'ntagim og'irlashib, pastga tortayotganini payqab, gavdam qaltirab qoldi. Bildimki bir ilon qulay joylashib olgan, sirtidan sekin siypalab ko'rsam — yotibdi bultiyib. Tor cho'ntakni kengaytirmoqchiday, ajabtovur kuch bilan buralib-bulqinib qoladi. Ro'mol bilan qavatlab o'rab tang'ilgan qo'lim qo'qqayib, aytganimni qilmay, cho'ntagimda buklanib qolgan ilon kaftimga arang ilindi. Chuvalata sug'irib olib, oyog'imning ostiga otib urdim. O'kcham bilan yanchib, nimta-nimta qilib, toptab tashladim. Shu-shu bo'ldi-yu, ilonlar battar isillab-vishillab, boshlarini qaqshaytirib, yigirilib, chiyratilib, aralashib, biridan biri bosib o'tib, ayri tillaridan zahar socha-socha otilib kela boshladi. Manov ofatga qarshi turishga hol-darmon yo'q edi. Jin egallagan uy ekan dedim.

Uy egasiz bo'lmas deganlari shu.

Uy egasiz qolsa, jin-shayton egallab olarmish.

Jin bo'lib quvdi ilonlar meni.

Shayton bo'lib quvdi ilonlar meni.

Qochdim men esdan-hushdan ayrilib. Qochdim men kuchimning boricha, qochdim men oyog'im yerga tekkunicha. Eshikni qanday topdim, sirtga qanday chiqdim? Bilmayman. Haytovur qochdim, eh, ortda qolayotgan otimga ham qaramay, zotimga ham qaramay.

Ustimdagi kanop suvliqni yechib otgan ekanman. Oyog'imdagi kerza etikni yo'l-yo'lakay uloqtirgan ekanman. Hammasini uloqtirib tashlab qochganman.

Ha, egasiz eski tomdan yalangoyoqlanib, yalangboshlanib qochganman. Oyog'imning ostidan ko'kchil gullari sochilib tushib yotgan ko'kemorolning ifor islari burqirab, etakday-etakday ulkan tuyayaproqlar tovonimga yoyila to'shaldi. Qir yerlarning ko'kemoroli, chalg'inli yerlarning tuyayaprog'i, bitkayli yerning ko'zning yovini olib turgan qo'y yertuti oyog'imning ostidan

otilib-sirg'ib, orqada qolayotir. Ko'k maysasi gilamning tukiday yumshoq. Qalin chalg'inlar tizzadan oshadi, to'lg'in yetilayotgan o'simliklardan uviz isi anqiydi. Huv anavi yerlardan kichkina jarqovoqdan qulab oqqan buloq suvining chuldirashi eshitiladi. Buloqning tip-tiniq, muzday suvidan simirgim kelib, tomog'imni ho'llash, qurigan tanglayimni to'yintirish, nafasimni rostlab olish uchun cho'kkaladim. Shunchalik go'zal, beqiyos chiroyli tabiatni yana omon ko'rib turganimga quvonib, ag'darilib-to'ntarilib, ho'ngrab yubordim. Ko'kmaysaga yuzimni bosib, ho'ngrab yotib, ovuldagi bizning uy ham yaqin kunlarda egasiz qolib ketishi yodimga tushib ichim zahar ichganday achishdi.

Mening tushunchamga ko'ra, odamning ichki olamiga g'alayon solib, tuyg'ularingni junbushga keltiradigan bunday tasodif voqealarning ham haytovur bir sababi bor shekilli. Bunaqa jumboqlarning sir-sinoatining ichiga kirib borishga, anglab yetishga hali bizning aql-farosatimiz, idrokimiz, zakovatimiz yetila qo'ymagan ham bo'lishi mumkin. Bularning bari bekor emasligini anglab yetish, qayta-qayta esga olib yurishimiz shart va lozimdir. Men o'sha voqeadan keyin ikki-uch kunlab o'zimga kelolmay toqatsizlanib, og'irlanib yotdim. Bu g'alati og'riq ko'ch-ko'liklarga yuklarni tiyab bo'lib, onam kutilmaganda ho'ngrab yig'lagunga qadar, kuzatib qo'yishga chiqqan ayollar piqillab yig'lab xayrlashgunlariga qadar davom etib, yuragimdagi g'alayon o'zini ko'rsatib turdi. Faqat ko'chimiz qo'zg'ala boshlagandagina boshqa bir amal qolmaganini anglab, qo'shnilarimizning yuziga boqishga, xayrlashishga arang chidam-bardoshim yetdi.

AYGUL KEMELBAYEVA

(1965)

Aygul Kemelbayeva 1965-yil 21-martda Sharqiy Qozog'iston viloyatining Abay tumanidagi Qunduzli ovulida tug'ilgan. 1987-yilda Qozoq davlat universitetini, 1994-yilda Moskvadagi Adabiyot institutini tamomlagan.

"Yetti iqlimga sayohat", "Tobilg'isoy", "Minora" nomli bolalar uchun qissa va hikoyalar to'plamlari muallifi.

YEREYMEN VA AQINOY

Yor boshiga qamalib,
Yarim kulba tikasan.
Buqor jirov

Nur taralar o'chib, yongan chiroqdan
Esdan chiqmas xotiralar so'zlasa.
G'alim Jayliboy

Qishning qorli-qirovli kunlari o'tib, dala ham iliy boshladi. Ustyurtning kimsasiz kengliklaridan ko'ndalangiga kesib o'tadigan qushlarning yo'li shimolning oziqqa boy yer-suviga tutashadi. yer yuzidagi bu qiyaliklarni yaratuvchi Parvardigor ko'chib yurish uchun yaratgan. Ko'kda uchgan qushning, yerda chopqillagan qulonning izidan ko'chib yurgan ajdodlarimiz. O'sha zamonlardan beri yam-yashil yonbag'irlarga egalik qilib, chorvachilik biln shug'ullangan. Qutumning cho'qqisidan Bolqon tog'igacha[1] oy yorug'ida Temirqoziqni qoralab, adashmay yuravergan.

Fevral bo'ronlari qiyin-qistovga olganda To'rg'ay vodiysidan esgan shamoldan biron-bir panoh topmagan arxarlar podasi shimoldan Sir bo'yiga ko'chadi. Oltoyning o'tga boy yaylovlari

[1] **Bolqon tog'i** — Turkmanistondagi tog'.

kimsasiz makonga aylanadi. O'tmishda ko'ch-qo'n to'xtamagan davrda bu dashtni "Ichkari tomon" deb atashgan ekan. Bu hududni O'rta juzning arg'in, nayman, qipchoq, kerey, uvoq, Kichik juzning alshin, tama, jag'alboyli urug'lari vatan tutishgan.

Oqposhsho oltin taxtidan qulaganidan buyon qirq yil o'tib, avlod yangilandi. El-yurtda yilqichi va cho'pondan boshqasi o'troq yashashga ko'nikdi.

Aprel oyida Ulitog' yalang'ochlanib qolishidan sal oldin selga bag'rini ochadi. Soydan sharqirab toshib oqqan erigan qor suvi ayiq ungiriga to'ladi. Bo'ronli qishning yarmi o'tib, bo'ri oyida bir yonboshiga ag'anab uxlagan ayiqning shu yonboshi muzning sovug'i ketmagan selga, namlikka chidamaydi. Olti oylik qish uyqusidagi ayiq shunday uyg'onadi.

Yetti Kengir suvidan uchgan gala-gala qushlar Qo'rg'oljin ko'lidan manzil topadi. Ko'ktol, Sarisuv va Otasuvning qalin qamishzorlariga yozlik manzil bilishadi. G'oz, o'rdak, oqqush, oqbosh turna uzzukun bazm quradi.

Balxashga yer ostidan quyiladigan Toqiravin daryosi bo'yidagi ovuldan kelgan tobiqti urug'idan bo'lgan tog'a qadami qutlug' mehmon bo'lib chiqdi. Tep-tekis yashnagan dashtdagi tug'ilgan ovuliga Yereymen qaytib keldi.

Arap qirlarining etagidagi mo'jazgina ovul yashil nishablikda, Sarisuv sohilida joylashgan. Bir cheti tog'-u toshlardan iborat. Bir tomoni Betpoqdalaning cheksiz sahrosi bilan tutashgan.

Yereymen 1939-yilda harbiyga ketib, g'oyib bo'lgan qushday izsiz yo'qoldi. El uni urushda o'ldiga chiqargan. Ortidan janoza o'qishgan. Bevasi Aqinoy o'n yillarcha har jumada duoi fotiha tilab, irim-sirimini qilgan. "Kutganing kelmaydi, kutmay qo'ysang keladi", deb ko'p aytishardi kayvoni onaxonlar. Shu so'z rostga aylandi. O'lik yer tanlamaydi, juftim ko'milmay qoldimi, deb qayg'urib yurganda, 1948-yilning yozida Yereymen oilasiga qaytib keldi. O'n yil bo'yi qayerlarda daydib yurganini bir Xudo biladi. Rusiyaning yongan o'rmonida fashist bilan olishib, asir tushibdi.

Aqinay aza tutdi. "O'zi yo'qning ko'zi yo'q", o'ynab kulmadi. Arg'in urug'idan, yaxshi xulqli, tagli-tugli qiz. Boshidan uchgan

baxti bir kunda qayta qo'ndi. Qirq chiroqli ekan. Aqinayning Yereymen bilan yig'lab ko'rishgani elning ko'nglini bo'shatib, qabrdagi mudragan arvohlarniyam bir ag'anatib yubordi. Jismida oqinlik qoni bor To'qa urug'ining qizi emasmi, g'ozlar bilan birga qaytgan kuyoviga marsiya emas, visol qo'shig'ini bag'ishlab, bir xumordan chiqdi. Mustafoning qizi Aqinoy. Ovozi ota urug'laridan Sayfullaning[1] Qorachilikdagi shirasi qochib, to'za boshlagan qishlovigacha yetdi. Ko'kda oftob kulgani kabi, achchiq motam shukronaga almashdi.

Bu qishloqning eski nomi — Birlashgan. Bir-biriga begona odamlar yo'q, ahilligi yarashgan, to'kin-sochin yurt. Qishloqdagi oddiy xonadonlarning turmushi bir maromda. Taxta to'shalmagan yerga kigiz, sholcha, po'stak yoyib tashlab, bahona topilsa, to'y qilishga ishtiyoqmand. Urush tugab, el qaddini tiklay boshladi. "Qoraxat" ko'p oila o'chog'ining tutunini o'chirgandi. Endi ular tomchiday quvonchga muhtoj. Xalqning baxt qo'msagan mehri va iltifoti urushdan keyingi muhtojlikni sezdirmaslikka imkon berdi. Chunki hammasi mehmondo'st, kuy-qo'shiqni jonlari sevadi. Birning quvonchi ko'pga o'rtoq, birning qayg'usini ham birgalashib ko'taradi. Bu qishloqda maxfiy hech narsa yo'q.

To'qaning bir o'spirin yigitida Aqinoy opasining iqtidoridan uchqun bor. Sarisuvning o'ng qirg'og'idagi ovulning pastidan kiyiklar to'dasi o'tadi. Shu lahzada boyagi yigitchaning ko'ziga oltin kiyik ko'rinibdi. Iqtidorli bola ajoyib sher-qo'shiklar yozishga yo'naldi.

Onasi Oqto'rsiq Aqinoy ammasi kelsa oila boshlig'ining singlisi emas, ota urug'idagi eng yaqini — amakisi kelgandek izzat-hurmat ko'rsatadi. U ham shoshmasdan ikki-uch kun mehmon bo'ladi. Shunda onasi juda xursand bo'lardi. Aqinoyning tagiga yashil naqshlar chizilgan qavimani sandiqdan olib to'shardi, ustiga quroq ko'rpachalarni qalin to'shab, tinmay mulozamat qilardi. Ikkovlon oq qumg'onni cho'g'dan olmay, chanqog'i bosilguncha choy ichib, yumshoqqina pishiriqlardan totib, uzoq suhbatlashadi. Aqinoy ammasi qo'lidagi uzuklarini kelinlariga sovg'a qilgan. Oqar suv

[1] **Sayfulla** — Saken Sayfullinning otasi.

boshida ilk qalliq bo'lib kuyov yigit bilan holi uchrashganda taqqan kumush uzuknigina o'zi taqadi.

Oltmishinchi yillar oxirigacha bu yerda aroq ichadigan odam juda kam edi. Urushdan qaytganlar, front zahmatlarini ko'rgan bitta-yarimta qozoq aroq ichardi. Ovulning sodda bolalariga do'kon ichida rus arog'ini sotib olib, suhbat ustida qirrali stakan bilan urishtirib ichgan kattalar madaniyatli bo'lib ko'ringan. Sababi, ular geografiya fanidan o'rganadigan uzoq o'lkalarni, Ovro'paning katta shaharlarini ko'zi bilan ko'rib, bilganlar. Ular urushdan qaytgan, Vatan uchun qon kechganlar. Ularga aroq ichish ayb ham, gunoh ham emas, deb tushunganlar. Kontuziya olmasdan burun og'ziga ham olmaydigan asl erkaklarga achchiq suvni ichib nima jin urdi. Zaharni zahar qaytaradi. Ko'zga ko'rinmas jarohatlari ob-havo buzilganida sirqirasa, aroq ta'sirida yengishga osonroq, deyishadi bilimdonlar.

Yereymen ham onda-sonda aroq ichib turadi. U xo'jalikda cho'ponning yordamchisi, qorovul va boshqa yengil-yelpi ishlarni bajaradi. O'zi ko'p gapirmaydi, o'ta kamgap.

Yereymen tug'ilgan dalasiga oyog'i tegishi bilan tuproqqa ag'anagan. Imonoqning Ko'kminor tog'iga yetib, roziligini, shukurini Xudoga shivirlab aytishga shoshildi. Yaratgan bandasining iltijosini tog' orqali eshitadi, deb otasi rahmatli ko'p aytgan. Shu gaplarni yodidan chiqarmagan. Odam toqqa, tog' Tangriga aytadi. U bir kuni shu tilagiga yetdi. Qoya toshning chetiga o'tirib, tavbaga kelib, yuragidagi borini to'kib soldi. Jismida qisilib yotgan qayg'u sitilib tashqariga chiqdi, oxiri oppoq nurday olqishga ulandi.

Pastdagi el Jag'alboyli yaylovidan ichadigan bolday qimizning ta'mini sog'inadi. Ota-bobosining bosgan izlari shu yerlarda qolgan. Bu el molining suti qaymoqli, odam beligacha o'sgan pichanzor orasida qo'y-qo'zining bo'yi ko'rinmaydi. Yosh bolalar o'tlar orasida yura olmay qoladi. Nuraga yetmay tugaydigan Quluno'tmas va Uchgo'ngning suvi ko'payganida yashil o'tloqda kumush kamarday ko'rinadi. Orasida siyrak to'qaylar o'sgan. Qiziltog'ning xinali toshidan polapon ochgan qushning, Xudo nasib etgani do'lanazor, to'qayzorlardan uchib chiqardi. Buloq ko'p, bag'ri ko'm-ko'k.

Yereymen aroq ichsa qoni qizib, qahramonlik qilishni ko‘ngli tusab qoladi. “Za Rodinu!”, deb hayqiradi. Tushunarsiz so‘zlarining biri ruscha, biri nemischa; “ura”laganini butun qishloq eshitadi. Ayniqsa, maktabdan kitob-daftar orqalab qaytayotgan bolalarga bu odat g‘alati ko‘rinadi. O‘zi mast, boshqa paytda qo‘y og‘zidan cho‘p olmaydigan mo‘min odamning birdaniga o‘zgarib qolganini ko‘rganda, hamma bolalar Yereymenning atrofiga yig‘ilib, tomosha qiladi. Ko‘p o‘tmasdan Yereyman amaki og‘zidan ko‘pik chiqarib, yerga gursillab qulaydi. Shu yotganicha uzoq yotadi. Xalq Yereymenning quyonchig‘i borligini biladi. Shum urushdan orttirgani.

Qishloqda yozda qum ko‘chadi, garmsel esadi. Kuyovining mast bo‘lib yotganini Aqinoy darrov eshitadi. Og‘zaki xabar yashin tezligida tarqaladi. Aqinoy ildam qadamlar bilan uydan chiqadi. Qo‘lida katta yog‘och to‘sin, bir qo‘ltig‘ida kigiz. Ona g‘ozday Yereymen yiqilgan tomonga qarab yuradi. Ketidan g‘oz polaponlariday yetti bolasi ergashadi. Yereyman uyiga sog‘-omon qaytishi bilan Aqinay birin-ketin tug‘ib bergan. Bolalar qo‘liga bir-birdan narsa, kattasi og‘irini, kichkinasi yengilini ushlagan. O‘g‘illari samovar, chelak, tesha, qizlari ko‘rpacha, dasturxon, oqqumg‘on, jimjiloqday keladigan eng kichigi qoshiq bilan piyola ko‘tarib keladi. Tutantiriqqa maydalangan o‘tinni bittasi orqalab olgan.

Aqinoy — jussali, suyagi yo‘g‘on, erkakshoda ayol. Yereyman sevib uylangan ayolining yarim jussasiday keladi. Atrofda chopib yurib, yig‘ilib qoladigan qiziquvchan bolalar tomosha qilishdan erinmaydi.

Oftob ostida o‘likday uyquga ketgan erining boshiga Aqinoy yolg‘iz to‘sin bilan chayla o‘rnatadi. Bir yog‘i ochiq, uzun yog‘ochni kigiz bilan ikki-uch aylantirib o‘rasa, boshpana tayyor. Yerga ko‘rpacha to‘shab, juftini yosh boladay ko‘tarib, yumshoq o‘ringa yotqizadi. Yereymen hech narsa sezmasdan toshday qotib uzoq uxlaydi. Bu paytda bolalari sharpasiz qimirlab, ishlarini bekam-u ko‘st bajaradi. Bir o‘g‘il o‘t yoqadi, ikkinchisi suv keltiradi. Tashqaridan qaraganda bular zerikib, oilasi bilan dam olishga chiqqanga o‘xshaydi. Samovar vaqillab qaynaydi. Shu paytda Yereymen uyg‘onadi. Ingraydi. Yuz-ko‘ziga qum yopishgan. Jin urganday

ko‘zlari bema’no boqadi. Og‘zi atrofida soqol-mo‘ylovida qurigan ko‘pikning izi qolgan.

Aqinoy tog‘oradagi iliq suv bilan erining yuz-qo‘lini yuvib, ustidagi changlarini qoqadi. Keyin shivirlab, ichida duo o‘qib, erini uchuqlaydi. Yerga urib, uchuqlashni tugatguncha bolalari jim kuzatib turadi.

— Yereymen, qarog‘im, sen shu oilaning ustunisan, bolalar qo‘rqib qolishdi, — deb so‘z boshladi Aqinoy.

Yereymen uyalgandek yerga qarab, ko‘zlarini yerdan uzmaydi, yelkasini qisib o‘tiradi. Bola-chaqasi bilan ayolining yuziga qarashga beti yo‘q, lom-mim deyolmaydi. Dasturxon yoziladi, ustiga qurut, saryog‘, suzma, har zamonda xurjun orqalab kelib qoladigan o‘zbek savdogarlari sotadigan novvot qo‘yiladi. Uzoq-yaqindan qaragan bazi bolalarning tatib ko‘rgisi keladigan shirinlik. Sababi ularning onalari buni tansiq taom hisoblab, mehmonga atab sandiqning tagiga yashirib qo‘yadi. Novvotni Aqinoy etagiga tugib olib keladi. Cho‘ntagidan qand maydalagichni olib, novvotni maydalaydi. Aqinoy uch-to‘rt piyola choyni majburlab, chanqog‘i bosilguncha ichiradi. Yereymen piyolasini to‘nkarib qo‘yganida peshonasidan ter quyiladi. Aqinoy ipak ro‘moli bilan uning terini artib qo‘yadi. Choydan keyin kashtali oq dasturxon yig‘iladi, buklanadi. Yog‘och ustun qulatiladi, Yereymanning bola-chaqasi qaytgan g‘ozday tizilib, kelgan yo‘lidan qora uyiga qaytadi.

Yereyman uch-to‘rt oy jin urgur aroqqa yaqin yo‘lamaydi. Biroq orttirgan dardi yana ichmaslikka qo‘ymaydi. Yilning to‘rt fasliday navbati bilan aylanib keladi. Endigi safar ko‘lmakdagi qotgan muz ustiga qulaydi. Yer nam, havo sovuq, kunning avzoyi buzuq, yer-ko‘kni tuman qoplagan. Aqinoy bir qo‘liga qavilgan ko‘rpani, bir qo‘liga kigizni olib tezda kelgan. Eri quyonchig‘i tutib, og‘zidan ko‘pik chiqib, tilini tishlab qulagan. Qora yer Yereymanning o‘lan to‘shagiday, qora tosh esa yumshoqday tuyuladi. Bahordagi yam-yashil maysa bo‘lsin, kuzning qora sovug‘i bo‘lsin, mayli, ko‘k osmon gumbazi Yereymenga oltin o‘tov. Sharros quyib yog‘ayotgan yomg‘irga parvo qilmay qulaydi. Yerga bag‘rini berib, buzilgan ob-havoga qaramay yotaverishga odatlangan. Jonini ayamaydi. Qishning ayozli bo‘roni Yereymenga hech narsa emas. Yoz-

da maysa ustiga ag'anashni xush ko'radi. Butaning tagini jannatday ko'radi.

Yereymen yiqilsa, bir zumda chaylasi tikiladi. Aqinoy xuddi xavfdan xabar kutganday, hushyor poyloqchiday hamisha tayyor turadi. Uning ko'nglida norozilik tugul irimiga bezovtalanish, salgina qo'rqishdan asar ham sezilmaydi. Aqinoy qilt etsa bolasini yomon so'zlar bilan qarg'aydigan lo'lisifat ayol emas. Yereymen qanday "qovun tushirsa" ham yomonlikka olmaydi, evidan chiqadi. O'g'il-qizi kichikligidan qo'l-oyog'i chaqqon, mehnatkash, mehr-oqibatli. Maktabda ham o'qishda ilg'or, ziyrak, namunali, tartibli bolalar Yereymenning avlodi.

Mast kuyovining boshiga pana bo'lsin, deb Aqinoy chayla tikkan. Qosh bilan ko'z orasida imi-jimida bildirmay o'tadigan vaqt bolalar uchun to'xtab qolganday tuyulsa ham, ularning beg'ubor yuzlaridan qo'rqish ham, tumtayish ham sezilmasdi. Hammasi o'yin yoshidagi bolalar. Biroq chayla boshida erka sho'xliklari birdan to'xtaydi. Ortiqcha so'z aytishga ruxsat yo'qdek indashmaydi. Bolalar uchun shu noxush vaziyat masxara bo'ladiganday ko'rinib qolmagani Xudoga ayon. Rost, sening dadang mast bo'lib, tuproqqa, balchiqqa, qumga, tikanga yiqilib, aqldan ozganday yotishini qara, deb hech kim piching qilmagan. Ularning yuziga aytib, masxaralashdan uzoq. Kontuziya olsa, hamma dadalarning ko'rgan kuni shu bo'lardi.

Avvalida kattasi dalaga qochib ketishni istagan. Tengdoshlari orasida ko'rinishga uyalib yurgan. Xudo boshga soldi, ko'nish kerak. Dadasi uyg'onganida kapa tikilishini, kapa ichida dasturxon yozilishini shu qishloqning kichkina kuchugigacha biladi, bolalarga ergashib, aylanib atrofidan ketmaydi.

Jez samovar Oqposhsho davridan keyin, mulkni musodara qilish paytida yero'choqqa ko'mib tashlanganligidan saqlanib qolgan. O'z davrida Mustafo miltiq bilan birga rus shahridan ot-arava bilan keltirgan qimmatli matohning biri. Aqinoyning sepiga berilgan.

Yereymen mastligi tarqab, rangi bir ahvolda aroq kasridan qiynalib uyg'onadi. Yoshlik davroni o'tsa-da, uyatli ko'zi o'zgarmagan; suv bo'yidagi navqiron qiyofasi Aqinoyning xayolidan o'chmaydi.

Yereymen o‘ng va tushning orasida chayqalib, urushda boshdan kechirgan azobini orqalab, qiynalib bosh chayqaydi. Xudo qo‘shgan jufti Aqinoy gulga ag‘anaganday martabasini xonga tenglashtirib oshirib yuboradi. Yereymen boshi egilib, qiynalib o‘tiradi, tomog‘idan ovqat o‘tmaydi. Biroq ayoli qaymoq surtilgan tova nonning bir bo‘lagini majburlab yediradi.

— Yereymen, sen boquvchisan, bola-chaqaning kuni senga qaragan, yeb olmasang, bo‘lmaydi. Otamiz kasallikdan, ofat-balodan, yolg‘on dunyo yozug‘idan omon yursa, deb tilak tilab yurishibdi, — deb bir og‘iz so‘z aytadi Aqinoy.

Erining ishonmaslikka iloji yo‘q, ba’zida ayolining o‘ziga shuncha ishonib o‘tirganiga tushunmaydi. Bu abgor ahvolidan qutilishga oshiqadi.

Birlashganda tez-tez qum ko‘chadi. Betpoqdalada saksovul tagidan uchgan tuyaqorin dumalaydi. U yo‘ldagi yovshan, isiriq va boshqa cho‘l o‘tlarini sog‘inganday ushlanib qolmaydi. Quralay kiyik salqin tushgach, qum orasida qolib ketgan yashil o‘tloq yerlarni usta iztoparday osongina topib, mol yoyilguncha tozalab ketadi. Kiyik — maysa o‘tlarning eng to‘yimlisini tanlab yeydigan jonivor.

Er yigitning omadli davri aylanib kelib, davom etaveradi. Yer shari ham birga aylanib, charchab toladi. Urushdan qaytmagan yosh, navqiron jasur qozoq yigitlarining qabri qayerda? Aqinoy buni hech qachon unutmaydi. Yereymen g‘oyibdan ilohiy qudratning kuchi bilan qaytib keldi.

Ko‘klamda yil qushlari Otasuv va Sarisuvning atrofidagi qamishzorlarni uyaga to‘ldiradi. Ular ko‘lda suzaveradi, bag‘ridan suv o‘tmaydi, patlari to‘sadi. Daryoning oqim kuchli tomonida ona g‘oz to‘shidan yulib patini to‘shagan uyada yoqimtoygina polaponlar o‘sib yetiladi.

Qo‘shnining yoshgina kelini chaqalog‘ini emizib bo‘lib, beshik tebratib o‘tirgan. “Bolajon, beshik o‘toving, O‘tovingga kir bolam...” deb alla aytadi. Chaqaloq qushning qanotidan kelgan yeldan ham sovqotadi, ona bolasini panalab turadi. Shu atrofda Aqinoyning qorasi ko‘rinadi. Yereymen yonida. Daryoning suviga cho‘milib chiqqanday, archilgan tuxumday bek qiyofasida ayoli tutgan zarhal piyoladan ho‘plab ichib o‘tirgan. Yereymen qiynal-

gan, abgor holatdan tez orada qutilmasligini bilsa ham, tik o'tirishga tirishadi. Hamisha shunday, ayolida jahl, kuyovida ovoz yo'q.

— Hammamiz bir senga ishonib, shukur deb o'tiribmiz. Sen bo'lmasang kunimiz xarob, yereymen, bolalarni rizq-nasibasidan ayirma, Xudo uzog'idan quvonishni yozsin, ilohim.

Aqinoyning hech yomonligi yo'q, keng fe'l, atrofida bolalari girdikapalak... Yereymen o'zining itligiga nolib, ich-ichidan o'rtanib, yerga qarayveradi. Ba'zida birga qaytayotganda oyog'ini bosolmay qoladi. Aqinoy bir qo'lida yog'och to'sinni, bir qo'lida kuyovini ko'tarib, uyga olib keladi. Izida do'mboqqina, yoqimtoygina bolalari.

Shu tuni bu qishloqning tinchi buzilmadi, olisda ko'lbaqa sayraydi, kiyik ovozi keladi. Yereymenning bolalari tinch uyida yayrab uxlaydi. Oila boshlig'i bundan keyin uzoq vaqt aroqni og'ziga olmaydi, quyonchig'i tutmaydi, ichmaydi.

To'y-ma'raka, yig'inlarda qishloqning hurmatli oqsoqollari bilan to'rga chiqadi. Yereymenning oilasi ham el qatori qimizxo'rlikka chaqiradi, mehmon kutadi. O'zlari ham qarindoshlarning mehmondorchiligidan quruq qolmaydi. Qaynog'asi yilqichi Jayliboy[1] o'smir o'g'li bilan Yereymenning xonadonidan hech vaqt quruq chiqmagan. Qishloqdagi eng katta to'y shu xonadonda o'tadi. Ota yurtdagi og'alari, opa-singlisi, tog'a-jiyanlari, qudalar bilan bordi-keldi uzilmagan ko'yi Yereymen ham, Aqinoy ham foniydan boqiyga ketdi. Yereymenning urushqoq, o'zgaruvchan yarim jon holatini ko'rib tursa ham, el parvo qilmadi. Ularning o'g'il-qizlari yaxshi inson bo'lib o'sdi. Hammasi ilm oldi, el boshqargan, savlatli, obro'li insonlarga aylandi.

Oila boshlig'i vafot etadigan yili Sarisuv yoqalarida minglab oqbosh turnalar o'rilgan bug'doyzorlarda qolib ketgan boshoqlarni yeb, tolgan qanotlarini yoyib, tunashga qo'ngan. Issiq o'lkalarga uchib ketayotgan turnalar hayallab, ko'klamda qaytguncha, tug'ilgan yeridan rozi bo'lib, xush qol, deb otlanadi.

Ko'kdagi yulduzlar siyraklashganda mudrayotgan tinchlik olamga havo bilan tarqaladi. Oktyabr oyining yettinchisi edi. Oqbosh turnalarning "qur-qur"i ufqqa singib ketdi.

[1] **Aqtorsiq va Jayliboy** — taniqli shoir G'alim Jayliboyning ota-onasi.

DUMAN RAMAZAN

(1967)

Duman Ramazan 1967-yil 1-avgustda Sharqiy Qozog'iston viloyatining Abay tumanidagi "Qizil tug'" xo'jaligida tug'ilgan. 1992-yilda Qozoq milliy universitetini tamomlagan.

"Ko'k yol" (2001), "Kenasari xonning o'limi" (2002), "Allohning amri" (2008), "Yig'lab oqqan tomchilar" (2011), "Abilayxonning orzusi" (2014), "Peshona" (2020) nomli kitoblari nashr etilgan. "Abilayxonning orzusi", "Kenasari — Kunimjon", "Kerey — Jonibek", "Taxt", "Toshmanglay", "Bevaqt", "Qanottaldi" nomli drama asarlari bor.

G'USSA

Ichim to'la og'u, dard.
Abay.

Mag'aviya xalq orasida shuhrati yoyilib, obro'si ortgan vaqtda dardga chalindi. Xastalik uzoq davom etib, oxir-oqibat to'shakka mixlandi. Kundan kunga tobora madorsizlanib, ahvoli yomonlasha boshladi.

Jonidan ortiq ko'rgan mehribon o'g'lining kasallik azobidan qiynalayotgani Abayga yomon ta'sir etardi. Oxiri qo'l qovushtirib o'tirishga sabri chidamasdan umidsiz umidlar bilan Semeydan bilimdon shifokorni olib keldi. U tomirini ushlab, bemorning ahvolini aniq aytib beradigan tajribali tabib edi. Tabib Mag'aviyaning yonida ko'p bo'lmadi. Obdon oriqlab, faqat qoq suyagi qolgan ko'rinishiga qarashi bilanoq, kasalning tuzalishidan umid yo'q ekanligini birdan tushundi. "Qiynalib qolsa, manavidan ozroq berib turingizlar", deb qog'ozga o'ralgan bir hovuch oppoq kukun dori qoldirdi va xayrlashib jo'nadi.

Abay o‘g‘lining ahvolini sezib turardi. Shuning uchun tabibning nima demoqchiligini aniq tushundi.

Mag‘aviyaning yoniga kirib, yana biroz o‘tirmoqchi bo‘ldi. Lekin bir-ikki qadam tashlab to‘xtadi. Takror-takror bezovta qilib, behalovat qilishni istamadi. Yonida o‘tirsa, o‘g‘li battar qiynalib, dardiga dard qo‘shiladigandek tuyuldi. O‘zi kasal bo‘lsa ham, qadrdonlarining ko‘zlaridagi ma’yuslik va yuzlaridagi bezovtalikni ko‘rish, farosatli insonning ruhini azoblashini yaxshi biladi. Bunga qo‘shimcha farzandining mushkulotiga guvoh bo‘lib, ko‘zi bilan ko‘rib, joni qiynalib, yuragi zirqiraydi.

Tashqari sokin. Quyosh cho‘g‘dek qizarib, uyasiga botib bormoqda. Tevarak qip-qizil tusga kirgan. Oyog‘ini sudrab bosib uyiga keldi. Yelkasiga tashlab olgan yengil to‘ni va boshidagi do‘ppisini yechib qo‘ydi. Karavotning old tomoniga qo‘yilgan par yostiqqa yonboshlab yotdi. Erkajon izma-iz kirib, o‘rtada turgan to‘garak xontaxtaga dasturxon yozdi. Abay unga boshini burib qaradi va:

— Ishtaham yo‘q — dedi ohista.

— Ertalabdan beri hech narsa yemadingiz...

Boshqa gap bo‘lmadi. Xonani sukunat egalladi. Erkajon boshqa nima deyishini bilmasdan bir lahza turib qoldi va orqasiga burildi.

Abay tonggacha mijja qoqmadi. Xayolning ming bir ko‘chalariga kirdi, turli fikrlar paydo bo‘lib, bezovtalanaverdi. Ko‘z oldidan suyukli farzandining oriq yuzi ketmasdi. Ruhan notinch bo‘laverdi. Yaratganga takror munojot qildi:

“Mag‘ashim — ko‘zimning nuri, hayotimning guli-ku! Qudrati kuchli Xudoyim, bandaning zorini qabul qilgaysan, taniga shifo bergaysan!”

Tong shivirlab otardi. Ochiq turgan tuynukdan xiragina yorug‘lik sochilmoqda. Yonida yotgan Erkajon ham ko‘zini ochib oldi. Uning ham uyqusi o‘chib ketgandi.

Abay jim. Yashiringan nigohini tepaga qaratib, qimirlamasdan yotibdi. Hatto nafas olishi sezilmasdi. Gohida “tirikman” degandek kiprigini pirpiratib qo‘yardi.

Asta-sekin qorong‘ilik tarqalib, uy ichi yorisha boshladi. Ikkisi ham o‘rinlaridan turib, yuvinib kelishdi-da dasturxon oldiga

o‘tirdi. Ikkisidan ham sado yo‘q. Gap-so‘z bo‘lmadi. Abay keyingi paytlarda juda kamgap bo‘lib qolgan, deyarli hech kimga gapirmaydi.

Bugun uydan chiqishni istamadi. Har kungidek Mag‘aviyaning yoniga borib o‘tirishga ham yuragi dov bermadi. “Qulinim-ov, rosa qiynalding-da, — dedi pichirlab. — Nahotki shuncha ko‘rguligim bor ekan?! Rabbim, qayg‘uning zahrini to‘yib ichsin dedingmi?! Abishim ketganda bir marta qon yig‘lagan edim. Endi Mag‘ashimdan ham ayirib, yana sho‘rimga sho‘rva to‘kiladimi?! Tangrim, nega shuncha zabtingga olding, nega shuncha darg‘azab bo‘lding?! Yozug‘im ne?!. Yozug‘im...”

Erkajon tashqariga chiqdi, ko‘p o‘tmasdan qaytib kirdi.

— Xat keldi! — dedi ostona hatlab.

— Kimdan?

— Shaymerden Qo‘shchig‘uldan.

— Nima bo‘b qopti?

Abay xatni ochib o‘qiy boshladi. Yomonlikni sezgandek yuragi dukillab uraverdi. “Ibrohim janoblari, tinch-omonmisiz? Bemalol ahvol so‘rashishga fursat yo‘q. Boshimiz uzra qora bulutlar to‘planmoqda. O‘rislar xazina-boyligimizga butunlay egallanib oldi, endi tilimiz va dinimizni yo‘q qilmoqchi. Necha-necha qozoq bolalari cho‘qintirilmoqda. Shuni ko‘rib turib, nahotki tinch yotaveramiz? Yig‘ilib, bir harakat qilaylik! Umumqozoq qurultoyiga to‘planib, bafurja maslahatlashaylik. Aks holda manavi zaharli tilini o‘ynatgan ikki boshli semurg‘ning halqumiga tushib ketamiz. Podshohning bir farmoni bor, shuni o‘qing, o‘zingiz ham bunga ishonch hosil qilasiz. Sizga atayin jo‘natyapman”.

Sariq qog‘ozdagi yozuvlarga diqqat bilan ko‘z yugurtirdi. Goh Shaymerdenning xatini qo‘liga oladi, goh uni qo‘yib, podshohning muhri bosilgan, imzo chekilgan farmonga tikiladi. “Qozoqlarni tez vaqt ichida o‘rislashtirib, cho‘qintirish kerak. Itoat etmaganlarning yorug‘ dunyoda yashashiga haqi yo‘q!”. Keng peshonasi tirishib, qovog‘i osildi. Yana bir bor boshini ko‘tarmasdan o‘qib chiqdi-da, o‘ylanib o‘tirib qoldi. Chuqur nafas olib, og‘ir xo‘rsindi.

Shu holicha uzoq o‘tirdi. Erkajon iymanib, yoniga kelib o‘tirdi.

— Nima bo‘ldi? — dedi taajjub ohangida.

Abay birdaniga javob bermadi, picha vaqt o'tgach, bo'ynini burib dedi:

— Xalqning ahvoli ma'lum, davlatimiz larzaga kelib, tamal toshi chayqala boshlagandek. Shunga bezovta bo'lib, kelajagimiz uchun kuchlarni birlashtirib kurashga chaqirmoqda. Qamaldan chiqadigan yo'l izlamoqchi, shuning uchun maslahat so'raydi. Mendan chiqadigan biror fikr qoldimi? Niyat-istak yaxshiku-ya, lekin ixtiyor qo'ldan ketib qoldi, tuzalar deb aytolmayman!

Erkajon oila boshlig'ining dardini yaxshi tushunadi. Busiz ham ko'ngli alag'da bo'lib turgani uchun bezovta qilishni istamadi, o'rnidan sust qo'zg'alib, tashqariga chiqib ketdi.

Abay o'z-o'ziga ishonmasdan takror farmonga ko'z tikadi.

"Podshoning qo'l ostidagi yerlarda yashovchilarning hammasi bir dinga o'tishi kerak, ularni itoat ettirish va cho'qintirish Nizomga muvofiq maxfiy, ortiqcha gap-so'zsiz, asta-sekin, juda ayyorlik bilan amalga oshirilishi lozim" degan yozuvlarni yana bir bor takrorladi va og'ir tin oldi. Yuragida qattiq sanchiq turdi.

Podshohning mustamlakachilik siyosatini, albatta, tushunadi. Yuragini og'ritib, joniga halovat bermayotgan narsa — mana shu. Xalqning taqdir-tolei qil ustida turganini ham biladi. Lekin umid o'ti hamon lipillab yonardi. Manavi sovuq xabar shamdek sarg'aya boshlagan ishonch chirog'ini butunlay puflab o'chirgandek bo'ldi. Farmonga yana ko'z tashladi. "Pravoslaviye diniga ixtiyoriy ravishda kiradi, shu dinga o'tishni o'zlari iltimos qilishadi" qabilidagi tadbirni amalga oshirish uchun maxsus reja tuzish lozim!"

Abay seskandi. Badani titrab ketdi. Boshiga qon quyilgandek bo'ldi. Bu xatga qanday javob berishni ham, millatning asosiy tomirini kesib tashlashga jon-jahdi bilan kirishgan yirik imperiyaga qarshi qanday qarshi kurashishni ham bilolmay hayron. Yoshligidagidek o't-olov emas, g'ayrati sustlashgan, yuragi notinch. "Endi yashashdan mazmun qolmadi. Hayotim mana shunday boshi berk ko'chaga kirib qolar deb o'ylamagandim-ku! Zo'ravonlikka qarshi bir yoqadan bosh chiqarishi kerak bo'lgan xalqning holi quvontirarli emas... Taraf-taraf bo'lib, guruh-guruh bo'lib aytishib-tortishib, olishib-yulishib, birini-biri yomonlash ularning turmush tarziga

aylanib bormoqda. El va yerga, millatga yopirilayotgan xavfni sezadigan, aytganni tushunadigan, orqangdan ergashadigan hech kim yo'q! Xalq orasi buzildi. Sotqinlik va makkorlikning kuni tug'di... Bir hasratni o'ylasang, yuzta qayg'u qo'shiladi...

Mag'ashim... Mag'ashim... — ko'zida yosh halqalandi. — O'zing mingan buroqdan men ham qolib ketmasman!..".

Kelajakdan katta umid kutgan Abishi bu dunyodan boqiyga rixlat qilganda ilk bor xuddi shunday dunyoni tark etib, yolg'on hayot bilan xayrlashishni istagandi. Suyukli farzandining qazosi ruhini yozilmasdek yaralab, yuragiga og'ir yuk ortib ketgandi. "Abishdek o'g'limdan ayrilib, yer yuzida tirik yurmasman", deb ters qarab yotib olgandi. O'sha paytda ko'pchilik yig'ilib kelib, yonida bo'lib, qayg'usiga sherik bo'lgandi. Tumonat orasidan ko'pni ko'rgan Ko'ptilev oldinga chiqib: "Abayjon, xalqqa nega hamdardlik bildirmaysan? Abish ismli farzandi vafot etib, hammasi g'am-motamda qoldi-ku", deganida, "Ha, shundaymi, Abish faqat mening o'g'lim desam, xalqning farzandi ekan-ku. Bu ishim xato bo'lgan ekan, boraman, boraman", deb qaddini ko'targan edi. "Jonini bergan Allohim ajalini ham beribdi. Hayot oxiri o'lmakdir, sabr qilmoq kerakdir", deb taqdirning ishiga noiloj ko'ngan, qayg'uni aql yengib, joniga yupanch topgandi.

Abay o'yga cho'mgan. Ko'zini yumib olgan, biron harakati sezilmaydi. Uyga kirib-chiqib yurgan Erkajon qayta-qayta qarab qo'yadi. Oyoq tovushini bildirmaslikka intilib, sekin yuradi.

Tushlik mahalida: "Ovqat iching!", dedi, Abay unga qaramadi, jimgina boshini chayqab rad javobini berdi.

Kechqurun tashqariga chiqib, oz-moz toza havoda sayr etgandek bo'ldi, lekin ko'p o'tmasdan yana ichkariga kirdi. Erkajon kechki ovqatni tayyorlab qo'ygan edi.

Sariq samovar vaqillab qaynab turibdi. O'rtaga barra qo'zining go'shtidan tayyorlagan qovurdoq qo'yildi. Bug'i chiqib, hidi butun xonani egalladi.

Noiloj, o'z-o'zini majburlab, dasturxon oldiga kelib chordona qurib o'tirdi. Lekin nomigagina tamaddi qildi. Yangi pishirilgan katta bo'g'irsoqdan birini olib maydalab yeb, quyuq qora choydan ho'plab-ho'plab ichaverdi.

— Ovqatdan oling, — dedi Erkajon muloyim ohangda. — Kuch-quvvatdan qolasiz.

— Endigi ishlarning hammasi befoyda! — og'ir xo'rsindi.

Erkajon tilini tishlab qoldi. Dunyoning issiq-sovug'ini birdek totgan donishmandni ovutish uchun gapdonlik qilishni bema'nilik deb bildi. Xudo qo'shgan jufti haloli. Usmon vafot etib, yolg'iz qolganida, aql-farosati, donishmandligi uchun tanlab tekkan ediku. Abayning so'zidan yuragi "shuv" etgan bo'lsa ham, holatini bildirmasdan, o'zini tez o'nglab oldi.

Abay ham og'iz ochib boshqa hech narsa demadi. Jimgina yonboshlab oldi.

Tuni bilan shuurini egallagan og'ir o'ylar bilan olishib, ag'anayverdi. "Qozoqlarni qisqa fursatda o'rislashtirib, cho'qintirish kerak. Itoat etmasa, yer yuzidan yo'q qilish kerak!" deb pichirlab takrorlayverdi. Har bir aytganida vujudini qahr egallab, o'kinch yemirardi.

Tongga yaqin toliqib, ko'zi ilindi. Tush ko'ribdi. Suvlug'i bilan olishgan oppoq ot mingan otasi Qo'nonboy keldi. Abish otga mingashib olgan edi.

Qovog'i soliq, vajohati yomon. Buni ko'rgan Mag'aviya ham yugurib kelib, bir narsa demasdan otga irg'ib minib oldi. Yer tepingan tulporning jilovini tortib turgan hoji:

— Nega qarab turibsan? — dedi yo'g'on ovozda. — Min!..

Abay uzangiga oyoq qo'yishi bilan otasi uni o'ng qo'li bilan ko'tarib yubordi. Otasining qo'li tegishi bilan yengillashib qolgandek, otga yengil o'tirdi. Ko'pdan beri ko'rmagan Abishga otalik mehri bilan boqdi. Juda sog'inibdi!

Xuddi shu vaqtda "men qolib ketmayin" degandek Oqilboy ham uydan yugurib chiqib, otasining orqasiga mingashib oldi. Qo'nonboy hoji hisobim to'liq bo'ldi, deb qo'lidagi katta qamchisini ko'tardi. Tepsinib arang to'xtab turgan arg'umoq ham shuni kutib turgandek chopib ketdi. Tezligi tobora oshib borardi. Birdan unga qanot bitib, osmonga ko'tarila boshladi. Osmonda qushdek parvoz qilaverdi. Bir lahzada oppoq momiq bulutlarning orasiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Uyg‘onib ketdi. Bosinqirabdi. Terlab ketgandi. Tashqarida g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir ovozlar kuchaydi. “Tong otmasdan shovqin-suron ko‘tarayotganlar kimlar ekan?” deb boshini ko‘tarmoqchi bo‘lgandi, uyga hayajonlanib Erkajon kirdi. Ko‘zi katta-katta ochilgan, rangi o‘chib ketgandi.

— Semeydan tergovchilar kelibdi. Uyni tintuv qilamiz deyishdi. Gapga quloq soladigan niyatlari yo‘q, — dedi hovliqib.

Abay ham sal hayajonlanib ketdi. Lekin hech narsani bildirmaslikka tirishdi.

— Bundan nega qo‘rqasan, ko‘rib yurgan azobimiz-ku! — dedi vazmingina. — O‘risga qul va cho‘ridek qadrimiz qolmadi!

Shu damda besh-olti jandarm uyga bostirib kirdi. Qarashlari jiddiy, yuzlari sovuq.

— Salomatmisiz, Ibrohim janoblari?! Uyingizni tintuv qilamiz, shunday buyruq bor! — dedi ostonadan birinchi bo‘lib hatlagan mo‘ylovli zobit tomdan tarasha tushgandek.

— Tintaveringlar! — aftini burishtirdi.

Shu so‘zni kutib turgan jandarmlar o‘g‘ri itlardek uyning hamma tomonini tinta boshladi. Hamma yerni qarab chiqishdi. Kiyim-kechak solingan juft sandiqni ham titkilashdi. Ko‘rpa yig‘ilgan taxmonni ham ag‘darib ko‘rishdi.

Erkajon tobora achchig‘lanardi. Abay esa to‘nini yelkasiga tashlagan holida jimgina o‘tiraverdi. Politseylar ko‘zlari ko‘rgan kitoblarni, gazet-jurnallar va qo‘lyozmalarni o‘rtaga yig‘ishdi.

— Ibrohim janoblari, biz bularni Semeyga olib ketamiz. Sinchiklab tekshirib, keyin o‘zingizga qaytarib beramiz, — dedi mo‘ylovini burab.

Abayning avzoi buzildi.

— Nima qilmoqni istasanglar hech kimning to‘sqinlik qilolmasligini bilib turibsan-ku. Faqat anavining ichida o‘lanlarim bor. Loaqal shuni tashlab ketinglar! — ovozi amrona eshitildi.

Zobitning qoshi chimirildi.

— Ibrohim janoblari, buyruq shunday! — dedi ta’kidlab. — Xotirjam bo‘ling, yarim bet qog‘ozingiz yo‘qolmaydi.

— Bo‘ldinglarmi o‘zi? — ulardan tezroq qutulmoqni istadi.

— Bo‘ldik!

Zobit kitob, gazet-jurnal, qo‘lyozmalarning hammasini ro‘yxat qildi, faqat lozim topganlarini xaltachaga solib oldi va tevarakka yana bir bor ko‘z tashladi.

— Ibrohim janoblari, xat qani? — dedi mug‘ombirona.

— Qanday xat? — Abay hech narsa tushunmagandek so‘radi.

— Ibrohim janoblari, bizni ahmoq hisoblamang! Bera qoling, aks holda ust-boshingizni tintishga to‘g‘ri keladi! — javob berdi qat’iy ohangda.

— Topsangiz sizniki!.. — dedi Abay kinoyali jilmayib.

Zobit uning ust-boshini bir qarab chiqdi. Qandaydir sir olmoqchiligi aniq. Abay ham o‘tkir nigohi bilan tahdidona tikilib turaverdi.

Zobit hadiksirab qoldi. Abayning ust-boshini tintishga jur’at etmadi, picha vaqt olazarak boqib qarab turdi-da, yonidagi sheriklariga:

— Ketdik! — dedi. Ovozi qo‘pol eshitildi.

Ba’zi kitoblar va qo‘lyozmalar solingan qora xaltachani ko‘tarib ketishdi. Abay o‘zining zaifligidan kuyinib, yomon xafa bo‘ldi. “Bu podshohlik bizga shafqat qilmaydi. Boshimizga yetishi aniq. Olg’a yetaklovchi bir umid bor edi, uzildi. Ishonch bor edi, so‘ndi. Endi nima qoldi? Hech narsa qolmadi!”.

Yana og‘ir tin oldi.

Erkajon podsho jallodlarining qayoqqa qarab ketganini kuzatish uchun tashqariga chiqdi, ko‘p o‘tmasdan qaytib kirdi.

— Oqilboyning uyiga qarab ketishdi, — dedi vahima bilan.

— Qo‘rqma. Faqat Mag‘ashimni bezovta qilmasa bo‘lgani! — birdan boyagina ko‘rgan tushini esladi. — Otam bekorga kelmagani aniq. Har holda Alloh oxirini xayrli qilgay!..

* * *

Semeydan kelgan tergovchilar xufya xatni topolmasdan qaytib ketishdi. Lekin shoirning har bir qadamini poylab, tergov organlariga xabar berishi uchun bir ayg‘oqchini ataylab qoldirib ketishdi.

O‘sha kuni kechqurun Abay har kungi odatiga binoan har narsani o‘ylab, chuqur g‘amda o‘tirganida Mag‘aviyaning uyidagi xizmatkor kelin yugurib keldi.

— Mag‘ash og‘irlashib qoldi, — dedi halloslab.

Boshida chaqmoq chaqilgandek bo‘ldi. Yuragi otdek depsinib, qattiq ura boshladi.

O‘rnidan chaqqon qo‘zg‘alib, shoshilib chiqib ketdi. Shu shiddat bilan kelib kiraverishda eshikning peshtaxtasiga boshini urib, keraganing tayog‘iga chakkasini yirtib oldi. Qon shovullab oqdi. Lekin unga e’tibor bermadi.

Ichkaridagilar “yalt” etib qarashdi.

Mag‘aviyaning yonida ko‘zi yoshga to‘lgan Dilda o‘tiribdi. Qo‘lida oq ro‘mol. Abay o‘g‘lining oldiga shoshib kelib o‘tirdi.

Xuddi shu damni kutib turgandek Mag‘aviya qon qayt qildi. Havo yetmayotgandek ichagini cho‘zib hiqillab qoldi. Yuzi qip-qizarib ketdi, ko‘zidan yosh oqdi. “Bu azobdan qutqaringlar” degandek yalingannoma qiyofada yon-atrofidagilarga iltijoli boqdi. Bir lahzadayoq charchab, ko‘zi qayta yumildi.

— Yana uxlab qoldi, shekilli! — dedi Dilda o‘g‘lining og‘zidagi qonni artib. — Jon bolam, obdon qiynalding-ov!..

Ichkarini bir lahzalik jimlik egalladi. Hamma nafaslarini ichiga yutib, tinchib qoldi. Mag‘aviya pichadan keyin yana ko‘zini ochib, gunohkorlardek atrofidagilarga mo‘ltirab qaradi.

— Og‘a, — dedi u otasining yuzidan sir uqqandek ko‘ziga tikka boqib, — sizlarni ham qiynab yubordim. Jonlaringiz qiynalib ketdi...

— Qarog‘im-ov, sen o‘rningdan turgan kuni hammasi unutiladi.

— Og‘a, men endi bu dunyoning odami emasman!

— O‘g‘lim!.. — Abay sir boy bermasa ham ovozi titrab ketdi. — Hali sog‘ayib ketasan, bolajonim!

— Yorug‘... yolg‘on... — gapini tugatolmadi. Yo‘tal xuruj qildi.

Onalik tuyg‘usi bilan jon dunyosi ezilgan Dilda qorachig‘idan oqqan yoshni ko‘rsatishni istamadimi, yuzini chapga burdi. Qomatini bezovtalik egib qo‘ygan Abay o‘zining nochorligidan kuyinib, boshini egib o‘tirib qoldi. “Bizni qo‘yavergin, o‘zing ham juda qiynalding, qarog‘im!”. Uning yuragi yig‘lardi.

Mag'aviya yana ko'zini yumdi. Sekin nafas olib, bilinar-bilinmas pishillaydi. Ko'p o'tmasdan yana ko'zini ochib oldi. Nimanidir aytmoqchi bo'lib chog'langandi, yo'tal og'zini ochirmadi. Beto'xtov yo'talib, borgan sari holdan toymoqda edi. Ko'zlari kosasidan chiqqudek olaydi, qo'li bilan tirnab, ko'rpani qisib ushlab oldi.

Abay o'zini qo'yishga joy topmay qoldi. Dilda jonholatda gapirdi:

— Qiynalib ketdi-ku, dam solib yuboring!

Abay o'g'lining so'nggi damlari kechayotganini o'zi ham bilib o'tirardi.

Bor kuchini to'plab, dam solishga chog'landi. Lekin...

— Xudoyim!.. — ovozi qattiq chiqdi. Ko'ngli buzildi, teskari qarab oldi. — Jon qulunim!..

— Ey, sen ham, o'zi qiynalib yotganda... — Dildaning ovozi qo'pol eshitildi.

Mag'aviya o'lim bilan olishmoqda edi. Abay yana unga qarab o'tirdi, lekin dam solishga jur'ati yetmadi. Shu damda Mag'aviya otasiga oxirgi marta ko'zini ochib qaradi, xayrlashayotgandek iyagini silkidi. Keyin "uh" deb oxirgi nafasini chiqarib, boshi chap tomonga qiyshaydi va qotib qoldi.

Abay o'g'lining tanasini joni tark etganini birdan tushundi. Bo'g'inlari bo'shashib, uni quchoqlab o'tirib oldi. Ko'z oldi xiralashib, issiq yosh potirlab chiqsa ham, ovozini chiqarmadi. Abayning ovozi chiqmagach, shu yerda turganlarning hammasi lablarini tishlab, jimgina egilishdi.

Yomon xabar yerda yotmas. Mag'aviyaning qazosi haqidagi xabar tezda tarqaldi.

Sut pishirardek vaqt o'tganda to'rt-besh oqsoqol bilan birga Tangriberdi "voy, jigarim" deb keldi. Qayg'udan qon yutgan qadrdonlariga nasihat qilib, sabrli bo'lishga da'vat qildi.

Abay ularning aytganiga quloq solmadi. Ko'z oldida u dunyoga jo'nab ketgan o'g'lining yonida ko'zini yoshga to'ldirib, qayg'uning qora to'nini yopinib o'tiraverdi. Hech kimga gapirmadi, hech narsaga e'tibor bermadi. Faqat og'asi Tangriberdi yoniga kelib:

— Abayjon, turgin, Mag'ashjonning mayitini o'ng tomonga olsin! — deb aytgach, o'rnidan ohista ko'tarildi. Shu vaqtda arang chidab o'tirgan Dilda o'rnidan turib, ovozini ko'tarib unga o'zini tashladi. Yuragi sanchib, o'zini tuta olmagan Abay bir tomoniga shilq etib yiqilib tushdi.

Uy ichida zorli ovozlar kuchaydi.

* * *

Hayotlik vaqtida hammaga mehr va muruvvat ko'rsatgan Mag'aviyaning vafotidan xalq qattiq qayg'uga botdi. Yuzlariga g'am soya solgan, ko'ngli cho'kkan qarindosh-urug', oshna-og'ayni, quda-anda, uzoq-yaqindagi katta-kichikning barchasi jam bo'lib Kichik Oqcho'qqi sari borishdi. Qo'nonboy hoji avlodiga ta'ziya izhor qilishib, hamdardlik bildirishdi.

Uchinchi kuni Mag'aviyaning janozasi o'qildi, boqiylik manziliga hurmat bilan jo'natish uchun barcha rasm-rusumlar o'tkazildi. Xaloyiq mayitni trashmo'nka aravaga (izvosh — tarj.) qo'yib, Katta Oqcho'qqidagi Qo'nonboy hoji va Abish dafn etilgan qabristonga qarab yo'l olishdi.

Abay tez-tez qadam tashlab aravaning oldida yurdi. "Mag'ashim"ning suyagi og'riydi", deb yo'lni yirik-mayda toshlardan tozalab ketaverdi. Qabr boshiga kelib, hamma yaqinlashganda birdan to'xtadi va:

— Aylanayin, xalqim! Mag'ashimning yuzini ochinglar, xayrlashaman. Aytar so'zim bor! — dedi.

Yig'ilganlar bir zum qotib qolishdi. Aytilgani bajarilgach, Abay tobutga yaqin keldi.

— Ey, og'ayin, so'zdan qaytishni o'lim bilan teng bilgan Mag'ashimning qazosi mardlik va nomardlikning sinovi-ku. Nomard bo'lmasa, yigit ikki xil gapirmas. Ko'p o'tmasdan orqangdan men ham boraman, Mag'ash, alvido, alvido, — dedi qaltirab.

Xaloyiq "oh" deb, tosh tekkandek chayqalib ketdi.

Xaloyiq hasratiga hasrat qo'shilib, egilib-bukilib Mag'aviyaning mayitini qora yer quchog'iga topshirib, yuzini berkitdi.

Qur'on tilovat qilindi, hamma tarqaldi. Faqat Abay qabr tepasida o'ziga kelmasdan chuqur g'amda uzoq o'tirdi.

* * *

El-yurtga boshchilik qila oladigan esli-hushli o'g'lidan ayrilish Abayga kuchli ruhiy zarba bo'ldi. Safdoshlariga o'rnak bo'lgan Abishning to'satdan vafot etishi dunyo qizig'idan ko'nglini sovutgan edi. Mag'aviya o'limidan keyin yorug' yolg'ondan batamom ters aylanib, hayotdan hafsalasi pir bo'ldi.

Podshohning maxfiy farmoni yiqilganga tepki bo'ldi. U Abayning ichidagi dardni puflagan cho'g'dek qo'zdirib, kasalini zo'riqtirib yubordi.

G'ussaning qora iskanjasi har tomondan siqib, uzzukun alam daryosida suzdi. Odamovi bo'lib qoldi. Hech kim bilan ochilib gaplashmaydi. Hamdard bo'lib, sabr qilishga da'vat etgan jonkuyar qarindoshlarining so'zlariga e'tibor bermadi. Faqat Jigitek Baydalining o'g'li Toshtanbek kelib:

— Ey, Abay, Mag'aviya — Mag'aviya edi, lekin sen Abaysan-ku! — deb g'amini aqlga mag'lub etishga chaqirganda sal-sal ochilgandek bo'ldi.

— Yopiray, hamma: "oxiri xayrli bo'lsin", derdi. Bu ko'ngilga maqbul so'z bo'ldi! — deb aytgandi.

Baxtga qarshi, tashqi dardning kuyugi ichkariga tushib, qayg'u zahri butun badaniga yoyilib ketgandi, shu bois Toshtanbekning so'zi ham nishonga aniq tegmadi. G'ussaga belangan bulutlarni silkitib tashlaydigan quvvati bo'lgan holda, o'zida intilish bo'lmadi. O'zining bardam bo'lishini ortiq deb bildi. Shuning uchun miyasida g'ujg'on o'ynagan behisob xayol va hasrat jonini qurtdek yeb, jussasini kemiraverdi.

Shaxsiy musibatiga millat mushkuloti qo'shilgach, Abay tiriklikdan voz kechib, tarki dunyo qilmoqni istadi. Jon va tan behalovatligi qo'shilib, a'zoyi badanini o'tda yondirdi. U endi faqat bunday azobdan tezroq qutulishnigina istardi. Yorug' yolg'ondan topmagan ruhiy sokinlikni narigi dunyodan izlab, Alloh dargohiga shoshildi. U o'zining hol-ahvolini bilganligi uchun hayot shami tugayotganini qalban his qilardi. Shuning uchun yaqin qarindoshlarini chaqirdi.

— Dardim zo'riqib bormoqda. Mag'aviyaning qirq kunlik ma'rakasini uch kun avval o'tkazinglar, — deya yonma-yon o'tir-

ganlarga nigoh tashladi. — Bugundan boshlab tayyorlaninglar. Lekin endi maslahat so'ramanglar, men hech narsa aytolmayman.

Hammasi Abay aytgandek bo'ldi. Mag'aviyaning qirq kunlik ma'rakasi uch kun avval o'tkazildi. Juda ko'p kishi keldi. Xatmi qur'on o'tkazildi.

O'sha kecha Abay bo'g'ilib, og'rib chiqdi. Tong otsa ham o'rnidan turishga shoshilmadi. Quyosh nayza bo'yi ko'tarilganda tursa ham, behalovatligi yo'qolmadi.

Yeb-ichishdan mutlaqo to'xtadi. Hech kimga gapirmay qo'ydi. Ahvol so'raganlarga ham indamasdan boshini chayqab qo'yaverdi. Bu holni eshitishi bilanoq og'asi Tangriberdi uchib keldi. Uyga kirayotib jigarining horg'in yuzini ko'rib cho'chib ketdi.

— Abayjon, senga nima bo'ldi?! Nega hech kimga gapirmayapsan? Bir onadan to'rt farzand edik. Ikki ukamdan ayrildim. Xudodan endi sening ham orqangda qolishni qismat qilmasligini tilayman! — ovozi qaltirab chiqdi.

Abay loqayd ohangda dedi:

— Nomard har kuni, mard esa bir marta o'ladi. Mening jonim Abishim va Mag'ishimdan ortiq emas. Takejon, aytgin, men ichmagan og'u qoldimi? Ko'ngilning quyoshi so'ngandan keyin, bu dunyoda ovunadigan narsa qolmas ekan. It kunini ko'rgandan ko'ra, go'rda cho'zilib yotmoq afzaldir.

— Abayjonim, nimalar deyapsan? Eling va xalqingni qanday tashlab ketasan?

— G'ayratli kunimda qozoqni tashlab boshqa yoqqa ketishni o'ylamadim. Uni jonimdan ortiq ko'rdim. Umidvor bo'ldim. O'ylaymanki, bu ham yaxshi. "Afsus, shuncha qiziqlarim qolib ketdi!" deb qayg'urmaysan. Oldingda tilaging bo'lmagandan keyin xotirjam o'lsa bo'ladi. Chunki umidli shu'la izlab qancha tikilsam ham, kelar zamon tuman ichida ko'rinur! Oldi umidli, oxiri afsusli aldamchi hayot-ey!..

Abay gapini tugatib, Takejonda ishi yo'q kishidek indamay o'tiraverdi. So'z uqdirolmasligini sezib, noiloj qolgan og'asi boshini eggancha chiqib ketdi.

Abayning kasal bo'lganini eshitib, har tomondan hol-ahvol so'rab keluvchilar ko'paydi. Lekin uning hech kim bilan uchrashishga ishtiyoqi yo'q edi.

Ko‘zi yoshlanib, tanho o‘zi o‘yga cho‘mib o‘tirishni odatga aylantirdi.

Janjal va dovlar bilan yashagan O‘rozboy boy ham ahvol so‘rab keldi.

Ikkovining suhbati uzoqqa cho‘zilmadi. Abay ochilib gaplashishga ro‘yxushlik bermadi. O‘rozboy buni sezib qoldi-da, tutaqib o‘rnidan irg‘ib turdi.

— Abay, sen o‘larkansan! Kel, bir-birimizni kechirib qo‘yaylik! — dedi dabdurustdan.

Abay vazmin holatini o‘zgartirmadi.

— To‘g‘ri aytding, boy. Men o‘laman. Kechirdim, qiyomat-qoyimda uchrashaylik! — deb o‘rnidan ohista ko‘tarildi.

Ikkisi qadrdon do‘stlardek quchoqlashib xayrlashdi. Uydan chiqib otlariga minayotib O‘rozboyning yonida birga kelgan hamrohlaridan biri Qistovboy mirzo:

— Boy, so‘zdan achchiq narsa yo‘q, tiriklayin o‘ldirding-ku! O‘zi qayg‘udan qon yutib o‘tirgan hasratli ko‘ngilga “o‘larkansan” deganing nimasi? Xalqning e’tiboriga, olqishiga sazovor bo‘lgan Abay-ku! Buning insoniylikdan bo‘lmadi, boy! — deb noroziligini bildirdi.

O‘rozboy pinagini buzmadi.

— Ey, Qistovboy, ko‘rmadinglarmi, sezmadinglarmi, Abayning jasadiga ajal kirib olibdi. U biror marta bir so‘zni ikki marta aytganmidi? “Xalq qayg‘usi — mard qayg‘usi. Mard qayg‘usi nega el qayg‘usi bo‘lmasin? Xalqimga rahmat!” deb ikki marta takrorladi-ku, bilmadinglarmi? Shuningdek, o‘z-o‘zidan seskanib, atrofiga alanglab qarayverdi. Ko‘zi nimanidir izlaydi. Hammamiz birgalashib ustidan shikoyat qilib yurgan vaqtlarda bizlarni pashsha kabi ko‘rmasdi. Yuragi ilib, bizga xayrixoh bo‘lganmidi? Bugun esa bolalardek cho‘chib, qo‘rqib o‘tiribdi. Abay yo‘q endi bizga... Yo‘q... yo‘q... — dedi vajohat bilan.

Dastlab Abayning bu dunyodan hafsalasini pir qilgan narsa O‘rozboy siltagan qamchining uchi bo‘lgandi. Boshi yorilib, ko‘zi chiqmagan bo‘lsa ham, o‘z og‘aynilarining tanasiga jarohat solganini xo‘rlik hisoblab, eldan ko‘chib ketishni istagandi. Ana shunda nayman Serikboy va kerey Begesh oldiga kelib: “Ey, Abay,

sen to'biqlininggina emas, butun qozoqning Abayisan! To'biqliga sig'masang ham, qozoq eliga sig'asan. Elingni tashlab er nomini ololmaysan! — deb jo'yali so'z bilan ahdidan qaytargan, yo'lidan to'xtatgan edi.

Er navbati uchgacha. Bu safar Abay hech kimga quloq solmadi. Hatto ataylab uzoqdan kelgan tanish tabibi Bo'jey Mingg'atuliga:

— Bo'jey, g'ussa ko'krakni to'la egallagach, kishini o'z ixtiyoriga qo'ymasdan, badanni kemirib, bo'g'imni tindirib, ko'zdan yosh oqizar ekan. Ichim dardga to'ldi, ajal vaqti yetdi. Mening tanim emas, jonim dardmand. Buning hech shifosi yo'q, — deb davolanishdan batamom bosh tortdi.

Bo'jey qancha harakat qilsa ham, aytganiga ko'ndirolmadi. Lekin shifokorlik farzini ado etib, zarur dori-darmonlarni berib ketdi. O'z tanlovini yaxshi tushungan Abay dorilarni ichmadi.

Ahvolning yaxshi emasligini bilgan Takejon xalq orasida mashhur bo'lgan Sho'qbotir baxshini chaqirtirdi. Abay unga ham iliq muomala qilmadi. Kasallik jarayonini birdan tushungan baxshi Takejonni bir chekkaga boshladi.

— Mening jinlarimning buyrug'i o'tmaydigan o'zgacha dard ekan. Shifodan umid yo'q. Tayyorgarlik ko'rish kerak, — deb rost gapni yashirmasdan shartta aytib qo'ya qoldi.

Takejon "uh" deb og'ir xo'rsindi. Nima deyishni bilmasdan labini tishlab turib qoldi.

* * *

Mag'aviyaning qirq kunlik ma'rakasi o'tgandan keyin xalq yaylovga ko'chishga tayyorlana boshladi. Hayotining so'nggi kunlari o'tayotganiga to'liq ishongan Abay hammani shoshirib, tezda ko'chishga buyurgan. O'zining qulay yozgi yayloviga tezroq yetib, ajalni o'sha xosiyatli makonida qarshi olishga qaror qilgan. Shu tariqa oq uylar yig'ilib, hamma bir kunda ko'tarilib, yaylovga ko'cha boshlagan.

Yo'l-yo'lakay Ko'kuyirimda to'xtab, dam olish rejalashtirilgan.

Odamlar ot va aravaga mindi. Yuklar tuyalarga ortildi. Hamma yo'lga tushdi. Abay juft ot qo'shilgan yengil izvoshga kelib o'tir-

di. Uning yoniga Mag‘aviyaning bolalari kelib qo‘shilgach, yo‘lga tushdi. Izvoshchi Baymag‘ambetga:

— Dastlab Hoji otaning qabriga boramiz, — dedi ovuldan chiqaverishda.

— Ma’qul!

Abay yana xayol dengiziga sho‘ng‘idi. Goh-gohida nevaralariga ko‘z tashlab qo‘yadi. Ularning ham ko‘zlarida mung bor.

Bola bo‘lsa ham boshlariga tushgan musibatni sezadiganga o‘xshaydi. O‘ng tarafida o‘tirgan katta nevarasi Qutayba va chap tomonida joylashgan Bobirni o‘ziga yopishtirib, quchoqlab-quchoqlab qo‘yadi. Lekin bir og‘iz gap gapirmadi.

Yonma-yon kelayotgan ikki jiyron eski yo‘l bilan kichik izvoshni pisand qilmasdan yeldek uchirib keladi. O‘nqir-cho‘nqir yerlarda tasirlatib-silkitib, ichida o‘tirganlarning ichak-bag‘rini chayqab borardi. Abay tashqariga bir qarab qo‘ydi. Dalada bulut soyasi ko‘rinadi. Osmonda to‘p-to‘p bulutlar yoppasiga ko‘chib borardi. Chap tomonda bepoyon dala, qamishzor, yam-yashil tekislik.

O‘ng tomonda tog‘ va qirlar uzoqlarga cho‘zilib ketgan. “Manavi jimgina mudroq bosgan qari tog‘larning tillari bo‘lsa tilsimi mo‘l sersulola o‘lkaning ichiga yashirgan ko‘p sirlarni aytib berardi, afsus!.. Tarixdagi ne-ne voqealarga guvoh-ku bular! So‘zlatarmikan, so‘zlarmikan?..”.

O‘ylaganlikdan bo‘lsa kerak ko‘z oldida kungurali qoyalar gavdalandi. Qoyalarni o‘rab o‘sgan archalar safda tog‘ tomonga o‘rmalab chiqayotgan askarlarga o‘xshaydi. Etagida qalin qarag‘ay va tabulg‘a qorayib ko‘rinadi.

— To‘xta! — Abayning ovozi qattiq chiqdi.

Baymag‘ambet otlarning jilovini tortdi. Shoir izvoshdan tushib tog‘ tomonga yo‘l oldi. Burul tepaga chiqqandan keyin to‘xtab nafasini rostladi. Atrofga sinchiklab ko‘z tashladi. Shimoldan esgan salqin shabada turli xil giyohlarning xushbo‘y hidlarini dimoqqa yetkazib, o‘zgacha kayfiyat bag‘ishlaydi.

Engashib bir tup yovshanni yulib oldi. Zavq bilan hidladi. Hidiga to‘ymagandek, takror hidladi. “Oh, naqadar yoqimli hid! — dedi ohista. — Tug‘ilgan tuprog‘ing tabiatiga hech narsa yetmaydi-yov!..”.

Shunday xayollar og‘ushida asta yurib tepadan pastga tushib foytunga kelib o‘tirdi.

Atrofga to‘ymasdan nazar tashlaydi. Ona yerning nafis tabiatini oxirgi marta tomosha qilib kelayotganini yurak qurmag‘ur sezib kelardi.

Yuragi jussasini teshib chiqardek dukillaydi: “Alvido, alvido, tug‘ilgan yurtim, ota makonim!..

Kelajak avlod kaftida tuta olsa yaxshi! Lekin hokimiyat boy berildi-ku! Ichimizga kirib olgan mustabid davlatning qo‘l ostida xor bo‘lib qolmasmikan?!”

Yonida o‘tirgan nevaralariga nigohini qadadi: “Qarog‘larim, o‘z yerimizda o‘zimiz o‘gaydek bo‘lib qoldik, senlarning hollaring qalay bo‘larkin?!”.

Bo‘g‘ziga o‘ksik, ko‘ziga yosh to‘ldi.

Biri kirib, biri chiqqan behisob o‘ylar bilan olishib o‘tirib, otasi va bolalari qator yotgan qabristonga yetib kelishganini ham sezmay qolibdi. Izvoshchi jilovni qattiq tortib, otlarni to‘xtatgandagina es-hushini yiqqandek bo‘ldi.

Izvoshdan nevaralarini ham olib tushdi. Yerga tizzalab o‘tirib qur’on tilovat qildi. Ko‘ngli alag‘da bo‘lib, ovozi qaltirab chiqdi.

— Tuproqlaring yumshoq, yotgan yerlaring qulay, joylaring jannatda bo‘lsin! — deb fotiha qildi.

So‘ngra Baymag‘ambetga:

— Bolalarga qaragin! — dedi.

— Mayli!

Abay asta qadamlar bilan borib, qabristonning eshigini ochdi, ichkariga kirdi. Avval tuprog‘i qotmagan Mag‘aviyaning qabri yoniga kelib cho‘kkaladi.

“Tuprog‘ing yengil bo‘lsin, qarog‘im!” deb bir chimdim tuproq olib ustiga sepdi. O‘zini to‘xtatolmasdan ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Ovozi baralla eshitildi. Ko‘pdan buyon ichiga to‘lgan g‘ussani tashqariga chiqarolmasdan, ich-ichida to‘lg‘onib kelardi. Hech kim yo‘qligidan foydalanib ko‘z yoshiga erk berdi.

Abdurahmonning qabriga yaqinlashib, bo‘g‘imlari bo‘shashib shilq etib o‘tirdi. Ko‘z oldida mehribon o‘g‘lining suyukli qiyofasi

namoyon bo'ldi. Ikki yelkasi silkinib, yig'lagan holicha tepachaga peshonasini tekkizib, tuprog'ini hidladi. "Yosh ketgan, Abishim! Menga qara, bir damgina qaragin menga, quloq solgin, yorug'im. Suyaklarini shildirlatib otang kelib turibdi. Qarog'im-ov, sendan keyin ham yer bosib yurdim-ku! Jonim tanamda bo'lgandan keyin, shunchaki tirik yurganim bo'lmasa, yashamadim! Ha, yashamadim!.. Faqat kunimni o'tkazdim!... Ustim sog' bo'lsa ham, ichim sen bilan birga o'lgan. Ko'p kechikmasdan boraman yoningga, yoningda yotaman!"

Sabrga da'vat etib yupatadigan hech kim yo'q. Yuragi ana shunday kimsasizlikni istagan. Shuning uchun kattalarni hamroh qilmagan. Ko'zdan ketsa ham, ko'ngildan abadiy ketmaydigan suyukli farzandlarining ruhi bilan tanho so'zlashib, sog'inchini bosmoqchi bo'lgan.

Qo'qqisdan xayoliga bir narsa tushdi, shekilli, o'rnidan turib otasi Qo'nonboyning qabriga qarab yurdi. Tiriklik chog'ida xalqni boshqarib, o'ziga gard yuqtirmagan bo'lsa ham, ajal qarmog'idan qutula olmagan salobatli ota sovuq yer bag'ridan mangu makon topgan. Kichkinagina tepalik tagida yotardi.

Esiga bolalik chog'i, ota-onasi bilan birga o'tkazgan shirin kunlar keldi... Chuqur tin olib, og'ir xo'rsindi. Otasining qiyofasi oldida paydo bo'ldi.

— Ota... — deb picha to'xtab turdi-da so'zini davom ettirdi. — O'zingiz ham hammasini bilib-sezib yotgandirsiz. Hayotlik chog'ingizda hech kim sizga bas kelolmagan edi. Sizdek otaning o'g'li ekanligimdan doim g'ururlarnib yurardim! Siz vafot etgach faqat men emas, butun xalq yetimdek bo'lib qoldi. Hech kim sizdek bo'lolmaydi. Yo'qligingiz bilinib turgani ham haqiqat! "Mendan kuchli bo'laman desang, o'zingdan kuchli farzand tug'dir", der edingiz. Farzandlarim tug'ildi, lekin murod-maqsadlariga yetolmasdan hayotdan erta ketdi qulunlarim! Mening dilimni o'rtayotgan o'kinch ham shundan!

Ota, hayotning oldi issiq, oxiri sovuq ekan. Mana, o'zingiz butun vujudingiz bilan sevgan elingizning qut-barakasi qochib, boshidan baxt qushi uchib ketmoqda.

Siz asosiy xabar deb bilgan narsa haqiqatga aylanmoqda, o‘zim haddan tashqari ishongan o‘ris davlati urug‘-avlodimizni butunlay yo‘q qilish niyatidadir!..

Otajon, arvohli mard edingiz, men Mag‘ashimdan keyin uzoq qolib ketmayin, millatning xasratini ko‘rsatma, yoningga ol! Jonimga tinchlik olib ber, chirqiramasdan o‘rnini topsin!

Shu tariqa otasining ruhi bilan uzoq sirlashib turdi. Beto‘xtov oqqan yosh soqolini yuvib ketdi.

Boshi aylanib, ko‘z oldi qorong‘ilashdi. Og‘ir o‘ylar yelkasini ezib, bo‘yi og‘irlashaverdi. Bir payt ko‘chni esladi va tashqariga qarab yurdi.

Qabristondan oyog‘ini sudrab arang chiqdi. Soqol-mo‘ylovi batamom oqarib, yuzi o‘t o‘chirgandek qop-qora bo‘lib ketgandi. Izvoshchining ko‘zi kosasidan chiqay dedi. Tanimagan kishisidek tikilib qaradi. “Sizga nima bo‘ldi?”, deb so‘ramoqchi bo‘ldi-yu, lekin jur’ati yetmadi. Xo‘jayini izvoshga o‘tirishi bilan jilovni silkitib-silkitib o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

Orqasiga alanglab qarab-qarab qo‘yadi. “Astag‘firulloh! Bir necha daqiqada shunchalik o‘zgarib ketgan!.. Allohim, o‘zing yor bo‘lgaysan!..”.

Abay o‘rab olgan qalin o‘ydan qutula olmadi. Nevaralariga ham e’tibor bermadi. Keng dalada yolg‘iz o‘zi qolgandek, o‘zi bilan o‘zi ovora edi.

Ular kelganda ko‘ch ham yetib kelib, tuyalarni cho‘ktira boshlagan edi. Baymag‘ambet har yilgi odati bo‘yicha katta o‘tov tikiladigan yerga yaqinlashib, otning jilovini tortdi. Hardamxayol o‘tirgan Abay:

— Ko‘ch bu yerda nega to‘xtadi? — deb so‘radi.

Izvoshchi hech narsa tushunmasa ham chin ko‘ngildan:

— Abay og‘a, yetib keldik! — dedi.

— Qayerga?

— Ko‘kuyirimga.

— Ey, sen nima deb valdirayapsan, qani Ko‘kuyirim?! — dedi baland ovozda. — Ko‘kuyirimga yetgandan keyingina to‘xtaysan!

Shu vaqtda foytun yoniga hamma to‘plana boshladi. Abay beixtiyor yerga tushdi. Hamma uning oqarib ketgan yuziga qarab, hayron qoldi.

— Ey, nega hammang bir yerga to‘planib turibsanlar? Bir yo‘la Ko‘kuyirimga yetib to‘xtamaymizmi? — dedi avvalgi so‘zini takrorlab.

Shu paytda katta o‘g‘li Oqilboy kelib:

— Og‘a, Ko‘kuyirim mana shu-ku! Ana, otlar suv ichganda o‘zingiz qarab o‘tiradigan xarsangtosh emasmi? — deb ko‘l sohilidagi sandiqtoshni ko‘rsatdi.

Ana shundagina hushiga kelgan Abay o‘zining yanglishganini bilib, noiloj bosh barmog‘in tishlab qoldi.

* * *

O‘sha kuni Abay o‘zini yomon his qildi. Tili takror bog‘lanib qolaverdi. Atrofida parvona bo‘layotgan Erkajon nechog‘lik yalinib-yolvorsa ham, ovqatga qaramadi. G‘am-g‘ussaga botgan holda, o‘yga cho‘mib o‘tiraverdi. Hech kim bilan uchrashishni istamadi. Faqat bir o‘zi bo‘lishni xohladi. Ahvolini bilmoqchi bo‘lib kelgan qarindosh-urug‘larning hammasi eshik oldidan qaytib ketaverdi. Bir tilga kelganda Erkajonni oldiga chaqirib:

— Uzoqqa bormasman! — dedi bo‘g‘iq ovozda. — Tayyorlanaveringlar!

Eng oxirgi so‘zi shu bo‘ldi. Yana bir narsalar aytmoqchi bo‘ldi, lekin tili aylanmadi. Shundan keyin boshqa gapirolmadi. Oxirgi vasiyat so‘zini ayta olmadi.

Yaylovdagi ikkinchi kuni namozdigarda, ya’ni Mag‘aviyaning vafotiga qirq kun bo‘lganda boqiyga rixlat qildi. “Uf”, deb so‘nggi nafasini chiqardi-da, Allohning omonat jonini osongina O‘ziga topshirdi.

Abayning ajalga shoshgani ham bekor emasdi. Qirq kunlik ma’rakasi o‘tkazilgan kuning ertasiga Oqilboy ham foniy dunyo bilan vidolashdi.

Ko‘rgan tushi o‘ngidan kelgan edi.

DIDAR AMANTAY

(1969)

Didar Amantay 1969-yil 5-fevralda Qarag'anda viloyatining Qarqarali tumanida tug'ilgan. 1994-yilda Qozoq milliy universitetini tamomlagan.

Uning birinchi kitobi 1996-yilda "Postskriptum" nomi bilan nashr etilgan. Keyinchalik "Qasterle meni" (2000), "Gul va kitob" (2003), "Kuzgi randevu" (2005) kitoblaridan tashqari "Nurg'isa Tilendiyev", "Aljappar Abishev" kabi hujjatli filmlari ssenariysini yozgan.

OVOZ

O'zini ko'rmadi, lekin tunda ovozini eshitdi. Avvaliga uxlab qolishini kutib yotadi, ko'zi ilinganda, qitirlatib bir narsani yey boshlaydi. Ko'rinmaganiga qaraganda, u o'z to'dasidan adashib qolgan qandaydir jonzot yo hasharot bo'lsa kerak.

U yotoq to'shagini dalaga soldi. O'sha jonzotning uy yaqinida yurganini biladi, lekin ovozning qaysi tarafdan, qayerdan kelayotganini anglolmaydi. Qanday bo'lmasin, u yaqin joyda.

Ko'kda oy suzadi. U, albatta, uyning atrofida qayerdadir yashirinib oladi va poylaydi. U buni ko'radi, lekin o'zini ko'rsatmaydi. U buni uxlab qolgunicha kutadi, agar uyqudan turib ketsa yo qimirlasa, tiqirlatishini to'xtatadi. Biroq u qayerdan bilsa ekan, erta emas, kech emas, vaqtidan sira adashmaydi. U joyiga kirib tinchib qolishi bilan yemagini yeyishga kirishadi.

Nima yeyayotgani noma'lum. U doimo qurt-qurt qilib qattiq chaynaydi. O'zi juda qiziq, qitirlataverib uyg'otib ham yuboradi.

Bu tun tong otguncha bog' kezdi, ovulga oraladi. Qidirdi. Hech narsa topmadi. Topganda yetolmadi. Jonzot oshiqib, tezda ildamlab

ketadi, joyini o'zgartiradi, yashirinishga muvaffaq bo'ladi. Keyin esa tiqirlash boshqa tomondan keladi. Ovoz har tarafdan eshitilaveradi.

Endi u ko'k maysalar orasidan oqaribgina ko'rindi. Uni burchakka qisib bormoqchi bo'ldi. Yaqinroq kelganda, shovqini orqa tarafidan eshitilib, uzoqlashib borayotgan edi.

Uning kichkina ekanini bildi. Uy atrofidagina yurishga odatlanganini ham tushunib oldi. O'ziga tegishli mulkka begona hayvon kirib olganiga qayg'urgani yo'q. Kelaversa, qochib ketaman, deb ham tashvishga tushgani yo'q. Aksincha, uning atrofida bor ekaniga rozi.

Uyqusi kelib, joyiga yotib, kiprigiga uyqu ilinsa, jonzot o'z joyida qimirlab ovoz chiqaradi.

Bir kuni u o'ziga o'tlar orasidan qarab turgan bir juft ko'zni ko'rdi. Ko'zlar unga qo'rquv bilan boqar edi. Yerini bosib olganiga kechirim so'raganday. O'ychan ko'zlari tiniq. Qo'sh chirog'i toliqqandek g'amgin. Qayerdan qochib keldi ekan? Kimdandir yomonlik ko'rgan, birovning oyog'i ostida qolganmi. Banda umrida adolatsizlik ozmi, lekin jonivorlar olamida bundan ham ko'proq. O'ziga panoh topib olganiga qulaylikni his qildimi.

U reja tuzdi. Birinchidan, yaqindan tanishish kerak. Ya'ni quvishib, surishib emas, hamkorlik qilib, yana mehribonlik ko'rsatib.

Dam olish kunlari qo'li bo'shab qolganda hovlida sayr qildi. Yovvoyimi, uy hayvonimi, nima bo'lsa ham, o'sha sirli maxluqni suhbatga chorladi. O'zi haqida so'zladi, hayotidagi sirlarini bo'lishdi, savol tashladi, javob ham aytdi, hatto o'z so'ziga qarshi ham turdi.

Hammayoqni to's-to'polon qiladi. U yer bilan yakson bo'lib, parcha-parcha bo'lib yotadi. Ba'zan, dala bilan gaplashayotganga o'xshaydi. Lekin u o'tlarni silkitib, tapir-tupur bosib borar ekan, suhbatdoshlar tarqalgani ayon bo'ladi.

Ushlay olmadi, biroq tutmasa ham bo'ladi, uni zanjirband qilib nima qiladi, to'r ichiga qamab nima foyda topadi, yolg'izligiga hamroh bo'lgan, dalasini kezib, yemishligini qidirgan, umrini emin-erkin yashayotgan hayvonga e'tibor qiladi. Bu bog' so'qqagi-

na boshiniki. Endi uni ikkisi bo'lishib olsa bo'ladi. Ikkovidan ham ortadi, u dunyoga ortmoqlab ketmaydi. Qoladi.

Hammasi eskiradi. San'at shartli, dunyo yolg'on va o'tkinchi, milliardlagan yillardan so'ng Quyosh ham so'nadi. Ammo besh milliard yil deganimiz mangulikka teng. Bu abadiylik ozig'i vaqt, vaqtning qurboni — inson.

Inson bolasini ongi nobud qiladi. Tushunmaganda, hech narsa o'ylamas edi. Bilganniki — taqdir, majhul doimo qayg'usiz. Qayg'usizda aql bormi, arzon kulgining kelajagi yo'q. Bizning sifatimiz — fikrlaganimizda.

Bir kuni tongotarda mevali daraxtlar shoxlaridan olma, olmurut, shaftoli, o'rik, yong'oqning to'kilib ketganini ko'rib, bog' ichiga kamera o'rnatib qo'ydi. Tunda yaxshi uxladi. Tong otishiga yaqin tanish ovoz eshitildi. Ikkovi bir-biriga yaqin turgandek bo'ldi. Ovoz sal o'zgarganini sezib, iliq so'zlar aytdi. Shu bilan birga yaqinida turgan idishga yemak soldi.

Kamera bu joyni o'zgartirib yubordi. Ertasiga kamerani ochib kadrlarni ko'zdan kechirar ekan, tasvirning eng quyisida qorong'ilikdan yugurib kelayotgan otni ko'rdi, u yaqin kelmas, uzoqlardan chopib o'tardi. U g'alati, belgisiz jonivor esa kamerani sezib qoldi, paypaslab, ko'zi bilan har yog'idan qaradi. To'satdan u sabzi qazib yeb turgan bir quyonni ko'rdi.

SAKEN SIBANBOY

(1972)

Saken Sibanboy 1972-yil 16-fevralda hozirgi Turkiston viloyatining Maqtaoral tumanida tug'ilgan. 1994-yilda Qozoq milliy universitetini tamomlagan.

"Dilning dardi" (2012), "Ola koptokning olomoni" (2015) va "Internetdagi muhabbat" (2021) kitoblari nashr etilgan.

SEN QANCHALAR SHIRINSAN, HAYOT!

Mezon uchib, miya o'simligining boshi sarg'ayib qolgan payt. Ariq-jo'yakning atrofiga yashiringan namchil ajriqdan boshqa o'simlik dunyosi butunlay kuzning ixtiyoriga o'tib ulgurgan. Ildizlari chuqurga ketgan yantoq va qora sho'raning o'zi bo'yidagi nam-shirasidan ayrilib, quriy boshlagan. Giyohlarning avvalgilaridan bo'lib ko'karib, hammasidan avval enkayib qoladigan mushukquyruqning bandigacha qovjirab, qurib qolgani ko'zga tashlanadi. Yo'l atrofida yetaklashganday tizilib o'sgan yotog'on jing'illarning uchlaridagi mayda gulchalari ko'zni qamashtiradi. Yangi qatordagi maydonda oq dastro'molning to'rt burchini tugib, boshlariga kiygan, bellarigacha yalong'och uchta yigit o'rilgan jo'xorining poyasini to'plab bog'lamoqda. Faqatgina kunning issiq haroratiga intiq paxtagina ko'ksidagi ko'saklar orasidan oq parlar ko'rinsa-da, yozning rangini bermasdan, yam-yashil bo'lib ko'zga tashlanadi. Zotan, tirikchilik qonuniga bo'ysunmaydigan qudrat bormikan? Ko'p o'tmasdan, mana shu uzoq yashaydigan o'simlikning yaproqlari ezilgan ko'knorining rangiday kulrang tus olib quriy boshlashi aniq.

Yettisoyga yetib kelishim bilan ovulga boradigan taksi yollab, tosh yo'ldan toqatsizlana ketib boraman. Ko'ngil bo'ladigan atrof-

ga qancha ko‘z tiksam-da, qalbimni kemirgan xavotir tarqamasdi. “Haqiqatan, hayotning qonuni hammamizga birday, — deyman ichimda. — Yaratganning buyrug‘i mulohaza qilinmaydi. “Xudoning buyrug‘isiz quray ham sinmaydi” der edi buvim. Qurayning qachon sinishi, kimning qachon vafot etishi yolg‘iz Allohga ayon. Yozmishdan o‘zmish yo‘q”. Lekin, g‘am bulutlari orasidan umid uchqunlari bilinar-bilinmas yaltirab g‘am-anduhli qalbimga yupanch bag‘ishlaydi.

“Buving behol yotibdi! Tezda yetib kel!” degan otamning qo‘ng‘irog‘idan so‘ng, shoshilinch yo‘lga otlandim.“Biz nima qilaylik?” degan savollar nigohidan yog‘ilib turgan rafiqam va bolalarimga: “Avval o‘zim borib ko‘ray. Vaziyatga qarab xabarlashaman. Kim bilsin, bu safar ham Yaratgan egam o‘zi yor bo‘lib, oyoqqa turib ketar?” deya xotirjam javob berishga tirishsam-da, besaramjon kayfiyat bilan yo‘lga chiqdim. “Bu safar ham...” degan sababim: buvim avval ham bir marta qattiq kasal bo‘lib, to‘shakka mixlanib qolgandi... Allohning mehr-shafoati ila, shifokorlarning muolajalari shifo bo‘lib, oyoqqa turib ketgandi.

Buvim bugun to‘qson to‘rtga to‘ldi. Qaysidir yili, to‘qson yoshga to‘lganida, qarindoshlarni yig‘ib, katta ziyofat bermoqchi bo‘ldik. Lekin buvim bunga qarshi bo‘ldi. “Nima qilasizlar, aljigan kampirni archaga o‘xshatib, o‘rtaga olib atrofimda raqsga tushasizlarmi? Cho‘ntaklaringga sig‘mayotgan pullaring bo‘lsa bola-chaqangga, ro‘zg‘orga ishlatinglar. Tilim taqillab turgani bo‘lmasa, men endi bu dunyoning odami emasman... To‘y-po‘ylaring o‘zlaringa buyursin!” deya, fig‘oni falakka chiqdi. “Buvilaring ziyofatda o‘zi bilan suhbatlashib o‘tiradigan tengdoshlari qolmagach, cho‘chiyapti-da...” deya qaqillab kulgan qo‘shni Seyitjabbor cholning ham adabini berdi. “Yuzga qarab ketayotgan men tugul, saksonga kelsang ham selkillab mototsikldan tushmaydigan sen sho‘rlikning ham tengdoshlaring qolmadi! Nimaga qayqiyib tirjayasan?” degan buvimning so‘zlariga hammamiz qotib-qotib kulgandik. Lekin biz uch-to‘rtta chevarasining sunnat to‘yini birga qo‘shib ixchamgina ziyofat berdik. Qarindosh-urug‘ning hammasini chaqirdik...

Negadir buvim o'nta nevaraning ichidan meni, yigirmaga yaqin chevaraning orasidan marhum akam Nurkenning o'g'li Ulanni o'zgacha yaxshi ko'rardi. U tansiqroq narsalarni bizga ilinar, cho'ntaklari chuqur, bilagimizgacha keladigan kamzulidan chiqadigan shirinliklar doim bizga buyurardi... Almatidan yo'lga chiqarda, Ulanga qo'ng'iroq qildim. "Bilet topmasdan, Astana aeroportida tentirab yuribman, — dedi u alam bilan. — Lekin shoshmang, shaytonga minib uchsam ham yetib boraman!".

Men yetib kelganimda ovqatlanadigan xonadagi bir qavm el ertalabki nonushta dasturxonidan hali turmagan ekan.

— Keldingmi, kunim? — deya onam quchoqlab peshonamdan o'pdi. O'zi mahzun bo'lsa-da, o'g'lini ko'rganiga xursand bo'lib turgan onamning yuzlari yashnab ketdi.

Akalarim, opalarim, pochchalarim, yangalarim va boshqa qarindoshlar, qo'shnilar ko'rishib, hol-ahvol so'radi. Hammasi bilan qo'l berib ko'rishdim-da, to'rda o'tirgan otamga kelganda u sal surilib yonidan joy bo'shatdi. Uning yoniga qistirilib o'tirdim-da:

— Buvim qanday? — deya bo'g'zimdagi shubhali so'roqni berdim.

— Xudoga shukur, bugun ancha yaxshi, — dedi dadam. Ikki kundan beri aqli hushini tez-tez yo'qotib qo'yayotgani uchun sizlarga xabar berganmiz. Mulla akaga ham shu yerda bo'lingiz deb olib qoldik.

Dadamning narigi tomonida qo'lidagi tasbehini o'girib, ko'zini yumib, boshini chayqab o'tirgan Mutalib mullaga men shundagina qarabman.

— Tomog'idan qora suvdan boshqa hech narsa o'tmay hammamizni bir qo'rqitdi. Bugun ertalab tili so'zga keldi. Unga majburlab bir piyola tovuq sho'rva ichkizib, sutga ivitilgan bir tishlam non yeb hozirgina uyquga ketdi. Uyg'ongandan so'ng kirarsan, maylimi? — dedi onam mehr bilan qarab. — Almatilik Mirza og'ani joniday yaxshi ko'rib, tilidan qo'ymaydigan edi. Endi, sen kelgach boshini ko'tarsa kerak. Bunday quvonchning ta'siridan katta onamiz tez tuzalib ketar edi-ku, — dedi choy quyib o'tirgan Anorgul yangam.

U ko'chamizning boshida turadigan Serdesh og'amizning ayoli. Buvim o'tgan yili bir qattiq kasal bo'lib, qayta oyoqqa turganida, ahvolini so'raganlarga: "E-e, u kampirni otsang ham o'lmaydi", deganini eshitib o'zini yoqtirmay qolganman. Bugun ko'nglimga yoqadigan so'zni aytsa ham eshitmaganga olib o'tiraverdim. Birdan eshik ochilib, hovliqib Ulan kirib keldi. Uning rosa charchagani xavotirli yuzi, uyqu ko'rmagan qizargan ko'zlaridan sezilib turardi.

— Katta buvim omonmi? — dedi u atrofdagilarga qaramasdan. Chevaralari buvimni shunday atashardi. Uning qovog'i solinib ketibdi. U bilan salomlashib yotgan odamlarning so'zi qulog'iga yetmaydi. "Sog'-omon, kel, yuqoriga chiq" degan so'zlar qulog'iga kirmaydi.

— Katta buvim qayoqda?! — ovozi titrab chiqqan Ulan yig'lab yubordi. Yo'l bo'yi bo'g'zida tiqilgan o'ksik otilib chiqqanday. Boshini onamning ko'ksiga qo'ygan ko'yi biram ho'ngrab yig'laydi.

— Qo'y, aylanay, qo'ya tur... Katta buving tirik, qo'rqma chirog'im!

— E-e, bechora bola, xavotir olgan-da...

— Xavotir olmaganda-chi, shu kampirning etagiga o'ralashib er yetti-ku!

— Uyga kirib kelganda bir qo'ra odamni ko'rib shoshib qolgandir, bechora.

— O'zimizda ham aql yo'q, yong'inga yig'ilganday to'planib olibmiz.

— Voy, men turay, bolalar o'tirsin, yo'ldan charchab kelgandir.

Hamma bizni tinchlantirib, navbatma-navbat ahvol so'rasha ketdi... Opalarimning ko'zlarida yosh qalqib turibdi.

— Bo'ldi, yomon irim qilmanglar! — deb Mutalib mulla hammani tinchlantirdi.

— Kasalmandning ahvoli yaxshilangan shekilli, bekorga vahima qilmanglar. Ilohim, Parvardigor bandasining ko'rar kunini uzaytiraversin! O'tiringlar, qani Yaratganga munojot qilaylik.

Duo o'qilib, fotiha qilingandan so'ng, to'planganlarning ko'pchiligi uy-uyiga tarqala boshladi. Uzoqdan kelgan biz uchun qaytadan dasturxon hozirlanib, choy tayyorlandi.

* * *

Shu yoshga yetguncha Ziyoda buvimning ko'rmagan qiyinchiligi qolmagan, menimcha. XX-asrda xalqning boshidan qanchalar azob-uqubatlar o'tdi. Mening buvim shularning tirik guvohi. Voyaga yetib, navnihol qiz bo'lganda, ocharchilik yillarida qirilib qolgan odamlarni ko'rib, yuragi ezilgan. "Bizni ochlikdan saqlagan Aydarko'lning mayda chavaq baliqlari bo'ldi. Bo'lmasam, ochlikdan tentirab yurgan bechoralardan farqimiz yo'q edi" deya, esga oladi buvim.

Keyin esa xalq orasidagi yaxshilarni it bilan izlab topib surgun qiladigan zamon keldi. Buvimning Sobirjon og'asi savodli bo'lib, shu atrofdagi iqtidorli yoshlarga dars bergan ekan. U nohaq qamoqqa olinib, nom-nishonsiz yo'qotilgan. Ziyoli, bilimdon yigitga "qaysidir yashirin tashkilotga aloqasi bor" degan ayblov qo'yilibdi. Bechoraning ortida izini bosar farzand ham qolmadi. Buvimlar ko'z yoshini ko'l qilib, qanchadan qancha tashkilotlarga borib izladilar. Qancha qonuniy tashkilotlarga ariza yozishdi, bari befoyda ketdi... Mechkay hamda farosatsiz jamiyat arslondek azamatni yutib yuborgandek edi.

Buvim Sulaymon bobom bilan turmush qurib, uch yilgina birga yashashganda, urush boshlanib ketadi. Askarga layoqatli erkaklar qatorida, bobom ham frontga yo'l oladi. Oradan bir yil o'tar-o'tmas "Jangchi Sulaymon Ibrayev Smolensk ostonasidagi jangda qahramonlarcha vafot etdi" degan qora xat kelganda, buvim bor-yo'g'i 22 yoshda ekan. Nurli kunlari zimistonga aylangan navnihol kelinchak-buvimning qo'lida uch yashar o'g'li — bizning otamiz Janisboygina qolgan ekan. Bugungi bir yiqilsa qayta turishi qiyin zaif odamlar bu qiyinchiliklarning hech biriga chidamas edi, menimcha. Yoshlikning qizig'ini ko'rmasdan azoblarga uchragan Ziyoda buvim hayotning azoblaridan yengilmadi. Barmoqday bolasini orqasiga opichlab olib odamlar bilan birga mehnat qildi. Burungi odamlarning g'ayrati kuchli, irodasi mustahkam, suyaklari mahkammi, qaydam, azobli zamonning ko'p xo'rliklariga chidab, ko'zining oqu-qorasi, yolg'izini omon-eson boqib, tarbiyalab, ko'p qatoriga yetkazdi. Mana endi nevara-chevara suyib, ulkan avlodni boshqarib o'tiribdi.

Taqdirning sinovlarini ko‘p ko‘rgan, bir tishlam nonning qadrini bilib o‘sgan buvim bizga har bir narsaga e’tiborli bo‘lish, har bir tiyinni tejamkorlik bilan ishlatishni o‘rgatib tarbiyaladi. Isrofgarchilikni insofsizlik deb tushungani uchun mayda-chuydani ham tejab ishlatmagan biz tugul payg‘ambar yoshidan oshib ketgan ota-onamizni ham urishib berardi. Ba’zan sandiqni ochib yoki ulkan yog‘och shkafni ochib o‘tirib o‘z-o‘ziga vaysab qo‘yardi:

— Mana bular men kelganda o‘n ikkita edi, sina-sina uchtasigina qolibdi, — deya sirtida naqshi bor siri ko‘cha boshlasa ham sifati ketmagan ko‘k tovoqlarni ushlab o‘tirib. — Sog‘ qolganining o‘zini to‘y-to‘maloqqa berib yuborib, keyin o‘rnini siypab topmay o‘tirishadi. Qo‘shnilar so‘rab olgan narsani sanab, hisoblab o‘tirmaydimi odam degan? Mana bu kumush qoshiqlarning ham besh-oltitasi qolibdi. O‘tgan kuni xuddi shunday uch-to‘rt qoshiqni maktabning yonidagi qora xotinning uyida ko‘rdim. Xudo biladi, o‘sha qoshiqlar shu uydan chiqqan buyumlar. “Uyat-ku” deb indamadim. Elning pishiq xotini bo‘lsa hisoblab, bir-birlab sanab sumkaga solib ketardi. Boshqalarga o‘z hissasini yuborib, og‘zini ochib yuradigan faqat bizning uydagilar.

Shundan keyin zerikib o‘tirgan ikki-uchtamizni chaqirib olib, tagida turgan gilamni hikoya qilib beradi.

— Mana buni qaysi bir yili, tovuqlar katagiga sig‘may qatorlashib turgan mo‘lchilik paytida Kulg‘aysha savdogarga uch yuzta tuxum berib sotib olganman. Devorga osadigan narsani yerga solib oyog‘i bilan tepalaydigan zamon bo‘ldi-ku hozir. — “O‘sha eski hangomani boshladi-da” deb, o‘zaro imlab kula boshlaganimizni payqab qolardi: — Ha, nima uchun kulayapsan? Ishonmasang, anavi soqov Mirzaxondan so‘ra, uygacha ko‘tarishib kelgandi. Bu nimasi? O‘zlaring: “Yashayotgan vatanimiz edi-ku deb, mana shu o‘tovga hech bo‘lmasa siniq igna keltirishni bilmaysanlar! Bir narsa aytsak qaqillab kulasizlar. Uydagi bor buyumni odamlarga tarqatib, yo‘qotib tugatasanlar. Boshqorong‘i xotinga o‘xshab tushgacha uxlashni bilasanlar. Tirishib-tirmashib mehnat qilmaysanlar. “Osmondan kigiz yog‘sa, bechoraga patak ham tegmabdi” degani sizlarga aytilgan. Soya-salqindan boshqasini bilmaydigan dangasa-yalqovsanlar.

Tong yorishmasdan turib oladigan qush uyquli buvimning haligi "tushgacha degani" — ertalabki yetti. O'sha paytda hech kim uyg'onmasa: "Juda bemalolchilik bo'lib ketdi-ku, bu qanday yotish! Bu uyda menga choy beradigan odam bormi o'zi?!" deb hassasini do'qillatib naridan-beri yura boshlaydi. Ilojimiz yo'q, hammamiz tura boshlaymiz. Ilojsizlikdan qo'limga bolta olib, qurigan daraxtga qarab yura boshlayman.

Xudoning qudrati, to'qsonning to'rtiga chiqqan buvimning yodidan hech narsa o'chmagan. Rost, keyingi yillari ko'ziga ko'zoynak taqib, hassaga suyanib yuradigan bo'ldi. Lekin so'z-boshi tetik, qulog'i ding.

Qaysidir yili ovulga bir hamkasb do'stimni olib keldim. Choy ichib bo'lgach, tashqariga chiqib ketsam buvim haligi yigitga:

— Kimning bolasisan, qarog'im? — deb so'rabdi.

Do'stim buvimning yoshidan xabardor bo'lgani uchun "Qari odamning qulog'i og'irroq bo'ladi" degan o'y bilan buvimga engashib:

— Ismim Nurg'ali, Almatida nevarangiz Alken bilan birga ishlayman! — debdi bor ovozi bilan.

— Yaxshi, aylanay! — debdi buvim uning bor ovozda baqirganiga hayron qarab. — Ovul qayerda?

— Shimkentning narigi tomonida Tulkibosh degan tuman bor! — deydi yigit yana bor ovozida uyni boshga ko'tarib. — O'sha yerning bolasiman!

"Bechoraning so'zi qanday, o'zi qanday?" deb qarab o'tiradi buvim.

— Omon bo'laylik, el so'raganning aybi yo'q chiqar, chirog'im, urug'ing kim? — degan savol qo'yadi.

— Dulatning ichida janisman buvi, — deydi Nurg'ali "eshitmay qolmasin" degan o'yda.

— E-e, quda bola ekansan-ku, to'ram, — deydi buvim.

Shu payt tashqaridan: "Tahorat qiladigan qumg'on qayda?" degan dadamning ovozi eshitiladi.

Shu payt buvim uyda o'tirib:

— Xudoyim-ey, turibdi-ku o'choqning narigi tomonida! Nega ko'zining oldidagini ko'rmaydi ekan bular?! — deya sekin javob

berganini eshitgan Nurg'ali halidan beri bekorga baqirayotganidan uyalib, tashqariga qochib chiqib ketibdi.

* * *

Kuzning oftobi nur sochib, shu'lasi derazadan yuqori ko'tarilib, uy ichida quyuq soya paydo bo'lgan paytda ichkari xonadan onam chiqdi:

— Buvinglar uyg'ondi, kirib salomlashinglar, — dedi bizga.

Kun bo'yi shu so'zni kutib o'tirsakda, Ulan ikkalamiz sal talmovsirab, keyin ichkari xonaga shoshildik.

Buvimni to'rdagi yog'och karavotga yotqizishgan ekan. Yostig'i tepalatib qo'yilgani bilan boshini ko'tarmay, yuzini biz tomoga burib yotibdi. Yonoqlari ho'l bo'lib, ko'zlari kirtayib, judayam ozib ketibdi. Avval yaqinlashgan mening yuzimni zaif qo'llari bilan siypab o'ziga tortib peshonamdan o'pdi, nimadir deb shivirladi, biroq aniq chiqmadi. Faqat "aylanayin" degan so'zi eshitildi. Keyin Ulanni mahkam quchoqlab o'pdi, keyin yoniga o'tqazib sochlaridan siladi. Uning qo'llarini mahkam ushlab, yuborgisi yo'q. Biz bilan birga ichkariga kirgan ota-onam kino ko'rayotgandek qarab turishibdi.

Birdan Ulan shang'illab so'zlay boshladi:

— Bu nima qilganingiz, buvi? — dedi u xafa bo'lgandek so'zlab. — Ko'rmagan azobingiz oz, shuncha narsaga chidab kelib, rohatlanib dam oladigan paytingizda bu nimasi? Nevaralaringizni boqib o'stirdingiz, chevaralaringizning qizig'ini ko'rib kelasiz, endi evaraga yetganda cho'kib qolganingiz nimasi? Yoki bu quvonchli xabarni sizga hech kim aytmadimi?

Bunday yangilikdan bexabar hammamiz bir-birimizga qarab turardik.

— Ha, bizning uydagi chevara kelinning oyog'i og'ir, — dedi Ulan so'zini davom ettirib.

— Xudo xohlasa, o'sha kichkintoyimizni ham o'z qo'lingiz bilan beshikka solasiz, eshitayapsizmi, katta buvi? Ungacha sizni qancha shoshsangiz ham hech qayoqqa yubormaymiz!

Ulanning keyingi so'ziga biz jilmayib qo'ydik. Hatto buvim ham kulimsiragandek bo'ldi.

Sal tuzalganday ko'rinsa-da qari odamning qanchaga chidashi noma'lum. Biz tashqariga xavotir og'ushida chiqib ketdik. Opalarim buvimning choyshabi va kiyimlarini almashtirish uchun ichkariga kirib ketdi.

— Bir tomonidan qarilik, ikkinchi tomonda keyingi paytlari dorisini umuman ichmay qo'ydi, — dedi dadam biz so'riga borib o'tirganda. — "Ichmayman!" deydi. "Opa, ichmasangiz bo'lmaydi", desam: "Og'risam og'rib, o'layin" deydi. "Bu Xudoyim mening bor-yo'g'imni unutib ketganga o'xshaydi", deydi zorlanib.

Uy tomondan shovqin eshitildi. Ichkaridagilar notinch bo'lganga o'xshadi. Hammamizning yuragimiz sirqirab, hovliqib ketdik. "Rostdanam tugadimi hammasi?" Yo'q, Oynagul opam og'zi qulog'ida kulimsirab chiqib keldi.

— Nima bo'ldi? — debmiz uchovimiz bir ovozda.

— Buvim kuchga mindi, — dedi u kulimsirab. — "Qani, davleniyamni o'lchanglar! Dorimni topib kelinglar, bugundan boshlab har kuni ichaman", deydi. Ertaga aynib qolmasa, so'zida tursa yaxshi edi. Shunga chuvillashib, xursand bo'lib yotibmiz. Men hozir stateskop va tonometrni olib kelay.

— Ey, Yaratgan egam, o'zing yor bo'l! — dedi dadam shivirlab.

Hammamiz quvonib, hayratlanib, shang'illashib ketdik.

Kechqurun yolg'iz qolganimizda Ulandan:

— Bugun faqat yaxshi xabarlar kuni bo'ldi. Kelin homiladormidi? — deya so'radim.

— Yo'q, hozircha unday yangilik bo'lmay turibdi, — dedi u, zo'rma-zo'raki kulib. — Lekin katta buvimga shunday aytgan durust deb o'yladim. Har bir kuni kechikkan ajalini kutish azobiga aylangan, orzulari tugagan odamning ahvoli qiyin edi. Unday inson o'zini hayotga ruhlantiradigan, hayotning har bir daqiqasidan umid izlaydigan bo'lib qoladi. Tirikchilikdan to'ygan, foniy dunyodan ko'proq boqiy dunyoni ko'p o'ylaydigan buvimga shunday bir turtki kerak edi. "Oldida olinmagan qamal borligini sezsin, shunga talpinsin, hayotiga yangi mazmun bag'ishlansin" deb o'yladim.

Yolg'on gapiradiganlarni kechira olmasam ham jigarimning bu daliliga hech narsa aytolmadim.

* * *

Rostdan ham Ulanning "yangiligi" buvimga yaxshi ta'sir etdi. Ertagisiga u kelinlariga yangi topshiriq berdi: "Yengil hazm bo'ladigan, og'zimda eriydigan yumshoqqina shavla tayyorlab beringlar". Buyruq albatta tezda bajarildi. Dorisini sal kechiktirib bergan kichik kelinini urishib berdi. Ertalab va kechqurun hassasiga suyanib bog' ichida, toza havoda sayr qilishni odat qilib oldi.

Shuningdek, buvim biz yo'lga chiqar kuni "ko'pchilik bilan birga ovqatlanaman" deya xarxasha qildi. Ikki yangam ikki tomonidan qo'ltiqlab ovqatlanadigan xonaga, keng dasturxonning to'riga o'tqazib qo'yishdi. Tagiga ko'rpachani qalin qilib solib, yon-atrofiga bir necha yostiq qo'yishdi.

— Xudoga shukur, o'rim-butog'im, ajdodlarimning oldida qaddimni tutib o'tira olaman, hozircha! — deb qo'ydi o'zicha, biz to'liq yig'ilib bo'lgach hammamizga bir-bir qarab chiqib.

Dasturxonga buvim yoqtiradigan taomlarning hammasi tortildi. Choyning rangini kiritadigan novvot, kunjut, parvarda, rangli qandlar singari shirinliklarning hammasi muhayyo. Hammamiz ovqatlanib o'tiribmiz-u, lekin butun e'tiborimiz to'rda o'tirgan mushtdek qora kampirda: shu nimadir yeb quvvatlansa, choy ichib terlasa, dardi shifo topib sog'ayib ketsa, shundagina hammaning ahvoli yaxshilanib, yov yenga olmaydigandek, go'yo...

Shu paytda qo'shni — Seyitjabbor chol kirib keldi.

— Assalomu aleykuuum! — deya hamma bilan salomlashib, to'rda o'tirgan buvimga ko'zi tushdi: — Voy-bo'o'o', yangamning ahvollari juda yaxshi-ku! — dedi hayratini yashirolmay.

Keyin to'rga yaqin o'tirdi-da:

— Ahvolini so'rab ketay, deb kirgandim, — dedi, xuddi birov: "nima qilib yuribsiz?" deb so'rayotgandek.

— "O'lib qoldimi, yo'qmi, bilishga keldim" deya, rostini aytaver, — deb buvim uni odaticha so'z bilan uzib oldi. — Bekor ovora bo'lma, mendan osonlikcha qutulmaysan. Ertalab anavi mullani ham uyiga qaytarib yubordim. "Men hozircha o'lmayman, sen hech narsadan umidvor bo'lma, uyingga qayt!" dedim. Qalt-qult

etgan turing yomon ekan, mening janozamni kutib yurib, avval o'zing ketib yurma u yoqqa!

Seyitjabbor chol odatdagidek suv ichgan tovuqdek osmonga qarab, chalqiyib xo-xolab kulib oldi-da:

— Voy-bo'o', bolalari kelgach bu kampir quturay deganmi, chetimizdan hammamizni o'ldirib, — dedi. — Sendan qutulsak yer qolar, deysanmi? Yuraver oramizda, onda-sonda hazil-huzil qilib turadigan odam ham kerak.

Qariyalarning hazil so'zlaridan kayfiyatimiz yanada ko'tarilib, havolanib, g'ururlanib ketdik.

— Tuz-nasibam tugamaganga o'xshaydi, chiroqlarim! — dedi buvim dasturxonni yig'ishtirar paytda. — Yashashdan to'yganim bekor ekan. Bola-chaqaning o'rtasida gurunglashib o'tirish ham bir g'animat choq ekan, ajab! Mana shu kunga yetkazgani uchun Allohimga ming marta shukurlar! Astanadagi evara kelinim omon-eson bo'shanib, oyoq-qo'lini bag'riga olsin! Yaratgandan yolvorib, o'tinib o'tiraman. Xudo umr bersa, o'sha chevaramni ko'rmasdan go'rga kirmasman. O'sha farishtaginani beshikka o'z qo'lim bilan belasam bo'ldi, boshqa murod-maqsadim yo'q. Hammamizga o'sha to'yga omon yetish nasib etsin, insholloh! Omiiin!

— Omiiin!

— Aytganingiz kelsin!

— Yuz yoshga kiring, buvijon!

— Ey, to'qson beshga keldi-ku! Shunda nima, yana besh yilgina yashaydimi?

— Voy-bo'o'o', yuz o'n yoshga kirsin!

— Alloh niyatingizga yetkazsin!

Yuzlariga fotiha tortib, qarindoshlar xush-xandon kulimsirab o'rinlaridan tura boshladi. Ulanga qarasam, u yerga qarab o'ylanib o'tiribdi.

* * *

Allohning buyrug'i har doim ham odamlarning orzu-armoni bilan mos kelavermaydi. Buvim evara kelinning homiladorligiga ishonib, har tongni umid bilan qarshilab yana yetti oy hayot kechirdi. U dunyodan o'tganda, "Eh, avval qancha azob tortsa-da, um-

rining so'nggi paytlari og'rimasdan-sirqamasdan, charchab-horimay yarqirab hayot kechirdi, yorug'lik!" deya, odamlar hurmat bilan yodga olib, hayratlanib yurishdi. Buvimning yuzlarida umid shu'lasi jilvalanib, hayotga degan xushtorlik shabadasi esib, o'ziga chorlagan orzu, kelajak sari yetaklagan baxt nima ekanligini faqatgina biz bilardik.

Avvalboshda shunchaki aytilsa-da, farishtalarning qulog'iga chalingan bo'lsa kerak, Ulanning haligi bexosdan aytgan gapidan so'ng oradan ikki oy o'tib, Astanadagi evara kelin homilador bo'libdi. Afsuski, buvimga chevarasining dunyoga kelganini ko'rish nasib etmadi. "Hoy, kelinning sog'ligi yaxshimikin? Vaqti-soati kelmadimi?! Mening hisobim bo'yicha bo'shanar payti bo'ldi-ku... Xabarlashib ko'rsanglar-chi!" deya, qayta-qayta so'rab yurib... bir kun ichida rixlatga ravona bo'ldi. "Bola-chaqam meni oz boqqani yo'q. Ularga hadeb og'irligimni solaverganim yaxshimas", degandek, "sal mazam bo'lmay turibdi, birpas mizg'ib olay" deya, yotganicha qayta uyg'onmabdi. Sho'rlik, tush ko'rganmikin? Balki tushida butkul avlodini ko'rgandir, ular bilan suhbatlashib, chevarasini beshikka belab, odamlarning"qutlug' bo'lsiniga" quvonib, hayajonlanib, "Ey, Yaratgan Egam, endi omonatingni olaversang ham roziman!" deya, ko'ngli taskin topib, mangu uyquga ketgandir.

To'qson besh yosh buvimning orzu qilgan yoshi emas.

U namoz o'qiganda, duo, fotiha qilganda har doim yoshlarga omonlik, obro', uzoq umr tilardi. "Ey, qudrati kuchli Xudoyim, olsang bolalardan avval ol, ulardan so'ng qoldirib, qayg'u-hasrat chektirma!" deb iltijo qilardi. Buvimning o'z qo'lida bo'lsa, shu uzoq umrining yarmini yoshgina qazo qilgan to'ng'ich nevarasiga yoki har ikki kunda qirchinidan qiyilib yotgan yoshlarga o'ylanmasdan ulashgan bo'lardi, bunga ishonchim komil! Aslida bu olamda hayot qonuniga qarshi kuch yo'q. Qurayning qachon sinishi, kimning qachon o'lishi yolg'iz Allohimga ayon!

"Bolang bo'lsa — bahong ko'tariladi, qizing bo'lsa — qadring ortadi, nevarang bo'lsa — nasibang ko'payadi" — der edi buvim. Evara-chevara suygan, piri badavlat qariyalarning hurmati, e'tibori, qadr-qimmati judayam yuksak bo'lsa, ajab emas. "Inson umrining mazmuni — farzandlarida" degan so'z ayni haqiqat. Tuz-nasib-

angni shirin qiladigan ham, davru-davroningni mazmunli etadigan ham farzandlar baxt-u kamolini ko'rish ekan-da!

Buvim qazo qilganda uzoq yillar soya solib turgan alp teragimiz yiqilgandek, taqdirning ayovsiz bo'ron, dovullarida yalang'och, yolg'iz, qo'rg'onsiz qolgandek sezdik o'zimizni. Ulanni umuman tinchlantirib bo'lmadi. Hech kimga quloq solmasdan ezilib-ezilib rosa yig'ladi. Astanada birga ishlaydigan hamkasb do'stlari uni ovutmoqchi bo'lib: "Ey, osharini oshab, yasharini yashagan buvingning armoni yo'qdir?! Kim ham to'qson besh yil yashabdi deysan? U kishining o'limi — to'yi emasmi? Sal ertaroq bilganimizda, maxsus ansambl olib borib to'ylar edik!" deya hazillashishibdi. Ulan bunga o'pkalab, bir necha kun gaplashmay qo'yibdi.

Ovul sirtidagi eski qabristonda yangi paydo bo'lgan qabrning tuprog'i qurib, esdalik tosh o'rnatilgan kuni bu yorug' dunyo eshigini ochib yangi chaqaloq tug'ildi. Ulan may oyining o'rtasida tug'ilgan qizchasini "Ko'rkam" deb atadi. Bu butun olam yasharib-yangilanib, dalalar yam-yashil libosga burkangan, haqiqatdan ko'rkam fasl edi. Ariq-jo'yaklarda suvlar shildirab, o'tgan yili ekin maydonining o'rtasida qo'riqchi kiyimini kiyib turgan novdaning o'zi ko'karib, yer betidagi jami hasharotlar qimirlab-jimirlay boshlagan palla. Qushlar ham bu yorug' dunyoga kuy-qo'shiqlarini bag'ishlab, hayot bozori qaynay boshlagan chog'.

Hayot davom etardi...

MADINA OMAROVA

(1975)

Madina Omarova 1975-yilning 12-fevralida Almati viloyatining Jambul tumanidagi Ungirtas ovulida tug'ilgan.

1996-yilda Abay nomidagi Almati davlat universitetini tamomlagan. Asarlari matbuotda va to'plamlarda chop etilgan. "Ona g'umir" kitobi muallifi.

MENING QAHRAMON CHEVARAM

Birgina xona. To'shak, to'shakning bosh tomonida tumbochka. Unda chapga qarab surat turibdi. Xona ichida ivirsib bir kampir yuribdi. U juda qarib qolgan, juda oriq. Boshiga o'ragan oppoq ro'moli, ko'ylagi ustidan kiygan qalingina jemperi kichkina yuzini yanada kichraytirib, to'sib qo'ygan. Kampir tinmay gapiradi. Goh turadi, goh o'tiradi...

— O'n to'rt farzand ko'rdim. Bittasi qoldi. Bunga kim aybdor? Onam hammasi niyatga bog'liq derdi. Mening nima yozug'im bor edi. O'sha vaqtlarda hozirgidek balnisa yo'q. To'lg'oq tutib qoldi, deb aytishga oila boshlig'idan uyalaman. Boshida shunday bo'ldi. Besh bolagacha. "Tezak terib kelman", deb qopni yelkamga tashlab ketaman, biydek dalaga borib tug'ib, etagimga o'rab uyga olib kelaman. Aniq tentaklik-ku bu. Qadrdon eringdan uyalib... Shunda chaqaloq vaqtida o'lib qolsa-da itvachchalar. Yo'q. Shirin qiliqlarini ko'rsatib, qiziqlarini ko'rsatib o'ladi. Yo'q. Qizlarning hammasi chilla to'lmasdan o'ldi. To'rttamidi?.. qizlar oz edi. Qizlar yashamadi. O'g'illar. La'nati ochlik, kattalari ocharchilik yillarida, o'rtanchalari urushda. Balog'atga yetmagan uchtasi omon qoldi. Shukur... Shukur, Shukur deyman. Ular ham hozir yo'q. Jonsibirdan boshqasi. Jonsibir o'zi bilan o'zi. Kichikligidan xulqi shunaqaydi. Xuddi begonaning o'g'liga o'xshardi. Milisada ishladi,

shuning uchunmi, mehri yo'q, toshbag'ir. Yoki toshbag'irligidan milisa bo'ldimi? U ham chol. Bu yil saksonga to'ladi.

Anavi qiz qayerlarda yuribdi? Ertadan-kechgacha ko'chada, ovqat ichmasmikan, dam olmasmikan? Nozikkina bo'lib olib, tentirashdan qo'li bo'shamaydi. Mobodo, yiqilib qolsam, hech kim bilmasdan qoladi. Kimga kerak bunday hayot? Inson farzandi bo'lgandan keyin bir ma'no, mazmun bo'lishi kerak-ku. Birovning choyini qaynatib, ovqatini pishirib o'tirmasang, sening betinim ishingdan ne foyda? Bundan ko'ra o'lib qolsam. Lekin o'la olmayman...

Uzzukun shunday termilib o'tiraman. Qiz qachon kelarkin, deb ko'zim to'rt bo'ladi. U kelmaydi. Aljigan qoqvosh kampirni nima qiladi? Kelishi bilan yuvinib oladi-da, telefonga tikilib o'tiraveradi. Aylanib-o'rgilib choyingni ich deyman, ovqatingni ich deyman. Qaramaydi. Lekin kecha... Shundan keyin behalovat bo'lyapman. Kecha afti-angori aftodahol kirib keldi. Har kungidek karavotga yuztuban asta yotmadi. Zilzila bo'lgandek "gurs" etib tushdi. Bemalol o'tirgandim, yuragim "shuv" etib ketdi. Keyin "buvi, buvi" deb rosa yig'ladi. Jonim chiqib ketayin dedi. "Kim, kim seni kim xafa qildi", deyman beto'xtov. "Qo'lida o'layin itning bolasining! Mening Aynashimni hech kim xafa qilmaydi, xafa qilib ko'rsin..." Bir parcha etligidan o'zim boqdim. Voy, uni onasi tug'ishi bilan tashlab ketgan-ku. Bir kuni qo'lida yo'rgaklangan bola bilan kirib keldi. Yomon xayolim yo'q, negadir o'qituvchi bo'lsa kerak dedim. Yuzi yorqin, istarasi issiqqina kelinchak. Muallimlar uylarga kirib, maktabga bolalarni yozar edi-ku... Qo'lidagi bolani "Buvi, bu sizning chevarangiz", deb karavotga yotqizib qo'ydi. Keyin chiqib ketdi. Gohida o'sha kelinning es-hushi joyidami deb o'ylanib qolaman. Aqli butunligiga shubham bor. Gumonsirashga haqim bor. Aks holda do'mboqqina norasidani tashlab ketadimi?.. Lekin yomonlagim kelmaydi. Har holda Aynashimning onasi-ku! Olib qoldim. Bolalarim qarshi bo'ldi. Hech biri olib ketishni xohlamadi. Politsiya chaqirib, detdomga o'tkazmoqchi bo'lishdi. Men turib oldim. "Avval meni o'ldiringlar, keyin olib ketaveringlar". Keyin nima qilganini bilmayman. Hujjat olib kelib berishdi. Familiyasi

bobosiniki. O'zimning qizim. Mana o'sdi. Aylanib ketayin. Jussasi kichkina. Ko'p tentiraydi. Bu yaxshi emas. Kecha tun bo'yi yig'ladi. Ikki ko'zidan yosh oqayapti, oqayapti. Suv ham ichmaydi. Bu yoshlar qayerdan kelyapti?

Men ham charchab ketdim. Turli xil xayollar keladi. Cholim esimga tushdi. Bobosi-ku. Meni ko'p urardi. Har kim o'zining boshidan kechganini aytadi. "Kimdir seni urdimi?" Lom-mim demaydi. Qiz bola, katta shaharda yolg'iz. Ancha vaqt o'tgandan keyin: "Buvi, menga uylanish niyati yo'q ekan", dedi. "Kim?" Yigiti borini bilardim. Lekin uyga olib kelmagan. "Nima bo'lgan ekan?" Hech narsani anglay olmadim. "Homilasi bormikan?" Shubha-gumonlarning turli ko'chasiga kirib-chiqdim. "Ey, alvasti, tushuntirib aytsangchi endi. Kuydirib bo'lding-ku!" Rosa savalagim keldi. "Mayli, uylanmasa, uylanmasin. Menga ham baribir". Bu so'zlarni aytganda xona olov ichida qolgandek bo'ldi. Isib ketdim. Ter paydo bo'ldi. Aynashim og'zidan o't sachratgan ajdarhodek ko'rindi. Vajohati yomon. Begona qarash. "Qanjiq", demoqchi bo'ldim. Lekin aytolmadim. Niholdek qizga qanday qilib aytaman. Bo'g'zimda tiqilib qolaverdi bu so'z. U shashtidan qaytmadi. "Aytilmagan so'zning otasi o'lur", deyisharmidi. Bilmayman, ikkimiz bir qarorga kelolmadik. O'rtamizda devor paydo bo'lgandek. Men shu qizni emizgandim. O'zi bir parchagina, big'illab yig'laydi. Do'konning soxta suti qornini og'ritadi, bilaman. Iloji yo'qlikdan ko'kragimni og'ziga solaman, so'rib yotib tinchlanardi, uxlab qolardi. Kichkina, lekin sho'x edi. Men nega o'z farzandimni o'zim yomonlab o'tiribman. Qulunim mening, mendan boshqa hech kimi yo'q, keng dunyoda yolg'iz. Qaysi noinsof polaponimni xafa qilgan ekan? Kokillari silkinib, "buvi, buvi, besh oldim" deb ikki ko'zi yulduzdek porlab kelar edi maktabdan. Hozir bo'yi yetgan. Sochini yoyib yuborgan. Yig'ib yurgin deyman. Quloq solmaydi. Avval mening sochim qanday edi? Ipakdek shildirardi. Xudo sochni yoydirmasin. Eng oxirgi marta erim o'lganda yoydim. Bechora joni qiynalib, uzoq kasal bo'lib yotdi. Ovqat yeyolmaydi. Ninadek bo'lib qoldi. Soqol-mo'yloviga qo'l tekkizmadi. Do'xtirga ham bormadi tentak. Fe'l-atvori yomon edi marhumning. Qaroqchi bo'ldi, xalq mulkiga

ko‘p xiyonat qildi. Shuning uchun Alloh jonini qiynab olgandek. Lekin poklanib ketdi. Past bo‘yli, chayir, miqti kishi edi.

Xalq munchoqdek bo‘lib ovul ichida, iliq uyda, chiroyli hovli-joyda o‘tiradi. Havas qilasan. Zamon o‘zgargach, ayollar ochilib-sochildi. Turli-tuman kiynadi. Havas, havas...

Biz esa biydek dalada qo‘y boqamiz. Erim o‘g‘ri, ovulning molini ba’zan tunda haydab olib ketadi. Qirg‘izlarga o‘tkazib keladi. Kim yomon? Albatta, biz yomon. Hamma yomon ko‘radi. Aniq dalili bo‘lmasa ham, bilardi. Mening “Bo‘ldi bas!” deb aytishga jur’atim yetmasdi. Qo‘rqaman. Judayam rashkchi. Menga kim qarardi? Qishda yuzlarim, qo‘llarim yorilib moldan bo‘shamasam, yozda xalq borib ko‘rmagan, saqov tog‘larning orasida bizlardan boshqa hech kim bo‘lmasa. Bolalar internatda. Ko‘rishsak, bir-birimizga begonadekmiz. Ular toshbag‘ir, mehrsiz bo‘lmasdan kim bo‘lardi? Otasi tirik, onasi tirik holda yetimdek yashashdi. Unga nima? O‘lib ketdi. Birovning qo‘lida o‘sgan, otani ota, onani ona deb bilmaydigan, obdon yiroqlashib ketgan farzandning qaytimini men ko‘rdim. Nimasini aytaman?..

Nevaralarim yaxshi. Hammasi yaxshi. Kelishadi, yordamlashadi. Rahmat. Faqat qizga hech biri qaramadi. “Agar mehribonlik ko‘rsatsam, meni otasi deb o‘ylaydi”, degan fikrda bo‘lishgan. Haqiqatan ham shunday. Mayli, Allohim hammasini ko‘rib-bilib turibdi. Shunday qilib erim o‘ldi-ketdi. Lekin yomon qiynaldi. Esimdan chiqmaydi. “Meni olgin, qiynalganini ko‘rmayin”, deb yalindim. O‘zim-ku. Cholga sezdirmadim. Sarg‘ayib uzoq yotdi. Nima qilsin endi bechora.

Bu qiz juda kechikdi, a. Qayerda yurgan ekan? Niholdek qizning ham azobi bor. Faqat do‘xtirga ketib qolmagan bo‘lsa edi. Bu ham o‘zicha baxtsiz. Yoki onamning qarg‘ishi qizlarni badbaxt qilganmikan? Faqat shu qiz yashab qolgandi. Lekin uning ham ahvoli...

Bir vaqtlar onam meni qarg‘adi... bizning zamonda beshikdayoq unashtirib qo‘yishardi. Bu menda ham bo‘lgan ekan. Otam qalin molini olib, yeb bo‘lgan. Men o‘n olti yoshga kelganimda kelin bo‘lishim kerak edi. To‘y kuni ham belgilandi. To‘y taraddudi bo‘layotgan chog‘da bir kuni kechqurun bu kelib meni olib qochib ketdi. Qaroqchidan nima so‘raysan? Shunday bo‘ldi. Xudo tepamizdan urdi. Otam qalin molini qaytarolmadi, qashshoq edi.

Qizlardan men yolg'iz edim. "Olib qochdi" deb shunchaki aytishgandi. O'zim chiqdim, o'zim qochib ketdim. Otamga "olib qochdi" deb aytishgan. Yuragi yorilib ketmasin degandir. Lekin onam bildi. Duoibad qildi, lekin ayb ulardami? Oilamni, ota-onani zorlatib, kelin bo'lib tushadigan uyni sharmanda qilib "qochib ketishim"-ga nima sababchi bo'ldi? Haligacha tushunmayman. Aldandimmi, sehrlashdimi? Otga mindim-da ketdim. Shu vaqtda "qizil"lar kelib, vaziyat o'zgardi va hamma o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoldi. Aks holda sichqonning iniga kirsak ham tinch qo'ymasdi. Qudalar xun to'latishga ham ulgurmasdan har tomonga tarqalib ketishdi. Otam qani, onam qani, jigarlarim qayerda? Xitoyga o'tib ketishayotganda otib tashlashgan deyishdi. Men o'zim bilan ovora bo'lib qolaverdim. Mana shunday kunlarni ko'rishim kerak ekan-da, aks holda meni ham boyning kelini deb tinch qo'ymasdi. Qulsari ikkimiz daydib yurib-yurib, oxiri jamoa xo'jaligiga kirdik. Lekin dashtga o'rganib qolganligi sababli u xo'jalikda ishlay olmadi. Yana zo'ravonlik, tortib olish, o'g'rilab sotib yuborish boshlandi. Bunga sho'ro hukumati yo'l bermasdi. Mol boqish bilan shug'ullandik. Ovulga qaytmadik. Marhumning diydasi qattiq edi. Bolaga mehri yo'q, qarindoshga xayrixoh emasdi. U vafot etgach, bolalar ovulga olib keldi, keyin shaharga ko'chdik. Hech narsa ko'rmagandek. Xalqning ichidamiz.

Faqat bu qiz...

Tashqaridan o'zining kaliti bilan eshikni ochib qiz kirib keldi. Uning yonidan o'tib, xonasiga kirib birdan o'rniga cho'zildi. Kampir uning orqasidan kirdi.

— Yo'q, omon! Hammasi yaxshi ekan, yaxshi ekan. Aylanayin, aqli ko'p o'zining. Qo'rqma, bolam, qo'rqma. "Halolning yori Xudo". Ko'p o'tmasdan o'sib voyaga yetasanlar. Hademay, u ham kokilini silkitib, "oyijon, men yana besh baho oldim", deb uyga shodlanib kiradi. Bundan ortiq baxt yo'q bizga, bo'talog'im. Hozir dam olgin. Orom ol, mening qahramon qizim. Mening qahramon chevaram. Orom ol.

Qiz unga parvo qilmaydi. Bosh tomondagi tumbochkada chapga qarab turgan suratni qo'liga oladi. Bu — buvisining surati. Suratga uzoq termulib qaraydi. Qornini silab kulimsiraydi. Keyin chiroqni o'chirib, uyquga ketadi.

QANAG‘AT ABILQAYIR

(1976)

Qanag‘at Abilqayir — “Serper” yoshlar davlat mukofoti, Bauirjon Momishuli nomidagi “Botir shapagati” medalining, “Mustaqillikning 30 yilligi” medalining sovrindori.

“Qog‘oz shahar”, “Unut meni”, “Qo‘shtirnoq ichidagi hikoya”, “Tilanchining milliarder do‘sti”, “Farishtalar yo‘q joyda” kitoblari muallifi.

HAMMASINI BASEKEM BILADI

Bizning qishlog‘imiz unchalik ham katta emas. Lekin mol-hol juda ko‘p. Eng qizig‘i, bu yerdagi jonivorlar, butun mulk, odamlar panoh topgan uylar hammasi Basekemniki. Oshirib aytyapti, demang, ostingizga bir ot bitsa, bir kun minasizmi, minmaysizmi, Basekem ko‘rdi degani — oldi degani. Ustingizga yaxshi chopon kiydingizmi, Basekem ko‘rmaguncha sizniki. Sizni sog‘inib, Basekem uyingizga bosh suqib qolsa, “boshqalarga ko‘z bo‘lsin” deb eng totli taomingizni oldiga tortasiz. Yoqmasa qolaveradi — bola-chaqangizning nasibasi. Agar yoqsa, tamomsiz. Basekem “to‘ydim” demaguncha taom olib yugurasiz. Men “Basekemning qornini to‘ydiraman”, deb rosa yoyilib ketdim-ku, deyman. Istasangiz, shu odamning boshidan o‘tgan bir voqeani bayon qilib beraman.

Tong oqarib, yorishay deb qolgan kez edi. “Chivin-pashsha uyg‘onguncha, sigirlarni sog‘ib, mol-jonni dalaga jo‘nataylik”, deb jonsarak bo‘lar edik. Maldiboyning xotini butun qishloqni chaqirib Basekemnikiga boshlab kelsa bo‘ladimi. Uning ovozidan uyg‘onib ketib boshini ko‘targandek, tog‘ yelkasida quyosh charaqlab turardi. “Bugun chiqsammikin yo birpas shunday tursammikin?” deya

qochib tushib ketishga hozirdek edi. Bu kabi baqir-chaqirlarning ko'pini ko'rgan Basekem sir beradigan emas. Basekemnikiga halloslab borgan Maldiboyning xotinidan eshitganimiz — eri uch kundan beri uyga kelmagan. "Basekem bilan hammamiz qishloqqa tuz olib kelamiz" deb ketganicha uyga kelmabdi.

Basekem kunbotarga Sandiboy bilan Qaldiboyni, kunchiqarga Barliboy bilan Jarliboyni, shimolga Mandiboy bilan Mang'iboyni, janubga esa Bakirga qo'shib meni otlantirdi. Biz qishloqdan uzoqlashmay turiboq bir ustixonga duch keldik. Ikkimiz ham yaxshi bilardik: bu — Maldiboyning ayoli ortidan kelgan tulporning suyagi. Bir paytlar Basekem og'am unga qattiq qiziqib qolgan. Tulporning atrofidan ketolmay ancha vaqt yurgan. Odatiga ko'ra, bir-ikki qo'lga o'rgatganday bo'lib edi, Basekemning fe'l-atvoridan xabardor bo'lmagan yosh kelin uni tushuna qolmadi. "Tinkasi qurigan Basekem endi nima o'ylab topar ekan?", deb barimiz jim turganimizda u bir gapni ma'lum qildi. O'zining aytishicha, jonivorga mehri tushib, bir ko'rib qaytayin-chi, deb yem olib kelgan ekan, tulpor Basekemga qarab ichagi uzilguday kulibdi...

So'ng: "Yemingni boshimga uramanmi, Baseke. Undan ko'ra menga bir uyur baytal bersang-chi", debdi... Bu so'zni ko'ngliga qattiq olgan Basekem bir necha kun uyidan chiqmay yotib oldi. Oxiri "Nima qilsak ko'nglini topamiz?" deb hayronlanib yurgan jo'ralaridan "Zamonoxirning moli elimizga yomonlik olib keladi. Meni desanglar, ko'zdan yo'qotinglar", deb salom yo'llabdi. Ko'pchilik bo'lsak ham, Basekemga qarshi kelib ola olmay yuramizmi, deb tulporni ovul tashqarisiga olib chiqdik. Bizni odam qatorida ko'rmadi, chog'i deyman. U esa "Aytarimni Basekelaringga aytdim, senlar mening tengim emassanlar", deb o'yladimi, "Hech bir zamonda hayvon so'zlaganmi", deb bir-birimizga hayron pichirlab katta umid bilan unga yaqinlashib, agar u "Yigitlar, qo'yib yubora bersanglar nima qiladi?", deb qolsa, baribir yengilmaslikka urindik. Holdan toydirib quvganimizda ham, qoshida qancha turganimizda ham, ko'zimiz qiyib bo'g'izlaganimizda ham nima bo'lganiga hayron bo'lgan ot bir og'iz so'z qotmadi.

Shundan keyin ikki-uch kun o'tganda yo'q bo'lib ketgan sakkizimiz qishloq tashqarisida uchrashdik. Sandiboylar Bakirdan ol-

dingi yili yo'qolib ketgan jaydari itining suyagini topganini aytdi. Ahmoq it go'sht bersa ham, sut bersa ham Basekemga ko'nmay, burungi egasiga ergashib kela bergan. Bitini siqib qonini yalab o'tirgan Bakirda itga beradigan nima bor deysan, sichqon ovlab ketgan Oqtus qaytib kelmadi. Biz rosa urinib suyaklarni topib yerdan yetti quyon topganday bo'lib Basekemga ko'rsatganmiz. U nari-beri qaragan bo'ldi-da, og'ziga tuzuk so'z kelmadimi, "Adashib yurgan qaysidir hayvonni ilon chaqib olibdi-da", dedi-qo'ydi. "Dekabr oyining boshida ilon nima qiladi? Sizning yordamchingiz unga ichiga igna tiqilgan qazi tashlabdi", deyishimiz kerak edi-yu, uyaldik... Xo'sh, Barliboylarni desangiz, o'tgan yili xuddi bizdek ov qilib yurgan Telimboyning suyaklariga yo'liqibdi. Shu desangiz, Telimboy siz bilan bizdek emasdi. Basekemga uning og'zini ochishi ham, nafas olishi ham, elga manzurligi-yu, unga gapirgani ham yoqmasdi. "Mening bilganimni bilsang yetadi, qolgani behuda", derdi unga Basekem. "Biznikiga o'xshagan boshqa qishloqlarda butun xalq qanaqa muammosi bo'lsa o'zi yechar ekan", der edi Telimboy. "Sen unda o'sha qishloqlarga borib, biror narsa o'rganib kel-chi", deb barimizning ko'z o'ngimizda Telekenni (Telimboyning laqabi) otga mingazib, xaltasiga aqcha solib, bir kunda chiqarib yubordi. "Ertaga kelaman", deb Telimboy ayta olmadi. "Qachon kelasan?" deb biz so'ray olmadik. "Joning omon bo'lsa, bir kuni ishni bitirib kelasan", dedi Basekem.

Uzun so'zning qisqasi, yelkalarimiz osilib, qishloqqa qaytdik. Butun yurt bizni kutib turgan ekan. Birortasi qolmay to'plandi. "Topa olmadik", dedik biz. "Bo'lmasa-chi, topa olmaysanlar. Buni o'zlaring ham bilib turib ketgansanlar", dedi ko'pchilik. "Endi nima qilsak bo'ladi?", degan javobi yo'q so'roqni har kim o'z boshidan bir kechirib, hammamiz lol bo'lib garangsib turganimizda itlar hurib ketdi. Shunday mening tovuqxonam oldida yetti-sakkiz tovuq qaqag'lab tinimsiz aylanib qoldi-ku.

Tovuqlar qanotini tinmay qoqib, qo'ngani joy topolmay osmonga uchib ketyapti. "Nima bo'lyapti, ko'raylik-chi", deb hammamiz to'pimiz bilan oldinga intildik. Borsak, sizlarga yolg'on, bizga chin, Maldiboy og'am tovuqxonaning to'rida chalqancha yotib-

di. Ko'rinishidan onasining ortidan ketib qolganiga ancha vaqt bo'lganga o'xshardi.

Ayollar yig'ladi. Keyin "Bizning yig'laganimiz kimga kerak?", deb o'zlari bilib jim bo'lishdi. Saldan keyin nafas olmayotganini ko'ribmi, yana piqillab yig'lay boshladi. "Bu qishloqda yig'lamay yurgan kim bor? Bo'ldi, bas qilinglar" deb yana bir-birlarini yupatishdi. Bularning barini bir chetga qo'yib turing, bular oddiy holat, eng qiyini bu qazoni Basekemga qanday yetkazamiz? "Men topib oldim", deyishga hech kim botinolmaydi, uni yaxshi bilasizlar. "Biz topib oldik", deb tovuqlar bilan itlarning aytishi aqlga sig'maydi. Buni ham yaxshi bilasizlar, deyman. Bosh obdon qotdi. Kun o'ylandik, tun o'ylandik, hech chora topa olmadik. Oxiri, shu qishloqdagi yolg'iz maktabda mehnat fanidan dars berib yurgan muallim bola: "Men bir multfilm ko'rganman. Oqsoq qulon haqida... shunda xonga do'mbira bilan eshittiradi. Biz ham shunday qilaylik-chi".

Barimiz rosa quvonib ketdik. Lekin bu qishloqda do'mbira topish oyni yuzidan o'pib tushishdan ham qiyin edi. Basekem "baribir hech kim chala olmaydi, eskilik qoldig'i" deb qo'biz-sibizg'a, surnaylarni, naylarning barini qoplab boshqa yoqqa jo'natib yuborgan vaqtlari bo'lgandi.

Shunday qilib, el ichi emasmi, bir joydan do'mbira topildi. Yolg'izgina ipini dingillatib, uni hammamiz qo'lga olib chiqqanimiz bilan "ziyolimiz", deb kekkayganimiz bilan "men chalaman", degan hech kim chiqmadi. "Sen chal, men chalmayman", bilan tag'in bir kun o'tib, kelasi kuni eng ulug'imiz do'mbira, qolganlarimiz nog'ora ko'tarib, Basekemning uyiga bordik. Basekem eshik oldiga chiqqanidan do'mbirani ting'irlatib, nog'oralarimizni tirnog'imiz singaniga qaramay savalab tura berdik. Aslini olganda, to'g'risini aytsam, Basekemda kuy tinglaydigan madaniyat yo bir kuyni tushunib his qiladigan tuyg'u bor deysizmi? Oramizda do'mbira chala oladigan bir odam yo'qligini-ku ko'rdingiz. Ko'p o'tmay Basekemning o'zi tang'ir-tung'irni tinchitdi. "Cho za mambetstvo? Ashqal-dashqallaringni muzeyga topshiradigan vaqtlaring kelibdi shekilli. Eh senlarmi, senlar...", deb chuqur uf tortdi. Keyin

biz ketganimizdan beri ham shovqini to‘xtamagan tovuqxonaga qarab yurdi.

“Bu o‘limga Basekemdan boshqa hech kim sababchi emas”, degan bir o‘y ko‘nglimizda gul ocha boshlaydi. O‘sha gulning isi va qiyofasi qalbimizni eritdi, har qadamimizda haqiqat tantana qila boshladi. Basekem Maldiboyga u tomondan, bu tomondan qaradi. Keyin “Bu kim o‘zi?” deb bizga burildi. U juda-a yaxshi tanidi. Umr bo‘yi kiyib yurgan eskirgan jigarrang qo‘ng‘ir shimi va ko‘k chakmoni ham “Bu Maldiboy” deb jaranglatib aytib turibdi. Basekem uni eshitsin-da. U “Bular ne der ekan?”, deb bizga o‘girildi. Qancha joyda qilg‘iligining ustidan chiqsangiz ham sirg‘alib chiqib ketadigan Basekem “O‘zingiz yozgan qonun nima deydi-yu, siz nima deb turibsiz?” desangiz, “Unda qonunni o‘zgartirish kerak ekan”, deydi, bu safar ham o‘zini tutqazishni istamay. Yolg‘iz birimiz aytishga yuragimiz betlamay, “Bu Maldiboy” deb bir ovozdan hammamiz baqirdik. “Qo‘yinglar qayerdagi gapni! Maldiboy bo‘lsa bu yerda nima qilib yotibdi? Men uni tuzga yuborib edim-ku”, dedi Basekem. Nima desin endi. O‘sha orada “Tuzi qursin, tuzsiz ham kunimizni ko‘rardik. Boyimning omon yurgani davlatim edi”, deb Kulpesh faryod chekdi. “Bekorchi gaplarni qo‘y, Kulpesh. Sen bilasanmi, men bilamanmi, bu Maldiboy emas. Maldiboy kelishgan gavdali yigit-ku!” dedi Basekem. “Kulpesh Maldiboyni yaxshi tanisa kerak. Nega deganda yigirma yil birga yashashdi, bir qozondan ovqat yeyishdi, bir to‘shakda yotishdi...” deb o‘sha qishloqning ulug‘laridan biri so‘z boshlab edi, “Qo‘ysangchi-ey, yo‘q yerdan gap qo‘shmay. Men yaxshi bilaman, Maldiboy halol yigit. U hech qachon tovuq qo‘raga kirib o‘lmaydi”, deb Basekem cho‘rt kesdi. Ana endi biroving bir nima deb ko‘r-chi. Endigina ko‘ngilda kurtak yozgan gul so‘lidi, joy topa olmay oyoq ostini makon qilgan haqiqatning ham ahvoli tang bo‘la boshladi. “Hech bo‘lmasa bu gal jinoyatiga iqror bo‘lar”, deb umidlanib turganimizda Basekem tag‘in qo‘limizdan chiqib ketayotgan edi. U menga ma’noli qarab qo‘ydi-da, “Sen nega qo‘rangga qishloqdagilarning suyagini yig‘ib yuribsan? Qani, ustingdan ish qo‘zg‘alishini istamasang, mana buni olib bor-da, ko‘m”, dedi. Keyin olomonga burilib: “Birov o‘ldi ekan deb, hammangning o‘lging kelyaptimi? Boring, ishlaringni

qilinglar! Nimasi bu!" deb haydab soldi. Olomon shunchaki tarqalib ketishdan ma'ni topa olmay, aytib tashlay desa, tuzuk-quruq biror so'z og'izlariga kelmay lunji qimirlamadi. "Bo'pti endi", deb ketaverayin desa, har kuni birov o'lganda ham "Bu nega bunday bo'ldi?", deydigan Basekem yo'q. Qisqasi, hayron bo'ladigan yeri yo'q. Ko'z yumganiga uch-to'rt kun bo'lsa-da, Maldiboyning o'zi tirilib o'rnidan turdi. Ayollarning bir nechtasi dovdirab qoldi, yuragi zaiflari narigi dunyoga ravona bo'lishdi. Boshqa dinga kirib ulgurmaganlari "Allalap", "O, bojeni", qabul qilmaganlari esa "O, may gad..." deb yoqalarini ushladi. Maldiboy bo'lsa "Endi mendan nima istaysan?" deganday lapanglab yurib bordi-da, Basekemning yoqasidan ushlab silkib-silkib yubordi va "Men Maldiboyman" deb bor ovozi bilan hayqiriq soldi. Qishloqning yonidagi tog' esa bundan quvonib ketdimi, Basekemdan suyunchi olganday, "Iye, iye bu Maldiboy" deb takrorlardi. Yana bir dahshatdan omon qolganimizga ko'zimiz yashnab ketdi, tomog'imizga o'ksik tiqilib, "Haqiqat bor ekan-ku", deb atrofimizga sevinib, suyunib, yuzimiz bir qizarib, bo'zarib, mamnun bo'lib, "Endi Basekem nima der ekan?" deb qaraganimizda, marhum Maldiboyning biror harakatiga qovog'i bir qimirlab qo'ymagan Basekem: "Jim bo'l, bachchag'ar! Qanday qilib Maldiboy bo'larkansan? Maldiboyimning sadag'asi ket. Ey, ahmoqlar, sog' bo'linglar! Bu senlarning ko'zlaringga Maldiboy bo'lib ko'rinib turgan shaytonning naq o'zi. Ishonmasanglar, buni Maldiboy tuzdan kelganda o'zidan so'ranglar", dedi-da, to'xtab o'tirmay uyiga qarab ketdi. Umidi singan xalq tog' tomonga "Sen esa quvonib ketganding-a", deganday qaradi. Tog' "Hammayoqni buzguday so'kinib-chinqirayotganding, endi ortingga qaytasanmi?" deganday Maldiboyga qaradi. Maldiboy hech kimga qaramasdan ikki yelkasini bir ko'tardi-da, boyagi yotgan yeriga borib qayta qiyshayib oldi.

GULJON OMONGELDI QIZI

(1976)

Guljon Omongeldi qizi Abay viloyatining Urjar tumanidagi Birinchi May ovulida tug'ilgan. Qozoq milliy universitetini tamomlagan.

Hikoyalari respublika matbuotida, jamoaviy to'plamlarda chop etilgan. "Raushangul" nasriy kitobining (2022) muallifi.

ERTA UZILGAN QO'SHIQ

U paytlar bizlar beg'am-betashvish farishtalar edik. Bir ko'chada o'n chog'li uymiz. Bolalarning yoshi chamasi uch-to'rt yil orasida, o'g'il demay, qiz demay hammamiz birga yuramiz. Guruhimizni mening opam Layli boshlab yuradi. Oq-sariq yuziga yoyilib tushgan sochlari biram yarashardiki! Layli o'jar qiz edi, aytganini qilardik. Hammamiz shunga o'rgangan edik, nima desa, "xo'p-xo'p"lab, ma'qullab turamiz.

Bugun bizlar ko'chamizda konsert qo'ymoqchi bo'ldik. Qizlar tomon sochimizga bantik taqib, ustimizga chiroyli ko'ylaklar kiyib, o'g'il bolalar yuvilaverib-yuvilaverib urinib qolgan futbolka, onalari tizzalarini "manavunday" qilib yamab-yasqagan cholvarlarni kiyib, bizning uyda — soyabon joyda to'plandik. Bir payt xolalarimdan qolgan ko'ylakni beliga bog'lab, oyog'iga bigiz-o'kcha tuflini kiyib Layli sahnaga chiqdi. Katta sahnada turganday gavdasini tik tutib, o'zi bastalagan "kuyni" boshlab yubordi. U qo'shig'ini aytib bo'lgach, navbat bizga kelib, bilgan she'r-ertagimizni biz ham aytib chiqdik. Bizning ijro Layliga yoqmadimi, bilmadim, "bo'ldi, yuringlar, endi suvda cho'milamiz" deb bizni daryo bo'yiga olib ketdi.

Shundan keyin to qorong'i kechgacha suvdan chiqmay, kechga qarab, poda-mol o'rishdan qaytganda uyga qarab yo'l olamiz.

Qorinlar xuddi otamizdan qolgan ishni bitirib kelganday och, onamiz tayyorlab qo'ygan taomlarni ichib-yeb, qalin uyquga bosh qo'yamiz.

Bugun ham uyga kech keldik. Onamizning qovoqlari solingan. Tushunarli... Ba'zan-ba'zan akam (otam demoqchi) ikkovining ovozi ko'tarilib qoladi. Boshqa paytlarda uyning changini chiqarib yuboradigan biz — bolalar bunaqa paytda ichki xonalarda pildirpis bo'lib, jimib qolamiz-da, tovushimizni chiqarmay o'tiramiz. Ba'zan esa bahsning izi janjalga ulanib ketadi. Onamizning shinqillab yig'lagan ovozini eshitsak, nafas olishga ham qo'rqib qolamiz. Bunaqa paytlarda ichimizda faqat Layligina qizarib-bo'rtib, kirib-chiqib yuradi.

Bir kuni Layli odatdagiday hammamizni yig'ib olib, o'rtamizda qo'shiq aytib turgan edi, uy ichida dam olib yotgan akam baqirib berdi:

— Yo'qolasanmi-yo'qmi, ovozing o'chgur!

Layli qo'shig'ini birdan uzdi. Biz, o'tirganlar qo'rqqanimizdan yig'lab yubordik. Layli esa ko'zlari mungga to'lib, o'rnida qotdi-qoldi. Bizlarning kichkinagina yuraklarimiz simillab og'rib, boshimiz shalvirab, pastga qaradik. Alvirab qolganimizni ko'rib, yaxshiyam Laylining chehrasi yorisha qoldi. Uning shu taxlit kulimsirashi bizlarga bulut ostidan kun chiqib kelganday ta'sir qilardi.

Bizlardan ikki-uch uy narida akamning onasi — ajemiz turadi. Layli gohida barimizni ergashtirib shu qari onamizning qo'rasining sirtiga kelib, konsert qo'yardi. Onamizning kayfiyati past kunlari "yo'qollaring, o'tinlarimni yondirib yuborarsizlar" deb, haydab solardi. Layli yana birozdan keyin ergashtirib shu yoqqa o'tardi. Bu gal ham shunday bo'ldi. Bir payt ortimizdan tayog'ini ushlab ajemiz kelib qoldi:

— Hoy qiz, olib ket manov navkarlaringni! Shundan yo o'tinlarim, yo qo'ram yonsin qani, ko'radiganingni ko'rsataman! Nima, sanlarga o'ynaydigan boshqa yer qurib qoldimi?

— Shu yerda o'ynasak nima qilibdi? Qo'rqmang, yondirmaymiz, — dedi ajemizga.

— Voy manov qizning sazarib qarashini!

Ajemiz tayog'i bilan Laylini urmoqchi bo'lib bir sermadi-yu, oxiri nari ketdi. Tirikchilikdan obdon charchagan kampir baqirib-urishgani bilan bizlarni yaxshi ko'rishini bilardik. Mehri iygan kunlari etagiga har turli konfet, shirinlik to'ldirib chiqib, ulashtirardi. Kim biladi, qiz kunidan saqlab kelayotgan konfetlarmi bular, sirt qog'oziga "Batonchik" deb yozilgan yozuvlari chaplashib qolgan bo'lardi...

Bugungi konsertimiz qizimadi. Ajemizdan xafa bo'ldimi, Layli endi qo'shiq aytmadi. Unsiz qovoq uyub, tomsarilib o'tirdi-oldi. Biz Layliga qaraymiz, yana qaraymiz. Bir payt Layli "ketamiz" dedi kattalarning ovoziga o'xshash sabrli ovozda. Layli shunday degach, bizda ne jon qolsin? Uyli-uyga tarqasha boshladik.

Akam bugun ham jahli chiqib turgan ekan. Xonamizga o'tib borayotganimizda:

— Ey, qayda yuribsanlar-a? — deb baqirdi. Men qo'rqqanimdan to'g'ri xonaga zip berdim. Layli sovuq ko'zi bilan akamga bir qaradi-da, to'g'ri xonaga o'tib, to'shagiga qiyshaygan ko'yi ters qarab yotib oldi. Uning bu yotishi menga yoqmadi. Ajem temir to'shagiga ters qarab yotib, "Uh, Alloyo!" deb xo'rsinganda, akam "E, bechora-ey, endi nima qilsin, qartayganda o'tgan umrini o'ylaydi-da..." derdi. Shu aytganlari yodimga tushib, Laylining yoniga yaqinlashdim-da:

— Layli, nima bo'ldi senga? O'tgan umringni o'ylayapsanmi? — dedim. U piqillab kulib yubordi. Men ham kuldim. Shu payt beshikdagi Salima bezovtalanib big'illay boshladi. Salim big'llasa Layli turib beshikni tebratardi. Bu safar u turmadi. Beixtiyor men borib tebrata boshladim. Salima bunga ko'nmay yig'isini avj oldirdi.

Narigi xonada yotgan akam baqirdi:

— Ay, olsanglar-chi anov bolani!..

Shu lahzada tashqaridan onam kirib keldi. "Qayda yuribsan!" deb achchiqlangan ovozga qo'shila otilgan nimalarningdir qarsillagan ovozi keldi. Onam chinqirig'i eshitildi. Cho'chib tushgan Salima chirillab yig'ladi. Onam beshik tomon intilib "bismillo"lab Salimani oldiga oldi-da, emiza boshladi. Ko'zlari to'la yosh edi.

Onamga rahmim kelib ketdi. Onam to‘shakda yotgan Laylini ko‘rib, menga qarab, ko‘zlari bilan “bunga nima qildi?” deb so‘radi. Men yelka qisdim. Onam bolani menga tutqazib, endi Layliga intildi. Bir payt:

— Akasi! — deb faryod solib yubordi. Laylini ko‘tarib, yig‘lab bo‘zladi. Layli uning qo‘lida es-hushsiz, shilqillab yotardi. Narigi xonadan rangi bo‘zarib ketgan akam yugurib keldi.

— Doktorlarni chaqir. Manov bola o‘t bo‘lib yonayotir.

Bir shumlikni sezganday yuragim shuv etdi-ketdi. Nima qilishimizni bilmay turganda, tashqaridan og‘am kirdi yugurib. Unga Salima ikkimizga qarab turishni topshirdi-da, onam bilan akam Laylini mashinaga solib opketishdi.

Uyda g‘alati bir tinchlik o‘rnadi. Yig‘lamoqchi bo‘laman-u, yig‘lashga qo‘rqaman. Laylini qayga olib ketdilar? Unga ne bo‘lgan o‘zi? Yo boyagi konfet...

Oxiri chidayolmadim. Og‘amga qarab:

— Og‘a, Laylini qayerga olib ketishdi? — deb so‘radim yig‘lamsirab.

— Qo‘rqma kelishadi. Kel bu yerga uxlayqol.

Og‘amning tizzasiga bosh qo‘yib uxlab qolibman. “Qulunim-m! Bo‘talog‘im!” deb baqirishgan-yig‘lashgan ovozlardan uyg‘onib ketdim. Tong otib qolgan ekan. Uy ichida qo‘shnilar ham kirib-chiqib yurishibdi.

Bari onam bilan quchoqlashib ko‘rishadi:

— Qo‘y, qo‘y, Batimash, o‘zingga berk bo‘l! Alloh o‘zi berganini o‘zi qaytib oldi. Bunga endi ne chorang bor?!

Ularni tinglayotgan onam yo‘q, ko‘zining yoshlariga erk berib, oh solyapti:

— Qulun-im-m! Bo‘talog‘-im! Yonma-yotib so‘ngan chirog‘im-m!

Onamning suyakdan o‘tar oh-zorlaridan uyga bir musibat to‘nganini sabiy yuragim sezgan edi. Ko‘zlarim jovdirab, kamsanglay boshlaganimda qo‘shni Uldosh opa:

— Yuringlar, bizning uyda o‘tiringlar, — deb olib ketdi.

Shu kuni bizning uydan kishi uzilmadi. Onamning “qulun-i-m”lagan ovozi tilsim tunning qo‘yniga singib ketaverdi. Ertasi-

ga tushga tomon uydan Laylini gilamga o'rab, besh-olti mashina bilan ovul sirtiga tomon olib ketishdi.

Onamning:

— Laylish-ov, qayga tashlab borayotirsan? — deb dod solib yig'lashlaridan sezdimki, Layli opacham bizlarni mangulikka tashlab ketyapti. Qo'shnimizning To'lesh degan bolasini shunday qilib olib ketganlarida u kelmay qo'ygan edi. Uning to'satdan yo'qolib ketganiga tanglanib, onamdan so'raganimda, "U endi kelmaydi. Ketmaydigan yoqlarga ketdi, bolam", degan edi. Shunga o'xshab, Laylining ham kelmay qo'yishini o'ylaganimda, ko'zlarimga mo'ltirab yosh keldi. Og'am bo'lsa eshikka suyanganicha yig'lab turibdi.

Shu kundan boshlab bizning uyga ko'ngilsizlik o'rnashib oldi. Onam sochlarini yoyib tashlab, Laylini olib ketishgan tomonga qaraydi-da o'tiradi. Ajem avvalgisidan ham enkayib qolganday. Lablari qimirlab: "Ko'z tekkan, ko'z tekkan... Xudo-yov, ko'z tekkan bolani ko'richak deb, yorib tashlaganlarini qayda ko'rib eding, padaringga la'natlar-ay..." deb anchaga gubirlab yurdi.

Layli ketganidan keyin ko'chamizda "konsert" qo'ymaydigan bo'ldik.

SERIK SAG‘INTAY

(1976)

Serik Sag‘intay 1976-yil 11-dekabrda Qarag‘anda viloyatining Aqto‘g‘ay tumanida tavallud topgan. 1997-yilda Jezqazg‘an shahridagi O. Boyqo‘ng‘irov nomidagi universitetni tugatgan.

“Yozuv” (2007), “Foniy qush” (2009) nomli she’riy to‘plamlari, “Qarg‘a” (2011), “Ko‘klamning shaffof tomchisi” (2017) nomli hikoyalar to‘plamlari muallifi.

OV

...Qora tundan oshib tug‘ilgan sharpa edi. Juda katta ham emas, juda kichkina deyishga ham bo‘lmaydi. Oriq-tiriq, terisi suyagiga yopishib qolgan. Tunning zulmatidan ham battar qop-qora edi. Qip-qizil ko‘zini Tangrim yaratganda do‘zaxning bir tugur cho‘g‘ini qo‘shib yo‘g‘irgan chog‘i. Ko‘zga o‘xshamas edi. Mangu tuzalmas yara edi. Tishi-chi! Vahshiygan sariq tishlari shaq-shaq etib bo‘g‘zidan otilgan zahar-zaqqum alamini to‘la yonib-yo‘nib oxirigacha kezib chiqarganday. Og‘zidan chiqib turgan bir quloch tili, tildan tomchilab turgan jin-qusiq ham qo‘shilib aralashgan. Ana-mana deguncha shaqillagan tishlari tilini to‘g‘rab yuborib, oyog‘ining ostida ko‘pchigan tuproqqa aralashib ketganday. Shovqin-suron ko‘targan qurolli guruhdan jon talvasasida qochgan iblis uch-to‘rt qirdan osholmadi. Ortidan qichqira yetgan issiq oq gardanidan qadalib, boshini yorib yuborgan vaqtda, yana bir bor ko‘kka otildi, besh-olti dumalab jon taslim etdi. Ta’qibchilar bir lahzada yetishdi. Do‘zax o‘tiga o‘ralib chiqqan iblisning tanasida qiltanoqdek joy qolmasdan kuydirilgandi. Ovchi etigi bilan to‘shiga bir tepib ag‘anatib yuborganda cho‘g‘ yopishib pishib qolgan tovonlari uzun tirnoqlari bilan qo‘shilib to‘kilib qoldi. Odam kaftiga teng keladigan to‘rt tovon endi yer bosolmasligi aniq edi.

So‘yloq tirnoqlar ham qahrli egasining amri bilan ozig‘ining halqumini uzib ololmaydi.

* * *

Chayqalib turgan bir to‘p qamishning momig‘i shamolda uchib, poyasi qotib qolgan erta kuz. Oftobli yozning oxirgi lahzalari o‘tayotgan vaqt qishloq yonidagi Sassiqko‘lning ham tovoni tilinib, qoqlaninb qolardi. Bir tomchi suv topmaysan. Ko‘klamda oqqush uchib, o‘rdak-g‘ozlar katta havzada qanot qoqib yurgan deb kim aytadi?! Faqat qamishi qalin tomonda qalin tongda tutunga o‘xshash havo chiqaradigan arzimas botqoqlik qoladi. Kun ilishi bilan olti oy yopingan to‘nining tikishi so‘kilib, to‘ng ichidan bug‘ buralab, choki so‘kilib dalaning barcha suvi jilg‘a bo‘lib quyilar edi Sassiqko‘lga. Qamishzorga o‘rdak-g‘oz in quradi. Tongdan quyosh Avliyo uyiga botguncha botqoqli ko‘l usti g‘oz, o‘rdak, suqsurga to‘la bo‘ladi. Narida boyo‘g‘lining quq-quqlagan ovozi, beridan chigirtkaning qattiq chirillashi vaqtni tunga uzatadi. Shu kunlarni qo‘msab, tuprog‘i qurigan Sassiqko‘l avgustning oxiri, sentyabrning boshida hilvatxonaga tushib ketgandek yer ostiga yashirinadi. Qush bilan birga bug‘lanib, ko‘kka uchib ketadi. Qamishi qovjiraydi, qurib qolgan o‘zagi, tomiri sur sichqonga nasib etadi. Qamishning tagidan nam, tanasidan yoshi ketsa ham, pana tomonga chiqsang nafas ololmay qolasan. Sassiqko‘lning o‘zi yo‘q bo‘lsa ham, hidi qoladi. Biladiganlar behisob qushlarning tezak hidi, qo‘shni qishloqdagi so‘qir cholning ko‘klam sayin yo‘qoladigan molining o‘laksa hidi deyishadi. Ovuldan daydib chiqib ketib, botqoqqa botib qolgan buzoqchalar ham bor. Mol yo‘qolsa mana shu qamishzordan izlanglar deb aytishadi. Lekin hech kim bu tomonga qadam bosmaydi. Bu yer haqida allaqanday vahimali gaplar bor. Birovlar tong bo‘zarib otayotgan vaqtda qamishzorda bir to‘p shaytonlarni ko‘rgan emish. Juda ham oriq, eti ustixonga yopishgan, bo‘yi nari borsa besh-olti yashar boladek ekan. Yarim kechadan o‘tganda Poygatepa tomondan arg‘imchoq uchib kelayotgan bir guruh qiz va yigitlar qamishlar orasidan bir ayolning zorlanib kimnidir izlayotganini eshitgan emish. Bari birdek eshit-

gan. Hovliqma birovlar shu ayolni borib ko'rmoqchi bo'lgan. Agar mullaning nevarasi bo'lmaganda borishar ekan. "Jin makon qurgan qamishzorga bormaganingiz yaxshi", degan mullaning do'ppili farishta sifat nevarasi.

O'sha Sassiqko'l. Sassiqko'lning siri bir kundayoq ma'lum bo'ldi. Yillar davomida xalqning boy xayolidan tutatqi olib kelayotgan qamishli to'qayzor bir kunda tekis maydonga aylandi. Avgust oyida gugurt cho'pi tashlasang lov etib yonadigan oftobli kunlarning oxiri kuzga ulanib, hali sentyabr, hali oktyabr, chivinsiz yoz kunlarining birida Shakengning hovlisiga ikkita jip kelib to'xtadi. U Shakengning shahardagi boyvachcha qudasi ekan. Hokim va boshqa kattalarning, boy va boyvachchalarning shahar hayotidan zerikib, dala kezib yurgan vaqti. Ular ham o'shalar sirasidan edi. Baliq ovlashga, qushlarni otmoqqa kelgan. Fil savlatli qo'sh jipning yukxonasi o'q-dori, ov qarmoqlari, aroq-sharoblar, oziq-ovqatlar bilan liq to'la. Qudaning bo'ynida durbin, boshida poxol shlyapa. Kunto'sari to'rt qavat kigiz uyning chang'irog'iday kavboy-qalpoq. Belidan tizzasigacha ikki-uch xanjar ilgan. O'ng yelkasiga o'qdon sumkasini osib olgan. Go'yo uchinchi jahon urushiga otlanib ketayotganga o'xshaydi. Serviqor. Kekkaygan. Shakeng qudasini yelib-yugurib qarshi oldi.

— Ha, quda hush keldingiz. Yopiray, o'tmish zamonning botiri bo'lsa sizday bo'lgandir. Vay-vay!

Quda ham xoxolab kelib Shakengni mahkam bag'riga bosdi.

— Qush otamiz, bo'lmasa butilka otamiz. Hech bo'lmasa qudaning bir to'qlisini kabob qilib yeb qaytamiz, deb kelyapmiz, Shake!

— Voy, shuning barini birga ko'rgan afzaldir! Kelinglar, to'rga chiqinglar! Chanqoqbosdi qilguncha, bola molga borib kelar...

— Quda aka, hech narsaga ovora bo'lmanglar. Tomog'imiz qurib kelayotganimiz yo'q. Taomni har doim yeb yurganmiz. Qaytanga siz biz bilan yuring. Ozig'imiz yo'lda deb chiqqanmiz.

Shakengning qudasi kiraverishdan qaytdi. "Quda degan loaqal uyga bosh suqmasmidi?! Biroq baqayigacha qurollangan baloning uyga kirgani ham yomon irim. Qozoq qilichini tashlab kirguvchi

edi-ku. Kirmasa kirmay qo'ya qolsin". Bir zumda tayyor bo'lgan Shakengni mashinaning oldingi o'rindig'iga o'tqazib olgan ovchilar, tinchgina ovulni changga bostirib, dashtga yo'l oldi.

* * *

Qudasiga: "Ikki kun bo'yi oyog'im tortib biror yoqqa boradigandek, kaftim qichishib allakim bilan ko'rishadiganday bo'lib yurgandim", dedi Shakeng. Ularning ikki kuni dala kezish bilan o'tdi. Yo uchgan qush, yo yugurgan ov ko'zga tushmadi. Oqbo'kenlar og'ib, arxarlar yaqinginadagi zaharlangan hududning og'usidan harom o'lgan cheksiz dasht, targ'il tog'da ovchilikka nima bor? Oxiri sillalari qurib, oziqlari tugab, so'nggi shishasi va bir bo'lak kolbasasi bilan qishloqqa yetib Sassiqko'lning ro'parasiga kelib to'xtashgan. Uni-buni aytib birôr soatlar o'tirib, shishani og'udan bo'shatishdi. Mashina yuborib, ovuldan aroq olib keltirgan ovchilar guruhi zavqlanib o'tirishganida Jinni Jaqay entikib kelib qoldi. Ust boshi chang-chung. Bir vaqtlarda mohir chavandoz, taniqli polvon edi desa kim ishonadi.

— Akalar, o'ltirmasanglar, og'zimga suv tomizinglar-chi.

— Voy, nima bo'ldi? Sen ichmas eding-ku?!

— Yo'q, ichaman! Ayni hozir ichaman! Bir ajaldan qoldim! — Jaqay yig'lab yubordi. Shakeng chiroyli o'tirishni qiymagani bilan anavi balolardan qanday qutilaman deb o'tirgan edi.

— Bo'ldi, quyinglar unga, — dedi qudasi. Bolalarcha bo'zlab turgan Jaqay qirrali stakanni bir ko'tarib ichib yubordi.

— Uff, — dedi keyin. — Bir ajaldan qoldim. Bo'riga yem bo'layozdim.

Ikki kun tirik ovning tezagini ko'rolmay soy-dalani shisha sinig'iga to'ldirib kelayotgan ovchilar: "Qayerda?" deyishgancha o'rnidan otilib turishdilar.

— O'o'o'y, shu jinnining so'ziga ishonmanglar. Ey, qanday bo'ri?! Bir kattaroq itdan qo'rqib qochib kelayotgandirsan, mal'un!

Shakeng vazmin so'zlagani bilan, qudalar o'rinlaridan turishdi. Jaqay bo'taday bo'zlardi, qishloqdoshlari hayratlanib qolishdi.

— Rost aytayapman, akalar! Bahaybat bo'ri. Mana shu qamishning ichida. Men buzog'imni izlab chiqqan edim. Buzog'imni

burdalab tashlabdi. Meni ko'rib, chang soldi. Baqirib qochib ketdim. Ochiqqa chiqib ulgurdim. Ulgurmaganimda o'lar ekanman, sho'rlik boshim!

— Yur, boshla, bo'riga!

— Yo'q, akalar, bormayman!

— Aytdim-ku bu jinnining so'ziga ishonib bo'lmaydi...

Ovchilar biroz bahslashib besh-o'n daqiqa turgandan so'ng, oxiri qamish ichida yovvoyi it bo'lsa ham otmoq bo'lib, miltiqlarini shart-shurt o'qlab, temir tulporga minishdi. Sassiqko'lning tog' tamonida sigir so'qmoqning borligi ayon. Shakeng ixtiyorsiz shu tomonga boshladi qudasini. Shaharning boyini sassiq botqoqli joyga olib borayotganidan xijolat bo'lgani bilan iloji yo'q. Qamishzorga kiraverishda qudaning o'zi oldinga tushdi. Yigirma qadamlarcha yurgan vaqtda birdan qotib qoldi. Qamish yaproqlari yanchilgan joyda Jaqayning buzog'i burdalanib yotgan edi. Ola buzoqning boshi bilan qo'qqaygan qovurg'asi, axtarilib yotgan qorni bilan to'rt tuyog'igina qolgan edi. Qonli to'polon biror soat burun bo'lgan chamasi.

— Bu itning ishi emas. Qaranglar, suyagini o'pirib yuboribdi! Ulkan ko'ppak bo'lmasa, mayda-chuyda itlar bir yashar buzoqni qamishzorga sudrab kirolmaydi.

— Ha, ha!

— Endi nima qilamiz?

— Qishloq atrofini egallagan dushmaninglarni qanday ko'rmagansizlar, a?!

— Shuni kim o'ylaydi?! Qishloq itlarining barini teri yig'adiganlar otib tashlashgan.

— Agar qamishzorni yayov oralaydigan bo'lsak, birimizdan ayrilib qolishimiz mumkin. Bo'rilarning hiylasi ko'p. Ketdik mashinaga. Biz sal uzoqdan qarab turamiz. Ikki mashina bilan qamishzorga kiringlar!

— Voy-voy, mashina pachoq bo'ladi-ku, quda!

— Vezdexod-ku, bu yorug'lik! Buyum emas! O'tiringlar! Ketdik!

Qamishzor tashqarisiga chiqqan haydovchilar aylanasi to'rt-besh chaqirim qamishzorni ikki soat ichida uch-to'rt marta aylanib

chiqishdi. Tashqarida turganlar bor. O'sha yoqdan ko'rinib qolar, deb turishibdi. Qilt etgan shamol yo'q, kunning issiqligidan obdon qoqlanib qolishdi.

— Quda, qo'ying, qaytaylik! Bo'ri allaqachon qochib ketgandir!

— Yo'q, qochmaydi! Qochib qayoqqa boradi? Tog' uzoqda. Biz qamishzorga kirganda, qochib chiqadigan bo'lmadi. Qishloq tomonga borolmaydi. Yerga kirib, ko'kka uchib ketmasa, o'sha sassiqning ichida yotibdi.

Oradan ikki soatlar o'tib qayta yig'ilgan ovchilar, bosh qudaning qarori bilan qamishzorni yoqmoqchi bo'lishdi.

— Shamol yo'q. Aylana taqir, dalaga o't yoyilmaydi. Ko'raylik jahongashta shovvozni. Bir qishloq avlodi buzog'ing, tana-to'rpoqingni yedirib, uni asrab o'tirasizlarmi?! Bir kuni o'ynab sal olislagan bolani yeydi. Tezak terib chiqqan kampir-sampiringni yorib tashlasa, uvoli kimga?!

* * *

Quda xohlasa jon qolarmidi. "Usiz ham sassib yotgan botqoqli hudud. Uning ustiga haliganday yomon oti bor, qurg'ab kepib yotgan qamish lov etib yonib, o'chib qolar. Qashqirning dumi kuyib boshlasa, o'ziyoq oldimizga yo'rtib kelar", degan o'y bilan Shakeng boshlagan uch yigit Sassiqko'l qamishzorining uch joyidan o't qo'ydilar. Dalasi ham, shahri ham son ming marta o'rtangan qozoqning kuyik soyi ham, kuyik tog'i ham yetadi, bir boshiga. Ammo bunday yong'inni ko'rmagan edi ovul ahli. Avvalo o'tov uyning hovlisiga qazilgan o'choqning yoliniday sizilib yongan olov ko'z ochib yumguncha yalmog'iz yovga aylanib ketdi. Shitir-shitir etib o'rkachlanib, sapchib, qurg'ab ketgan qamish ko'kka qo'l cho'zgancha olovlandi. Butun ovul ahli qo'rasining, uyining tomiga chiqib qarab turishdi. Beshikdagi bola cho'chib uyg'onib, eshikdagi kelin qilayotgan ishini unutib qo'ydi. Lopillab qanot qoqib, yerga to'kilayotgan o'tning tutuni yetti qavat shahar uylaridan balandlikka sapchiydi. Olov tili bulutsiz osmonga, undan nari botayotgan quyoshning o'rnini bosmoq uchun havoga otiladi. G'azablangan olovning yollig'i ila chirmashgan qop-qora tutun ko'kda-

gi qora ustunga aylandi. Osmonning noma'lum burchidan qandaydir tuynuk ochilib yerni yutib borayotgan oxirzamon sharpasi o'rin oldi. Buvilar beixtiyor og'zini qiyshaytirdi. Chollar hadiksirab ters aylanishdi. Bolalar onasining etagiga bosh suqib yashirinishdi. Qiyalikdan sal teparoqqa chiqqan ovchilar, ovuldan uzoqlashib, tog' tomonga ketdi. Otashga chidolmasdan yuz-yuz ellik metr nariga chekinishdi

— Yopiray, bunchalik issiq bo'larmidi?! Bunday bo'lar deb kim o'ylagan?

— Bo'ri qurg'ur qochib ketganov! Bo'lmasa manavi do'zaxga jon bolasi chidarmidi.

— Bo'risi qursin! Elga nima deb aytamiz?

— Heey, nima bo'pti? O'sha qamishni ovqatlariga qo'shib icharmidi, eling?! Sasib yotgan b**qala emasmidi?!

— Butun qishloq qarab turibdi!

— Hoooy, Xudoyim-ey. "Noming chiqmasa yer o'rta!", deydi el. Endi nima qildim?! Tiriklay o'ldirding-a, Qudajon!

— Sen qo'yaver, quda! Ovuldagi o'rmoning, rog'ing yonayotganday zorlading-ku!

Bag'rini bag'riga bosishgan qo'sh quda tepalik boshida, mashina ichida bahslashib o'tirganda shofyor bola shovqin soldi.

— Voy-voy, qaranglar! Shayton, shayto-o-on!

— Shaytoni nimasi?!

— O'tning etagi tomon qaranglar! Allanima sakrab yuribdi!

Ular mashinadan sakrab tushishi bilan, qizigan o't tomonga hadiksirab qarashdi. Sal fursatdan so'ng ko'kka tiralgan olovning shashti pasayib, qancha yillar qushlarning, mollarning tezak-tappisi bilan chim tezakday tutashgan qamish qop-qora tutun qusib yotgan edi. Ko'zlarga qadalgan qip-qizil o't pasayib, qora tutun ustun bo'lgan yerga yiqilib, yon artofga yoyila boshlagan. Shu qop-qora tun sharpasining etagidan tutunga bo'g'ilgani bilan hali ham do'zaxning otash qizuvi ko'paygan o't chetidan allanima damba-dam sakrab-sakrab turardi.

Boya chor tarafdan o't qo'yganda, gurullashib chuv bosgan ovul tomonga qocholmay, tog' tomondan poylab turgan filday qo'sh mashinadan cho'chigan qari bo'ri — o'tgan yilgi qattiq qish-

da yosh arslonlar inidan ayirib, oyog'ini sindirib ketgan, shundan buyon shu qamishzorni panalab, tunlari holsiz uvillab, Xudoga zorlangan qari bo'ri o't orasidan arang sitilib har tomondan o'rab olgan dushmanlariga qarshi borishga qo'rqqan, dumini chalib, yonboshini kuydirib, suyagiga o'tgandagina bir-ikki sakrab tushgandi.

— Yopira-ay! Naqadar botirlik, shunchalik chidam! Biz yuz metrdan betimizni berkitib, chidolmay turibmiz, naqadar jahongashta mahluq ekan!

— Bay-bay-bay! Uvol-ey! Tiriklay o'rtanib ketibdi-ku!

— Uvoli nimasi! Mashina bilan yaqinlanglar yigitlar! Qochsin! Dalaga qochib kuyigini bosib olsin. Otib qizig'ini ko'raylik. Endi terisi hech narsaga yaramas. O'ti bilan tirnog'ini olaylik. Mininglar otga!

Qudaning buyrug'ini qilt etmasdan bajaradigan ikki yigit bilan ovchilar jon-jahdi bilan mashinaga joylashganda, Shakeng qir boshida cho'kkalab qolaverdi.

* * *

Qasd dushmani, ikki oyoqli yovlaridan hayiqsa ham, do'zax o'tida tiriklay o'rtanib, terisi tushib, qoqlanib suyagiga yopishgan bo'ri oxirgi marta bor kuchi bilan bir ho'rsinib sakrab tushib, ko'zlaridan, jigaridan qon oqib, tog'ning yonboshidan quyiga qocha boshlagan.

Jipga chiqishgan yovvoyi guruh bir-ikki qirdan oshirmay quvib yetib, birdan o'ldirmasdan, jarohatli tanasida bir suyak qolmay titilib ketgan ko'rinishda dala ovidan ko'ra do'zax sharpasi bilan kelayotgan bechorani obdon sarson qilib, undan keyingina otib olishdi.

* * *

Sho'rlik bo'ri! Sho'rlikkina bo'ri!

O'tmishda uni aziz bilib muqaddas hisobladik. Bugun bir bechora qiyofasidagi dushmanimizga aylangan. Qarshi hujum qilib, o'zi uchun erk yarata oladigan kuchdan mosuvo. Qochqin. Alloh quvg'in qilgan, la'natlagan shaytonga o'xshaydi, oqshom g'ira-shirasida devor oshgan soya bilan hamnafas, hamohang iblis-

ga o‘xshar. Siz-u bizga bor o‘pka-ginasini zulmatli tunda vahimali uvillagan ovozi bilan yetkazar.

Kim uning uvillagan zorli ovozini eshitsa, sho‘rlik bo‘rining taqdiri uchun mas’ul. Chunki aybdormiz: shu ovozni eshitganimiz uchun, unga madad berib, himoya qila olmaganimiz uchun, bechora jonivorni tanimasdan dilimizda qo‘rquv uyg‘otganimiz uchun!

Zorli uvillash qulog‘ingdan kirib suyagingga yetganini biladigan iymonli holda emasmiz. Suyakka yetgach, u, albatta, qonga singadi. Undan keyin... undan keyin har holda g‘amgin olamning ho‘rsinig‘i sening oh-u faryoding bilan qo‘shiladi va o‘zing ham bo‘riga aylanasan. Bo‘rigagina emas, qahrli iblisga evrilgan shaytonga aylanasan. Keyin... keyin esa abadiy olovdan qochmoqlikka imkon-u chora topilmas!

BONU DAVLETBOYEVA

(1980)

Bonu Davletboyeva 1980-yil 12-fevralda Almati viloyatining Rayimbek tumanidagi Kegen ovulida tug'ilgan. 2005-yilda Astanadagi Lev Gumilyev nomidagi yevroosiyo milliy universitetini tamomlagan.

Ko'plab asarlari davriy matbuot va jamoaviy to'plamlarda chop etilgan.

BIRGA QO'SHIQ KUYLADIK

— Hurmatli davra qatnashchilari! Bugun adabiyot deb atalmish sehrli dunyoning iste'dodli vakillaridan biri, adib Falonchi Falonchiyev to'yimizning aziz mehmoni bo'lib o'tiribdi!..

Men qalqib ketdim.

* * *

Hikoyalarini, qissalarini o'qiganman. Nozik, dardchil mung bor edi uning yozganlarida. Kulolmaysan, quvonolmaysan. Ammo shu adib o'zining mahorati ila hammani qoyil qoldirardi. Negadir shu yozuvchini ko'rgim kelardi mening.

* * *

— Otamni juda yaxshi ko'rardim, — dedi u. — Men shahardan uchib kelganimda, otam og'ir ahvolda yotgan ekan. Oppoq to'shakda yotgan oppoq farishta deysan. Hech kimni tanimaydi. Yonida o'tirib, gavdasiga enkayib turib erkak boshim bilan uzoq yig'ladim. Vujudimni nimalardir qisib kelardi. Men esa yig'layverdim. Bir payt otamning qo'llari boshimni behol siladi.

— Yig'lama, bolam, — dedi. — Yig'lama. Zoriqib topgan yolg'izimsan. Sen tug'ilganda o'chay-o'chay deb turgan umidim

qayta yonib, o'zimni juda baxtli sanagan edim. Xudoga... uh... shukur... Seni ko'rsatgani uchun shukur qilaman. Mana, sening farzandlaringni ham ko'rdim. Yaratgan egam bergan uch nabiram uch navnihol bo'lib, jonimni gullatdi. Xudoyim o'zi kechirsin... Har biri tug'ilganida, shunisi o'g'ilmasmikin deb kutganim rost. Allohga shukur, qiz bola bo'lsa ham farzandlaring... Endi armonim yo'q. Faqat... shifokorlardan ruxsat olib, meni ovulga tashlab kel, o'g'lim.

Bu gaplarni eshitib, endi otam hech qachon o'lmaydiganday quvondim. Xudo mening iltijolarimni eshitdi, menga rahm etdi, deb o'yladim. Axir men kelganimda essiz-tussiz yotgan otam mening ho'ngraganimni eshitib o'ziga kelgan, gapirgan edi-da! Shifokordan ruxsat so'radim, u boshini silkitib, unsiz ruxsat berib yubordi. Ketishga tayyorgarlik ko'ra boshladik. Endi chiqamiz deb turganimizda, otam yana hushidan ketib qoldi...

Yozuvchining chiroyli qo'ng'ir ko'zlari yoshga to'ldi. O'zim ham otamni juda yaxshi ko'rganim uchunmi, ko'nglim bo'shashib ketdi. Eski qalpog'ini qiyshaytirib kiyishlari, ko'zlari mehrga to'lib tursa-da, bolam-ku demasdan, boshimni silashga jur'ati yetmay turishlari esimga tushdi. Yuragim ezilib ketdi.

Sakkiz oygacha shahardan ovulga qatnab yurdim. Haftasiga ikki marta kelardim. Odam qayg'uraversa qorayib ketar ekan. O'zim ham qop-qorayib, ozib ketdim. Sakkiz oydan oshganda otam sal beri qaradi.

— Endi biroz umr sursam kerak-ov, — dedi u kulimsirab. To'shakdan uzib ko'tarib, uzoq vaqt bag'rimga bosib turdim. Bu galgi ko'z yoshlarim quvonchdan edi...

Otamning tilaklari qabul bo'lib, yuziga qon yugurgach, o'zim yana ishimga qaytdim.

Telefon ovozi. O'shandan beri telefon degan baloni ko'rgani ko'zim yo'q.

— Otang dunyodan o'tdi, bolam. Xudo quvvat bersin endi. Ishongani sen eding-ku. Kim otasini umr bo'yi yonida olib yurardi, deysan. Qanoti butun shunqor ham...

Yozuvchi entikib ketdi. Unga qo'shilib men ham yig'ladim. Uzoq vaqt birga yig'lashdik.

— Kechir, aylanayin, seni yig'lashga chaqirganim yo'q-ku axir... Kel, otalar uchun ichaylik!

— Rost, siz ham otasiz-ku axir, siz uchun ham ichamiz.

U qadahni oxirigacha sipqorib, ag'darib qo'ydi. Uzoq vaqt jim o'tirdi.

— Shunday qilib, otam dunyodan o'tib ketdi. Meni qo'yaver, men bir... Otam armon qilgan ekan-da o'shanda... "O'g'lim bo'lsa..." deb, bir og'iz aytolmay ketgan ekan-da. Endi ichim yonadi.

— Nima, qiz bolani farzand qatoriga qo'shmaysizlarmi? — dedim ranjigan ohangda.

— Qiz bola deganing Xudoning bergan in'omi-ku... Uch qizim — uch navniholim! Shular omon bo'lsin. O'zing ham xalqimizni yaxshi bilasan, biz uchun o'g'il farzandning o'rni bo'lak...

Yana sukunat cho'kdi. Otamni o'ylab ketdim. Yozuvchining otasi ko'z oldimga keldi. Ota bo'lish qanchalar qiyin ekanini his qildim. Yozuvchini ayblay ketdim. O'zimni o'yladim. Agar men otamning armonlarini ro'yobga chiqara olmasam — bu qanday dahshat ekanini qayg'urdim. Axir, ota armonini amalga oshirsa... bo'ladi-ku! Nimadir ich-ichimni siqib kela boshladi. Yana yig'lagim keldi. Shunday inson bilan uchrashganim uchun quvondim. Millionlagan odamlar ichida yuradi, muxlislari ko'p, obro'sini ayt! Ammo u yolg'iz. Men ham yolg'izman-ku.

Birga yig'lashganimga quvondim.

Ancha yengil tortdim.

— Og'a, — dedim iltimos qilib, — birgalikda qo'shiq aytaylik endi!

— Mayli, — dedi u ko'ngli erib. — Qaysi qo'shiqni aytamiz?

— "Muhida Shaybon" qo'shig'ini aytaylik...

— Nima deding?

— "Muhida Shaybon".

Dunyo-ov, o'tib ketar, ikki kelmaydi,
Tuyog'i tarlonbo'zning guvillaydi...

Vujudimni yana mung bosib keldi.

Qo'ngan joyi ovulimning shat qaragan,
Ko'rdingmi, ikki bola ot boqayotgan...

O'zimni dunyo kezib charchagan, cho'llagan odamga o'xshatdim. Endi o'zimga rahmim keldi. Kamyuning Sizif haqidagi rivoyat-asari tushdi esimga. Biroq mening nazarimda, bemaqsad o'tayotgan hayotning endi takrorlanmasligini Kamyuning rivoyati emas, ko'proq o'zimizning o'lanlar yaxshiroq, teranroq ifoda qila oladiganday tuyuldi... Yozuvchining shiringina qo'ng'ir ovozi bor ekan. Mungli. U qo'shiqni tugatib og'ir xo'rsindi.

— Sen ko'zimga o'tday bosilding. Sirtingdan qarab o'tirib, aytgan so'zlaringdan ham ancha ruhlandim. Juda iste'dodlisan. Shunga yarasha, juda bilimli ham ekansan. Endi, shu fazilatlaringni aslo yo'qotma. O's! O's!

Men ham negadir yozuvchini maqtagim kelayotgandi. Ajoyib asarlarini yaxshi ko'rishim, ulardagi mung to'la yorug' satrlar, teran psixologizm, falsafiy fikrlar uning hikoyalariga qanday joziba, sehr bag'ishlashi, ko'plab talabalar shuning uchun ham uning asarlarini sevib o'qishi... — mana shularni aytgim keldi-yu, ammo maqtovni u oldin boshlab qolgani uchun endi aytolmadim. Boshqa bir payti kelar.

— Inson qalbini tushuna oluvchi, ko'ngilga taskin beruvchi qiz bo'lib yaralganingni tushundim. Esingdadir, men seni qo'shiq aytamiz deb chaqirgan edim. Barmoqlaringning nozik titrashlarini endi aslo unuta olmasam kerak. O'sha, birinchi ko'rishgan kunimizdan buyon — xayolimda faqat sensan! Taksida kela-kelguncha seni o'yladim... Qidirali bilan Farog'at "o'zimni baxtiyor sezdim, seviklim", deya qo'shiq aytyapti-yu, ko'zlarim oldida faqat sen, sening ko'zlaring ostidagi manov holing...

Yozuvchi shunday deya o'rnidan turib keldi. Oldimda tizzaladi.

— Hech qachon, hech kimning oldida tizzalab turmagan edim.

Ko'zlari uchqunlanayotganday bo'ldi.

— Og'a... sizga nima bo'ldi? Turing... Tursangiz-chi, sizga yarashmas ekan, — dedim tusimni sovutib.

— Ikkovimiz... imenno ikkovimiz otamning orzusini amalga oshiramiz.

— Tushunmadim, — dedim. Tushunib turibman albatta.

— Aylanayin, mendan xafa bo'lma. Men seni endi hech qachon unuta olmayman. Ikkovimiz birga bo'lishimiz kerak. Bu — taqdir, taqdir...

— Og'a, tursangiz-chi, uyat bo'ladi.

— Men senikiman de, shunda turaman.

— Shallaqilik qilyapsiz.

Yozuvchi kulib yubordi. Men nima deyishni bilmay qoldim.

— Ozgina o'ylanib ko'ray, hech bo'lmasa, — deb g'udrandim. U o'rnidan turdi.

— Siz axir meni hali bilmaysiz-ku. Balki mening sevgan yigitim bordir?

— Ne volnuyet! — dedi hayqirib yozuvchi.

Qotib qoldim. U o'ziyam qo'rqib ketdi shekilli, ko'zlari baqrayib, o'ziga o'zi hayron qolganday:

— A-a? Kechir, kechir, aynalayin, qo'rg'onim-ay... O'zing bil, xo'p, xo'p, sen baxtli bo'lsang bo'ldi. Sen o'ylanib olguncha men hali ellikka ham kirib qolsam kerak, — gapining izini hazilga burdi yozuvchi. — Shuning vahimasi-ku bular bari, kechir, jonim!

— Ketaylik.

— Yaxshi, yaxshi. Hozir, hozir...

Mehmonxona xodimasini chaqirdi:

— Qalqam[1], bizlarga taksi chaqirib yubor-chi!

O'zi bilan o'zi so'zlashganday, gubur-gubur gap boshladi:

— O'ylanib ko'ray deding-ku, aynalayin, o'ylanib ko'raqol. Kutaman, kutaman, albatta kutaman-da...

Tashqariga chiqdik. Boyagina o'zim hurmat qiladigan yozuvchi... endi ko'kdan tushib, pastlab ketgan, qadrini yo'qotib qo'ygan edi. Xayollarim meni tashlab ketganday, qo'yday tirqirab ketganday, vujudim bo'm-bo'sh qolganday sezindim.

Taksida kelyapmiz. Yozuvchining yashash tarzi ko'z oldimdan o'ta boshladi: ana, uyida bitta o'zi choy qo'yib yubordi. Keyin o'z xayoli o'zi bilan ijodxonasi tomon yurib ketadi. Xotini yo'q (qizlarini olib ketib qolgan, ajrashgan yoki o'lgan). Banda-ku bu ham

[1] **Qalqa** — "suluv qiz", "go'zal".

axir, vali emas-ku. Ehtimol, kimgadir ko'nglini ochgisi kelar, ayol kishi qo'lidan choy ichgisi kelar. Shularni o'ylayapman-u, og'zimdan chiqib ketgan gapni qarang:

— Og'a, boya menga aytgan gaplaringizni boshqa qizlarga ham aytganmisiz?

U ichini tortib yubordi:

— Sendan buni kutmagan edim! Meni tushunadigan darddosh topdim deb yursam...

Ajabtovur ranjib qoldi. Men aytganlarimga o'kina boshladim. "Bunchalar nodonman-a?! Ichim to'la yomonlik, buzuq xayollar!". Odam tanimasligimdan jahlim chiqdi. O'zimni salgina oqlab olish uchunmi, birovlarga ishona bilish xosiyatimdan ayrilib qolganimni sezibmi, hamma yomonliklarim uchun boshqalarni aybdor qilishga hozir tayyor edim. Axir ko'p bora aldanganman-da, nima qilay?

Men yashaydigan uy yoniga keldik.

— Yolg'iz yashaysanmi?

— Yo'q. (Yana yolg'on gapirdim).

Oraga sukunat o'rnashdi. Sovqotayotganimni bildirish uchunmi, quloqlarimni ishqalagan bo'ldim.

— Boraqol, — dedi. — Sovqotib ketding.

— Sog' bo'ling, og'a.

Xayrlashish uchun qo'limni uzatdim. U qo'limni qo'llari orasiga oldida, silay boshladi.

— Ko'zlaringdan bir suyayin-chi...

Esimda yo'q — suydimi, suymadimi, suydirdimmi-yo'qmi, esda yo'q, haytovur ko'zlarimni o't-olov chirpib o'tganday bo'ldi.

Ko'zimni ochganimda, yozuvchi:

— Jonim, bo'tam... — lab, ko'zlarimga tikilib turgan ekan.

Men avval hech kim bilan o'pishmaganman desam — yolg'on bo'lar. "Bo'tam" degan so'zni eshitib darrov esimni yig'ib oldim. Otamning oldida gunoh ish qilib qo'yib, xuddi qo'lga tushgan odamday noqulay ahvolga tushdim. Yozuvchiga hech narsa demasdan uyga qarab yugurdim. Kiraverishdagi eshikka yetib olib, ortimga qarasam, u haliyam turgan ekan. Qorong'ida yuzini ko'ra

olmadim, biroq u menga allaqanday kinoyaomuz kulib turganday tuyuldi.

Uyga kirib, chiroqni yoqishim bilan telefonim jiringladi. Yuragim qo'zg'alib, og'zimga tiqilganday bo'ldi. Yozuvchining "telefonni yomon ko'raman" degan so'zi esimga tushdi.

— Allo!

— Derazangdan qaragin!

Deraza oldiga borib qaradim — u do'kon oldida qo'lini ko'tarib turgan ekan.

— O'ylan, jonim, o'ylanib bir qarorga kel, — dedi u telefon dastagiga. — Men seni sevaman!

Telefonimni o'chirdim-da, qo'limni silkitdim.

Tuni bilan ko'zim ilinmadi. Goh uni, goh o'zimni aybladim. "Men nega uning tuyg'ulari bilan hisoblashmasligim kerak? Uni tushunishga harakat qilib ko'ray-da...". Yig'lagim keldi. Hikoyalarida mung borligini esladim. Bo'yraday sochlari (ushlab-ku ko'rmaganman) yumshoqday tuyuldi. "Yoki, aldayotganmikin? Aldayotgan bo'lsa, u menga eng aziz odami — otasi haqida aytarmidi?"

Tong otay deb qolgan paytda bir qarorga keldim — sinab ko'rish kerak! Balki rostdan ham meni sevib qolgandir axir?! Qanday yaxshi odam! Turmushi buzilib, o'ziga mos keladigan vafoli yor izlab yurgan bo'lsa-yu, shunday paytda meni uchratib qolgan bo'lsa-chi, bo'lishi mumkin emasmi axir?! Xullas, sinab ko'rish kerak, vassalom. "Taqdir bizlarni uchrashtirdi", deyapti-ku...

Allaqanday shirin xayollarga berilib, uyquga ketibman.

Tushimda telefonim hadeb chirillab, bitta kuyni nag'ma qilayotganmish. Ko'tarib "allo" desam, yana chirillar emish. Uyg'onib ketdim, qarasam telefonim haliyam nag'madan to'xtamabdi. Quyosh ko'tarilib ketibdi.

— Eshitaman, — dedim uyqusirab.

— G'aliya, bu menman.

— Og'a? — uyqum ochilib ketdi.

— Kechir, kecha men juda oshirib yuboribman. Hech qanaqa yomon niyatim yo'q edi. Men bugun uchib ketyapman. Baxtli bo'l!

* * *

— Bugungi to'yimizning qahramonlari baxtli yoshlar ekan. Sababi, ularni qutlash uchun poytaxtday joydan yozuvchi Falonchi Falonchiyevning o'zi kelib o'tiribdi! So'z sevimli adibimizga!

"Sevimli adibimiz" ko'p gapirgani yo'q. Salmoqli, ma'nodor, chiroyli so'zlar aytib o'rniga o'tirdi. Yana allakimlar qutladi. Yana so'z, so'z... Sevimli adibimiz ko'k ko'ylakli nozanin bir qizni jo'rovoz bo'lib qo'shiq kuylashga taklif qildi.

Nozanin qizning barmoqlari titrayotganday tuyuldi menga.

BEYBIT SARIBOY

(1983)

Beybit Sariboy 1983-yil 3-yanvarda Almati viloyatining Rayimbek tumanidagi Jambul ovulida tug'ilgan. Qozoq milliy universitetini tamomlagan.

"Raug'ash erta gullaydi", "Oqibat", "Qorato'rg'ay" kitoblari muallifi.

OQIBAT

I

Tunov kungi boshlab qo'ygan portretni tugallab qo'yaylik, deb Ulan meni uyiga chaqirgan edi. Ishimiz olg'a bosmay ancha qiynaldik. Shu desangiz, asarga badiiy yechim topishimiz kerak, bizlar esa xuddi shu yerga kelganimizda talashib-bahslashib qolgan edik. Ikkovimiz ham o'zimizning g'oyamizni o'tkazmoqchi bo'lib dalil axtaramiz deng. Ko'pincha mening aytganlarim bosib kelib, Ulan qiynala-qiynala bu gal ham aytganlarimni bajardi. Albatta, har kim ham o'zining aytganini o'tkazgisi keladi, ayniqsa, o'zining fikriga ega bo'lgan, tafakkurining kuchiga ishonadigan san'at odamlari bu gapimni ma'qullasalar kerak.

So'zi o'tmaganiga nomuslangan Ulan qaynab-pishib ishga kirishdi. Men har xil rangdagi bo'yoqlarni ezib-tayyorlay boshladim. Shu payt har narsani bir so'rab, achchig'imizni keltirib yurgan Ulanning ukasi mening oldimdagi stolga tegib ketdi-yu, bo'yoqlarni to'kib yubordi. Shusiz ham joni chiqib turgan Ulan bolakayni ushlab oldi-da, ikki-uch qayta shapaloqladi. Ukasi chinqirab yig'lab ustaxonadan qochib chiqdi. Ko'p o'tmay Ulanning onasi kirib keldi-da, boshladi qichqiriqni! Vaziyat bunday ko'rinish olishini kim o'ylabdi, deysiz. Albatta endi ishlab bo'lmasdi. Ulan ikkovimizning oramizdagi o'pkagina bolalab ketmasin dedim-da,

ustaxonadan tuyog‘imni shiqillatib qolishga qaror qildim. Ikki o‘rtada qochgan gap, bahslashib qolganimiz, Ulanning qovoq uyib olishi, ukasining tayoq yegani-yu, opasining baqirganlari — bular bari bir-biri bilan bog‘liq hodisalar edi nazarimda. Biroq ilojimiz ne, bo‘lar ish bo‘lib o‘tdi, bo‘yoqlar to‘kildi...

Mening aytganlarim to‘g‘ri edi. Agar Ulan durust yechim topa olganida men ko‘ngan bo‘lardim. Aslida-ku, rassomlik bilan — tirikchilikning bu turi bilan ikkov-ikkov bo‘lib emas, har kim o‘zicha shug‘ullangani yaxshi. O‘z fikring, orzularing, tushunchang, dunyoqarashing, fahm-farosating, boringki, iste’doding bilan yakka-yolg‘iz qolib, o‘z yog‘ingga o‘zing qovrilib ijod qilganga ne yetsin?! Bu ishda bosh biriktirib ishlash qanchalik mashaqqat ekanini men avvaldan bilardim. Necha marta qarshilik ham qilganman. Mana, oqibati...

Kurtkamni kiyayotib Ulanga:

— Men ketyapman, — dedim. U bo‘zarib-angrayganicha o‘tirardi. — Manov ishni o‘zing bilganingcha tamomlab qo‘y. Tamomlaganingda ko‘rishga chaqirarsan...

Men uydan chiqib borayotganimda ham Ulanning onasi bobillaganicha qoldi:

— Sen toshbag‘irsan! Qanaqa odam bo‘lib o‘sding o‘zi? Shu qilig‘ing yoqmaydi menga. Bolani ham shunaqa uradimi odam...

Uyga kela-kelguncha Ulan haqda o‘yladim...

I

Chindan ham u toshbag‘irmi? Mehrsizmi? Yo‘g‘-e, hech ham bunaqamas. Qachon qarasang bir qop yong‘oqday shaqir-shuqur qilib yuradigan yigitcha. Biroq bolakaylarni yoqtirmaydi, bunisini sezganman. Cho‘ntagidagi konfetini ham bolalarga o‘zi bermay, men orqali bergizadi. Men tushunmayman, boshimni chayqayman. “O‘zing bersang, qo‘ling sinib qolarmidi?” deyman. “Sen o‘zing yaxshi inson bo‘lib ko‘rina qol” deydi Ulan. Keyin qo‘shib qo‘yadi: “Bolalarni ko‘rsam, jinim qo‘ziydi...”.

Tavba-tavba, bu sovuqning gapini qaranglar-a...

Ulan haqidagi xayollardan qutulish uchun xonamga bekinib oldim-da, "Ko'zgu" deb nomlangan portretni tamomlashga kirishdim. "Ko'zgu"da katta bir ko'l tasvirini chizayapman. Ko'l bo'lib butun ko'l ham emas, balki ko'lning bir cheti xolos. Xuddi ko'zguday yaltirab-yaltirab yotgan oydinlik. Yana botayotgan quyoshning tasviri. Asosiy planda — asar markazida esa qiz bolaning yalang'och surati o'rin olgan. Asl maqsad — cho'milayotgan qizni tasvirlash bo'lgani uchun ham, qizning go'zalligini, chehrasidagi nurli chiroyni, ko'zlaridagi teranlikni, vujudidagi poklikni, qorachiqlaridagi hadikni — barcha-barchasini qotirib tasvirladim. Qizning xayolchan siymosida yigitlargina anglaydigan (yigitlargina anglamaydigan!) jumboq-sir bor. Go'yo qiz bola hozir bir nima demoqchi-yu, "sizlar tushunarmidingiz" deganday taraddudda. Qizning vujudi marmarday oppoq. Uning munavvar vujudini atayin yalong'och qoldirganman... faqat bo'ksasiga harir ro'mol tashlaganman, xolos...

Hali erta-indin bu surat ko'rgazmada namoyish qilinadi. O'shanda har bir suratga otusti beparvo qarab kelayotgan yurt shu asarning yoniga kelganda to'xtaganini bilmay qoladi. Ko'rgan tomoshabinning bari to'xtab qoladigan surat bo'ladi-da o'ziyam. Hamma beixtiyor bu bebaho ilhom mevasidan bahramand bo'ladi. Uning go'zalligidan hayratlanadi. Ma'naviy lazzat oladi. Rohatlanadi. Yukunadi. Har bir tomoshabin go'zallik oldida bosh egganini bilmay qoladi. So'ng bu tengsiz go'zallikning ham g'animat ekanligini, himoyaga muhtoj ekanligini nogahon anglab qoladi. Balki ardoqlashga arziydigan bu bokira go'zallikka kimlardir qo'l yuborib ushlagisi, ifloslagisi, ushbu bebaho, tengsiz go'zallikni o'ziga, o'zining xudbin tuyg'ulariga xizmat qildirgisi kelib qolar?! Axir hayotning o'zida mana shunday qudratli ta'sir kuchiga ega bo'la turib, iflos qo'llarga tushib, qurbon bo'lgan go'zallik sohibalari... yo'qmi?! Har qanday go'zallikdan avvaliga hayratlanib, so'ngra esa uni o'ziga qul qilib olish, bulg'ash, xorlash xususiyati odam bolasining qonida bor. Bu — aynimaydigan haqiqat, hayot shunday, odamning tabiati shu asosga qurilgan. Ammo baribir, buning uchun jamiyatni aybdor qilib bo'lmaydi. Jamiyatda niyati pok, qilayotgan amallari ezgulikka baxshida insonlar ham bor axir. Musavvir sifati-

da men mana shularni tomoshabin ko'ngliga bir eslatma, ogohlantirishday solib qo'ymog'im kerak. Bilib qo'yinglar, odamlar, "ko'za kunda emas, kunida sinadi" degan so'z bor. Sizlarni hayratlantirayotgan mana shu go'zallik ham himoyaga muhtoj...

Xullas, suratga nazar tashlagan har bir tomoshabin unda tasvirlanayotgan go'zallikni qizg'ansa, deyman. Tahqirlamoqchi bo'layotgan zo'ravon kuchlardan go'zallikni himoya qilishga otlansa, go'zallikni ardoqlasa, ayasa deyman. Har kimning xayoli o'ziga yo'ldosh. Men bu asarni "oh-oh, mana shu qiz bilan bir bora to'shakdosh bo'lsam... figurasini aytsang-chi, figurasini..." deb, sassiqqina niyatini oshkora qilayotganlar uchun emas, balki murg'ak, ojiz, komil bir go'zallikdan hayratlana oladigan, uni ardoqlashga tayyor turadigan shaydoyi va fidoyi odamlar uchun yaratdim. Shuning uchun ham bu suratni men "Ko'zgu" deb atadim. Toki unga qaragan odam xayoliga kelgan fikr-o'yi ila, qalbida paydo bo'lgan g'alayonlari ila o'zini-o'zi tanib olsin...

Tinimsiz chirillayotgan telefon ovozi xayolimni bo'ldi. Dastakni ko'tardim. Ulan. Uchrashaylik, deydi. Charchagan bo'lsa kerak. Noiloj, tanish bilyardxonada uchrashadigan bo'ldik. Ulan o'yinda qayta-qayta yutqazaverdi.

Men ham sezmay, hordiq olaman deb kelgan do'stimni o'yinda yutaveribman-yutaveribman, uning yana achchig'i qo'zib qoldi. Navbatdagi o'yinda esa men atayin yutqazdim. U mening bunaqa yonbosishimni yoqtirmadi, "odamni bunchalik xor qilmasang-chi", deb qo'ydi.

O'yinni tugatib, stolga kelib o'tirdik. Jigarrang pivoni maydalab simirib o'tiribmiz. Atrofda ikki-uch erkak-ayol vals o'ynab yuribdi. Huv anovi burchakda bir qiz ko'zlarini menga ma'nosiz tikib, qotib o'tiribdi. Men u tomonga qayta qaramaslikka tirishdim. Ulan sukutni buzdi.

— Nega jimsan?

— Charchadim.

— Charchamaydigan odam bormi? Boyagi koyishlarni aytaman. Men chindan ham mehrsiz, toshbag'irmanmi? Onam meni anchadan beri shunday deb koyiydi. Och odamning tez achchiqlanishini tushunmaydi. Shunday bir vaziyatda yashab, yana sodda-

dil, olijanob bo'lish uchun odam aqlsiz bo'lishi kerak. To'rt dunyom tugal bo'lsa, men ham yurar edim yaxshi odam bo'li-i-ib... O'zimdan o'zimning ko'nglim to'lmaydi. Yana yaqinlarimning aql o'rgatishlariga o'laymi? Dunyoni boshqacha nazar bilan ko'rgim keladi. Boshqacha ko'ra olmagach, albatta achchig'im chiqadi-da. Men odamlarga tengi yo'q, bebaho, ajoyib insonlar deb qarayman. Biroq hayotda unaqa emasliklarini ko'rib, jahlim chiqadi. Ey, gapiraman desa, gap ko'p. Mana, ikkovimiz ham iste'dodlimiz, maqtanayotganim yo'q, ikkovimiz ham yaxshi rassomlarmiz. Biroq shundan bizlar nima foyda ko'rdik? Jonimizni, yuragimizni, vujudimizni, umrimizni shu san'at uchun fido qilayapmiz. Nima qiziq ko'rdik? Tirikchilik qilishning boshqa yo'llari yo'qmidi? Anov bozorda, qurilishlarda ishlab yurgan do'stlarimizni qara, hammasi yaxshi yashayapti, mashina minishyapti. Endi ikkovimizning ahvolimizga qara, itlar yig'laydi. Hayotdan shu taxlit o'tib ketamizmi? Hattoki, hattoki... poyabzalimizning ipigacha titilib ketgan. Mayli, deymiz. Qo'yaver, deymiz. Shu holda o'tib ketarmiz. Mening jahlimni chiqaradigani — o'zimizcha shuni san'at uchun fidoyilik deymiz. Ey do'stim, qani ayt-chi, shunaqa qilib erishgan san'ating kimga kerak o'zi? Hech kim qiziqmaydigan, hech kimga keraksiz bu san'atni deb bosh qotirib yuribmiz, axir. Jamiyat uchun kerakmi? Jamiyat san'atni sevmaydi, bu bilan olomonni go'zallikka o'rgata olmaysan!

— Hammani birdaniga ayblab bo'lmaydi. Tushunadiganlar, baholab-qadrlaydiganlar ham bor. Yuz odam ichida, bor, mingta ichida bitta bo'lsayam topiladi. Bor, bor! Ana o'sha tushunadiganlar uchun ijod qilsang, arziydi. Sen rassomlikni anovi qo'shiqchilik kabi yengil kasb-kor bilan tenglashtirma. Rassomlik, tasviriy san'at hech zamondayam ommaviy tus olgan emas. Olmaydi ham. Shuhratga o'ch ekanligingni bilardim, lekin bunchalik sayoz fikr yuritasan deb o'ylamagan edim. Do'stim, senga bir maslahat beray, haliyam kech emas, yaxshigina ovozing bor, shu qo'shiqchilikka aralashsang, qalay bo'lar ekan?..

Ulan mast bo'lib qolgandir degan edim. U hazil deb aytgan gaplarimdan jahli chiqdi, yuzimga bir-ikki qarab oldi-da, qo'lidagi pivo to'la qadahni menga qarata otdi. Men, ichmoqchi deb o'ylagan edim, shuning uchun bemalol sigaret tutatib o'tirgan edim.

Ko‘z oldim yarq etdi. Peshonamdan pivo aralash qon toma boshladi. Xizmatchi qiz yugurib kelib shisha siniqlarini yig‘ib olib, qo‘l artish uchun qo‘yilgan yumshoq qog‘oz bilan arta boshladi.

Men Ulanni tushunaman. So‘nggi paytlar u anchagina qiynalib qoldi. Mana bugunning o‘zida u ikkinchi marotaba qo‘liga erk berib yubordi. Boya ukasini shapaloqladi, mana endi navbat menga keldi.

Boshqa kimni ham ursin, kimi bor uning?

III

Men hech narsa bilmaganday o‘tiraverdim.

— Nega achchiqlandi? — deb so‘radi xizmatchi qiz.

— Qo‘shiqchi bo‘lmoqchi ekan — yana hazilni davom ettirdim men.

— Mening kompozitor og‘am bor, bir qo‘shig‘ini olib boray.

— Bas qilinglar, hazilning ham chegarasi bor, endi bu tegadi, — deb Ulan qo‘lini shisha idishga cho‘zdi.

Jimlik cho‘kdi. U o‘zicha allanimalarni hisobladi. Bir payt ichgan-yeganlarimizni birma-bir sanadi-da, xizmatchi qizga qaradi:

— Jami ming yarim tanga bo‘libdi. Boshqa birovning pulidan foydalanmoqchi emasman, — deb qizga besh yuz tangalik qog‘oz pul uzatdi.

— Bir yarim mingni ikkiga bo‘lsang, olti yuz ellik bo‘ladi, — dedim atayin salmoqlab.

— Menga qaraganda sen ko‘proq ichding.

Kulishdik. Ulan baribir jahlidan tushmagan edi. Menda pul yo‘qligini biladi, bilgani uchun ham shunday qilayapti. Boya o‘zi “mening hisobimdan” degan edi. Endi esa... xizmatchi qizga:

— Buguncha qarzdor bo‘lib qo‘yaqolay, ertaga to‘lab ketaman, — dedim.

Ulan xuddi o‘ziga o‘zi gapirganday g‘udrandi:

— Hech kimdan qarz bo‘lib yurgim kelmaydi. Pulim bo‘lmasa bo‘lmas, qarzim bo‘lmasin...

Endi mening achchig‘im kela boshladi. Biroq xizmatchi qiz meni hijolatvozlikjan qutqarib qoldi:

— Doimiy mijozlarni biz ham hurmat qilamiz, qolganini to'lash shart emas.

Rostdan ham, kunda-kunora kelaverib, bu yer o'z uyimizday bo'lib qolgan edi.

IV

Ikkovlon sudralishib yerosti yo'lagidan o'tib borayotib, do'mbira chertib turgan yigit yonida to'xtadim. "Ko'ngil to'lqinlari" va "Oq yomg'ir" kuylarini qayta-qayta chaldirdik. Ulan kissasidan boya to'lamay qo'ygan ming tangalik pulini olib, yigitning oldiga tashladi-da, sochilib yotgan tiyinlar orasidan yigirma tangalikdan ikkitasini terib oldi.

— Qaytimingmi? — deb kuldim.

U indamadi. Yigitga achinib qarab turdi-da, menga:

— Erbo'l, buni qara, e, shuyam adolatdanmi? Shuncha iste'dodi bilan o'n tangaga kuni qolib, yer ostida musiqa chalib turibdi. Buning tepasida-chi, qo'lidan hemir ish kelmaydigan, aka-ko'kasining olib bergan "Mercedes"ini changitib haydab borayotgan boy bolalari u yoqdan bu yoqqa g'izillab o'tib turibdi, — dedi.

— Buning nimasi adolatsizlik? Hammasi ham adolatli, qonuniy. Yaratgan egam bunga iste'dod berdi. Bu o'sha iste'dodi bilan xalqni hayajonga solib turibdi. Boyning bolasiga esa iste'dod emas, mashina bergan, "Mercedes"ini changitib haydab yuribdi. Bitta boshga ham iste'dod, ham mashina beravermaydi-da...

— Men faqat mamlakatimizda boylik iste'doddan yuqori turishini aytmoqchi edim, xolos.

— Tushundim. Boya sen onangdan ranjiding, tushunmaydi, deding. U kishini ayblab bo'lmaydi. Mening otam ham rassom bo'lishimga qarshi edi. Yaxshi pul topadigan o'qishda o'qi, derdi. "Men seni o'stirganda yalang'och ayollarning suratini chizsin deb o'stirmagan edim" deb koyigan. Ularning orzulari boshqacha-ku, Ulan.

Boyagi "qaytim" tangalar bilan yotoqxonamga yetib keldik. Ulan to'shakka ag'anadi. Men "jiz-biz" harakatiga tushib, oshxonaga o'tib ketdim. Qaytib kelganimda Ulan "Ko'zgu"ga qarab tomosha qilib turgan ekan.

— Tugallabsan-ku...

— Xudo xohlasa, shu hafta bitib qolar...

— Sen buni ko‘rgazmaga qo‘yma.

— Nega?

— Buni sen mehringni qo‘shib, muhabbat bilan yaratibsan. Bu — hali sen uchratmagan, faqat xayollaringdagina yashayotgan ma’shuqang. Shu kungacha xayolingni o‘g‘irlab, seni majnun qilib kelgan qizni... nahotki qizg‘anmasang?!

— Men buni Arbat ko‘chasiga chiqarib qo‘ysammi deb yurgan edim.

— Esing joyidami? “Ko‘zgu”ni bunaqa xor qilma. Undan ko‘ra, mana, menga sot, qancha desang berayin.

— Shunday go‘zal tasvirni qafasga qamab qo‘yamizmi? El-yurt tomosha qilsin-da...

— O‘zing bilasan. Xalqning ma’naviyatini oshiraman, deyapsan-da. Lazzatparastlarning hirsini oshirasan, xolos.

— Qizlarning hammi?

— Qizlarning rashkini keltirarsan. “Ko‘zgu”ni ko‘rib, rashkdan o‘lib qolishadi. O‘zlarida yo‘q suluvlikni boshqada ko‘rsa, ne ham qilsin, bechoralar.

— Sening chindan ham odamlardan ko‘ngling qolgan ekan. Achinib ketyapsan. Hammani aybdor qilayapsan. Onang to‘g‘ri aytgan ekan.

— Rost aytyapsan. Hammadan ko‘nglim qoldi. Odamlarning barini yomon ko‘raman! Bari yo‘ldan ozgan, buzilgan. Ba’zan qaylardagi bir cho‘lga bosh olib ketib, yolg‘iz o‘zim yashagim keladi. Bola paytimda hayotni ajoyib deb o‘ylardim. Ertaklardagiday go‘zal deb o‘ylardim. Xato qilibman. Hayot go‘zal emas ekan, unda jirkanch narsalar, iflosliklar ko‘p ekan. Go‘dakligimda hamma narsaga muhabbat ko‘zi bilan, hayrat ko‘zi bilan boqardim. Hayotga bo‘lgan shu muhabbatim so‘nmay-o‘zgarmay turib, o‘lib ketganimda balki yaxshi bo‘larmidi? Bebaho deb bilgan narsangning arzimas matohga aylanib qolganidan yomonroq ne ko‘rgulik bor dunyoda?! Ba’zan men hatto odamzod qirilib ketsa, deb ham o‘ylayman. Bari qaytadan boshlansa...

— O'zim Odam Ato bo'lsam, dersan? Unday bo'lsa, xotinning Havvoga olma yeyishni man qil, shunda balkim hayot sen aytgan kabi, to'g'ri yo'lga tushib ketar...

— Men Odam Ato bo'lishdan bosh tortardim. Sababi men ham adashganlardanman, yo'ldan ozganman. Iflosman, bulg'anchman. Bulg'anmaslikning iloji yo'q ekan, baribir odamlarning shaltog'i tegar ekan. Biri-biriga suykanmasdan yurolmaydigan odamlarning kiri toza odamlarga baribir yuqar ekan.

Deraza oldida turib sigareta tugatdik. Boshim og'irlashayotganini sezdim. Negadir gapirgim kelmay qolgandi. Ulan mening ahvolimni tushundi.

— Mayli, boshqa indamayman. Boya, onangning aytganlari to'g'ri, dedingmi?

— Yana boshladingmi?

— Yo'q-yo'q, qo'rqma. Men boshqa narsa haqida aytmoqchi edim. Xullas, sen ham mening toshbag'ir ekanligimga ishonasan-ku, shundaymi? Bo'lmasa, tingla...

Ulan ko'zlarini olislarga tikdi.

V

(Ulanning hikoyasi)

To'qqiz-o'n yashar paytlarim bizlar ovulda yashardik. Bola ekanmiz-da. Oilada to'ng'ich farzand bo'lganim uchunmi, o'zimni erka sezardim. Tong otgandan to qorong'i kechgacha uyga kirmasdim. Qo'shni xonadonda menga tengdosh yana bir bola bor edi. Ikkovimiz ovulda bor eshaklarni o'g'irlab minib, kaftdaygina ovulning changini osmonga ko'tarardik. Ey, ikkovimiz qilmagan buzuqilik qolmagandir. Kuniga necha marta mushtlashib, necha marta yarashgandirmiz.

Boya aytdim, saharmardonlab turib, yuz-qo'limizni yuvmasdanoq ko'chaga chopardik. Onam hayron bo'lganicha izimdan qichqirardi:

— Ko'chada nima ishing bor-a? Ko'zingni ochar-ochmasdan ko'chaga yugurasan. Darsingga bor, desa, turmasding!

Ha, hamma qiziqdan qolsak qolardikki, ammo erta saharda ko'chaga chiqishimiz shart edi — sababi, erta tongdan bizning

beg'ubor bolalikdagi pokiza muhabbatimiz, sabiylikning oppoq orzusi xuddi shu paytda ko'chamizdan o'tardi. Shu manzarani batafsil tasvirlamasam bo'lmas: ikki go'dak-sabiyning orziqib kutgani — erta tongda mana shu ovul yo'lidan Qirmizi opa o'tardi. Sal shamollasang nina ko'tarib, ketingga tiqib olishga tayyor turgan, tishi og'risayam, shu ayolga ro'para bo'ladigan qishloq bolalari shifokor Qirmizi opadan o'lguday qo'rqardi. Undan Erlik ikkovimiz ham qo'rqardik! Qo'rqardig-u, lekin har kuni mana shu opaning ko'chamizdan o'tishini intiq bo'lib kutardik. Sababi, u ayol yolg'iz o'zi o'tmasdi, uning yonida ikkinchi sinfda o'qiydigan Marvarid ismli qizi ham bo'lardi. Erta tongdan jo'nab ketayotib, farishtaday qizini yetaklab olib o'tar, uni uyda yolg'iz qoldirgisi kelmay, opasining uyiga tashlab ketardi. Opasining uyiga olib boradigan yo'l bo'yida esa, bu odatni bironbir kun tark etmasdan mana biz turardik. Ikki ko'zimiz onasiga ergashib borayotgan Marvaridda. U ham bizga qarab-qarab o'tadi. Erlik bilan ikkovimizning butun orzu-umidlarimiz, tirikligimiz, muhabbatimiz, sog'inch-u qo'msashlarimiz — bari-bari mana shu lahzalarga bog'liq edi. Har kuni ertalab o'rnidan sakrab turish, ko'chaga yugurish, izma-iz, goh qo'l ushlashib kelayotgan ona-qizni entikib kutish, mana shu — bizlar uchun eng baxtiyor lahza edi. Kechqurun esa ularning qaytib o'tishini kutamiz. Yana o'sha hayajonlar. Shunga o'rganib qolgan edik. Bir kuni Erlik ikkovimiz urishib qoldik. U:

— Marvarid menga qaraydi, — dedi.

Men esa:

— Senga emas, menga qaraydi, — dedim.

Janjal shundan kelib chiqdi. Uzoq talashdik. Shunda Erlik:

— Sening nimangga qarasin? Menikiday oq krossovkang, "adidas"ing yo'q, — dedi.

Men bo'lsam:

— Senga qaraganda men chiroyliman. Sening soching bo'yraday, burning ham katta, — dedim.

Bir-birimizni yenga olmadik. Oxiri, har kim o'zi ko'chada yolg'iz turadigan bo'ldik. "Yolg'iz turganda Marvarid kimga qaramay o'tsa, o'sha — yengilgani" degan qarorga keldik. Birinchi

turish navbati meniki edi. Erlik narida kuzatmoqda. "Hozir qaraydi, hozir qaraydi" deb turibman. Biroq Marvarid menga qaramay o'tdi.

Yalt etib bir qaradi-da, Erlikning yo'q ekanini ko'rdimi, ikkinchi bor qayrilib qaramay, keta boshladi. Mening butun vujudim titrab, ichimga zahar to'lib ketganday bo'ldi. Erlikning yuziga qarayolmay, uyga qarab chopdim. Izimdan uning masxaralagan kulgisi eshitildi. Uyga kira sola, har yer-har yeriga yashil yamoq solingan qora shimimni yechib tashlab, yig'ladim. Erlikning dadasi kabi idorada boshliq bo'lib ishlamay, traktor haydaydigan dadamdan o'pkalab-o'pkalab yig'ladim. "Mengayam oq krossovka bilan "adidas" olib beringlar" deb yer tepib-yer tepib yig'ladim. Qisqasi, ancha payt yig'lab o'tirdim.

Shundan keyin ko'chaga chiqmay, ko'chadan o'tganlarni panjara orasidan mo'ralab kuzatib yurdim. Bir kuni Erlik uyga kelib, "yolg'iz turgan edim, menga ham qaramay o'tdi, ikkovimiz birga turaylik", deb yalindi. Ko'nmadim.

Oxiri kelishdik — u o'zining oq krossovkasini, "adidas"ini kiymay, menga o'xshab oddiy kiyinib chiqadigan bo'ldi.

Ertasi kuni tongda ikkovimiz ham yalangoyoq, yalangbosh ko'chaga chiqdik. Ular bizning bu xil turishimizni ko'rgandayoq kulishdi. Biz ham kuldik.

— Ustlaringga qalinroq kiyim kiymaysanlarmi? Shamollab qolasanlar-ku. Aytmadi demanglar, agar shamollab qolsanglar, ayab o'tirmayman! — deb qichqirdi Qirmizi xola. Qo'rqib ketdik.

Ertasiga kiyib chiqqan kiyimimiz yanada kulgili edi — Erlik ikkovimiz dadasining kostyumini kiyib oldik, etagi tizzamizdan oshardi. Oyog'imizda esa shipildoq poyabzal, yana, bo'ynimizda galstuk. Biroq o'sha kungi ko'rinishimiz ham muvaffaqiyatsiz yakunlandi — Qirmizi xola ishga o'tmadi, dam olish kuni ekan.

Kunlar shu tarzda o'tib turardi. Bir kuni ovulimizda yomon xabar oralab qoldi — Marvaridning ota-onasi ajrashadigan bo'libdi! Bu gapni kechasi — ayni tun paytida Erlik topib keldi. Nafasini bosolmay:

— Ajrashadigan bo'libdi! Manglayimiz quridi! — dedi.

— Kim ajrashmoqchi?

— Qirmizi xolalar!

— Nega? — dedim men boshqa so‘z topolmay.

— Men qaydan bilayin?

— Kimdan eshitding?

— Uydagilardan. Choy ichib o‘tirib shunday deyishdi. Eshitgan zahoti bu yoqqa yugurdim...

— Yolg‘on bo‘lsa kerak, — dedim men uni ham, o‘zimni ham yupatib.

Ikkovlashib Marvaridlarning uyi tomon jo‘nadik. Anig‘ini bilgimiz keldi. Ikkovimiz ham yaxshi xabar eshitgimiz kelardi. Qirmizi xola bilan Qanat og‘aning quchoqlashibmi yoki kulib choy ichibmi o‘tirganini ko‘rgimiz kelardi. Xudodan “ajrashmasinlar!” deb tiladik. Uylarida chiroq yonib turardi. Eshik oldida hech kim yo‘q. Qo‘rqa-pisa borib, deraza oldida ichkariga quloq tutdik. Bo‘yimiz pastlik qildi, hech narsa ko‘ra olmadik. Bizni payqadi shekilli, it hura boshladi. Bog‘lovli ekanini ko‘rib, qo‘rqmay turaverdik. Itining hurganini eshitib, bir payt Qanat og‘a tashqariga chiqdi.

— Kim-ey, bu?

Biz qochdik. Qanat og‘a quvdi. Yuguramiz ichimizga sig‘may yugurib kelayapmiz. Yana, birimizdan birimiz orqada qolmaslik uchun qo‘l ushlashib olganmiz. Shu qochib kelishimizga Erliklarning ko‘chasiga kelib tiqildik. Qo‘rqqanimiz shunchalik — hozir Qanat og‘a qo‘raga kirib kelsa, tamom, yuragimiz, tars-sa yorilib ketishi aniq. Biroq Qanat og‘a bizlarning qayoqqa gum bo‘lganimizni bilolmay, garangsib qoldi.

Erlikning opasiga:

— Ertaga bolangiz bilan maktabga boring, — dedi-da ketdi.

U kishi maktabda direktor edi. O‘ladigan yerimiz shu ekan-da deb, qo‘rada turaverdik. Qanat og‘aning ketib qolganini bilamiz, biroq sirtga chiqishga yurak qayda, unsiz qotib turibmiz. Yonimizdagi bog‘lovli eshak bir-ikki marta hangrab qo‘ydi. Shu payt Erlik:

— Eshaklarga maza-da, — dedi shivirlab.

— Nega? — dedim men past ovozda.

— Ular maktabga bormaydi...

Ikkovimiz ham jim qoldik. Men, bolalarni tartib-odobga o‘rgatguncha, Qanat og‘a nega o‘zi Qirmizi xola bilan yarashib olmaydi, deb o‘ylay boshladim... Erlikning onasi bizni ko‘p urishdi.

Biz ikkovimiz bir-birimizga qarab, indamay o‘tiraverdik. Onasi gapdan bir to‘xtaganida Erlik:

— Agar Qirmizi opalar ajrashsa, Marvarid papasi bilan qoladimi yo mamasi bilan ketadimi? — deb so‘radi.

Erlikning onasi angrayib qoldi.

— Bu gapni qayerdan eshitding? Qirmizi o‘lsa o‘lar, qizini bu yerda qoldirmas. He, bu xotinning... — Erlikning onasi qarg‘anib, keyin qo‘shib qo‘ydi. — Qizini men olaman, men olaman deb urushib yurardinglar, mana endi ikkovinggayam yo‘q.

Tongda yana ko‘chaga chiqdik. Uxlab qolmaslik uchun kecha kelishib olgan edik. Bizlar kelib turgandan so‘ng sut pishirim vaqt o‘tib, Qirmizi xola qizini yetaklab o‘tdi. Ular avtobus bekati tomon burildilar. Biz ham ularga ergashdik. Avtobus jo‘nadi — bizning bor-yo‘q quvonchimiz, orzularimiz, o‘tayotgan kunlarimizning mazmuni — bari-bari o‘sha avtobus bilan jo‘nadi. Vujudimiz ham, ovul ichi ham bo‘shab-huvillab qolganday edi. Ovulmizning chiroyi so‘nib qoldi.

Ko‘zlarimizdan oqqan yoshni bir-birimizga ko‘rsatishga uyalib, ters burilib uyga qaytdik. Men, agar ulg‘ayib uylanadigan bo‘lganda oilamdagilar bilan hech qachon ajrashmayman, deb ahd qildim. Marvarid ham yig‘lay-yig‘lay ketayotgandir. Onasi Qirmizi xola ham. Men ularni ayab ketdim. O‘shanda yoq men katta yoshli odamlarni yomon ko‘rib qolganim rost...

Erlik menga joni achib:

— Ulan, yig‘lamagin. Men boshliq bo‘lganimda, sen haydovchim bo‘lasan-ku (biz ko‘pincha shunday o‘yin o‘ynardik), o‘shanda izlab yurib, Marvaridni topib olamiz, — dedi.

Bu — bizning so‘nggi orzuyimiz edi. Biroq Marvaridni qaysi birimiz olishimiz haqida hali biror yechimga kelmagan edik. Topib olsak bo‘ldi, u yog‘i bir gap bo‘lar deb o‘ylagandirmiz-da. O‘sha kuni o‘yinimiz ham tatimadi.

Men uyga keldim-u, onamga:

— Menga endi “adidas” ham, oq krossovka ham kerak emas, olmay qo‘yaveringlar, — dedim.

Rostdan, endi mening qanaqa kiyinishimning ahamiyati yo‘q edi, chunki ovulda Marvarid yo‘q-ku...

Ko‘nglim vayron bo‘lib, jonim azoblanib yurgan shu kunlarda onam bo‘shanib, singlim tug‘ildi. Otamga:

— Ismini men qo‘yayin, — deb yalindim.

Uydagilar bari, har kim o‘zi topgan ismni chaqaloqqa qo‘yaman deb talashib-janjallashib yurgan paytda otam:

— Manov Ulanning bir tilagini bajo keltiraylik, singil o‘shaniki-ku, axir, — dedi. — Nima deb qo‘ymoqchisan?

— Marvarid deb.

— Nega?

— Bilmayman. Menga shu ism yoqadi, — deb aldadim.

Mening bir ermagim shu chaqaloq bo‘ldi. Yonidan bir qadam siljimasdim. Uxlab yotsa ham, yoniga yostiq qo‘yib yotib olardim. Men juda bolajon edim. Chaqaloqqa mehrim cheksiz edi. Bir Marvariddan ayrilib qolgan paytimda, sabiyligimda yupanch bo‘lgan Marvarid edi-da bu... Mana shu chaqaloq Marvarid ham peshonamga sig‘madi, olti oylik paytida qattiq og‘rib, dunyodan ketdi. Shundan so‘ng chaqaloqlarga, go‘daklarga ko‘nglim isimadi. Ularga beparvo qarashga, sovuq muomala qilishga intilaman. Yaxshi ko‘rib qolsam, oqibati yaxshi tugamaydiganday, o‘lib qoladiganday tuyulaveradi. O‘sha chaqaloq Marvarid ham mening beqiyos mehr-muhabbatim tufayli olamni juda erta tark etdi-yov, deb o‘ylab qolaman ba’zan. Yana kim biladi deysan. Ular go‘dak axir, yaxshi ko‘rgan, yomon ko‘rganni tushunavermaydi... insondagi minaz xarakter ham, odob-axloq ham mana shunday voqealarni ko‘ra-ko‘ra shakllanar ekan-da. Endi tushungandirsan, nima uchun bolalarga sovuq ekanimni...

Shu bilan Ulan hikoyasini tamomladi.

VI

Ulan rostdan ham sirli odam. Bugun mastlik qilib ochilib gapirmaganda, Xudo bilsin, yana qancha vaqt ichida saqlab yurardi bu gaplarni. Yana menga “hech kimga aytib yurma” deb eslatib qo‘ydi.

— Xo‘sh, keyin-chi, keyin Marvaridni ko‘rdinglarmi, ulg‘aygach?

— Ko‘rdik-ku. E...

Shu bilan sabiylik chog'dagi bir bola muhabbatga nuqta qo'yildi. Gap Marvaridda ham, Ulanda ham, Erlikda ham emas, gap o'sha pokiza tuyg'ularning bir xunuk ajrashuv sababli bolalar shaxsiga qanday zarar yetgani, oqibati haqida edi. Men Ulanning hikoyasini shunday tushundim.

Ikkovimiz ikki joyda to'lg'anib yotar ekanmiz, qo'l telefonim jiringlab qoldi. Ovuldan onam sim qoqayotgan ekan.

— Mana shu dorilarni topib, tezroq yetib kel! — dedi.

Ovuldagi inim kasallanib yurgan edi. To'shak tortib yotib qolibdi. Ana xolos, menda pul yo'q edi, buni onamga qanday ayta olaman?

Ulan barini tushunib yotgandi.

— Ketdik, mening uyimdan topamiz, — dedi.

Ikkovimiz taksi ushlab, Ulanning uyiga ketdik. U uyidan ancha pul olib chiqdi.

— Bu juda ko'p-ku, — dedim o'ng'aysizlanib. — Menga yarmi ham yetib qolar...

— Olaversang-chi. Ovulingga borib-kelguningcha, yo'lda ham kerak bo'ladi axir.

— Onangdan so'rab oldingmi?

— Yo'q, uni tug'ilgan kunida bir quvontiraman deb yig'ib yurgan edim.

— O'zingga kerak ekan-ku, axir.

— Ol dedim. Hech narsa ukaning jonidan ortiq bo'lmas. Onam eshitsa, qaytanga quvonadi. Omon bo'lsak, hali talay quvontirarmiz. Hozircha, yomon o'g'il bo'lib yura turay-chi. Onangga mendan olganingni aytma. O'zimning pulim de, shunda ko'proq quvonadi. Aytganday, bu qarz emas! — orqamdan qichqirib qoldi Ulan.

Men rahmat aytib, bekat tomon yugurdim. Do'stim qo'l silkib qoldi.

Yo'q, u — toshbag'ir emas!

QANAT ABILQAYIR

(1986)

Qanat Abilqayir 1986-yil 14-aprelda Almati viloyatining Rayimbek tumanidagi Sumbe ovulida tug'ilgan. 2008-yilda Qozoq milliy universitetini tamomlagan.

2011-yilda "Tekes teskari oqadi" nomli nasriy kitobi nashr etildi. 2014-yilda "Qo'shnining qizi" qissasi "Daraboz" xalqaro tanlovida birinchi o'rinni egalladi.

TELBA

Nurlan tunni behalovat o'tkazdi. Uxladimi, uxlamadimi, noma'lum... Har holda bir sas tinchlik bermadi. Qandaydir bir sharpa xonani kezib yurgandek tuyulaverdi. Ko'rpa tagiga kirib, miriqib uxlamoqni istadi, lekin bu ham bo'lmadi. Aksincha ko'rpa tagida haligi sharpa bechora bolani bo'g'ayotgandek. Nafas olishi qiyinlashdi. Ustidagi ko'rpani oyog'i bilan tepib yubordi. O'smirning pishiq badanini salqin shabada silab o'tdi. Lekin vahima tarqalmadi. Ko'zini chirt yumib oldi. Yonginasida kimningdir nafas olgani eshitiladi. Qo'li bilan qulog'ini berkitdi. Biqinidan turtib yubordi. Tanasi qaltiradi. Buyragida og'riq sezdi. Quloq tutgan qo'llarini beliga olib bordi. "Pish-pish, pish-pish". Nafas olmoqda. Ayni yonida. Aniq eshitildi.

To'rt devori qorayib turgan tor xonada o'zidan boshqa kimdir bor. Hozir ko'zini ochsa, yuragi yorilib ketadiganga o'xshaydi. "Duk-duk, duk-duk". Yuragi tinmasdan tepkilaydi. Shu damda momiq kaft uning sochini siladi. Nozik barmoqlarda iliqlik seziladi. Issiq. Vahima ham chekinganga o'xshadi. Chidamadi. Ko'zini ochdi. O'zi yotgan to'shakdan kimdir apil-tapil turib ketdi. Tovush chiqqan tomonga qaragan edi, xira qiyofa uyalganday tuyuldi. Sochi qisqa, past bo'yli, qora ko'zli suluv yig'lab turardi. Oppoq ko'yla-

gi o'ziga yarashgan. Oyog'ida uzun poshnali tufli. Orqaga chekinayotib qoqilib ketdi. Derazadan tushgan oy nuri qizning yuziga chiroy bag'ishladi. G'oyibdan paydo bo'lgan farishtaga suqlanib qaradi. Qo'rqinchni unutdi. Bunday holatni ilgari ham boshidan o'tkazgandi. Lekin dabdurustdan eslay olmadi. Bor jur'atini yig'ib, tik boqdi. Sharpa qizning nigohi bilan to'qnashdi. Nigohlar biri birini sog'ingandek quchib, biri birini sevib o'tgandek his qildi. Nigohlarning quchoqlashishi... Nurlan hushini yig'di. Lekin buning qo'rqinchli arvoh ekanini o'ylaganida, kimdir ustidan suv quyib yuborgandek bo'ldi. Yana ko'rpaga yashirinib, yuztuban yotib oldi. Orqasidan boyagi nozik barmoqlar yana silay boshladi.

Qop-qora ko'zlar. Tanish. Ha, bir vaqtlar ko'rgan. Butun a'zoyini teshib o'tuvchi begunoh qarashlar shuurining qat-qatida saqlanibdi. U kim? Qaysi banda? Qaysi farishta?

Eslay olmadi. Qiz ohista qimirlab, ko'rpaning bir chetini ko'tardi. Sas bildirmasdan yoniga kirib yotdi. Nurlan baqirmoqchi bo'ldi. Ovozi chiqmadi. Halqumiga qora tosh tiqib qo'yilgandek go'yo. Bezovta holatda yotib uxlagandek bo'ldi. Yo'q, bunday damda uxlashga yo'l bo'lsin. Uzoq vaqt unsiz yotaverdi. O'rnidan otib turishga, xonadan qochib chiqishga hol yo'q, quvvat yo'q. Agar qimirlasa hozirgina farishta hisoblagan qiz, o'zida g'aroyib tuyg'ular uyg'otgan qiz bo'g'ib o'ldirishi mumkindek edi.

O'lim! Naqadar qo'rqinchli! Mana, yotgan yeri go'rga o'xshardi. Qorong'i lahad — qabr. Borsa kelmaydigan girdoblar olami. Qaytib chiqadigan yo'l yo'q. Ajal bilan yetaklashib abadiyat olamiga ketaverasan. Tamom. Dengizga cho'kkan toshdek yo'q bo'lasan. Yo'q! Mazkur ajoyib olamdan bitta ham belgi qolmagan. Nurlan ismli bola endi yo'q.

O'zi bilan o'zi olishayotib, orqasida yotgan qizga qarashni, uni ko'rishni istadi. Oxirgi marta. Qiz hech narsa o'ylamayapti, shekilli. Jonajon uyida yotgandek pishillab uxlab qolibdi. "Nima bo'lsa ham, yaxshilab ko'rsam bo'ldi". Bor kuchini to'plab, ag'darildi. Tong oqara boshlabdi. Zaifgina yorug'lik xona devorlariga urug' sepa boshlabdi. Yo'q. Hech narsa ko'rinmaydi. Atrofiga sinchiklab qaradi. Jimjitlik. Sekin ko'rpani o'ziga tortdi. Yuragi shuv etdi. Ko'rpa og'irlashib ketgandek tuyuldi. Uni bir siltagan edi, "mi-

yov" deb qora mushuk polga to'rt oyog'i bilan tushdi. Tun bo'yi qo'rqqani o'zlarining qora mushugi ekan-ku!

* * *

Qora ko'zli qiz uyquga to'yib uyg'ondi. Kundagidan ko'proq uxlagan bo'lsa kerak. Nurlan ko'rpani silkib yuborganda, issiq nafas yuziga tegdi. Pahmoq sochlarini yanada shishirdi. Shunda ham yotmoqchi bo'ldi. Deraza tomondan maktabga shoshayotgan bolalarning ovozi eshitildi. "Mening ukam va singlim bormikan?" degan fikrda o'rnidan irg'ib turib, derazaga yopishdi. Yo'q. Og'ir xo'rsindi. "Bugun yana ko'ra olmas ekanman-da!"

Sekin odimlab ko'zguning oldiga bordi. Odati bo'yicha botiq, g'amgin nigohlariga uzoq qarab turdi. Uning chuqur qatlaridan o'tmish sharpalarini ko'rgandek bo'ldi. Jo'shib qo'shiq kuylamoqni istadi. Avvalgidek. Quvnoq bir qo'shiqni hirgoyi qila boshladi. Lekin qo'shiq aytishga kayfiyati yo'qligini tushundi.

U boshqalarga hali o'lmaganini, tirik ekanini hayqirib bildirishni istaydi. Chegara bo'ylab oqadigan Sumba daryosiga borib cho'milmoqni xohlaydi. Sinfdosh qizlari bilan sirlashmoq, to'yib-to'yib gaplashmoq niyati bor. Afus. Qarg'ish tekkan kaftdekkina besh xonali uydan uzoqqa ketolmaydi. Bundan og'ir xo'rsindi. Butun jismini olov egalladi. Atrofiga olazarak boqdi. Hech kim yo'q. Uy egalari uning xo'rsinganini eshitsa, yana vahimaga tushardi. Qiz ularni qo'rqitishni istamaydi. Ko'zguga yana qaradi. Qovoqlari shishib ketibdi. Tunda nega fig'on qildim, deb o'yladi. Nega yig'layapman? Nega? O'z go'zalligiga o'zi mahliyo bo'ldi. O'zgalar ko'ra olmaydigan, ko'rsa ham qadriga yetmaydigan suluvligidan ne foyda?..

Bundan ikki haftacha avval bunday diqqat bo'lmasdi. O'zining ich-etini yemasdi. Nega diqqat bo'lsin? Dadasini har kuni ko'rardi. Oyisi uxlaganida bildirmasdan borib yoniga yotib olardi. U uyg'onmasdan tongda yana o'z xonasiga ketardi. Ukasi va singlisi besh xonali uyda shovqin-suron ko'tarib, bor bilganini qilardi. Ularni tomosha qilishning o'zi bunga katta baxt edi. Uning xonasiga deyarli hech kim kirmasdi, bezovta qilmasdi. O'z xayollari bilan band bo'lardi. Ajoyib yoshlik chog'lariga sayohat qilardi. Uyning

yonidagi maktabni, shu maktabda saboq berguvchi ustozlarni, birga o'qigan sinfdoshlarini o'ylardi. Ba'zi bir voqealarni eslab, kulib yuborardi. Ba'zan esa ma'yuslik to'riga o'ralardi.

Eshik g'iyqilladi. Qiz nafasini ichiga yutib turib qoldi. Uyning yangi sohibasi, Nurlanning oyisi ekan. Urilib ketmayin degan fikrda sekingina burchak tomon chekindi. U o'g'li yotgan o'rinni tez-tez yig'ishtira boshladi. Bir narsalarni hirgoyi qilib qo'yadi.

Yo'q tomonga qarayman,
Kelmayapsan, oq tongim...

Qiz: "Nega shuncha xursand bo'lib qo'shiq aytayapti?" deb o'yladi. "Loaqal menikidek ovozi yo'q ekan". Ko'rpani tartibga keltirgach, orqaga qaytishga chog'landi. Kimnidir kutayotgandek biroz turdi. Nimanidir unutganga o'xshardi. Derazaga yaqinlashib, maktab tomonga qaradi. Yana qo'shiqni davom ettirdi:

Kechikmasdan kelarman deding,
Kutayapman, yetmas toqatim...

Qizning onasi tengi ayolning gaplaridan kulib yuborishiga sal qoldi. Qiziq. Bir qaraganda o'z onangga o'xshaydi. Xuddi quyib qo'ygandek. Harakatlari ham. Nurlanga munosabati ham o'z onasini eslatib turadi. Faqat ikki-uch kun bo'ldi, Nurlan maktabga ketgan hamon, "Tarix muallim" (tarix fanining o'qituvchisi Alenni o'quvchilar shunday ataydi) bir nimadan quruq qoladigandek o'pkasini qo'liga olib yetib keladi. Opaning qarshiligiga qaramasdan, turtkilab o'ynaydi. Opa o'n sakkiz yoshdagi qiz, Tarix muallim yigirma besh yoshdagi yigit qiyofasiga kiradi. Tarix muallim — mushuk, opa sichqon rolini o'ynayaptimi? Tarix muallim poylab turib, opaga tashlanib qoladi. Quchoqlab labidan o'pmoqchi bo'ladi. Opa dastlab ro'yxushlik bermaganday qarshilik ko'rsatadi. Lekin bu uzoqqa cho'zilmaydi. Tarix muallim maqsadiga yetadi. Keyin... Qiz ularni tomosha qilib turishga uyalib boshqa xonaga o'tib ketadi. Tosh devor qiz uchun to'siq bo'lolmaydi. Narigi tomondagi tovush aniq eshitilib turadi.

— Men shu damni o‘n olti yil kutdim, — deydi Tarix muallim...

Opa labini tishlab yig‘lay boshlaydi. Yig‘i aralash, lazzatlangan bir ingroq ham qo‘shilib chiqadi.

Sharpa-qiz o‘zi bilan o‘zi olisha boshladi, o‘zini to‘xtatolmay qoldi. Hayotda bir marta, ha, bir yigitning quchog‘ida... Og‘ir tin oldi. Ayolga xos tuyg‘ular uyg‘ona boshladi. Allaqanday noaniq hislar jismida o‘t bo‘lib yondi. Qulog‘ini yopib oldi. Lekin narigi xonadagi ingrangan ovoz baribir eshitilaverdi. Hayotda birinchi marta erkak zotiga, o‘ziga besh yil ustozlik qilgan muallimiga o‘zgacha nigoh bilan boqdi. Opa butun makrini namoyish etmoqda. Tarix muallim burgutdek chang soladi. O‘ljasini tobora tilka-pora qilmoqda.

Qiz bu voqealardan bexabar Nurlanni esladi. U darsda xotirjam o‘tirgandir. Nurlanni eslashi bilan Tarix muallimni ham, opani ham yomon ko‘ra boshladi. Yomon ko‘rgani bilan baribir hech narsa o‘zgarmaydi. Bu hayot nechog‘lik pok bo‘lsa, shunchalik iflos ekanini angladi. Buni fahmlab, yana yig‘lay boshladi.

* * *

Nurlan darsda mudrab o‘tirardi. Bir vaqtda xurillagan ekan, yonida o‘tirgan bola turtib yubordi. Cho‘chib tushdi. Qayerda o‘tirganini idrok etib ulgurmadi. Hamma kulib yubordi. Oldida qozoq tili ustozi turardi.

— Alimov, nega uxlab o‘tiribsan?

— Men uxlamadim.

Sinfdoshlari yana kulishdi. Orqada o‘tirgan kimdir:

— U uxlamadi, xurrak otdi, — dedi.

Ovoz chiqqan tomonga qaradi, lekin kim aytganini bilolmadi. Hali uyqudan ko‘zini ocholmasdi.

— Uxlamagan bo‘lsang, men nima dedim, takrorla...

Nurlan uyatdan yerga kirib ketay dedi, boshini silab turib qoldi. Bundan o‘qituvchi ranjidi.

— Tuni bilan cho‘chqaga taqa qoqdingmi?

Sinf yana kulgiga ko‘mildi.

Hayotda kulgiga qolishdan, masxara bo‘lishdan ortiq alam yo‘q. Tishini qayragani bilan imkon yo‘q. Qo‘lidan hech narsa kelmaydi.

Bola boshini egib qachongacha turadi. O'qituvchi qo'pol ravishda "o'tir" dedi.

U o'tirishi bilan yana tundagi behalovatni esladi. Kemtik ko'ngli yana ham bo'shab qolayotgandek tuyuldi. Vahimali xayoldan qochib, derazaning tashqarisidagi olamga ko'z tashladi. Maktabning oldida xayolga cho'mgan dono Abayning yodgorligi bor. Minglab kishilar bilan tanho olishgan ulamo jimjiloqdek bolaning dardini tushunarmikan? Ey, qaydam... bilmadim...

Tosh haykalga jon kirib, gapira boshlaydigandek tuyuldi. Shuning uchun unga qarashga hadiksiradi. Agar qaraydigan bo'lsa, yodgorlik tilga kirib, tundagi mushuk emas, noma'lum bir kuch ekanini aytadiganga o'xshadi. Bugun kechasi o'sha kuch bolani bo'g'ib o'ldirishini, shuning uchun u xonada yotmaslikka ogohlantirish beradigandek. Tosh haykalning orqasida oq ko'ylakli, qora ko'zli qiz yashirinib poylab turgandek. Hullas, turgandek... turgandek... turgandek...

O'zini boshqa bir narsa bilan aldashni istadi. Yana deraza tomonga nigohini qaratdi. Yashnab turgan nastarin gulga bir necha daqiqa tikilib qoldi. Guldan gulga uchib-qo'nayotgan arining ovozi eshitilardi. Balki shu kechagi tunni unutishga yordam berar. Kichkina mavjudot to'xtamasdan o'z ishini bajarardi. Lekin ari ham uni og'ir xayoldan chalg'itolmadi. O'tgan tun yana esiga tushdi.

Go'zal qiz. Sochi qanday edi, sochi? Kaltagina. O'ziga yarashar ekan. Qop-qora ko'zlar. Qayerdan ko'rdim? Qayerdan? Yoki umuman ko'rmadimmi? Ko'rmagan bo'lsam, bunday holatga duchor bo'larmidim? Ko'rsam... U izlay boshladi. Ovuldagilar. Sinfdoshlari... Yo'q hech birining nigohi kechagi qizning nigohiga o'xshamaydi. Yig'lab turibdi. Huddi shu qizdek chin dildan yig'lagan biror kimsani ko'rmagan. Tunda qizning nigohi bilan nigohi to'qnashdi-ku. Qora mushukning ko'zi... Shunday pok, shu qadar chiroyli! Bundan boshqa o'ylashning o'zi dahshatli. Titrab ketdi. Yonidagi do'sti biqinidan turtib qolgandi. Kecha ham shunday bo'lmaganmidi?...

Qo'ng'iroq chalinibdi...

* * *

Qiz derazadan tashqariga qaradi. Kaftdekkina ovul. Har turli odamlar. Lekin ular hayotining bir uchini shu ovulga mahkam bog'lab qo'ygandek. Uzoqqa ketadi. Yana qaytib keladi. Qaytib kelmaydiganlar ham bor. Ey, qo'ygin ularni.

Ovuldagilar hammasi bir-birini taniydi. Bugun bo'lgan voqea hech bo'lmaganda ertaga hammaga ma'lum bo'ladi. Qandaydir voqeadan bexabar qolishi mumkin emas. Mana, qo'shnilarning qizil sigiri tuqqan, shekilli. Yaqinda yelini yorilib ketadigan darajada to'lib turgandi. Bugun qo'raga qarab mo'raydi. Buzog'i ham onasini izlaydigandir. O'zi kabi. Onasini o'yladi. Uni o'lgan hisoblab, jasadini dafn qilishga olib ketayotganlarida qanday bo'zlagan edi. Yoniga kelib: "Oyi, yig'lamang, men tirikman..." deb aytishni istagandi. Uch ayol jasadini yaxshilab yuvdi va oq kafanga o'radi. Qo'shni ayollardan biri xafa holda: "Afsus, qizning ko'kragi va uyatli yerlarini yopib turadigan sochlari yo'q ekan-ku. Bunday bo'lishini kim o'ylabdi? Hatto qulog'ining teshigi ham bitib qolibdi. Bolalik qilib, o'z joniga qasd qilibdi-da! Endi janoza ham o'qilmaydi. Allohim o'zi rahm qilgay", dedi. Keyin gilam ko'tarib, besh-olti kishi kirdi. Hammasini taniydi. Shu ovulning oqsoqollari. Uning jasadini gilamga o'rashdi va ko'tarib olib ketishdi. Jonsiz jasadni ko'targan og'alari va kattalarning oyog'iga yopishib yig'lay boshladi. "Tanamni olib ketmangizlar-chi... men tirikman-ku... tirikman...". Shu choq bir to'da odam ovozini baralla qo'yib yo'qlov ayta boshlashdi va bu uning ovozini yutib yubordi. Hammaga qo'shilib ostonadan hatlamoqchi bo'ldi. Tashqarida qorong'ilik olami hukmron ekan. Darrov iziga qaytdi. O'zining uyi. Yana ostonadan bir qadam qo'ydi. Vahimali ovozlar. Chinqiriqlar. Yig'i-sig'i. Birovlarning jasadini qurt-qumursqalar kemiryapti. Birovlarning bo'yniga dahshatli ilonlar o'ralib olgan. Yana orqaga qaytdi. O'zining uyi. Onasining sochi to'zg'ib ketibdi. O'zi turgan tomonga ho'ngrab yig'lab kelmoqda. Quchoqlab oldi. Shu paytda onasi hushidan ketib yiqildi...

Ko'ziga yosh keldi. Ko'chada o'ynab yurgan Didar va Turisbekning ovozi (qo'shnining bolalari) xayolini bo'lib yubordi. Saritepa tomonga qaradi. "Eh, ukam bilan singlim qayerlarda yur-

gan ekan? Sog'inibman. Ular ko'chib ketishmaganda manavi uy bozor bo'lardi. O'yin-kulgi avjida bo'lardi. Lekin tez-tez biri-biridan xafa bo'lib, yig'lashib olardi. Urushni boshlaydigan ham, tugallaydigan ham, kuldiradigan ham, rasvosini chiqaradigan ham, quvnatadigan ham, yig'latadigan ham yerga ursang, osmonga sapchiydigan ukam edi. Lekin arazlari uzoqqa bormasdi. Singlim qancha tez xafa bo'lsa, shuncha tez ovunib, tez kulib yuborardi". Opasi ularni kuzatib o'tirardi. Bu eng baxtli damlari edi. Endi bunday kunlar hech qachon qaytib kelmaydi. "Eshikdan tashqariga chiqsammikan?" Ostonadan tashqariga bir qadam qo'ysa, qabrga kirgandek holga tushishini biladi. Lekin eshikning orqasida hayot qaynayapti. U faqat teshik topib, teshik orqali qarashni biladi, xolos! Boshqa imkoni yo'q.

Beozor ovul. Qaymog'i buzilmagan qozoqi muhit. Bemaza chivini ham, g'ing'illagan pashshasi ham yo'q. Faqat chegara bo'yidagi daryoning shovullashi tinchlik ko'ylagini dir-dir yirtadi. Erman isi burningni qitiqlaydi. "Bir tup yovshan bo'lganda edi", deb orzu qiladi. Shu yovshandan dadasining hidi kelardi. Eshik oldida g'ovlab o'sgan olabo'taga qaradi. Bir tupini yulib olib hidlab ko'rsamikan? Erman hidi. Mayin shabada o'sha hidni hamma tomonga yoyib tashlardi. Nastarin gullagan vaqtda u ham gullay boshlardi. Mana shu uyni ko'plab yigitlar "qo'riqlardi". Ukasi va singlisi ulardan qizg'anib, opasini himoya qilardi. Bunday davron ham Saritepaning naryog'iga ketib qoldi-ya...

Qo'shnining qizil sigiri qo'raga qarab yana bir mo'rab qo'ydi.

* * *

Nurlan maktabdan kelganida quyosh "toshbaqa yurish" bilan avj nuqtaga yetib qolgan edi. Tundagi qo'rqinchli xayollar sal bo'lsa ham uni tark etdi. "Qo'rqqanga qo'sha ko'rinadi. Yigitman-ku! "O'n uchda o'tov egasi" bo'lishgan. Men o'n besh yoshga keldim. Dadam ham yo'q. Men oyimga suyanch bo'lishim kerak. Buning uchun... bir qora mushukni deb hammaga kulgi bo'larman. Ovul bolalari bilan tunov kuni...".

Ha, tunov kuni bolalar bilan tog' etagidagi qabristonga borganini esladi. Xiyol jilmayib qo'ydi. Qo'rqinchdan dag'-dag' titrab,

jon hovuchlab qochishgan edi-da. Bu ham shunday voqealardan biri bo'lsa kerak.

Ovulning bosh tomonida Belto'g'on kanali bor. Sumba daryosi chegara bo'ylab oqadi. Belto'g'on Sumbadan ajralib chiqadi. Ovulning o'ng tomoni — temir panjara. Faqat chegarachilarning ruxsati bilan o'tish mumkin. Ovulning past tomonida katta darvoza bor. Chegara tomonga o'tadigan ovul aholisi o'sha darvozadan kirib, o'sha darvozadan chiqishadi. Ichkariga faqat hujjat bilan kiritadi. Katta yoshdagilar bo'lmasa, bolalar o'zlari u tomonga borolmaydi. O'ynaydigan yer ham tor. Xuddi nafas yetishmaydiganga o'xshaydi. Ovulning shimoli-g'arb tomonida mashhur Jobir tog'lari bor. O'sha tog'ning bag'ri hammaga ochiq. Shuning uchun bolalar Belto'g'on bo'ylab ketishadi.

Nurlan va do'stlari ana shu tarafda yurgan edi. Ali chopib keldi. U — ayyor va shum bola. Uning gaplari chin yoki hazil ekanini ajratib olish qiyin. Ikki yuzi qip-qizil anordek. Turli-tuman narsalarni o'ylab topardi.

— Bolalar, qabristonga borib kelaylik.

Kutilmagan taklifdan hamma bir dam hayron qoldi.

— Ey, sen tog'angnikiga boradigandek gap qilding-ku! — dedi Nurlan.

— Nima bo'pti?! Qo'rqyapsanlarmi? Men qo'rqmayman. Kim quyonyurak bo'lsa, bormay qo'ya qolsin, — dedi Ali Nurlanga qarab.

— Men qo'rqmayman!

— Qo'rqasan... Qo'rqmasang, non ursin deb qasam ich.

— Aytmayman.

— Demak, quyondek qo'rqoqsan...

— Xo'p, aytaman: non ursin.

— Sen "non ursin" demading. "Mnon ursin", deding.

— Non ursin, dedim.

Nurlan qushdek chirqillagan bu "palakat"ning dodini berar edi. Iloji yo'q. U boshqa ovuldan ko'chib kelgan. Bolalarning hammasi unga olaqarash qilmoqda. Agar bir ishkal chiqsa, hammasi yopirilishi mumkin. Ehtiyotkorlik kerak.

Ular qabristonga yo'l oldi. Hammaning yuragi dukillab kelmoqda. Lekin Ali xursand.

— Huv anavi katta gumbaz — mana shu qabrlarning "boshlig'iniki". Shunga borib tuproq solamiz, — deb aytib qo'yadi.

Qabrlarni oralab yurib, katta gumbazga ham yetishdi. Unga yetib qolganda Ali yana bir fikrni o'rtaga tashladi.

— Bu gumbazga hammamiz salom berib kirishimiz lozim.

Endi orqaga yo'l yo'q edi. Kirmasang, kalaka qilishadi. Bir devori "qiyshayib qolgan" dahmaning ichidan "pirr" etib chumchuq uchib chiqsa, yurak "shuv" etishi tayin. Bolalar "bismilloh"ni ming marta takrorlab, bir-birdan dahmaga kira boshladi. Nurlan chekkada turib, ularni kuzatib turdi.

Atrofdagi qir-adirlar yig'ilmagan to'shakdek g'adir-budur sochilib yotibdi. Yelovsiz chol ko'k eshagida toqqa qarab pildirab ketmoqda. "Bolalar qabristonda nima qilyapti?" degandek goh-gohida qarab qo'yadi.

Nurlan bolalar salom berib kirayotgan baland gumbazli dahmaning yiqilgan devoridagi yoriqqa tikilgan edi, tepaga ko'tarilib qolgan quyosh nuri ko'zini qamashtirib yubordi. Qulog'ining tagidan Sumbaning shildiri qitiqlagandek bo'ldi. Salqin shabada qabrlardan qandaydir g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovoz chiqarib, qandaydir simfoniyani kuylayotgandek bo'lardi. Dahma devoridagi lavhani hijjalab o'qiy boshladi. "Qal-mir-za o'g'-li Ne-sip-bek, 1931–1988-yil. Do'st-la-ri va far-zand-la-ri-dan". "Xudoga shukur" dedi o'ziga. Alifni kaltak demaydi. Aks holda bu dahmaning kimniki ekanligini bilmas edi. Shu chog'da burun kataklari pishillab, suv oqib ketdi. Uni yengiga surib qo'ydi. Bu qabr — Nasipbek otaniki. O'zining fahmlashicha, u kishi Nurlan ikki yoshga to'lganida vafot etgan ekan. Bu ovulda kimning otasi yoki kimning qarindoshi ekanini birgina Xudo biladi. Kirish navbati Nurlanga keldi. Boshqalarga o'xshab:

— Assalomu alaykum, bobo, — degan edi, qabrdan:

— Va alaykum salom, — degan vahimali ovoz chiqdi. Qiychuv bo'ldi. Kimdir yiqilib qoldi. Biri o'rnidan turdi. To'rt-besh bola birdan dahma eshigiga tiqilib qolgan. Hammaning joni shirin. Qabrlarning ustidan sakrab-sakrab oldinga intilgan. Nurlan ham

boshqalardan qolib ketmadi. Eng oxirida kirganligi uchun eshik oldida turgan edi. Eshikdan birinchi bo'lib chiqdi. Faqat qochib kelayotib o'pirilgan qabrga tushib ketdi. Yuragi yorilmaganiga hayron qoldi. U nima bo'lganini anglaguncha, uch-to'rt bola ustidan sakrab o'tib ketdi.

Bu voqea butun ovulga yoyildi. Hammasini uyushtirgan Ali edi. Ovulning yoshi kattaroq yigitlari bilan maslahatni bir yerga qo'yishgan. Bir mardrog'i gumbazning ichiga kirib yotgan. Salomga alik olgan arvoh emas, ovuldoshlari Aziz ekan.

"Qo'rqqanga qo'sha ko'rinadi" degani shu. O'sha paytda omon qolgan edik. Endi nega vahima qilaman?", o'yladi Nurlan.

Uyga keldi-da, tezda kiyimlarini almashtirdi. Shoshmasdan tushlik qildi. Bolalar bilan birga Belto'g'onga borib cho'miladigan vaqt bo'libdi. Kechgacha shu yoqda bo'ladi. Futbol, tortishmachoq o'ynaydi. Quyosh botay deb turganda horib-charchab keladi. Bugun Belto'g'onga borishni xohlamadi. Kechasi qonmagan uyquning rejasini to'ldirmoqchi bo'ldi. To'shakka cho'zildi. Ko'rpaga burkanib olgan yigitning qilig'iga qizning kulgisi keldi. Uxlab olsin, bezovta qilmayin, deb o'yladi.

* * *

Hammasi nimadan boshlangandi? Onasining kelishi bilan. Yo'q-yo'q. Oyisi oppoq ko'ylak olib kelgan kuni. Ha. O'sha kuni bahri dili ochilib, ajoyib kayfiyatda yurdi. Og'zi yig'ilmadi. Bu ovulda, hatto butun dunyoda o'zidan go'zalroq, o'zidan nafis hech kim yo'qdek. Rost, ko'ylagi o'ziga juda yarashardi. Ko'zguning oldiga yugurib borgan. Unda farishtani ko'rgandek bo'ldi. Ko'ylakning etagi qanday edi? Yurganida gulga o'xshab ketardi. To'g'ri oyoqlarini chalkashtirib bosib, xonani gir aylangan. Shu go'zalligimni ko'rsa-chi, deb o'ylagan. Uning ismini atash u yoqda tursin, o'ylashga uyalardi. Ichiga yashiringan hislarni bilib qoladigandek tortinardi. Bordi-yu, bilib qolsa dilrabo tuyg'usi chil-chil bo'ladigandek... Shuningdek, u qiz bola bo'lsa... Ha, uning ba'zi qiliqlari Nurlanga o'xshardi. Xuddi Nurlan kabi odamovi edi. O'zi bilan o'zi ovora edi. Shunday bo'lsa ham, uni ko'pchilik yoqtirardi. Ba'zi yosh muallimalar o'zlarining mavqeini unutib, oz-moz

noz-karashma ham qilardi. O'sha paytlarda mo'ylovi endi sabza bo'la boshlagan edi. Uni o'lgan hisoblab hamma hamdardlik bildirish uchun, fotiha o'qish uchun kelganida... bir nuqtaga tikilgancha, uzoq o'ylanib o'tirgandi... Yoniga borgan edi... U ham shuni sezgandek shu tomonga qaragandi... Ko'zidan bir tomchi qaynoq yosh... Qiz o'zining xayollaridan o'zi cho'chib tushdi. Yana oppoq qordek ko'ylagi haqida o'yladi. "Inson ko'rki kiyimda". Bunday chiroyli ko'ylakni qo'li yetganlargina kiyadi.

Maktabga borguncha shoshildi. Sinfdoshlariga oppoq ko'ylaginini ko'rsatishni istadi. Shu tariqa shoshib-pishib maktabga borgan.

Hammasi tushdagidek. Tulpor vaqt to'xtamay oldinga intiladi. Darsga ham astoydil tayyorlangan. Qizdagi o'zgarishga sinfdoshlarining hammasi hayratlanib qaraydi. O'sha kuni yigitlar ham allanarsalarni bahona qilib uning yonida aylanishib qoldi. Faqat yonida o'tiradigan tengdoshi darsga kelmay qoldi. Dastlab o'rni bo'shdek edi. Bir qarasa, bu yerga boshiga ro'mol o'ragan kampir o'tirib olibdi. "Bu kampir mening yonimda nega o'tiribdi?", deb o'yladi. Tanaffus vaqtida o'rtoqlaridan so'ragan edi, hammasi qizga ajablanib qarashdi. Keyingi darsda ham haligi kampir jimgina yonida o'tiraverdi. Qizdan boshqa hech kim unga e'tibor bermayapti. Hatto sinfga begona kampirning kirib kelganini bilishmaydiganga o'xshaydi. Qizda qo'rquv uyg'ondi. Dars tugab, uyga qaytganida ham kampir bir qarich ajralmadi. Qiz uyga kelib tushlik qila boshladi. Kampir ro'parasiga kelib o'tirib oldi. Tashqariga yursa, orqasidan ergashib chiqdi. Telbalardek ovulni kezib ketdi. Kampir undan ajralmaydi. Soyasi kabi yonida yuraverdi. Oxiri chidamadi.

— Siz kimsiz?

— Buvingman. Kuliya buvingman, — deb kampir javob berdi.

Bundan o'ttiz yil avval vafot etgan dadasining onasi. O'zining buvisi. Qiz baqirib yig'lab yubordi. Ko'z yoshini to'xtatolmadi. Shunchalik qo'rqib ketganidan ko'rganlarining hammasini aytib berdi.

Ayni o'sha damdan uning hayoti butunlay o'zgarib ketdi. Dadasi va oyisi uni ko'plab tabib, baxshi, azayimxonlarga ko'rsatdi. Hammasi "oppoq ko'ylak"ni aybdor qilishdi. "Sehr qilishgan"

deyishdi. Buni onasi topib, qiziga kiydirgan. Qiz arvohdan qutulmasligini sezdi. Uch kundan keyin hamma narsaga o'rganasan. Asta-sekin ko'nika boshladi. Xuddi shunday bo'lish kerakdek. Hech yeri og'rimaydi. Aql-hushi joyida. Aksincha. Ongi avvalgidan ham tozalangandek. Eshitgani birdan yodida qoladigan bo'ldi. Hamma narsani bila boshladi. Faqat... ha, faqat buvisi ikkisi uyga qamaldi. Aniqrog'i, qizni ko'chaga chiqarmay qo'yishdi. Besh xonali uyning bir xonasida uzzukun o'tiradi. Bundan qiz xafa bo'lmadi. Zerikmaydi. Aniqrog'i, zeriktirmaydi. Bekor o'tirmasdan she'r yozadigan bo'ldi. Jaranglatib kuy chaladi. She'r yozmaydi, yozdiradi. Kuy chalmaydi, chaldiradi. Jarangdor ovozi uzoqlarga ketadi. Butun olamni shirali ovozga mahliyo etadi. Kuyga qanot bitib, Sumbagacha yetib boradi. Kuyning ikki qanotiga buvisi ikkisi o'tirib olgan. Toqqa yetgach, tog'ning narigi tomonidan ham ta'sirli musiqa eshitilib turadi. Chortosh tomondagi qadimiy qabristonlardagi arvohlar "Allohu akbar" deb jo'r bo'lishayotganga o'xshardi.

Uch oy davomida qizning maromiga yetkazib chaladigan kuylarining soni to'rt yuz yigirma yettiga yetdi. Uch qalin umumiy daftar buvisi yozdirgan she'rlarga to'ldi. Buvisidan o'rgangan qo'shiqlarning sonini hech kim hisoblab ko'rmagan. Uch oy aytsang ham, tamom qila olmaysan. O'zi avvaldan biladigan Qapez va Shaltaboyni hisoblamaganda, qozoqning kuychi, qo'shiqchilarining adog'i yo'q ekan. Ularning ruhlari kelib qizga bor san'atlarini o'rgatishadi. Buvisi qiziqarli dostonlarni aytib beradi. Kechagina an'anaviy qo'shiq deganlarimiz... ha, mualliflari bor ekan. Buning hammasini elga bildirishni istaydi. Faqat bu xonadan chiqishga ruxsat yo'q. Bilganlari, o'rganganlari shu xonadan tashqariga chiqolmaydi.

Bir kuni qulay paytdan foydalanib, tashqariga chiqib ketdi. Hovli devorining yoniga qurigan mol tezagini terib qo'yishardi. Shuning ustiga chiqib olib, konsert qo'ydi. Buni eshitishga kelganlarning sonini birgina Xudo biladi. Atrof arvohlarga to'lib ketdi. Arvohlar orasida qo'shnilar ham yuribdi. Qiz sanoqli qo'shnilarning dastidan ruhi baland arvohlarni ko'rolmayotganiga afsuslandi.

— Sahnada Qozog'istonda xizmat ko'rsatgan artist Oygul Serik qizi...

Qiz o'zicha bir tabassum qildi. Menga bunday unvonning nima keragi bor? Televizorda san'atkorlarni mana shunday tanishtiradi-ku. Bir qo'shiq aytdi... Ikki qo'shiq... Uch... Ovul osmoni qo'shiqqa belandi. Uch qo'shiq — uch o'lkaning qo'shig'i. Orqa, Sir, Yettisuv... Xuddi shu vaqtda qizning tashqariga chiqqanini bilmay qolgan dadasi yetib keldi. Ajoyib konsert pachava bo'ldi. Biror gap demasdan qizni yetaklab olib ketdi. Qiz qo'shiq tinglashga kelgan arvohlardan kechirim so'rashga ulgurmadi. Uyga kirgach, dadasi "ko'chaga chiqma" deb qattiq tayinladi.

Kunlar shu tariqa o'taverdi. Qiz uchun hammasi avvalgidek. Faqat maktabga bormaydi. Hamma "jinni"ga chiqardi. Ularning o'zlari jinni. Qarindoshlari kunora kelib ahvol so'rashgani bo'lmasa, tani sog'lom. Kiyimi butun. Ko'ngli to'q. Es-hushi joyida. Keyingi uch oy ichida yashiringan iste'dodining ko'zi ochildi. Toptoza buloq kabi. Bu buloqdan jami insoniyat bahramand bo'lishi mumkin. Albatta, chanqog'i bosiladi. O'chgani yonib, o'lgani tiriladi. Bu iste'dod kundan kunga ochilib bormoqda. "Odamni mana shunday qamab qo'yib, san'atini rivojlantirish mumkin ekan-da", deb xulosalaydi.

— Buvim qayerda ekan hozir?

Quyosh tobora ufqqa yaqinlashardi. Qiz Nurlanni uyg'otmoqchi bo'ldi. Bemahal bo'lib qolibdi.

* * *

Nurlan namozdigar vaqtida uyg'ondi. Turgisi kelmadi. Lekin, qaydam... Hozir daladan qo'ylar keladi. Ularni haydab kelib, qamash kerak. Uy ichini yorug'lik tark eta boshlagandi. Ko'zini ishqalab biroz o'tirdi. O'rnidan turgan vaqtida oldidan bir sharpa yugurib o'tdi. Yuragi dukilladi. Yana o'tirib qoldi. Menga nimalar ko'rinyapti? Menga nima bo'ldi? Balki kechagi xayollardan hali qutila olmaganimdandir. Parvo qilmagandek bo'ldi. Picha o'tirdi va tashqariga chiqib ketdi.

Ovuldoshlari navbat bilan qo'y boqadi. Tunov kuni ular yangi uyga ko'chganda qarindoshlari "qo'ralaring molga to'lsin" degan niyat bilan o'ntacha to'qli berishgan edi. Qo'ylar kechroq kelgan kuni bolalarning tilagi bajariladi. Ular qir tomonga borib xumor-

dan chiqqancha o'ynashadi... Ba'zan o'yinga shunchalik berilib ketadiki, qo'ylarning kelib qolganini ham sezishmaydi. Birdan shovqin-suron boshlanib ketardi. "Ey, o'ng qulog'i kesilgan sovliq qani?", "Qozoqi qo'yning qo'zisi adashib qolibdi, bor topib kel", "Hey, qo'chqoring bugun bizning qo'rada qola qolsin..." Shunday so'zlarga qo'ylarning ma'rashi, sigirlarning mo'rashi qo'shilib, shovqin kuchaydi. Bu ham qiziq. Nurlan bugun ham qo'yning kechroq kelishini tilab o'tiribdi. Bugun o'yinga bormadi. Loaqal bir-bir yarim soat yotib xumordan chiqadi.

Nurlanlar shu ovulga ko'chib kelganiga bugun o'n uch kun bo'ldi. Ertaga ikki hafta bo'ladi. Avvallari tog'asining uyiga ko'p kelardi. Shuning uchun ovulni oz-moz bilardi. O'tgan ikki hafta vaqt ichida ovul bolalariga ko'nikib ketdi. Bolalar yaxshi-da. Urushib qoladi. Ertasiga totuvlashib, yana birga o'ynab yuraveradi. Kek saqlashmaydi. Katta yoshdagilar esa... Masalan, oyisi va dadasi. Ikkisiga nima yetmaydi? Har kuni urush, har kuni janjal.

Oxirgi ikki yilda dadasi butunlay o'zgarib ketdi. Avvalgi baxtli kunlari unutildi. Uni bo'yniga o'tqazib, kerilib yuradigan baquvvat yigitdan faqat qoq suyak qoldi. Har kuni ovuldagi aroqxo'rlarni yig'adi. Shular bilan birga yuradi, shular bilan birga ichadi. Ovuldoshlari "alkash" desa ham uyalmasdi. Keyin uyga kelib, onasini urardi, tepardi. Nurlan shu kungacha chidab keldi. Faqat ajralishlaridan oldin... Uyga kirsa, yana oyisini urayotgan ekan. Yugurib borib, qo'lidan ushladi. Mast kishining ne holi bor, ko'tarib oldi-da, qattiq itarib yubordi. Buni ko'rgan dadasi:

— Ey, haromi, sen mening o'g'lim emassan, bilasanmi? Mening o'g'lim emassan! Mening...

Dadasi yuztuban yiqildi. Ikki yelkasi silkinar, ho'ngrab yig'lardi. Nurlan hech narsani tushunmadi. Mast odam nima demaydi? Uydan chiqib ketdi. Ko'chada ancha yurib, uyga keldi. Kelsa, onasi tugunlarini tayyorlab qo'yibdi. Shu kuni tog'asining uyiga ko'chib keldi. Qattiq charchabdi. Kattalar dahlizda gaplashib o'tirishganda uxlab qolibdi. Qancha uxladi, bilmadi. Yig'i ovozidan uyg'onib ketdi. Onasi ekan...

— Uning kimga o'xshaganini bilmayman... Har holda bo'shbayov emas. Bir kuni hammasini bilib, o'ldirib qo'ysa nima qi-

laman? Sho'rimga sho'rva to'kiladi... O'n olti yil davomida tahlikada yashaganim ham yetar...

"Nimalar haqida gaplashyapti? Kim haqida? Ha. O'tgan kuni qo'shnilari Baqarqul dadasini o'lguncha savalagan edi. Oyim butunlay ketganidan keyin, endi dadamni o'ylab behalovat bo'lgani nimasi?" deb o'yladi.

Keyin Tarix muallim:

— Bo'ldi, yig'layverma. Hammasi tugadi, — dedi.

Shunday xayollar bilan Nurlan Belto'g'onga tez yetib olganini bilmay qoldi. Bugun negadir shovqin-suron qilib o'ynaydigan bolalarning ovozi chiqmaydi-ku. Qarasa, kichkina tepalikka yig'ilib, hangomani qizdirib o'tirgan ekan. Nurlan ham beixtiyor shularga borib qo'shildi va gapga quloq sola boshladi.

* * *

Besh echki. Shayton odamlarning ko'ziga echki bo'lib ko'rinar ekan. Qizg'in suhbat shundan boshlandi. "Hozir qo'y keladi, o'sha qo'ylarning orasida Samatning ellik echkisi bor... O'sha echkilardan beshtasi shayton bo'lib, manavi bolalarni quvib ketadi... Yo'q-yo'q. Ha, xuddi shunday qiladi".

Aytguvchi ham, tinglaguvchilar ham "qoch" desa oldi-orqasiga qaramasdan juftakni rostlashardi. Lekin "qoch" deb baqirishga hech kimning yuragi dov bermaydi. Aksincha, bir-biriga yanada yaqinroq o'tirdi. Dukillagan yuraklar bir-biridan panoh tilaydi. Biri-biriga qo'rg'on. Birinchi hikoya tugadi. Ikkinchi bola to'xtatmasdan echki tuyoqli qiz haqidagi hikoyani boshlab yubordi.

Mitti yuraklar durs-durs qilib ko'krakni yorib chiqishni istaydi. Voqea vahimali, lekin qiziq edi. Huv anavi qabristondan echki tuyoqli kelayotgandek... Qiz ham hikoyani eshitib, orqalarida turgandek... Hozir buni aytayotgan bola o'sha qizga aylanib ketadiganga o'xshardi... Bu hikoya ham tugadi. Qo'ylarni cho'zib yoygan kunlari ularni yig'ib olish qiyinroq bo'ladi. Bugun ham shunday bo'lgandir... Tezroq kela qolsaydi. Bunday vahimali hikoyalarni eshitmasdi. Bolalar hammasi shunday deb yo'lga ko'z tikib o'tirganida navbatdagi hikoyani Ali boshladi. Aslida bunday voqealarni

aytishganda biri boshqasini lol qoldirishni, hammasidan zo'rini o'zi aytishni istaydi.

— Nurlanlar ko'chib kelgan uyni bilasanlarmi? — deb atrofiga xo'rozlanib bir qarab qo'ydi. Keyin yorilgan labini bir yalab yana so'radi:

— O'sha uydan Nurali amaki nega ko'chib ketganini eshitdinglarmi?

Hamma jim. Yangi bir gap eshitishlarini bilib, quloqlarini ding qilishdi. Nurlan ham yaxshiroq eshitish uchun Alining yoniga yaqinlashdi.

— Biz Quvvat ikkimiz do'st edik...

— Quvvat kim? — dedi Nurlan so'zni bo'lib.

— Sen gapga aralashma, — dedi xushlamasdan. — Quvvat — mening do'stim... Ilgari senlarning uylaringda yashagan. Nurali og'aning o'g'li. Bir oy avval shaharga ko'chib ketdi. O'tgan yillarda, biz oltinchi, yo'q beshinchi, uje to'rt yil o'tib ketibdi-ku... Beshinchi sinfda o'qib yurganimizda Quvvatning opasi o'zini osib qo'ydi.

— Oygul opa, — dedi chetroqda turgan qora bola. Bu Alining so'ziga tasdiq edi.

— Biz Oygul opaning qo'shnisimiz-ku. U telba bo'lishdan avval shunday voqea bo'lgan ekan. Buvim erta turib ko'chaga chiqsa, bizning eshigimiz oldida chiroyli oppoq ko'ylak va tufli yotgan ekan. Yap-yangi, kiyilmagan. Buvim bularni ko'rib kimdir sehr qilgan, deb uloqtirib yuboribdi. Ovul chekkasidagi qora kampirning qizi jinni bo'lib qolgan edi. O'sha kampirning ishi. Agar shu ko'ylakni mening opam kiyganda, u ham jinni bo'lib qolardi, — dedi sariq bola burnini yengiga artib.

Ali gapini davom ettirdi:

— Oygul opaning osilganini birinchi bo'lib Quvvat ikkimiz ko'rdik. Shu yerda, hozirgi Nurlanlarning uyida yashirinmachoq o'ynayotgandik. Ko'z yumish navbati Quvvatda edi. Oygul opa kasal bo'lib qolgandan keyin o'z xonasidan chiqmas edi. Men o'sha xonaning eshigini ochib-yopdim-da, choy ichadigan xonaga kirib ketdim. Quvvat ko'zini ochgandan keyin birinchi bo'lib ovoz chiqqan tomondan izlaydi, deb o'yladim. Meni izlay boshladi. Shifonerni ochib qolganida...

Chinqirgan ovoz eshitildi. Qo'rqib ketib, o'sha xonaga men ham kirdim. Ko'zguli shifonerning ichida Oygul opa osilib turardi. Bo'ynida oyisining belbog'i.

— Rostini aytgin, shuni sen ko'rganmiding? — shovqin solishdi bolalar.

— Men faqat shu narsanigina aytmoqchi emasman. Yana...

Bolalar nafaslarini yutib, jimib qolishdi.

— Bobom aytdi. Bundan uch hafta avval Quvvat Oygul opa osilgan xonaga kirsa, opasi suratlarni yoyib qo'yib tomosha qilayotgan emish. Qattiq qo'rqqan bo'lsa kerak. Hushidan ketibdi. Noodatiy tovushdan shubhalanib, ota-onasi yugurib kirsa, Quvvat behush yotgan ekan. Oygul esa hech narsa bo'lmaganidek narigi tomonida kulimsirab o'tirgan ekan. Bu ko'rinishga chidamagan ota-onasi Quvvatni tashqariga ko'tarib qochibdi. Darrov mullaga kishi yugurtiribdi. Quvvat arang hushiga kelibdi. Mulla ketib haligi xonaga kirsa, Oygul opa ketib qolibdi. Faqat rasmlar sochilib yotgan ekan.

Nurlan o'zini tushunolmay qoldi. A'zoyi badanini jon tark etgandek bo'ldi. Yuragi qattiq dukillamoqda. Oyoqlari qaltirab, bo'g'inlaridan kuch ketdi. Kechagi oq ko'ylakli, qora ko'zli go'zalning ismi Oygul ekan-ku. U qizni men tunda ko'rdim deb aytishga botinolmadi. Faqat qimirlamasdan, tinchgina o'tiraverdi. Qancha vaqt o'tirganini bilmaydi. Har holda vahima uni tamomila zabt etgandi.

* * *

Yana tun bo'ldi. O'lik sukunat. Saqov xona. Hech narsa ko'zga ko'rinmasa ham, bir sharpaning borligi aniq. Bir sharpa. Nurlan bugun oyisining yonida yotmoqchi bo'ldi. Lekin... oyingnimi, boshqaningmi qo'yniga kirib ketsa ham, sharpadan qutulolmasligini bildi. Qop-qorong'i xonada Oygul yurganga o'xshayverdi. O'rnidan tursa ushlab oladigandek. Tinchgina yotolmadi. Shuuri toza. Uyg'oq. Bolalar aytgan voqeadan keyin uxlab ko'ring. Faqat kecha emas, bugun ham oldidan yugurib o'tdi-ku! "Borib hammasini oyimga aytsammikan? Yo'q, qiynalib yurganida yana qiynamayman", deb mulohaza qildi. "Qiynamayman. Har ne bo'lsa, taqdirdan. Ko'ra-

veraman". Ag'darilgan sayin temir karavot g'ijirlaydi. Bu ham vahimaga vahima qo'shib, qo'rquvni oshiradi. Nurlan o'zini boshi berk ko'chaga kirib qolgandek his qildi. "Bu uydan ko'chaylik, deb aytsammikan?" Ayta olarmikan? Aytolmaydi.

Hozir kayfiyatga qaraydigan vaqt emas. Dadasini o'yladi. "Dadam nega menga sovuq munosabatda bo'ldi? Meni nega yomon ko'radi?". Yotoqxonaning eshigi ochilgandek bo'ldi. Nurlan yostiqdan shartta boshini ko'tardi. Oppoq ko'ylakli farishta qiz kulib yubordi.

— Qo'rqma, Nurlan...

Nurlan tilini "yutib yuborgandi". Baqirmoqqa harakat qildi. Lekin majol yo'q edi. A'zoyi badani titrardi. Sovuq suvga tushib, quyoshga toblanganda, mana shunday qaltirar edi.

— Men ham sen kabi bandaman. Ikki oyoqli. Faqat hamma meni o'lgan deb o'ylaydi. Men tirikman...

Ishonmadi. Lekin boshqalarning ko'ziga ko'rinmaydigan sharpa-qizning ovozi ham muloyim edi. Nurlan yana xonadan qochib chiqmoqni istadi. Oyog'i unga bo'ysunmasligini sezdi. Qizning so'zini eshitmaslik uchun qulog'ini bekitmoqchi edi, qo'lini qimirlatolmadi.

Endi Nurlanga baribir edi. Ali aytgandek, Quvvatga o'xshab hushidan ketardi. Es-hushi joyida. Oq ko'ylakli qiz yoniga kelib o'tirdi. Vahimadan nishon qolmadi. Xuddi yoniga sinfdosh qiz kelib o'tirgandek bo'ldi, nazarida. Bir nima deb gapirmoqqa chog'landi. Lekin dilidagini tiliga chiqarolmadi.

— Nurlan, sen qo'rqma! Men senga tegmayman. Faqat yuraging yorilib ketmasin. Qo'rqma...

Nimadan qo'rqadi endi? Bo'ladigan ish bo'ldi, bo'yog'i sindi. Endi hammasini biladi. Bu qiz bo'g'ib o'ldirsa ham mayliga.

Qiz Nurlanning qo'lidan mahkam ushlab oldi. Tortib olmoqchi edi, bo'lmadi. Nozik barmoqlar chirmovuqdek o'ralgan ekan. "Uning qanday rejasi bor, nima qilmoqchi ekan?"

Bundan keyingi voqealarni eshitganlar ishonmaydi. Eslashning o'zi noqulay. Tuni bilan Nurlan sharpaning aytganiga itoat qildi. Faqat nomi sharpa. Aslida oftob bilan bellasha oladigan go'zal qizning xushtori bo'ldi o'sha kecha. Naqadar dahshatli, naqadar

lazzatli tun... Qaynoq quchoq... Asaldek lablar... Vaqt tegirmon toshidek aylanaverdi. O'tdi-ketdi. Ha. Qo'lidan ushlagan chog'da bekorga qo'rqqan ekan. Hamma o'ylagandek qiz qo'rqinchli emas edi. Top-toza farishta. Farishta bo'lganda ham... Farishtalarning farishtasi... Hayotida yor quchmagan o'smir yigit va balog'at yoshidagi qizning baxtli onlari shu tariqa tez nihoyasiga yetar deb hech kim o'ylamagan... Nurlanning yuzi qizarib ketdi. U o'z xayolidan o'zi uyalardi.

Tunda quchog'iga sharpa-qiz kirgandi. Uyg'onganda sharpa-juvon yig'lar edi. Yupatmoqchi edi. Hamon tili aylanmasdi.

* * *

Sharpa-juvon uyg'onganda kun choshgohga yaqinlashib qolgan edi. Kecha qiz edi. Guli ochilmagan. Bugun o'zgarib qoldi. Hayotga boshqacha qaraydi. Ko'zguning oldiga bordi. Yuzi anordek qizarib ketibdi. Ko'zgudagi o'z go'zalligiga o'zi suqlanib qaradi. Yalang'och tanasida bir qusur yo'q. Qarab ko'zi to'ymaydi. Kechagina hech kimga keraksizdek edi. Endi uni quchadigan quchoq bor. Uning qonuniy egasi bor. Butun badaniga lazzat baxsh etgan yosh yigitning shiddati yomon emas. Tarix muallim va Nurlanning onasi o'rtasidagi ahvol o'ziga ham buyurganiga ishonmasdi. "Ayol baxti degani shu ekan-da!" deb o'yladi. Kecha Nurlan xotirjam bo'lib, astoydil ishga kirishganida qo'shni xonada yotgan oyisi ovozini eshitmasin, deb ko'rpani qattiq tishlagan. Shunda ham zaifgina ingragan tovush jismini eritdi, tomirlarda qon rosa ko'pirdi. Endi bu quchoqda doimo qolishga xohishi yo'q emas.

Naqadar baxtli! Ko'ziga bir tomchi yosh keldi. Bir tomchi yosh. Xayoli buzildi. Bunga qo'shni xonadagi ahvol sabab bo'lgandi. Tarix muallim yana kelganmi? Tundagi holat kunduzi ham takrorlanyapti. Bu safar "bu ham odobdanmi?" deb ayblay olmadi. Bu ham bir baxtdir. Har bir kishining baxtli bo'lishga haqqi bor. Qiz yugurib to'shakning yoniga bordi. Oppoq ko'ylagi va tuflisini kiydi. Ayni shu damda uyga Nurlanning kelayotganini ko'rib qoldi.

Tezda oldidan chiqib, uni orqaga qaytarmoqchi bo'ldi. Tarix muallim va oyisi o'rtasida bo'layotgan holni Nurlan ko'rmasligi kerak. Tashqaridagi eshik ostonasidan hatlagan edi, qop-qorong'i

olamga duch keldi. Qabr azobini tortayotganlarni ko'rib, qo'rqib ketdi. Dahshatli chinqiriqlardan vahimaga tushdi. Tezda orqasiga qaytdi. Hozirgina ko'rgan dahshatli olamning eshigi lang ochilib, Nurlan kirib keldi. Eshik oldidagi sharpa-juvonni ko'rib, titroq bosdi. U: "Nurlan, ko'chaga chiqqin", deb aytishga ulgurmadi. Nurlan ichkarida bir narsa bo'layotganini tushundi. Oyoq kiyimini yechmoqchi bo'lib engashganida, katta erkak kishining tuflisi salomlashgandek unga termulib qarab turardi. O'ylashga fursat yo'q edi. Darrov onasining xonasiga yugurdi. Dastlab "onam osilib qolgandir" deb o'ylagan edi. Bu fikr qanday paydo bo'ldi? Bilmaydi. Oyisining xonasida kimningdir xushchaqchaq ovozi eshitilardi. Eshikni lang ochib yubordi. Yetti uxlab tushiga kirmaydigan holat. Tarix muallim va oyisi bir to'shakda yotibdi. Hayotda bundan ortiq xo'rlik bormi? Shartta orqaga burildi. Tashqariga qarab yugurdi. Oldidan sharpa-juvon chiqdi. Qayerdan olganligi noma'lum, qo'lida ip bor edi. Qop-qora ko'zidan duv-duv yosh oqardi. Nurlan ipni qo'liga oldi va og'ilxonaga yugurdi. Tarix muallim va oyisi kiyinib chiqquncha og'ildagi ustunga osilib ulgurgandi. Sharpa-juvon uni ajaldan omon olib qolishni istab bo'ynidagi ipni tortardi. "Bunday qilma" degan yalinchoq nigoh bilan ipni yechishga intilardi. Xuddi shu vaqtda Tarix muallim yetib keldi. Osilib turgan ipni pichoq bilan kesdi-da, shu yerda yurgan tovuqlardan birini ushladi, bo'g'ib o'ldirmoqchi bo'ldi. Tovuq qancha tipirchilasa ham, ajaldan omon qololmadi. Nurlan o'zini o'ylamadi, tovuqqa joni achidi. Ko'zlari tobora yumilib borardi. Nurlan uxlab borardi. Yoki uyg'oqmidi?..

* * *

Hayratlanarli bir olam. Ertaklar mamlakati. Cheksizlik. Qafasdagi joni erkinlikka chiqqan. Erkin. Tashvishsiz. G'am-alamsiz. Alomat. Ajoyib. Ajib. Qush kabi. Uchyapti. Qo'nishni istamaydi. Qo'nishni. Atrofi to'la kamalak. Yam-yashil olam. Chamanzor. Atrofdan iliqlik taraladi. Sharpa-juvon ikkisi qo'l ushlashib bulutlarning ustidan uchyapti. Uchib. O'lim unchalik qo'rqinchli narsa emas ekan. Pastga qaradi. Oyisi... Tarix muallim... Onasi zor yig'laydi. Tarix muallim o'lik jasadiga suv sepadi. Qo'rqinchli... O'tda qolgandek yuzi qorayib ketibdi. Hammasiga o'zi aybdor eka-

nini sezadi. Oyisini yupatishga holi yo'q. Bu tomonlarda esa xursandchilik. Kulgi. Abadiy tinchlik. Jonlari rohatlanib uchadi.

Bir olam va ikkinchi olam orasidagi masofa shunchalik yaqinmi? Juda yaqin. Lekin uzoq. Ko'kdan taralgan nur o'ziga ohangrabodek tortadi. O'sha tortilishning quchog'iga qarab uchib kelmoqda. Uchib. Begunoh ovul, oyisi, tarix muallim, sinfdoshlari, qo'shnilari tobora uzoqda qolib ketmoqda. Xayr deyishga imkon yo'q. Taqdirga tan berish mana shudir. Xuddi shunday bo'lishini avvaldanoq kutib yurgandek.

Birdan nurli yo'l ikkiga bo'lindi. Biri yerga, aniqroq aytganda, jonsiz tanaga, ikkinchisi ko'kka yo'l oldi. Bir juft qaldirg'ochdek ikkisining yo'li ikkiga bo'lindi. Nurlanni yerga, qizni osmonga olib uchdi. "Ketma", deb baqirdi. Yig'lądi. "Ketma. Meni ham olib ket. Men seni...". Davomini ayta olmadi. Yig'lab turib uyg'ondi. Oppoq xonada yotgan ekan. Yonida oyisi. Oq xalatli shifokor chiqib ketyapti. Oyisi nimalarnidir gapiryapti. Tushunib bo'lmaydi. Ovoz asta-sekin tiniqlasha boshladi.

— Jon bolam... u sening dadang bo'ladi. Dadang. Men senga o'n besh yil davomida aytolmagan sirim edi. Alen, Alen, ha, Tarix mualliming — sening dadang. Sening dadang... Men badbaxt...

Bundan keyingi so'zlar yana eshitilmay qoldi...

* * *

Sharpa-juvon yana ko'zguga qaradi. Ko'zi ma'noli boqardi. Nurlan osilib qolgan vaqtda tashqariga qanday qilib otilib chiqqanini o'yladi. O'ziga ishonmadi. Chinqirgan ovozga ham, beliga o'ralgan ilonga ham e'tibor bermadi. Lovullagan o'tni kechib, Nurlanning yoniga yetgan. Bo'ynidagi ipga yopishgan. Eh, buncha sho'rpeshona bo'lmasa. Yor quchog'ida faqat bir kun bo'laman deb hech qachon o'ylamagandi. Agar Nurlanni ajaldan olib qolmaganida, hozir yonida yurar edimi?

Nurlan yo'q. Besh xonali vahimali uyda faqat ugina bor. Bunday chiroy endi kimga kerak? Avvallari ukalarini, ota-onasini sog'inar edi. Endi Xudo qo'shgan yori ham ular safidan o'rin oldi. Nurlan, Nurlanim! Sog'inchning nima ekanini sog'ingan kishigina tushunadi. Oqinlarning ma'yuslikni ketkazuvchi bir qo'shig'ini

aytmoqchi bo'ldi. Lekin kayfiyati yo'q edi. "Qarg'ish tekkan uydan ko'chaman", deb Nurlanning onasi bisotini yig'ishtira boshlagan. Nurlan kasalxonada. Qancha yotishini Xudo biladi. Sharpa-juvonni izlaydimi, yo'qmi? Bu ham noma'lum. Buvisini o'yladi. U qayerda yurgan ekan? Mana shu xonadagi shifonerga o'zini osganida yonida edi. Keyin yo'q bo'ldi. U bo'lganida zerikmas edi. Hozir ashula o'rgatardi. Kuy chaldirar edi. Endi qo'shiq va kuydan ne foyda? Sharpa-juvon o'zining bilganlarini boshqalarga o'rgatmasa, uni o'rganishning ham zarurati yo'q. Busiz ham uyda ancha narsa shunchaki turibdi-ku. "Suratlarni tomosha qilib, ko'zga ko'rinib qolganim yaxshi bo'lmadimi?", deb o'yladi. Uyda ekanimni bildirmasam, ular ham ko'chib ketmasdi. Ukalarimni har kuni ko'rardim. Og'ir xo'rsindi. Egasiz qolgan dang'illama uy ham og'ir tin olgandek bo'ldi.

* * *

Sumba daryosi tinimsiz oqadi. Tinimsiz. Vaqt ham shunday. Zamon dengiziga oqimga ilinganlarning barini quyaveradi. Uning havzasi to'lmaydi, to'lib-toshmaydi. Simiraveradi, simiraveradi. Bo'lgan voqea. Hozirgi ko'zqarash bilan bo'lmagan bo'lishi ham ehtimol. Nurlan hech kimga "dardini" aytmaydi. Aytish niyati yo'q. Kasalxonadan sog'ayib chiqqach, oyisi biroz tabib, emchilarga olib bordi. Hammasi bir gapni takrorlaydi: "Muqaddas yerni oyoqosti qilgan". Bu qayer ekanini o'zi biladi. Alining gapiga kirib dahmaga salomlashib kirganlarida. Undagi ovozdan qo'rqib qochgan ediku. Qochib borayotib o'pirilgan qabrga oyog'ini tiqib olgan edi-ya. U faqat shu lahzani ko'z oldiga keltiradi. Undan keyingi vahimali kunlar boisi ham — o'sha yer. Hozir butunlay sog'aygan. Maktabni ham tugatdi. Almatida oliy o'quv yurtini tamomladi.

Oyisi dadasi bilan birga yashay boshladi. Endi u Tarix muallim emas. Dada. Lekin Nurlan uni tan olmadi. Ayni o'zining "ko'chirmasi" bo'lgan ukasiga qarab qalban iqror bo'ldi.

Vaqt to'xtovsiz olg'a intilaverdi. Besh xonali uyni ham, vahimali arvohni ham unuta boshladi. Lekin unutilmaydigan holatlar ham bo'lar ekan. Ba'zan o'ziga sig'may ketadi. Vahimali uyga kirib borishni istaydi. Sharpa-juvon bilan gaplashmoqchi bo'ladi. Lekin

jur'at qilmaydi. Busiz ham arang sog'ayganda sog' boshiga kasallik tilashning ne hojati bor? Vahimali uydan ko'chib ketganlariga to'qqiz oy bo'lganida Elovsiz chol haligi uyning eshigi oldidan chaqaloq topib olibdi. Big'illab yig'lab yotgan ekan. "Farzand ko'rmagan ayoli asrab olishga kelishibdi", dedi el. Keyinchalik birovlar aytishdi: "O'sha bolani Almatiga olib borib, bolalar uyiga o'tkazishibdi. Uydagi kichkintoy esa Elovsiz cholning nevarasi ekan. Almati tarafda yashaydigan ukasi katta nevarasini "bag'riga bossin" deb akasiga beribdi". Bu paytda Nurlan o'n birinchi sinfga ko'chgan edi.

Nurlan maktabni tugatgan kuni bolani borib ko'rmoqchi bo'ldi. Lekin yuragi dov bermadi.

U Almatiga batamom ketdi. Har yili mehnat ta'tilida bir martagina ovulga kelib ketadi.

Xalq mish-mish aytmasdan turolmaydi. Besh-olti yil o'tmasdan yana bir "gap" paydo bo'ldi: "Elovsiz cholning o'g'lida nishon bor ekan. Ya'ni orqasida qanoti bor. Uni kiyim bilan yashirib qo'yishar ekan. Bu bolada bir "gap" bor. Juda ziyrak. Hamma narsani biladi".

Buni eshitgach, Nurlan ahdidan butunlay qaytdi. Imkoni bo'lsa, bolani ko'rmaslikka azm qildi.

Shaharlik Nurlan ba'zan og'ir xo'rsinadi. Bahor kelganda boshqacha kayfiyatda bo'lardi har doim. Yerlar eriy boshlangandan beri ko'ngli alag'da bo'lib, o'zini qo'yarga joy topmayapti.

"Bir marta ovulga borib kelsam qandoq bo'larkin?"

Keldi. Qishloq bilan yuzlashdi. Dadasi... Oyisi... hammasining hayoti bir maromda davom etardi. Ukasi bir necha do'stlari bilan uyga kirdi. Bolalar bir-biriga qaramasdan qo'l berib salomlashmoqda. Iye, bir bola ayni ukasiga o'xshar ekan-ku! Yuragi dukillab urib ketdi. Qora ko'zli. Qayerda ko'rganman? Ha, vahimali uydagi oppoq ko'ylak kiygan farishtamisol suluvning ko'zi. Bolakaydan "kimning o'g'lisan?" deb so'ray olmadi. Unga ma'lum edi.

Ovulning bosh tomonidagi vahimali besh xonali uy tomonga yo'l oldi. Borsa... uy yo'q. Buzib tashlashibdi. Qanday yaxshi! Nurlanning bo'ynini ezib turgan og'ir yuk sirpanib pastga tushgandek bo'ldi. Lekin ichki dunyosi olov ichida qolgan. Oppoq ko'ylak,

oppoq qiz, oppoq orzu qayerda ekan? Belto‘g‘on tomonga qaradi. Bir to‘da bola yugurib ketyapti. Bolalarning orasida ukasi va o‘zining to‘ng‘ich farzandi ketib borayotganini fahmladi. Fahmladi-yu, orqasidan qo‘shilib yugurdi.

Oppoq ko‘ylak ko‘rinmaydi, lekin qora ko‘z bor, bolalarning orasida!

* * *

Bu yil ta’tilim bahor fasliga to‘g‘ri keldi. Ovulga bordim. Nurlan bir to‘p bolalar bilan o‘ynayotgan ekan. Bu menga erish tuyuldi. “Hey, Nurlan, qalaysan?” dedim baland ovozda. U meni birdan eslolmadi, shekilli. Qayerda ko‘rganman, degandek uzoq qarab turib qoldi. “Nurlan, tanimadingmi? Men Aliman”, dedim kulib. Nega tanimaydi? Yoshlikda birga o‘sgan jonajon do‘stim edi-ku! Arang esladi, menimcha. Biroz o‘ylanib turdi-da:

— Ali, sen oppoq ko‘ylakli farishtani ko‘rdingmi? — deb so‘radi.

— Albatta. Almatida shularning orasida yuribman-ku! — dedim o‘zimcha g‘urur bilan...

— Uni aytmayman. Haligi ovulning yuqori tomonidagi buzilgan uydagi. Bir vaqtlar biz ko‘chib borgan. Sening Quvvat do‘sting ko‘chib ketgan...

— O‘sha uyda farishta bormidi? — deyman men hech narsani tushunmasdan.

Nurlan qo‘lini bir silkidi va qiziqib o‘ynayotgan bolalarning o‘rtasiga qo‘shildi. Ular Nurlandan begonasiramadi.

Qo‘shni uyda yashovchi Elevsiz cholning o‘g‘liga qarab:

— Do‘stlaring mendan xafa bo‘lib qoldimi? — dedim.

— U telba-ku, — dedi burro-burro. — Tel-ba. Menga doim: “Sen oq ko‘ylakli farishtadan tug‘ilding, sening onang — Oygul”, deb aytaveradi, — dedi tumshug‘ini osiltirib.

Mening yuragim “shuv” etib ketdi.

Men o‘sha bir yilda, qo‘ylarning kelishini kutib o‘tirgan vaqtda Oygul opa haqidagi hikoyani o‘zim to‘qib aytgan edim...

MUNDARIJA

Asr manzaralari *(Alimurod Tojiyev)* 3

G'abiden Mustafin.
Tug'ilib o'sgan yerda. *Husan Ro'zimatov tarjimasi* 8
Bauirjon Momishuli. Biz urushlarda er yetildik.
Ma'mura Zohidova tarjimasi 13
Taken Alimqulov. Qorao'y. *Abdulla Rustamov tarjimasi* 22
Berdibek So'qpoqboyev. Xat. *Nosir Fozilov tarjimasi* 38
Abdijamil Nurpeyisov. Qarindoshlar. *Nosir Fozilov tarjimasi* 42
Sherxon Murtazo. Xadicha buvi. *Nosir Fozilov tarjimasi* 53
Saken Junisov. "Ehtiyot bo'l, foto". *Nosir Fozilov tarjimasi* 60
Zeynolla Sanik. Ayiq otganning hikoyasi.
Ma'mura Zohidova tarjimasi 66
Sayin Muratbekov. Hotamtoy. *Nosir Fozilov tarjimasi* 70
Maral Isqaqbay. Ko'ngildagi eski surat. *Umroy Karimova tarjimasi* ... 87
Qarauilbek Qaziyev. Oq bog'ich. *Ma'mura Zohidova tarjimasi* 113
Sobit Do'sanov. Mungli-mungli zorlab uchgan yolg'iz oqqush.
Nosir Fozilov tarjimasi 118
Muxtor Mag'avin. Ikkov. *Ulug'bek Asrorov tarjimasi* 139
Sofi Smatayev. Qo'shig'i shunday mungli edi!..
Abdulla Rustamov tarjimasi 152
Kadirbek Segizbayuli. O'shag'an isyoni.
Dolimjon Sayfullayev tarjimasi 167
To'lan Abdik. O'ng qo'l. *Abdulla Rustamov tarjimasi* 183
Dukenboy Do'sjon. Qimiz. *Muzaffar Ahmad tarjimasi* 204
Moldaxmet Qanaz. Yovshan hidli tezyurar poyezd.
Umroy Karimova tarjimasi 220
O'rolxon Bo'key. Opamning tog'orasi. *Bahodir Otash tarjimasi* 235
Marhabat Boyg'ut. Hokimning ayoli.
Mehmonqul Islomqulov tarjimasi 248
Tinimboy Nurmag'ambetov. Chinorgul.
Murod Abdullayev tarjimasi 258
Mag'ira Qo'jaxmetova. Qora mushuk.
Dolimjon Sayfullayev tarjimasi 269
Ersin Qo'ybag'aruli. Komilaning kuni. *Muzaffar Ahmad tarjimasi* ... 289

Rollan Seysenbayev. Erkak, ayol va bola.
Muzaffar Ahmad tarjimasi 304
Marat Qabanbay. Jigar. *Robiya Qamchibek qizi tarjimasi* 314
Turisbek Savketay. Yovterak (Muhabbat daraxti).
Dolimjon Sayfullayev tarjimasi 340
Nurdaulet Aqish. Bemavrid olov. *Oydin Abdumajitova tarjimasi* 356
Nag'ashibek Qapalbekuli. Qizil-chipor yo'lbars.
Muzaffar Ahmad tarjimasi 372
Serik Asilbekuli. Eh, Rossiya. *Abdurauf Abdug'affor tarjimasi* 392
Quanish Jienbay. Kichkina odamlar. *Bahodir Otash tarjimasi* 407
Raximjan Otarbayev. Bizning qishloq amazonkalari.
Sohiba G'aybulla qizi tarjimasi 420
Jultoy Jumat-Almashuli. Bandasining kuni.
Muzaffar Ahmad tarjimasi 429
Zarya Jumanova. Taqdirning "kutilmagan tuhfasi".
Muhabbat Niyozbekova tarjimasi 442
Nurg'ali Oraz. Bo'ronboy Baron — teskari daraxt.
Malika Nurmat qizi tarjimasi 459
Jusipbek Qo'rg'asbek. Million ari, million ilon va yana men.
Muzaffar Ahmad tarjimasi 472
Aygul Kemelbayeva. Yereymen va Aqinoy.
Munavvara Sobir tarjimasi 480
Duman Ramazan. G'ussa. *Dolimjon Sayfullayev tarjimasi* 489
Didar Amantay. Ovoz. *Ma'mura Zohidova tarjimasi* 509
Saken Sibanboy. Sen qanchalar shirinsan, hayot!
Sohiba G'aybulla qizi tarjimasi 512
Madina Omarova. Mening qahramon chevaram.
Dolimjon Sayfullayev tarjimasi 525
Qanag'at Abilqayir. Hammasini Basekem biladi.
Ma'mura Zohidova tarjimasi 530
Guljon Omongeldi qizi. Erta uzilgan qo'shiq.
Muzaffar Ahmad tarjimasi 536
Serik Sag'intay. Ov. *Soatoy Kamol qizi tarjimasi* 541
Bonu Davletboyeva. Birga qo'shiq kuyladik.
Muzaffar Ahmad tarjimasi 550
Beybit Sariboy. Oqibat. *Muzaffar Ahmad tarjimasi* 558
Qanat Abilqayir. Telba. *Dolimjon Sayfullayev tarjimasi* 573

Q 54 Qozoq zamonaviy nasri antologiyasi [Matn]: nasr / to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Tursinali Ahmedov. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 600 b.
ISBN 978-9943-8570-8-7

UO'K 821.512.122-3
KBK 83.3(5Qoz)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

QOZOQ ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI

81-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Dildora Matyoqubova*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 37,5. Nashriyot-hisob tabog'i 35,35.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 147-1/22 Buyurtma raqami № 22-364

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QOZOQ ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI